O'zDSMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI

"QO'G'IRCHOQ TEATRI SAN'ATI" KAFEDRASI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA TURIZM VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
TEATR SAN’ATI FAKULTETI
“QO‘G’IRCHOQ TEATRI SAN’ATI” KAFEDRASI

“QO‘G’IRCHOQ TEATRI SAN’ATI: YANGI DAVR VA TRANSFORMATSIYA” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO‘PLAMI

Toshkent-2023

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA TURIZM VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

TEATR SAN’ATI FAKULTETI
“QO‘G’IRCHOQ TEATRI SAN’ATI” KAFEDRASI

“QO‘G’IRCHOQ TEATRI SAN’ATI: YANGI DAVR VA TRANSFORMATSIYA” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO‘PLAMI

Toshkent-2023

MUNDARIJA

1	Ashurova Maryam	O‘zbekistonda ta’lim sifati-teatr ijodiy faoliyatini hal qiluvchi kuch	1
2	Yusupova Venera	Тенденции развития театра кукол в условиях Нового Узбекистана	7
3	Xodjayev Fatxulla	Insoniyat va qo‘g‘irchoq ibtidosi	13
4	Atabayev Davron	Yangi davrga yangi loyixalar bilan (Xorazm viloyati qo‘g‘irchoq teatri misolida)	17
5	Yusupov Shomurat	Qo‘g‘irchoq teatri rejissorligi yo’nalishi talabalarini o’qitishda yangi metodikalar qo’llash	23
6	Malikova Sevara Saidova Mohigul	Qo‘g‘irchoq teatri spektakllarida vokal san’atining o‘rni va ahamiyati	28
7	Rahimov Erkin	O‘lmas va bardavom an’analar	35
8	Abduxalilov A’zamjon	Ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi: muammo va yechimlar	39
9	Jumanova Dilrabo	Qo‘g‘irchoq teatri san’ati ta’limida hajviy g‘azallarning o‘rni	49
10	Dehqonov Ravshan	Qo‘g‘irchoq teatri sahnaviy ifodaviy vositalari yordamida asar obrazini yaratish	56
11	Umarxodjayeva Ma’mura	Qo‘g‘irchoq teatri sahnasida obrazlar yaratish	65
12	Mamatqulov Behzod	Qo‘g‘irchoq yasash texnologiyasining rivojlanish bosqichlari	72
13	Yusupov Shokir	An’anaviy qo‘g‘irchoq teatrida qo‘g‘irchoq ovozini shakllantirish mezonlari	83
14	Kurbanova Aziza	Zamonaviy texnologiyalar orqali qo‘g‘irchoqlarni yaratish texnologiyasi	88
15	Усманова Лола	Кукольная эстрада в мировой тенденции	94
16	Mamutov Paraxat	Qoraqalpog‘is-tonda qo‘g‘irchoq teatrining paydo bo‘lishi va rivojlanishi	103

17	Baxiyeva Biybinaz	Qoraqalpoq qo‘g‘irchoq teatri tarixiga bir nazar	108
18	Qurbonova Feruza	Qo‘g‘irchoq teatri-tarbiya maskani	113
19	Do‘sanov Rahimjon	Qo‘g‘irchoq teatri transformatsiya-sida “Bir aktyor teatri” teatri janrining o‘ziga xos talablari	117
20	Qurbonov Anvar	Qo‘g‘irchoq teatr kadrlari-kelajak poydevori (muammo va yechimlar)	122
21	Останина Ольга	Пластическое воспитание актёра театра кукол	127
22	Musinov Ulug‘bek	Xalqaro sahnalarda viloyat qo‘g‘irchoq teatrlarining ishtiroki (Qashqadaryo viloyat qo‘g‘irchoq teatri misolida)	133
23	Qulmurodov Oybek	Xorazm qo‘g‘irchoq teatrida aktyorlik mahorati masalalari	138
24	Jabbarova Karima	Qo‘g‘irchoq teatri san’atida zamonaviy tendensiyalar, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi	144
25	Riskiyeva Dilfuza	Alisher Navoiy asarlarini qo‘g‘irchoq teatr sahnasidagi talqini	151
26	Tojiboyeva Oltinoy	Professor Muhsin Qodirov ilmiy merosining qo‘g‘irchoq teatr san’atidagi ahamiyati	157
27	Utaganov Ravshan Madaminov Otabek	Birinchi teatr qo‘g‘irchoqlari	163
28	Umurzoqov Abbosjon	Qo‘g‘irchoq teatr sahnasida, sahnaviy obraz yaratishda qo‘g‘irchoq rassomi, qo‘g‘irchoq ustasi va aktyor hamkorligi	168
29	Jo‘raboyev Bexzod	Mumtoz miniatyura san’atida milliy urf -odatlar talqini	172
30	Jabborov Boburjon	Qo‘g‘irchoq teatri aktyorlarining sahna nutqi texnikasi	177
31	Ro‘zikulov Sanjar	Современный театр кукол	184
32	Жумаева Севиля	Развития искусства театра кукол, его этнография и роль в	193

		воспитании подрастающего поколения	
33	Asadova Munisaxon	Bolalarni ma’naviy kamol topishida zamonaviy qo‘g‘irchoq teatrlarining o‘rni	199
34	Rajabov Ruslan	"Qo‘girchoq teatr spektakllarida zamonaviy yondashuv"	204
35	Mamadiyorova Shodiya	Yosh rejissyor kadrlarni tarbiyalashda oliy ta’lim va teatrlarning o‘rni va ahamiyati	209
36	Sobirjonova Umida	Qo‘g‘irchoq teatri kecha va bugun	213
37	Toirov Alimardon	"Qo‘girchoq spektakllarning tug‘ilishida boshqarish mezonlarining o‘rni"	218
38	Mirzayev Farhod	Qo’g’irchoq teatri san’atini rivojlantirishda yangi ijodkorlarni kashf qilish masalasi. *(Rejissyorning ijodiy jamoasi)*	226
39	Turobova Malohat	Afsona va dostonlar zamonaviy o’zbek qo’g’irchoq teatrining ijodiy manbayi sifatida	229
40	Xudayberdiyev Saxobiddin	Kompyuterli multiplikatsiya texnologiyasi	236
41	Nazarov Fozil	O‘zbekistonda tarixiy filmlarni yaratishdagi dolzarb masalalar	240
42	Zufarov Zoir	Multfilmlarning tarbiyaviy ahamiyati va ularni yaratish dasturlari	247
43	Duschanova Asalgul	Tendensii izpolzovanii sovremennoy texnologii v multiplikasionnoy industrii	251
44	Muhammadiyev Sherzod	Aktyorlik mahorati texnikasining maqsadlari yoki to‘g‘ri tanlov-ijod muqaddimasi	255
45	Yarbekov Ernazar	Ijrochi va mikrofon	263
46	Subanova Dilafruz	The role of theatre in the development of spirituality of young learners	273
47	Magdiyev Bahodir	Yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda teatr san’atining	277

		o‘rni va ahamiyati	
48	Ortiqova Zahroxon	Folklor milliy liboslari va uning bugungi kundagi o‘rni	287
49	Safarov Og‘abek	Qashqadaryo viloyati “rizvongul” folklor- etnografik xalq havaskor jamoasi ijodiy faoliyatiga bir nazar	291
50	Abduraxmonov Ibrohim	XX asr O‘zbekiston tasviriy san’atida folklor mavzular ifodasi	301
51	Sharipov Azamat	O‘zbek musiqali dramalarida yosh qahramonlar obrazi talqini	311
52	Malikova Dilbar	Aktyor shakllanishida “vokal” fanining o‘rni xususida	318
53	Abduvohidov Faxriddin	Sharq mumtoz teatrining o‘zbek aktyorlik san’ati rivojidagi ahamiyati	325
54	Isoqova Matluba	Xorazm etnomadaniyati va teatr tomoshalarining paydo bo‘lishi	331
55	Rustamov Vahobjon	Mamlakatimizda o‘tkazilayotgan madaniy-ma’rifiy tadbirlarda tomosha san’ati namunalaridan foydalanish xususiyatlari	337
56	Maxmudov Mirali	Kutubxona teatrlari yosh avlodni o‘qishga jalb qilishning noan’anaviy shakli	342
57	Isxoqov Mirsoat	Kutubxona-axborot muasasalarida san’atga oid adabiyotlarni targ‘ib qilish	350
58	Xudoyberganova Muborak	O‘zbek san’ati rivojida xorazm raqs maktabining tutgan o‘rni	355
59	Samigova Gulandom	Kompyuter grafikasining oliy ta’lim muassasalari talabalarini san’at sohasida o‘qitishdagi o‘rni	366
60	Nosirov O‘ktam	Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda madaniyat va san’atning ijtimoiy vazifalari	371
61	Fayziyev To‘rabek	Madaniy muassasalarda menejer faoliyati	377

62	Asqarova Xurshida	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida madaniyat va ijodkorlik kompetensiya larini shakllantirishda qo‘g‘irchoq teatri tomoshalarining tarbiyaviy ahamiyati	383
63	Цай Ирина	Влияние межкультурной коммуникасии на библиотечную деятелност как откритой коммуникатив-ной системи	388
64	Васильченко Ольга	Значение музыки в развитии творческих способностей студентов в Вузе	395
65	Kozimova Zumriniso	Alisher Navoiy asarlarida qo‘g‘irchoqbozlik san’atiga oid terminlarning qo‘llanilishi	401

ЎЗБЕКИСТОНДА ТАЪЛИМ СИФАТИ-ТЕАТР ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ ҲАЛ ҚИЛУВЧИ КУЧ

Ашурова Марям Хамидовна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти

"Кўгирчок санъати кафедраси" профессори

Аннотация: *Мазкур мақолада таълим тизимини ислоҳ қилиш борасида қўгирчоқ театр мутахассисларни ҳар томонлама етук, юқори маданиятли ўз касбини моҳир устаси ва билимдони қилиб тарбиялаш борасидаги илғор усуллар . Профессионал давлат қўгирчоқ театрларниниг ижодий инновацион иш фаолиятидаги янги усулларни жорий қилиш. Ёш томошабинларни ҳар томонлама тарбиялашда қўгирчоқ театрларининг ўрни ва аҳамияти тўғрисида сўз боради.*

Калит сўзлар: *Театр, саҳна, пьеса, қўгирчоқ, режиссёр, актёр, рассом, саҳна нутқи, образ, спетакль, инноватция, санъат, профессионал.*

Аннотация: *В данной статъе в целях реформирования системы образования рассматриваются передовые методы подготовки театральных специалистов, чтобы они стали всесторонне развитыми, высококультурными мастерами своего дела и знающими. Внедрение новых методов в творческую и новаторскую работу профессиональных государственных театров. Рассказывается о роли и значении кукольных тетаров во всестороннем воспитании юных зрителей.*

Ключевие слова: *Театр, сцена, пьеса, кукла, режиссёр, актёр, художник, речь, образ, спектакль, иноватция, искусство, профессионал.*

Annatation*: In this article,the reform of the educational system is about the advanced methods of educating theater specialists as mature, highly cultured masters and experts in their profession. Introducing concrete methods in the creative and innovative work of professional state puppet theatres. The role and importance of the puppet theater in the comprehensive education of the young audience is discussed.*

Keywords: *theater, stage, performance, puppet, director, actor, artist, stage speech, image, innovation, art, professional.*

Мамлакатимизда таълим тизимини ҳар томонлама ислоҳ қилиш борасида кенг кўламли ишлар олиб борилмоқда. Бу йўналишдаги энг устивор омил, ҳар томонлама етук, юқори маданиятли ўз касбини моҳир устаси ва билимдони бўлган мутахассисларни тарбиялашдек ўта маъсулиятли иш бугунги кун талабидир. Давр талабига жавоб берадиган,

саньат ва маданият соҳасидаги мутахассисларни тарбиялаб, вояга етказиш, уларни юртимизда саньат ва маданият соҳасини ривожлантириш борасидаги ишлар олий саньат ўқув юртининг зиммасидадир. Бугунги кунда давлатимиз томонидан қўғирчоқ театр санъатига берилган этибор, бу санъатни равнақ топиши ва жахон қўғирчоқ театрлар орасида ўз нуфузига эга эканлигини таъмилаяти.

1974 йил “Қўғирчоқ театри санъати”кафедраси ташкил топган. Кафедра ташкил қилингандан буён кафедрани бошқарган истидодли профессор-ўқитувчилар Ўзбекистон республикасида хизмат кўрсатган артист, профессор В.С.Иогельсон, кафедра доцентлари М.Саидова ва Н.Крилова, Ўзбакистон републикасида хизмат ёшлар мураббийси, профессор М.Ашурова, Ўзбекистон республикасида хизмат кўрсатган маданият ходими, доцент Ш.Хайитбоев, Ўзбекистон республикасида хизмат кўрсатган артистлар Ш.Юсупов ва Ф.Хўжаевлар ҳамда доцентлар Д.Абдуллаев ва А.Абдухалиловлар. Ҳозирги кунда кафедрани бошқариб келаётган катта ўқитувчи Лола Усмоновадир. Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институтининг“Қўғирчоқ театр санъати” бўлимида таълим олаётган қўғирчоқ театр режиссёр ва актёрлар, қўғирчоқ ясаш технологлари, қўғирчоқ ишлаб чиқариш технологлари мутахассислик соҳалар бўйича ўз касбини тўлиқ профессионал даражада эгаллаши учун, институтда профессор-ўқитувчи кадирлар етарли билим беришга эгадирлар. Хозирги кунда кафедра профессор-ўқитувчилари респулика қўғирчоқ театрларида устоз шогирд анъаналарини узмаган ҳолда театр актёр ва режиссёрлари билан мунтазам равишда маҳорат дарсларини олиб борадилар. Шу билан биргаликда Республика қўғирчоқ театрларида спектакль саҳналаштиришади. Бу спектаклар Республика ва холқаро кўрик вестивал анжуманларида нуфузли ўринларни эгалаб келмоқдалар. Мисол учун кафедранинг дотсенти Ўзбекистонда хизмат курсатган артист Фатхулла Хўджаев Тожикистонинг Душанбе шахридаги Лўхтак театрда Д.Юлдашеванинг “Қувноқ томоша” Хўжанд театрида сахналаштирган

“Зумрад ав Қиммат” спектакли биринчи ўрини эгалаган. М.Ашурованинг Андижон вилоят театрида сахналаштирган “Шох Лайлак” спектакли Республика қўғирчоқ театрларининг ўн учиничи кўрик фестивалида иккинчи ўрини эгалади. (2022-й)

Бўлажак қўғирчок театр саньатининг мутахасислари ўз касбининг профессионал даражаси ва унинг моҳиятини чуқур ҳар томонлама назарий ҳамдда амалий жиҳатларини пуҳта ўрганиб ўзлаштиришади. Таълим-тарбиянинг яна энг муҳим томонларидан бири бўлажак мутаҳассислар касб фанлари билан бир қаторда турдош фанлар саҳна нутқи, қўшиқчилик, рақс, пластика, қиличбозлик, саҳна жанги ва бошқа фан сирларини ўзлаштиришади ҳамда ижодий ишларида бу мутахассисликларидан тўла фойдаланишади. Шу билан бир қаторда қўғирчлқ театр санъати кафедрасини профессор-ўқитувчилари биргина Республика қўғирчоқ театрларига мутахассис етиштирибгина қолмай, балки институт учун ҳам педагог кадрлар етиштиришади. Бу албатта бўлимида таълим олиб келаётган магистир ва мустақил тадқиқотчи мутаҳассисларидир. “Қўғирчоқ театри санъати бўлимида таълим олиб келаётган сиртқи бўлим режисёр ва актёр курс талабалари вилоят қўғир театрларининг ёш актёр ва режиссёр кадрлардан иборат. Бу йўналиш вакиллари келажакда қўғирчоқ театри учун профессионал мутахассислар сафини кенгайтириб боради. Шунингдек театрларнинг ижодий профессионал йўналишини белгилаб беради.

Ўзбекистон президенти Шавкат Мирзиёев томонидан болалар театри яъни қўғирчоқ театрларига жуда катта этибор қаратимоқди. Бунинг натижасида театрларимиз янги қурилган замонавий техник база билан жиҳозланган театр биноларга кўчиб ўтишди. Булар Андижон, Жиззах, Фаргона ва бошқа вилоят қўғирчоқ театрларидир. Келажакда юртимиздаги бошқа театрлар ҳам янги техник-база билан жиҳозланган биноларига эга бўлишади. Бу албатта нур - устига аьло нур. Ҳозирги кунда республикамизда 10 та профессионал давлат қўғирчоқ театрлари ёш томошабинларга хизмат қилиб келмоқда. Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг” 6000-қарори

асосида янги тўрта профессионал қўғирчоқ театрларининг ташкил этилиши”[1.] ва ҳозирги кунда уларнинг биносини қуриш ишлари бошланиб, якун топаётганлигини ғурур билан маълум қилсак арзийди. Булар Наманган шаҳри, Навоий шаҳри, Тошкент вилояти, Сирдарё шаҳридаги қўғирчоқ театрлар.

Бугунги кунда қўғирчоқ театрларнинг ижодий иш фаолиятининг мақсад ва вазифаларини амалга ошириб бориш жараёнида маънавий меросимиз, қадриятларимиз, анъаналаримизни давом эттириш учун янги давр талаблари асосида бойитиб шакиллантириб бориш ва ривожлантириш, бу соҳадаги илғор услубларни замонавий миллий руҳ билан уйғунлаштирган ҳолда театр санъатига тадбиқ этиб боришимиз жоисдир.

Шу билан бирга қўғирчоқ театрларининг ижодий потенциалини инобатга олган ҳолда спектаклни маҳорат билан жонлантиришини таъминлайдиган барча шу соҳа мутаҳассисларининг қўғирчоқ театрларда мавжудлиги ва уларнинг ўз вазифаларини юқори даражада олиб борилишини таъминловчи оминлар керак. Булар энг аввало драматург, режиссёр, актёр, бастакор, рассом-сценограф, ҳайкалтарош, қўғирчоқ устаси, меҳанизатор, бутафор, декорация ва чироқ усталари каби мутаҳассислар ҳисобланади. Шунингдек, саҳналаштириш жараёни зарур даражада моддий, молиявий ва техник таъминлашни бажарилиши ҳам театрнинг ижодий потенциалини белгилайди. Театр санъати ҳақида гап кетганда улуғ маърифатпарвар Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг “Театр бу ибратхонадур” деган фикрини тасдиғи, ҳар қандай ёшдаги томошабин театрда унга кўрсатилган томошадан ибрат олиши, яъни маънавий ахлоқий мукаммаллашиш мақсадида келади. Бу фикр айниқса ёш авлодга томошалар кўрсатувчи замонавий қўғирчоқ театрлари учун аҳамиятли.

Бугунги кунда замонавий қўғирчоқ театри тақдирини, ундаги ижод йўлини белгилаб берадиган маънавий йўлбошчи, ҳамда ташкилотчи бу театр режиссёридир. У театр ижодкорларини бир мақсад сари йўналтирувчи, театр билимдони, саҳна устаси бўлиши билан бир қаторда спектакль яратиш

жараёнида драматург, рассом-сценограф, бастакор, қўғирчоқлар ясаш устаси ва актёрлар билан ижодий ҳамкорликда яратувчанлик хусусиятига эга бўлганшахс ҳисобланади. Демак, режиссёр яхлид саҳна асарини, яъни спектаклни яратибгина қолмай, балки у санъат турларини турли йўналишларини билимдони бўлмоғи керак. Шу билан бирга у театр коллективининг бадиий ғоявий ишига раҳнамо раҳбардир. Немирович-Данченко режиссёрнинг учта хусусиятини келтириб шундай таъриф беради.“Режиссёр-ташвиқотчи, режиссёр-кўзгу, режиссёр-ташкилотчи,-”[2] деб айтган. Ҳозиги кунга келиб замонавий қўғирчоқ театр режиссёрларнинг мавқеи янада ошиб, бу касб эгаси барча санъат жамоаларининг ижодий ҳамда ғоявий раҳбари ҳисобланади. Бугунги кунда режиссёр-танлаш имконига эга, яъни ижодий груҳни шакиллатириб унга монанд репертур танлаш, режиссёр-педагог, психолог, ҳамда тушунтириб беручи, режиссёр-ижодий груҳнинг ғоявий-бадиий маҳоратини ошириб, эстетик дидини тарбиялаш ва уларни ҳамфикр жамоага айлантириш каби касбий хусиятларга эга бўлиши керак. Профиссионал театрда саҳна юзини кўрган спектакллар театр имкониятидан эмас, балки замон талабига жавоб бериб, томошабинларни маънавий, маърифий ҳамда ғоявий дунёқарашини шакллантиришга катта ҳисса қўшмоғи лозим.

Қўғирчоқ театрининг ижодий механизмини режиссёр билан биргаликда театр рассоми ҳам бошқаради. Чунки қўғирчоқ театрида рассом образ яратиш жараёни “магазин пештахтасида турган қўғирчоқ” эмас, балки рассом ва қўғирчоқ устаси томонидан яратилган професионал персанаж қўғирчоқ ҳисобланади. Профессор М.М.Королёв таъриф берганидек, бу яратилган қўғирчоқ “**тасвирий санъат асари театр қўғирчоғи”**[3] дир. Демак, санъат арбоби Немирович Данченконинг “театр саҳнасига гиламча ташлаб, иккита актёрнинг чиқишидан томоша бошланади”,-деган ибораси қўғирчоқ театрига тўғри келмас экан. Қўғирчоқ театр саҳнасида ўнта гилам ёзсангиз-у, битта рассом-ҳайкалторош ва қўғирчоқ устаси томонидан яратилган“**тасвирий санъат асари театр қўғирчоғи”** бўлмас экан, театр томошаси тўғрисида ҳеч қандай гап бўлиши мумкин эмас. Спектакль яратиш жараёнида бу икки

ижодкор асар ғоясидан келиб чиққан ҳолда саҳнада яхлит спектакль атмосферасини яратишга киришади. Рассом-сценограф томонидан ишланган декорация парда очилганда томошабинни спектакль кўришга тайёрлаб, уни асар муҳитига, замон, макон, ва вақт бирлигига олиб киради. Шунинг учун сценографларнинг ижоди асарни ғоясини кенг очиб беришга хизмат қилиши керак. **Сцегнограф-ўз ишини устаси бўлиши учун тасвирий санъатнинг турлари бўлган графика, мўйқалам, хайкалтарошлик, мухандис-конструктор, технолог, макет ва чироқ ёритгичлари саҳнада ишлаш механизмини ҳамда қўғирчоқ театрига хос бўлган, назарий ва амалий билимларни биргаликда ўзлаштириши даркор.** Рассом-сценограф барча касблар ичида энг мураккаби ҳисобланади. Уни конструктор-яратувчи ёки тадқиқотчи билан таққослаш мумкин. Унинг яратувчанлик хусусиятига кўра саҳнада юқори тоифали ишчига ҳам ўхшатилади. Чунки саҳнада спектакль декорацияси ва қўғирчоқлар учун керак бўлган ижодий устахонадаги ишларга рахбарлик қилиб, уларни ўз қўллари билан яратиш қобилиятига ҳам эга эканлиги ҳеч кимга сир эмас.

Спектакль моҳиятини очиш учун яратилган саҳна декорациялари ва безаклари асарнинг мавзусига асосланиб тайёрланади. Шу билан бир қаторда мусиқа, шовқинлар, чироқ нурлари ва театр саҳнасига хизмат қиладиган қўшимча воситалар режиссёр ва драматургнинг ғоявий ечимини белгилаб беради. Уларнинг ижодий ҳамкорлигида яратган саҳна асари театрнинг бугуни ва эртасини белгилаб берувчи, замон талаби, болалар психологияси, уларни бугунги кунда қизиқтирган жумбоқлар ва уларнинг ечимини ўз спектаклларида усталик билан кўрсата олиш хусусиятига эга бўлмоғи даркор. Спектакллар театрнинг модий имкониятидан келиб чиққан ҳолда эмас, балки, бугунги кун талабидан келиб чиқиб, профессионал даражада амалга оширилиши керак. Замонавий спектаклларнинг яратилишида ижодий гурух; драматург, режиссёр, актёр, рассом-сценограф, ҳайкалтарош, қўғирчоқ устаси, механизатор, бастакор, чироқ ва саҳна усталаридан катта масъулият ва маҳорат талаб қилинади. Замонавий қўғирчоқ театрларида саҳналаштирилган спектакллар

юқори даражада бўлиб, профессионал санъат асарига айланиши ҳамда саҳнада ўз мавқеини узоқ вақт ушлаб қолиши лозим. Демак, бунинг учун замонавий қўғирчоқ теарларда фақат ва фақат профессионал мутахассисларнинг бўлиши шарт ва зарур.

Бу мавзуда бутун ҳаётини санъатга боғишлаган истидодли актёр ва режиссёр К.С.Станиславский "Болалар учун саҳналаштирилган спектакллар катталарникига қараганда кучлироқ ва яхшироқ бўлиши керак"[4],-деб такидлаган. Биз шу соҳа вакиллари бу фикрга амал қилишимиз лозим. Ҳар доим онгли ва тўғри ижод ҳақиқатни яратади. Ҳиндостонлик давлат арбоби айтганидек "Дунёда тинчлик ўртатмоқчи бўлсангиз, аввалимбор ишни болалар тарбиясидан бошлашимиз керак"[5],-деб такидлаган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. ПФ-6000-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26майдаги ПФ-6000-сон Фармони.
2. Королёв М.М. Искуство театра кукол. Режиссёр театр куколь. Санг-Петербург. 2015
3. К. Станиславский. Актёрнинг ўз устида ишлаши. Тошкент "Янги аср авлоди" 2011
4. Ж. Маҳмудов, Ҳ. Мамудова Режиссура асослари. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2008 йил
5. ВЛ.И.Немирович-Данченко. Рождение театра.Москва изд."Правда"1990 год

Тенденции развития театра кукол в условиях Нового Узбекистана.

Юсупова Венера Исметовна
доцент кафедры
«Искусство театра кукол»
Государственного института
искусств и культуры Узбекистана
venera.yusupova059@gmail.com

Аннотация: Данная статья посвящена тенденциям развития театра кукол в условиях Нового Узбекистана.

Ключевые слова: гуманизм, Возрождение, искусство театра кукол.

Annotatsiya: Ushbu maqola yangi O'zbekiston sharoitida qo'g'irchoq teatrining rivojlanish tendensiyalariga bag'ishlangan.
Kalit so'zlar: insoniylik, Uyg'onish, qo'g'irchoq teatri san'ati.
Annotation: This article is devoted to the trends in the development of the puppet theater in the conditions of the New Uzbekistan.
Key words: humanism, Renaissance, the art of puppet theater.

Для того, чтобы полноценно осветить картину развития искусства театра кукол в современном Узбекистане, надо хорошо понимать какие процессы происходят сейчас в стране. Искусство и культура узбекского народа имеют долгую историю, которая насчитывает много веков. Современная культурная жизнь Узбекистана динамична и разнообразна. Указ Президента Шавката Мирзиёева "О мерах по дальнейшему повышению роли и значения сферы культуры и искусства в жизни общества" и постановление "О мерах по совершенствованию деятельности Министерства культуры Республики Узбекистан" от 26 мая 2020 года свидетельствуют о том, что в сфере культуры и искусства в прямом смысле началась эпоха Возрождения. Большое значение имеют: переименование Республиканского кукольного театра (основанного в 1928 году Тошпулатом Дониёровым на базе первой в Средней Азии кукольной театральной труппы) в Узбекский национальный театр кукол и создание новых кукольных театров в областных центрах. «Неповторимое, уникальное научно-духовное наследие наших великих предков должно стать постоянной программой действий для нас. Мы должны держаться за это бессмертное достояние, черпать в нем силы и вдохновение… В настоящее время в нашей стране происходит еще один важный процесс возрождения. Поэтому выражения „Новый Узбекистан“, „Третий Ренессанс“ гармонично перекликаются с нашей жизнью и вдохновляют наш народ на великие цели»[1]. Труды таких великих предков, как Мухаммад аль-Хорезми, Ахмад Фергани, Абу Райхан Беруни, Абу Наср Фараби, Фирдоуси, Авиценна, Махмуд аль-Кашгари, Юсуф Баласагуни, Ахмад Югнаки, Абу Бакр Рази, Имам Бухари, Хаким

Термизи, Бурханиддин Маргинани, Абу Мансур Матуриди и многих других, творивших в Первый период Восточного Ренессанса (IX-XII век), несомненно, обогатили сокровищницу человеческого мышления. Великий государственный деятель Амир Темур собрал в Самарканде поэтов, ученых, писателей, архитекторов, художников и ремесленников из разных стран мира. Это было время Второго периода Возрождения, связанного с именами Улугбека, Джами, Навои, Бехзода и Хондамира. «Их открытия по сей день служат предметом гордости отечественной культуры, играют важную роль не только в духовном развитии нашего региона, но и истории мировой цивилизации» [2].

Искусство кукольников очень древнее - в разных странах возникали свои, ставшие затем традиционными, виды кукол и типы представлений. Театр кукол, как и другие виды народных зрелищных искусств, имел свою специфику, свои художественные особенности. В трудах историков и поэтов прошлого немало сведений об узбекском народном театре кукол. Они служат сравнительным материалом или художественным образом для наиболее действенного и эмоционального утверждения определенных историко-социальных, философско-эстетических, поэтико-художественных идей. Вспомним рубаи великого мастера литературы Омара Хайяма (1040-1123гг):

«Мы- послушные куклы в руках у творца
Это сказано мною не ради словца.
Нас по сцене всевышний на ниточках водит
И пихает в сундук, доведя до конца».

В эпоху Алишера Навои театр кукол был одним из самых распространенных искусств среди народа. Театр – искусство особенное, говорящее о красоте человеческих отношений. Оно может существовать только в определённом времени и пространстве. Театр должен всегда удивлять зрителя неожиданностью художественного решения, своей, всегда новой, искренностью, своим особенным «условным» языком. Театр –

искусство, которое невидимое «духовное» делает явным. Хочется привести в пример высказывание о театре кукол одного из крупных ученых, мыслителя Средней Азии и Хорасана XV века, современника Алишера Навои, Хусейна Воиза Кошифи(1440-1505): «Весёлая забава с играми является серьёзностью для душ, стремящихся открыть божественные тайны» [3].

Образование и воспитание в эпоху Возрождения, как в Европе, так и в странах Азии, превратились в объективную потребность общества и стали важнейшей предпосылкой его развития. Театр кукол всегда основывался на устном народном творчестве и импровизации. Театр кукол изначально не являлся театром для детей, хотя представления этого театра в наши дни смотрят преимущественно дети. Современный кукольный театр, как и столетия назад, сосредоточен на кукле. К сожалению, наше столь бурное время тяготеет к малым формам. Но все же, многие мастера сцены обращаются к драгоценным текстам древних эпических произведений. За последние годы на разных сценах театров кукол Узбекистана осуществлялись постановки эпических произведений. «Томирис», «Подвиг Ширака», «Сказание об Алпомыше», «Жалолиддин Мангуберды». Спектакли Ш. Юсупова (Заслуженного артиста Узбекистана, главного режиссера Узбекского национального театра кукол) - нетолько об исторических событиях и легендарных личностях, но и о, таких вечных нравственных понятиях, как, любовь к родине и самопожертвование, верность и предательство, готовность к подвигу и малодушие, зависть и широта души, подлость и благородство, преступление и возмездие. Современный театр кукол становится великолепной площадкой, где старинные эпические сказания приобретают современные формы и смыслы.

5-8 сентября 2020 года в Ташкенте прошел традиционный XII Фестиваль театров кукол, посвященный 29-летию независимости Республики Узбекистан. В связи с ситуацией с пандемией коронавируса фестиваль впервые был организован в онлайн формате. Однако в фестивале

с большим энтузиазмом приняли участие все театры кукол Узбекистана с лучшими спектаклями, и борьба за призовые места была напряженной. Юные зрители знакомились с работами, представленными на фестивале, через социальные сети. Творческие дискуссии организовывались посредством видеоконференций между организаторами, командами-участницами и жюри. Работы, присланные участниками, оценивались на основе голосов, собранных в социальных сетях, и окончательного мнения жюри. Надо отметить, что многие кукольные театры чаще стали обращаться к классике. К примеру, Сурхандарьинский областной театр кукол осуществил постановку по мотивам произведений Абдуллы Кадыри. Кашкадарьинский областной театр кукол показал спектакль «Язык птиц» по поэме Алишера Навои. И надо отметить постановку «Жеребенок» Ферганского областного театра, сотканного из прекрасных звуков, форм и цвета. Благодаря мастерству постановщика С.М. Седухина, этот спектакль принес новое современное звучание и видение искусства театра кукол в культуру Узбекистана. В последние годы проводится масштабная работа по глубокому изучению уникального, многогранного творческого наследия Алишера Навои, широкой популяризации произведений поэта в нашей стране и за рубежом и увековечению его памяти. Так, в рамках постановления Президента Республики Узбекистан о широком праздновании 580-летия со дня рождения Алишера Навои (от 19.10.2020 г. № ПП-4865) в ноябре-декабре 2021 года проводился театральный фестиваль, посвященный произведениям великого поэта. И театры кукол не остались в стороне. На сцене Узбекского национального театра кукол был показан новый спектакль «Бахром и Дилором» по мотивам поэмы «Смятение праведных» (драматургия Т. Мирзо, художник В. Апухтин). Музыка молодого композитора М. Тиоры придала спектаклю современное оригинальное решение. Хореография (О. Останина) явилась связующим звеном между действием кукол и меняющейся декорацией. Постановка Ш. Юсупова (Заслуженного артиста Узбекистана, главного режиссера

Узбекского национального театра кукол) по сути стала новым шагом, новой эстетической реальностью в развитии искусства театра кукол Узбекистана. В целях повышения профессионального мастерства в марте 2022 года на базе Узбекского национального театра кукол проводилась лаборатория молодых режиссеров. Начинающие свой творческий путь на сценах областных театров режиссеры, в течение двух недель интенсивно работали над разработками новых режиссерских планов, эскизами кукол и декораций, сценической речью, пластикой. Знакомились с образцами мирового искусства. Такое тесное творческое общение друг с другом, с опытными мастерами, специалистами в различных областях искусства, дало хороший импульс для развития театров кукол в областях, где, к сожалению, пока еще существует недостаток профессиональных кадров.

Таким образом, тенденции развития современного театра кукол определяются обращением к великой литературе, сближению времен, далекого прошлого и настоящего, появлением на сцене элементов символизма, адаптацией трагических и жестоких событий прошлого для детской психики, привнесение в известную фабулу новых образов, помогающих раскрытию человеческих личностных качеств героев, поиском новых современных форм и пространства.

Список используемой литературы:

[1] - Шавкат Мирзиёев. 17 августа 2021«Янги Ўзбекистон» 17.08.2021.

[2] - Сабина Алимова. «Правда Востока». Новая эпоха возрождения как культурный прецедент мирового масштаба. 30 декабря 2020.

[3] - Э.Р. Юзликаева, С.А. Мадьярова, Э.Э. Янбарисрва, И.В.Морхова. «Теория и практика общей педагогики». Гл. 23. Нравственно-образовательные взгляды А.Джами, А.Навои, Дж.Давани, Х.ВаизКошифи. http://shag.com.ua/e.

Insoniyat va qo‘g‘irchoq teatri ibtidosi

O‘zDSMI
“Qo‘g‘irchoq teatri san’ati”
kafedrasi dotsenti v.b. F.Xodjayev

Annatatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda jamiyatimiz hayotidagi o‘zgarishlar, yangiliklarga to‘xtalib o‘tiladi. Qo‘g‘irchoq teatrining jamiyatimiz hayotida tutgan o‘rni, ahamiyati haqida so‘z boradi. O‘zbek qo‘g‘irchoq teatrining uzoq o‘tmishga ega ekanligi bayon etiladi. Shuningdek jahon xalqlari tarixida qo‘g‘irchoq teatr san’ati qanday paydo bo‘lganligi haqidagi fikrlar asoslar orqali yoritiladi. Qo‘g‘irchoq teatrining tarixda bevosita diniy an’analar bilan uyg‘unlikda rivojlanganligi ta’kidlab o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *jamiyat, tashabbus, o‘zbek, teatr, tomoshabin, rassomlik, qo‘g‘irchoq, din, an’ana, xristian, payg‘ambar.*

Аннатация: *Эта статя освешает сегодняшние события в нашем обшестве. Обсуждается рол куколного театра в жизни обшества. Узбекский театр кукол имеет давнюю историй. Также идея о том, как искусство куколного театра развилас в истории народов мира. Отмечается, что театр кукол развивалься в гармонии с религиозними традициями истории.*

Ключевые слова: *общество, инициатива, узбек, театр, зрители, живопись, кукла, религия, традиция, христианин, пророк.*

Annotation: *This article highlights today's developments in our society. The role of puppet theater in the life of our society is emphasized. The Uzbek puppet theater has a long history. Also, the idea of how puppet theater art has developed in the history of the people of the world. It is noted that the puppet theater developed in harmony with religious traditions in history.*

Keywords: *society, initiative, uzbek, theatre, spectators, painting, doll, religion, tradition, christian, prophet.*

Teatr sohasi haqida gap ketganda qo‘g‘irchoq teatr san’ati jajji kichkintoy bolajonlarning murg‘ak qalblariga dastlabki ezgulik urug‘ini kurtak yozishida asosiy o‘rinda turishi bilan ajralib turadi.Bu yangi o‘zgarishlar biz qo‘g‘irchoq teatri rejissyor va aktyorlarining oldiga zamonga mos tarzda, yangiliklar bilan hamohanglikda ijod qilishimiz zarurligini talab etadi.

Chunki bola tarbiyasida dastlabki qadamlar g‘oyatda ahamiyatlidir. Teatr tomoshalarining yuzakiligi, ijroning professional tarzda maromiga yetmaganligi tomoshabinlarning ma’naviy dunyosi shakllanishida ijobiy ta’sir o‘tkazishidan ko‘ra aks natija ko‘rsatishi mumkindir.

Ijod ahli birinchi navbatda o‘z faoliyatini olib borayotgan sohasining tarixi, o‘tmishi qadr qimmatini yaxshi anglasagina o‘z faoliyatiga nisbatan ma’suliyati oshadi va yuqorida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaydi deb o‘ylayman.

Shunga ko‘ra qo‘g‘irchoq teatri ham o‘zining uzoq o‘tmishga ega ekanligi, bu teatr san’ati kecha yoki bugun paydo bo‘lmagani tarix chizgilarida bot-bot ko‘zga tashlanadi.

Insoniyat yaratilibdiki, har doim o‘zininig bu foniy dunyodagi o‘rnini anglash uchun juda ko‘plab ishlarni amalga oshirgan. Masalan tabiatdagi har-xil hodisalarni o‘rganishga harakat qilgan. Qadimda odamlar yog‘ochlardan, toshlardan but va sanamlar yasab ularga sig‘inib ibodat qilganlar. Qizig‘i shundaki bu yasalgan va sig‘inilgan haykallarning aksariyati timsolida inson qiyofasi yotadi. Ular inson qo‘li bilan yaratilgan birinchi “qo‘g‘irchoqlar” edi.

O‘zbek qo‘g‘irchoq teatri tarixi ham mana shunday uzoq o‘tmish bilan bog‘langan. Bu haqda taniqli teatrshunoslar Muhsin Qodirov hamda Sarvinoz Qodirovalar o‘zlarining Qo‘g‘irchoq teatri tarixi kitobida shunday fiklarni ilgari suradilar: “O‘zbek qo‘g‘irchoq teatrining vujudga kelishini olib qaraganimizda, bunda ikki manba muhim va hal qiluvchi rol bajarganini ko‘ramiz. Birinchi manba O‘zbekiston hududida yashagan qadimgi, animistik e’tiqodiga tayanuvchi xalqlarning marhumni eslash marosimidir, deb hisoblanadi. Mazkur marosimga ko‘ra o‘lgan kishining eng yaqin odami uniig niqobini yasab kiyadi va marhum

harakatlari, nutqi, muomalalarini tiklashga urinadi. Niqob ba'zan boshga kiyilmasdan, qo'lda ushlanganicha harakatlantirilgan. Bunday paytda "ijrochi" ham marhum, ham o'z "rolini" bajargan va o'ziga xos dialog hosil qilgan. Ushbu marosim o'zbek qo'g'irchoq teatrining paydo bo'lishi uchun zamin tayyorlagan [1]". Bu qarashlar, qolaversa tarixdagi ko'pgina ma'lumotlar o'zbek qo'g'irchoq san'ati uzoq o'tmishda paydo bo'lib rivojlanib kelganini anglatadi.

Shuningdek boshqa millatlar tarixida ham qo'g'irchoq teatr sanyati g'oyat ahamiyat kasb etganini va rivojlanganini ko'rishimiz mumkin. Hindixitoy millatlari hayotida ham qo'g'irchoqlar muhim rol o'ynagan Indoneziyaning Yava orollaridagi Vayang Purvo nomidagi qo'g'irchoq turi orqali qo'g'irchoqning Soya teatriga xos an'analar juda keng rivojlangan. Qo'g'irchoqlarni yasashda asosan hayvon terisidan foydalanilgan. Har xil hayvon terisidan yasalgan bu soya teatri qo'g'irchoqlari tomosha uchun mo'ljallangan bo'lsa ham ushbu tur bilan shug'ullangan odamlar qadimda aynan o'lgan odamlarning ruxlari mana shu soya qo'g'irchoqlariga ko'chib o'tadi degan g'oyani o'ylab topib qo'g'irchoqlarni juda ham qadrlashgan.

Yevropada yashagan nasroniylik diniga e'tiqod qiluvchi dindorlar esa o'zlari sig'inadigan sanamlar timsolini mexanik harakat qiluvchi qo'g'irchoqlar orqali gavdalantirib oddiy xalqni qo'rquvda ushlab turganlar va natijada bora-bora bu dinga e'tiqod qiluvchilar soni ortib borgan.

Xristian diniga e'tiqod qiluvchi millatlar hayoti tarixida ham qo'g'irchoq teatri uzoq o'tmishga borib taqaladi. Bu xalqlar hayotiga ham qo'g'irchoq teatri san'ati kirib kelishi diniy marosimlar orqali yuzaga kelgan. YA'ni xristian dinining payg'ambari sanalmish Iso payg'ambarning hayoti va o'limi bilan bog'liq voqealar diniy marosimlarda qo'g'irchoqlar orqali hikoya qilingan. Bu qo'g'irchoqlar hatto ma'lum nomlanishga ega bo'lgan. Jumladan beloruslar – "batlayka", polyaklar – "shopka", rus va ukrainlar esa "vertep" deya nomlashgan. Bu qo'g'irchoqlarning yasalishi yuqorida aytib o'tganimizdek bevosita voqelikka

[1] Qarang: Qodirov M., Qodirova S. Qo'g'irchoq teatri tarixi. "Talqin" nash., T., 2006-y. 17-b

asoslangan qo‘g‘irchoq teatrining din bilan uzviy bog‘liq holda rivojlangan davri bo‘ldi.

Xristianlar o‘z marosimlarida Iso payg‘ambar haqidagi voqealarni gavdalantirish uchun katta hajmdagi uch bo‘limga ajratilgan javon shaklidagi dekoratsiyadan foydalanishgan. Ushbu dekoratsiyalarning har bir bo‘limida 3 voqelik asoslangan diniy qo‘g‘irchoq tomoshasi ko‘rsatilgan. Demak birinchi qismda Iso payg‘ambarning tug‘ilishi bilan bog‘liq voqealar, ikkinchi qismida hayot faoliyati haqidagi voqealar, uchinchi bo‘limida esa Iso payg‘ambarni xochga osishga buyurgan shox Irod haqidagi voqealar bayon etilgan. Qo‘g‘irchoqlar asosan kichik hajmda yasalib, javonning osti teshilgan holda, shu teshikdan chiqarilib harakatga keltirilgan. Qo‘g‘irchoq teatri shu tarzda bu xalqlar hayotida muhim ahamiyatga bo‘lib, o‘rta asrlardan to XX asrgacha rivojlanib keldi, keyinchalik esa zamonaviy ko‘rinishda rivojlanishda davom etdi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak qo‘g‘irchoq teatri, teatr san’ati rivojining ibtidosidir. U bugun yoki kecha paydo bo‘lgan san’at emas. Ahamiyati ham shunga ko‘ra g‘oyatda qadrlidir. Bugungi avlod ham, shu soha bilan professional darajada faoliyat olib borayotgan soha vakillari ham albatta tarixni chuqur o‘rganishlari lozimdir. Ba’zi kishilar nazarida bu san’at turi sodda va oddiy sanalsada lekin bu soha o‘zining mustaqil san’at turi sifatida, hatto ayrim san’at turlarining rivojlanishida katta o‘rin egallaganligi bilan jamiyatimiz rivojida katta ahamiyatga egadir. Bu ma’lumotlar faqatgina qo‘g‘irchoq teatri san’atiningtarixan tutgan muhim o‘rni haqidadir. Uning jamiyatimiz kelajagi va rivojidagi ahamiyati yesa undanda salmog‘i kengdir. Lekin birinchi galda tarixni chuqur anglash bugunga bo‘lgan hurmatning tomir yozishida birlamchi qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ашурова М.Х. Актёр создатель кукольного сценического образа. – Ташкент: 1995.
2. Ashurova M.X. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Innovatsiya –Ziyo, 2021. – 210 bet.
3. Belinskiy V.G. Tanlangan asarlar. – Toshkent: O‘zdavnashr, 1955. – 143 b.
4. Королев М. Исскуство театра кукол. – Л., Исскуство, 1973. – С. 112.
5. Qodirov M. O‘zbek xalq og‘zaki dramasi. – Toshkent: Fan, 1963. – 124-131 bb.
6. Qodirov M.X. O‘zbek xalq tomosha san’ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1981. – 59-b
7. Qodirov M. Tomosha san’ati o‘tmishidan lavhalar. – Toshkent: Fan 1993, – 35-37 bb.
8. Qodirov M., Qodirova S. Qo‘g‘irchoq teatri tarixi. – Toshkent: Talqin, 2006. – 208 b.

Ўзбекистон Республикасида хизмат
кўрсатган маданият ходими,
Хоразм вилояти қўғирчоқ театри директори

Янги даврга янги лойихалар билан
(Хоразм вилояти қўғирчоқ театри мисолида)

Аннотация

Маърузада қўғирчоқ театри санъатида миллийлик асослари, шунингдек, таълим ва амалиёт уйғунлиги, хорижий театрлар билан ўзаро хамкорлик ҳамда янги лойихаларнинг ахамияти тўғрисида сўз боради.

Калит сўзлар: *Янги давр, театр, таълим, миллийлик, лойиха, хамкорлик.*

Аннотация

В лекции говорится об основах народности в искусстве театра кукол, а также о гармонии обучения и практики, сотрудничестве с зарубежными театрами, значение новых кукольных театров.

Ключевые слова: Новая эра, театр, образование, национальность, проект, сотрудничество.

Abstract

The lecture talks about the foundations of nationality in the art of puppet theater, as well as the harmony of education and practice, cooperation with foreign theaters, and the importance of new projects.

Keywords: New era, theater, education, nationality, project, cooperation.

Мамлакатимизда кейинги йилларда театр санъатига катта эътибор қаратилмоқда. Театрларнинг ривожи учун катта имкониятлар яратилган. Уларнинг моддий техник ҳолатлари тубдан яхшиланмоқда. Янги бинолар барпо этилмоқда. Шунингдек, таъмирталаблари қайта таъмирланмоқда. Моддий ва маънавий қўллаб - қувватланмоқда. Айниқса Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил 2-февралдаги “Маданият ва санъат сохасини янада ривожлантиришга доир қўшимча чора – тадбирлар тўғрисида ”ги ПҚ-112 сон қарори жуда катта имкониятлар эшигини очди. Бундай шароитда театр жамоасининг янада янги қувват ва шижоати янги Ўзбекистонга ҳос тафаккур ва салоҳияти ила илмий-амалий фаолиятда ўзбек театр санъатини нафақат мамлакатимизда балки жаҳон бўйлаб тарғибот қилиш, амалиёт ва илм уйғунлашуви туфайли эзгу ғояларни амалга ошириш имконини беради.

Қўғирчоқ театри санъатининг инсон камолотидаги ўрни вақт синовидан ўтган хақиқат, шундай экан, бу сохада янги давр бошланаётганда манфаатли лойихалар, ғоялар билан чиқиш ва айни пайтда миллийликни сақлаб қолишни замоннинг ўзи талаб қилади. Кузатишларимиз орқали кўзланган мақсадларга фақат илм билангина эришиш мумкинлигини янада теранроқ англаб етмоқдамиз.

Ҳурматли Президентимиз ҳар бир соҳанинг ривожи илмда эканлигига эътибор қаратган ҳолда Мактабгача таълим, ўрта мактаб, олий таълим ҳатто корхона ташкилот, муассасаларда илм ўрганиш, илм билан иш юритишни кўрсатиб, талаб қилиб келмоқдаларки бу ҳақиқат янги Ўзбекистонимизнинг барпо этилишида асосий “Калит”дир. Дарҳақиқат жаҳон цивилизациясига муносиб ҳиссаларини қўшган мутаффаккир алломаларимиздан Абдуҳолиқ Ғиждувоний айтганидек, “Илм қидиришдан бир қадам ҳам узоқлашма”, - шунингдек Нажмиддин Кубро таъкидлаганидек “Кўрдимки энг яхши дўст илм экан” каби ҳикматлари бунёдкор ўзбек халқининг дастуриламали бўлмоғи лозим.

Профессионал театр шаклланиши учун олий таълим билан қамраб олиш ишлари тизимли йўлга қўйилиши мақсадга мувофиқ бўлади. Иқтидор эгалари бўлмиш ёшларни шунингдек катта тажрибага эга ходимларнинг тажрибаларидан унумли фойдаланиш учун уларга олий таълим олиш учун имкон яратиб бериш зарурияти пайдо бўлган эди. Айни вақтида яратилган имкониятлардан кенг фойдаланган холда Ўзбекистон Давлат Санъат ва маданият институти билан кейинги 2, 3 йиллик қисқа муддатда Хоразм вилояти қўғирчоқ театрининг 18 нафар ходими ўз касбий йўналишлари бўйича сиртқи бўлимларга талабаликка қабул қилинди. Бу олий таълим ва амалиёт уйғунлигида кўплаб самараларни бериши айни хақиқатдир. Чунки хар қандай фаолиятнинг асосида илм ётса, ўша соҳа фақатгина юксалади.

Театр санъатида хорижий тажриба, ўзаро манфаатли хамкорлик алоҳида ўрин тутади. Хоразм вилояти қўғирчоқ театрининг мисолида Германия, Англия, Шотландия, Озарбойжон, Россия, Туркия давлатлари билан ижодий алоқалар, айниқса Германиянинг “Хамелеон ” театри билан кўп йиллик хамкорлик хамиша ўз мевасини берган. Ўзбекистонга илк бор “Сехрли нур” жанри ҳам театрнинг кўп йиллик ижодий хамкори Юрген Цахманн билан икки томонлама хайрли ташаббус туфайли Хоразм вилояти қўғирчоқ театри орқали кириб келди. Хорижий давлатларга ижодий гастроллар давомида милллийлик орқалигина чет эллик томошабинни қойил

қолдириш мумкин. Жумладан, Туркия Республикасига сафар давомида фестивал қатнашчилари қўғирчоқ усталаримизнинг “Хива лазгиси” спектаклидаги ижролардан ғоят хайратландилар, миллий қадриятларимиздан бахраманд бўлдилар.

Жорий йил сентябр ойида театримизга Японияда ташриф буюрган бир гурух тадқиқотчилар ўзбек қўғирчоқ санъатининг қадим ўзаклари хусусида қимматли маълумотларга эга бўлишди. Ўз навбатида уларнинг соҳа ривожидаги ютуқларида Сўғдиёна худудидаги кўхна санъат мухитининг роли хақидаги эътирофлари хам эътиборга моликдир. Уларнинг фикрича япон қўғирчоқ санъатининг пайдо бўлиши, шаклланишида Ўзбекистоннинг ўрни хақида эътирофлари бизни ғоят хурсанд қилди. Анъаналар, урф – одатлар акс этган театр томошалари мамлакатимизни чет элларда тараннум этади, шунингдек бу қизиқиш орқали Ўзбекистонни кўриш, ўлка билан яқиндан танишиш истагини пайдо қилади.

Давлатимиз раҳбарининг Хоразм вилоятига сафарларида туризм мавзуси, туризм орқали мамлакатимизни дунёга танитиш мақсади алохида ўрин тутади. Мамлакатимиз, жумладан Хива шахри туристик салохиятини оширишда, тобора кўпроқ сайёхларни жалб қилишда миллий рухдаги театр томошалари қўл келади. Хусусан Хива хонлиги сиёсий ва маъмурий бошқаруви, ўша даврдаги ижтимоий мухит тўғрисида атрофлича маълумот берувчи тарихий “58-Хон” майдон томошаси, қадим хунармандчилик намунаси сифатида тасаввур пайдо қиладиган, халқ оғзаки ижоди намуналарини қўғирчоқлар ижросида ифода қилувчи “Қўғирчоқлар араваси” каби театрлаштирилган майдон томошалари ўз ихлосмандларини топган. Булар миллийликка асосланган сахна асарларимизга бўлган эътироф ва эътибор намунасидир. Хоразм қўғирчоқбозларининг томошаларини кўриб ошуфта бўлган сайёхлар таклифи асосида театр жамоаси бир неча чет эл сафарларида бўлиш имкониятига эга бўлди. Театр жамоаси 13та Республика доирасидаги, 4та Халқаро миқёсдаги фестиваллар, жумладан 2011-йил Озарбайжоннинг Боқу шахрида, 2015-йил Шотландиянинг

Эдинбург шахрида, 2021-йил Россиянинг Кострома шахрида, 2022-йил Туркиянинг Истанбул шахрида спектакллар намойиш этиб, халқаро сахналарда хам дунёни қойил қолдиришга муваффақ бўлди. Қолаверса ўзига хос янгилик сифатида Англиянинг “Орзу Артс” театри билан хамкорликда Хоразм вилояти қўғирчоқ театрининг Лондон ахли учун онлаин спектакл намойиш этганини кўрсатиш мумкин. Томошаларимиздаги харакат, воқеа, мусиқа ва рақс уйғунлиги санъатимизнинг ўзига хос жихати бўлиб, шу орқали барча миллатларни қойил қолдирмоқдамиз десак муболаға бўлмайди. Биз хеч кимдан кам эмасмиз, буни ватанпарварлик туйғулари билан тўлиб тошган жўшқин ижод билан исбот этишимиз лозим.

Янги лойихалар бўйича, Президентимизнинг 5 мухим ташаббуслари асосида МТТларда болажонларимиз онгига қадриятларимиз ва миллий куйларимиз, халқ оғзаги ижод намуналарини сингдириш мақсадида Хоразм вилояти қўғирчоқ театри ХВМТТБ билан хамкорликни йўлга қўйди. Махсус кун тартиби ишлаб чиқилиб, қўшимча равишда болажонларнинг маънавий тарбиясида инновацион услублардан фойдаланиш мақсадида “Қўғирчоқлар бурчаги” лойихаси тақдимоти ўтказилди. Бу орқали болажонлар қўғирчоқларни ўз қўллари билан чизиш ва ясаш, спектаклларда хатто мустақил равишда рол ижро этиш имкониятига эга бўлишди. Ишларни тўғри ташкил қилиш учун театр режиссёрлари, рассомлари, қўғирчоқ усталари жалб қилинди. Бундан ташқари Хива шахридаги № 12-сон МТТда “Бўғирсоқ” спектакли тажриба тарзида саҳналаштирилиб, 7та ўғил қиз саҳна асарида бевосита қатнашди. Кейинчалик 180та тарбияланувчилар навбат билан спектаклда ўзларининг актёрлик имкониятларини синаб кўришга муваффақ бўлишади. Ушбу тажриба тарбиячилар ва ота-оналарнинг хайрату- олқишларига сазавор бўлди. Миллий мусиқани тинглай билиш маданияти, бадиий сўз, нутқ, фикрлаш бўйича муаммоларни ечимини инновацион ёндашув асосида топиш мақсадида тарбиячилар учун семенарлар, тренинглар ўтказиш мақсадга мувофиқ деб топилиб лойихага 12-15 кишилик малакали гурухни жалб этиш ҳам киритилди. Миллий

рухдаги куй қўшиқларни тинглаган, миллий қўғирчоқлар билан амалда ошно бўлган болалар келажакда қадриятларимизга хурмат ва ватанга мухаббат билан камол топишади. Ушбу тажрибани хам амалда ўз самарасини бериб, оммалашувига ишончимиз комил. (дастур илова қилинади.)

Театрда том маънода янгилик деса арзигулик “Эртаклар шахрига саёхат”, “Театр хонадонингизда”, “Бобожонлар ва бувижонлар сизлар учун” лойихаларидир “Эртаклар шахрига саёхат” лойихаси бўйича вилоятлар ва вилоятдаги туман, шахарлардан болажонлар махсус автобусларда Хива шахрига саёхат уюштиришади. Бунда йўл харакати хавфсизлиги ушбу сохага масъул ходимлар томонидан таъминланади. Шунингдек, болажонларга сафар давомида транспорт воситасининг ўзида енгил егулик тақдим этилиб, Хива шахри тарихи ўтмиши ва бугуни хақида маълумот берилади. Шахарга етиб келишгач болажонлар бевосита тарихий обидалар билан танишиш, ўз қўзлари билан кўриш бахтига мушарраф бўлишади. Ушбу сафар таассуротлари видеотасмаларга мухрланиб, хар бир болага эсдалик учун бир нусхадан берилади**.** “Театр хонадонингизда ” ва “Бобожонлар ва бувижонлар сизлар учун” лойихасида ахолининг яхши кунлари ва тадбирларида театр ижодий ходимлари миллий эртак қахрамонлари қиёфасида маданий кўнгилочар хизмат кўрсатишиб уларнинг кайфиятларини кўтаришади. Бундан асосий муддао шуки, театр билан яқиндан таниш бўлмаган ахоли қатламини театрга жалб этиш мақсад қилинган. Шунингдек, ўзбекона қадриятларимизга урғу берилади, қолаверса театрга қўшимча даромад ишлаб топиш орқали ходимлар манфаатдорлигини ошириш, театр махсус хисоби маблағлариникўпайтириш ва моддий техник базани яхшилаш ҳам кўзда тутилган. Хайрлимақсадларнинг заминида, туб негизида ўзбек заминида азал азалдан мавжуд бўлган миллий маданий меросдан мақсадли фойдаланиш, уни ижодий фаолиятга тўғри йўналтира билиш ётади.

Қўғирчоқ театри санъатида янги давр – бу кенг имкониятлар давридир. Унга муносиб муносабатда бўлиш учун таълим, ижод, илм хамкорлигини тўғри йўлга қўйишимиз, бу билан Учинчи Ренессанс пойдеворини қуришда санъат ва маданият сохасини ролини кўрсата билишимиз керак.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. ***Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.МИРЗИЁЕВ фармон ва қарорлари***
2. ***Хоразм вилояти қўғирчоқ театри 25 йил, "Дурдона" нашриёти 2019й***
3. ***Театр улуғлар мактабидир, Маданият газетаси № 5 (192) 3.02.2022***

ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРИ РЕЖЕССЁРЛИГИ ЙЎНАЛИШИ ТАЛАБАЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ЯНГИ МЕТОДИКАЛАР ҚЎЛЛАШ

Ўзбекистон Давлат санъат ва маданият институти доценти, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган артист Шомурод Юсупов

Аннотация

Ушбу мақолада, Ўзбекистон Давлат санъат ва маданият институти, қўғирчоқ театри режессёрлиги йўналиши талабаларининг ўқитишда янги методикалар қўллаш, мутахассислик дарсларини аудиториялардан ташқари қўғирчоқ театрлари биносига кўчириш, талабаларни катта саҳнадаги жонли

репитицияларда қатнашиши учун шароит яратиш масалаларини қамраб олади.

Калит сўз: мастер-класс, репетиция, режиссёр, рассом, бутафория.

Аннотация

В данной статье Государственный институт искусств и культуры Узбекистана освещает вопросы использования новых методик в обучении студентов направления кукольного театра, переноса профильных классов в здание кукольных театров вне зрительных залов, создания условий для участия студентов на живых репетициях на большой сцене.

Ключевые слова: мастер-класс, репетиция, режиссер, художник, бутафория.

Annotation

In this article, the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan highlights the issues of using new methods in teaching students of the puppet theater direction, transferring specialized classes to the building of puppet theaters outside the auditoriums, creating conditions for students to participate in live rehearsals on the big stage.

Key words: master-class, rehearsal, director, painter, props.

Ҳукуматимиз томонидан театр санъатини ривожлантириш тўғрисида бир қанча қарорлар қабул қилинмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Маданият ва санъат соҳасининг жамият ҳаётидаги ўрни ва таъсирини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги

ПФ-6000- сони 2020 йил 26 майдаги Фармони ҳамда Ўзбекситон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2018-2022 йилларда давлат театрларининг моддий техника базасини мустаҳкамлаш ва уларнинг фаолиятини ривожлантириш чора- тадбирлари дастури тўғрисида”ги Қарори ва бошқа меъёрий ҳуқуқий ҳужжатларларда бу борадаги фаолиятни ривожлантиришнинг асосий нормалари белгилаб берилган. Хусусан олий таълим тизимида ҳам улкан ўзгаришлар амалга оширилиб келмоқда. Ушбу Фармон ва Қарорлар ижросининг бошланғич нуқтаси албатта мутахассислик бўйича кадр тайёрловчи олий даргоҳлар хисобланади. Шу сабабли хам талабаларга сифатли таълим бериш, мутахассислик сиру асрорларини мукаммал ўргатиш муҳим ҳисобланади. Ўзбекистон Давлат санъат ва маданият институти, қўғирчоқ театри режессёрлиги йўналишининг 1босқичдан то 4 босқичгача бўлган талабаларининг ўқитишда янги методикалар қўллаш, мутахассислик дарсларини аудиториялардан ташқари қўғирчоқ театрлари биносига кўчириш, талабаларни катта саҳнадаги жонли репетицияларда қатнашиши учун шароит яратиш катта мактаб бўлишини такидлаш жоиз. Қўғирчоқ театрларидаги сифатли, халқчил спектакллар яралишида биринчи навбатда етук драматургик асар, малакали режиссёр, рассом ва актёрлар жамоаси, қўғирчоқ ва бутафория усталарининг бир ғоя асосида бирдам мехнат қилишлари мухимдир. Ёш режиссёрларга касбий фаолиятнинг сир асрорлари ўргатилар экан ижодий жамоанинг хар бир аъзосига асар бош ғоясини тушунтириш, бир асар устида хамжихатликда мехнат қила олиш қобилятлари ўргатилиши лозим. Бундай мастер класслар нафақат институт талабаларига балки вилоят театрларида фаолият олиб бораётган ёш режессёрларга хам ўтилиши лозимдир.

Қўғирчоқ театри режиссёри биринчи навбатда сифатли асар танлаш маҳоратига ўрганиши зарур. Драматургия доим биринчи ўринда туради, сабаби драматургик композицияси кучли асар билан ишлашда режиссёр ғояларини амалга оширишда рассом, актёр, умуман бутун ижодий жамоа ишида самардорлик, режиссёр тандемига ҳамкорлик рухи ўйғониб натижада

сифатли спектакл юзага келади. Бугунги кунда ёшларни театрга махаллий томошабинларни йиғиш, қизиқтириш ўлчовида эмас, Жаҳон талабларида асарлар яратиб санъатимизни бутун дунёга танитиш нуқтаи назари билан тарбиялаш лозим. Театрларда ўтказиладиган кўчма дарслар мана шу фикримизни тасдиқлайди, сабаби талаба театр атмосфераси билан тарбияланиши, асарлар саҳналаштирилишида қатнашиши мазкур натижани олиб келадиган метод хисобланади. Бундан ташқари талабалар ушбу кўчма дарсларда қўғирчоқ ясаш устахоналаридаги ишлаб чиқаришларни, декаратор рассомнинг эскизлар билан ишлаш жараёнини, актёрлар репетицияларида тўғридан тўғри қатнаша олиш амалиётлари уларда керакли маҳоратларни эгаллашга ёрдам беради. Ижодий атмосфера яралишига олиб келади. Бундай ёндошув фақат талаба ёшлар учун эмас балки, вилоят қўғирчоқ театрларида ўз фаолиятини олиб бораётган ёш режиссёрлар учун хам жуда кераклидир. Шу муносабат билан 15 – 30 март кунлари Республикамиздаги вилоят қўғирчоқ театрларида фаолият юритаётган ёш режиссёрларнинг маҳорат дарслари Ўзбек Миллий қўғирчоқ театрида ташкиллаштирилди. Ушбу ижодий лабараторияда қўғирчоқ театрининг етук мутахассислари, ўқитувчи ва ижодкорлари ёш режиссёрларга мастер-класслар ўтказилди. Унда “Асар танлаш жараёни, мавзуси ва ғоявий асослари”, “Танланган асарларнинг режиссёрлик тахлили ва талқини”, “Режиссёрлик эксплитациянинг таркибий қисмлари” мавзусида ёш режиссёрларга маҳорат дарслари олиб борилди.

Мазкур методда дарс жараёнларини ўтказиш талабаларнинг касбига бўлган муносабати янада ўзгариб, соха ривожида садоқатли хизмат қилишга олиб келади. Шу сабабли институт билан театрнинг мазкур мулоқоти жуда хам мухим хисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Образцов С. Моя профессия.М., Искусство.1950 г.

2. Икромов Ҳ. Қўғирчоқ театри режиссураси: изланишлар ва муаммолар //Театр.2004/1//.22-б.
3. Абдумаликова З. Қўғирчоқ театри драматургияси.//Театр.2013/4.//23-б
4. Соломоник И.Н. Традиционный театр кукол востока: основные виды театра объемных кукол. М., 1992.
5. Соломник И.Н. Куклы выходят на сцену. М., «Просвешение», 1993.
Федотов А.Я. Секреты театра кукол. – М.: Искусство, 1963.

O‘zDSMI “Vokal” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Sevar Samatovna Malikova

O‘zbek Milliy Qo‘g‘irchoq teatri, Vokal repetitori Mohigul Saidova

Qo‘g‘irchoq teatri spektakllarida vokal san’atining o‘rni va ahamiyati

Annotatsiya: Maqolada O‘zbek Milliy Qo‘g‘irchoq teatri artistlarining kuylash uquv-mahoratlarini o‘stirish, yangi spektakllarga qo‘shiq tayyorlash va yni yozib olish jarayonining o‘ziga xos hususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: milliy, qo‘g‘irchoq, teatr, artist, spektakl, muallif, rejissor, rassom, bastakor, qo‘g‘irchoq aktyorlari, vokal, sahna nutqi, sahna harakati, repetitor.

Севар Саматовна Маликова кандидат педагогических наук,

доцент кафедры «Вокал» ГИИКУз

Репетитор вокала Узбекского национального театра кукол

Саидова Мохигул

Роль и место вокального искусства а также его значение в спектаклях театра кукол

Аннотация: В статье анализируется процесс разучивания и подготовки особенностей разучивания и записи песен к новым спектаклям, а также совершенствование вокально-певческих навыков на уроках пения артистов Узбекского национального театра кукол.

Ключевые слова: национальное, куклы, театр, артист, спектакль, автор, режиссер, художник, композитор, актеры кукол, вокал, сценическая речь, сценическое движение, репетитор.

Associate Professor of the "Vocal" Department of UzDSMI, candidate of pedagogic sciences Sevar Samatovna Malikova
Uzbek National Puppet Theater Vocal tutor Saidova Mohigul

The role and place of vocal art, as well as its significance in the performances of the puppet theater

Abstract: The article analyzes the specific process of learning and preparing the features of recording songs for new performances, as well as improving vocal and singing in the singing lessons skills of artists of the Uzbek National Puppet Theater.

Keywords: national, puppets, theater, artists, performance, author, director, composer, puppet actors, vocals, stage speech, stage movement, tutor.

Teatr xalqning ma’naviy ko‘zgusidir. Teatr tomoshabinni fikrlashga, go‘zallik olamiga olib kirib uni idrok etishga, yaxshilik va adolat uchun intilib yashash kerakligini o‘rgatuvchi maskandir. O‘zbek Milliy Qo‘g‘irchoq teatri ozining boy va mazmunli tarixiga ega. 1939 yil Toshkent shahrida davlat qarori bilan o‘zbek va rus truppalari asosida yagona – respublikada qo‘g‘irchoq teatri tashkil etildi. Unda mashxur san'atkorlar Po'latjon Doniyorov, Zulayho Isxoqova, Elena Podgurskayalar faol ishtirok etishgan. Teatr o‘z faoliyatini ikkinchi jahon

urushi davrida boshladi va urushdan keyingi yillarda teatr jamoasi jahon mumtoz asarlariga shu bilan birga o'z milliy sahna dramaturgiyasini yaratish yo'lida tinmay ish olib bordi.

Har bir teatr spektakli o‘zining murakkab shakliga ega. Boshqa teatrdan farqli o‘laroq qo‘g‘irchoq teatri birmuncha murakkabroq bo‘lib, sahnada ikki ijodkor aktyor va qo‘g‘irchoq mehnati aks etadi. Qo‘g‘irchoq teatrida ijro qilinuvchi spektakllar hamisha o‘zida katta masshtabdagi voqeliklar, umuminsoniy, falsafiy g‘oyalarni mujassam etishga intilgan. O‘zining tabiatiga ko‘ra jozibali bo‘lish bilan bir qatorda chaqqonligi, safarbarligi, joy, vaqt, makon tanlamasligi, doimo tomoshabinga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniyat sohasini yanada rivojlantirish yo‘lidagi e’tibori natijasida 2020-yil 26-may sanasidagi PF-6000-son “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qaroriga binoan Respublika qo‘g‘irchoq teatriga O‘zbek Milliy Qo‘g‘irchoq teatri maqomi berildi. Shuning barobarida jamoaga o‘z o‘rnida yuksak e’tirof bilditildi hamda sohaga doir birmuncha maqsad-vazifalar teatr zimmasiga yuklatildi. Qo‘g‘irchoq teatri hayotida yangi davr boshlandi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Qo‘g‘irchoq teatri tomoshabinlari aksariyat yosh bolalar bo‘lganligi uchun ham jamoa o‘zining faoliyatiga yanada katta e’tibor qaratadi. Qo‘g‘irchoq teatri spektakllari muvafaqqiyatli chiqishi uchun ijodiy jamoa ya’ni muallif, rejissor, rassom, bastakor, qo‘g‘irchoq aktyorlari vokal, sahna nutqi va harakati pedagoglarining o‘rni muhim ahamiyatga ega.

Qo‘g‘irchoq teatri repertuariga nazar solsangiz unda minglab o‘zbek va xorij dramaturglari asarlari o‘rin olgan. Jamoa bir qancha jahon mumtoz asarlariga murojaat qilishi bilan birga o‘zbek milliy sahna dramaturgiyasini yaratish yo‘lida tinimsiz faoliyat olib bormoqda. Xususan rejissorlardan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Shomurod Yusupov, Dinara Yuldasheva, Evilina Aripova, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlarlar Munisa Egamnazarova, Fathulla

Ho‘jayev, Karima Jabborova, aktyorlardan Alisher Mirzag‘iyasov, Shermat Jabborov, Shaxzoda Ishmuhamedova, rassomlardan Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori Mo‘tabar Ro‘zmetova, S.Seduxin, bastakorlardan O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi Alisher Ikromov, A.Kimlar samarali va qizg‘in faoliyat yuritmoqdalar. Bundan tashqari Orif Abdubayev , Sayyora Vahobova, Otabek Isakov, Mariyana Kuleshova, Yura Tiora, Lola Azimova, Saidmurod Jo'rayevlar teatr faoliyati uchun o'z san'ati va iqtidori bilan xizmat qilishmoqda.

So‘ngi yillarda nafaqat bolalar uchun, katta yoshdagi tomoshabinlar uchun ham asarlar namoyish etilmoqda. Rejissor Sh.Yusupovning “Yurt tumori To‘maris”, “Bahrom va Dilorom”, D.Yuldoshevaning “Yana Andersen”, “Qarsildoq”, “Ox bu hoja Nasriddin”, F.Ho‘jayevning “Cho‘p qo‘g‘irchoq” spektakllari shular jumlasidandir. Bugungi kunga kelib yangi prem'era spektakllardan Sh Yusupovning “Bahrom va Dilorom”, D. Yuldashevaning “Laylakcha va qo‘riqchi”, E. Aripovaning “Ur to‘qmoq” asarlari tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olinmoqda.

O‘zbek milliy qo‘g‘irchoq teatri aktyorlari faoliyatining samaradorligini yanada oshirish maqsadida soha mutahassislari tomonidan qo‘shimcha sahna nutqi, sahna harakati, vokal mashg‘ulotlari olib boriladi. Aktyorlarning sahnadagi ijrosini yanada boyitib berishi, qahramonining ichki kechinmalarini namoyon etishi uning musiqiy qobiliyatiga ham bog‘liq. Aktyorda musiqani tinglash, soz va ovozlar jarangini birini boshqasidan farqlay bilish qobiliyati bo‘lmasa, u hech qachon qo‘shiq kuylay olmaydi. Vokal va musiqiy salohiyatini yanada rivojlantirish aktyorlar qobiliyati, musiqiy bilimlari va imkoniyatlari, individual xususiyatlarini tog‘ri nazorat qilish maqsadida mashg‘ulotlar yakka yoki jamoaviy (xor, duet, trio, kvartet) tartibda o‘tkaziladi. Shuni ta’kidlash joizki, inson ovoz apparati noyob musiqiy asbobdir. Vokal mashg‘ulotlari har bir aktyorning ana shunday alohida nozik ovoz imkoniyatlarini muntazam ravishda rivojlantirish uchun yaqindan yordam beradi.

Ovozni to‘g‘ri shakllantirish uchun, vokal darsida odatda har bir aktyor bilan alohida shug‘ullanib maqsad va vazifalar qo‘yilgan holda, ular ustida ishlanadi. Ovoz mashqlari jarayonida mushak texnikasi, tog‘ri nafas olish, tovushni to‘g‘ti yonaltirish postanovkasi, og‘izni to‘g‘ri ochish, artikulyatsiya, diktsiya va esnash kabi belgilarga alohida etibor berilib, artistning qobiliyatlari rivojlantiriladi. Individual amalga oshiriluvchi ushbu vazifalar umumiy mahoratning bir qismidir. Vokal diksiyasi, solfedjio, artikulyatsiya mashqlari vokal mashg‘ulotlarinig turli bosqichlarini o‘zlashtirishga imkon beradi. Ilk mashg‘ulotlar nafas postanovkasiga asoslangan bo‘lib, aktyorlarning to‘g‘ri nafas olishini nazorat qilishdan iborat. Doimiy mashg‘ulotlar joriy spektakl uchun yozilgan musiqa va qo‘shiqlarni samarali ijro etishga yordam beradi. Dastlab qog‘irchoq harakteri, jinsi, tashqi ko‘rinishiga qarab alohida ovoz ohangi topiladi va tomoshabinga badiiy uslubda yetkaziladi.

Qo‘g‘irchoq teatri aktyorlari sahnada bir vaqtning o‘zida ham aktyorlik mahoratini ham vokal imkoniyatlarini to‘g‘ri qo‘llay olishlari lozim. Shirma ortida qo‘g‘irchoq bilan harakatlanib bir vaqtning o‘zida tog‘ri kuylash va obrazda ijro etish birmuncha murakkab bo‘lib, faqatgina qo‘g‘irchoq aktyorlariga hos mahsus harakat, chidamlilikni talab etadi. Mashg‘ulotlar davomida ovozga shikast yetkazmay uni rolga, turli obrazlarga mos tarzda o‘zgartirishlar ustida ham ishlanadi.

Har bir yangi asar ustida ish olib borilar ekan, avvalo kompozitor aktyorning ovoz tembri va diapazonidan kelib chiqib unga musiqa yozadi. Vokal pedagogining vazifasi esa, ana shu asarni aktyor bilan to‘g‘ri tahlil qilib, obrazdan kelib chiqqan holda ovozdagi oltin o‘rtalikni topib qo‘shiqni o‘rgatishdir. Qo‘shiqdagi ohanglar go‘zal va tomoshabinga tushunarli bo‘lishi uchun muallif bilan ham hamkorlikda ish olib boriladi. Masalan, qo‘shiq matni sodda, ravon bo‘lsa, tomoshabinga tusharli bo‘ladi. Imkon qadar halqchil so‘zlardan foydalanilgan, unli tovushlardan “o, a” harflari qatnashgan bolishi, so‘z ohiridagi

harflar portlovchi harflar(p, q, r, s)dan borat bo‘lmasligiga alohida e’tibor qaratiladi.

Bundan tashqari aktyorning eshitish qobiliyatini muntazam rivojlantirish maqsadida jamoaviy darslar ham olib borila di. Aktyorlar duet, trio, kvartet va ansambl bo‘lib hamohang kuylashlari, bir-birlarini eshitib garmoniyaga erishishlari lozim. Bunda asosan klassik asarlardan foydalanib ular ustida muntazam ishlanadi. Har bir aktyor spektakl oldidan ovozi to‘g ‘ri, soz ishlashi uchun albatta ovoz sozlash mashqlari (raspevka)ni bajarishi kerak.

Hozirgi kunda teatr repertuarida 100 ga yaqin ishchi repertuarlar mavjud. Har oy avvalida teatr rasmiy saytida joriy oy repertuari rejasi e'lon qilinadi. Teatr repetuaridagi deyarli barcha spektakllar tarkibida qo‘shiqlar mavjud[2]. Deyarli hamma, aytaylik, 99 foiz spektakllarda qo‘shiq kuylanadi. Har bir spektaklda o‘rtacha 5-8 ta qoshiqlar ijro qilinadi. Vokal mashg‘uloti boshqa darslar kabi har bir aktyor uchun haftada 1 marta, ko‘ngillilar uchun undan ko‘proq o‘tiladi. Dars davomiyligi minimum yarim soatdan 40 daqiqagacha davom etadi. Darsxonada hamma sharoitlar bor bo‘lib, audiopleyer, kalonka, pianino, cholg‘u sozlar, oyna va boshqa dars jarayonida qo‘llaniladigan kerakli texnikalar mavjud.

Kompozitor yangi asardagi qo‘shiqlarni tayyor minusovkasini beradi. Ularni o‘rgatish davomida aktyor ovoziga moslashish zarur bo‘lsa minusovka qayta transponirovat qilinadi, yani, yarim-bir tonga ovoz ko‘tarib yoki tushirib qayta yoziladi.Yangi spektakllar uchun ovoz, yani qo‘shiq audio tasmaga yoziladi va u arxivda muhrlanadi. Qo‘shiqlarni original varianti kompozitor va arxivda saqlanadi. Arxivdagi materiallar ruxsatnoma bilan olinadi. Agar, spektakldagi aktyor o‘zgarsa, qo‘shiq qaytadan ijrochi tomonidan qayta yoziladi. Dialogda boshqa, qoshiqda esa boshqa ovoz bolmasligi uchun, mazkur ro‘lni oynaydigan aktyor qahramon qoshig‘ini ham o‘zi kuylashi kerak. Ba’zan yaxshi aktyorda ham

[2] Ba’zi spektakllar tarkibida qo‘shiqlar mavjud emas. Bu 100 dan 1 foizigagina tegishli.

ovoz imkoniyatlar cheklangan bo‘lib, yning ijrosidagi qo‘shiqni ovoz operatori “randalaydi”, tozalab boyitadi.

Ish jarayonida, ovoz yozish, zapis vaqtida ba’zi qiyinchiliklarga duch kelamiz masalan, mashg‘ulotda aktyor talablarga javob berib qoshiqni soz, ravon va erkin kuylaydi, lekin ovoz yozish jarayonida kerakli darajada hayajondan, uyalib, yoki boshqa bir sabablar orqali kerakli darajada ovozini, qo‘shiq xarakterini ochib berolmasligi mumkin. Shunday vaziyatlarda aktyorlarga qayta kuylash uchun imkoniyat beriladi. Aktyor doimo o‘z ovozini ishlatish mahoratini rivojlantirishi yo‘lida o‘zida bor imkoniyatlarini maksimal yo‘naltirishi, o‘z ustida tinimsiz ishlashi kerak, shundagina imkoniyatlar kengayib kamchiliklar yopiladi.

Xulosa qilib aytganimizda qo‘g‘irchoq teatri aktyorlari uchun o‘z faoliyatlari davomida vokal san’ati bilan jiddiy va muntazam shug‘ullanishlari juda zarur. Teatrda qo‘yilayotgan spektakllar tomoshabinga to‘liq manzur bo‘lishi uchun so‘z bilan qo‘shiq birgalikda asar qahramonining obrazini to‘laqonli yoritib berishida muhimdir. Ana shunday jozibador ijod mahsullari ortida esa katta mehnat yotadi.

“Teatrga tomoshabin spektakl ko’rgani emas, qahramonlarga hamdard bo‘lgani keladi”, degan edi davrimizning yetuk rejissorlaridan biri Bahodir Yo‘ldoshev. Shunday ekan, kichik yoshdagi tomoshabinlar ham san’at darajasidagi spektakllarni ko‘rib ulg‘ayishsa, kelajakda albatta yuksak marralarga erishadigan inson bo’lib kamol topadi. Ana shunday komillikka intilib, qo‘g‘irchoq san’atining rivojlanib taraqqiy topishida har bir ijodkor fidokorona mehnat qilmog‘i darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6000-sonli qarori. 26-may, 2020.

2. Boltaboyev U. Qo‘g‘irchoq teatri guruhlarida sahnaviy nutqning ahamiyati. Oriental art and culture,1(5), 85-92/.2020.

3. Mamadaliyev A. Nodavlat qo‘g‘irchoq teatlarida aktyorlik san’ati masalalari. Toshkent: 2021.

4. Mamadaliyev A. Qo‘g‘irchoq teatri tarixiga nazar. Toshkent: 2021.

5. Mo‘minova M. Bolalik dunyosida ezgulik uyg‘otib yoxud qo‘g‘irchoq teatridan katta teatr sari Yangi O‘zbekiston. 9 noyabr. 2021.

O‘lmas va bardavom an’analar.

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

“Vokal” fani o‘qituvchisi O‘zbekistonda xizmat

Ko‘rsatgan artist, dotsent Erkin Rahimov.

Anotatsiya.

Ushbu maqolada siz T.Maxramovning ijod yo‘li, qo‘g‘irchoq teatriga qo‘shgan hissasi va yaratgan asarlari haqida ma’lumot olishingiz mumkin.

Kalit so‘zlar: Teatr, qo‘g‘irchoq, rejissyor, aktyor, spetakl, san’at.

Аннотация.

В этой статье вы можете узнат о творческом пути Т. Махрамова, его вкладе в кукольный театр и его произведениях.

Ключевие слова: Театр, кукла, режиссёр, актёр, спектакль, искусство.

Annotation.

In this article you can learn about the creative path of T. Makhramov, his contribution to the puppet theater and his works.

Keywords: theater, puppet, director, actor, artist, art.

Uddaburon, hozirjavob, yengilmas, xalqparvar Kachal polvon, dono Bichaxon, Quvnoq, o‘tyurak Aldar ko‘sa, borliqni ko‘z ochib ko‘rib, hayratga to‘lgan Simbo, baxt qushini axtarib yo‘lga chiqqan dovyurak Bunyod, afsonaviy go‘zal Galoteya haqidagi sehirli tomosholar qo‘g‘irchoqlarning aqlbovar

qilmaydigan sehrli xatti-harakatlaridan ko‘zini uzolmay, kamalakdek serjilo ovozlarga mahliyo bo‘lib o‘tirgan men singari bolalar kechagidek esimda…

Bolalik yillarim ortda qoldi…

Yuqorida eslab o‘tgan tomoshalarni yillar mobaynida drama teatri sahnalarida, televideniyadagi talqinlarini ko‘rdim, biroq men sehrlangan dutor va doira sadolari ostida bark yozayotkan lola qizg‘aldoq, tuya va eshaklarga minib poyga o‘ynayotkan oshiqlar, oyning billur yo‘lkasidan kapalakdek yelib yugirayotkan “золушка” , afsonaviy Semrug‘ qush faqat men sevgan Respublika qo‘g‘irchoq spektakllariga xos edi.

Qadimdan Sharq mamlakatlarida qo‘g‘irchoqbozlar san’ati kasb hisoblanib, avloddan-avlodga meros qoldirilgan. Shogird ustozidan bu san’at sirlarini mukammal o‘rgangach, jonlig‘ so‘yib oqsoqollardan fotiha olib keyin o‘zi mustaqil qo‘g‘irchoqbozlik bilan shug‘illangan

70-80-yillargacha ham Respublika qo‘g‘irchoq teatrida hamda ustozidan qo‘g‘irchoqbozlik san’at sirlarini mukammal darajada o‘rganib, o‘zidan keyingi avvlodga beshikast yetqazishga harakat qilishgan va hozirgi kunda ham shu an’ana bardavom kelmoqda. Respublika qo‘g‘irchoq teatrini tashkil topishiga ulkan hissa qo‘shgan ustozlar T. Donyorov, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artistlar A.Saidaliyev, N.Zayniddinov, M.Rahmatullayeva, Zoya Isxoquva kabilar ko‘plab qo‘g‘irchoqboz aktyorlariga ustozlik qilishgan.

O‘zbek qo‘g‘irchoq teatrida hozirgi aktyorlar uchun qimatli ijodiy maktab vazifasini, o‘zini betakror yo‘lini qoldira olgan O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist Tohir Maxramovning ijodiy yo‘li, uni sahnalashtirgan spektakllari hamda sermahsul ijodi yuzasida to‘xtalishimmiz zarur va lozimdir. Binobarin ustozoda qo‘g‘irchoqbozlardan eng mashaqatli va shu bilan birga eng ma’suliyatli san’at sirlarini o‘rganib, o‘zbek qo‘g‘irchoq teatri rivojida o‘ziga xos aktyorlik mahorati va tashkilotchilik faoliyati bilan yorqin iz qoldira olgan san’atkorlardan biridir.

Yo‘ldosh Ohunboboyev nomidagi madaniyat uyi qoshidagi havoskorlik teatrida A.Kornechukning “Platon Krechit” sepektakili ko‘rikdan o‘tqazilayotgan paytda Respublika qo‘g‘irchoq teatrining bosh rejissori Sh.A.Pavlovich T,Maxramovning iste’dodini fahimlab, professional teatrida ishlashga taklif etadi. U taklifga tez ko‘na olmay, bir necha kun davomida teatrga kelib qo‘g‘irchoqboz aktyorlarning mahoratini o‘rgandi. Ommaviy sahnalarda qatnashib yurdi. Kunlardan birkuni yangi yil archa bayrami tomoshalarida Qorboboni ro‘lini ijro etadigan aktyor kasal bo‘lib qoladi. O‘n olti yoshli T.Maxramov ana shu kundan e’tiboran teatrda qorbobo ro‘lini ijro eta boshlaydi. O‘ttiz yil davomida har yili archa bayrami tomoshalarida bolalarning sevimli qorbobosiga aylanib qoldi. T.Maxramov ustozlaridan qo‘g‘irchoqbozlikning nozik sirlarini, an’analarini o‘rganib dastlabki qadamlaridanoq bolalarni axloqiy va estetik ruhda tarbiyalashda teatrning imkoniyatlari judda katta ekanligi his etgan edi. Shuning uchun ham, aktyor har bir yangi obrazida xalq an’anaviy san’atining nafis tomoshalari-yu, yangi uslublarini topib, qo‘g‘irchoqda o‘ziga hos sayqallangan hatti-harakatining ichki kechinmalari bilan hamohanglikda plastika, improvizatsiyaga boyligi bilan betakror yangilik yaratar va qo‘g‘irchoqlarning yorqin xarakterini ochib berar edi. U qaysi qo‘g‘irchoq bilan sahnaga chiqmasin tomoshabinlarni olqishiga sazovor bo‘lardi.

“Birinchi Respublika qo‘g‘irchoq festivali o‘tayotganda N. Xabibulayevning “Fotimani sarguzashtlari” spektakli namoyish etildi. Bir qarashda oddiy tuyilgan 60-yillarning uslubiga xos tayyorlangan ushbu spektakl favqulotda muvafaqiyatga ega emas edi. Katta yoshdagi tomoshabinlar bolalarning tasirchanligiga umid bog‘lashar, jiddiy qiyofadagi tanqidchilar bir-birlari bilan shivirlashib o‘tirardilar. Nihoyat sahnada yovuz kuchlarning timsoli “Rudapo” paydo bo‘ladi. Boy plastika va birgina luqma - Poti, Potixon degan so‘zlari tufayli qahqaha va chapakdan zal junbushga keladi. Juda qisqa bu epizod va bilinar bilinmas aytilgan luqma Rossiya shaharlaridan kelgan mehomonlar va tanqidchilarga tushinarsiz edi. Ularning harbiri yonlarida o‘tirgan kishilardan -nimaga ? nega zal buqadar junbushga kelayotir? -deb so‘rardilar. Ming afsuski, obrazning nozik nutq xarakteristikasini,

aktyor topilmasining jozibasini tarjima qilish, yohud tushuntirib berish mushkul edi.

Bir so‘z bilan aytganda, bu - aktyorning kichkina kashfiyotlaridan biri ediki qo‘g‘irchoqboz san’atini bularsiz tasavvur qilish mumkin emas edi. Ana shu ro‘l ijro uchun T.Maxramovga festival mukofoti topshirildi.. - deb yozgan edi san’atshunoslik nomzodi N.Zohidova

T.Maxramov 1983-yili M.Uyg‘ur nomidagi Toshkent davlat san’at institutining rejissura bo‘limini tugatib rejissor sifatida ham bir necha asarlarni ham sahnalashtirdi. Jumladan M.Halimning “Sirli nay”, Y.Borisovning “Qorbobga sovg‘alar”, P.Ershovning “Bukri toychoq”, H.Imomberdiyevning “Sehrli harflar oroli” asarlari asosida sahnalashtirilgan spektakllarida uning o‘ziga xos yo‘nalishi, qo‘g‘irchoq teatri madaniyatlarini chuqur his qilishi sezilib turardi. 1988-yilda o‘tkazilgan teatrlarning Respublika festivalida H.Imomberdiyevning “sehirli hariflar oroli” spektakili uchun T.Maxramovga eng yaxshi rejissor mukofoti topshirildi.

Qo‘g‘irchoq san’ati rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi undagi noyob iste’dod haqidagi taasurotlar Respublika qo‘g‘irchoq teari tarixida abadiyligiga ishonganim holda, qo‘g‘irchoq sistemalarining barchasida barkali ijod qilgan, ayniqsa simli qo‘g‘irchoqlarni ishlatishda katta mahorat egasi bo‘lgan T.Maxramov uslubiyati zomondosh qo‘g‘irchoqboz san’atkorlar kasb mahoratlarini shakllantirishdagi ahamiyati bu aktyor va rejissor haqida kengroq va ko‘proq to‘xtashga undadi. O‘lmas va bardavom an’analar doim o‘rganib borilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

6. M. Qodirov. Xalq qo‘g‘irchoq teatr. “G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashiryoti” Toshkent 1972 yil.
7. M. Ashurova. Aktyorlik mahorati “Toshkent innovatsiya ziyo” 2021 yil.

ТАЪЛИМ ВА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ИНТЕГРАЦИЯСИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР

“ЎзДСМИ Қўғирсоқ театри санъати” кафедраси доценти Аъзамжон Абдухалилов

Мамлакатимизда ҳар қандай соҳани ривожлаиши, уни халқаро нуфузини кўришни истасак, аввало ундаги илмга, илмга, илмга эътиборни қаратмоғимиз керак. ***Шавкат Мирзиёев***

Аннотация

Ушбу мақола қўғирчоқ театри санъатини янада ривожлантиришда фан, таълим ва ишлаб чиқариш алоқалари, эришилган ютуқлар ва хал этилиши зарур бўлган масалалар юзасидан сўз боради.

Аннотация

В данной статье речь идет о взаимосвязи науки, образования и производства, достижениях и проблемах, которые необходимо решить в дальнейшем развитии кукольного искусства.

Annotation

This article deals with the relationship between science, education and production, achievements and problems that need to be addressed in the further development of puppetry.

Калит сўзлар; қўғирчоқ, таълим, театр

Ключевые слова; кукольный театр, образование, театр

Keywords; puppet theatre, education, theater

Ассалому-алейкум халқаро конференцияда иштирок этиб турган ҳурматли устозлар, мехмонлар, азиз талабалар ва албатта соҳанинг хорижий мутахассислари! Хуш келибсизлар...

Бугунги конференциямизни бу нуфузда – халқаро ташкил этишимиздан кўзланган асосий мақсад, аввалги йиллар тажрибасида кузатганларимизни сарҳисоб этиш баробарида, соҳанинг халқаро фаолиятини кузатиш ва ўрганишдан иборат. Санъатнинг бу тури хусусида Ўзбекистонда хизмат кўрсатган ёшлар мураббийси, профессор М.Ашурова; “– Қўғирчоқ театри

санъати қадимий ва бой маданиятимизнинг таркибий қисми бўлиб, ўзининг ёрқинлиги, мафтункорлиги билан ажралиб туради. Бу санъат воқеликни қўғирчоқ персонажлар орқали ўзига хос услубда баъзан жиддий, баъзан ҳазил, баъзан эса кинояли йўллар билан лўнда, равон ва қизиқарли қилиб кўрсата олиш имкониятига эга бўлган, бетакрор санъат турларидан биридир.”[3]-деган эди.

Республикамизда амалга оширилаётган ислохотлар ўз навбатида санъат ва маданият соҳаларини ҳам четлаб ўтмай, балки Янгиланаётган Ўзбекистон ғоясидан Юксалаётган Ўзбекистон ғояси сари қўйилган қадамларда унинг мақсад ва вазифаларини амалга оширувчи асосий механизмлардан бири сифатида намоён бўлади.

Шунингдек, ҳар бир соҳада бўлгани каби олий таълим, жумладан санъат соҳасида Мухтарам Президентимиз томонидан қатор Фармон ва Қарорлар қабул қилинди. Бунда соҳани ривожлантириш, уни фаолиятини янада такомиллаштириш, янги босқичга, бугун олға сурилаётган Юксалаётган Ўзбекистон ғоясига хизмат қилиш даражасида ва мас тарзда фаолит юритишини мақсад этиб белгилаганмиз.

Ўтган йиллар тажрибасига таяниб айтишимиз мумкинки, Республика миқёсида бу каби конфиренциялар бир неча бор ташкил этилди. Мисол тариқасида; 2018 йил 6 июнь - “Республика қўғирчоқ театрларини малакали кадрлар билан таъминлаш ва фаолиятини такомиллаштиришнинг илмий-амалий ечимлари” мавзусида Республика илмий-амалий семинар, 2020 йил 1 июнь - “Қўғирчоқ театри санъатини ривожлантиришда инновацион ҳамкорликнинг афзалликлари” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция, 2021 йил 17 февраль - “Театр қўғирчоқларини ясаш технологиясининг назарий ва амалий асослари” мавзусидаги илмий семинар ташкил этилди. Ва бунда бош меъзон “Фан, таълим ва ишлаб чиқариш ўртасидаги интеграцияни ривожлантириш, такомиллаштириш, янги юоскичларга олиб чиқиш”дан иборат эди. Шунинг баробарида бу

[3] М.Ашурова. «Қўғирчоқ театр санъатининг актёрлик мактаби». Д. “Innovation - Ziyo”. 2020 й.

ҳамкорлик, ҳар иккала тармоқ узвийлигида юзага келаётган муаммо ва камчиликларни ўрганиш, томонларнинг билдирган фикрлари асосида мавжуд тўсиқларни илмий тахлил этиш орқали тавсиялар ишлаб чиқишдан иборат бўлди.

Ҳамкорликнинг мақсад ва вазифалари Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сон, 2017 йил 27 июлдаги “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3151-сон, 2018 йил 7 май санасидаги “Иқтисодиёт тармоқлари ва соҳаларига инновацияларни жорий этиш механизмларини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3698-сон, 2018 йил 5 июндаги “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3775-сон, 2021 йил 24 декабрдаги “Давлат олий таълим муассасаларининг академик ва ташкилий-бошқарув мустақиллигини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-60-сон, 2021 йил 24 декабрдаги “Давлат олий таълим муассасаларига молиявий мустақиллик бериш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-61-сонли ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон Фармони билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси” ва 2020 йил 26 майдаги “Маданият ва санъат соҳасининг жамият ҳаётидаги ўрни ва таъсирини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-6000-сонли Фармонлари ва Қарорларида белгиланган вазифалар ижросини таъминлашдан иборат.

Инновацион ҳамкорлик доирасида қуйидаги ишларни амалга ошириш бош мақсад этиб белгиланган: Фан, таълим ва кадрлар буюртмачилари (театрлар) иштирокида соҳа муаммо ва ечимлари юзасидан Республика

семинар ва канференцияларини ўтказиш; Профессор – ўқитувчилар таркибини соҳадаги илғор амалиётчи режиссёр ва актёрларни жалб этиш орқали таълим жараёни сифатини оширишга эришиш; Театрларнинг ташкил этилиши: жамоа ва репертуар шаклланиш босқичларига бағишланган магистрлик ишлари; Театрларга кўп йиллик тажрибага эга кафедра профессор - ўқитувчиларни “Маҳорат дарслари” ўтиш учун хизмат сафарларига мақсадли юбориш; Таълим, ижодий лабаратория ишлари (спектакллар)ни пойтахт ва вилоят қўғирчоқ театрларида саҳналаштириш; Театрнинг олий маълумотга эга бўлмаган кадрлари учун режиссёрлик ва актёрлик таълим йўналишларини сиртқи таълим шаклини очиш; Янги ўқув йили параметрларини шакллантириш жараёнида бюртмачи эхтиёжини доимий ўрганиш орқали қабул квоталарини эълон қилиш; Республика қўғирчоқ театрлари фестивали ва янги спектакллари тақдимотида эксперт, хайъат аъзоси сифатида кафедра профессор - ўқитувчиларни жалб этиш; Республика давлат тадбирлари ва спектакллар тақдимотларида кафедра таркибидаги таълим йўналишлари талабаларини иштирокини таъминлаш; Қабул жараёнлари хаъати таркибига театрлардан мутахассислар иштирокини таъминлаш; Ўқув режадаги малакавий амалиёт даври учун театрларни амалиёт обьекти этиб белгилаш; 5150304 – Режиссёрлик (қўғирчоқ театр режиссёрлиги) таълим йўналиши битирувчиларининг БМИларини пойтахт ва вилоят қўғирчоқ театрларида саҳналаштириш; Ҳар ўқув йили меъёрий хужжатларини шакллантиришда кадрлар буюртмачилари фикр – мулохазаларини билиш, тақризлар олиш; ЯДА хайъати таркибига театрлардан мутахассислар иштирокини таъминлашдан иборат аниқ вазифаларга таянилди.

Ўз навбатида тармоқларнинг алоқаларни тўғри, мувоффақиятли йўлга қўйиш орқали мамлакатда ёш авлодни қўллаб -қувватлаш, янги авлодни янги давр, миллийлик руҳида тарбиялаш каби масалаларни хал этишда қўғирчоқ театри санъати асосий воситалардан бири бўлиб, уни тахлил этиш бош мезон этиб белгиланган. Бугун шу масалалрни хулосаси сифатида айтишимиз

мумкинки, шу яқин йилларга қадар фақатгина илмий, жарангдор номланиш ва моҳиятан соҳанинг на тарихи, на реал фаолияти ва на келажагига амалий таъсир ўтказиши мумкин бўлган магистрлик ишларидан иборат эди. Албатта бу ишларнинг кейинги тақдири ҳам шунга мос тарзда кутубхона тахмониданжой олдию, аммо хеч ким фойдаланмаяпти. Шу ўринда санъатшунослик фанлари доктори, профессор Т.Баяндиевнинг; "- Санъат турлари орасида энг қадимийси ҳам, энг ёши ҳам қўғирчоқ театри бўлса керак. Сабаби унинг ёшимиллат ёши билан баробардир. Унинг илдизи халқимизнинг бой фолклори, урф-одатлари, удумлари, масхарабоз ва қизиқчилари, дарбозларимизнинг ижодлири билан чамбар-час боғлиқ"4 деб айтган сўзлари эътибоимизни тортади. Танқидий ўрганишларимизга асосланиб айтамизки, аслида магистрлик ишлари аниқ обект ва унинг фаолияти тахлил қилиниб ўрганилса, тавсиялар ишлаб чиқилса ва албатта соҳанинг ривожига кўмаклашгандагина мақсадлар кўринади. Республика мифёсидаги қўғирчоқ театрлари тарихи, ижод йўли ва ривожланиш босқичларини илмий ўрганишга қаратилган Магистрлик ва PhD докторлик даражаси учун тадқиқотлар манзилли йўлга қўйилди. Бунда пойтахт ва вилоят қўғирчоқ театрлари, ундаги кўп йиллик тажрибага эга устозлар, актёр ва режиссёрларнинг ижод йўллари соҳанинг сир синоатлари хусусидаги фикр, мулохазалари жой олган. Унутмаслик керакки, қўғирчоқ театрлари ва уларнинг хизмат кўрсатиш фукциялари бир бўлишига қарамай, ҳар бирида ижоднинг рангбаранглигини кузатдик. Бу эса услуб, ёндашув ҳамда саҳнавий талқинда бири бошқасини такрорламаслиги илмий изланишларга асос бўлди. Жумладан; 2018 йил Мусинов Улуғбек Нуриддин ўғли – "Қашқадарё вилоят қўғирчоқ театрининг шаклланиш ва ривожланиш босқичлари", Нурсайитов Акбар Ихтиярович – "Самарқанд вилоят давлат қўғирчоқ театрида ижодий жамоанинг ҳамкорлик масалалари"; 2019 йил Бердимуродов Ислом Рустамович – "Бухоро вилоят қўғирчоқ театри репертуарида мавзу ва жанр хилма – ҳиллига" (2000-219 йиллар), Холиқов

[4] Т.Баяндиев. "Қўғирчоқларга жон бағишлаган санъаткор". ў/қ. "Virtec Times" Тошкент 2022 й.

Мухриддин Нурмуҳаммадович – “Сурхандарё вилоят давлат қўғирчоқ театрининг репертуар шакллантириш масалалари” (2000-2019 йиллар), Ниёзов Хондамир Зухроб ўғли – “Замонавий қўғирчоқ театри драматургиясининг жанр ва мавзу ёўналишлари” (2000-2019 йиллар), Мадалиев Абдурашид Рахимбердиевич – “Қўғирчоқ спектаклларида анъанавий ва замонавий ижро усуллари Андижон вилояти ва тошкент марионетка қўғирчоқ театрлари мисолида” (2000-2019 йиллар), Зокиролва Дилдора Бахтиёржон қизи – “Акетёр ва персонаж ўртасидаги бадиий уйғунлик” (Фарғона қўғирчоқ театри мисолида), Анваржонов Аббос Адҳамжон ўғли – “Қўғирчоқ театри актёрини касбий шакллантиришда маҳорат масаласи; 2020 йил Қулмуродов Ойбек Сирожиддин ўғли – Қўғирчоқ театри санъатида актёрлик мактаби масалалари (Хоразм қўғирчоқ театри мисолида), Турсуналиева Рузигул Холмирзаевна – “Жиззах вилоят давлат қўғирчоқ театрининг ривожланиш босқичлари”, Шарипов Маҳмуджон Мирзавали ўғли – “Қўғирчоқ театрида образ яратишда нутқнинг ўрни ва аҳамияти” (Фарғона қўғирчоқ театри мисолида), Айтмуратов Бахтиёр Кенесбаевич – “Қорақолпоқ қўғирчоқ театрининг шаклланиши ва ривожланиш босқичлари”, Мадаминов Отабек Мусимжон ўғли – “Қўғирчоқ театрида образ яратиш жараёнида замонавий ёндашувлар” (Андижон вилоят қўғирчоқ театри мисолида), Умирзоқов Аббосжон Шавкат ўғли – “Қўғирчоқ театри драматургиясида қаҳрамон образини яратиш масаласи” (Ўзбекистонда хизмат кўрсатган ёшлар мураббийси, профессор Марям Ашурова ижоди мисолида), Рисқиева Дилфуза Ҳикматовна – Ўзбекқўғирчоқ театри режиссураси (Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист Шомурот Юсупов ижоди мисолида) каби ишларни санаш ўринли.

Тугалланган магистрлик ишлари босқичида аниқ тавсиялар ва таклифлар берилди ва шу ишларнинг мантиқий давом эттирилиб PhD докторлик даражаси олиш учун ҳам тадқиқотлар бошлаб юборилган. Мисол ўрнида; кафедра катта ўқитувчиси Л.Усманованинг 17.00.01 - Театр санъати: “Ўзбек қўғирчоқ театр санъатида актёрлик санъатининг ўзига хас

хусусиятлари (актёр ва қўғирчоқ тандеми) ва доцент Б.Маматқуловнинг 17.00.01 - Театр санъати: “Театр қўғирчоқларини ясалишининг назарий ва амалий асослари.” номли ишларини айтиш жойиз. Зеро, қўғирчоқ театрлари фаолиятига бир неча ўн йилликлар тўлган бўлишига қарамай, соҳа илмий ўрганилмади. Албатта магистрлик ишлари билан чекланиш ярамайди. Бу борада Ўзбек қўғирчоқ театри тарихини тадқиқ этган ва илмий ўрганган устозимиз санъатшунослик фанлари доктори, профессор Мухсин Халилович Қодировнинг изланишлари билан якунлангандек гўё. Аммо яқин тарихдан сир эмаки, ушбу тадқиқотдан кейин ҳам театрлар ташкил этилди, кайсики, бу театрлар хақида бир нечта мақола ва очеркларни айтмаганда комплекс ёндошувларни кузатмаймиз. Ваҳолангки, бу театрларда саҳналаштирилган спектакллар, амалга оширилган ижодий ишлар ва эришилган ютуқлар нафақат Республика балки, Халқаро эътироф этиб улгурилган.

Соҳадаги илғор амалиётчи режиссёр ва актёрларни жалб этиш орқали таълим жараёни сифатини оширишга эришиш йўлга қўйилган. Мисол ўрнида; 2012 йилдан Хўжаев Ф.У. - Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист,Ўзбек Миллий қўғирчоқ театри актёри, кафедра доценти в.б., 2018 йилдан Юсупов Ш.Ю. - Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист,Ўзбек Миллий қўғирчоқ театри бош режиссёри, кафедра доценти в.б., 2020 йилдан Жабборова К.И. – Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист, Ўзбек Миллий қўғирчоқ театри актёри, катта ўқитувчи., Мирзаев Ф.Х. – Тошкент марионетка театри бош режиссёри, ўқитувчи лавозимларида ишлаб келмоқдалар.

Таълим, ижодий лабаратория ишлари (спектакллар)ни пойтахт ва вилоят қўғирчоқ театрларида қайта саҳналаштириш ҳам йўлга қўйилган. Жумладан; **Ашурова М.Х. – Ўзбекистонда хизмат кўрсатган ёшлар мураббийси, кафедра профессори** томонидан саҳналаштирилган ижодий ишлар:

2019 йил М.Ашурова пьесаси “Алла” спектакли. Жиззах вилоят қўғирчоқ театри, 2020 йил М.Ашурова пьесаси “Яхши фазилатинг – зебу

зийнатинг” спектакли. Қашқадарё вилоят қўғирчоқ театри, 2021 йил У.Ўсаров пьесаси “Хон Атлас” спектакли. Жиззах вилоят қўғирчоқ театри, 2022 йил М.Ашурова пьесаси “Шох Лайлак” спектакли. Жиззах вилоят қўғирчоқ театри.

Юсупов Ш.Ю. – Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист, Ўзбек Миллий қўғирчоқ театри бош режиссёри, кафедра доценти в.б., томонидан саҳналаштирилган ижодий ишлар:

2018 йил Т.Мирзо пьесаси асосида “Султон Жалолиддин” спектакли. Хоразим вилоят қўғирчоқ театри, 2018 йил Ўзбек халқ афсонаси асосида “Тўмарис” спектакли Ўзбек Миллий қўғирчоқ театри, 2019 йил А.Навоий. Хамса асари Лисон Ут-Тайр достони асосида “Қуш тили” спектакли. Бухоро вилоят қўғирчоқ театри, 2019 йил Ўзбек халқ афсонаси асосида “Широқ” спектакли Ўзбек Миллий қўғирчоқ театри, 2020 йил А.Навоий. Хамса асари Лисон Ут-Тайр достони асосида “Қуш тили” спектакли. Қашқадарё вилоят қўғирчоқ театри, 2020 йил Ш.Дўсмуҳаммадов инсценировкаси “А.Қодирий кулдирганда” спектакли. Сурхандарё вилоят қўғирчоқ театри, 2021 йил Т.Мирзо инсценировкаси “Бахром ва Дилором” спектакли. Ўзбек Миллий қўғирчоқ театри, 2021 йил Т.Мирзо инсценировкаси “Тўмарис” спектакли. Ўзбек Миллий қўғирчоқ театри, 2022 йил С.Маршак пьесаси “Ўн икки ой” спектакли. Ўзбек Миллий қўғирчоқ театри.

Хўжаев Ф.У. – Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист, Ўзбек Миллий қўғирчоқ театри актёри, катта ўқитувчи томонидан саҳналаштирилган ижодий ишлар:

2018 йил Япон эртаги асосида “Турна поти” спектакли. Андижон вилоят қўғирчоқ театри, 2019 йил Н.Махкамова пьесаси “Зумрад ва Қиммат” спектакли. Қашқадарё вилоят қўғирчоқ театри, 2020 йил К.Дилмонова пьесаси “Ким топди” спектакли. Қашқадарё вилоят қўғирчоқ театри, 2020 йил Э.Арипова пьесаси “Жахонгашта афсоналари” спектакли. Хоразим вилоят қўғирчоқ театри, 2021 йил Э.Арипова пьесаси “Сехрли олтин қуш” спектакли. Хоразим вилоят қўғирчоқ театри.

2019 йилдан бошлаб театрнинг олий маълумотга эга бўлмаган кадрлари учун режиссёрлик ва актёрлик таълим йўналишларини сиртқи таълим шаклини очилган.

2019-2020 ўқув йилида 5150300 – Актёрлик санъати(қўғирчоқ театри актёрлиги) таълим йўналишида Самарқанд вилоят қўғирчоқ театридан; Санакулов Бобирхон Собирович, Шарипов Самир Ходжикурбанович, Салимов Бекзод Комилжонович; Хоразим вилоят қўғирчоқ театридан; Назарова Нилуфар Парход қизи, Сабирова Машхура Абадовна, Саипов Хурсанд Хударганович, Аллаберганов Умрбек Юсупбаевич, Давлетов Фозил Парходович, Шоназарова Зулфизар Баходир қизи; Андижон вилоят қўғирчоқ театридан; Казакова Нигора Маликовна, Орипов Мухаммадазим Собиржон ўғли, Алибоев Хаётбек Рахимжон ўғли, Фарғона вилоят қўғирчоқ театри; Нишанова (Холмирзаева) Феруза Бахтиёровна; Қашқадарё вилоят қўғирчоқ театри; Қувончова Мафтуна Холмирзо қизи; Қорақалпоғистон республикаси қўғирчоқ театри; Генжебекова Насиба Шарибаевна, Манбеталиев Усманатдин Казиятдинович; Жиззах вилоят қўғирчоқ театри; Эркинова Сурайё Бахриддин қизи.

Бу каби мисолларни ўқув йили ва театрлар кесимида бугунга қадар ўнлаб актёр ҳамда режиссёрлик таълим йўналишларидан санашимиз мумкин. Ўз навбатида эндиликда театрдаги штат ва актёр, режиссёрлар ўртасидаги номутаносиблик масалаларига амалий ечим бўлди деб айта оламиз. Эътибор қаратсак, Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-6000-сонли Фармонига кўра хозирга қадар қўғирчоқ театрлари бўлмаган Навоий, Наманган, Сирдарё ва Тошкент вилоятларида театр бинолари қурилмоқда. Эндиликда ана шу театрларни кадрлар билан таъминлаш учун қабулни мақсадли ва манзилли вилоятлар кесимида ташкил этиш масаласи ечимини кутади.

Бугун эса Республика миқёсидаги соҳани ривожи учун олиб борилаётган ишлар ва эришилган ютуқлар қаторида хал этиш ўта зарур яна бир масала бор. Соҳанинг халқаро тажрибаларини кузатиш, улар эришаётган

ютуқларни ўрганиш, ўзлаштириш, қиёсий таҳлиллар ўтказиш, мониторинг қилиш зарурати кўринади. Чунки биз хорижда турдош олий таълимлар фаолиятини кузатмадик. Уларни илғор таълим ва ишлаб чиқариш интеграциясидан хабардор бўлсак деймиз. Токи, биз бу тажрибаларни миллий шаклини яратиш ва уни таълим соҳасида кадрлар тайёрлашга жорий этиш масаласи туради. Бунинг учун қуйидагиларни таклиф этамиз. ***Биринчи;*** кафедра педогог кадрларни малакасини ошириш, уларни стажировка ўташ учун хорижий илғор таълим масканларига юбориш; ***Иккинчи;*** улар билан ўқув-услубий ҳамда талаба алмашинувига эришиш; ***Учинчи;*** икки томонлама магистрлик ишлари ва PhD докторлик диссертацияларига раҳбарликни йўлга қўйиш; ***Тўртинчи;*** талабаларнинг "Ишлаб чиқариш амалиёти" ва "Битирув олди амалиётлари"ни бир қисмини ўша жойларда ташкил этишни йўлга қўйиш; ***Бешинчи;*** янги авлод ўқув адабиётларини ҳаммуаллифликда яратиш; ***Олтинчи;*** халқаро талаба ёшлар театр фетивалларида кафедранинг мувоффақиятли, миллий асарлари билан иштирокини таъминлаш; ***Еттинчи;*** професор-ўқитувчилар ва талабалар иштирокида халқаро ва махаллий грант лойиха танловларида қатнашиш зарурати мавжуд.

Кўринадики, қўғирчоқ театри санъати тарбия масаласида Республикада олға сурилаётган ва амалга оширилаётган ғояларни инсонларга, айниқса ёш авлодга етказишда энг асосий воситалардан бири сифатида намоён бўлмоқда. Шундай экан айнан бунунги ёш авлод мамлакатнинг эртасини хал этувчи куч эканини чуқур англаганимиз холида бу санъат турининг қудратини тан олсак, бу ҳам хақиқат бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. М.Ашурова. «Қўғирчоқ театр санъатининг актёрлик мактаби». Д. "Innovation - Ziyo". 2020 й.
2. Т.Баяндиев. "Қўғирчоқларга жон бағишлаган санъаткор". ў/қ. "Virtec Times" Тошкент 2022 й.

ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРИ САНЪАТИ ТАЪЛИМИДА ҲАЖВИЙ ҒАЗАЛЛАРНИНГ ЎРНИ

Дилрабо Жуманова
ЎзДСМИ “Саҳна нутқи” кафедраси катта ўқитувчиси

Анотация. Ушбу мақолада қўғирчоқ театр санъатининг ўзига хослиги, соҳа мутахассисларига таълим-тарбия беришда “Саҳна нутқи” фанининг мақсад ва вазифаларига тўхталиб ўтилган. Қўғирчоқ театр актёрларини тарбиялаш, маҳоратли бадиий сўз устаси бўлиб шаклланишида ҳажвий репертуарлар масаласи, қолаверса мумтоз ҳажвий ғазалларнинг аҳамияти тўғрисидаги фикр-мулоҳазалар ўрин олган. Ҳажвий ғазаллар ижрочилиги, унинг таҳлили ва талқини борасидаги амалий кўрсатмалар мақола мақола мазмунини ташкил этади.

Калит сўзлар. Қўғирчоқ театри, актёр, режиссёр, мутахассис, саҳна нутқи, бадиий сўз, инновация, ҳажв, ғазал, сўз хатти-ҳаракати, жонли нутқ.

Аннотация. Данная статья посвящена своеобразию искусства театра кукол, целям и задачам науки «Сценическая речь» в подготовке специалистов данной области. Проблема комического репертуара и значение классических юмористических газелей включались в воспитание актеров кукольного театра и формирование их как искусных художественных словесников. Содержанием статьи являются практические указания по исполнению юмористических газелей, их анализ и интерпретация.

Ключевые слова. Кукольный театр, актер, режиссер, специалист, сценическая речь, художественная речь, новаторство, комедия, газель, речевой акт, живая речь.

Annotation. This article is devoted to the originality of the art of puppet theater, the goals and objectives of the science "Stage speech" in the training of specialists in this field. The problem of the comic repertoire and the significance of classical humorous ghazals were included in the education of puppet theater actors and their formation as skillful literary philologists. The content of the article is practical instructions for the performance of humorous ghazals, their analysis and interpretation.

Keywords. Puppet theatre, actor, director, specialist, stage speech, artistic speech, innovation, comedy, gazelle, speech act, live speech.

Актёрлик ва режиссёрлик таълим йўналишларида таҳсил олаётган талабалар мутахассислик фанларини йиллар давомида ўзликсиз ўрганиши керак. Актёрлик маҳорати, режиссура, саҳна нутқи, пластика, вокал, рақс, саҳна ҳаракати каби касбга йўналтирилган фанларни ўзлаштириш орқали талабалар ўз касбининг мохир мутахассислари бўлиб етишади.

Қўғирчоқ театри санъати бошқа таълим йўналишларидан тубдан фарқ қиладиган мураккаб ва ўзига хос таълим йўналишидир. Бу йўналишда таълим оладиган талабалар актёрлик маҳоратини ўзлаштиришда “Станиславский системаси”нинг ҳар иккала услубини, яъни кечинма санъати ва тақлид санъатини мукаммал ўрганади. Қолаверса, соҳа мутахассиси бўлиб шаклланишида қўғирчоқ бошқариш асослари, қўғирчоқ ясаш технологияси, қўғирчоқларни ишлаб чиқариш конструкцияси ва лойиҳалаш технологияси каби йўналишларни қамраб олган ҳолда таълим-тарбия олади.

Таълим йўналишларининг специфик ҳусусиятларидан келиб чиқиб, талабаларнинг мукаммал касбий билимларни эгаллашида ўзига хос ёндашув бўлади. “Саҳна нутқи” фанини ўқитиш, бадиий сўз маҳоратини шакллантиришда устозлар томонидан педагогик технологиялар қўлланиб келинган. Жумладан, қўғирчоқ театри санъатида “Саҳна нутқи” фанидан

Исоқтой Джуманов узоқ йиллар дарс машғулотларини бериб, маҳоратли театр актёрларини тарбиялашда ўз ҳиссасини қўшиб келди. И.Джуманов қаламига мансуб бир нечта пьесалар қўғирчоқ театрларида саҳналаштирилиб, ёш томошабинлар эътиборига тақдим қилинган бўлса, устознинг талабалар учун ёзган таништирув сажълари ва уларнинг ижролари устидаги изланишлари таълимдаги янги инновацион ёндашув бўлиб хизмат қилган. Тажрибали устозларнинг амалий кўрсатма ва тавсияларига асосан, бугунги кунда ҳам ижодкор талабаларни қўғирчоқ театри санъатининг етук мутахассиси бўлиб шаклланишида бир қанча изланишлар олиб борилмоқда. Шундай илмий-ижодий изланишлардан бири ҳажвий ғазалларни ўрганишдир.

Ҳажвий ғазаллар мумтоз адабиётда ўз ўрнига эга эканлиги ва таъсир доираси кенглиги юзасидан бир қанча маълумотларга эгамиз. Жумладан, олимлар “ўзбек классик шеъриятида ҳажвий ғазалларнинг чинакам ихтирочиси Навоий бўлди. Навоий ўз ҳажвий ғазалларида асосан дин-шариат пешволари – мунофиқ ва ҳийлакор шайхлар, худбин, бадбин зоҳидлар, жоҳил воизлар устидан кулади ва уларни фош этади” [1. Б-98] – деган фикрлардан ҳам шуни англаш мумкинки, ҳажвий ғазаллар маълум бир мақсад ва вазифаларни тараннум этувчи ғоявий куч сифатида майдонга келган.

“Саҳна нутқи” фани дастлаб, барча таълим йўналишларида методик жиҳатдан бир хилда ўргатилади. Фақат, матнлар танлашда специфик ҳусусияти ажралиб туради. Талабалар 3-босқичдан бошлаб, тўлиқ касбга йўналтириш мақсадида соҳага мос репертуарлар устида ишлашни бошлайди. Жумладан, қўғирчоқ театри санъатида ҳажвий асарлар орқали томоша санъати ижрочилиги шакллантирилади. Томоша санъатининг айрим элементларини ўзида жамлаган ҳажвий ғазаллар ижроси устида ишлаш, уни бир актёр театри даражасида тақдим қилиш борасидаги ижодий изланишлар талабаларнинг маҳоратини мустаҳкамлашда пойдевор бўлиб хизмат қилади. Ҳажвий ғазаллар мазмунан ранг-баранг бўлиб, талабаларнинг индивидуал

маҳоратини очишда ёрдам беради. Негаки, ҳажвий ғазаллар талаба нутқини анча равон ва тоза бўлишини таъминлайди. Ўткир ва теран мулоҳазали фикрлаш қобилиятини шакллантиради. Сўз хатти-ҳаракати ва жонли нутқнинг таъсирчанлигини оширади. Энг муҳими, ижодкорнинг бадиий сўздаги маҳорати юксалади.

Ғазалнинг бу йўналишида саноқли адиблар қалам тебратган. Ўз ижоди орқали ғоя ва мақсадларини тўла-тўкис очиб берган адиблар “Турди, Махмур, Мунис, Огаҳий, Муқимий, Завқий ва бошқа кўпгина ўзбек прогрессив шоирлари ҳажвий ва юмористик ғазаллар яратдилар. Улар ҳажвий ва юмористик ғазалларнинг тематик доирасини анча кенгайтирдилар, ғазалга янги-янги проблемалар ва образларни олиб кирдилар” [1. Б-98] – деб таъкидлайди талқиқотчи олимлар. Янги давр ўзбек шеъриятида мумтоз классика ва замонавийлик тенденцияларини ўзаро уйғунлаштирган ҳажвчи шоир Анвар Обиджон ҳам устозлар кўрсатган йўлдан мардона юриб, янги, такрорланмас, ўзига хос хусусиятларга эга бўлган Уста Гулмат, Кулкулмамат сингари образларни адабиёт оламига таништирди.

Гулмат Шошийнинг ёввойи девонидан ўрин олган ушбу ғазал олтида банддан иборат бўлиб, сарлавҳаси “Бешяғоч бозорида юрғон эдим тинглаб ғовур...” деб номланади. Барчага маълумки, ғазалларнинг номи бўлмайди, улар одатда биринчи мисрадаги сўзлар билан ёхуд радиф сўз орқали номланиб келинган. Ушбу ғазални қуйидагича рукнларга ажратиб чиқамиз:

Бешяғоч бо|зорида юр|ғон эдим тинг|лаб ғовур,
Бир мусофир | сўрдиким қай|да деб Шай|хонтовур.

Ман дедим: шун|дин юриб, шун|ғо бориб, шун|доғ бурил,
Учрағай бир | тўп бақа бул|бул бўлиб тур|ғон зовур.

Кўфригин тас|лим этиб ўт|ғоч зовурдин | нарига,
Тўғри юр ҳуш|такфуруш ат|тори бор жой|га довур...

Сўнг бурил чап|роқ яна сер|тошу туфроғ | кўчадин,
Тўхтама кел|гунча дуч лағ|мон чўзиб тур|ғон повур.

Сан онинг лағ|монидин уч|-тўрт қулоч ют|қон бўл-у,
Аста йўл сўр|санг кейин сўй|лайди ростин,| ҳайтовур…

Кетди ул қул|луқ ила, боқ|самки – чўнтак | қуп-қуруқ,
Вайсатиб Гул|матни, вах, карт|монни урди | киссавур.

Ғазални рукнларга ажратиш талаффузнинг гўзал ва равон бўлишини, қолаверса нутқнинг нафосатини таъминлайди.

Қофия сўзлар "*говур, Шайхонтовур, зовур, довур, повур, ҳайтовур, киссавур*" каби сўзлар ўзаро қофиядош сўзлар бўлиб, а-а, б-а, в-а, г-а, д-а, е-а тарзида тизимга солинган. Ғазал ўқишда қофияли сўзларни аниқлаш жуда муҳим ҳисобланади. Негаки талаба ғазални ўқишда қофияли сўзларга алоҳида эътибор қаратган ҳолда ижрода мантиқий урғу билан фикрини очиб беради.

Анвар Обиджон ғазалларини шакл ва мазмун жиҳатидан аруз вазни талабларига бўйсиндирган, лекин ғазаллар аруз вазни қоидаларига тўлиқ жавоб бериши лозимлиги юзасидан бир қанча тартиб-қоидалар мавжуд. Адабиётшунос олим Абдулла Аъзамов "янгича" тартибда ёзилган ғазалларни мушоҳада қилиб шундай дейди; "бугун бармоқда ёзилган ҳар бир яхши ғазал ўсиб келаётган авлод наздида "ғазал ҳам оддий шеър, бармоқ вазнида ёзилади ва шу вазнда ўқилади", деган тушунчани пайдо қилади, борини эса мустаҳкамлайдики, айнан шу сабабли у "зиён"дан холи эмас. Чунки бундай тушунчани сингдириб олган ғазал мухлиси Навоий, Бобур ёки

Нодира девонини қўлига олса, шеърларнинг вазнини топа олмайди” [2.Б-27]. Олимнинг фикрини ҳатто, шоирнинг ўзи бир ғазалида таъкидлаб ўтади:

“Бу нечук шоир деманг, асли ман носоғроқ,
Ёзғоним шаклан ғазал, лек ўзи бармоқроқ...”

Шоир ушбу байти орқали ёзган ғазаллари аруз вазнига мос келмаслигини айтмоқда, лекин шеърият оламига юмор ва сатирага бой образни тақдим қилди. Ва у кутилган натижани берди. Адабиётшунос олим Р.Орзибеков ғазал қаҳрамонларини шундай таърифлайди; “агар традицион ошиқ, маъшуқ, мутафаккир, рақиб ва шайх образларини биз, асосан, ишқий-фалсафий ва публицистик ғазалларда кўрсак, товламачи салбий образларни – янги кишиларни сатирик ғазалларда учратамиз” [3. Б-13]. А.Обиджоннинг янги кишиси бу Гулмат образи бўлди ва у ранг-баранг қиёфаларда турли муаммо ва вазиятлар билан адабиёт оламига кириб келди.

Ҳажвий ғазаллар тўпламида Гулмат образининг такрорланмас қиёфасини кўриш мумкин. Ўзбекистон халқ ёзувчиси Саид Аҳмад Гулмат тилидан ёзилган ғазалларни ўқиб, шундай дейди: “Уста Гулмат баъзан жуда қув, баъзан ўтакетган даражада ландавур, баъзан содда муғомбир... Ундаги мана шу “хислат”лар ҳажв учун жуда қўл келган” [4. Б-3]. Юқоридаги ғазал мазмунида содда ва гўл Гулматнинг эпчил, устомон, чапдаст ўғри томонидан алданиб, чув тушган ҳолати акс этганидан ҳам шуни кўриш мумкинки, ижодкор бу образни ҳар томонлама ёритишга ҳаракат қилган. С.Аҳмад бу образни янада ёрқин тасвирлар экан: “Анвар ўзининг галдир қаҳрамонидан жуда усталик билан фойдаланган. У ҳамма гапни юмористик тил билан жиддий тарзда айтаётгандек кўринса-да, аслида маишатпарастлик, думбул фалсафабозлик, гумроҳларча диндорлик, худбинлик, қабиҳона иғвогарлик, лоқайдлик, манманлик, молпарастлик, ичкиликбозлик, мунофиқлик каби иллатларни беаёв масхаралайди” [4. Б-3] – деган фикрлари билан Гулмат образнинг мукаммаллигини таърифлаб ўтади.

Талабалар билан ишлаш жараёнида Уста Гулмат ғазалларига янгича ёндашув қилдик. Ҳажвий ғазалларни бир мавзу доирасида жамлаб, унинг томошавийлигини ошириш мақсадида саҳнавий композиция тайёрладик. Ушбу композиция орқали оиласига бефарқ, хотинидан нолийдиган, маишатпараст, алдоқчи, хотинбоз кимсаларни саҳнада кўзгу мисоли кўрсатишда Гулмат образидан унумли фойдаланилди. “Саҳна нутқи” фанида одатда, ҳажвий ғазаллар ижроси якка тартибда тақдим қилинар ва мазмун-моҳияти очиб бериларди. Биз жамоа билан биргаликда Уста Гулмат образининг ранг-баранг қиёфаларини саҳнада гавдалантириш орқали жамиятдаги иллатларни кўрсатишни мақсад қилдик. Бу томошамиз эса кутилган натижани берди.

Қўғирчоқ театр санъатининг имкониятлари чексиз, куч-қудрати ва қамрови кенглигини М.Қодировнинг ушбу сўзларидан ҳам англаш мумкин: “театрларимиз болаларнинг эртак театри. Бироқ эртак билангина қаноатланиш, катта ёшдаги томошабинларни ўйламаслик тўғри эмас. Болалар ҳам, катталар учун ҳам замонавий мавзудаги сатирик асарлар, пародиялар, ёрқин публицистик ва романтик томошалар яратиш керак. Бунинг учун театрлар ёзувчилар билан ижодий алоқа ва ҳамкорликни кучайтириши, қўғирчоқ санъати имкониятларини тўла-тўкис ва таъсир доирасини кенгайтириш йўлида ғайрат кўрсатиши лозим” [5. Б-149] – деган фикрлари исботи ўлароқ ҳажвий ғазаллар ижрочилигини ушбу йўлдаги изланишлар самараси деб билиш мумкин.

Ҳажвий ғазаллар одатда ҳажв остига олинган кишилар тилидан янграйди. Бу каби асарларнинг таъсир доираси кенг. Халқ оғзаки ижодига айланиб ўлгурган Уста Гулмат образи ҳали узоқ йиллар мобайнида талабалар саҳнасида ранг-баранг қиёфаларда намоён бўлади. Ижодкорларнинг тинимсиз меҳнати ва изланишлари самараси ўлароқ Гулмат ва Кулкулмамат образлари Хўжа Насриддин каби миллий образ даражасида равнақ топса, не ажаб...

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбек классик шеърияти жанрлари. / О.Носиров, С.Жамолов, М.Зиёвиддинов. – Т.: “Ўқитувчи” 1979. – 184 б.
2. А.Абдулла. Аруз: Алишер Навоий ва Заҳириддин Муҳаммад Бобур сабоқлари. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – 224 б.
3. Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. Ўзбекистон “Фан” нашриёти, Т., 1976. - 122 б.
4. Обиджон А. Безгакшамол. (Юмористик ҳангомалар) [Сўзбоши муаллифи: Саид Аҳмад] – Т.: Ўзбекистон КП МК нашриёти, 1985. – 40 б.
5. Қодиров М. Халқ қўғирчоқ театри. (Ўзбек анъанавий қўғирчоқ театри). Т., Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 232 б.
6. Носиров О. Ўзбек адабиётида ғазал. Т., Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 136 б.

Qo‘g‘irchoq teatri sahnaviy ifodaviy vositalari yordamida asar obrazini yaratish.

“Teatr san’ati” kafedrasi dotsenti v.b

Dehqonov Ravshan Davlatalievich

Anotatsiya:

Ushbu maqolada qo‘g‘irchoq san’atining “Chodir jamol”, “Chodir hayol”, “Fonus hayol” kabi turlari, xamda qo‘g‘irchoq turlari xaqida ma’lumot beriladi. Bu qo‘g‘irchoqlarni zamonaviylashtirishga, o‘zgartirishga harakat qilganlari bilan, qo‘g‘irchoqni boshqarayotgan aktyor qo‘li boshqa imkoniyatlarga ega emas. Shu bilan birga, qo‘lqopli qo‘g‘irchoqlar juda kichkina va juda katta ham bo‘la olmaydi.

Maqolada ifodaviy vositalar bilan ishlash, musiqiy va shovqinlar bilan ishlashni etyudlar misolida yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: Qo‘g‘irchoq san’ati, qo‘lqopli qo‘g‘irchoq, “Chodir jamol”, “Chodir hayol”, “Fonus hayol” turlari, etyud, qo‘g‘irchoqbozlar, musiqa, ifodaviy vositalar.

Аннотация:

В данной статье представлена информация о таких видах кукольного искусства, как «Чадир Джамал», «Чадыр Хаял», «Фонус Хаял», а также о видах кукол. Когда они пытаются модернизировать и изменить эти куклы, у руки актера, управляющего марионеткой, нет других вариантов. В то же время перчаточные куклы не могут быть слишком маленькими или слишком большими.

В статье рассматривается работа с выразительными средствами, работа с музыкой и звуками на примере этюдов.

Ключевые слова: Кукольное искусство, перчаточная кукла, виды «Чадыр Джамал», «Чадыр Хаял», «Фонус Хаял», этюд, кукольники, музыка, выразительные средства.

Annotation: This article provides information about such types of puppet art as "Chadir Jamal", "Chadir Khayal", "Fonus Khayal", as well as about the types of dolls. When they try to upgrade and change these puppets, the puppet actor's hand has no other options. At the same time, glove puppets cannot be too small or too large.

The article deals with work with expressive means, work with music and sounds on the example of etudes.

Key words: Puppet art, glove puppet, views of "Chadyr Jamal", "Chadyr Khayal", "Fonus Khayal", sketch, puppeteers, music, expressive means.

Ifodaviy vositalar bilan ishlash, musiqiy va shovqinlar bilan ishlashni anglatadi.

Manbalarga ko‘ra qo‘g‘irchoq san’atining “Chodir jamol”, “Chodir hayol”, “Fonus hayol” kabi turlari X asrlarda ham mavjud bo‘lgan. Bu o‘rinda sohani

tubdan ilmiy o‘rgangan olimlarimiz M.Qodirov, S.Qodirova bergan ma’lumotlar o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. “...Kamoliddin Xusayn Voiz Koshifiyning qo‘g‘irchoqbozlar to‘g‘risidagi sharxlari XV asr va XVI asrning birinchi yarmida mazkur san’at yaxshi taraqqiy etib, ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritgan... ” Shulardan qo‘lqopli qo‘g‘irchoq turi haqida aytishimiz mumkinki, “1962-yilda Qo‘qonda Tojivoy Karimov bilan Bozorboy Xolmatov ijrosida “Qorabotir va Zuhraxon” tomoshasini magnit lentasiga yozib olindi...,” deb ma’lumot beradilar.

Yana shunga o‘xshash holatni “1963-yilda Oltiariqda Obil Toshpo‘latovdan “Polvon Kachal va Bichixon” komediyasini yozib olishdan tashqari “Qo‘l qo‘g‘irchoq”ga doir atamalar aniqlandi...,” deb yozadilar olimlarimiz.

Yuqorida aytganimiz bitta aktyor tomonidan ikkita qo‘g‘irchoq boshqarish aynan “Chodir jamol” turida ko‘proq kuzatiladi. Unga ko‘ra Korfarmon va chodir ichidagi qo‘g‘irchoqboz-aktyor butun bir spektakl ko‘rinishidagi tomoshani bir o‘zi ikkita qo‘g‘irchoqni goh unisi, goh bunisi bilan ba’zi vaziyatlarda har ikkisi bilan ijroni amalga oshirishi talab etilgan.

Boshqa turdagi qo‘g‘irchoq turlariga qaraganda qo‘lqopli qo‘g‘irchoqlar juda harakatchan, ixcham va yengildir. U predmetlarni ushlashga, yoki olish va berishni ustalik bilan bajara oladi. Zamonaviy qo‘lqopli qo‘g‘irchoqlarni yanada takomillashtirish maqsadida og‘zi ochiladigan, ko‘zlari yumiladigan qilishga erishganlar. Bu qo‘g‘irchoqlarni zamonaviylashtirishga, o‘zgartirishga harakat qilganlari bilan, qo‘g‘irchoqni boshqarayotgan aktyor qo‘li boshqa imkoniyatlarga ega emas. Shu bilan birga, qo‘lqopli qo‘g‘irchoqlar juda kichkina va juda katta ham bo‘la olmaydi. U aktyor qo‘l panjalari o‘lchamiga mos kelishi kerak. Quyida qo‘lqopli qo‘g‘irchoq va predmet bilan ishlash mumkin bo‘lgan bir nechta etyudni havola etamiz.

Etyud № 1 “Qiz va koptok”

Qo‘g‘irchoq teatri sahnasi shirma o‘rnatilgan. Sho‘x musiqa yangraydi. Sahnaga yorqin rangdagi koptok yumalab chiqadi. Koptok orqasidan sho‘x

qizaloq yugurib chiqadi (koptok simga o‘rnatilgan bo‘lib, uni ko‘makchi harakatga keltiradi). Har gal sekinlik bilan tempni kuchaytiriladi. Devor yoniga kelib devorga (shirma plankasi o‘rnatilgan joyini nazarda tutganmiz) koptokni otadi va ilib oladi. Endi devor yonidan ketib, havoga koptokni otib ilib oladi. Har gal koptokni otganda yuqoriroq otishga intiladi va ilib oladi. Koptokni bir otganda chapak chalib, so‘ng ilib oladi. Ikkinchi bor otganda, turgan yerida aylanib, so‘ng ilib oladi. Endi koptokni bor kuchi bilan yuqoriga otadi. Shu payt musiqa to‘xtab qoladi va koptok ham havoda muallaq holatda turadi. Qizcha qo‘llarini silkitib koptokni tushishga chaqiradi. Koptok rad etganday o‘rnida qimirlab qo‘yadi.

Endi u nima qilishini bilmay atrofga alanglab qaraydi. Shunda musiqa yana yangraydi va koptok yerga qaytib tushadi. Qizcha koptokni ilib oladi va quchoqlagancha xursand chiqib ketadi.

Etyudni bajarishda, albatta, ijrochi ya’ni, aktyor qo‘g‘irchog‘ining harakat ketma-ketligini aniq va puxta o‘zlashtirgan holda bilishi zarur. Chunki, aktyor berilgan shart-sharoitni, bajarishi lozim bo‘lgan vazifasini aniq bilmasligi natijasida mantiqiy ketma-ketlik buziladi. Buning uchun aktyor avvalo o‘z personajining kechinmalarini ruhan o‘zida his qilib, so‘ng uni qo‘li orqali jonsiz qo‘g‘irchog‘ida ifodalashi kerak. Masalan, qizchaga koptok sovg‘a qilishadi. Bu koptok unga juda yoqadi. Chunki, u xuddi shunday koptokni orzu qilgan edi. Qizchaning vazifasi hoziroq koptogini qanday sakrashini sinab ko‘rishdan iborat. O‘zining chaqqonligini va epchilligini sinash. Uning shoshilganini qizning sahnaga chiqishi bilan shirma boshidagi harakatidan, o‘ynashidan bilish mumkin. Bu yerda ijrochi-aktyor o‘z qo‘g‘irchog‘i obrazining har bir harakatini mukammal o‘ylab chiqishi shart. Bu qo‘g‘irchoq qo‘lqopli bo‘lganligi uchun, uning harakatlari chaqqon va tez. U qayrilishga usta, qo‘lchalari bilan tez harakatlar qila oladi va koptokni otish, ilishda tez munosabat bildiradi.

Xulosa shundaki, predmet va qo‘g‘irchoq bilan mana shunday etyudlar bajarganda, avvalo personaj-qo‘g‘irchoqning asosiy vazifasini aniqlash,

qo‘g‘irchoq nima qilayapti, ya’ni har bir harakatni mayda ikir-chikirgacha nazorat qilib, u mashqlarni qanday bajarayotganini tekshirib ko‘rish zarur.

Etyud № 2 “Quvnoq gilamcha”

Yana o‘sha qo‘g‘irchoq teatri sahnasi, shirma o‘rnatilgan. Sahnada mushukcha paydo bo‘ladi va o‘zi dumaloq qilib o‘ralgan gilamchani sudrab olib chiqadi. Gilamchani shirma etagiga qo‘yadi. Yaxshilab kerishadi va esnaydi. Endi u gilamchani yozmoqchi bo‘lib harakatga kirishadi. Gilamchani qiynalib yozishi bilan ikkinchi tomoni aylanib yig‘ilib qoladi. U gilamchaga hayron bo‘lib qaraydi va yana uni qaytadan yozishga kirishadi. Shu mahal gilamning ikkinchi uchi yana yopilib, mushukchani turtib, yiqitib yuboradi. U gilamchaning narigi tomoniga oshib tushadi va oyog‘i lat yeydi. U lat yegan joyini tumshug‘i bilan silab, xuddiki tilida yalab qo‘ygandek harakat bajaradi. Endi u ehtiyotkorlik bilan kelib, gilamchani yerga qattiq bosib oladi va astalik bilan ochadi. Mana gilamcha oxirigacha ochildi. Gilam hozircha jim turibdi. Mushukcha xursand va mazza qilib kerishadi. Bir vaqt gilamcha tezlik bilan ikki chetidan o‘rtaga qarab yig‘ilib qoladi. Mushukcha chaqqonlik bilan bu gal o‘zini chetga oladi. Endi u jahl bilan miyovlab gilamchaga tashlanadi. Hozir u gilamchaning o‘rtasiga turib, bir bu yog‘ini, bir u yog‘ini ochishga intiladi. Lekin gilamcha quloq solmaydi. U qiyinchilik bilan gilamchani yozadi va gilam chetiga o‘tirishi bilan gilamcha mushukcha bilan birga o‘ralib qoladi. Shundan so‘ng sahnadan birgalikda yumalab, miyovlab dod solgancha chiqib ketadilar.

Bu etyud ancha murakkab bo‘lib, harakatlarni aniq ishlab chiqishni talab etadi. Mushukcha sahnaga chiqishi bilan oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarishi kerak. Har bir ijrochi bu etyudni bajarishda o‘z oldiga turli maqsadlarni qo‘yadi. Masalan, bir ijrochi mushukcha hozir shu gilamchani sotib oldi, tezroq uni ochib gullarni tomosha qilmoqchi, o‘z uychasida qanday turishini ko‘rmoqchi deb fikrlasa, ikkinchi ishtirokchi mushukcha hozir o‘rnidan turdi va uning maqsadi - ko‘zlaridagi uyquni badan tarbiya mashqlarini bajarib, oxirigacha quvish. U

gilamchani ochib, mashq bajarmoqchi. Chunki, etyudda uning kerishayotgani ham berilgan.

Oldingi va keyingi sharoitda ham qo‘g‘irchoq sahnada o‘z ritmida bo‘ladi. Shuni e’tiborga olish kerakki, aktyor tasavvuri chegarasiz bo‘lishi mumkin. Ammo, u berilgan shart-sharoit va muallif ko‘rsatmasidan chiqib ketmasligilozim. Masalan, etyudda mushukchani «hayron bo‘lishi»ni qanday qilib plastik tasvirlashni o‘ylab ko‘rish kerak. Mushukcha egilib, gilamchaga qaradi, uni qo‘lchasi bilan ushlab ko‘rdi, quloq orqasini qashladi va yana ochishga harakat qildi. Gilamcha mushukni turtib yubordi. U uchib tushdi va urilganini sezdi. Urilgan yerini silab, hech narsa qilmadimikan deb qarab qo‘yadi. Lekin, bu epizodda ko‘p ushlanib qolish yaramaydi. Chunki, oldinda gilamcha bilan uni qiyinchiliklar kutmoqda.

Mana shunday predmet va qo‘g‘irchoq orqali bajariladigan etyudlar qo‘g‘irchoqning barcha harakat qirralarini ochib beradi. Shunday etyudlar qancha ko‘p mashq qilinsa, qo‘g‘irchoqni shuncha yaxshi o‘rganish mumkin.

Shirma orqasidan turib boshqariladigan qo‘g‘irchoqlar turidan yana biri bu - simli (trostli) qo‘g‘irchoqlardir. Bu qo‘g‘irchoqlarni yava qo‘g‘irchoqlari deb ham ataydilar. Taxminlarga ko‘ra, bu qo‘g‘irchoqlarning birinchi vakillari Yava orollarida paydo bo‘lgan.

Bu qo‘g‘irchoqlar ham aktyor qo‘li orqali boshqariladi. Ular bir tomondan marionetkaga, ya’ni ip bilan boshqariladigan qo‘g‘irchoqlarga yaqin bo‘lsa, ikkinchi tomondan qo‘lqopli qo‘g‘irchoqlarga o‘xshashdir. Biroq qo‘lqopli qo‘g‘irchoq kabi tanasi orqali boshqariluvchi ushbu tur boshdagi murakkab konstruksiyalar bilan farqlanadi.

Bundan tashqari qo‘llari ham qopning ichidan emas, balki ularga biriktirilgan simlar orqali harakatlantiriladi. Simlar uchida esa maxsus aktyorlar tutib turishi uchun yog‘och g‘o‘lachalar (gapitlar) bian biriktiriladi. Ko‘p hollarda bunday qo‘g‘irchoq

turlarini boshqarishda deyarli har doim ko‘makchi aktyor kerak bo‘ladi. Chunki bu turga mansub qo‘g‘irchoqlar odatda qo‘lqopli qo‘g‘irchoqlarga nisbatan kattaroq bo‘ladi.

Ular katta bo‘lishi bilan birga bosh qismida joylashgan va maxsus vazifalarni bajaruvchi mexanizmlarlarga ham ega. Qaysidir bir personajning og‘zi ishlasa, boshqasining ko‘zi, qoshi ishlaydi. Ko‘p hollarda personajning spektakldagi vazifasidan kelib chiqib kostruksiya o‘rnatiladi. Masalan jarchi, uning vazifasi biron bir xabarni yurtga yetkazishdan iborat. Shunday ekan tabiiyki uni og‘zi mexanizmlashtiriladi, ya’ni katta ochilib yopiladigan qilib yasaladi. Yuqoridagi fikrlarni e’tiborga olsak, aktyorlar bir vaqtning o‘zida ham qo‘g‘irchoqni tana va qo‘llarini boshqarib, ham ulardagi mexanizmlarni ishlatishlari kerak bo‘ladi. Tabiiyki, buning hech iloji yo‘q. Shu nuqtai nazardan yondoshsak, ko‘makchi aktyorga ehtiyoj yaqqol ko‘rinadi. Bu vaziyat bordi-yu hayvon obrazi ifodalangan simli qo‘g‘irchoqda bo‘lsa, ish yanada murakkablashadi. Masalan, tulki, uni ayyorligini, makkorligini yanada jonliroq ko‘rsatish maqsadida ko‘zi va og‘zi ochilib yopiladigan bo‘lishi bilan bir vaqtda uning dumi, qo‘llari harakatlanib, tabiiy jonlanishni aks ettiradi. Aynan shuning uchun asosiy personajni boshqarayotgan aktyorga harakatni, jonlanishni mukammallashtirmoq uchun har bir harakat a’zosiga alohida ko‘makchi-aktyorlar talab etiladi. Bunda personajning qo‘l harakatiga bitta ko‘makchi aktyor, tulki gapirganda dumini to‘xtovsiz harakatga keltirib turuvchi yana boshqa ko‘makchi–aktyor kerak bo‘ladi. Xulosa qilib shuni aytish o‘rinliki, shirmada garchand bitta personaj ko‘rinsada, sahna osti maydonchada uch yoki ba’zi paytda to‘rttalab aktyor zahmatiga guvoh bo‘lish mumkin. Spetsifik o‘ziga xos shu kabi murakkab mahoratga bo‘lishligi bilan qo‘g‘irchoq teatri, dramatik yoki yana boshqa teatrlardan farqlanadi.

Simli qo‘g‘irchoqlar qo‘llariga biriktirilgan simlar orqali juda ajoyib xatti-harakatlar qilishi mumkin. Simli qo‘g‘irchoqlar qo‘lqopli qo‘g‘irchoqlarga qaraganda anchagina katta va og‘ir bo‘ladi. Ularning harakat tempi qo‘lqopli qo‘g‘irchoqlardan ancha sust. Lekin marionetkalardan ko‘ra jonliroqdir. Simli qo‘g‘irchoqlar plastikasi keng qirrali. Ularning boshlarini harakatga keltiruvchi

mexanizm hisobiga qo‘g‘irchoqlar jonliroq harakat qiladilar. Bu qo‘g‘irchoqlar juda ulkan yoki kichkina xajmli bo‘lishi mumkin.

RMAQT (Rossiya markaziy akademik qo‘g‘irchoq teatri) asoschisi va rejissyori S.V.Obrazsov teatri ana shunday qo‘g‘irchoqlari bilan juda mashhur bo‘lgan. “Obrazsov va uning qo‘g‘irchoq ustalari tomonidan shunday ulkan va ko‘p mexanizmga ega qo‘g‘irchoqlar yaratildiki, ular kattaligi jihatidan insonlardan-da balandroq va harakatlari o‘ta mukammal edi. Bu qo‘g‘irchoqlarni bir necha aktyorlar boshqarar edilar. Shuningdek, insonlar harakatini juda o‘xshash takrorlar va bu qo‘g‘irchoqlar ishtirokidagi nomerlar tez mashhur bo‘lib, tez orada butun ittifoqdosh respublikaga tanildi.”[5] Hozirda bu teatrga S.Obrazsov nomi berilgan.

1947-yil Leningrad katta qo‘g‘irchoq teatrida qo‘yilgan «Duyimchaxon» spektaklida Duyimchaxon obrazidagi qo‘g‘irchoq inson qo‘l kaftining uchdan biriga teng edi. Shu bilan birga, katta simli qo‘g‘irchoqlar borki, yuqorida aytilganidek ular inson bo‘yiga bir yarim barobar teng va bunday qo‘g‘irchoqni bir emas, bir nechta aktyor boshqaradi.

Aktyor qo‘lidagi qo‘g‘irchoq yurish, sakrash, chopish, o‘tirish, turish, yotish, cho‘kkalab o‘tirish, bir oyoqlab sakrash, qarash, kuzatish, eshitish, quloq solish, mo‘ralash, uzoqlarga nazar tashlash, rozi va norozilikni harakat orqali ko‘rsatishdek imkoniyatlarga ega va aktyorlar ham o‘z navbatida bu harakatlarini yaxshi o‘zlashtirmog‘i kerak. Shu bilan birga u har xil og‘irlikdagi yukni tashiy olishni, kiyimidagi changni qoqishni, kiyim-kechagini to‘g‘rilashni, dazmollashni, narsalarni ilib olishni, olish va berishni bilishi kerak. Qo‘g‘irchoqlar barcha davrlarga xos salomlashish, xayrlashish va shunga o‘hshash har xil harakatlarni bajara olishi kerak. Chunki ular turli zamonlardagi turli millat ertaklarida ishtirok etadi. Simli qo‘g‘irchoqlar ko‘pincha odam yoki odam obrazini ifodalovchi jonivorni aks ettiradi. Shu ma’noda aktyorlardan inson harakatlari plastikasini sinchkovlik bilan o‘rganish-kuzatish talab etiladi.

[5]Actor`s skill Jean Benedetti. Актерское искусство (актёрское искусство эстрады) Мастерство актёра. Учебное пособие. 2010.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashurova M. H. Qo‘g‘irchoq teatrida sahnaviy obraz yaratishning asosiy yo’nalishlari. O‘quv qo‘llanma. –T., 2006.
2. Ashurova M.H. Qo‘g‘irchoq teatri san’ati aktyorlik maktabi. Darslik. –T., 2007.

3. Volxovskiy V. «Akter, personaj, rol, obraz» - sbornik nauchnix rabot. – Leningrad. 1986.

4. GenkinD.M. Massoviye prazdniki.- M.: Prosvesheniye. 1975.

5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

6. Korolev M.N. Iskusstvo teatra kukol. -M.: Iskusstvo, 1973.

7. Qodirov M.X. O‘zbek qo‘g‘irchoq teatri tarixi. Darslik. –T. 2012 .

8. Mirziyov SH.M. Erkin va faravon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda quramiz. 2017.

9. Smolyakova T. Texnologiya izgotovleniya teatralnoy kukli. Uchebnik. – T. 2007.

10. Smolyakova T. Texnologiya izgotovleniya shirmi, dekoratsiya teatra kukol. Uchebnik. – T. 2011.

11. Alexander Dean, Lawrence Carra Fundamentals of Play Directing: Fifth Edition. Osnovi rejisserskogo i akterskogo iskusstva. Uchebnik. 2004.

12. Actor’sskill Jean Benedetti. Akterskoye iskusstvo (aktyorskoye iskusstvo estradi). Masterstvo aktyora. Uchebnoye posobiye. 2010.

13. Daniel Gerould. Theaterhistory. Iskusstvovedeniye (po napravleniyu teatra kukol). Uchebnik. 2007.

14. J. Clifford Turner. Scenic speech. Akterskoye iskusstvo (aktyorskoye iskusstvo teatra kukol). Ssenicheskaya rech. Uchebnik. 2002.

Peter Fraser. Puppet Circus. - Boston: Pleys, INS., 1972.

Маъмура Умарходжаева
Камолиддин Беҳзод номидаги
Миллий рассомлик ва дизайн институти
17.00.08 - Санъат назарияси ва тарихи
ихтисослиги мустақил изланувчиси
shohruzahon81@mail.ru

ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРИ САҲНАСИДА ОБРАЗЛАР ЯРАТИШ

Қўғирчоқ театри санъати ривожи учун республикамизда алоҳида эътибор берилиб келинаётганини таъкидлаш керак. Зеро, республикамиз аҳолисининг эллик фоизини болалар ташкил қилади. Болажонлар қалбида Ватанга садоқат, нафосатга, гўзалликка нисбатан ҳавас ҳамда иштиёқ туйғулари мана шу даргоҳда туғилиши шубҳасиздир. Болалар илк маротаба ота-оналари, тарбиячилари, ўқитувчилари ҳамроҳлигида оммавий томоша муассасаларидан театр каби мўъжизакор санъат билан айнан шу ерда ошно бўладилар.

Маънан соғлом авлодни миллий қадриятлар, жаҳон маданияти намуналари асосида қалби пок, руҳи тетик, меҳр-оқибатли фарзандлар сифатида тарбиялаш, уларни театр санъати оламига олиб кириш қўғирчоқ ва ёш томошабинлар театрининг асосий вазифасидир.

Бугунги кунда республикамизда бир қатор Давлат қўғирчоқ театрлари ёш томошабинларга хизмат кўрсатиб келмоқда. Уларнинг репертуаридан миллий ва хорижий муаллифларнинг турли мавзудаги асарлари ўрин эгаллаган. Театрларнинг аксарияти нафақат республикамизда, балки қўшни республикалар, жаҳонга ҳам танилган ижодий жамоалар ҳисобланади. Улар Покистон, Америка Қўшма Штатлари, Қозоғистон, Ҳиндистон, Россия ва

бошқа мамлакатларда сафарларда бўлиб, у ердаги томошабинларни ҳам ўзбек қўғирчоқ театри санъати билан таништиришга муассар бўлмоқдалар.

Бу ўзига хос жозибага эга санъат турининг равнақ топишида ҳамда жаҳонда юқори нуфузга эга бўлишида табиийки, ҳар томонлама етук, ўз касбининг устаси, замон талабига жавоб бера оладиган профессионал мутахассислар керак. У режиссёр бўладими, актёр бўладими, барибир энг асосийси танлаган соҳасининг қобилиятли, иқтидорли, малакали эгаси бўлиши даркор.

Маълумки, инсоннинг қандай шахс бўлиб етишиши уни ўраб турган ижтимоий муҳитга боғлиқ ҳисобланади. Шу каби актёрлик санъати ҳам маълум ижтимоий муҳит таъсирида юзага келиши ва шаклланиши мумкин. Жамият тараққиётидан узилган ҳолда ижод қилиш мумкин эмас. Аксинча, ижодкор атрофини ўраб турган табиат ва ижтимоий ҳаёт қонуниятларини чуқур билиши унинг ўз соҳасида маҳоратга етишишида қўл келади.

Қўғирчоқ театри актёри авваламбор, синчков, кузатувчан бўлиши, ҳаётни, турмуш тарзини, халқ урф-одатларини, одамлар, асосан болалар психологиясини, характерига хос хислатларини, табиат ва ҳайвонот дунёсини чуқур билиши шарт. Бу актёр учун ниҳоятда зарур фазилат. Ана шундагина унинг ижро этган роллари томошабинларни мафтун этади. “Қўғирчоқбоз бамисоли мўъжизакордир”, - деб ёзади М.Қодиров. – “Бошқа пайтда оддий болалар ўйинчоғидан фарқ қилмайдиган қўғирчоқ санъаткор қўлига қўндирилгач, жонланади, нафас ола бошлайди, тафаккур ҳосил қилади, жамият ва ҳаёт жумбоқлари устида бош қотиради, севги, дўстлик, адолат ва ҳалоллик ҳақида ҳикоя қилади, яъни расмана инсоний ҳаёт билан яшай бошлайди” [1]. Қўғирчоқбоз драматург томонидан ёзилган ва режиссёр саҳнага олиб чиққан шартли ҳаётдаги қўғирчоқ персонажи образини жонлантириб томошабинга тақдим этади. Қўғирчоқ театри актёр саҳналаштирилаётган пьеса билан танишар экан, яратиши лозим бўлган образининг хатти-ҳаракати, сўзлашиш манераси ҳақида тасаввур ҳосил қилади. У болакай образи бўладими, аждарҳоми, ёки қушми актёр образнинг

моҳиятини, томошабинга шу образи талқини орқали етказмоқчи бўлган фикрини топа олиши лозим. Қўғирчоқбоз саҳнада панжара ортида туриб, драматург томонидан акс эттирилган қаҳрамонга ўз ҳаётий кузатувлари, руҳияти, кайфиятини сингдиргани ҳолда саҳна образини яратади. Панжара орқасида актёр ўз қўғирчоғини эркин фикрлаб ҳаракат қилдириш қобилиятига эга бўлиши керак. Чунки, спектакль давомида қўғирчоқ театри актёри нафақат образ яратиши, балки драматик театри актёрларидан фарқли ўлароқ, панжара ортида туриб, томошабинларга кўринмаган ҳолда, ижро этаётган персонаж қўғирчоғини боши узра кўтариб, ҳаракат қилдириши лозим. Саҳнада айтилаётган сўзлар актёр ўйнатаётган қўғирчоқ томонидан айтилгандек қабул қилиниши керак. Сўзга ҳамоҳанг қўғирчоқнинг лаблари қимирлаши, қўл, оёқ, танаси ҳаракатга келиши даркор. Сабаби, томошабин актёр ижросидаги қўғирчоқлар орқали ҳаётни, табиатни, ҳайвонот дунёсини идрок этади. Демак, актёр спектакль давомида оғир қўғирчоқ персонажини соатлаб юқорида кўтариб ҳаракатга келтиради. Агар бу жараёнда панжара ортида актёр эркин бўлмаса, қўлидаги қўғирчоғи ёки панжара устидаги ҳолатини йўқотади, баъзан бир томонга қийшайиб қолган ҳолатда қотиб қолиши мумкин.

Демак, қўғирчоқ театри актёри учун тана эркинлиги зарурият ҳисобланади. У пенжара ортида бир пайтнинг ўзида ҳам сўзлаши, эркин ҳаракатланиши, қўғирчоқларни ҳаракатга келтириши лозим бўлади.

Қўғирчоқ театри актёри қўғирчоқ ортида яширинган ёки кўринмаган ҳолда, ҳиссиётларини қўғирчоқ персонажига ўтказиш орқали яхлит, мукаммал образ яратади. Демак, қўғирчоқ театрида томошабинга образ талқинини етказиб берадиган омил - бу саҳна қўғирчоғидир. Актёр образга фақат ролнинг моҳиятидан келиб чиққан ҳолда ёндошмасдан, аввало қўғирчоқнинг ташқи хусусиятларига эътибор бериши лозим. Шунда у панжара ортидаги қўғирчоқ актёри мақсадини баён эта олади. Шундай экан, образ яратиш жараёнида қўғирчоқнинг ташқи қиёфаси ва муаллиф томонидан унга берилган аниқ характер, хулқ-атвори каби хусусиятлари

инобатга олинади. Образларга характеристика бериш жараёнида актёр ўзи саҳнага олиб чиқадиган персонажнинг хулқ-атворини, унинг атрофдагилар билан бўладиган муносабатини, етакчи хатти-ҳаракатини ва олий мақсадини аниқлаб олсагина образ талқини тўғри ва аниқ чиқади.

Қўғирчоқ театри саҳнасида яратилган образларнинг тўлақонли чиқиши қўғирчоқ ўйинига боғлиқлиги билан белгиланади. Спектаклнинг сифати эса қўғирчоқ театри актёрининг маҳорати орқали аниқланади. Қўғирчоқ театри актёри қўғирчоқларнинг ҳамма турларини бошқаришни билиши керак.

Театр қўғирчоқларини турларига қараб, уларни бошқариш услублари ҳам ҳар-хилдир. Чунки, турли қўғирчоқларнинг тузилиш техникаси бир-биридан фарқ қилади. Қўғирчоқ театрини режиссёр, актёр, мусиқа, рассом иши билан ҳамоҳангликда тасаввур этиш мумкин. Саҳналаштирувчи режиссёр ҳамма тарқоқ шўъбаларни бирлаштирувчи шахс. Бироқ қўғирчоқ театрида актёрнинг асосий қуроли-қўғирчоқни юзага келтирадиган рассом, қўғирчоқ устасининг ишини унутмаслик керак. Зеро, актёрни эркин ҳаракати, образнинг мағзини топиши, ҳарактерини аниқлаши айнан рассомга боғлиқ. Рассом ва қўғирчоқ устаси қўғирчоқни ясаётган жараёнидаёқ унинг қандай ҳиссиётларга эга бўлишини, характериниюзидаёқ акс эттиради. Актёр эса ўз ижроси билан уни тўлдиради, аниқлаштиради. Актёр қўғирчоқни жонлантириб, уни ҳаракатга келтириб, уорқали яхлит образ яратади. Бундан билиш мумкинки, актёр авваламбор, театр қўғирчоғини бошқариш, ўйнатиш техникасини ўзлаштириши, сўнг мана шу қўғирчоқ орқали, унинг бутун имкониятларини инобатга олган ҳолда образ яратиши лозим бўлади.

Қўғирчоқ театри актёри деганда, икки қутб кўз ўнгимизга келади. Бироқ жонсиз предмет - қўғирчоқ бўлса, бири мана шу жонсиз матонига жонлантирувчи, яъни ўз ҳиссиётлари билан бойитувчи актёрдир. Агар аввалги асарларда қўғирчоқ актёрлари рассом, ҳайкалтарошлик махсули бўлган қўғирчоқларни кўтариб юрувчи, чиройли ясалган, кичик одамчаларни томошабинларга кўрсатиш билан чекланган бўлсалар,

эндиликда актёр қўғирчоқ ортига яширинмайди. Балки, у жонсиз қўғирчоқни ҳаракатлантиради. “Қўғирчоқ актёр билан эмас, актёр қўғирчоқ билан” [2], деган ҳолат юзага келади. Зеро, актёр қўлидаги қўғирчоқ бу нафақат уни ясаган рассом, ҳайкалтарош меҳнати, балки, уни ҳаракатлантирган актёр меҳнати маҳсули ҳамдир. “Қўғирчоқ яратувчи рассом ва конструктор ўз ғояларини ўлик жон - қўғирчоқ орқали қанчалик баён этишга уринмасин, у фақат актёр қўлида, унинг ёнида баён этишга уринмасин, у фақат актёр қўлида, унинг ёнида у билан бирга, ҳамкорликда ёки зиддиятда жонланади” [3].

Демак, қўғирчоқ театрида актёр меҳнати, у эгаллаган мавқе ўта маъсулиятли. Актёр ўз даврининг ижодкори, илғор кишиси, қайсидир даражада тарбиячиси ҳамдир. Актёр санъати томошабинларга ниҳоятда тез ва жонли таъсир этади. Маълумки, актёр саҳнада яратаётган образининг дунёси, фикр-ўйлари билан яшаши лозим. Қўғирчоқ театри актёри учун эса, бу бир оз қийинроқ кечади. Сабаби, унинг қўлидаги қўғирчоғи учун ҳиссиёт, кечинма бегона. Фақат актёр қобилияти туфайлигина қўғирчоқ саҳнада ўз ҳаёти билан яшай бошлайди. Қўғирчоқ билан ишлаш жараёнида қўғирчоқнинг ўзи жонсиз мато бўлса, қўғирчоқ актёри образи хатти-ҳаракатини саҳнада ички кўзгуда аниқ кўриб, сўнг уни қўлидаги қўғирчоғига кўчиради. Шунда қўлидаги қўғирчоқнинг пластик ҳаракати жонли кечади. Албатта, бунинг учун актёр диққат, тасаввур ва фантазия, ҳатти-ҳаракат, шарт-шароит, тана эркинлиги, муносабат, баҳолаш, темпоритм, бир сўз билан айтганда, актёрлик маҳорати элементларини билиши даркор.

Қўғирчоқ актёри қўғирчоқ билан танишишдан аввал, драматург томонидан ёзилган пьеса, унда яратиши лозим бўлган образ билантанишади. Ўзи яратмоқчи бўлган образни кўз олдига келтиради. Агар мана шу жараёнда актёр тасаввур билан қўғирчоқнинг ташқи кўриниши мостушмаса, у ҳолда бўлажак образ муваффақиятли чиқиши гумондир. Актёр ўз қўғирчоғидан кўнгли тўлмаган шундай ҳолларда, қўғирчоқ ясалмасдан аввал, эскиз вариантидаёқ фикр билдириши айни муддао ҳисобланади.

Актёр саҳнада ҳаракатлари орқали томошабинни жалб эта олишга муяссар бўлдими демак, ҳаракатлари жонли ва табиий чиқиб, у бирга зумга унутилиб, жонлантирилган қўғирчоқ томоша қилинади. Томошабин бу жонсиз қўғирчоқ эканлигини унутиб, саҳнада ҳақиқий бола, ёки қўнғиз, шамол ҳаракатланаётганига ишонч ҳосил қилсин. Бу актёрнинг меҳнати, маҳорати, техникасидан далолат беради. Энг муҳими, актёр ўз ижроси билан қўғирчоқни жонлантиргани эмас, балки, саҳнада маълум образ ярата олганида. Қўғирчоқ театри актёри қўлига қўғирчоқни олиши билан, панжара ортида томошабинга кўринмагани ҳолда, ўз қаҳрамони ҳаёти билан яшай бошлайди. Фақат маҳоратли ижрочиларгина бунга эриша оладилар. Зеро, қўғирчоқни оддий, ҳеч қандай ҳиссиётларсиз ҳам ўйнатиш мумкин. Лекин, бу ҳақиқий ижод бўлмайди.

Қўғирчоқ театрида деярли барча компонентлар жонсиз бўлиб, театрда фақат саҳна жиҳозлари, бутафорлар сохта бўлмай, балки, актёр қўлидаги қўғирчоқ ҳам, турли матолардан ясалган жонсиз персонаждир. Актёр томошабинларнинг кўз ўнгида қўғирчоқни ҳаракатга келтириб, саҳнада уни ўраб турган жонсиз нарсаларни кўришга, сезишга ва ҳис қилишга ёрдамлашади. Шундай экан, қўғирчоқ театри саҳнасида яратилаётган ҳар бир жонли ва жонсиз персонажларнинг имконият даражасини аниқ илғамасдан туриб, саҳнада яхлит, кенг маънодаги образ яратиш қийин бўлади.

Қўғирчоқ театри актёри ижро этаётган қўғирчоғини яхши билиши, унинг тузилиши, технологиясини, тасвирий жиҳатларини илғай олиши лозим. Шундагина актёр қўлидаги қўғирчоғи ҳиссиётларини, унга мос нутқни, ҳаракатни, овозни топа олиши мумкин. Бунда уларга рассом, ҳайкалтарошлар ёрдамга келиши керак. Агар қўғирчоқ юзидаги мимика ҳаракатда эмас, балки, ўзгармас ҳолда акс эттирилган бўлса, актёр қанча куч сарфламасин бу ҳолатни енга олмайди. Зеро, қўғирчоқнинг юзида бир лаҳзалик руҳият акс эттирилган бўлади.

Қўғирчоқ театри актёри ҳам бошқа актёрлар сингари таълим олади ва тарбияланади. Бироқ, уларнинг ўзига хос, ажралиб турувчи томонлари ҳам йўқ эмас. Авваламбор, улар томошабинга ўзлари кўриниш бермайдилар, балки, қўғирчоқлари билан мулоқот қиладилар. Иккиламчи, ўз партнёрлари билан ҳам қўғирчоқ орқали муносабатда бўладилар. Баъзи бир ҳолларда оғир, катта ҳажмли қўғирчоқларни бир вақтда уч ёки тўртта актёр бошқарса бунда ижодий яқинлик бўлмаса, ягона саҳнавий қиёфа чиқмайди. Ёҳуд, бир томоша давомида бир актёр бир неча бир-бирига ўхшамаган қиёфаларни ярата олиши мумкин. Қўғирчоқ театри актёри учун қўғирчоқни қўлига олиш, бу драматик актёр учун ролга киришда соч-соқол ёпиштириш, кийим-кечак кийишдек гап. Яратаётган образи руҳиятига кира боради. Актёрнинг қўғирчоқ билан ишлаш жараёнида бир қатор машқлар мавжуд. Сабаби, бир ёки бир ярим соат мобайнида давом этадиган спектаклда образ яратиш учун актёр қўғирчоқ билан эркин ҳаракат қилиш имкониятига эга бўлиши даркор.

Қўғирчоқ театри актёри учун энг зарур бўлган жиҳатлардан бири бу-унинг қўли ҳаракатчанлигидир. “Актёрнинг қўли-қўғирчоқнинг қалби”, деган эди ўз вақтида С.Образцов [4]. Ҳақиқатдан ҳам инсон танасининг энг фаол аъзоси бўлган қўл қўғирчоқ театрида сеҳргарлик кучини янада яққол намоён қилади. Драматург асаридаги қиёфалар, рассом ва қўғирчоқ устасининг ижодий кўмагида дунёга келган қўғирчоқлар актёр қўли билан жонланиб, ҳатти-ҳаракатга келади. Демак, қўғирчоқ театри актёрининг қўллари ҳаракатчан, чиниққан, чидамли бўлиши лозим. Икки қўлини бир хилда ҳаракатланишига эришиш лозим. Чунки, биринчидан, қўғирчоқ театри актёри битта спектаклда бир неча образ яратиши мумкин, иккинчидан соатлаб қўғирчоқни юқорига кўтариб ўйнатишига тўғри келади. Бу эса, қўлни толиқтиради ва шундай пайтларда у қўғирчоқни бир қўлидан иккинчисига ўтказиб, бемалол ишлай олиш қобилиятига эга бўлади. “Қўғирчоқ ўйнатиш санъатини мусиқа ижросига, қиёслаш мумкин. У ҳам, бу ҳам ўзини қўлидаги асбоби орқали ифодалаши мумкин, бунинг учун эса, уни мукаммал ўрганган бўлиши лозим” [5].

Қўғирчоқ театрида образ яратиш жараёнида сўз ва товушларнинг ўрни бор. Чунки сўз ва товушлар қўғирчоқ персонажларининг юз ниқобидан ва унинг ташқи кўринишидан келиб чиққан ҳолда туғилиши шарт. Қўғирчоқ театрида кўпинча инсонлар образи билан бирга, ҳайвон ёки табиат кўринишлари ҳам товуш чиқариб гапиради. Қўғирчоқ театрида дарахт, гул, илон, кийик ва ҳоказоларнинг ўзига хос товуши бор. Лекин, ҳаётда ҳеч қачон улар гапирмайди, кулмайди. Мисол учун: гул-гул қанақа, гулларга хос характер, гўзал, нозик, беозор, ҳаётни севувчи, инсонларни ўз гўзаллиги билан хушнуд қилади. Демак, гулда товуш йўқ, лекин, у пьеса бўйича гапириши керак. Албатта, бундай персонажга ёқимли, нозик овоз топиш лозим бўлади.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, қўғирчоқ театрида актёрнинг тутган ўрни, образ яратиш жараёнидаги ўзига хос жиҳатлари, услуб ва воситалари тадқиқ этилиб, қўғирчоқ театри актёри барча ижодкорлар сингари ўз касбига фидоий, образ устида тинимсиз ишлаши лозимлигини қайд этиш керак. Бошқа актёрлардан фарқли, унинг қуроли, образ яратишдаги воситаси - қўғирчоқдир. Қўғирчоқ театри актёри ўзҳиссиётлари, ҳис-ҳаяжони, руҳиятини қўғирчоққа кўчиради ва жонсиз танага жон, руҳият ато этади. Саҳнада кўринмаган ҳолда, томошабинга қўғирчоқлар воситасида ҳаёт ҳақида, табиат ҳодисаларини жонлантира туриб, уларга сабоқ беради, тўғри йўлга бошлайди, яхшини ёмондан ажратишга кўмаклашади ва ўргатади. Бу хайрли ишда унга рассом, ҳайкалтарош, қўғирчоқ устаси, режиссёр, композитор яқиндан кўмаклашади. Зеро, қўғирчоқнинг таъсирли, жонли чиқиши бирламчи актёрга, ундан сўнг ижодкорларга боғлиқ ҳисобланади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Қодиров М. “Ўзбек халқ томоша санъати”. Т., Ўқитувчи, 1981.
2. Смирнова Н. “Искусство игращих кукол”. М., 1983.
3. Ўша манба.
4. Сперанский Е. “Повесть о странном жанре”. М., 1971.

5. Деммений Е. “Призвание кукольник”. М., Искусство, 1986.
6. Гаврилов М. “Кукольный театр Узбекистана”. Т., 1928.
7. Қодиров М. “Халқ қўғирчоқ театри”. Т., 1972.
8. Ашурова М. “Қўғирчоқ театр санъатининг актёрлик мактаби”. Т., 2007.
9. “Узбекский традиционный театр кукол”. Т., 1979.
10. Смирнова Н. “Искусство играющих кукол”. М., 1983.

QO‘G‘IRCHOQ YASASH TEXNOLOGIYASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

O‘zDSMIFMF Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘lim boshlig‘i B.Mamatqulov

Annosatsiya:Ushbu maqolada qo‘g‘irchoq teatrining rivojlanish bosqichi va qo‘g‘irchoq yasash texnologiyasining rivojlanish bosqichlari yoritilgan bo‘lib, ushbu san’at turning bugungacha murakkab holatda qolayotgan amaliy xatti-harakatlari joy olgan.

Kalit so‘zi: qo‘g‘irchoq, texnologiya, tarix, san’at, intuitsiya, afsona.

Qo‘g‘irchoq teatri uzoq vaqtdan beri tirik mavjudotlarga, jumladan insonga ham ko‘p figurali o‘xshashligi bilan doimo falsafiy mulohazalarni keltirib chiqargan. Qiyosiy olib qaraganda qo‘g‘irchoq – tiriklikning jonli timsoli, unda haqiqiy dualizmning namunasi bo‘lgan boshqaruv va nazorat juda ravshan namoyon bo‘ladi. Ayni shu sababdan siyosat olami odamlari hukumat vakillariga baho berar ekan ko‘p holatda “qo‘g‘irchoq hukumat”, “o‘yinchoq rahbar” iboralarini ishlatishadi.

Qo‘g‘irchoq mavzusi, uni harakatga keltirgan iplar va bu harakatga yo‘l ko‘rsatuvchi muallif irodasi mavzusi nafaqat antik, balki o‘rta asrlar falsafasidan ham to‘yingan, mukammallashgan. Qo‘g‘irchoq haqidagi bahslar nasroniy dini uchun ko‘rgazmali qurollar ifodasi sifatida ham takrorlanadi: inson(qo‘g‘irchoq) xudoga tobe, xudo inson uchun tafakkur qiladi, qaror qiladi hamda taqdirini oldindan belgilab beradi, boshqaradi degan qarash ushbu san’at negiziga ko‘chib, o‘zida diniy tasavvurlarning katta aurasini namayon qilgan..

Qo‘g‘irchoq boshqarish san’ati turlari rangtasvir va haykaltaroshlik asarlariga nisbatan biroz murakkab hamda chuqur izlanish talab qiladigan san’at turidir. Ushbu san’atda makondagi uzluksiz harakat, u holatdan bu holatga o‘tish orqali his etiladi. Uni diqqatni jamlabgina maromiga yetkazib ijro etish, tomoshabinga yetkazib berish mumkin. Bir so‘z bilan aytganda qo‘g‘irchoq boshqarish san’ati nafaqat makonda, balki vaqtda ham his etiladi.

Qo‘g‘irchoqbozlik o‘zining vujudga kelishi va rivojlanishiga ko‘ra g‘ayrioddiy hodisa emas, balki xalq hayotini obrazli, muayyan aks ettiradigan va jamiyat qonunlariga, taraqqiyotiga hamohang belgilanadigan faoliyatdir. Har bir millat tarixida qo‘g‘irchoq teatri o‘zining ibtidosini diniy afsonalardan oladi.

Sharqning an’anaviy tomoshalarini ilk marota yevropalik olimlar o‘rganishgan. Birinchi maxsus maqolalar XIX asrning ikkinchi yarmidagina paydo bo‘lgan. Tadqiqotlar samarali davom etib XX asrda mohiyatning “tashqi” ta’riflariga sharq mualliflarining “ichdan” yoritib beruvchi manbalari qo‘shilgan. Hozirgi kunga kelib, qo‘g‘irchoqbozlik mavzusidagi xorijiy adabiyotlar ko‘lami kengaygan. Ammo ularning ichida qo‘g‘irchoq yasash texnologiyasiga oid adabiyotlar juda kam. Biroq adabiyotlarning katta qismi nazariyaga oid bo‘lsa-da, sharq teatri muammolari bir tekisda yoritilmagan. E’tirof etish kerakki, Indoneziya, Turkiya, Xitoyning yassi qo‘g‘irchoqlar tomoshalari (soyalar teatri) yaxshi o‘rganilgan. Malayziya, Tailand, Kambodjida ular haqida katta material yig‘ilgan va Hindistonda bir talay tadqiqotlar boshlangan. Yassi qo‘g‘irchoqlar tomoshalari mavzusiga qator monografiyalar bag‘ishlangan. Qo‘g‘irchoqlar texnologiyasi haqidagi ma’lumotlar aksincha kam o‘rganilgan. Ular olimlarni kam qiziqtirgan. (Bunraku yapon teatri to‘g‘risidagi yapon tilida va yevropa tillarida muhim ahamiyatiga ega adabiyotlar bundan mustasno). Sharqning qo‘g‘irchoqbozlik an’analari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni mujassamlashtirishga urinishni qo‘g‘irchoq teatri tarixiga oid bir qancha monografiyalarda kuzatish mumkin, biroq bu mavzudagi yagona maxsus kitob Shri-Lankalik J.Tilakasiri qalamiga mansub.

Rus tilidagi adabiyotlar ko‘p emas. Ma’lum tafsilotlar asosida Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Birma, Tailand, Indoneziya, Eron, Turkiya, Arabiston, O‘rta Osiyo qo‘g‘irchoq teatrlari to‘g‘risida yozishgan. Bu ta’riflar ba’zi xorijiy ishlarning tarjimalari bilan to‘ldirilgan. Sharq qo‘g‘irchoq teatrining qisqa tavsifi O.Sexnovitserning 1927-yilda nashr etilgan maqolasiga kiritilgan[6].

Sharq mamlakatlarida an’anaviy qo‘g‘irchoq teatri shakllaridan qadimiysi bo‘lgan soyalar teatri keng tarqalgan. Ushbu teatrni Yava, Shiam va Birma orollarida uchratsak, u Turkiya va Xitoyda rivoj topib, aynan mana shu mamlakatlarda ko‘plab asrlar mobaynida o‘zining asoslarini yo‘qotmagan. Hind savdo kemalari va Ganga vodiysidan ko‘chib kelganlar, singalyozlar bilan birgalikda (Shimoliy hind irqi bo‘lib, ular eramizdan avvalgi 543-yilda ilk bora seylonda qo‘nim topganlar. Taxminan eramizdan avvalgi 500-yillarda hindlar seylonni butunlay mahf etgan[7]) seylonga hind madaniyati ham singib boradi. Singalyozlar bu yerda hind milliy eposini olib kirib, keyinchalik epos o‘ziga xos rivoj topgan. Shu tariqa seylonga “vidushak” qo‘g‘irchoq teatri ham rivojlangan.

Xuddi shu tariqa hind qo‘g‘irchoq teatrining dengiz savdo yo‘li Yava orollariga qo‘g‘irchoq teatri madaniyatini olib kirib, u yerda yog‘ochli qo‘g‘irchoqlar teatrigina vayang golek emas, balki soyalar teatri vayang kulit nafaqat rivojlandi, balki bugungi kunga qadar ham saqlanib qoldi. Ushbu soyali teatrlar sahnalarining mazmunlari qadim hind rivoyatlaridan iborat bo‘lib, unda xudolar va afsonaviy qahramonlar haqida so‘z yuritiladi. Mazkur mazmun yavanlarda, ularning buddaviylikka taalluqli jihatlari qolmagan bo‘lsada, hozirgi kunda ham saqlanib qolgan. Bugungi kunda ham yava qo‘g‘irchoq teatri o‘zining qadimiy diniy mazmunini va marosimiy shaklini saqlab qolgan.

Dengiz va quruqlik yo‘llari orqali (shimoli g‘arbiy chegaralari orqali) yo‘lga qo‘yilgan savdo munosabatlari Fors mamlakati bilan tutashgan. Fors qo‘g‘irchoq teatri qahramoni Pahlavon Kachal ham Vidushakka o‘xshashdir. U juda ham

---

[6] И.Н.Соломоник. “Традиционный театр кукол востока”. Издательство “Наука”. Главная редакция восточной литературы. Москва 1983. Стр-3.

[7] Internet manbasi. Google. “Hindiston tarixi va madaniyati”.

badbashara, hazilkash, ingichka chiyilloq ovozga ega, o‘ta sevuvchan va otashin bo‘lib, o‘z quroli bo‘lgan tayog‘ini ishga solib, hattoki iblis bilan jang qiladi.

Xitoy qo‘g‘irchoq teatrining asoslari ham diniy marosimlardan olingan bo‘lib, ushbu jarayonlarda qo‘g‘irchoqlar eng samarali ishtirokchi bo‘lgan. Ko‘plab Xitoy rivoyatlarida asrlar davomida mavjud bo‘lib kelgan marionetkali qo‘g‘irchoqlar teatrlariga ta’rif berishganida, uning salmog‘ini soyali teatrlarning salmog‘i bilan tenglashtirganlar. Le szining qaydnomalarida keltirilishicha, ushbu qo‘g‘irchoq teatrini yaratilishi eramizdan avvalgi ming yillikka to‘g‘ri keladi. O‘sha davrlardagi mohir ustalar qo‘g‘irchoqlarni somon va laklangan yog‘ochdan yasagan bo‘lib, ular hattoki raqsga tusha olishgan va ashula aytishgan.

Eramizdan oldingi II asrda marionetkalar teatri haqida Io Fu Sza Luining qaydnomalari bizga shunday farazlarni qilishga ko‘mak beradiki, unga ko‘ra, ma’lum vaqt mobaynida marionetkali qo‘g‘irchoqlar mamlakatning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etgan bo‘lib, imperator saroyidagi chiqishlarda ishtirok etib, xalqni xursandchiligi uchun xizmat qilgan.Marionetkali va soyali teatrlar bilan bir qatorda, asrlar mobaynida Xitoyda qo‘l qo‘g‘irchoq ham mavjud bo‘lib, uning asosiy qahramoni Kvo o‘zining fe’l atvori bilan yana Vidushakni eslatadi. Kalbosh Kvo ham vazir-u shoh saroyida yashovchi amaldorlarni ustidan kulgan, kaltagi bilan ularni “savalab” turgan[8].

Afsuski, bizlar ushbu teatrlarning matnlariga ega emasmiz, lekin guvohlarning ta’riflari bo‘yicha Kvo teatrining asosiy mavzulari oddiy turmush tarzi va hayotidan olingan. Xitoy qo‘l qo‘g‘irchoq teatrining tuzilishi Yevropa mamlakatlari singari bir xildir. Qo‘g‘irchoqboz ikkita tuynugi bor, rangli matoli qopga o‘ranib olib xalq sayllarida tomoshalar ko‘rsatgan. Tuynuklarning pastkisi, tizzadan yuqorida kiyilgan ip bilan tortilib oyoqlarning erkin harakatlariga halaqit bermagan[9]. Yuqorisi keng to‘rtburchakli tuynukcha, uning boshidan birozgina balandda joylashgan bo‘lib, qo‘g‘irchoqlarning harakatlari uchun ochiq sahna

[8] И.Н.Соломоник. “Традиционный театр кукол востока”. Издательство “Наука”. Главная редакция восточной литературы. Москва 1983. Стр-20-21.

[9] O‘sha manba. Qarang. 21-22-betlar.

vazifasini o‘tab, qop ichining pastki oldingi qismida qo‘g‘irchoqlarni joylashtirish uchun cho‘ntaklar qilingan. Qopning yuqorigi cheti mahkamlangan yog‘ochli hoshiya, o‘zining old qismi bilan, qop ichida o‘zining pastki uchi bilan qo‘g‘irchoqbozning kamariga tiralib turadigan maxsus tayoqqa mahkamlangan. Hoshiyaning orqa qismi qopning kattaroq bo‘lgan orqa qismini ushlab, qo‘g‘irchoqlar tomosha ko‘rsatadigan, yog‘ochdan ishlangan fonni tashkil etgan.

Yuqoridagi ma’lumotlardan anglash mumkinki, Xitoy qo‘g‘irchoq teatri turlaridan qo‘lqopli qo‘g‘irchoqlar juda kichik yasalgan bo‘lib, inson tanasining o‘zginasini aks ettirgan. Bunda ularga ko‘zlarining yumilishi, og‘zining qimirlashi va qo‘llarining ishlash mexanikasi yordam bergan. Xitoy qo‘lqopli qo‘g‘irchoqlari qo‘lining ishlash mexanikasi boshqalarnikiga qaraganda farq qiladi. Ular bir qo‘li bilan buyumlarni ushlashi mumkin. Buning uchun qo‘g‘irchoqning barmoqlari yig‘ilgan holda, mushtga o‘xshatib yasaladi. Keyin bu mushtni ichida kichik teshikcha hosil qilinadi va kerakli bo‘lgan buyumlar shu teshikchaga kirgizib qo‘yiladi. Bunday buyumlarga qilich, yelpig‘ich, nayza, tayoq kabilarni misol qilsak bo‘ladi. Xitoyda qo‘lqopli qo‘g‘irchoqlar boshqalardan farqli o‘laroq oyoqlari bilan yasaladi. Bu qo‘g‘irchoqlarning yuz ko‘rinishi va liboslari aynan musiqaviy drama aktyorlarnikiga o‘xshash bo‘lganligi sababli, ularni yasashda nafaqat ustalari, balki mohir haykaltaroshlar ham ishtirok etadilar. Bu teatrda ko‘plab afsonalar, tarixiy janglar va boshqa asarlar ko‘rsatilgan. Ulardan “G‘arbga sayohat”, “Uch qirollik” kabilari eng mashhurlaridir. Xitoy qo‘lqopli qo‘g‘irchoq tomoshasida aktyorlar tomoshabindan yashiringan holda, chodirda bo‘lganlar va qo‘g‘irchoq qahramonlariga o‘zlari ovoz bergan. Qo‘lqopli qo‘g‘irchoqlar teatrini Xitoyda bir qancha nomlar bilan atashadi. Masalan, eng ko‘p ishlatiladigan nom bu “budaysi” bo‘lsa, undan tashqari “szyuyliszi”, “shoutao kuyley”, “danszisi” kabi nomlarni ham uchratishimiz mumkin[10]. Xitoy qo‘g‘irchoq teatri bugungi kunda ham o‘z tomoshabinlarini quvontirib kelmoqda. Ammo bugungi kunda

[10] F.X.Mirzayev. “Mustaqillik yillarida zamonaviy qo‘g‘irchoq teatri rejissorligidagi izlanishlar”. Magistrlik dissertatsiyasi. 2013-yil. 37-bet. Ushbu manba katta ehtimol bilan I.N.Solomonikning “Традиционный театр кукол востока” kitobidan olingani ehtimoli katta. O‘zbek tilidgi tarjimasi yo‘qligi bois boshqa manbalar bilan solishtirishda qiyinchilik tug‘dirdi.

Xitoyda aynan qo‘lqopli qo‘g‘irchoq tomoshalari tobora kamayib, yo‘qolib bormoqda.

Xitoy va Yaponiyaning qadimdan chambarchas bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy va madaniy yaqinliklari tufayli, Xitoy qo‘g‘irchoq teatrining Yapon qo‘g‘irchoq teatri shakllanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatishiga olib kelgan. Yaponiya qo‘g‘irchoq teatri ham qadim tarixi bilan mashhurdir. Bu fikrlarni tasdig‘i sifatida ikki xil turdagi teatrlarni keltirish mumkin: qo‘g‘irchoqlar odamlar tomonidan boshqariladigan “Ningyo sukai” va bugungi kun marionetkalari “Ito sukai”lardir. Yaponiyaning zavod va fabrikalar markazi Osaka shahrining ishchilari orasida keng tarqalgan hamda taniqli sanalgan “Ningyo sukai” teatri hamisha katta qiziqish va e’tibor markazida bo‘lgan. Bu yerda qo‘g‘irchoqlar, inson bo‘y bastining uchdan ikki qismiga yoki to‘rdan uch qismiga teng bo‘ladi. Ular juda ustalik bilan yasalgan: bosh qismi sharnir tufayli xar tomonga aylangan, shu bilan birgalikda qo‘g‘irchoqning yuzi, ko‘zi, qoshlari va og‘izning yuqori qismi, tirsak, yelka oldi bo‘g‘inlari, bilagi hamda barmoqlari harakatlanish xususiyatlariga ega bo‘lgan. Tomoshalar vaqtida ashulachilar va matn o‘quvchilar sahna ko‘rinishini bayon etishlari asnosida, qo‘g‘irchoqlar, boshlariga qora yopinchiq yopgan, past, tizza bo‘yidagi yog‘ochli to‘siq ortidan turib boshqarayotgan qo‘g‘irchoqboz aktyorlar yordamida sahna bo‘ylab harakatlangan, ba’zi qo‘g‘irchoqbozlar ustlariga hech nima yopmagan va to‘siqsiz ijro etishgan.

Yapon teatri “Ningyo sukai” allaqachon xalq yarmarkalari tomoshalaridan ajralib chiqqan bo‘lib, jonli aktyorlar teatriga aylangan. Qo‘g‘irchoqlarning yuqori mexanizmlash tufayli u insonga taqlid qilishga intiladi va ushbu qo‘g‘irchoq bu ko‘rinishda umuman o‘ziga xos, ifodali va to‘laqonli sahna harakatlarini namoyon etishi bugungi kunda ushbu qo‘g‘irchoqlarni yarmarka qo‘g‘irchoqlari bilan birorta ham umumiyligi qolmagan. Yapon qo‘g‘irchoq teatri, inson va qo‘g‘irchoq teatri o‘rtasidagi o‘ziga xos teatrni yaratgan. Yaponiyadagi eng katta qo‘g‘irchoq teatri bu – “Bunkaru”dir. “Bunkaru” va “avadzi” kabi an’anaviy teatrlarining davomchilarini bugungi kunda ham uchratsa bo‘ladi. “Bunkaru” sahnasida asosan an’anaviy yapon janri hisoblangan “dzyoruri” uslubidagi asarlar ko‘rsatiladi.

Yaponiya teatrlari asosan planshet qo‘g‘irchoq turlaridan foydalanadi. Lekin ba’zi teatrlarda ipli qo‘g‘irchoqlarni ham uchratish mumkin. “Bunkaru” qo‘g‘irchoq teatridagi qo‘g‘irchoqlar juda mukammal tarzda ishlangan. Ularning bo‘yi 100-130 sm ni tashkil qiladi. Ularning og‘zi, ko‘zi, qoshi, ishlaydigan qilib mexanizatsiyalashtirilgan. Qo‘llari, barmoqlari va oyoqlari yengil harakat qiladigan qilib o‘rnatilgan. Qo‘g‘irchoqlarning tana qismi judayam sodda qilib ishlangan. Qo‘g‘irchoqqa mahkamlangan yelka qismi, keyinchalik qo‘llar va oyoqlarni o‘zida aks ettiradi. Oyoqlar asosan erkak qo‘g‘irchoqlarni bildiruvchi qahramonlarda bo‘ladi. Ayollarni kiyimi, ya’ni an’anaviy kimono uzun bo‘lgani uchun ularga oyoq o‘rnatilmaydi. Qo‘g‘irchoqlarning bosh qismi nafis va bejirim bo‘lganligi sababli, ularni mohir ustalar o‘ziga xos uslubda yasashadi va ular asrab-avaylab saqlanadi. Bu teatrda har bir qo‘g‘irchoq qahramoniga belgilangan libos, parik va shu kabi yordamchi vositalar ishlatilgan. Qo‘g‘irchoqlar uchun pariklar tabiiy sochlardan tayyorlanib, har bir spektakl oldidan yaxshilab tekislanib turmaklangan. Qo‘g‘irchoqlarning liboslari ham qahramonlarga mos qilib tikilgan va agar ta’bir joiz bo‘lsa, spektakl vaqtida sahnaning o‘zida ularni yechish va kiyish mumkin bo‘lgan.

“Bunkaru” teatrida qo‘g‘irchoqlar “sannindzukai” deb ataluvchi yo‘l bilan boshqarilgan. Ya’ni bunda uchta qo‘g‘irchoqboz ishtirok etadi. Qo‘g‘irchoqning tanasi va bosh qismini boshqarayotgan qo‘g‘irchoqboz “omodzukai” bu yerda asosiy ishni bajaradi. U chap qo‘li bilan qo‘g‘irchoq tanasini va boshini boshqarsa, o‘ng qo‘li yordamida qo‘g‘irchoqning o‘ng qo‘lini harakatga keltiradi. Ikkinchi qo‘g‘irchoqchi “xidaridzukai” qo‘g‘irchoqning chap qo‘lini boshqarsa, uchinchi qo‘g‘irchoqchi “asidzukai’ qo‘g‘irchoqning oyoqlarini harakatga keltirgan[11]. Bunkaru teatri an’anaviy dramaturgiyadan tashqari, tajriba sifatida chet el dramaturgiyasiga ham murojaat qilgan. Masalan, “Gamlet”, “Madam Baterflyay” va “Traviata” kabilarni misol qilsak bo‘ladi. Yaponiyada an’anaviy qo‘g‘irchoq

[11] И.Н.Соломоник. “Традиционный театр кукол востока”. Издательство “Наука”. Главная редакция восточной литературы. Москва 1983. Стр-97-98. F.X.Mirzayev. “Mustaqillik yillarida zamonaviy qo‘g‘irchoq teatri rejissorligidagi izlanishlar” nomli magistrlik dissertatsiyasining 38-39-sahifalarida aynan yuqoridagi manbadan foydalangan. . 2013-yil.

teatridan farqli ravishda boshqa qo‘g‘irchoq turlari bilan o‘zgacha yo‘nalishda ijod qilib kelayotgan teatrlar ham mavjud. Marionetka qo‘g‘irchoq turi bilan ishlovchi “Takeda ningyodza” va qo‘lda boshqariladigan qo‘g‘irchoqlar bilan ijod qiluvchi “Gaysi soqqyo ningyo gekidze” qo‘g‘irchoq teatrlari bunga misol bo‘la oladi. Bu teatrlar an’anaviy pesalardan tashqari afsona, ertak va raqslarni sahnaga olib chiqishadi.

Lekin noan’anviy yo‘nalishda ijod qiluvchi, eng katta va yangi qo‘g‘irchoq teatri bu “Puk” sanaladi. Bu teatrda asosan chet el va yapon dramaturglarining asarlari, ertaklar va milliy folklor tomoshalari sahnaga olib chiqiladi. Qo‘g‘irchoqlarning qo‘lqopli, trostli, ipli va boshqa turlaridan foydalaniladi. Keyinchalik bu teatr jamoasi tomonidan qo‘girchoq filmlarni suratga olishga ham katta e’tibor qaratilgan.

Dunyoning hech bir boshqa yerida uchramaydigan teatrlardan biri bu Vetnam qo‘g‘irchoq teatridir. Uning o‘ziga xos tomoni shundaki, undagi tomoshalar quruqlikda emas, balki suvda ko‘rsatiladi. Bu teatr XI-XII asrlarda paydo bo‘la boshlagan va teatrning asli kelib chiqish tarixi Xitoyga borib taqaladi. Qadimda Xitoyda bu teatrda dengiz xudolari va ruhlari, toshbaqa va ajdarho bilan bog‘liq sahna ko‘rinishlari ko‘rsatilardi. Bugungi Vetnam qo‘g‘irchoq teatri esa xalq hayotidan olingan voqealarni aks ettiradi. Bu yerdagi qo‘g‘irchoq tomoshalari uncha chuqur bo‘lmagan tabiiy yoki sun’iy suv havzalarida tomoshabinlarga taqdim etiladi. Qo‘g‘irchoqlar faqat yog‘ochdan yasalgan. Ularda libos bo‘lmaydi, chunki libos qo‘g‘irchoqqa rang bo‘yoqlar yordamida chiziladi va tez o‘chib ketmasligi uchun lak bilan bo‘yalgan. Qo‘g‘irchoqlarni boshqarish uslubi haqida gapiradigan bo‘lsak, ular masofadan turib boshqariladi. Qo‘g‘irchoqlar suv ostidan o‘tgan bambuk tayog‘ining uchiga qotirilgan bo‘ladi. Bu tayoqning ikkinchi tomoni qo‘g‘irchoqchining qo‘lida bo‘ladi. Qo‘g‘irchoqchi tomoshabinlardan uzoqroq joyda to‘qilgan chodir ortida, tizzasigacha suvda turgan holda qo‘lidagi bambuk tayog‘ini qimirlatib qo‘g‘irchoqni harakatlantiradi. Qo‘g‘irchoqlar haykalga o‘xshab qotib qolmasliklari uchun ularga iplar o‘rnatilgan. Bu iplar bambuk tayoq ichidan o‘tgan bo‘lib, qo‘g‘irchoqchi bu

iplarni tortganda, qo‘g‘irchoq boshini egib ta’zim qilishi, qo‘llarini silkitishi, suv ostiga sho‘ng‘ishi va qayta suv yuzasiga chiqishi mumkin. Vetnam qo‘g‘irchoq teatrining tomoshalari “mua zoy niok”, ya’ni “suvda raqs tushmoq” deb ataladi. Unda bir aktyor tomoshani e’lon qilib bong chalsa, boshqasi qahramonlarga ovoz bergan. Qo‘g‘irchoqlar ichida Teu nomli qahramon alohida e’tiborga ega. Chunki bu qo‘g‘irchoq boshqa qo‘g‘irchoqlarga qaraganda hajm jihatidan biroz kattaroq bo‘lib, uning yuz ifodasi kulib turgan yoqimtoy odamnikiga o‘xshaydi. Teu juda hazilkash, tomoshani boshlovchi va yakunlovchi, tomoshabinlarga qiziqarli hikoyalarni so‘zlab beradigan ajoyib qahramondir.

Uzoq yillar davomida Vetnam qo‘g‘irchoq teatrining tomosha qo‘yish usul va yo‘llari qattiq sir saqlangan. Yangi aktyorni jamoaga qabul qilishdan oldin, unga qasam ichirilgan va o‘z qoni bilan tasdiqlatilgan. Teatr tomoshasida turli pirotexnik vositalaridan foydalanishga to‘g‘ri kelganda, ularning yorqin ranglarining jilosini yanada oshirish uchun tomoshalar kechki payt uyushtirilgan.

XX asrga kelib, bu qo‘g‘irchoq teatri ildizlari yemirilib, uning yo‘q bo‘lib ketish xavfi tug‘ildi. Lekin 1945-yildan Vetnam xalqi bu teatrni qayta tiklashga urinib ko‘radi. Davlat yordami bilan saqlanib qolgan aktyorlarni topib, yangi Vetnam qo‘g‘irchoq teatri jamoalari tashkil etiladi. Ular hozirgi kunda ham bolalarga va sayyohlarga qiziqarli tomoshalar ko‘rsatib kelishmoqda[12].

G‘arbda ham qo‘g‘irchoq teatri o‘ziga xos xususiyatlar bilan rivoj topgan. Italiya ham o‘z qo‘g‘irchoqlari bilan olamga mashhur mamlakatdir. Tarixchilarning ma’lumotlariga qaraganda, Italiya qo‘g‘irchoq teatrining paydo bo‘lishi XV-XVI asrlarga borib taqaladi. Italiyada asosan qo‘g‘irchoqlarning quyidagi turlarini uchratish mumkin: yog‘och taxta ustida raqs tushuvchi oddiy qo‘g‘irchoqlar, qo‘lqopli va iplar yordamida boshqariladigan qo‘g‘irchoqlar. Yog‘och taxtada raqs tushadigan qo‘g‘irchoqlar sodda qilib yasaladi. Ularning o‘ziga xos tomoni shundaki, ularni aktyor oyog‘i yordamida harakatga keltiradi. Buning uchun ularni tanasining o‘rtasidan ingichka arqon o‘tkaziladi va arqonning

[12] И.Н.Соломоник. “Традиционный театр кукол востока”. Издательство “Наука”. Главная редакция восточной литературы. Москва 1983. Стр-46.

bir uchi yog‘och taxtadagi ilmoqqa bog‘lanadi. Arqonning ikkinchi uchini esa aktyor o‘z oyog‘iga bog‘laydi. Undan so‘ng, aktyor qo‘lidagi puflama asbob yordamida turli musiqalar chaladi. Ushbu musiqaning ohangiga mos ravishda oyog‘ini qimirlatadi, buning natijasida esa taxta ustida raqs tushayotgan qo‘g‘irchoqlarning bosh, qo‘l, oyoq harakatlari paydo bo‘ladi. Ularni chetdan kuzatayotgan tomoshabin uchun bu jarayon o‘ziga xos zavq va qiziqish uyg‘otadi.

Italiyada qo‘g‘irchoq turlarining eng mashhuri bu marionetka teatridir. Ya’ni yuqoridan turib, iplar yordamida qo‘g‘irchoqlarni boshqarish. Qo‘g‘irchoqlarning bu turi Italiyaga XVII-XVIII asrda kirib kelgan va fransuzlardagi kabi “marionette” deb nom olgan. Ilk yillarda bu teatr asosan opera qo‘shiqlariga, balet raqqosalariga, dramatik aktyorlarga taqlid qilgan holda faoliyat yuritishgan. Ular bu ishni nihoyatda mahorat bilan bajarganliklari uchun, tomoshani ko‘rgani keng omma to‘plangan. Bundan tashqari bu teatr aktyorlari yaxshi musiqachi bo‘lganliklari ham bunga sabab bo‘lishi mumkin. Italiya qo‘g‘irchoq teatrining an’anaviy qahramonlari juda quvnoq, ayyor va topqir bo‘lgan. U orqali oddiy xalqning hayoti aks ettirilgan.

XVII asrda Angliyaga Fransiya, Gollandiya va Italiyadan bir qator komediantlar ko‘chib kelishadi va bu yerda ham qo‘g‘irchoq teatri san’ati bilan shug‘ullanishni davom ettirishadi. Italiyalik Pulchinelloning nomi Angliyaga kelib Panchga aylanadi. Italiyalik aktyorlar Panch tomoshalarini ingliz tilida ijro etardilar. Ularning muxlislari oddiy xalq bo‘lib, ular bu tomoshalarni juda qiziqish bilan kuzatishgan. Bora-bora qo‘g‘irchoq teatri dramatik teatr aktyorlarining darajasiga tenglashib bora boshlaydi. Bu narsa yuqori tabaqadagi kishilarga yoqmaydi va ular qirolga qo‘g‘irchoqlarni xaydash iltimosnomasi bilan murojaat qilishadi. Lekin Panch o‘z tomoshasini to‘xtatmaydi. Panch tomoshalari bir nechta voqealar bilan bog‘liq sahna ko‘rinishlarini o‘z ichiga oladi. Bulardan eng mashhurlari “Panch va Djudi”, “Panj va Tobi”, “Panch va Doktor”, “Panch va Jallod”, “Panch va Shayton” deb ataluvchi tomoshalardir.

Chexiya qo‘g‘irchoq teatrining ham o‘ziga xos tarixi bor. Bu teatr oddiy xalqning o‘z tilini mukammal egallashiga yordam bergan teatr sanaladi. Chunki,

milliylikning uyg‘onishi uchun spektakllar faqat chexiyalilarning o‘z ona tillarida o‘ynalardi. Ilk tomoshalarga “Don Juan”, “Doktor Faust” kabi asarlarni misol qilib keltirish mumkin. Chexiyaliklarning an’anaviy qo‘g‘irchoq qahramoni bu Kashparekdir. Kashparek tomoshasi asosan xalq bilan muloqot qilgan holda, ya’ni dialog shaklida ijro etiladi. Qolgan qo‘g‘irchoq qahramonlari singari Kashparek ham turli salbiy qahramonlarni jazolaydi va kaltaklaydi. Hozirgi kunda chexlarning qo‘g‘irchoq teatri san’ati yuksak darajaga ko‘tarilgan. Bu teatr ma’naviyat va madaniyatni targ‘ib qilishdagi bebaxo vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. И.Н.Соломоник. “Традиционный театр кукол востока”. Издательство “Наука”. Главная редакция восточной литературы. Москва 1983. Стр-3.
2. Internet manbasi. Google. “Hindiston tarixi va madaniyati”.
3. F.X.Mirzayev. “Mustaqillik yillarida zamonaviy qo‘g‘irchoq teatri rejissorligidagi izlanishlar”. Magistrlik dissertatsiyasi. 2013-yil. 37-bet. Ushbu manba katta ehtimol bilan I.N.Solomonikning “Традиционный театр кукол востока” kitobidan olingani ehtimoli katta. O‘zbek tilidgi tarjimasi yo‘qligi bois boshqa manbalar bilan solishtirishda qiyinchilik tug‘dirdi.
4. M.Qodirov, S.Qodirova. “Qo‘g‘irchoq teatri tarixi”. “Talqin”, 2006-yil. 31-b.

Ўз ДСМИ Сахна нутқи доценти

Ш.Т.Юсупов.

Анъанавий қўғирчоқ театрида қўғирчоқ овозини шакиллантириш меъзонлари.

Аннотация.

Қўғирчоқ театри драматургиясида барча мавжудот, инсонларга хос овоз чиқара бошлайдилар, инсонлардек сўзлаб спектаклнинг ғоявий ечимида иштирок этадилар. Мақолада қўғирчоқ театри актёрининг

маҳорати орқали топилган овоз, саҳна асарини тўлақонлилигини таъминлаши хақида сўз юритилади.

Калит сўзлар. Вербализация, нарратив нутқ, қамиш аэрофонлари,товуш модификатори, овоз регистрлари, имитация, фальцет.

Аннотация.

В драматургии кукольного театра все существа начинают издавать звуки, характерные для человека, и участвуют в идейном решении пьесы, говоря по-человечьи. В статье говорится о голосе, обретаемом благодаря мастерству актера кукольного театра, который обеспечивает законченность сценической работы.

Ключевые слова. Вербализация, повествовательная речь, язычковые аэрофоны, модификатор звука, голосовые регистры, имитация, фальцет.

Annotation.

In the dramaturgy of the puppet theater, all creatures begin to make sounds characteristic of a person, and participate in the ideological conclusion of the play, speaking humanly. The article talks about the voice acquired due to the skill of the puppet theater actor, which ensures the completeness of the stage work.

Keywords. Verbalization, narrative speech, reed aerophones, sound modifier, voice registers, imitation, falsetto.

Қўғирчоқ" инсон " овози билан гапира олмайди.У театрнинг эстетик қонунлари, товушнинг тасвир ва буюмга мослиги қонуни, қўғирчоқнинг овози уни харакатга келтираётган актёри овозидан фарқ қилишини талаб қилади. Дунёнинг аксарият анъанавий театрларида объект яни қўғирчоқ қанчалик кичик бўлса, у чиқарадиган товуш

тебранишларининг частотаси шунчалик юқори бўлади ва аксинча, катта объектларда овоз баас яни йўғон овоз қўлланилади.

Бироқ қўғирчоқларнинг оғзига жонли инсон овозини киритишнинг имкони йўқ. Масаланинг моҳиятига назар ташлайдиган бўлсак, қўғирчоқ одам эмаслигини , қўғирчоқ онгнинг ҳар қандай даражаси учун бошқача мавжудод эканини англаш қийин эмас. Шунинг учун анъанавий қўғирчоқ театри қўғирчоқнинг овозини тасвирлаш ва унинг нутқини вербализация қилиш учун махсус техникани ишлаб чиқилди, бу ерда "нутқ" деганда биз нафақат оғзаки, балки ҳар қандай товушли ритмик-мусиқий ёки интонацион сигнални тушунамиз. Ва театрдаги қўғирчоқ ҳали ҳам "инсон" овози билан гапираётгани, айтиб ўтганимиздек, бошқа тартиб ҳодисасини англатади.

Африка қўғирчоқ театри тадқиқотчиси Оленка Дарковскийнинг сўзларига кўра, қўғирчоқнинг ўзига хос овозни яратиш фақат махсус техникадан фойдаланган холда мумкиндир. Жаҳон қўғирчоқ театри, агар биз турли хил маданий анъаналарни битта атама билан бирлаштирсак, учта бундай техникадан фойдаланамиз: актёрнинг ўз овозини ўзгартириш, қўғирчоқ ўрнига қўғирчоқ учун нарратив томонидан матнни талаффуз қилиш ва қўғирчоқ театри учун ўзига хос усул - инсон овозини бузиш воситасидан фойдаланиш тушунилади.

Ушбу махсус товуш махсус асбоб - "Пика"томонидан яратилади. Қўғирчоқ театри овозли модификаторларнинг икки тури мавжутдир . Биринчисига қамиш аэрофонлари киради, унда "тил" томонидан чиқарилган товуш кейинчалик одамнинг овозли аппарати томонидан модуляция қилинади. Модификаторларнинг иккинчи гуруҳига мирлитонлар киради, уларда эластик мембрана инсон овозини бузади.

Қўғирчоқ театрида, шу жумладан Россияда кенг тарқалган ва оммалашган Петрушка театрида, биринчи турдаги асбоб кенг тарқалган. У оғиз бўшлиғига қўйилиб ижро этилганида кучли ҳаво

таъминоти билан қамиш мембранаси кескин баланд овоз чиқаради. Ушбу қурилмани тасаввур қилишнинг энг осон усули-биз болалигимизда ҳуштак чалиб юрган бармоқларимиз орасига қўйилган ўт пичоғини эслаш кифоядир. Асбоб шу қадар содда ва шу қадар қадимийки, у мусиқий адабиётда махсус ном олмаган ва кўпинча "товуш модификатори", "Пишчик", "чийиллаш" ёки функцияси бўйича: овчилар орасида "манком", қўғирчоқлар орасида "суҳбат" номини олгандир.

Матахасисларнинг маълумотига кўра,хозирги кунда биз юқорида айтиб ўтган мосламалардан қўғирчоқ театрларида фойдаланилмайди.Чунки қўғирчоқ театр актёрларини ўқитиш жараёнида қўғирчоқ нутқини ўзлаштиришнинг замонавий усулларидан фойдаланилмоқда.Лекин талабалар ,бўлғуси актёрларга ана шундай мосламалардан хам фойдаланиш мумкинлигини билдириб ўтилса фойдадан холи бўлмайди деб ўйлайман.

Энди қўғирчоқ театридаги жонли сўзга эътибор қаратамиз. Қўғирчоқ театрида жонли сўз, драматик театр санъатидек табиий туғилмайди. У ўзига хос пайдо бўлади. Чунки у қўғирчоқнинг ясама қарама-қарлишилигидан келиб чиққан ҳолда пайдо бўлади. Қўғирчоқбоз ўзи номидан эмас, қўғирчоқ номидан гапиради ва унинг кўрсатмасини бажаради. Ана шу боис қўғирчоқ театрдан нутқ шартлидир.

Қўғирчоқ театри актёрининг нутқи кўпроқ тасвироналиги билан ифодаланади. Бу образда, нутқий характеристикада намоён бўлади. Юқорида биз овоз созлаш, регистрларни муфассал эгаллашдан театр санъатининг қонуниятларини асос қилиб олган бўлсак қўғирчоқ театр актёрининг овоз созлашда унинг нутқи устида ишлаганда сунъий регистрни эгаллаш йўналишида иш олиб бориш керак. Сунъий регистрдаги овоз созлаш жараёнида овоз пайлари 70% (фоиз) иштирок этмайди. Товуш овоз пайлари орқасидан бурун орқали бош регистрга

урилади. Сунъий регистр бу фальцет ва микст бўлиб фальцет – қалбаки овоз бўлиб, бош регистрдан ҳам юқорида жаранглайди.

Микст – бу фальцет ва кўкрак овозини қоришмасидир. Ҳайвонлар, қушлар, хашаротлар имитатцияси учун биз сунъий регистрдан фойдаланамиз. Агар асосий регистрда ишланса, овоз пайларига юк тушиб, овоз бўғилиб ишдан чиқиши мумкин.чунки бу ҳолатда овоз пайлари (талаффузда) бир-бирига жипслашади ва тўлиқ иш ҳолатида бўлишади.

Сунъий талаффузда эса улар бир-бирига жипслашмайди, орада ёруғлиқ бўлади ва ундан хамиша ҳаво ўтиб бош суягига урилиб овоз чиқади. Шу пайтда овоз пайлари бўшашган ҳолатда бўлиб, жуда оз қисми иш ҳолатида бўлади. Шунинг учун имитация пайтида сунъий регистрдан фойдаланилганда овоз пайларига катта юк тушмайди.

Юқоридаги фикрларни амалий машғулотларда янада муваффассал ўзлаштириш учун аввало:

1. Сунъий регистрда овоз йўналишини топиш; Фальцет бу – у-у-товушли овозни юқорига, бурун орқали бошга йўналтириш. Кейин ўша товушни симоб сингари миядан қовгача туширилади – бу микст.

2. Сунъий регистрда унли товушларни талаффуз этиш;

3. Имитация машқлари;

4. Тақлидлар;

Бундан ташқари қўғирчоқ театри актёри предметларни (хасса, чойнак, стол, уйча ва ҳоказо) буюмларни табиат ходисаларини (бўрон, шамол, ёмғир, томчи, дарахт, барг) жонлантириб, гапиртира олиши мумкин. Ҳар бир талаба юқоридаги, предмет ходисага хос характер ва овозни топиши шарт. Ҳайвонларнинг овозини имитация қилиш орқали партнёрга таъсир этиш кўзда тутилади.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки,турли қиёфадаги қўғирчоқларорқали актёрлар мушук, бўри, айиқ, тулки, қарға ва ҳоказо образларни яратиш мумкин. Унинг учун актёр овоз устида ишлаганда юқори, ўрта вакўкрак регистрларидан фойдалана билиши керак. Ҳайвон, қуш ва ҳашоратларни имитациясини эгаллаш ва ўрганиш керак. Бунинг учун асосий регистрдан ташқари сунъий регистрдан ҳам фойдалана билиш керак.

Бундан ташқари қўғирчоқ театри актёри предметларни (ҳасса, барг, чойнак), буюмларни, табиат ҳодисаларни (бўрон, шамол, ёмғир ва ҳоказо) жонлантириб, уларни гапиртира олиши ва ўша предмет, ҳодисага мос ҳаракат ва овоз характерини топиш керак. Шунинг учун актёрда ижодий фантазия, тасаввур, эшитиш қобилияти (ўзини эшитиш) ўта ривожланган бўлиши керак.

Фойдаланган адабиётлар.

1. © Ў.Нурмухамедова, Тошкент, 2008.Сахна нутқи.
2. А.Тўлаганов. “Саҳна нутқи”. Тошкент 2005 йил.
3. Александр Греф, ГГУ "Живая кукла", сентябрь 2002 г.
4. Греф А.Э. Театр кукол. Я вхожу в мир искусства 3(67) 2003. Репертуарно-методическая библиотечка.

Zamonaviy texnologiyalar orqali qo‘g‘irchoqlarni yaratish texnologiyasi.

Kurbanova Aziza Tolibovna
Axborot texnologiyalari kafedrasi
dotsenti v.b., p.f.f.d(PhD)

Qo‘g‘irchoq - bu odamning belgisi, o‘ynoqi tasvir esa u yaratgan timsoldir. Hozirgi kunda turli xil qo‘g‘irchoqlar yasashning zamonaviy metodlari mavjud. Bular:

- polimer massalaridan qo‘g‘irchoqni yaratish texnologiyasi
- to‘qimachilik qo‘g‘irchoqlarini yaratish texnologiyasi
- chinni qo‘g‘irchoq yasash texnologiyasi

- yog‘ochdan qo‘g‘irchoqni yaratish texnologiyasi
- papier-mache qo‘g‘irchoqlarini yaratish texnologiyasi
- animatsion qo‘g‘irchoqlar yaratish texnologiyasi
- silikon va 3D printer kabilardir

Eng yangi zamonaviy tenologiyalardan biri bu 3D printerlar orqali qo‘g‘irchoqlar yasash texnologiyasi hisoblanadi. 3D printerda qo‘g‘irchoqlar chop etish uchun model birinchi navbatda 3D muharririda ishlab chiqilgan bo‘lishi lozim. Hozirgi kunda bir qancha zamonaviy 3D muharrirlar mavjud. Design Doll, 3DTin, 3DSlash, Blender3D kabi dasturlar qo‘g‘irchoqlar yasashda eng qulay daturlar turlariga kiradi. Dastur qo‘g‘irchoq shakllarini yaratadi, keyin alohida elementlar, belgilarni joylashtiradi, sarf materiallari qoldiqlarini tozalash uchun texnik teshiklar ishlab chiqadi.

1-rasm. Qo‘g‘irchoqning 3D muharririda yaratilishi.

3D texnikasi real anatomiya, estetik ko‘rinish va mahsulot harakatining mukammal uyg‘unligiga erishishga yordam beradi.

Keyinchalik, fayl 3D uskunasiga tayyorgarlikni belgilaydi - qismlar ma’lum jismoniy parametrlarga moslashtiriladi. Qo‘g‘irchoqlarni ishlab chiqarish uchun odatda tanlangan lazerli sinterlash texnologiyasiga ega sanoat 3D printerlari qo‘llaniladi.

3D printer orqali qo‘g‘irchoqlar Poliamid kukunli yoki plastmassadan yaratiladi.

Poliamid kukuni sarflanadigan material sifatida ishlaydi. Ushbu material qatlamlarda yuqori haroratda pishiriladi, shuningdek, mustaqil tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Sinterlashdan keyin filament kuchli, yengil va elastik tuzilishga ega bo‘ladi. Tayyor mahsulotni bo‘laklash va maydalash qiyin, shuning uchun chop etishdan oldin barcha nuanslarni hisobga olinishi kerak. Poliamiddan yasalgan qo‘g‘irchoq bo‘g‘inlari mukammal mahkamlash uchun aniq chizilgan chiziqlar bilan olinadi. Mahsulotga silliq sirtini berish uchun qumtosh va tekislash moslamalaridan foydalanish mumkin.

2-rasm. 3D printer va Poliamid kukunidan yaratilgan qo‘g‘irchoq.

Plastmassalar - tabiiy yoki sintetik yuqori molekulali birikmalar asosida olinadigan materiallar. Issiqdik yoki bosim ta’sirida qoliplanadi va qoliplangan shaklini mus-tahkam saqlaydi. Plastmassalardan yasalgan qo‘g‘irchoqlar yengilligi, elektr tokini, issiqsovuqni o‘tkazmasligi, atmosfera ta’sirlariga chidamliligi, yemiruvchi muhitga, haroratning keskin o‘zgarishiga bardoshliligi, mexanik mustaxkamliligi yuqoriligi va murakkab shaklli buyumlar yasash mumkinligi bilan boshqa materiallardan ajralib turadi.

4-rasm. 3D printer va Plastmassalardan yaratilgan qo‘g‘irchoq.

3D printerlarida yaratilgan qo‘g‘irchoqlar BJD (to‘pli qo‘g‘irchoqlar) - sharsimon qo‘g‘irchoqlar deyiladi. BJR bo‘g‘inlar tufayli qo‘g‘irchoqning qo‘llari, oyoqlari, boshi va tanasi harakatchan bo‘ladi.

BJD qo‘g‘irchoqlari 3D printerda alohida qismlar shaklida chop etiladi, ular maxsus mahkamlagichlar yordamida elastik tasma ustiga yig‘iladi.

3D bosilgan qo‘g‘irchoqlar juda batafsil yuz xususiyatlariga, tananing egri chiziqlariga va hatto barmoqlariga ega. Dekorativ materiallar yordamida to‘g‘ri takomillashtirish bilan ular odamlarga juda o‘xshash bo‘ladi.

3D modellashtirish tufayli o‘ziga xos individual xususiyatlarga ega (ko‘zlarning maxsus kesilishi, qo‘llarning turli xil pozalari va tananing turli parametrlari) qo‘g‘irchoqlarni ishlab chiqish mumkin. Bunday holda, ular mukammal nosimmetrik bo‘ladi.

BJD qo‘g‘irchoqlari bosib chiqarilgan material (tormoz plastmassa yoki shaffof plastmassa (ProJet, Objet)) tufayli mustahkam konstruktsiyaga ega.

3D-printerda sharli qo‘g‘irchoqni yaratish 7 bosqichda amalga oshiriladi:

1. Ixtisoslashgan dasturda 3D modelni ishlab chiqish. Odatda printer bilan birga keladigan deyarli har qanday dastur bunga mos keladi. 3D modellashtirish uchun yuqori ixtisoslashtirilgan dasturlardan ham foydalanishingiz mumkin.

Bo‘g‘imli qo‘g‘irchoq asosan ichi bo‘sh qismlardan iborat. Shuning uchun, uch o‘lchamli ob’ektni ishlab chiqishni yakunlashdan oldin, qismning kerakli joylarida qo‘llab-quvvatlovchi tuzilmalarni o‘rnatish kerak, bu esa bo‘sh joyda joylashgan ishlov beriladigan qismning qismlarini chop etishga yordam beradi.

2. Tayyor mahsulot qismlarini kesgichda kesish. Har bir qism bir xil bo‘laklarga kesilishi kerak. Buning yordamida qatlam-qatlam qilib bosib chiqarish yanada aniqroq bo‘ladi va sifatli blankalar ishlab chiqariladi.

3. Bosib chiqarish uchun material tanlash. Bo‘g‘imli qo‘g‘irchoqni yaratish uchun ikkita materialdan birini ishlatish tavsiya etiladi:

-ABS plastmassa bardoshli va arzon. Biroq, u past darajadagi tafsilotlarga ega va chop etilgandan keyin keyingi ishlov berishni (astarlash va silliqlash) talab qiladi.
-Shaffof plastik (ProJet, Objet) kuchli, ammo qimmat filamentdir. U chop etilganda mahsulotning nozik detallarini yaxshi aks ettiradi. Sirt juda silliq va qo‘shimcha ishlov berishni talab qilmaydi.

4. Qo‘g‘irchoq chop etish. Dilimlangan 3D qo‘g‘irchoq qismlari alohida chop etiladi. Bundan tashqari, ishlatiladigan materialga qarab, ish qismlari sovutiladi, asetonda yuviladi yoki yoritiladi. Shundan so‘ng, qo‘llab-quvvatlovchi tuzilmalar olib tashlanadi.

5. Qayta ishlashdan keyingi tafsilotlar. Amaldagi materialga qarab qo‘shimcha sirtga ishlov berish talab qilinishi mumkin. Ko‘pincha ular silliqlanadi, va astarlanadi. Ushbu harakatlarning barchasi bosib chiqarish paytida yuzaga kelgan nosimmetrikliklar va qo‘llab-quvvatlovchi tuzilmalarning qoldiqlarini olib tashlash uchun zarurdir.

6. Qo‘g‘irchoqni yig‘ish. Barcha tayyorlangan qismlar maxsus iplar yoki qalin qog‘oz iplar yordamida bitta mahsulotga yig‘iladi. Harakatlanuvchi qo‘g‘irchoqlarni yig‘ishda cho‘ziladigan yuqori quvvatli elastik iplar ishlatiladi.

7.Dekor. Ushbu bosqichda mahsulotning ko‘zlari, lablari, tirnoqlari va turli xil mayda detallari chiziladi. Sochlar ham biriktiriladi, kiyim-kechak, poyabzal kiyiladi va aksessuarlar qo‘shiladi.

3D printerda yaratiladigan qo‘g‘irchoqning Afzalliklari quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

- Bo‘g‘imli uch o‘lchamli qo‘g‘irchoqlarni yaratishda asosiy afzallikularning realizmidir.
- Qo‘g‘irchoqlar haqiqatan ham haqiqiy odamlarga juda o‘xshaydi.
- Bundan kelib chiqadiki, 3D printerda chop etilgan qo‘g‘irchoq har doim boshqacha ko‘rinishi mumkin.
- 3D modellashtirish tufayli mahsulotning alohida qismlari juda batafsil va har qanday tarzda ishlab chiqilishi mumkin. Shu sababli, mijozning

talablariga to‘liq javob beradigan qo‘g‘irchoqlarning individual modellarini yaratishi mumkin.

Muhim afzalliklar bilan bir qatorda, bo‘g‘imli qo‘g‘irchoqlar bir qator kamchiliklarga ega:

- ixtisoslashtirilgan dasturda 3D modelni yaratishning juda uzoq jarayoni;
- bosib chiqarish uchun cheklangan miqdordagi materiallardan foydalanish mumkin;
- 3D bosilgan qo‘g‘irchoqlar har doim keyingi ishlov berishni talab qiladi.

3D-printerda BJD qo‘g‘irchoqlarini yaratish juda mashaqqatli jarayon bo‘lib, ixtisoslashtirilgan dasturlarda ma’lum modellashtirish ko‘nikmalarini, printer bilan ishlashni yaxshi bilishni, shuningdek, keyingi ishlov berish va mahsulot dizaynini bajarish qobiliyatini talab qiladi. Biroq, agar bu ko‘nikmalarning barchasi mavjud bo‘lsa, foydalanuvchi osongina original va noyob qo‘g‘irchoqlarni yaratishi hamda yuqori narxda sotishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://vektorus.ru/
2. https://anycubic3d.ru/
3. https://3dtoday.ru/
4. https://prototypster.ru/

Усманова Лола Джураевна

старший преподаватель, и.о.заведующий

кафедры «Искусства театра кукол»

Государственного института

искусств и культуры Узбекистана

lola_u@mail.ru

Кукольная эстрада в мировом тенденции

В данной статье речь идет о кукольной эстраде в мировом тенденции. О этапы развития и разнице в зарубежных странах. На основе исследований и представленных исторических фактов

Ключевые слова: кукла, театр, спектакль, режиссёр, актёр, эстрада

О мировом искусстве можно говорить очень много. И конечно о кукольно эстрадном жанре тоже. Так как сегодня очень много театров мира идут по ступеньки, который оставил и возглавил Сергей Образцов. До сегодняшнего дня его ученики возглавляют его театр и конечно же до сих пор идет его любимый и очень известный спектакль «Необыкновенный концерт». Сергея Образцова все кукольники мира считают своим учителем.

Марту Владимировну Цифринович уже при жизни называли легендой мирового театра кукол. Она была ученицей корифея кукольного жанра Сергея Владимировича Образцова. Цифринович родилась 19 июля 1924 года. В 1946 году окончила Республиканские курсы режиссеров и художников театра кукол под руководством Сергея Образцова.

С 1948 года работала в Центральном доме работников искусств (ЦДРИ) руководителем детского самодеятельного театра кукол. В 1951 году Цифринович стала артисткой эстрады. Вместе с художницей Екатериной

Беклешевой придумала сатирический кукольный персонаж, "кандидата околовсяческих наук" Венеру Михайловну Пустомельскую. Номера с этой куклой вошли в репертуар артистки с 1955 года, с ней Цифринович выступала в разных странах мира на 13 языках.

Артистка создала любительский кукольный молодежный эстрадный коллектив "Эксперимент" при ЦДРИ, профессиональную эстрадную кукольную группу "Метаморфозы", боролась за учреждение общественного культурного кукольного центра-клуба "Метаморфозы". Автор книги "У кукол все как у людей".

В связи с тем, что Цифринович в 2008-2009 годах передала в дар Театральному музею имени Бахрушина личный архив и коллекцию кукол, музей организовал выставку "У кукол все как у людей: Марта Цифринович".

Цифринович была почетным членом Международного союза деятелей театра кукол, лауреатом международных фестивалей театров кукол, членом Международного Союза деятелей эстрадного искусства с момента его создания в 1988 году.

В 1984 году получила звание "Заслуженная артистка РСФСР", в 1995 году стала народной артисткой РФ.

Сейчас очень многие мировые театры ставят кукольно эстрадные номера и представлений. Так как чем спектакль детям и взрослым нравиться кукольно эстрадные номера. Кукольные театры по всему миру очень много. Но есть самые известные театры и конечно же известные эстрадные кукольники. Известные эстрадные кукольники – во Франции Пивик Жанти, в Германии Альберт Мозар. Альберт Мозар - лучший в мире играет и ставить кукольно эстрадные номера в основном по виду марионетки. Его знают и ценят во всем мире. А также во Франции тоже есть известный эстрадный кукольник – Пивик Жанти. Он тоже до сих пор ставит кукольно
– эстрадные номера. Он тоже очень известный в мире эстрадный кукольник.

Теперь я хочу рассказать о мировых театрах которые тоже известны своими кукольно эстрадными номерами.

Европа и Америка. По мнению английского историка кукольного театра Джорджа Спейта, кукольные представления появились на Британских островах не ранее XIII века. Он полагает, что принесли этот театр бродячие актеры из Франции.

Из литературы XVII века мы узнаём, что театр кукол приобрел к этому времени в Англии широкую популярность. Его представления дают на улицах, они - обязательное ярмарочное развлечение.

Итальянская традиция сопровождать кукольное действо на ширме пояснениями ведущего сохранилась и в Англии.

Широкое распространение получает перчаточная кукла. Итальянцы принесли на своих ширмах Пульчинеллу, который в английском произношении превратился в мистера Панча. Первое упоминание о Панче относится к 1662 году, и британцы условно считают эту дату годом его рождения. Панч быстро завоевал симпатии британцев. Он стал любимым героем не только уличного театра, но и аристократических салонов.

В XVIII веке оживляется интерес к марионеткам - и опять-таки благодаря итальянцам. В следующем столетии куклы марионеточников очень усложнились, что, впрочем, было характерно для всей Европы. Распространена была кукла пляшущего скелета, рассыпавшаяся на отдельные косточки, а потом снова собиравшаяся в цельную фигуру.

Во второй половине XIX века по Европе прокатилась слава английского кукольника Томаса Холдена. Он создал свой собственный театр, с которым исколесил всю Европу. Марионетки Холдена обладали большим количеством нитей, предельно развитой механизацией.

Марионетки, однако, не затмили Панча. Он продолжал жить на улицах городов, и одно из его представлений было, наконец, записано в Лондоне в 1828 году.

К концу XIX века положение народных кукольников было плачевным. И, как во многих европейских странах, в тот момент, когда народные английские куклы доживали последние дни, их спасением занялась артистическая интеллигенция.

Европейские кукольники появляются в Новом Свете почти одновременно с европейскими завоевателями. Самые ранние сведения о них относятся к началу XVIII века. В 1708 году в Лондоне вышел двухтомный труд историка Джона Олдмиксона "Британская империя в Америке". В нем упоминается кукольная труппа, приехавшая из Англии и игравшая на островах Барбадос и Лиуорд "ярмарочную драму".

С середины XVIII века в американских газетах появляются объявления о кукольных спектаклях приезжих актеров. Мелькающие в газетах названия пьес свидетельствуют о том, что и репертуар американских кукольных спектаклей тех времен был чисто английским.

Судьба перчаточного театра за океаном сложилась несколько иначе, чем в Англии. В Америке его представления скоро утратили уличный характер. Главной причиной ухода комедии Панча под крышу было запрещение во многих американских городах уличных представлений. И в середине XIX века стало обычаем приглашать кукольников с ширмой-домиком и комедией о Панче на домашние спектакли, устраиваемые по случаю разных семейных праздников. Часто торжества проходили в ресторане, и кукольника приглашали туда к назначенному часу. Охотно принимали кукольников и многочисленные американские музеи. Выступали они в танцевальных залах, в церквях, в воскресных школах, в детских приютах, в разных местах общественных собраний.

К концу XIX века Панч приобретает за океаном вполне "американские черты". Его речь, шуточки, партнеры - отпечаток американской жизни. И играют эти представления все чаще уже не английские гастролеры или иммигранты, а настоящие американцы - поколение актеров, родившихся и выросших на земле Соединенных Штатов.

Если в XVIII веке куклы на нитях служили для исполнения сюжетных пьес, то в XIX веке репертуар театра марионеток делает резкий крен в сторону цирковых программ и эстрадных номеров. Большое влияние на развитие этого направления оказала труппа "Королевские марионетки Баллока". В общей сложности "Королевские марионетки" выступали перед американской публикой около трёх лет. Но влияние этого театра на заокеанских кукольников было огромно: долгое время все марионеточные театры Соединенных Штатов фактически были копиями "Королевских марионеток Баллока".[13]

Самым знаменитым театром следи последователей "Королевских марионеток" американские историки считают театр Уолтера Дивса "Чудесные куклы Дивса". Уолтер снял небольшую студию и поставил там "20 тысяч лье под водой" по Жюлю Верну. Для этого спектакля Дивс придумал эффектные подводные сцены: в них плавали морские чудовища, рыбы; ходил по морскому дну водолаз, который то сражался с акулами, то отбивался от огромного краба, то вступал в бой с гигантскими морскими звездами. Иллюзия морского дна создавалась довольно простым способом: перед сценой натягивали прозрачный занавес, который подсвечивали изнутри. Впоследствии этот прием использовали многие американские кукольники.

В 1904 году Дивс отправился в большое турне по стране, а затем в кругосветное путешествие, из которого вернулся лишь в 1913 году. В 1914-1915 годах снова гастролировал за границей, на этот раз в Австралии. Труппа

[13]www/ruscircus.ru

Дивса объездила почти все страны мира, была даже в России (во Владивостоке).

Дивс был самым популярным кукольником своего времени. Продолжая традиции "Королевских марионеток", он многое ввел в кукольный театр Америки впервые. Дивс первым применил в своих спектаклях фонограмму: в 1900 году он купил два фонографа, и с тех пор все его спектакли шли под записанную музыку. Дивс положил начало приему оформления "сцены на сцене": по бокам от марионеточного портала расходились кукольные ложи, в которых сидели куклы-зрители. "Зрители" реагировали на выступления "артистов". Перед кукольным просцениумом находилась кукольная оркестровая яма, в которой сидели видимые по пояс кукольные музыканты (этими куклами управляли снизу).

Современные американцы знакомятся с коллекцией кукол из номеров чревовещателей, собранной в специальном музее в штате Кентукки (г. Форт-Митчел). В первой половине XX века номера вантрилокистов были особенно популярны в ночных клубах. В 30-40-х годах, когда начало функционировать телевидение, американская публика полюбила выступления Эдгара Бергена и его партнера - куклу Чарли Маккарти. Эдгар Берген являлся на телеэкраны во фраке и цилиндре, точно так же была одета и кукла Чарли Маккарти.

Американский традиционный театр кукол отмирал в силу стечения разных обстоятельств, но самый разрушительный удар нанес ему кинематограф. Лишь в тонкой прослойке артистической интеллигенции гнездилась "ностальгия" по отвергнутому массовым зрителем искусству оживающей скульптуры. В кругах этой интеллигенции и возникло желание возродить уникальную форму театральных представлений.

В 1913 году нью-йоркский издатель и педагог Уильям Паттен, отлично знакомый с движением за возрождение театра кукол в Европе, задумал создать общество по восстановлению театра кукол в Соединенных Штатах.

Ему удалось привлечь многих известных американских деятелей искусства и культуры. Студия существовала до 1917 года, до закрытия "Маленького театра", которое произошло из-за денежных трудностей его покровителей.

Почти одновременно со студийными спектаклями в Чикаго в другом крупном городе восточного побережья - Кливленде директор местного театрально-концертного зала ("плэй-хауза") Раймонд О'Нил, под влиянием статей Гордона Крэга, собрал группу любителей кукольного театра. Ее возглавила Хэлен Хэйман Джозеф, впоследствии создавшая свой театр. Она известна в Соединенных Штатах, да и за их пределами тоже, как автор книги по истории театра кукол и как автор кукольных пьес.

В 1918 году преподаватель французского языка Колумбия-колледжа Матурин Дондо организует студенческий кукольный театр, где ставит старинные французские фарсы.

В Сан-Франциско в 1919 году при Калифорнийском университете создает кукольную студию Пэри Дайли.

Но, пожалуй, самой значительной по влиянию на развитие нового профессионального американского театра кукол была фигура Тони Сарга. Бил Бэрд вспоминает, что подростком видел в исполнении кукол Сарга инсценировку сказки Вашингтона Ирвинга "Рип Ван Винкль".

Спектакль поражал сценическими эффектами. Перед глазами зрителей возникала феерическая картина необыкновенной ночи в горах и пира выходцев с того света. В спектакле были заняты пятеро кукловодов, пианист и ведущий. После представления они выходили на поклон, одетые в одинаковые брюки, блузы и береты. Такая униформа на долгие годы стала рабочим костюмом многих американских кукольников. В 1927 году Сарг занимал положение самого известного и самого процветающего кукольника Соединенных Штатов. Когда американские бизнесмены начали использовать кукол в рекламных целях, они в первую очередь приглашали

театр Тони Сарга. По рекламным заказам родились фантастические огромные надувные куклы для уличных рекламных шествий. Идея уличных кукольных "парадов" принадлежала Саргу. Самой большой куклой в этих "парадах" был дракон. Его длина достигала 38 метров, туловище состояло из 21 секции, которые постепенно уменьшались к хвосту. Управляли драконом 50 кукловодов.

Другой яркой индивидуальностью переходного периода от студийных поисков к профессиональной работе был художник Ремо Буфано (1894-1948). Его эксперименты проложили дорогу к новым формам современного кукольного театра и кукольного фильма. В частности, он был одним из первых, пробовавших сочетать в спектаклях кукол, маски и живых актеров. Поиски оригинальных решений привели Буфано к созданию огромных кукол. Впервые он сделал трехметровые фигуры для постановки оперы И. Стравинского "Царь Эдип", затем - двухметровых кукол для "Алисы в Стране чудес" и, наконец, десятиметрового клоуна для представления на ипподроме. Начиная с любительских спектаклей для соседской детворы, он прошёл полный путь до профессионала, куклы стали его основной профессией.

К 20-м годам новый профессиональный театр кукол США был создан. Среди молодежи появилось много энтузиастов, решивших стать профессиональными кукольниками. По всей Северной Америке гастролировало около дюжины профессиональных кукольных трупп. Неизвестно, какой всё это приобрело бы размах, если бы не кризис. Театры закрывались, труппы распадались. Выжили в этой жесткой ситуации очень немногие, главным образом те, кто работал в одиночку, без декораций, без оборудования, без большого количества кукол.

Наиболее известным кукольником в 30-40-е годы был Фрэнк Пэрис. Пэрис выходил на эстраду в черной одежде, работал с марионетками на коротких нитях, водил кукол по полу сцены перед собой в узком луче света.

На пустую затемненную эстраду Пэрис выносил и ставил недалеко от освещенного круга вешалку с четырьмя-пятью приготовленными для номеров куклами. Каждую снимал по очереди, и после ее номера вешал на предназначенный для нее на вешалке крючок.

Одним из немногих американцев, которому удалось создать после Тони Сарга относительно большую труппу, был Бил Бэрд. Бэрд много гастролировал, объездил Азию, Америку, Европу, приезжал в начале 60-х годов в Москву, собрал большую коллекцию кукол и материалов. По этим материалам и личным впечатлениям написал и издал великолепно иллюстрированную книгу "Искусство куклы". Била Бэрда можно, вероятно, считать самым благополучным кукольником Соединенных Штатов.

Наиболее характерные черты современного американского кукольного театра:

во-первых, отсутствие государственных театров. Американские кукольные труппы не получают субсидий от правительства;

во-вторых, отсутствие у трупп своих постоянных помещений - зрительных залов. Труппы постоянно разъезжают, играя в школах, больницах, музеях, церквях, парках, общественных зданиях, в городских театрах. Исключения из этого правила единичны;

в-третьих, малочисленный состав труппы. Американские кукольные труппы, как правило, состоят из двух-трех или даже одного актера;

в-четвертых, огромная, определяющая роль телевидения. Американские труппы существуют главным образом за счет выступлений на телевидении.

В последние годы одной из наиболее популярных в США постоянных кукольных передач на телевидении была серия "Мапитс", куклы и пьесы которой создавались под руководством ныне уже покойного Джима Хэнсона.

В настоящее время в США работает множество маленьких кукольных трупп. Они мобильны - и в прямом, и в переносном смысле, они чутко реагируют и легко откликаются на предлагаемые обстоятельства, всегда готовы выполнить любой социальный заказ и поэтому, с одной стороны, очень жизнеспособны, а с другой - полезны обществу.

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДА ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИ.

МАМУТОВ Парахат Алламбергенович

Ўзбекистон давлат Консерваторияси Нукус филиали директорининг биринчи ўринбосари, 17.00.01. – Театр санъати ихтисослиги бўйича мустақил изланувчи (PhD) докторант.

Аннотация:- *Мазкур мақолада Қорақалпоқ давлат қўғирчоқ театрининг пайдо бўлиши ва ривожланиши, театрида олиб борилаётган ижодий жараёнлар, актёрлар ижросидаги ўзига хослик, Театрда саҳналаштирилган спектакларнинг болаларни маънавий тарбиялашда аҳамияти ва театрнинг бугунги кунда эришаётган ютуқлари ҳақида сўз боради.*

Калит сўзлар: - *Театр, актёр, режиссёр, спектакль, репертуар, қўғирчоқ*

Annotation: *- This article talks about the emergence and development of the Karakalpak State Puppet Theater, the creative processes carried out in the theater, the originality of the actors' performances, the importance of the performances staged in the theater in the spiritual education of children, and the achievements of the theater today.*

Keywords: - *Theater, actor, director, play, repertoire, puppet*

Аннотация: - *В данной статье рассказывается о возникновении и развитии Каракалпакского государственного театра кукол, творческих процессах, проводимых в театре, своеобразии игры актеров, значении*

спектаклей, поставленных в театре, в духовном воспитании детей, достижения театра сегодня.

Ключевые слова: - *Театр, актёр, режиссёр, спектакль, репертуар, кукла*

1990 йил Қорақалпоқ театр тарихида катта янгиланиш вужудга келди. Ўзбекистон Республикаси Маданият ва спорт ишлари Вазирлигининг 1990 йили 5 апрелдаги 115-сонли буйруғига ва Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгашининг 27 февралидаги 50/2 сонли қарорига асосан Қорақалпоқ давлат Қўғирчоқ театри ташкил топди ва театрфаолиятини кар ва соқовлар жамиятига тегишли иморатда ўз ижодий ишларини бошлади. Янги очилган театрга Кенгесбай Бердибаевни раҳбар этиб тайинлади. 1990-йили К.Каримовнинг «Орик мерган» спектакли Р.Торениязовнинг режиссёрлигида театр ўзининг биринчи пардасини очди. Ана шу йиллардан буён театр ижодий жамоаси томонидан театр саҳнасида
100 дан ортиқ спектакль ва қўғирчоқ шоу дастурларини тайёрлаб, республикамизнинг энг кичкина томошабинлари бўлган болажонларимизга маданий хизмат кўрсатиб келмоқда.

Ўша йили болалар учун қизиқарли Қ.Матмуратовнинг “Оқ текеш билан кўк текеш” қўғирчоқ спектакли саҳналаштирилиб ва бу спектакль қўғирчоқ томошабинлари учун янгилик сифатида қабул қилинган.

Кенгесбай Бердибаев раҳбарлиги давомида ўзининг ташкилий ишларда фаоллиги ва меҳнатсеварлиги билан эътибор қозониб, янги театр ривожи учун кўплаб ҳиссаларини қўшди. Театр жамоаси ҳеч нарсаси йўқ жойдан театр раҳбаридан бошлаб барча ходимлари қўғирчоқ театрининг келажаги учун тинмай меҳнат қилдилар.

Ўша вақтларда қўғирчоқ театри соҳасида тажрибали режиссёрларнинг йўқлиги сабабли тажриба алмашиш мақсадида Қозоғистон Республикасидан машҳур қўғирчоқ театри режиссёри Бекполат Парманов таклиф этилиб, у Д.Хусайновнинг “Керак бўлганинг керак” пьесасини саҳналаштирди. Спектаклнинг ғояси, қўғирчоқлари ва мусиқалари яхши ансамбль бўлиб

яратилди. Театрда Б.Пармановнинг иккинчи саҳналаштирган спектакли бу В.Орловнинг “Олтин жўжа” спектакли бўлиб, классик асарлардан бўлган бу спектакль томошабинлар олқишларига сазовор бўлган.

Театр очилган заҳоти-ёқ, ўзининг ижодий марраларини кўзлади ва бу марраларга оғишмай интилиш бошланди. Жумладан, ҳар икки йилда ўтказиладиган “Қўғирчоқ театрлари фестивали”да мунтазам фаол қатнашди. 1991 йили Самарқанд шаҳрида ўтказилган Ўзбекистон Республикаси қўғирчоқ театрлари фестивалида театр ижодий жамоаси К.Каримовнинг “Орик мерган ” спектакли билан иштирок этиб, шу фестивалда Қ.Қалилаев Орик мерган образи учун “Энг яхши актёр” номинациясини олишга эришган. 1993 йил Андижон фестивалида «Керак бўлганинг керак», 1995 йили Тошкент шаҳрида ўтказилган қўғирчоқ театрлари фестивалида М.Бегимовнинг “Бедана ва Тулки” спектакллари билан қатнашиб, совринли ўринларни эгаллаган. 1997 йил театр жамоаси биринчи маротаба Қозоғистон Республикасининг Жанаўзан, Ақтау, Жетисай шаҳарларида ижодий сафарларни амалга ошириб, тажриб алмашиб Қорақалпоқ қўғирчоқ театрининг шаклланиши ва ривожланиши йўлидан тинмай меҳнат қилдилар.

Театрда фаолият юритаётган актёрлар Мурат Бегимов, Айбек Есимбетовлар Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институтининг “Қўғирчоқ театри режиссёрлиги” бўлимида таҳсил олиб келиб, 1997 йили театрда режиссёрлик ишларини бошлади. Ўша йили М.Бегимов О.Абдрахмановнинг “Гулдирсин” пьесасини саҳналаштирди. Спектаклнинг муваффақиятли чиқишида рассом Даврон Раджапов, композитор Қурбанбай Заретдиновлар ўз ҳиссаларини қўшган бўлса, спектаклда ҳар бир образнинг жонли чиқиши туфайли ёш томошабинлар театрининг актёрлари М.Заматдинов, А.Қудайназаров ва Ж.Абдимовлар театрга дастлабки қўғирчоқ томошабинларини жалб қила олди. Яна кичик ёшдаги болалар учун М.Г.Поливанованинг “Айиқнинг хушчақчақ болалари” пьесаси, А.Есимбетовнинг “Жодуланган шаҳар”, “Сеҳрли қамчи” пьесалари муваффақиятли саҳналаштирилди.

2000 йил Самарқанд шаҳрида ўтказилган VI Республика Қўғирчоқ театрларининг фестивалида М.Бегимовнинг “Шум эшак” спектакли билан, 2001 йил Тошкентда ўтказилган «Қорақалпоғистон маданият кунлари»да театр «Ўғирликнинг охири хўрлик» спектакли билан, 2003 йил Тошкент шаҳрида ўтказилган қўғирчоқ театрлари фестивалида М.Бегимовнинг “Бедана ва Тулки”, 2005 йил 19-24 декабрь кунлари Бухоро вилоятида ўтказилган Республика қўғирчоқ театрларининг VII дастурий кўрик-фестивалида П.Айтмуратовнинг “Отам айтган афсона”, 2009 йил 8-15 декабр кунлари Андижон шаҳрида ўтказилган Республика қўғирчоқ театрларининг VIII дастурий кўрик-фестивалида П.Айтмуратовнинг “Саҳродаги дўстлик” спектакллари билан фестивалларда иштирок этиб, муносиб ютуқларни қўлга киритди ва қорақалпоқ маданиятини қўғирчоқ образлари орқали юзага чиқарди.

Мурат Бегимов 2015 йил театрга бош режиссёр этиб тайинланганидан кейин қорақалпоқ қўғирчоқ театрининг саҳнасида буюк асарларнинг яратилиш даври бошланди десак муболаға бўлмайди. Унинг ижодига оид “Ботир қуён”, “Меҳнат туби роҳат”, “Қириқ қиз”, “Алдаркўса” ва бошқа спектакллари қўғирчоқ театрининг саҳна асарлари гулдастасига айланди. М.Бегимов режиссёрлигидаги 2016 йили Ўзбекистон Республикаси қўғирчоқ театрларининг X дастурий кўрик фестивалида (муаллиф П.Айтмуратов) “Шарияр” спектакли билан иштирок этди.

Қорақалпоқ давлат қўғирчоқ театрида ўзига хос томошалар тизими шаклланди. Айнан бу томошаларни шакл хусусиятига кўра бир неча турга ажратиш мумкин:

спектакллар;

байрам дастурлари;

театрлаштирилган дастурлар.

Мазкур спектакл ва томошаларнинг драматургик асослари моҳиятан қуйидаги гуруҳларга бўлинади:

ўзбек, қорақалпоқ ва жаҳон муаллифларининг драматургик асарлари;

ўзбек, қорақалпоқ ва жаҳон муаллифларининг бадиий асарлари инсценировкалари;

ўзбек, қорақалпоқ ва жаҳон халқ эртаклари мотивларида яратилган асарлар.

Бу спектакллар эса ўз ўрнида турли ёш даражасидаги томошабинлар учун тақдим этилади:

мактабгача таълим муассасалари ёшидаги болалар;

мактабнинг бошланғич синф ўқувчилари;

мактабнинг юқори синф ўқувчилари.

Болалар драматургияси ўз ўрнида ривожланиши кутилаётган ва зарур бўлган соҳа ҳисобланади. Театр жамоаси бу муаммони баҳоли қудрат бартараф этиш йўлида ўзига хос изланишлар олиб боришда давом этяпти. Театрнинг чорак асрлик фаолияти давомида болалар театрининг кўплаб намуналари яратилди.

Маълум бўлмоқдаки, театр 2020 йилга қадар 70 тага яқин томоша саҳналаштирган. Уларнинг драматургик асоси нуқтаи назардан таҳлил қилсак, 20 га яқин саҳна асари жаҳон манбалари мотивлари ва асарлари асосида, 10 таси ўзбек муаллифларининг пьесалари асосида саҳнага олиб чиқилган. 40 га яқин спектакль эса маҳаллий драматургларнинг асарлари. Айниқса, улар орасида П.Айтмуратов, М. Бегимов ва Ж.Калбаевларнинг номини алоҳида тилга олиш лозим.

Масалан, П.Айтмуротовнинг «Отам айтган афсона» асари асосида ишланган томошабоп, серзавқ томоша кейинги йиллар ишланган энг яхши спектакллардан. 2017 йил эса айнан таниқли драматург, Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган маданият ходими П.Айтмуратов муаллифи бўлган "Ўмирбек Чимбой бозорида" номли спектаклининг премьераси бўлиб ўтди.

Спектакль томошабинлар томонидан илиқ кутиб олинди. Спектаклнинг муваффақиятли чиқишида сахналаштирувчи режиссёр Қ.Қалилаев, воқеаларга мос мусиқаларни танлаган Д.Абдимов, декорация ишларини ишлаган рассомлар Т.Шардаметов ва М.Байгелдиев ва ўз

ролларини маромига етказиб ижро этган театр актёр ва актрисаларининг хизмати беқиёс бўлди. Жубандиқ Ибрагимов, Роза Пиязова, Қурбангул Сапарбаева, Айбек Есимбетов, Қобланбек Калилаев, Бердимурод Юсупов ва бошқалар театрнинг етакчи актёрларидан эди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир // Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси. Халқ сўзи. 2017-йил 4-август.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
3. Қодиров М.Х., Қодирова С.М. “Қўғирчоқ театритарихи” Талқин Тошкент-2006
4. М.Қодиров. «Анъанавий ўзбек қўғирчоқ театри». -Т.:1979.
5. И.Турдиева.“Қўғирчоқ бошқариш асослари” (Марионетка театри) Услубий қўлланма. 2014
6. Ашурова М.Ҳ. Қўғирчоқ театри санъати актёрлик мактаби. Дарслик-Т., 2007.
7. Баяндиев Т. Қорақалпоқ театри тарихи. – Тошкент: ЎзДСИ босмахонаси, 2011.
8. http://kukla-teatr.uz/

ҚОРАҚАЛПОҚ ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР

Бийбиназ БАХИЕВА,
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
“Мусикали театр актёрлиги ” йўналиши 2-курс магистри

ВЗГЛЯД В ИСТОРИИ КАРАКАЛПАКСКОГО ТЕАТРА КУКОЛ

Бийбиназ БАХИЕВА,
Магистр 2-курса по специальности « Актёрское мастерство в музыкальном театре » государственного института искусств и культуры Узбекистана

A LOOK TO THE HISTORY OF THE QARAKALPAK PUPPET THEATER

Biybinaz BAXIYEVA,
Master of the 2-course in the specialty "Musical theater acting"
of the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan

Аннотация

Ушбу мақола Қорақалпоқ давлат қўғирчоқ театр тарихи ва театрнинг асосий ижодкорларининг ижоди хусусида ҳамда ривожланиш жараёнидаги ютуклар шунингдек, театр репертуар таҳлили хусусида.

Аннотация

В данной статье рассказывается об истории Каракалпакского государственного театра кукол и творчестве основных создателей театра, а также достижениях в процессе развития, а также анализе репертуара театра.

Annotation

This article tells about the history of the Karakalpak State Puppet Theater and the work of the main creators of the theater, as achievements in the development process, as well as an analysis of the theaters, repertoire.

Калит сўзлар: Театр, қўғирчоқ, спектакль, актёр, режиссёр, репертуар, фестиваль.

Ключевые слова: Театр, кукол, спектакль , актёр, режиссёр, репертуар , фестиваль.

Key words: Theatre, puppet, spectacle, actor , the director, repertoire, festival.

Қорақолпоқ миллий театр тарийхига назар ташласак унинг ташкил топиши бир асрга якин вактни ўз ичига камраб олади. Шу вакт оралиғида уз томошабинлари кўз олдида ўзининг янги истеъдодларини намойиш этмоқда . Ўтган йиллар давомида театр жамоаларининг йўналиши, ташкилий таркиби , шакллари соҳаларида турли ўзгаришлар рўй берди, актёрлик ва режиссёрлик маҳорати билан боғлик муаммолар ҳал этилди. Ҳаваскорлик тўгараклари асосида вужудга келган қорақолпоқ театри хозирги пайтда миллий театрини яратиш мақсадида ижодий изланишлар олиб бормоқда. [1.16-б] Республикамизда театр санъатининг бошқа турлари қатори қўғирчоқ театри санъати ҳам ривожланиб бормоқда. Айниқса, декарация – саҳна безаги замонавий технологиялар имкониятидан унумли фойдаланган ҳолда сифат жиҳатдан юқори кўрсатгичларга эришмоқда. Бу эса ёш томошабинлар учун мўлжалланган саҳна асарлари учун жиддий ютуқ

саналади. Бу йулда Қорақалпоқ давлат қўғирчоқ театри ҳам уз фаолятини олиб бормоқда.

Малумки Қорақалпоқ давлат қўғирчоқ театри санъати тарихида 1990-йили катта ўзгариш вужудга келди. Ўзбекистон Республикаси маданият ва спорт ишлари вазирлигининг 1990-йил 5-апрелдаги 115-сонли буйриғига ва Қорақалпоғистон Республикаси Жоқарғы Кенгашининг 27-февралдаги 50/2 сонли қарорига мувофиқ Қорақалпоқ давлат қўғирчоқ театри ташкил этилди. Янгидан ташкил этилган бу театрнинг биринчи директоры Кенгесбай Бердибаевдир. Бу театр республика театрлари ичидаги ёш жиҳатидан энг кичкинаси ҳисобланади. Театр пардаси илк бор драматург Кенгесбай Каримовнинг “Орик мерган” спектакли билан очилган.[2.172-б] Шу йилдан бошлаб театр жамоаси 100 дан ортиқ спектакль ва қўғирчоқ шоу дастурларин тайёрлаб, кичик томошабинларга миллий маданиятимизни намойиш этиб келмоқда. Аммо Қорақалпоқ қўғирчоқбоз санъаткорлари ижоди илмий жиҳатдан алоҳида ўрганилмаган. Бинобарин, уларнинг 32 йиллик фаолияти ўрганишга ва сарҳисоб қилишга, баҳоланишга арзийди. Театр қисқа вақт ичида ўз ижодий йўли ва услибига эга бўлди. Дастлаб болалар учун қизиқарли бўлган Қ. Матмуродовнинг “Оқтака билан кўк така” номли қўғирчоқ спектакли саҳналаштирилди. Буспектаклни томошабинлар олқишлар билан кўтиб олди. Г.А.Товстоногов <<Режиссёрнинг роли, актёр ёки режиссёрнинг устунлиги ҳакидагитортишувлар қанчалик куп болмасин, хаёт шуни исботладики, гарчи драматургия театрнинг асоси хисобланса-да, актёр эса сахна асарининг бутун борлиғини ташкил этувчи жонли туқима болса-да, бугунги ва эртангитеатр такдири купрок режиссёрга боғлик бўлиб колаверади, зеро у театрнингбарча элементларини жамловчидир >>[3. 56-б] деб айтиб ўтган. Уша вақтлари режиссиёрларнинг етишмаслиги сабабли тажриба алмашиш мақсадида Қозоғистондан таниқли режессёр - Бекпўлат Фармонов чақиртирилади. У Д.Ҳусайновнинг “Керак бўлганинг керак” пьесасини саҳналаштирган. Бу иш жараёнида бизниниг театримиз ходимларига ўз

тажрибаларини бўлишади. Бу ижодий ҳамкорлик театримиз ижодкорларига мақул бўлади. 1995-йили Қорақолпоқ қуғирчоқ театри ривожидаги янги босқич пойдо бўлди десак муболаға бўлмайди. Сабаби, режиссёрликга қобиляти бўлган театр актёрлари Мурат Бегимов, Ойбек Эсимбетовлар Тошкент театр ва рассомлик институтининг режиссёрлик бўлимини тугатади ва театрга ишга қабул қилинади. Уларнинг ижодий ишларида профессионализм намоён бўлади. 1997-йили Мурат Бегимов ёзувчи Ўрозбай Абдираҳмановнинг “Гулдирсин” пьесасини саҳналаштиради. Спектаклнинг муваффақиятли чиқишида рассом Даврон Ражабов, композитор Қурбанбой Заретдиновлар, театр актёрлари Омон Қудайназаров, Мирзабой Заматдинов, Жигербай Абдимовлар ўз ҳиссаларини қўшган. Жажжи болалар учун аталган “Сеҳрланган қамчи” пьесаси Ойбек Эсимбетов тарафдан сахналаштирилади буни эса, болажонлар катта қизиқиш билан кутиб олади. Театр 2000-йили Самарқандда ўтказилган VI Республика қўғирчоқ театрлари фестивалида “Айёр эшак” спектакли, 2009-йили Андижонда ўтказилган Республика Қўғичоқ театрларининг VIII дастурий кўрик фестивалида “Саҳродаги дўстлик” спектакли билан қатнашиб фаҳрли ўринни эгаллайди. Умуман олганда театрнинг турли фестиваллар да қатнашуви театр ижодкорларининг тажрибаси ошишига туртки беради.

2018-йилдан бошлаб Қорақолпоқ қуғирчоқ театри ривожида яна бир янги босқични кузатишимиз мумкин. Чунки, театр кейинги беш йил ичида катта муваффақиятларга эришади. Бунга сабаб, Ўзбекистон давлат санат ва маданият институти Нукус филиалини тамомлаган янги ёш режиссёрларнинг сахналаштирган спектакллари ва уларнинг ижодий фаолияти буни далиллайди. Жумладан - қорақолпоқ халқ достони асосида ёзилган “Қирқ қиз” спектакли ёшларни она-ватанга, ота-онага, дўстларига нисбатан меҳрли бўлишни ва уларни душманлардан, ёмонликлардан асрашга ўргатади. Бундан ташқари, бу даврга келиб жаҳон классик асарлариҳам саҳналаштирилади. Ш. Перронинг “Қизил қалпоқча” спектакли биринчи марта рус тилида ёш режиссиёр Г.Далиева тарафидан

саҳналаштирилади. 2020-йили Республика қўғирчоқ театрларининг Onlain XII кўрик фестивалида театр жамоаси ёш режиссиёр И.Жуманиёзова саҳналаштирган спектакль билан қатнашиб, фахирлий 2-ўринни эгаллади.

2022-йили Ўзбекистон Республикаси маданият вазирлиги тарафидан ташкиллаштирилган улуғ шоир Алишер Навоийнинг 580 йиллиги муносабати билан Тошкент шаҳрида ўтказилган "Навоий сиймоси ва асарлари – саҳнада" Республика театрлари кўрик фестивалида М.Бегимов саҳналаштирган "Чин элин дунёга танитган гўзал ҳақида сўз" номли спектакли намойиш этилди. Спектакль "Навоий асарининг янгича кўркам кўриниши" номинацияси билан тақдирланди. Қорақалпоқ давлат қўғирчоқ театри жамоаси - қорақалпоқ халқи маданияти ва санъатининг энг яхши хислатларини турли ижобий қўғирчоқ образлари талқини орқали ёш томошабинларга етказишни ўз олдиларига мақсад қилиб олишган. Улар келажакда янада қизиқарли ва бетакрор саҳна асарлар яратишга интилмоқдалар. Театр ёшларга миллий ифтихор миллий гоя сингари туйгуларни сингдиришда мухим аҳамиятга эгадир. Шундай экан, театрларимизда фаолият олиб бораётган барча актёрлар, режиссёрлар театрни барча ходимлари ўз касбини профессионал устаси бўлиши мақсадга мувофиқ.

Хулоса шуки, Қорақолпоқ қўғирчоқ театри ривожи, репертуарлари, актёрлар ва режиссёрлар ижоди бунданда чуқурроқ илимий изланишга ихтиёж сезади десак муболаға бўлмайди. Биз уйлаймизки бу театр хақида бир қанча монографиялар ёки илимий мавзу асосида тадкикотлар олиб борилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Т.Баяндиев . Қорақалпоқ театри тарихи. Т.:" Фан ва технологиялар маркази " нашриёти. 2011. 16-Б
2. Н.Ансатбаев . Театр ва актёр. - Т.: "Navro'z" нашриёти. 2020. 172-Б

3. Г.Товстоногов. Зеркало сцены. 1-книга. О профессии режиссёра. ВТО Москва-1976. 56-Б
4. Т.Баяндиев .Б.Сайфуллаев . Қорақалпоқ саҳнасининг Бердақ шоири. Т.: “Navro’z” нашриёти 2014.
5. Алланазаров Т. Қарақалпақ театринда миллий режиссуранинг қалиплесуи. “Билим”нашриёти. Нукус- 2018

Qo‘g‘irchoq teatri – tarbiya maskani.

Qurbonova Feruza Xayrullayevna,
O‘zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori.

Tomosha san’atlari ichida eng mo‘jizakor, eng sirli va eng quvnoq san’at bu - qo‘g‘irchoq teatri san’atidir. Bunda har bir asar, har bir buyum, har bir harakat faqat bolalar – yosh tomoshabinlarning miriqib hordiq chiqarishlari yordamida ta’lim va tarbiya olishi uchun xizmat qiladi. Qo‘g‘irchoqbozlar qo‘g‘irchoqqa go‘yoki jon bag‘ishlab, bolaning gul kabi nozik qalbida mo‘jizaviy g‘alayonlar, tiniq, beg‘ubor nigohlarida hayratlanarli dunyoni yaratadilar. Qo‘g‘irchoq teatriga bir marta kelgan bola bu yerni hamisha qo‘msab yurishi tabiiy.

Ertaklar dunyosini bolalarning ko‘z o‘ngida yaratib beradigan qo‘g‘irchoqbozlarning bitta spektakli tayyor bo‘lishi uchun bir necha oylar kerak bo‘ladi. Avval yangi pyesaning muhokamasi, keyin pyesa qahramonlari qiyofasi, sahna bezaklari, dekoratsiyalar muhokamasi, undan so‘ng rassom, kostyumerning qo‘g‘irchoqlarni yasash, ularga o‘ziga xos xarakter berishi jarayoni. Keyingi navbat rejissyor va aktyorlarning qo‘g‘irchoqlar bilan ishlashiga keladi. Va nihoyat, repetitsiyalar tugab premyerada spektakl namoyish etilishi vaqtida qo‘g‘irchoqbozlar necha oylar davomida qilingan mehnatlarining mahsulini bolalar qanday qabul qilayotganlarini kuzatishni boshlaydilar. Ular o‘z rollari bilan yosh tomoshabinlarni qo‘g‘irchoqlar dunyosining sehrli olamiga olib

kirib ketadilaru, o‘zlari ijro etayotgan qushlar, o‘simliklar, xayvonlar va boshqa buyumlar bilan bolalarning ochiq muloqotda bo‘layotganlarini ko‘rib, sezib, his etib turadilar.

Xuddi shu vaqtda sahnadagi sirli harakatlarga ishonch bilan termulayotgan bolalarning ruhiy dunyosida hayratlanarli o‘zgarishlar sodir bo‘lar ekan, buning aksi sifatida tomosha zalidan eshitilayotgan bolalarning turli xil pichir pichirlari, his-tuyg‘ularni ifodalovchi ovozlari qo‘g‘irchoqbozlar uchun eng muhim ahamiyatga ega daqiqalar hisoblanadi. Spektakl so‘ngida esa qo‘llarida qo‘g‘irchoqlar bilan bolajonlarning qarshisiga chiqib kelgan aktyorlarni ko‘rib hayratdan qotib qolgan, yoki minnatdorlik bilan rahmat deyayotgan, yoki hali ham mo‘jizalar mamlakatining sehridan chiqa olmayotgan bolalarni ko‘rish qo‘g‘irchoqbozlar uchun eng oliy mukofotdir.

Ilk qo‘g‘irchoq tomoshalari haqida ma’lumotlar qadimgi Gretsiya, Rim va Misrga tegishli. Antik davrda xudolar, hayvonlar, mahluqlar tasviri bilan mexanik tarzda harakatga kelgan qo‘g‘irchoqlar, qo‘g‘irchoq-avtomatlar marosim, bayramlarda, maydonlarda, asosan diniy maqsadlarni ko‘zlab o‘ynatilgan. Teatr qo‘g‘irchoqlarining kelib chiqishiga oid birinchi tadqiqotlar XIX asrlarda ma’lum bo‘lgan.1842 yil fransuz yozuvchisi SH.Nodye qo‘g‘irchoq teatrining kelib chiqishini insonning “bolalik” pallasiga bog‘liqligi g‘oyasini o‘rtaga tashlaydi. Unga ko‘ra, birinchi qo‘g‘irchoq yaratilishi qiz bola o‘zining tabiiy onalik instinktiga muvofiq kashf etishi bo‘lib chiqdi.Qizchaning o‘z qo‘g‘irchog‘i bilan munosabatlari esa qo‘g‘irchoq teatr san’tining proobrazi, qo‘g‘irchoqbozning o‘zi esa marionetkaning proobrazi sifatida talqin qilingan edi.

Oradan sal muddat o‘tib, fransuz arxeoligi SH.Manyan mutloqo zid talqinni ilgari suradi. Bu gipotezga muvofiq qo‘g‘irchoq johiyat davri odamlari o‘zlari yasab olgan ”xudo”larini jonlantirish, ularni harakatga keltirishga intilishlardan kelib chiqqan; har ikki gipoteza juda ko‘p tortushuvlar, bahs-munozaralar keltirib chiqaradi. Lekin XXasrga kelib madaniyatshunoslik rivojlanishi bu qarashlarga muhim aniqliklar kiritadi va umuman, teatr, jumladan qo‘g‘irchoq teatrining ham

kelib chiqishi halqchil urf-odatlar, rasm-rusmlar, marosimlar bilan bog‘liqligini asoslaydi. Qadimiy urf-odatlar, ibtidoiy tafakkur, mifologiyaning ildizlari o‘rganilishi, qo‘g‘irchoqlarining sirtdan “o‘yinchoq” sifatida ko‘rinishga qaramay, aslida insonning narigi dunyo haqidagi tassavurlari bilan bog‘liq deb hisoblangan.

“Qo‘g‘irchoq teatri jahondagi ko‘p xalqlarga qadim zamonlardan buyon qadrdon.Ujamiyat taraqiyotida muhim rol o‘ynab kelgan.Har joyda har xil shakl taraqqiy etgan, turli hajmdagi sahnaviy qo‘g‘irchoqlar rasm bo‘lgan. Bir xil qo‘g‘irchoqlar bir yarim-ikki qarich bo‘lsa, ba’zilari odam barobar keladi. Ayrim qo‘g‘irchoqlar qo‘lqopdek qo‘lga kiyib o‘ynalsa, ayrimlari iplar bilan yuqoridan boshqarilgan. Ko‘p mamlakatlarda qo‘g‘irchoqni o‘ynatuvchi kishi ko‘rinmaydi. Yaponlarda esa tomoshabinlarga ko‘ringan holda bir qo‘g‘irchoqni uch kishi boshqaradi. Qo‘g‘irchoq teatrinig muhim tarixiy xususiyatlaridan biri shuki, u Osiyo va Yevropada to XX asrgacha asosan an’anaviy shaklda yashab kelgan.Turli malakatlar qo‘g‘irchoq teatrlari orasida juda ko‘p mushtaraklik, o‘xshashlik va yaqinlik ana shundan kelib chiqqan bo‘lishi mumkin. Shuningdek, Osiyo va Yevropa Qo‘g‘irchoq teatrlari tarkib topishi jihatidan bir xil manbalarga ega deb o‘ylaymiz. Fikrimizcha, qo‘g‘irchoq tomoshasi Osiyoning qadimiy klassik mamlakatlarda paydo bo‘lib, keyinroq Italiya va Eron orqali Yevropaga tarqalgan .”[14]

Asrlar o‘tib o‘z ijro uslubi, vositalari va o‘ziga xos an’analariga ega bo‘lgan o‘zbek qo‘g‘irchoq teatrining boshqa teatrlardan farqi anchagina. Qo‘g‘irchoq teatr san’ati eng qadimiy san’at turi bo‘lib, u o‘zi bilan butun bir tarixni ergashtiradi. Darhaqiqat, o‘zbek an’anaviy qo‘g‘irchoq teatri zamirida xalqimizning milliy qadriyatlari, urf-odatlari, ma’naviy salohiyati-yu, ilmiy darajasi shu bilan birga boy madaniyatimiz mujassamdir.

Bir so‘z bilan aytganda, bu san’at ko‘z o‘ngimizda mukammal tarixni gavdalantiradi. Har birimiz qo‘g‘irchoq teatrlarining spektakllarini ko‘rib katta

[14]М.Қодиров. Халқ қўғирчоқ театри.-Т.1972й,11-12 бетлар.

bo‘lganmiz. Barcha teatr turlari kabi qo‘g‘irchoq teatri ham o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Shunday bo‘lsa-da, qo‘g‘irchoq san’ati dramatik teatrning poydevori desak yanglishmaymiz. Sababi, teatr so‘zi haqida tasavvur bo‘lmagan bir paytda qo‘g‘irchoq san’atining ildizlari o‘z o‘rnini topib ulgurgan edi.

Qo‘g‘irchoq teatri san’atiga xos asosiy spetsifik xususiyat shundan iboratki, boshqa teatrlarda qahramonlar qiyofasida faqatgina aktyorlar ko‘rinsa, bu makonda esa qo‘g‘irchoq-personajlar namoyon bo‘ladi. Qo‘g‘irchoq teatri aktyori uchun tashqi ko‘rinish, jismoniy kamchiliklar ahamiyatga ega emas, mahoratini o‘rnida ishlata olsa, yoshi o‘tgan aktyor ham yosh yigit, qiz obrazini bemalol ijro etishi, tashqi ko‘rinishiga umuman to‘g‘ri kelmaydigan qahramonlarni bemalol yarata olishi mumkin.

Darhaqiqat, jonsiz, tilsiz, oddiy qo‘g‘irchoqlar vositasida inson hayoti, munosabatlari, axloqi, odatlarini badiiy, haqqoniy va jozibali qilib namoyish etish mo‘jizaga o‘xshaydi. Qo‘g‘irchoqboz bamisoli mo‘jizakordir. U qo‘g‘irchoqlarni harakatga keltirib, ularga hayot bag‘ishlab, odamlarga qanchadan-qancha ma’naviy ozuqa, zavq-shavq in’om qiladi, do‘stlik, adolat va halollik haqida hikoya qiladi. YA’ni, rosmana hayotni qo‘g‘irchoqlar obrazi orqali namoyon etadi. U tomoshabinni sehrlaydi, mo‘jazgina sahnada kechayotgan voqealarga ishontiradi va uni kichik tomoshabinlar hayratlanib, berilib tomosha qiladilar. Qo‘g‘irchoq teatri jahon badiiy madaniyatining muhim tarkibiy qismi, sahna san’atining qadimiy va mo‘tabar turlaridan biri bo‘lib kelgan.

Shunisi qiziqki, ibrat bo‘la olish, namuna ko‘rsatish yo‘li bilan bolalarning ruhan barkamol bo‘lib o‘sishlarida san’atning ahamiyati muhim ekanligini eramizdan avvalgi 4-5-asrlardayoq avlodlarimiz anglab yetgan ko‘rinadi. Qo‘g‘irchoqlar orqali nafaqat bolalarga, balki kattalarga ham ta’sir o‘tkazib kelinganligi Gerodot, Mark Avreliy, Aristotel kabi qadimgi tarixchi va allomalarning asarlarida keltirilgan. Demak, “Qo‘g‘irchoq teatri- tarbiya maskani” desak yanglishmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.– Toshkent : O‘zbekiston, 2017.
2. Qodirov M. Xalq qo‘g‘irchoq teatri.-T.1972y, 11-12-betlar.

Қўғирчоқ театри трансформациясида “Бир актёр театри” театри жанрининг ўзига хос талаблари.

ЎзДСМИ мустақил тадқиқотчиси
Р.Дўсанов

Специфические требования театрального жанра «Театр одного актера» в трансформации театра кукол.

Независимый исследователь УзДСМИ
Р.Дўсанов

Specific requirements of the "One actor theater" theater genre in the transformation of the puppet theater.

Independent researcher of UzDSMI
R. Do’sanov

Аннотация

Мақола қўғирчоқ театри трансформацияси ва бу театрдаги “Бир актёр театри” театри жанри тарихи ва бугун давом анъаналарига асосланади.

Аннотация

Статья основана на трансформации театра кукол и истории жанра театра одного актера в этом театре и традициях, которые продолжаются и сегодня.

Annotation

The article is based on the transformation of the puppet theater and the history of the one-actor theater genre in this theater and the traditions that continue today.

Калит сўзлар: театр, қўғирчоқ, актёр, масхарабоз. якка ижро, бир актёр театри.

Ключевые слова: театр, кукольный, актёр, клоун. моноспектакль, один актёр театра.

Key words: theater, puppet, actor, clown. solo performance, one actor theater.

Қадимги Ўзбекистон заминида мавжуд санъат туриларидан бири бу қўғирчоқ тетари санъатидир. Бу санъат турининг ривожланиш жараёнига назар ташласак, якка ижродан бошланганига гувоҳ бўламиз. Якка ижро санъати – “Бир актёр театри” жанрининг илдизи ҳисобланади. Ўзбекистонда “Бир актёр театри” жанри пайдо бўлиши ва ривожланишида қўғирчоқ тетари санъати томошалари ҳам катта аҳамиятга эга. Бу мавзуни битта илмий мақола билан тўлақонли ёритиши мушкул. Шу сабаб, биз қуйида шу масалага қисман тўхталамиз.

Ўзбек якка ижро санъати тарихи бой даврини ўз ичига олади. Академик Мамажон Раҳмонов ўзбек анъанавий театридаги якка ижрога асосланган – масхарабозлик, қизиқлар санъати, бахшилар, раққослар, созандалар, қўғирчоқбозлар ва маддоҳлар ижоди рус театридаги якка ижро санъати ривожига туртки бўлганини таъкидлайди. “Ўзбек халқининг бадиий сўз ижро мактаби – ўз вақтида, рус театрида якка актёр ижросининг туғилишига маълум ҳисса қўшган ва таъсир кўрсатган”. [1.117-Б]. Олимнинг фикридан маълум-ки, ўзбек якка ижро санъати тарихи алоҳида ўрганилиши лозим. Қўғирчоқ театри санъатига бағишланган илмий конференциялар анъанаси давом этишига ва бу мавзу асосида бир нечта илмий тадқиқотларга асос бор. Ушбу конфиренция ҳам бу санъат турига қизиқувчилар учун манбаа бўлиб хизмат қилади. “Анъанавий ўзбек театри тушунчасига – халқ турмуши ва маданий ҳаётидаги томоша турлари ва тақлид қилишга оид унсурлардан тортиб, асрлар давомида шаклланиб, яшаб келган масхарабозлар, қизиқлар санъати ва қўғирчоқбозлик киради” дейди Т.Турсунов. [2.16-Б]. Шу таъкидга асосланиб, қўғирчоқлар билан томоша кўрсатишни уддалаган актёрларнинг якка ижросига ҳам тўхталишни лозим топдик. Қўғирчоқлар билан боғлиқ номерлар актёрдан алоҳида тайёргарлик ва шу билан бирга катта маҳорат талаб қилган. “Чунки қўғирчоқ билан ўйнаган масхарабоз доимо икки образ яратиши шарт эди” [3.36-Б]. Томошани қўғирчоқлар билан ижро этиш унинг тошавийлигини оширган. Томошабинлар учун ҳам бу

жудда қизиқ ва янгилик ҳисобланган. Анъанавий театрда бу жанр талаблари асосидаги ҳажвий томошаларни қўғирчоқ билан ижро этилган бир актёр театри томошалари дейишимиз мумкин. Ҳозирги кунда бир актёр театри жанридаги қўғирчоқ театри томошаларини жуда кам сонли актёрлар ижро этмоқда. Сарвиноз Қодированинг бу санъат тарихи ҳақидаги фикрлари қуйидагича - “Қўғирчоқ ўйин билан, халқ профессионал театри – масхарабозлик ўртасида кўпгина умумийлик мавжуд. Масхарабозлар ўз томошаларида ниқоб ишлатганларида, гуё қўғирчоққа айланганлар, чунки, гоҳ қотиб, гоҳ жонланиб турувчи саҳнавий қўғирчоқларнинг ифода воситаларини ишга солишган”. [4.3-Б]. Демак, масхарабозлар ниқоб кийганида – қўғирчоқ персонажга, уни олганида бошқарувчи – корфармонга айланган. Бундай ижро масхарабозларга турли қиёфа яратишда ва маҳоратини намойиш қилишда қулай воситага айланган. Улар ижросини “Бир актёр театри”нинг томошаси деб, таъкидлаш лозим. Анъанавий театр актёрлари ҳисобланган – масхарабозлар, қизиқлар ва қўғирчоқбозлар ижро этган номерларнинг ҳам ўзига хос драматургияси бўлган. Улар ижро этган саҳна кўринишлари замонавий театрнинг талабларига мос келади. Анъанавий театр актёрлари оғзаки драматургиядан – европача типдаги ёзма драматургияга асосланиб ижод қилиши натижасида, якка ижро санъати янги поғонага кўтарилган. Сабаби, замонавий театрда ҳамма иш аниқ шахс томонидан яратилган ёзма драмадан бошланса, анъанавий театр батамом – ҳам актёр, ҳам драматург, ҳам режиссёр вазифаларини бажарувчи масхарабозлар, қизиқлар ёки қўғирчоқбозлар ижросига асосланган. [3. 19-Б]. Қўғирчоқлар билан томоша кўрсатиш ҳам қадимий томоша тури эканлиги юқорида таъкидланди. Дарҳақиқат оддий мато, ёғочлардан ясалган жонсиз қўғирчоқни тилга киритиш, уни ҳаракатлантириш томошабинга ўзгача завқ беради. Қўғирчоқ санъати тарихидан бизга маълумки, қўлга кийиб олиб ўйнатиладиган, ип ёки сим билан ҳаракатга келтириладиган ва соялар орқали томоша кўрсатадиган турлари эл орасида машҳур бўлган. Улар “Чодир жамол”, “Чодир хаёл”, “Фонус хаёл” деб номланган. Буни Муҳсин

Қодиров шундай таърифлаган – Биринчидан, бу томошаларда мусиқа муҳим рол тутган. Иккинчидан, уларда Корфармон номли уста ва тажрибали қўғирчоқбоз томошабинларга кўринган ҳолда қўғирчоқ қахрамонлар билан савол жавоб қилиб, баъзан, воқеалар тизимини изоҳлаб, томошабин билан саҳнадаги воқеани боғлаб турган. Учинчидан, чодир ости, усти ёки ортидаги қўғирчоқбоз тилига "сафил" деган мослама – пуфлагич қўйиб, қўғирчоқларга хос чийилдоқ, ўткир товуш чиқарган [5. 59-60 Б]. Демак, бу турдаги томошалардаги барча персонажар қўғирчоқ ўйнатишда моҳир ҳисобланган битта актёр томонидан амалга оширилган. Шунинг учун бу турдаги номерларни ҳам "Бир актёр театри" жанри асосидаги томоша деб атаймиз.

Ўзбек "Бир актёр театри" спектакллари орасида илк бор жаҳон кезган – "Ўзбек миллий қўғирчоқ театри" спектакли эди. XX аср охирида Республика қўғирчоқ театрида, Ганс Христиан Андерсеннинг "Чўчқабоқар ва малика" ва "Нўхат устидаги малика" эртаклари асосида "Оле-Лукойе эртаклари" номли, якка ижродаги спектакль саҳналаштирилган. Унинг биринчи ижрочиси Исо Ёқубов бўлган. 2004 йилдан бошлаб, яқин йилларгача бу якка ижродаги спектаклни Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист Фатхулла Хўджаев ижро этиб келди.

Спектаклнинг мавзуси - шахзода ва қўшни мамлакат қироличаси ўртасидаги чин муҳаббат ҳақида. Маҳоратли актёр Фатхулла Хўжаев якка ижрода – митти сеҳиргар Оле-Лукойе, Қиролича, Эртакчи бобо, ошиқ Шахзода, она Қиролича ва бошқа персонажлар характерларини ўзига хос ижроси билан гавдалантирди. Санъаткор юқорида қайд этилган персонажларни драматург белгилаган характерларга мос овозлар орқали, ўз пластикаси ва қўғирчоқлари ёрдамида ифодалаб, спектаклни 15 йил давомида ижро этган. Спектакль шу йиллар оралиғида чет эл давлатларида ҳам намойиш этилган. Бу спектаклнинг саҳналаштирилиши ва тарихи ҳақида Фатхулла Хўджаев – "Бу спектаклнинг режиссёри ва биринчи актёри Ўзбекистон хизмат кўрсатган санъат арбоби, Исо Ёқубов бўлади. У, Латвияда хизмат кўрсатган

санъат арбоби Л. Шенхов ҳамда бастакор, Ўзбекистон хизмат кўрсатган санъат арбоби Янов-Яновсикий билан ҳамкорликда саҳналаштирган. Спектаклнинг дикорацияси, риквизитлари, керакли жиҳозлари Тошкентдда таёрланди. Ҳар хил планшетлар эса, Ригада ясалган ва Тошкентга олиб келинган. Спектакль – чин муҳаббат ҳақида. У тахминан ўн йиллар давомида дунёнинг жуда кўп мамлакатларида, шу спектални ижро этган. Америкага борганимда, у мен билан шу спектални ишлади ва менга совға қилди. “Бир актёр театри” спектаклини ижро этиш, актёрдан катта куч талаб қилади. Исо ака шу пайтда 70 ёшларда эди. Ёши улуғ актёрга шунча персонажни якка ижрода жонлантириш қийин кечади. Менга топширишига шу сабаб бўлгандир. Менинг 25 йиллик саҳнавий ижодимда айни шу спектакль муҳим рол ўйнайди. Сабаби, уни ижроси учун жами тажрибам таянч бўлди. Устоз санъаткор Исо Ёқубовдан менга мерос спектаклни ёшим улғайиб, ижро қилиш қийинлашгач Фарғона Қўғирчоқ театри актёри – Нодир Аъзамов билан қайта саҳналаштирдим. Ҳозирда бу умри узоқ спектаклни учинчи авлод вакили ижро этмоқда. [6]. Убшу суҳбатдан сўнг биз шундай хулосага келдик. Ўзбекистондаги Қўғирчоқ театрларида “Бир актёр театри” спектакллари мавжуд. Қолаверса, уларда устоз-шогирд анъаналари намунали даражада давом этаётганига гувоҳ бўлишингиз мумкин. Ушбу фикрни 2019 йилнинг 30 июнида “Қашқадарё вилоят қўғирчоқ театри”да Ханс Кристиян Андерсоннинг “Қалай аскар” деб номланган эртаги асосидаги “Бир актёр театри” талабларини бажарган спектакаль намойиши далиллайди. Спектаклни режиссёр Ғайрат Ҳамроев саҳналаштирган, уни актёр Азизжон Ғуломов ижро этган. Бу спектаклда ҳам актёр, бир нечта персонажларни қўғирчоқлар ёрдамида якка ўзи ижро этади. Ижрочи спектаклнинг намойиши давомида: жажжи томошабинлар билан мулоқотга киришиши; сандиқдан олинган қўғирчоқни болаларга бериб қўйиши; айрим саҳналарида ёш болалардан бирини саҳнага олиб чиқиб, у билан бирга қўғирчоқчаларини ўйнатиши спекталнинг таъсирчанлигини, болаларнинг завқини ошириб, намойишнинг томошавийлигини таъминлаган. Бундай

ўзига хос услуб болажонларнинг қизиқишни янада жўш уришига хизмат қилади.

Мақолага қисқа хулосаси шуки, Қуғирчоқ театри усталари ижодида устоз-шогирд анъаналари яхши давом этмоқда. Қўғирчоқбозларнинг якка ижро этган томошаларида бадиий яхлитлик, ғоявийлик ва тарбиявийлик мавжуд. Бу бадиий тарбиянинг илк қадамидир.

Фойдаланилган адабиётлар рщйхати.

1. М.Рахмонов. Ўзбек театри қадимий замонлардан XVIII асрга қадар. -Т.: Фан, 1975. 117-Б.

2. Т.Турсунов. XX аср ўзбек театри тарихи, -Т. Мехридарё, 2010.16-Б.

3. М.Қодиров. Ўзбек театр анъаналари. –Т.: Ғ.Ғулом, 1976. 36-Б.

4. М.Қодиров, С.Қодирова. Қўғирчоқ санъати тарихи, -Т.:Талқин, 2006. 3-Б.

5. М.Қодиров. Ўзбек халқ томоша санъати. –Т.: Ўқитувчи, 1981. 59-60 Б

Фатхулла Ходжаев билан бўлган суҳбат. 2020 йил. 18 Ию

Qo‘g‘irchoq teatri kadrlari - kelajak poydevori

(Muammo va yechimlar)

A. Qurbonov, O‘zDSMI

Kino, televideniye va radio san’ati fakulteti dekani, dotsent

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ta’lim va fan sohasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Bunda ko‘zda tutilgan asosiy maqsad uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish yo‘lini davom ettirish, sifatli ta’lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga qaratilgan. Ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv va

laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi va o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan jihozlash bo‘yicha ishlarni amalga oshirish orqali ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, Yoshlarni san’at dunyosiga oshno etish, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta’minlangan 100 mingdan ortiq bepul to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni ko‘rish mumkin.

Prezidentimizning 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma’no-mazmunini tubdan qayta ko‘rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilingan. Yangi avlod o‘quv qo‘llanmalarini yaratish va oliy ta’lim tizimiga keng tatbiq etish, oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta’minlash, jumladan, eng yangi xorijiy adabiyotlarni sotib olish va tarjima qilish negizida axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam yangilab borish ko‘zda tutilgan.

Keyingi yillar ichida aynan shu sohaga taaluqli 10 dan ortiq Prezident qarorlari va farmonlar imzolandi va ular asosida ko‘pgina chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Xo‘sh, ushbu qarorlarning ijrosi “Qo‘g‘irchoq teatri san’ati” kafedrasida qanday? Muammolar va kamchiliklar bormi? Kadrlarni kasbiy tayyorlashda OTM va ishlab-chiqarish integratsiyasi masalalari yechimi bo‘lyaptimi? Vaziyatni yanada yaxshilash uchun nima ishlarni amalga oshirish zarur?

“Qo‘g‘irchoq teatri san’ati” kafedrasi Teatr san’ati fakultetining 6 ta kafedrasidan biri bo‘lib, aynan mutaxassis tayyorlaydigan kafedra hisoblanadi. Kafedra 1974 yil Ostrovskiy nomidagi Toshkent teatr va rassomlik instituti (hozirgi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti)ning “Drama san’ati” kafedrasi tarkibidan tashkil etildi. O‘tgan davr mobaynida dastlab, V.S.Iogelsen,

V.M.Saidova, N.G.Krilova, SH.O‘.Hayitboyev, D.D.Abdullayevlar kabi yuqori malakali mutaxassislar samarali mehnat qilishgan bo‘lsa, bugungi kunda ham talabalarga saboq berayotgan professor-o‘qituvchilarning tarkibi zamontalablariga to‘liq javob beradi deb o‘ylaymiz. Kafedra professori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi M.H.Ashurova, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar F.U.Xo‘jayev, SH.Yusupov, dotsentlar A.A.Abduxalilov, V.I.Yusupova, katta o‘qituvchilar O.A.Ostanina, L.J.Usmonovalar va magistraturani tamomlab o‘z hayotini shu kafedraga bog‘lagan ko‘pgina umidli yoshlarning pedagogik faoliyati kafedraning bugungi holatini belgilab beradi. Ular
8 ta fandan dars berishadi. O‘quv adabiyotlar bilan ta’minlanganlik darajasi yuqori. Ilmiy salohiyat 2019 yilgacha asosiy shtatdagi 5 nafar professor-o‘qituvchilar hisobidan olinganda 20% bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda yil oxirigacha 80%ga chiqishi rejalashtirilgan.

Kafedraga talabchan, yosh pedagog, katta o‘qituvchi (dotsent v.b bo‘lsa o‘zgartirish kerak) L.Usmonova boshchilik qilib kelmoqda. Institutda 2000 yildan boshlab magistratura mutaxassisligi ochilgan bo‘lsa, o‘sha paytdan aynan ushbu ta’lim yo‘nalishiga ham talaba qabul qilinganligi bu sohaga e’tibor boshqa sohalardan kam emasligini bildiradi. Magistraturani bitirgan talabalar ustozlari yordamida o‘z pedagogik faoliyatini rivojlantirib, kafedraning ilmiy-ijodiy tomonlarini yanada ko‘tarish uchun astoydil izlanmoqdalar. So‘nggi yillarda turli yuqori tashkilotlar va tegishli mutasaddilar tomonidan o‘tkazilgan bir necha o‘rganishlarda kafedraning meyoriy-huquqiy hujjatlari, barcha fan dasturlari, o‘quv rejalari, o‘quv-uslubiy majmualari talab darajasida ekanligi e’tirof etildi. Umumiy holat yomon emas. Fikrimizni kafedra a’zolari ham ma’qullashsa kerak. Yutuqlar o‘zimizniki, muammo va kamchiliklar nimada, yechimini kutayotgan masalalar ham yo‘q emas.

Alohida iqtidor talab etiladigan ta’lim yo‘nalishlari qatorida ushbu yo‘nalishda ham ijodiy imtihonlardagi asosiy ball bilan abituriyentlar o‘qishga qabul qilinayapti. Biz ham bundan unumli foydalanib, avvalo 1 kursga qabul qilingan talabalar sinchkovlik bilan imtihon qilinishi kerak-ki, aynan shu sohaga

qiziqadigan va kelajagini shusiz tasavvur eta olmaydigan yoshlar bo‘lsin. Sir emas, o‘qishga kirib olay, 2 kursdan boshqa ta’lim yo‘nalishiga o‘tib ketaman deb hujjat topshirgan abituriyentlar ham ko‘p. Ular adashib kirib qolsa, “Talabalar o‘qishini tiklash va ko‘chirish” komissiyasida kafedra sha’niga o‘zi tushunmagan holda noto‘g‘ri fikr olib keladi. Munosib talabalarni qabul qilish uchun ijodiy imtihonlarda o‘tiradigan professor-o‘qituvchilarning salohiyati yetadi nazarimizda.

Kafedrada kunduzgi ta’lim yo‘nalishlari barobarida sirtqi ta’lim ham borligini, yaqin kunlarda yangi ta’lim yo‘nalishlari ochilayotganligini inobatga olib, xuddi hozirgiga o‘xshagan yuqori imkoniyatdagi texnikalar bilan ta’minlangan auditoriyalarni ko‘paytirish shart. Ayni paytdagi 2 ta auditoriyalar sig‘imi nuqtai-nazaridan ta’lim berish sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bilan birga “Qo‘g‘irchoq yasash texnologiyasi” xonasining jihozlanishi, asbob-uskunalarining zamonaviyligini qayta ko‘rib chiqish kerak. Qo‘g‘irchoq teatri rassom ijodi bilan chambarchas bog‘liqligini inobatga olgan holda rassom masalasi uzil-kesil hal etilishi kerak. Kafedrada Respublika va chet el grantlarining yo‘qligi yaxshi emas, bugunning talabidan kelib chiqib grant olishga erishish lozim.

Bugungi kundagi eng asosiy masalalardan biri talabalarning ish bilan ta’minlanganlik darajasi. Biz ilgarigiga o‘xshab o‘z yog‘imizga o‘zimiz qovurilish endi kechirilmaydi. Kafedraning Respublikadagi barcha san’at va madaniyat maktablari, qo‘g‘irchoq teatrlari hamda sohaga yaqin korxona va tashkilotlar bilan hamkorligi mavjud. Biroq, xalqaro hamkorlikni ham yo‘lga qo‘yish kerak. Ikkinchi bosqichda esa bu hamkorliklarni yanada jonlantirish lozimki, hamkorlik o‘z samarasini bersin. Ba’zi hollarda ish beruvchilar institutda bo‘layotgan yangiliklar, ta’lim jarayonidagi innovatsion o‘zgarishlardan umuman xabarlari yo‘q. OAVdan chiqib go‘yoki qandaydir yangilik taklif aytishadi, aslida u taklif allaqachon amalda bajarilgan. Biz bu bilan hech kimni ayblamoqchi emasmiz. Demak, bu masalalar ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak.

Hozirda chet tillarni bilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Professor-o‘qituvchilar va talabalarning xorijiy tillarni o‘rganishlariga sharoit yaratish kerak. Shu bilan birga agar zamanoviy ilg‘or pedagogik texnologiyalaridan unumli foydalanib mashg‘ulotlar olib borilsa, darsning sifat samaradorligi yanada ortadi. Amaliy mashg‘ulotlarda tanlanadigan ishlar mutaxassislik yo‘nalishlariga moslab tuzilsa, talabalarning o‘z mutaxassisligiga qiziqishi oshadi va kelgusida institutimizda olgan nazariy bilimlarini ishlab chiqarishda tadbiq qila oladi.

Xulosa o‘rnida kafedra bugungi kun zamon talablari asosida ish olib borayapti deyish mumkin. Ish bor joyda kamchiliklar uchrashi tabiiy. Unutmaylik, - “Qo‘g‘irchoq teatri-kelajak poydevori”. Zero O‘zbekiston san’atining, madaniyatining rivoji sohaning ertangi taraqqiyoti chuqur bilim va puxta tayyorgarlik asosida faoliyat yuritadigan yoshlar qo‘lidadir. Bu yoshlar esa, ilk tarbiyani aynan qo‘g‘irchoq teatrlaridan olishi mustahkam poydevor garovidir!.

Foydalanilgan adabiyotlar

3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent : O‘zbekiston, 2016;
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.– Toshkent : O‘zbekiston, 2017.

Elektron resurslar

1. www.dsmi.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.edu.uz
4. www.pedagog.uz

Пластическое воспитание актера театра кукол.

Останина О.А.
и.о.доцента кафедры
«Сценическое движение
и физическая культура»
Государственный институт
искусств и культуры Узбекистана.

Аннотация: В данной статье автор пытается объяснить специфику профессиональной подготовки студентов отделений «Актер театра кукол» в связи с действием законов физики и физиологии актера.

Ключевые слова: театр, сценическая речь, пластика, мастерство актера, физиология, культура тела.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mualif aktyorlik fakulteti talabalarining kasbiy tayyorgarligining o/ziga xos xuscsiyatlarini aktyor fizikasi va fiziologiyasi qonunlari amal qilishi bilan izohlaydi.

Kalit so'zlar: teatr, sahna nutqi, plastika, aktyorlik mahorati, fiziologiya, tana madaniyati.

Annotation In this article, the author tries to explain the specifics of the professional training of students of the departments "Actor of the Puppet Theater" in connection with the action of the laws of physics and physiology of the actor.

Key words: theater, stage speech, plasticity, actor's skill, physiology, body culture.

Несмотря на то, что в современное театральное искусство очень настойчиво вторгается технический прогресс, мастерство актера остается главным двигателем театрального действия. И по-прежнему единственными собственными (личными) средствами выразительности у актера остаются его тело и голос (все остальные способы выражения принадлежат другим участникам театрального процесса – драматургу, режиссеру, художнику, композитору и другим). По сути два, очень материальных явления. Голос актера является продуктом деятельности тела. Как всякая материя существует в сфере действия законов физики, так и мастерство актера не

может существовать вне этих законов. Методологической основой для анализа данной теории могут являться положения К.С. Станиславского об органическом существовании актера на сцене, научные и практические исследования отечественных и зарубежных педагогов, режиссеров, врачей в сфере изучения этой темы. «Надо культивировать голос и тело артиста на основах самой природы. Это требует большой систематической и долгой работы, к которой я вас и призываю с сегодняшнего дня. Если же это не будет сделано, то ваш телесный аппарат воплощения окажется слишком грубым для предназначенной ему нежной работы. Нельзя с неподготовленным телом передавать бессознательное творчество природы, так точно, как нельзя играть Девятую симфонию Бетховена на расстроенных инструментах» [1]. Каждый театр кукол имеет свою технологическую особенность, свою материально-техническую основу. Без этого компонента он не сможет существовать. Театр кукол в первую очередь материален. Главное действующее лицо на сцене это кукла. «Артистичность куклы зависит от точного выбора художником движенческого принципа, а также от совершенства технического исполнения, которое должно обеспечить актеру послушный, гибкий инструмент для создания образа. С этой целью выделяется система динамических средств выразительности, отбор которых способен обеспечить создание полноценного зрительного образа с помощью куклы - жест и мимика куклы» [2]. И в свете этого очень насущной встаёт необходимость качественной профессиональной подготовки студентов – будущих актёров.

Понятие «Пластика» включает в себя множество различных значений: плавность, гибкость, ловкость, скоординированность жеста и слова, сила, выразительность движения, ритмичность, гармоничность и согласованность физических действий, выносливость. Пластичность актёра зависит не только от природных данных, но и от подготовленности организма. Пластика неразрывно связана с актёрской техникой. К.С. Станиславский рассматривал пластику как одно из естественных природных

психофизических качеств человека и других живых существ – способность свободно, без задержек распространять по мышцам энергию. Пластичность всегда естественна, но в театре пластичность – это нечто большее, чем просто естественность. Занятия по пластике включают в себя упражнения на расслабление мышц, развитие правильной осанки и походки, выработку скульптурности позы, поиск выразительного жеста, технику сложных двигательных навыков, целенаправленность физического действия, непрерывность движения, выразительность и стиль движения, сценические трюки и самое главное, выработку привычки к постоянному актёрскому тренингу. Конечно, особые упражнения, тренинги необходимы, но они всегда должны приводить к образному исполнению любого движения. Во многих учебниках по обучению актера театра кукол одним из важных элементов является развитие пластики рук. Конечно, хорошая пластичность рук имеет огромное значение, так как актер выражает свои чувства, в большинстве своем, руками. Но, к сожалению, забывают, откуда собственно эти руки «растут». Что является первичным в движении? Трудно переоценить роль позвоночника в строении и функционировании всего тела человека-актера. Для правильной работы органов дыхания, речи требуется правильное положение позвоночника, потому что вблизи с зоной позвоночника расположены очень важные нервы и кровеносные сосуды, которые оказывают непосредственное влияние на функции дыхания и сердцебиения. В момент действия в спектакле или на репетиции актер использует профессиональные навыки в сценическом действии, речи, пластике, мастерстве актера. Первые три компонента имеют непосредственную связь с физиологией движения. Актер двигается в разных ритмах, с разным ускорением и темпом движения. Плюс ко всему нужен хороший звуковой посыл, когда голос актера должен «перелетать» в зрительный зал. Конечно, в современном театре часто используется звуковая техническая поддержка, разного вида микрофоны, усилители звука. Но это возможно не всегда и не везде. Каждый спектакль имеет свои технические

параметры, которые обуславливают способы работы актера. Полноценное воспитание навыков правильного дыхания возможно только при сохранении правильной осанки. «Голова держится прямо, плечи свободно опущены и отведены назад, спина прямая, грудь немного выступает вперед, нижняя часть живота слегка подтянута. В такой позе следует держаться непринужденно, свободно, без напряжения. Нарушение осанки почти всегда ведет к нарушению правильного процесса дыхания и звучания» [3]. Есть спектакли, где актеры, играющие главные роли, не уходят со сцены очень продолжительное время. Иногда актеры невысокого роста используют специальную обувь на высокой платформе или туфли на высоких каблуках, что еще увеличивает нагрузку на позвоночник и суставы. Что же происходит с позвоночником актера в эти моменты? Каблук нарушает всю функциональность механизма стопы, изменяя биомеханику и геометрию стопы. Приводит к неравномерному распределению нагрузки по всему телу. При ситуации противоположной, когда актер очень высокий, возникает необходимость спрятать, уменьшить свой рост (например, в театре кукол). Актер театра кукол вынужден искать свои собственные приспособления: работать на сильно согнутых ногах, широко расставленных или перекрещенных, или скручивать свой позвоночник в «узел», выгибать его назад или в сторону, т.е. максимально нарушать главное правило при работе с вертикальной нагрузкой. Естественно все законы физики, сопротивления материала, физиологии организма никуда не исчезают. Хороший актер во время спектакля может этого и не заметить, эмоциональное напряжение во время действия отвлекает от ощущения боли, или срабатывает привычка к болевым ощущениям, спасает хорошая психотехника, но законы природы никто не отменял. Нагрузка, воздействующая на актерский аппарат, никуда не уходит, она там остается. Профессиональная подготовка актера театра кукол требует не только хорошей физической подготовкой, но и достаточного объема практических и теоретических знаний в области статических и динамических нагрузок и способов работы с ними.

Позвоночник и голосовой аппарат актера подвергается значительным перегрузкам, что может вызвать патологические изменения дегенеративного характера и другие деформации голосового аппарата и позвоночника. Достаточные грамотные актерские тренинги и стабильный, правильно выстроенный репетиционный процесс позволяет укрепить весь костно-мышечный аппарат актера, адаптировать его к высоким нагрузкам и перегрузкам. «Очевидными задачами являются: оснащение актера программой и комплексами упражнений для постоянной работы над собой; воспитание в актере потребности в такой работе; доведение процесса работы над телесным аппаратом «до органического перерождения самой природы» телесности актера» [4].

Но в свете последних тенденций по сокращению количества часов по движенческим дисциплинам в ГИИКУз., в частности по предмету «Пластика» (этот предмет практически изучается уже в течение только 1 года), можно сделать выводы, что мы не можем давать полноценное профессиональное образование будущим актерам. Потому что понятие «Актерский тренинг» включает в себя постоянное совершенствование своего актерского аппарата. Чтобы соответствовать безграничному списку требований, предъявляемых актёру современным театром, актёр должен обладать пластической универсальностью. В процессе обучения будущего актёра просто необходимо создание базового физического тренинга актёра. Занятия пластикой ни в коем случае не должны подменяться просто физкультурой, разминкой, растяжкой и другими разминочными упражнениями. Необходимо обязательно придать занятиям творческий характер. И в заключение не могу не привести слова К.С. Станиславского из его книги «Работа актёра над собой»:

«Только знать систему – мало. Надо уметь мочь. Для этого необходима ежедневная, постоянная тренировка, муштра в течение всей артистической карьеры… Для того, чтобы внешне выявлять тончайшую и часто подсознательную жизнь нашей органической природы, необходимо

обладать исключительно отзывчивым и превосходно разработанным голосовым и телесным аппаратом. Надо, чтобы они с огромной чуткостью и непосредственностью мгновенно и точно передавали тончайшие, почти неуловимые внутренние переживания. Иначе говоря: зависимость телесной жизни артиста на сцене от духовной его жизни особенно важна. Вот почему артист… должен позаботиться не только о внутреннем аппарате, создающем процесс переживания, но и о внешнем, телесном аппарате, верно передающем результаты творческой работы чувства – его внешнюю форму воплощения…»

Поэтому хочется обратиться к руководителям актерских отделений и всего театрального факультета: для какого современного театра мы готовим актеров с таким минимальным багажом знаний в области движения и знания его законов? Почему теряется смысл проведения простого практического урока? Почему появилось насмешливое понятие «урокодатель»? А ведь это самое главное для учителя - уметь давать хороший качественный урок! Никакая (даже самая научная) теория не научит студента двигаться и говорить на сцене без постоянных практических, грамотных уроков. Хочу напомнить знаменитую фразу Иоганна Гете из «Фауста»: «Суха теория, мой друг, но древо жизни вечно зеленеет».

Список литературы.

[1] Станиславский К. С. Собр. соч.: В 8 т. М., 1955. В 8 т. Т. 3.С.29.
[2]. Романовский Е.Я. «Искусство театра кукол в контексте национальной культуры», автореферат по ВАК 24.00.01, Диссертация Артикул: 341964. Год: 2008 с.2.
[3] «Сценическая речь». Под редакцией И.П. Козляниновой. ГИТИС. Москва. 2006г. С.396.
[4] Дрознин А.Б., профессор Театрального института им. Б. Щукина, «Физический тренинг актера по методике Андрея Дрознина», «Я вхожу в мир искусства», М.: ВЦХТ, 2004г. С.11.

Xalqaro sahnalarda viloyat qo‘g‘irchoq teatrlarining ishtiroki (Qashqadaryo viloyat qo‘g‘irchoq teatri misolida)

O‘zDSMI
“Qo‘g‘irchoq teatri san’ati”
kafedrasi o‘qituvchisi U.Musinov
ulugbek.musinov1995@mail.ru
Ilmiy rahbar: san.f.d., professor
S.M.Qodirova

Annatatsiya: *Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyat qo‘g‘irchoq teatrining Turkiya Respublikasining Altiiylul shahrida “Tulutabak” Xalqaro katta va kichik teatrlar festivalida namoyish etilgan spektakli haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *xalqaro, madaniyat, san’at, qo‘g‘irchoq teatri, professionallik, an’anaviy, folklor, rejissyor, aktyor, rassom,*

Аннатация: *В данной статье рассказывается о спектакле Кашкадарьинского областного театра кукол, который был представлен на Международном фестивале больших и малых театров «Тулутабак» в г. Алтыйул Турецкой Республики.*

Ключевые слова: *международный, культура, искусство, кукольный театр, профессионализм, традиционный, фольклор, режиссёр, актер, художник, образование.*

Annotation: *This article tells about the performance of the Kashkadarya Regional Puppet Theater, which was presented at the International Festival of Large and Small Theaters “Tulutabak” in the city of Altiyul of the Republic of Turkey.*

Keywords: *international, culture, art, puppet theater, professionalism, traditional, folklore, director, actor, artist.*

“...Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish,

kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir",[15] deganida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev naqadar haq edi. Ma'naviyat va ma'rifatning rivojlanishi bugungi dunyoda yuz berayotgan notinchliklarning tomiriga bolta uruvchi asosiy omillardan biridir. Bu jihat hatta xalqlarning o'zaro bir-biri bilan ahil va inoq yashashida, davlatlararo aloqalarning rivojlanishida alohida o'ringa ega.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohatlar qatorida xalqimizning boy milliy madaniy merosini rivojlantirish, uning dunyo miqyosidagi o'rnini mustahkamlash, boshqa xalqlar bilan o'zaro har jihatdan barcha aloqalarni rivojlantirish barobarida milliy madaniyatlar o'rtasida hamkorliklarni keng targ'ib qilish alohida ahmiyat kasb etib bormoqda. Xususan, milliy madaniyatning o'ziga xos targ'ibotchisi bu teatrdir. Respublikamizda teatr san'ati sohasiga ham e'tiborning ortishi natijasida endilikda teatr jamoalari mamlakatimiz hududlari bilan gastrol safarlarini tashkil qilish bilan bir qatorda boshqa mamlakatlarga ham ijodiy safarlarni uyushtirishmoqda.

Joriy yilning 7-martidan 12-martigacha Turkiya Respublikasining Altiiylul shahrida "Tulutabak" Xalqaro katta va kichik teatrlar festivalida o'zlarining munosib ishtiroklari bilan tomoshabinlar mehrini qozongan Qashqadaryo viloyat qo'g'irchoq teatri o'z ijod yo'lida yangi bir odimlarni boshlab berdi.

Ushbu nufuzli festivalda Qashqadaryo viloyat qo'g'irchoq teatri "Kimkimni topdi" yoxud "Hangomada hangoma" spektakli bilan ishtirok etdi.

Ta'kidlash joyiz, Qashqadaryo viloyat qo'g'irchoq teatri so'nggi yillarda mamlakatimiz bo'ylab ko'plab gastrol safarlari uyushtirib, jajji tomoshabinlarga zavqu shavq ulashib kelmoqda.

Turkiyada o'tgan "Tulutabak" Xalqaro katta va kichik teatrlar festivalida ishtiroki esa jamoaning o'z imkoniyatlarini xalqaro darajada ham namoyon etish uchun zamin hozirladi.

[15] SH.M.Mirziyoyev. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". T:, "O'zbekiston", 2017 y, 27-bet.

Ushubu spektaklni sahnalashtirishda quyidagi ijodiy jamoa bir tanu bir jon bo‘lib harakat qilishdi: asar muallifi Karomat Dilmonov, sahnalashtiruvchi rejissyor O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist F.Xodjayev, sahnalashtiruvchi rassom M.Mamatov, rejissyor yordamchilari H.Lutfiyev, bastakor F.Abidullayev, liboslar ustasi G.Abdullayev, butafor dekaratorlar M.Nurullayeva, Y.Shamsiddinova, qo‘g‘irchoq mexanizmi ustasi I.Saydalimov, sahnaviy obrazlar talqinida 1-masxaraboz, cho‘pon – H.Lutfiyev, 2-masxaraboz, bo‘ri, ajal – X.Xakimov, 3-masxaraboz, tulki, ovchi – M.To‘yliyev, 4-masxaraboz, doirachi – M.Choriyev.

Spektakl borasida tahliliy fikrlarni bildirish avvalida viloyat “Sanduvoch” gazetasining 2022-yil 26-apreldagi sonida e’lon qilingan maqolada teatr direktori Elbek Eshmurodov spektakl uchun tanlangan asar borasida quyidagi fikrlarni bildirdi: “…Ushbu asar o‘zbekona milliy ruh va chapani donishmandlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan. Bir-biridan qiziqarli voqealarga boy. Repertuarimizdagi aynan shu asarga murojaat etishimizning sababi ham o‘z milliy qadriyatlarimiz, san’atimizni xalqaro doirada namoyish etish edi” . Shuningdek festival borasidagi taassurotlarini shunday izohlaydi: “Menda eng katta taasurot uyg‘otgan jihat, u yerdagi yosh tomoshabinlarning tomosha madaniyati bo‘ldi, - deydi Elbek Eshmurodov. Bitta asar 3 soat namoyish etilsa-da, zalni hech kim tark etmaydi. Asarni oxirigacha ko‘rib undagi zarur xulosani uqib olishadi. Yana bir jihati, bizda tomoshabin ko‘proq engil hazm bo‘ladigan, kulgu va yumorga mos asarlarni xohlashadi. Turkiyada esa bunday bo‘lmadi. Ular ko‘proq mantiqiy fikrlashga undaydigan, jiddiy mavzularni kutishar ekan. Bundan xulosa qildimki, biz ham ijodda shunga ko‘proq e’tibor qaratishimiz va shu asosda farzandlarimizni jiddiy, kishini fikrlashga undaydigan asarlar bilan ham tarbiyalab borishimiz lozim”.

Albatta yuqoridagi fikrlardan, taassurotlardan ko‘rinib turibdiki festivalda namoyish etilgan asar bizning milliy qadriyatlarimiz asnosida yo‘g‘rilgan, an’anaviy qo‘g‘irchoq teatr uslublarini o‘zida mujassam etgan asar sifatida sahnalashtirilgan. Bu borada sahnalashtiruvchi rejissyor bilan olib borilgan suhbat davomida ham spektaklning yaratilishi bo‘yicha fikrlar o‘z isbotini topdi.

Bundan bir yil oldin Qashqadaryo viloyat qo‘g‘irchoq teatri tomonidan xalqaro maydonlarda ham teatrning o‘ziga xos o‘rnini topish, festival uchun asar sahnalashtirish taklifi bilan oldingi yillarda ham teatr sahnasida qator asarlarni sahnalashtirgan O‘zbek Milliy qo‘g‘irchoq teatrining usta aktyori O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti dotsenti O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Fatxulla Xo‘jayevga murojaat qilinadi. Ushbu taklifni qabul qilgan sahnalashtiruvchi rejissyor F.Xo‘jayev o‘zining bo‘lajak asar haqidagi fikrlarini viloyat teatrida so‘nggi yillarda o‘z asarlari bilan alohida o‘ringa ega bo‘lib kelayotgan dramaturg Karomat Dilmonovga bildirib o‘tadi. Natijada ertak va masalning poetik jihatdan sintezidan yaxshi bir asar dunyoga keladi.

Ertakka ko‘ra asarning asosiy qahramoni chol qo‘yini yo‘qotib qo‘ygan vaqtida bo‘riga duch keladi. Bo‘rini esa ovchilar quvlab kelayotgan bo‘ladi. U choldan panoh so‘rab o‘zini yashirishini iltimos qiladi. Chol uni o‘tin sifatida qopiga solib ovchilardan yashiradi. Ovchilar ketganidan so‘ng qopdan chiqqan bo‘ri cholga uni yemoqchi ekanligini aytadi. Bu orada tulki paydo bo‘ladi. Bor voqeani chol tulkiga aytib berganidan so‘ng tulki o‘zini go‘yo shunday katta bo‘rining kichik bir qopga sig‘ishiga ishonmaganday tutadi. U bo‘ridan qayta qopga tushishini so‘raydi. Bo‘ri qopga qayta kirganida tulki cholga qopning og‘zini yopib uloqtirib yuborishini aytadi va natijada chol bo‘ridan xalos bo‘ladi. Tulki bu qilgan yaxshiligi bekorga emasligini, bundan uzoq yillar avval tulki ovchilarning qopqoniga tushganida cholning yordam berganini uning yodiga solidi. Bu tulkining cholning yaxshiligiga yaxshilik bilan qilgan javobi edi.

Keyingi voqeaga I.A.Krilovning “Chol va Ajal” masali asos qilib olingan. Chol hayotidan noliy boshlaydi. Shu orada esa Ajal paydo bo‘ladi. Uni ko‘rib dag‘-dag‘ titragan chol ajaldan uni faqat qo‘ylarini topib berish uchun chaqirganligini aytadi. Shunday qilib o‘ziga xos tarzda mana shu ikki voqea asosida spektakl voqealar zanjiri bir-biri bilan bog‘lanadi.

“Kim kimni topdi” yoxud “Hangomada hangoma” spektakli rejissyor tomonidan milliy ro‘xda sahnalashtirgan. Ya’ni Qashqadaryoning folkloridan foydalangan xolda “Xo‘roz o‘yini”, “Qo‘zichoqlar urishi” kabi milliy o‘yinlarni,

qo‘shiqlarni, raqslarni qo‘shib o‘zgacha tarzda spektaklni sahnalashtirishga muvaffaq bo‘ladi. Shuningdek bularga an’anaviy qo‘g‘irchoq teatri “Chodir jamol” qahramoni Kachal Polvon ham ishtirok etadi. Spektakldagi yana bir o‘ziga xos jihat shundaki, asarda atyorlar xalq teatri uslublaridagi tomoshalar singari sayyor aktyorlar obrazida aravalarda butun sahna dekoratsiyalarini olib chiqishadi va sahnada qurishadi.

Qo‘g‘irchoqlarning boshqarilishi uslublariga ko‘ra quyidagi: Kachal polvon qo‘lqopli qo‘g‘irchoq turi, chol va ajal obrazlari simli, qo‘ylar, xo‘rozlar planshetli, bo‘ri hamda tulki qo‘g‘irchoqlari esa maxsus tanasiga qotirilgan gabetlar orqali shirmada harakatlanishga moslashtirilgan qo‘g‘irchoq turilaridan foydalaniladi. Barchasi pape-mashe texnologiyasi asosida yasalgan.

Xulosa qilib aytganda teatrdagi har bir spektakl yaratilar ekan albatta spektakl teatrning kelajagini ham belgilab beradi. Ushbu spektakl ham teatr jamoasi uchun katta o‘ziga xos yutuqdan biri bo‘ldi. Festivalda Qashqadaryo viloyat qo‘g‘irchoq teatri tomonidan namoyish etilgan ushbu asar tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi. Festival so‘nggida teatr jamoasiga tashkilotchilar tomonidan maxsus yorliq topshirildi. Qashqadaryo viloyat teatri jamoasi hozirda qator yangi asarlar ustida ish olib bormoqda. Bu kabi ijodiy safarlarning amalga oshirilishi, teatr jamoasining ijodiy dunyo qarashini shakllantirishda, mahoratlarining oshishida katta omil bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev SH. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. - T.: O‘zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev SH. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” .- T.: O‘zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev SH. “Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi”. - T.: O‘zbekiston, 2019.
4. Qodirov M. O‘zbek xalq tomosha san’ati. -T.: O‘qituvchi, 1981.

5. Qodirov M., Qodirova S. Qo‘g‘irchoq teatri tarixi. - T.: Talqin, 2006.
6. Qodirov M. An’anaviy teatr dramaturgiyasi. - T.: Yangi asr avlodi, 2006.

Xorazm qo‘g‘irchoq teatrida aktyorlik mahorati masalalari.

Qulmurodov Oybek

O‘zDSMI “Qo‘g‘irchoq teatri san’ati” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Xorazm viloyati qo‘g‘irchoq teatrining aktyorlik mahorati masalalari, ustoz – shogird an’analarini o‘rganish, bu boradagi o‘ziga xos tendensiyalarni aniqlash, repertuardagi sahna asarlari va ularning bugungi kundagi yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati, mazmun- mohiyati, mavzu va g‘oyasi, janr xususiyatlari, professionalizm masalalari, mavzu ko‘lamida olib borilayotgan rejissyorlik izlanishlari, bir so‘z bilan aytganda, teatrning bugungi kundagi ijodiy qiyofasini yoritib berish hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *Teatr, san’at, madaniyat, yoshlar, ijodiy salohiyat, spektakl, qo‘g‘irchoq teatri, mafkuraviy immunitet.*

Аннотация: *Вопросы актерского мастерства Хорезмского областного театра кукол, изучение традиций педагога-ученика, выявление специфических тенденций в этой сфере, пьесы в репертуаре и их значение в воспитании современного молодого поколения, содержание, тематика и идея состоит в том, чтобы осветить творческий облик театра сегодня, словом, особенности жанра, вопросы профессионализма, исследования режиссуры, проводимые в масштабе предмета.*

Ключевые слова: *театр, искусство, культура, молодежь, творческий потенциал, спектакль, театр кукол, идеологический иммунитет.*

Annotation: *Issues of acting skills of the Khorezm regional puppet theater, studying the traditions of a teacher-student, identifying specific trends in this area, plays in the repertoire and their importance in educating the modern young generation, content, themes and the idea is to illuminate the creative image of the theater today, in a word , features of the genre, issues of professionalism, studies of directing, carried out on the scale of the subject.*

Key words: *theatre, art, culture, youth, creativity, performance, puppet theatre, ideological immunity.*

Adabiyot, san'at va madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

Qo‘g‘irchoq teatri – bu mahsus dunyo, alohida o‘ziga xos jarayon, alohida bir oila, barcha teatr janrlarining otasidir. Ushbu san'at dastavval yolg‘iz aktyorlar qo‘lida maydonlarda paydo bo‘ldi va ular zamonaviy qo‘g‘irchoq aktyorlarining kashshoflaridir. Qo‘g‘irchoq teatri aktyori qo‘g‘irchoqni nazorat qilish orqali sahnada qahramon tasvirini yaratadi. Aktyor ijodining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u odatda sahnada paydo bo‘lmaydi. Qo‘g‘irchoq teatri sahnasidagi badiiy tasvir qo‘g‘irchoqning xarakatlaridan, uning plastik xusustyatlaridan, aktyorning nutqidan va o‘ziga xos ovoz intonatsiyasidan kelib chiqadi. Qo‘g‘irchoq aktyoridan qo‘g‘irchoqni o‘ynatishni o‘rganish talab etilmaydi, chunki u har bir spektaklda har hil ishlash va boshqarish tizimlarini talab etadi. Qo‘g‘irchoq aktyori tanasi, qalbining bir qismi sifatida tomoshabinni qanday his qilishni o‘rganishi lozim. Shu bilan birga hatti-xarakatga boy va yaxshi vokalga ega bo‘lishi kerak. Shuning uchun ko‘p narsa qo‘g‘irchoqni boshqarish qobiliyatiga, nutqning ifodasiga bog‘liq. Ko‘pincha aktyor o‘zining tabiiy ovozini

o‘zgartirib, uni qo‘g‘irchoq-qahramonga xos mahsus mebranadan foydalanadi. Bu orqali tomoshabin qo‘g‘irchoqni jonli mavjudod sifatida qabul qiladi, uning hatti-xarakatini mantig‘ini o‘ylaydi.

Rejissyor Venera Yusupovaning “Искусство театра кукол и система К.С.Станиславского” (Qo‘g‘irchoq teatri san’ati va Stanislaviskiy tizimi) nomli kitobida qo‘g‘irchoq aktyorligining o‘ziga xos xususiyatlari va bu borada Stanislaviskiy sistemasining ahamiyati to‘g‘risida so‘z boradi.

“Aktyor tomoshabin va partnyori bilan bevosita qo‘g‘irchoq orqali muloqot qiladi. Uning qahramoni jonsiz qo‘g‘irchog‘i orqali tirik odamning yuragiga yo‘l oladi. Qo‘g‘irchoqni jonli insoniy tuyg‘ulari, yuz ifodalar yo‘q. Shuning uchun qo‘g‘irchoq teatrida qo‘g‘irchoq yashamasa, o‘ylamaydi, his qilmaydi, jonsiz murdaga aylanadi”[16] Rejissyorning mulohazalari bevosita boshqa aktyorlar singari qo‘g‘irchoq teatri aktyorida ham asosiy element ichki kechinma bo‘lib, qahramonini qalban va ruhan his etish orqali ichkaridan tashqariga ya’ni ichki his-tuyg‘ularni qo‘g‘irchoq hatti-xarakati orqali ko‘rsatish, ularni o‘zaro uyg‘unlashtirish lozimligini ifoda etadi.

Ushbu tadqiqot qo‘g‘irchoq teatri aktyorlarining asosiy vazifasi qo‘g‘irchoq boshqarish texnikasini o‘rganish bilan bog‘liq degan biryoqlama fikrlar nechog‘liq ahamiyatsiz ekanligini ko‘rsatadi.

Qo‘g‘irchoq-aktyorlar rejissyorlar singari teatr salohiyatini oshirishda yetkchi hisoblanadi. Xorazm qo‘g‘irchoq teatrida ham o‘ziga xos aktyorlar ansambli mavjud.

Teatrda Davron Ismoilov, Aziza Tillayeva, Umurbek Allaberganov, Davronbek Otaxonov, Nuquljon Raximova, Fozilbek Davlatov, Mashhura Sobirova, Elyorbek Ataboyev, Muxtorbek Masharipov, Bekzod Bahodirov, Rohatoy Matyaqubova, Abduyoz Matchanov, Xursanbek Soipov, Nilufar Nazarova, Bahtiyor Matniyozov, Rayxonoy Nazarova, Charos Masharipova,

[16] V.Yusupova, “Искусство театра кукол и система К.С.Станиславского”

Quvonchoy Tillayeva, Jamoliddin Baltayev, Rahimiov Shokirjon singari iqtidorli aktyorlar faoliyat yuritib kelmoqda. Teatrning rivojlanishida iqtidorli, tashabbuskor ijodkor D.Ataboyevning xizmatlari katta. Mamlakatimizdagi taniqli rejissyorlar, dramaturg va rassomlar singari aktyorlar bilan hamkorlikda ishlab teatrning badiiy saviyasini yuksaltirishda hissa qo‘shdi.

Teatr repertuaridagi turli janr va mavzudagi sahna asarlari teatrdagi aktyorlarning mahoratini o‘ziga xosligini ifoda etadi. Ushbu qo‘g‘irchoq teatri milliy an’analarga asoslangan holda faoliyat olib borganligi, qolaversa Xorazm viloyati farzandlari “lazgi” kuyiga raqsga tushib ulg‘ayganligi aktyorlar ijrosida ham yaqqol sezilib turadi. SHo‘h qo‘shiq va raqslar, so‘zga chechanlik, turli sozlarni maromiga yetkazib ijro etish ushbu teatr muhitida yetakchilik qiladi. Milliy elemetlar teatr binosidan tortib qo‘g‘irchoq-qahramonlar liboslarida ham o‘z ifodasini topadi. Xususan, “Afandining sarguzashtlari” spektakli milliy urf-odat an’analarning yorqin ifodasi bo‘lib, teatr jamoasining ayniqsa, aktyorlarning ijodiy salohiyatini ko‘rsatib bergan sahna asarlaridan biridir. Rejissyor M.Kuryazov “Afandi hangomalari” spektaklida an’anaviy qo‘g‘irchoq teatri usul va vositalaridan foydalanib sahnaga “Chodir jamol” tomoshasini taqdim etadi. Spektaklda ilgari surilgan g‘oya adolatni o‘rnatish, yaxshilikni ulug‘lash, halol va to‘g‘ri yashash kabi insoniy fazilatlarni targ‘ib qiladi. Kambag‘al So‘fi Olloyor xasis Mulla Mirza boyning xiyla-nayranglariga uchib, qarzdorligi haqidagi tilxatga qo‘l qo‘yadi. Ho‘ja Nasriddin aql-farosati bilan sodda cholga tilxatni mug‘ombir boydan qaytarib olib beradi. Xullas, spektakl Ho‘ja Nasriddin haqida hech tugamaydigan latifalaridan biri bo‘lib, insonlarning hulq-atvori, odobi haqida hikoya qiladi.

Spektaklda qo‘lqopli va dastali qo‘g‘irchoq turlaridan unumli foydalanilgan. Bu esa qo‘g‘irchoq teatr aktyorlaridan juda katta mas’uliyat talab qiladi. Qo‘lqopli qo‘g‘irchoq turini sahnada jonlantirish uchun aktyorning qo‘llari xarakatchan, tez egiluvchan va har bir barmog‘idan harakatchanlik talab qilinadi. Shu hatti-xarakatlarning jamlanmasini aktyor Davron Otaxonov ijro etgan boy obrazidagi

qo‘g‘irchoq harakatlaridan ko‘rish mumkin. Boyning o‘z hiylakorligi, ayyorligi shu bilan birga aldangan holatidagi sarosima, boylik dardida talvasaga tushib qolish harakatlarini aniqlik bilan ko‘rsatib bergan holda portnyor qo‘g‘irchoqlar bilan munosabat yuzaga kelishini to‘g‘ri yo‘naltira olgan. Spektakl aktyorlar ijrosi yuzasidan juz’i kamchiliklardan holi bo‘lmadi. Ayrim aktyorlarning xususan, Kambag‘al chol obrazini yaratgan qo‘g‘irchoqning hatti-xarakatlari mantiqan bog‘lanmagan. Ushbu obrazni M. Kuryazov ijro etgan bo‘lib, qo‘g‘irchoq-qahramon qiyofasida partnyor munosabatiga to‘g‘ri javob bera olmaslik, boshiga tushgan shuncha kulfatlarga tomoshabinni ishontira olmaganlik holatlari ko‘zga tashlanadi. Chol butun umr mehnat qilib ham ro‘shnolik ko‘rmagan. Bu kamchilik teatrning dastlabki faoliyatida ijodkorlarining malakaviy tajribalarining yetishmaganligini ko‘rsatadi.

Spektakldagi eshak obrazi xususida alohida to‘xtalish o‘rinlidir. Chunki u ayyorlikda Xo‘ja Nasriddindan ham o‘tib tushadi. Bu obraz qaysar va o‘jar, shu bilan birga mehribon hamdir. U oddiy eshak emas balki noyob eshak qiyofasida tasvirlanadi. Aynan uning maslahati bilan Afandi boyni boplab laqillatadi va Chol o‘z qarzlaridan qutiladi.

Bir vaqtning o‘zida ham eshak, ham Afandi obrazlarini sahnada ijro etish aktyor Odamboy Abdullayevdan katta mahorat talab qilgan. Eshak obrazini sahnada jonlantirishda aktyor o‘zgacha usulda yondashadi. U qo‘g‘irchoqni dastali holatda sahnaga olib chiqqan va spektakl davomida berilgan shart-sharoitdan unumli foydalanib, eshak qiyofasidagi qo‘g‘irchoq hatti-xarakatlari orqali birinchidan spektaklni tomoshaviyligini yana ham oshirsa, ikkinchidan jajji tomoshabinlarni hayvonot olami haqidagi tasavvurini boyitadi. Bu jarayonda aktyorning o‘ziga xos qirralari ochildi. Aktyor ikki qahramon qiyofasida spektaklni “jonli” usulda olib borgan holda tomoshabin bilan o‘zaro muloqotda bo‘lishi spektaklni o‘ziga xos badiiyligini ta’minlab berdi. Bu borada aktyor o‘zining ham sozanda, ham xonanda, ham o‘yinchi, ham askiyachilik, badihago‘ylik qobiliyatlarini namoyon etdi.

Spektakldagi rassom ishi alohida ahamiyatga ega. Rassom Odamboy Abdullayev bolalar tasavvurini kichkina chodirda jonlantira olish uchun ularning o‘y-xayollari, dunyoqarashlaridan ilg‘agan holda spektakl voqealari rangli matolarning uyg‘unlashtirib chodirni oq, qizil, sariq, ko‘k kabi ranglarni umumlashtiradi. Ayniqsa, spektakl qahramonlarining milliy kiyimlari: Xorazmcha cho‘girma, papaq, kamzul, mahsi va etik o‘ziga xos bo‘lib, Afandining bu galgi hangomasi Xorazmda bo‘lib o‘tayotganiga tomoshabinda shubha uyg‘otmaydi. Faqatgina Ho‘ja Nasriddinga tanlagan liboslar ajralib turadi. Bu tomoshabinni chalg‘itmaydi, aksincha spektakldagi hangomalar ishtirokchisiga aylantiradi. Spektaklga xalq kuyi milliy ohanglarini zamonaviy musiqa asboblari sadolari bilan uyg‘unlashtirish usulidan foydalanilgan holda ikkita sozanda doira va surnay ustalarining jonli ijrosi spektaklning janriga tamoman mos tushib, musiqiy lirik ertak bo‘lishini ta’minladi.

Teatr jamoasi spektakl orqali an’anaviy usul ham vositalar ham tomoshabinni yoshidan qat’iy nazar qiziqarliligini, kelajakda yaxshi natijalar berishini isbotladi va teatrning asosiy yo‘nalishi sifatida belgilab oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ashurova Maryam Aktyorlik mahorati fanini o‘qitish metodikasi /o‘quv qo‘llanma/. – Toshkent.: “Innovatsiya – Ziyo”, 2020, 129 b.
2. Ashurova Maryam Aktyorlik mahorati /darslik/. – Toshkent: “Innovatsiya – Ziyo”, 2021, 210 bet.
3. Abduxalilov A’zamjon Qo‘g‘irchoq teatri rejissorligi /o‘quv qo‘llanma/. – Toshkent: “Innovatsiya – Ziyo”, 2020, – 109 b.

4. V.Yusupova, “Iskusstvo teatra kukol i sistema K.S.Stanislavskogo”

5. www.ziyonet.uz

QO‘G‘IRCHOQ TEATRI SAN’ATIDA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR, TA’LIM VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI.

Karima Jabbarova,
O‘zDSMI “Qo‘g‘irchoq teatr san’ati”
kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya: *Teatr shunday bir ilohiy dargohki, u odamlarning qalbiga beqiyos ta’sir o‘tkazib ularni muqim ezgulik va olijanoblikka chorlaydi. Chunki sahna san’atining odamlar nafaqat zavq-shafq baxsh etishi, ayni vaqtda milliy g‘urur, milliy iftixor manbai, qudratli tarbiya vositasi ham bo‘la olishi – bu isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Ushbu maqolada san’at turlari orasida eng qadimiy, hamma teatrlarning beshigi bo‘lgan qo‘g‘irchoq teatri san’atining rivojlanish bosqichlari, zamonaviy integratsiyasi borasida so‘z yuritilgan.*

Аннотация: *Театр-это такой божественный дар, который, оказывая неизмеримое влияние на сердца людей, призывает их к совершенной доброте и благородству. Потому что то, что исполнительское искусство может доставлять людям не только удовольствие, но и быть источником национальной гордости, национальной гордости, мощным средством воспитания,-это факт, который не требует доказательств. В данной статье рассматриваются этапы развития, современная интеграция искусства кукольного театра, самого древнего среди видов искусства, колыбели всех театров.*

Kalit so‘zlar: *Qo‘g‘irchoq teatri san’ati, integratsiya, ta’lim, estetik tarbiya, madaniy faoliyat, innovatsiya.*

Ключевые слова: *Искусство кукольного театра, интеграция, воспитание, эстетическое воспитание, культурная деятельность, инновации.*

"Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak: mamlakatimizda madaniyat va san’at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi avvalo milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma’noda, madaniyat — bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O‘zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishimizdan boshlashimiz lozim".

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

Yosh avlodning estetik tarbiyasi masalalari O‘zbekiston qog‘irchoq teatrlari ijodiy faoliyatining asosini tashkil etadi. Jajji fuqarolarga mustaqillik mafkurasini singdirish, ularni barkamol, vatanparvar yoshlar etib tarbiyalash mamlakatimizda yangi davrning vazifasi bo‘lib qoldi. Milliy o‘zligini chuquqr his etuvchi, yangicha dunyoqarashga ega fuqarolarni shakllantirishda, umuman, teatr san’atining o‘rni beqiyos, ahamiyati ulkan. Ayniqsa, insonga nafis tuyg‘ulari go‘daklik chog‘laridan boshlab singdirib borish, jajji bolajonlarimizni ezgulikka, go‘zallikka oshno etishda qo‘g‘irchoq teatrining ahamiyati katta.

Qo‘g‘irchoq teatrlari davrimizning ma’naviy vazifalarini bajarishlari uchun, albatta, munosib repertuarga, san’atkorlik mahoratiga ega bo‘lishi kerak. Teatr san’ati ijodkorlari faoliyatida sho‘rolar davrida ildiz otgan befarqlik, o‘zibo‘larchilik, mas’uliyatsizlik kabi illatlarni bartaraf etib, yangi ma’naviy ehtiyojlarni qondira oluvchi sahna asarlari yaratish fidoyilik, qizg‘in munosabat, aniq g‘oyaviy-badiiy yondashuv, ijodiy izlanishlarni, o‘zaro muvofiqlashtiruvchi professional mahoratni talab eta boshladi. Ayniqsa, ijroda maxsus asbob-anjomlar bilan faoliyat olib borish qonuniyatlariga asoslangan qo‘g‘irchoq teatri ijodkorlari uchun professionalism masalasi kattalar teatrlaridan farqlanadi. Shunday ekan,

qo‘g‘irchoq teatri aktyori o‘z faoliyatida katta teatrlar aktyori uchun shart bo‘lgan ijro – “aktyor mahorati” tamoyillariga to‘la amal qilish bilan birga, qo‘g‘irchoq teatrining muhim ijro uslubiyatini professional tarzda bilishi kerak.

San’at turlari orasida eng qadimiy, hamma teatrlarning beshigi bo‘lgan qo‘g‘irchoq teatri, o‘zining boy an’analariga, tarixiga ega bo‘lgan betakror san`at turlaridan biridir. Uning ildizi xalqimizning folklori, urf-odati, udumlari va milliy an’analarini o‘zida saqlagan holda asrlar davomida ularni boyitib, ularga sayqal berib rivojlantirib kelmoqda. Bu san’at turiga ulkan baho berib, taniqli olim O‘zbekistonda xizmat ko`rsatgan fan arbobi, san`atshunoslik fanlari doktori, professor Muxsin Qodirov shunday deydi: “Osiyo qo‘g‘irchoq teatri bu shunchaki ermak emas, balki bir qit`a xalqlarining falsafasi, tasviriy san`ati va albatta tillari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan muhim tarixiy badiiy hodisadir”[17].

O‘ziga xos jozibaga ega san’at turining ravnaq topishi hamda jahon qo‘g‘irchoq teatrlari orasida yanada yuqoriroq nufuzga ega bo‘lishi uchun har tomonlama yetuk, yuqori madaniyatli, o‘z kasbining mohir ustasi, zamonaviy bilimlarni mukammal egallagan, zamon talabiga javob beradigan yuqori darajali mutaxassislarni tarbiyalashdek o‘ta mas’uliyatli ish bugungi kun talabidir. Shuning uchun biz tarbiyalayotgan mutaxassislar ma’naviy va jismonan baquvvat, har tomonlama bilimli, aktyorlik kasbining turli janrlarini yuksak professional darajada egallagan, qo‘g‘irchoqlarning barcha turlarini mahorat bilan boshqaradigan, kattalar va ayniqsa, bolalar psixologiyasini chuqur his etadigan, tasviriy san’at turlari va janrlari bo‘yicha keng bilimga ega mohir san’atkorlar bo‘lib yetishmoqlari darkor. Bo‘lajak mutaxassislarda bunday xarakter xususiyatlarni tarbiyalash «Qo‘g‘irchoq teatri aktyorligi mahorati» darsining eng asosiy vazifasi sanaladi. Dars jarayonida qo‘g‘irchoq teatr aktyorini tarbiyalash sohasida quyidagi yo‘nalish bo‘yicha ishlar olib boriladi:

1. Aktyorning ijod jarayonidagi o‘z ustida ishlashi (jonli plan).
2. Zamonaviy qo‘g‘irchoq turlarini o‘zlashtirish.
3. Aktyor ijodi jarayonidagi obraz ustida ishlash va uning uslublari.

[17] M.Qodirov.Teatr san`ati o`tmishdan lavhalar.Toshkent.Fan nashriyoti 1993- yil.163b.

4. Aktyorning qo‘g‘irchoq obraz talqini ustidagi ishi (qo‘g‘irchoq personajining plastik yechimlari)[18].

O‘zbek drama teatri san’ati namoyondalari Abror Hidoyatov, Mannon Uyg‘ur, Olim Xo‘jaev, Shukur Burxonov, Nabi Rahimov, Iosif Radun, Tursunboy Isroilov, Rahim Sayfiddinov, Toshpo‘lat Tursunov, Teshaboy Bayandiev, Tohir Islomov, Hamidulla Ikromov va boshqalarning ilmiy asarlari qo‘g‘irchoq teatri ravnaqiga ham o‘ziga xos ulush bo‘lib qo‘shildi. Bu ijodkorlar o‘zbek teatri san’ati rivojiga o‘zlarining ulkan hissalarini qo‘shib, uni dunyoga tanitgan insonlardir. Iso Yoqubov, Muxsin Kodirov, Tohir Mahramov, Vladimir Iogelsen, Mixail Korolyov, Vladimir Obrazsov kabi olimlar qo‘g‘irchoq teatri maktabini yaratdilar, shu yo‘nalishda ijod qilib, bu sohaning yangi-yangi qirralarini ochishda tinimsiz izlandilar. Bular qo‘g‘irchoq teatri san’atini rivojlantirib, xalqqa tanitgan va ijod maktabi, fan sohasini yaratgan ijodkorlardir. Muxsin Qodirov qo‘g‘irchoq teatri tarixini tadqiq etishga ulkan hissasini qo‘shdi. U «O‘zbek milliy qo‘g‘irchoq teatri», «O‘zbek xalq tomosha san’ati», «Tomosha san’ati o‘tmishidan lavhalar» singari asarlari bilan o‘zbek milliy qo‘g‘irchoq san’atining tarixini yaratgan olim hisoblanadi. Vladimir Iogelsen M.Uyg‘ur nomidagi TDSIda qo‘g‘irchoq teatriga mutaxassis tayyorlash uchun maxsus kafedra ochib, unga boshchilik qildi. O‘zbekistonda qo‘g‘irchoq teatri san’atini rivojlantirishda uning xizmatlari beqiyosdir[19].

O`zbek xalqi “Qo‘g‘irchoq o‘yin” san`atining barcha turlari bilan qadimdan tanishdir. Bu san`at asrlar davomida xalq ommasi dunyoqarashi va intilishi, mayli hamda didini ifoda etgan va uning manfaatlarini himoya etgan. Avloddan avlodga o‘tib yangi tajriba, yangi an’analar hisobiga rivojlanib boyib kelgan. Shu zayilda qo‘g‘irchoq teatri rivojlanishining murakkabligi nafaqat uning oliy maqsadlari, bolalarning estetik va g‘oyaviy tarbiyalash bilan izohlanadi, balki u tom ma`noda qo‘l qo‘g‘irchoqlari xalq teatrlarini an’anaviy asl san`atini yangi hayot va jamiyatni yangi vazifalarini bajarishi kerak bo‘lgan sharoitda tiklay olmas edi.

[18] Global Technovation 5 th International Multidisciplinary Scientific Conference
[19] O‘sha manba

Lekin shunga qaramay o`zbek xalqining sevimli qahramonlari Kachal Polvon va Bichixonlarning so‘ngmas shuhrati ularni yangi turdagi qo‘g‘irchoq teatr san`atini balki yaratilgan spektakllarning haqiqiy qahramonlariga aylanadi. Qo‘g‘irchoq teatrining o‘ziga xosligini anglagan mutaxassis, u rejissor bo‘lsin yoki aktyor teatr bezakchisi yoki kompozitor, chiroq ustalari va hokazo spektakl sahna obrazini qahramonlar obrazlarini yaratishni aniq yo‘llarini oladi[20].

Tarixga nazar tashlasak, 1939-yil Toshkent shahrida davlat qarori bilan o‘zbek va rus truppalari asosida yagona – respublika qo‘g‘irchoq teatri tashkil etilgan bo‘lib, unda mashhur san’atkorlar Po‘latjon Doniyorov, Zulayho Ishoqova, Elena Podgurskayalar faol ishtirok etishgan. Teatr faoliyatining boshlanishi ikkinchi jahon urushiga to‘g‘ri keldi. Suronli yillarda teatr jamoasiga fidoyi, o‘z ishining mohir ustasi R.Anan’eva rahbarlik qilib, o‘sha zamonning ruhi va talabiga mos spektakl va kontsertlarni tomoshabinlarga taqdim etgan va bu ishni a’lo darajada bajargan.

Urushdan keyin teatr jamoasi jahon mumtoz asarlariga, shu bilan birga, o‘z milliy sahna dramaturgiyasini yaratish yo'lida tinmay ish olib bordi. Katta yoshdagi tomoshabinlar hamda yosh bolajonlarimiz uchun ko‘plab spektakllar sahnalashtirildi. Jumladan, A.Navoiyning “Farhod va Shirin”, H.Olimjonning “Semurg'”, “Oygul va Bahtiyor” dostonlari instsenirovka qilindi. N.Habibullaevning “Fotimaning sarguzashtlari”, A.Qobulovning “Rahim va qo‘ng‘iz”, R.Farhodiyning “O‘tkir shoxli buqacha”, “Kim oyni o‘g‘irladi?” kabi sahna asarlari dunyoga keldi.

Chorak asr davomida bu teatrda Respublikamiz san’at arboblari I.Yaqubov hamda V.Akudin ijodiy hamkorlikda eng sara asarlarni sahnalashtirib, uning nufuzini oshirishga katta xizmat qildi. Teatr 80 yillik ijodiy faoliyati mobaynida Respublika va xalqaro miqyosdagi turli festivallarda ishtirok etib, Rossiya, Qirg‘iziston, Tojikiston, Qozog‘iston, Birma, Afg‘oniston, Hindiston, Bolgariya,

[20] Respublika davlat qo‘g‘irchoq teatrlarini professional faoliyatini takomillashtirishning ilmiy-amaliy yechimlari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy seminar materiallaridan

Frantsiya, Germaniya, Misr, Janubiy Koreya, Turkiya, AQSH davlatlarida ijodiy safarlarda bo‘ldi, o‘zbek milliy qo‘g‘irchoq san'tini dunyoga tanitdi.

Bir narsani alohida ta'kidlash joizki, respublikamiz poytaxtining qoq markazidan o‘rin olgan qo‘g‘irchoq teatrining barpo etilishida Sharof Rashidovning katta hissasi bor. Dunyoning juda kam mamlakatlarida bo'lgan bunday bino aynan uning tashabbusi bilan qad rostlagan. Teatrning 80 yilligi munosabati bilan Sh.Rashidovning “Kashmir qo‘shig‘i” asari asosida sahnalashtirilgan “Kashmir afsonasi” spektakli teatr repertuardan o‘rin oldi.

Mustaqillikning dastlabki davrida rejissyorlar, musavvirlar, bastakor va aktyorlar o‘z kuchlarini katta ishtiyoq bilan teatr sahnasida sinab ko‘rdilar. Xususan, rejissyorlardan O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist Sh.Yusupov, D.Yuldasheva, E.Oripova, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artistlar M. egamnazarova, F.Xo‘jaev, K.Jabborovalar, aktyorlar A.Mirzag‘iyosov, Sh.Jabbarov, Yu.Shibkov, musavvirlar S.Seduxin, M.Ro‘zmetova, bastakorlar O‘zbekiston Respublikasi san'at arbobi A.Ikromov, A.Kim, L.Ugay samarali ijod qildilar. Oxirgi yillarda O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatrida nafaqat bolalar uchun, shuningdek katta yoshdagi tomoshabinlar uchun ham asarlar namoyish etilyapti. Rejissyor Sh.Yusupovning “Yurt tumori”, “To‘maris”, D.Yuldashevaning “Yana Andersen”, “Qarsildoq”, “Yulduzli bola”, “Oh, bu Xo'ja Nasriddin”, “Soya” spektakllari, F.Xo‘jaevning “Cho‘p qo‘g‘irchoq” spektakllari teatrning ijro mundarijasidan o‘rin olgan[21].

O‘zbekistonda qo‘g‘irchoq teatri soni va salmog‘i jihatidan jamiyat ma’naviyatida o‘z o‘rniga egaligi, yosh avlodning madaniyati hamda estetik saviyasini shakllantirishda katta ahamiyatga molikligi shubhasiz. Bunday ulkan vazifani faqat professional ta’lim olgan san’atkorlargina uddalay olishlarini nazarda tutgan holda, qo‘g‘irchoq teatri san`atida beqiyos o‘ringa ega simli qo‘g‘irchoqlarni badiiy imkoniyatlari va soha aktyorlari mahoratini o‘rganish hamda unga mashqlar, treninglarning hal etuvchi ahamiyatini yoritishdir.

[21] https://yuz.uz/uz/news/bolalik--dunyosida--ezgulik--uygotib-yoxud-qogirchoq-teatridan-katta-teatr-sari

Qo‘g‘irchoq teatri aktyorini tarbiyalash, bu san’at uchun mahoratli mutaxassislarni yetishtirish masalasi hozirgi davrda alohida e’tiborga egadir.

Bugungi qo‘g‘irchoq tomoshalari esa yanada qiziqarli, yanada jonli shakllarda ijro etilmoqda. eng muhimi, bunday jonli ijro bolalarni ushbu voqealar ishtirokichisiga aylantiradi. Bolalarning tomoshalarni turli texnik vositalar orqali emas, jonli sahnada kuzatishi, yuz berayotgan voqea-hodisalarga kuchli hissiyot, munosabat uyg‘ota oladi. Shu orqali ijodiy dunyosini boyitadi, shaxs sifatida shakllanishiga kuchli ijobiy ta’sir ko'rsatadi. Biz kattalarni esa kichkintoylarning katta dunyosiga hurmat va g‘amxo‘rlik bilan qarashga undayveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.Qodirov.Teatr san’ati o‘tmishdan lavhalar. Toshkent. Fan nashriyoti 1993- yil.163b.
2. Global Technovation 5th International Multidisciplinary Scientific Conference materials
3. Respublika davlat qo‘g‘irchoq teatrlarini professional faoliyatini takomillashtirishning ilmiy-amaliy yechimlari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy seminar materiallari
4. https://yuz.uz/uz/news/bolalik--dunyosida--ezgulik--uygotib-yoxud-qogirchoq-teatridan-katta-teatr-sari

ALISHER NAVOIY ASARLARINI QO‘G‘IRCHOQ TEATR SAHNASIDAGI TALQINI

Riskiyeva Dilfuza
O‘zDSMI “Qo‘g‘irchoq teatri san’ati”
Kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kun yoshlarini Navoiy asarlari bilan tarbiyalash ва O‘zbek milliy qo‘g‘irchoq teatrida Navoiy asarlari asosida sahnalashtirilayotgan spektakllar ahamiyati va o‘rni xususida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Teatr, san‘at, madaniyat, yoshlar, ijodiy salohiyat, spektakl, qo‘g‘irchoq teatri, rejissura.*

Аннотация: *Эта статья посвящена обучению современной молодежи творчеству Навои, а также важности и постановок по мотивам произведений Навои в Узбекском национальном театре кукол.*

Ключевые слова: *театр, искусство, культура, молодежь, творческий потенциал, перформанс, кукольный театр, режиссура.*

Annotation: This article is devoted to teaching modern youth about the creativity of Navoi, as well as the importance and performances based on the works of Navoi in the Uzbek National Puppet Theater.

Key words: theater, art, culture, youth, creativity, performance, puppet theater, direction.

Buyuk shoir va mutafakkir, atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning bebaho ijodiy-ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti rivojida muhim o‘rin tutadi. Ulug‘ shoir o‘zining she’riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy g‘oyalarni, ona tilimizning beqiyos so‘z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, yer yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan munosib va mustahkam o‘rin egallab kelmoqda.

So‘nggi yillarda Alisher Navoiyning boy va serqirra ijodiy merosini har tomonlama chuqur o‘rganish, uning o‘lmas asarlarini yurtimizda va xorijiy

mamlakatlarda keng targ‘ib qilish hamda xotirasini abadiylashtirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Muhtaram Prezidentimizning 2020-yilining 19-oktabrdagi PQ-4865-son qaroriga muofiq har yili shoir Alisher Navoining tug‘ilgan kuni 9-fevral sanasini adabiyot va ma’rifat bayrami sifatida yuksak darajada, an’anaviytarzda nishonlash belgilab berilgan. Mutafakkirning asarlari respublikamiz nashriyotlarida muntazam nashr etilib, keng jamoatchilik e’tiboriga havola etilib kelinmoqda.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tashkil etilgani, mamlakatimiz hamda bir qator xorijiy davlatlarda haykallari o‘rnatilgani, asarlar to‘plami to‘liq nashrdan chiqarilgani, poytaxtimiz markazidagi ulug‘ bobomizning muazzam me’moriy yodgorligiga mutanosib ravishda Adiblar xiyoboni barpo etilgani madaniy hayotimizdagi ulkan voqealarga aylandi.

Yangilanayotgan O‘zbekiston “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘yib, yangi Uyg‘onish davri — Uchinchi Renessans poydevorini yaratayotgan bugungi kunda Alisher Navoiyning adabiy merosi misolida o‘zbek adabiyoti va madaniyatini chuqur o‘rganish va ommalashtirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda nafaqat adabiyot balki teatr sohasida Alisher Navoiy asarlarini sahna variantini yaratishga keng etibor qaratilib kelinmoqda. O‘zbek teatri tashkil etilganidan buyon Alisher Navoiyning ko‘plab asarlari dramatik hamda musiqali teatrlarda o‘ziga xos sahnalashtirildi. Qolaversa, o‘zbek musiqali dramasining rivojlanishida ham Navoiy asarlarining yuksak hissasi mujassam. Bunga misol qilib “Farhod va shirin”, “Layli va Majnun” kabi asarlarini keltirish mumkin.

O‘zbek Milliy qo‘g‘irchoq teatrida ham Navoiyning “Lison ut-tayr” asari asosida dramaturg Hayitmat Rasul qalamiga mansub “Qush tili” asari rejissyor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Shomurod Yusupov tomonidan sahnalashtirildi va jamoatchilik tomonidan munosib baholandi. Bu spektakl turli

yoshdagi tomoshabinlar qalbidan chuqur joy egalladi. Spektakl falsafiy asar bo‘lib, unda majoziy obrazlar qahramonlarning sarguzashtlari orqali tasavvufiy g‘oyalarini ifodalaydi. Rejissyor asar voqealari orqali “tangri tashqarida emas, sening qalbingda” degan fikrni ilgari surishga harakat qiladi. Qahramonlar xatti – harakatlari orqali insonni ulug‘lash, uning kamolotga erishish yo‘llari professional rejissyorning spektaklda qo‘llagan yuksak topilmalari bilan ochib beriladi.

Yillar davomida O‘zbek milliy qo‘g‘irchoq teatrida Navoiy asariga murojat qilinib kelinmoqda. O‘zbek milliy qo‘g‘irchoq teatrning Alisher Navoiy asarlariga murojaat qilinishi shoir tavalludining 580 yilligiga yaxshi tuhfa bo‘lgan. Rejissyor Shomurod Yusupov tashabbusi tufayli Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostoni asosida dramaturg To‘ra Mirzo qalamiga mansub yangi asar “Bahrom va Dilorom” spektakli sahna yuzini ko‘rgan. Sahnalashtiruvchi rejissyor Shomurod Yusupov, rassomlar Viktor Apuxtin, Mo‘tabar Ro‘zmetova, kompozitor Maykal Tiora, sahnalashtiruvchi xariogrof Olga Ostaninalar spektaklning badiiy yaxlitligini ta’minlashda o‘z xissalarini qo‘shganlar.

“Bahrom va Dilorom” spektakli tomoshabinlar va soha mutaxasislari tomonidan yaxshi kutib olingan. Spektaklning jamoatchilik ko‘rigidan so‘ng soha mutaxasislari, dramaturg, rejissor hamda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Qo‘g‘irchoq teatri san’ati ta’lim yo‘nalishi talabalari ishtirokida muhokama bo‘lib o‘tgan. Muhokamani O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligining “Teatr va tomosha muassasalarini tashkil etish va boshqarish” boshqarmasining bosh mutaxassisi dramaturg Hayitmat Rasul olib borgan edi. Muhokamda so‘zga chiqqanlar yangi spektakl bilan teatr jamoasini tabriklab, uning yutuq va kamchiliklari haqida so‘z yuritishdi. Muhokamada avval oddiy tamoshabinlar fikri tinglandi. Ular qo‘g‘irchoq teatrida faqat ertak peisalar sahnalashtirilgani va ertak tomoshalarga o‘rganib qolishgani haqida gapirib o‘tildi. Bugungi kunga kelib esa O‘zbek milliy qo‘g‘irchoq teatr repurtuarida tarixiy asarlar bilan boyigani haqida so‘z yuritildi. Haqiqatdan ham qo‘g‘irchoq teatrida milliy qahramonlar, tarixiy qahramonlar, milliy klassik asarlar asosida yozilgan pesalardan yangi spektaklar sahnalashtirilmoqda.

“Sab’ai sayyor” dostonini qo‘g‘irchoqlar ijrosi orqali bolajonlarga tushunarli tarzda yetkazib berishning o‘zi murakkab jarayon. Quvonarlisi shundaki teatr jamoasi va sahnalashtiruvchi rejissyor Shomurod Yusupov asarni zamon talablaridan kelib chiqib mavzuga yondoshishga harakat qiladi. Spektaklning tomoshaviyligini ta’minlashda aktyorlar jamoasining ijro mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Aktyorlar mahorati spektakldagi simli va planshet qo‘g‘irchoqlarni mohirona o‘ynatganliklari yaqqol namoyon bo‘lgan. Rejissyor tomonidan dekoratsiyalar almashinuvida yetti sayyorani ramziy sifatda yetti saroy qilib olindi va bu saroylarni o‘zgarishi jonli planda ijro qilayotgan aktrisalar tomonidan o‘zgarib bordi. Jonli planda ijro qilgan xarakatlarning hammasi plastikaga qo‘yilgan, hamda qaxramonlarning ichki kechinmasi aks ettirilgan. Har bir ichki kechinma plastik raqs orqali tomoshabinga ko‘rsatib berildi. Rejissyor ushbu spektaklda bir vaqtning o‘zida ham dekoratsiya almashinuviga hamda qaxramonlarning ichki kechinmasini tomoshabinga ko‘rsatib bergan, bu albatta rejissyorning topilmasi juda noan’anaviy tarzda ekanligini tomoshabin ko‘rib baho bergan. Dekoratsiyalar almashuvidagi rejissyor topilmalari ham maqtovga loyiqdir. Spektakl uchun ishlangan musiqa barchaga maqul bo‘lgan jihatlaridan biri bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yosh kompozitor Maykal Tiora garchi o‘zbek millatiga mansub bo‘lmasada, uning kuylaridagi sharqona musiqiy ohanglar spektaklning g‘oyasini ochib berishda hamda tomoshabinni spektakl muhitiga olib kirishda katta ahamiyat kasb etdi. Bu esa yana bir bor professional rejissyor bastakor bilan ishlashdagi yondashuvda to‘g‘ri yo‘lni belgilagan.

Mazkur spektaklda Dilorom rolini iqtidorli aktirisa Munisa Egamnazarova ijrosida munosib talqin topgan. Aktirisa Dilorom xaraktirini izchil va aniq ochib berishga harakat qilgan. U dastlabgi sahnadayoq qahramonini qanchalik pok va orzularining cheki yo‘q, shuningdek, sodda, oqila, mehr-muhabbatga limmo-lim qiz sifatida gavdalantirgan. Eng muhimi, ijrochi o‘z qahramonini so‘zi hamda qog‘irchoq harakatlarini uzviy bog‘lab ketishi ustida ham ancha mehnat qilgani ko’rinib turibdi. Spektalda Dilorom obrazi orqali Bahromning qalbidagi farishta

timsolini yaratgan. Lekin Bahrom bu farishtani qadriga yetmaganligi uchun spektakl yakunida undan ajralib qoladi.

Bahrom obrazi spektaklning bosh qaxramoni hisoblanadi, barcha voqealar qaxramon bilan bog‘liqlik joyi bo‘lishi kerak, lekin Baxrom obrazi spektaklda to‘laqonli ochilmagan, sababi Moniy birinchi planga chiqib bosh qaxramonning joyini egallagan. Spektaklda Baxrom va Dilorom bilan bog‘liq bo‘lgan joylari kam bo‘lganligi uchun Baxrom bosh qaxramondan ikkinchi darajali qaxramonga aylanib qolgan. Lekin tomoshabinlarga asosiy g‘oyani yetkazadigan qahramon Baxrom hisoblanadi. Aktyor Orif Abdubayev Bahromning Diloromga bo’lgan otashin muhabbatini, ehtiros bilan ifoda orqali tomoshabinga yetkazib berishga harakat qildi. Ammo uning spektakldagi qahramoni hayotga yengil qarashi, o’zining hohish-istagi uchun begunoh hayvonlarning qoni to‘kishdek razil qilmishlari tufayli Diloromning sevgisiga loyiq bo’la olmadi. Aktyor qo’g’irchoqni boshqarishda ham professional darajada harakat qilganligi spektaklning tomoshaviyligini oshishiga xizmat qilgan.

Har qanday teatrning tayanchi aktyorlar jamoasining ijro mahoratiga bog‘liq. Shu bois “ichki imkoniyat” tushunchasini aktiyorlar mahorati bilan bog‘lash o‘rinli sanaladi. Aktiyor muallif fikrini, rejissiyor talqinini tomoshabinga yetqazadigan, tomoshabin bilan yuzma-yuz muloqat qiladigan, unga zavq bag‘ishlab, fikr yuritishga undaydigan san’atkordir. “Bahrom va Dilorom” spektaklida ham jonli plandagi Moniy obrazi ijro qilgan aktyor Alisher Mirzogiyosov tomoshabin va spektakl o‘rtasida bog‘lovchi vazifasini a’lo darajada olib bordi. Alisher Mirzag‘iyosov obrazi haqida spektakl rejissori Shomurod Yusupov shunday fikr bildiradi: “Biz spektaklga “Bahrom va Dilorom” obrazini bosh qahramon qilib olmadik, aksincha Moniy obrazini spektaklning bosh qahramoni deb oldik va hammasiga bu obraz sababchi bo’lgan chunki shu obraz Diloromning sur’atini Chin yurtidan olib kelib Bahromga kursatmaganida spektakl voqealari bo’lmas edi deb ta’kidlab o‘tgan edi”.

San’atshunoslik fanlari doktori, professor Muxsin Qodirov qo‘g‘irchoq teatr tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotlaridan birida: «Osiyo qo‘g‘irchoq teatri bu

shunchaki ermak o‘yin emas, balki bir qit’a xalqlarining falsafasi, dini, adabiyoti, eposi, musiqasi, folklori, tasviriy san’ati va albatta tillari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan muhim tarixiy badiiy hodisadir »[22], - deb ta’kidlaydi. Haqiqatdan ham o‘zbek milliy an’anaviy qo‘g‘irchoq teatri xalq ma’naviyati va badiiy tafakkurining ajralmas qismidir. Shu bois ham bu san’at yillar va zamonlar o‘tib rivojlanib, o‘zgarib, yangi shakl va yangi qirralar kashf etgan san’at sifatida hayotga kirib kelgan. Bugungi kelib, qo‘g‘irchoq teatr san’atida nafaqat ertaklar balki klassika darajasiga ko‘tarilgan asarlar sahnalashtirilmoqda. Albatta bu kabi spektakllar kelajak avlodni tarbiyalashga poydevor vazifasini o‘taydi. Zero, Milliy qo’g’irchoq teatrida milliy klassik asarlarini sahnalashtirilishi qalblarda iftig‘or tuyg‘ularini uyg‘otdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov M. Tomosha san’ati o‘tmishidan lavhalar.-T.: Fan, 1993
2. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Shomurot Yusupov suhbatidan. 2022

[22] Қодиров М. Томоша санъати ўтмишидан лавҳалар. - Т.: Фан, 1993, 163-бет.

Профессор Муҳсин Қодиров илмий меросининг қўғирчоқ театр санъатидаги аҳамияти

Олтиной Тожибоева,
санъатшунослик фанлари доктори,
ЎзДСМИ профессори

Калит сўзлар: *қўғирчоқ театри, театршунослик, метод, методология*

Ўзбек қўғирчоқ театри тарихи миллий маданиятимиз, маънавиятимиз илдизлари билан чамбарчас боғлиқ. Қўғирчоқ театри бадиий-эстетик хусусиятлари, тарихий илдизлари, назарий асослари, шакллари, халқ қўғирчоқ санъатининг маҳоратли ижодкорлари фаолиятини ўрганиш театршуносликнинг етакчи вазифаларидан бўлиб келган. Атоқли театршунос олимлардан профессор Муҳсин Қодиров, кейинроқ доцентлар Тоҳир Йўлдошев, Ҳамидулла Икромов, профессор Сарвиноз Қодирова тадқиқотларида ўзбек қўғирчоқ театринниг тарихий-назарий масалалари ўз аксини топган. Айниқса Муҳсин Қодировнинг мазкур йўналишда олиб борган изланишлари кенг кўлами, мавзулар камрови, фундаментал характери, методологияси билан эътиборлики, олимнинг бу борада қолдирган илмий мероси бугунги кун бадиий жараёнлари ва мазкур соҳани ўрганувчи мутахассислар фаолиятида аҳамиятлидир.

М.Қодировга хос алоҳида фазилатлардан бири, театршунослик илмида ўрганилиши лозим бўлган йирик масалалар ва муаммоларни назардан қочирмай, уларга доир мақолалар ёзиш, конференцияларда чиқишлар қилиш орқали илмий жамоатчилик эътиборини қаратар эди. Шу боис Домланинг бисотида ўрганилиши лозим бўлган илмий мавзулар ҳамиша топиларди. Домла мавзулардан айримларини шогирдларига, уларнинг имкониятлари

доирасида топширсалар, қолганларини албатта ўзлари тадқиқ этмай қолмас эдилар.

Серқирра олим анъанавий театр, театр фольклори, драматургия, режиссура, актёрлик маҳорати, сценография, мусиқали театр, миллий рақс санъати каби кўплаб масалалар билан бир қаторга қўғирчоқ театрига алоҳида эътибор қаратганлар. Эътибор қаратганлар дейишнинг ўзи оз, Домланинг мазкур йўналишдаги изланишлари битта докторлик иши даражасида эди. Аслида Домланинг номзодлик ва докторлик мавзулари ўзбек халқ томоша санъатлари жумладан, анъанавий театр, майдон томошалари ва байрамлари билан боғлиқ бўлиб, қўғирчоқ театр мавзуси тадқиқот йўналишидаги кичик бир қисмни ташкил қиларди холос. Шунга қарамай олим алоҳида тадқиқот шаклида қўғирчоқ театрининг қадим илдизларини ўрганиб, унинг келиб чиқиш омиллари, шакллари, тур ва йўналишлари техникаси, мазмун-моҳияти борасида йирик тадқиқот ишларини амалга оширганлар.

Ушбу мақолада М.Қодировнинг қўғирчоқ театр санъати борасидаги илмий меросига қисқача тўхталиб ўтамиз. Олим мазкур соҳадаги изланишларини 1958-1970 йиллар мобайнида олиб борилган экспедиция ҳамда диссертацион илмий ишидаги анъанавий театр масалаларини ўрганишдан бошлаган. Ўша пайтларда ёш тадқиқотчи сифатида ўзбек санъатшунослиги экспедициясида қатнашиб, республикамизнинг бир қатор шаҳарлари ва йирик қишлоқларида қўғирчоқбозлик труппалари бўлганлигини аниқлаган, ўнлаб қўғирчоқ санъати усталарининг ижоди, томоша техникаси, ижро маҳоратини кузатиб, репертуарларини ёзиб олган, бир қатор пьесалар ва спектакль томошаларини фотосуратга ҳамда кинолентасига муҳрлаган. Олим қўғирчоқ томошалари генезисини тиклаш борасида изланиш олиб борар экан, биринчидан ана шу фольклор экспедициясида тўплаган материалларига, иккинчи томондан эса поэтик ёдгорликлар, мумтоз адабиёт манбаларига асосланди. Ретроспектив метод ёрдамида анъанавий қўғирчоқ театрининг тарихий қиёфаси тикланиб,

қўғирчоқ санъатининг шакл ва турларига доир кўплаб янги манбалар илмга олиб кирилди. Мазкур тадқиқотлар натижаси ўлароқ “Халқ қўғирчоқ театри”, “Узбекский традиционный театр кукол” монографиялари яратилди. Қўғирчоқ санъатининг замонавий ҳолати, уларнинг анъаналарга ворисийлиги масалалари олимнинг ўз фарзанди ва шогирди Сарвиноз Қодирова билан ҳаммуаллифликда яратган “Қўғирчоқ театри тарихи” ўқув қўлланмасидан жой олди. Яратилган китобларда мамлакатимиз ҳудудида қўғирчоқ театри санъати илдизлари V-VII асрларга бориб тақалиши аниқланди. Бу даврда Самарқанд, Бухоро, Шаҳрисабз, Тошкент каби шаҳарлардан Хитойга борган созанда, рақс усталари, актёрлар қаторида қўғирчоқбозлар ҳам бўлганлиги гипотезаси илгари сурилди. Араб истилосидан кейин мазкур соҳада ҳам ўзгаришлар рўй бергани, IX асрда қўғирчоқбозларнинг ижтимоий вазифалари сўфиёна нуқтаи-назардан белгилаб чиқилгани асослаб берилди.

Муҳсин Қодиров томонидан илгари сурилган, тарихни тиклашда қадим манбалар билан бир қаторда поэтик ёдгорликларга таянишдек ёндошув усули театршунослик фани методологиясини кенгайтиришда аҳамиятли бўлди. Олим IX-XII асрлар қўғирчоқбоз санъатини ўрганишда форс-тожик адабиётининг намояндаси Умар Ҳайём ижодига мурожаат этади. Рубоийлар бадиий тилидаги тагмаънолар, метафоралардан келиб чиқиб, шоирни яшаган, таълим олган, сайёҳ сифатида кезган юртлари яъни Эрон, Хуросон ва Мовароуннаҳрда фаолият юритган қўғирчоқбозлик шакллари ҳақидаги илмий хулосага келади. Ушбу хулосага кўра, Умар Ҳайём рубоийларидаги рамзларда иплар ёрдамида бошқариладиган қўғирчоқлар томошаси, шунингдек, фонус хаёл тури тилга олинган. Бу эса қўғирчоқ санъатининг мазкур шаклини ҳудудий ва даврий жиҳатини аниқлаш имконини беради.

XIII-XIV асрдаги қўғирчоқ санъати эса Паҳлавон Маҳмуд рубоийларига таяниб тадқиқ қилинган. Қўғирчоқ ўйиннинг ўзгача бир тури шоир мисраларидаги бадиий образда акс этиб, унга кўра махсус томоша фонуси экран вазифасини бажаргани, фонус ўртасида ёниб турган шамъ аллақандай

мослама билан айлантириб, ҳаракатга келтирилувчи қўғирчоқлар суратини пайдо қилгани англашилади.

XV-XVI асрлардаги қўғирчоқ санъати ҳолатини ўрганишда олимга буюк Алишер Навоий ижоди манба бўлиб хизмат қилган. Муҳсин Қодиров улуғ шоирнинг “Ҳайратул аброр” достонидаги маснавийлар таҳлилидан келиб чиқиб, мазкур соҳага оид яхлит олинган назарий масалани кашф этган. Жумладан, Алишер Навоий қаламига мансуб маснавий ва унинг шарҳидан қуйидаги фикрга келади: “Шоир қўғирчоқбозликка оид уч атамани ишлатади: “қовурчоқчи”, “чодар”, “луъбат”. Шундан “чодар” – чодир демакдир, бу атама ҳамон қўлланиб келинади. Қўғирчоқ “қовурчоқ” ва “луъбат” деб белгиланади (“Қовурчоқ” ўзбекча, “луъбат” форсчадир). Навоий ишлатган “қовурчоқ” (қисқартирилган “қовчоқ”) сўзи Ўзбекистоннинг жанубий вилоятларида шу кунларда ҳам ишлатилади. Назаримизда, қовурчоқ-қовурчоқчи жуда кўҳна ўзбек сўзи бўлиб, қўғирчоқ ўйнатиш санъатининг мустақиллиги ва қадимийлигига ишора қилади”[7.19]. Олим шу тарзда қўғирчоқ ва қўғирчоқбозлик санъати атамаси қандай талқин этилганини очиб бериш билан бирга, унинг бадиий шакллари ва турларини кўрсатиб ўтади. Бунда ҳам қадим тазкиралар, қўлёзмалар ҳамда улуғ Алишер Навоий меросига асосланади. “Назаримизда Навоий, - деб ёзади олим, маснавий мисраларида ўзбек қўғирчоқ театрининг “Чодир хаёл” ва “Чодир жамол” деган икки турини эслаганга ўхшайди. “Давра этиб чодарининг пайкарин” деган гап қўлга кийгизиб ўйнатиладиган “Чодир жамол” ёки “Қўл қўғирчоқ” театрига тааллуқлидир. Чунки унинг чодири ўйинчининг белиги боғлаб тикланганидан айлана шаклида бўлади. Аммо унда ҳар дафъа иккитадан қўғирчоқ чиқарилган. Демак, бир вақтнинг ўзида ўнлаб қўғирчоқ чиқариб, “жилвагарлик анжумани”ни кўрсатиш тўғрисидаги гап “Чодир хаёл”га тегишли. Чунки фақат шунда кўплаб қўғирчоқ ўйнатиш ва катта воқеани кўрсатиш мумкин”[7.20]. “Чодир жамол”, “Чодир хаёл” шакллари қўғирчоқ театри амалиётида етакчи ўринда туришини ҳисобга олиб, олим унинг техникасини ҳам тўлақонли тавсифлаб ўтган. Уларнинг

ўзига хослиги, бир-биридан фарқли бўлган техникасига доир манбаларни аниқлашда ҳам олим Алишер Навоий меросига таянади: “*Ҳарза хаёлот ила хол айлабон, Даврни фонус хаёл айлабон.. .* Ушбу банднинг қимматли томони шундаки, унда қўғирчоқ театрининг бизгача етиб келмаган, бироқ XV-XVI асрларда яхши танилган тури ҳақида маълумот берилади. Бу тур – фонус хаёл, яъни фонус ёруғида чарм ёки тахтадан ишланган қўғирчоқ суратларини ўйнатувчи томоша, соя театридир”[7.20], - деб ёзади М.Қодиров. Қўғирчоқ театр санъатининг фонус хаёл тури ўша даврда асосан саройларда қўлланилгани кўрсатиб берилади. Олим мазкур турнинг кейинги даврдаги тақдирини 1979 йилда ёзилган “Осиё қўғирчоқ театрлари” мақоласида очиб берган. Унда Индонезия, Ҳиндистон, Туркия, Арабистон қўғирчоқ санъатидаги соя театри шакллари ва уларга хос етакчи хусусиятлар тадқиқ этилган.

XVII-XVIII асрлардаги қўғирчоқ санъати Боборaҳим Машраб ғазаллари асосида ўрганилган. Шоҳ Машрабнинг фалсафий мазмун касб этувчи ғазалларидаги рамзлар орқали бу даврда қўғирчоқ театрининг қўлга кийиб ва иплар воситасида бошқариладиган турлари фаолияти аниқланган.

1979 йилда Тошкентда ЮНЕСКО қошидаги Халқаро қўғирчоқбозлар уюшмаси УНИМА бошчилигида Осиё мамлакатларининг халқаро фестивали ўтказилади. Мазкур фестиваль доирасида ташкил қилинган “Осиё мамлакатлари ҳозирги замон қўғирчоқ театрларининг ижтимоий роли ва ифода воситалари” мавзуидаги симпозиумда С.Образцов бошчилигида бутун дунёдан келган йирик соҳа мутахассислари иштирок этадилар. Мазкур симпозиумда Муҳсин Қодировнинг қўғирчоқ театр санъати генезисига доир илгари сурган асосий илмий янгилиги кенг мутахассислар томонидан қўллаб қувватланган, илмий асос, таянч манба сифатида қабул қилинган. Мазкур илмий янгиликда олим Ўзбекистон қўғирчоқ театри ватани эканлигини исботлаб, ушбу санъат кўп асрлар давомида шаклланган, ўз анъаналарига эга бўлгани ва буларнинг барчаси замонавий қўғирчоқ театри такомилида катта аҳамиятга моликлигидек йирик концепцияни ўртага ташлаган эди.

Муҳсин Қодиров қўғирчоқ театрлари фаолиятининг бугунги ҳолатига бағишланган китоб ва мақолаларида мазкур соҳадаги анъаналарга ворисийлик ҳамда истиқболли тамойиллар борасида мушоҳада юритган. Уларда қўғирчоқ театр санъати драматургияси, режиссура, репертуар, актёрлик маҳорати, декорация ва тасвирий воситалар савиясини янада ошириш борасида муҳим таклиф ҳамда тавсиялар ишлаб чиқилган. Буларнинг барчаси қўғирчоқ театр санъати тарихи, назарияси ва замонавий бадиий жараёнларини ўрганаётган ёш тадқиқотчилар изланишларида таянч манба бўлиб хизмат қилиши шубҳасиз.

Домла мазкур санъат тарихи ва назарий масалаларини ўрганиш билан бир қаторда қўғирчоқ театри учун пьесалар ҳам яратганлар. Унинг Муҳсин Халил тахаллусида ёзилган “Кенжа қиз”, “Сирли най” пьесалари Республика қўғирчоқ театрида, “Сусанбил” Хоразм қўғирчоқ театрида, “Самар ва Қанд” Самарқанд вилоят қўғирчоқ театрида бир неча мартадан саҳналаштирилган, томошабинлар кўнглига йўл топган, репертуарни бойитиб турган.

Ҳар қандай соҳа тараққиётида фундаментал илмий изланишларнинг ўрни ва роли муҳим ўрин тутади. Муҳтарам Домламиз Муҳсин Ҳалилович Қодировнинг қўғирчоқ театр санъати назарияси ва амалиётини янада тараққий эттиришда улкан аҳамият касб этувчи илмий меросидан фойдаланиш нечоғли муҳим эканлигини халқаро конференция орқали кенг жамоатчиликка етказиш биз шогирдларнинг бурчимиздир.

Фойдаланилган адабиётлар

1.Зрелищные искусства Узбекистана. – Ташкент: San`at, 2008.

2.Перепелицина Л. Узбекский народный куколный театри. – Ташкент: ГИХЛ, 1959.

3. Қодиров М. Халқ қўғирчоқ театри. - Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт, 1971.

4. Кадыров М. Узбекский традиционный театр кукол. – Ташкент: изд.им.Г.Гуляма, 1979.

5. Qodirov M., Qodirova S. Qo`g`irchoq teatri tarixi. – Toshkent: Talqin, 2006.

6. Қодиров М. Халқ қўғирчоқ театри. Иккинчи нашри. – Тошкент: San`at, 2022.

BIRINCHI TEATR QO‘G‘IRCHOQLARI

O‘zDSMIFMF Teatr san’ati va xalq ijodiyoti fakulteti dekani, dotsent Utaganov Ravshan
“Teatr san’ati” kafedrasi o‘qituvchisi Madaminov Otabek

Annotatsiya: Jahon teatr madaniyatida boshqa tomosha san’ati qatorida qo‘g‘irchoq san’ati alohida o‘rin tutadi. Bu san’atning rivojlanishi har bir xalqni ijtimoiy yashash tutmush tarzidan kelib chiqqan holda rivojlangan. Qo‘g‘irchoq teatr san’atida qo‘g‘irchoqlarning paydo bo‘lishi va rivojlanish bosqichi haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Oshiq-moshiq, ostona, yon cho‘p, an’anaviy, qo‘g‘irchoq, globallashuv, tomosha san’ati, innovatsiya

Birinchi teatr qo‘g‘irchoqlarining paydo bo‘lishi san’at va madaniyat ildiz otgan zamin Yunoniston bilan bog‘lanadi. Dastlabki qo‘g‘irchoqlar uy sharoitida spektakllarni tashkil qilishning qadimgi yunon an'analariga bog‘liq. Oila a'zolari ular uchun qo‘g‘irchoqlar, kiyimlar tikdilar, bezaklar yaratdilar, so‘ngra spektakllarning dastlabki korinishlari paydo bo‘la boshladi. Davr odamlari haqiqiy kumushdan yoki hatto oltindan qo‘g‘irchoq yasashga qodir edi. Xuddi shudavrda haydash kamarlari va bug 'yordamida harakatlanadigan birinchi qo‘g‘irchoqlar paydo bo‘la boshladi. Bunday nusxalar insonlar tomonidan iliq

kutib olindi. Biroz vaqt o‘tgach, qo‘g‘irchoqlar teshiklari bo‘lgan maxsus qutiga joylashtirilib, “sehrli” qutilar bilan qo‘g‘irchoqlar shahar va qishloqlarni aylanib, kichik spektakllarni namoyish etishgan bo‘lsa, o‘rta asrlarda bunday namoyishlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri yarmarkalar va maydonlarda namoyish etilardi.

Bu turdagi teatr san'atining ommaviyligi nafaqat qo‘g‘irchoq aktyorlari, balki qo‘g‘irchoq rassomlarining ham faoliyatining paydo bo‘lishiga olib keldi. Qo‘g‘irchoqbozlarning chiqishlarini amalga oshirish uchun ular faqat arqonga cho‘zilgan mato bo‘lagigagina ega edilar. Qo‘g‘irchoqbozlar o‘z chiqishlarida sevgi va nafrat haqida, yaxshilik va yomonlik haqida suhbatlashar harakatlar esa biroz ceklangan edi. XIX asrning o‘rtalarida bunday tomoshalar uchun alohida joylar ajratila boshlandi. Yangi va takomillashtirilgan qo‘g‘irchoqlar hazillashish, yig‘lash va his-tuyg‘ularini jamoatchilikka yetkazish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Ular yaxshilikni maqtashdi va odamlarning kamchiliklarini masxara qilishdi. Ushbu davrda turli xil qo‘g‘irchoqlar shunchaki hayratlanarli edi. Ular - kichik, katta, qo‘lqopli qo‘g‘irchoqlar, plitalar, qoshiqlar, qamishli qo‘g‘irchoqlar, mexanik, soya va boshqa turlarga ega bo‘lganlar.

Xalq teatri dramaturgiyaga qaraganda kengroq tushuncha. Bunga spektakllar, ijrochining ijrosi bilan birga boshqa janrdagi ishlar kiradi. Kontseptsiyaga xalq teatri qo‘g‘irchoq teatri va rasm teatri (kelajakdagi animatsiya prototipi) ni o‘z ichiga olgan.

Qo‘g‘irchoq teatri - bu qo‘g‘irchoq tipidagi kosmik vaqt san'atining turlaridan biri, bu multfilm va karikaturadan tashqari animatsion kino san'ati, sahna qo‘g‘irchoq san'ati va badiiy qo‘g‘irchoq dasturlarini o‘z ichiga oladi. Qo‘g‘irchoq teatri har bir inson hayotida juda keng tarqalgan hodisa bo‘lib, bolaning estetik qarashlarini shakllanishida muhimdir.

Qo‘g‘irchoq teatri o‘z hayotini ming yillar oldin boshlagan. Qadimgi davrlarda odamlar mabudlar, shaytonlar va muqaddas hayvonlar yerni, osmonni, suvni, yer ostini to‘ldirganiga ishonishgan. Ota-bobolar tosh, yog‘och va suyakdan qo‘g‘irchoqlarni yasab, ularni xudo sifatida namoyish etib, ularga sig‘inishgan. Qo‘g‘irchoqlarni ilohiylashtiradigan qadimgi odamlar ularni xudolar bilan

aniqladilar: ularni zambilda ko‘tarib, atrofida raqsga tushishdi va ularni fillarga aylantirishdi. Qo‘g‘irchoqlar har xil moslamalar yordamida ko‘zlarini pirpiratishi, jilmayishi, qo‘llarini ko‘tarishi, boshini egishi mumkin edi. Vaqt o‘tishi bilan bunday namoyishlar teatrlashtirilgan tomoshaga aylanib bordi. Qo‘g‘irchoqlar xudo, jinlar, bo‘rilar, yovuz kuchlar va farishtalar sifatida ishlatilgan. Qo‘g‘irchoqlar yordamida xalq odamlarning gunohlari va illatlari ustidan kulgan. Ochko‘zlik, dangasalik, g‘azab va boshqa illatlar qoralangan.

Qadimgi davrlarda qo‘g‘irchoq teatrlarida "lahzali" qahramonlar bilan bir qatorda tipik obrazlar ham bo‘lgan. Ertaklar, afsonalar, folklor qahramonlari mashhur figuralar, "portret" qo‘g‘irchoqlar bilan birga yashagan.

Shunday qilib, qo‘g‘irchoq teatri omborga aylandi, ko‘plab syujetlar va hayot tarzlarini o‘zida jamlagan xazinasi bo‘ldi. Butun dunyoni hayratga solgan "Qirol Lir", "Faust", "Romeo va Juletta" kabi asarlar, italiyalik, ruminiyalik va nemis olimlarining fikriga ko‘ra Shekspir va Gyotega qadar qo‘g‘irchoq teatrlarida yaxshi tanilgan va mashhur bo‘lgan.

Yunonistonda dastlabki asosi paydo bo‘gan Qo‘g‘irchoq teatri qadimgi Rimda keng tarqaldi. Keyinchalik Italiya xalq satirik qo‘g‘irchoq teatri paydo bo‘ldi.Qo‘g‘irchoq teatri bosh qahramoni- quvnoq Pulcinella, hamda turli mamlakatlarda o‘z qahramonlaridan kelib chiqib, mashhur bo‘lgan qo‘g‘irchoq qahramonlari paydo bo‘la boshladi. Ular oddiy insoniy tuyg‘ularni qanday ifoda etishni bilishardi. Shunday qilib Punchinelle - frantsuz jamoatchiligi, Punch - inglizlarning, Germaniyada - Hanswurst, Pickelgering - Gollandiya jamoatchiligi, Polshada - Kopleniak paydo bo‘ldi. Kasparek biroz keyinroq Chexiyada tug‘ilgan.

Ushbu qahramonlarning barchasi jasorat, jasorat va masxara bilan Petrushkani eslatadi .Davr insonlari qo‘g‘irchoqlar yordamida jamoatchilik ichiga kirib bordi va hokimiyatga qarshi sharmandali nutqlar tushdi, ularning javobi ishchilar va dehqonlar qalbida topildi.

Petrushka oxir-oqibat sahnani tark etdi. Inqilobdan so‘ng teatrning yangi turlari paydo bo‘ldi:

Qo‘lqop qo‘g‘irchoqlari yoki minadiganlar (ular ekranning yuqori qismida ko‘rinib turganidek). Odatda qo‘g‘irchoqning boshi ko‘rsatkich barmog‘iga, bitta tutqichi o‘rta barmog‘iga, ikkinchisi esa bosh barmog‘iga qo‘yiladi. Ko‘p odamlar bunday qo‘g‘irchoqlarni maydanoz deb atashgan.

Ko‘g‘irchoqlar takomillashib borib, ularni boshqarishda ham yengilliklar paydo bola boshladi. Qo‘g‘irchoq aktyor sahna ortidagi tepalikda turib, qo‘llarida ushlab turadi ***wagu -*** iplar biriktirilgan ikki yoki uchta o‘tish pog‘onasidan tashkil topgan maxsus moslama. Iplarning pastki uchlari qo‘g‘irchoqning boshi va orqa tomoniga bog‘langan, yelkalariga, qo‘llariga, tizzalariga va oyoqlariga bog‘langan. Odatda qo‘g‘irchoqda 10, 20, ba'zan esa 40 tagacha ip bor. Agar siz tayoqchani silkitsangiz, undan iplar qo‘g‘irchoqning tizzalariga yetib boradigan bo‘lsa, u holda qo‘g‘irchoq oyoqlarini ko‘tarib tushira boshlaydi, yuradi hatto raqsga tushadi. Orqa tomonga bog‘langan ipni biroz tortib olgach, qo‘g‘irchoq ta'zim qiladi. Agar siz oyoqlarga bog‘langan iplarni tortib olib, qolganlarini qo‘yib yuborsangiz, qo‘g‘irchoq o‘girilib, boshida turishi yoki qo‘llarida yurishi mumkin.

Reed qo‘g‘irchoqlari. Ba'zan qamishdagi qo‘g‘irchoqlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘lda kiyiladi, lekin ko‘pincha ularni butun qo‘g‘irchoqdan o‘tadigan markaziy tayoq ushlab turadi. Ushbu tayoqqa qo‘g‘irchoqning boshi va yelkalari, qo‘llari esa yelkalariga yopishtirilgan. Aktyor qo‘g‘irchoqning qo‘llarini odatda tirsaklarga yoki qo‘llarga bog‘langan ingichka tayoqchalar yordamida boshqaradi. Tayoqchalar tomoshabinlardan yenglarida yoki qo‘g‘irchoqning kiyimlarida yashiringan.

Eng keng tarqalgan qo‘g‘irchoqlar - qo‘g‘irchoqlar va minadiganlar, chunki ular hamma oldida paydo bo‘lgan. Reed qo‘g‘irchoqlari Sharqda (Xitoy va Indoneziya) nisbatan yaqinda paydo bo‘ldi. Bunday Yefimov qo‘g‘irchoqlari bilan muvaffaqiyatga erishdi.

Qo‘g‘irchoqlar qadim zamonlardan beri ishlatilgan hatto yevropaliklar orasida Amerika kashf etilmagan paytlarida ham ular mavjud edi. XVII asrdan boshlab mahalliy qabilalarda qo‘g‘irchoq marosim urf-odatlarining asosiy qismi va shamanlik amaliyotida bo‘lgan.

Qo‘lqop teatri hayoti Amerikada, masalan, Angliyada bo‘lganidan farqli ravishda rivojlandi. Va bu, avvalambor, shaharlarda ko‘cha tomoshalari taqiqlanganligi bilan bog‘liq. Punch haqida ekrani va komediyasi bo‘lgan qo‘g‘irchoqlar ko‘chadan tomga ko‘chib ketishdi. Ular har qanday oilaviy bayram munosabati bilan o‘tkaziladigan uy tomoshalariga taklif qilindi. Agar bayram restoranga o‘tkazilgan bo‘lsa, u holda qo‘g‘irchoqlar belgilangan vaqtda u yerda chiqish qilishdi. XIX asrning o‘rtalarida Amerikadagi muzeylar qo‘lqop teatrlarini tomoshabinlar oldida chiqish qilishni mamnuniyat bilan taklif qilishdi. Cherkovlar, ijtimoiy yig‘ilishlar, shuningdek, bolalar uylari qo‘g‘irchoqbozlarni taklif qilishdan mamnun edilar.

XIX asrning oxiriga kelib, Punch Amerikada "chet el xususiyatlariga" ega bo‘ldi. Ularning nutqlari va hazillari to‘la edi.

Qo‘g‘irchoq teatrining zamonaviy sahnasi quyidagicha maqtana oladi: qo‘g‘irchoqlar bilan birga aktyorlarning o‘zi ham o‘ynashi mumkin. Masalan, Gulliverning sarguzashtlari haqidagi asarni olaylik. Lilliputlar rolini qo‘g‘irchoqlar, Gulliverning o‘zi esa aktyor o‘ynashi mumkin.

Shu tariqa qo‘g‘irchoq va qo‘g‘irchoq teatrishakllanib rivojlanib bormoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Imomov K. Mirzayev T. Sarimsoqov B. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. Toshkent. O‘qituvchi. 1990 yil.
2. Jo‘rayev M. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. Toshkent. Fan. 2010 yil.
3. U.K. Rahmonov,A.A.Ergashev. Bolajonlar nigoxi qo‘g‘irchoqlarda. Teatr jurnali.2022 yil.

QO‘G‘IRCHOQ TEATR SAHNASIDA, SAHNAVIY OBRAZ YARATISHDA QO‘G‘IRCHOQ RASSOMI, QO‘G‘IRCHOQ USTASI VA AKTYOR HAMKORLIGI.

Abbosjon Umurzoqov Shavkat o‘g‘li
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“Qo‘g‘irchoq teatr san’ati” kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya

Ushbu maqola qo‘g‘irchoq teatr sahnasida, sahnaviy obraz yaratish jarayonidagi uchta ijodkor uchrashuvi. Ya’ni rassom, qo‘g‘irchoq ustasi va aktyor o’rtasidagi ijodiy hamkorlik. Ular ijodiy jarayonida murakkab munosabatga kirishadi. Rassom tomonidan yaratilgan eskiz asosida qo‘g‘irchoq ustasi tomonidan yaratilgan qo‘g‘irchoqga aktyor tomonidan sahnaviy obraz topa olish jarayonini o‘zaro munosabatini ko‘rib chiqamiz.

Kalit sozlar: Qog‘irchoq, teatr, aktyor, qo‘g‘irchoq ustasi, rassom, qolqopli qo‘g‘irchoq, planshet qo‘g‘irchoq, morionetka, simli qo‘g‘irchoq.

Аннотация

Данная статья представляет собой встречу трех художников в процессе создания сценического образа на сцене кукольного театра. То есть творческое сотрудничество художника, кукольника и актера. Они вступают в сложные отношения в творческом процессе. Мы рассмотрим процесс поиска актером сценического образа для куклы, созданной кукольным мастером по эскизу, созданному художником.

Ключевые слова: Кукла, театр, актёр, художник, кукольниый мастер, перчаточная кукла, планшетная кукла, марионетка, тросовой кукла.

Annotation

This article is a meeting of three artists in the process of creating a stage image on the puppet theater stage. That is, the creative collaboration of the artist, puppeteer and actor. They enter into complex relationships in the creative process. We will consider the process of an actor's search for a stage image for a puppet created by a puppet master from a sketch created by an artist.

Keywords: Puppet, theatre, actor, artist, puppet master, hand puppet, tablet puppet, marionetka, rope puppet.

“ Qo‘g‘irchoq teatr san’ati, boshqa teatr san’ati turlaridan o‘ziga xos obraz yaratish hususiyati bilan farq qiladi. Qo‘g‘irchoq teatr aktyori, rassom va qo‘g‘irchoq ustasi hamkorligida yaratgan san’at asariga, ya’ni qo‘g‘irchoqqa jon bag‘ishlaydi. Aktyor qo‘g‘irchoq orqali to‘siqsiz sahnada turib tomoshabinga ayta olmagan yurak dardini tabiatga, ona Vatanga bo‘lgan muhabbatini, orzu-umidlarini, shirma orqasidan o‘zi ko‘rmagan holda izhor etadi.” [23]Ana shunda qo‘g‘irchoq sahnasida mo‘jiza yuz beradi. Oddiy predmet material jonlanadi va u ham inson kabi yashayotganligiga, nafas olayotganiga, umuman borligiga tomoshabin ham ishonib qo‘g‘irchoq bilan yig‘laydi, kuladi, qayg‘uradi.

Bu o‘ziga xos bo‘lgan ijodiy munosabatni kelib chiqigan holda, ikkita asosiy tarkibiy qismini tahlil etamiz. Aktyor va qo‘g‘irchoqning bir-biri bilan aloqasining zarurligini aniqlab chiqamiz. Sahnaviy harakat umum teatrning asosiy belgisi. Sahnaviy ijodning natijasi sahnaviy obraz-aynan harakat orqali yaratiladi. Aktyorning sahnadagi jismoniy faoliyati-tomosha san’atiga, unga aynan yaqin bo‘lgan hamma teatrlarning universal vositasi hisoblanadi. Sahnaviy harakat jarayonida aktyorning jismoniy holati ma’naviy hamda ruhiy faoliyati bilan juda chuqur bog‘langan bo‘ladi. Teatr san’atining har bir alohida ko‘rinishda, aktyor harakatining yana qaysidir tomonlari ta’sirchanlik vositasi bilan to‘ldirilib, boshqa ko‘rinishlarda takrorlanmaydi. Bu vosita esa o‘ziga xos farqni belgilab beradi.

Bu holat qo‘g‘irchoq teatr sahnasida boshqacha kechib, sahnaviy obraz yaratish usuli umuman boshqacha bo‘lgan o‘zga ijodiy yo‘nalishni boshidan kechiradi. Bu o‘ziga xos ta’sirchan vosita bo‘lib, faqat qo‘g‘irchoq teatrida aktyorning jonli va tabiiy ijrosi bilan bog‘liqlikni o‘zida aks ettiradi.

Qo‘g‘irchoq teatridan tashqari barcha teatrlarda tasviriy san’at yordamchi san’at hisoblanadi. Ular aktyor san’atini bezab, jonli aktyorni tashqi holati o‘zgartirib, u harakat qilish kerak bo‘lgan narsalardan iborat obraz muhitini

[23] Maryam Ashurova Aktyorlik mahorati TOSHKENT-2020

yaratishadi. Musiqaviy komediya hamda drama teatrlarida spektakl repetitsiyasi kostyumisiz, grimsiz va sahna bezaklarisiz o‘tishi mumkin. Teatrning asosiy qonunga binoan, hamma narsa tushunarli bo‘ladi. Qo‘g‘irchoq teatri esa bundan mustasnodir. Bu yerda musavvir va qo‘g‘irchoq ustasi o‘z asari bo‘lgan, qo‘g‘irchoqni aktyorga bermaguncha sahnada hech narsa sodir bo‘lmaydi. Chunki qo‘g‘irchoq – bu aktyor ijodining bezagi emas, balki tasviriy san’atning mustaqil asari bo‘lib, aktyordan ajralgan holda, uning tabiiy hamda insoniy sifatlariga umuman bog‘liq emas. Qo‘g‘irchoq teatrida musavvirning o‘ziga xosligi shu bilan belgilanadi-ki, tomoshabin sahnaviy obraz bilan uchrashganda, sahnada aktyorni emas, balki jonsiz qo‘g‘irchoqni ko‘radi. Shunday qilib, teatr qo‘g‘irchog‘ining ahamiyati asl ma’nosi, qo‘g‘irchoq aktyorining badiiy asbobi sifatida quyidagicha aniqlashi mumkin: Qo‘g‘irchoq-sahnada obrazni sahnaviy xatti-harakat orqali yaratadigan badiiy asbobdir.

“Qo‘g‘irchoq teatr sahnasida, sahnaviy obraz yaratish jarayonida ikkita ijodkor uchrashishadi. Bular musavvir va aktyor, teatr hamda tasviriy san’at vakili. Ular ijodiy jarayonida murakkab munosabatga kirishadi.”[24] Bu qo‘g‘irchoq teatr san’atining o‘ziga xos ikkilamchiligiga olib keladi. Ikkilamchilik esa o‘ziga qarama-qarshi ziddiyatlar tug‘diradi. Tabiiylik hamda sun’iylik, bir tomondan-aktyorning jonli san’ati, boshqa tomondan qo‘g‘irchoqning jonsiz tabiati, aktyorlik san’atining o‘sishi hamda tasviriy san’atning muvozanatda bo‘lishi, bir zamonda o‘zini namoyon qilolmay, biriga esa, zamon hokimlik qilolmaydi. Bu ziddiyatlar qo‘g‘irchoq teatrining hamma ijodiy tomonlariga kirib boradi. Unda ularning dialektikasi qanaqa? Vaqtincha dramaturg bilan rejissyorning chetda qoldiramiz. Ularning roli qaysi bir teatr san’atida bo‘lmasin alohida o‘rganiladigan mavzu. Rassom tomonidan yaratilgan aktyor va qo‘g‘irchoqlarning ikki asosiy tarkibiy qismidagi o‘zaro munosabatini ko‘rib chiqamiz. Ular qanday uchrashdilar, hamda bu ijodiy uchrashuvdan nima kelib chiqadi?

[24] Korolyov M.M. Iskustvo teatra kukol. Rejissyor teatr kukol. Sang-Peterburg. 2015

Ma’lum ish bosqichida umuman rejaning vujudga kelishi nihoyasida rassom aktyorga qo‘g‘irchoq olib keladi. Aktyor uni qabul qilib, yakunlangan sahnaviy obrazga aylantirmog‘i kerak. demak, yassi yoki hajmli shakl faqat makonda yashashi, u hayotni davrda bermog‘i, ya’ni u zamon va makon jarayoniga qo‘shiladi. Chunki sahnaviy obraz boshqa formada yashay olmaydi. Aktyor qo‘g‘irchoqni harakatga keltiradi, shunda qo‘g‘irchoq teatr san’atining ajoyib, yana bir harakat mo‘jizasi vujudga keladi. Jonlanadigan shakl birdan jonli jonzotning illyuziyasini tug‘diradi. Tasoddif emas, qo‘g‘irchoqlarni harakatga keltirganda eng kichik bolalar hamda hayvonlar misolida ularni jonli hisoblab qo‘rqishadi. Bu insonni hayajonga soladigan ko‘rinish, doimiy harakatni tasdiqlaydi. Hayot - bu harakat demakdir. Eng oddiy hamda eng murakkab hayot jarayonining formalari shubhasiz, harakatda ifodalanadi. Hamma cheksiz inson ongining har xil tashqi faoliyatining ko‘rinishlari, faqat bitta hodisaga Sechenov aytgandek, muskulning harakatlanishiga olib keladi. Bolaning o‘yinchoqni ko‘rgandagi kulgusi, qiz bolada sevgi to‘g‘risidagi birinchi fikr tug‘ilgandagi titrashi, Nyutonning dunyo qonunlarini yaratishi va ularni qog‘ozga tushirilishi – bularning hammasidagi oxirgi fakt muskullarning harakati hisoblanadi. Lekin qo‘g‘irchoqning birgina aktyor jonlantiradimi? Yo‘q, bunda rassom ham qatnashadi. O‘lik qog‘ozga u jon kiritadi. Qaysiki, allaqachon ichki dunyoni o‘zida mujassamlashtirgan, harakatga kelmay, faqat o‘zining qo‘zg‘alishini kutgan jonzot obrazini qog‘ozda yaratadi. Har qaysi o‘zining san’at vositasi bilan biri – tasvirlash orqali, boshqasi – harakat orqali obraziga hayot beradi. Shuning uchun ham ular ajralmas ijodkorlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. PF-6000-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26maydagi PF-6000-son Farmoni.
2. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish-xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning muhim poydevoridir. Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017 yil, 4 avgust, 153-son.
3. Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017 yil, 17 fevral, 35-soni
4. Korolyov M.M. Iskustvo teatra kukol. Rejissyor teatr kukol. Sang-Peterburg. 2015
5. Maryam Ashurova Aktyorlik mahorati TOSHKENT-2020
6. Qurbonova F. Qo‘g‘irchoqlar jilvasi. // Teatr. 2014 yil, 4-son.
7. Umarov M., Yuldashev T.Rejissyorlik va aktyorlik san’ati asoslari. – T.: ABU MATBUOT-KONSALT. –2016.

Mumtoz miniatyura san’atida milliy urf -odatlar talqini.

O‘zbekiston Davlat san’at va madaniyat instituti “Qo‘g‘irchoq teatri san’ati” kafedrasi o‘qituvchisi

***B.* Jo‘raboyev**

Annotatsiya: Milliy urf-odatlar va marosimlarni o’rganish kelib chiqish xususiyatlari, jamiyat hayotidagi o’rni va ahamiyati hozirgi kunning dolzarb masalalaridan bir hisoblanadi. Bu mavzu bo’yicha ko’plab sohalarda ilmiy ishlar amalga oshirilganligi bizga ma’lum. Maqola shu mavzularda fikr yuritilgan va taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘z: Marosim, miniatyura, an’ana, madaniyat

Аннотация: Изучение национальных традиций и обрядов, их происхождения, места и значения в жизни общества является одним из актуальных вопросов. Мы знаем, что по этой теме велась научная работа во многих областях. В статье рассматриваются эти темы и предлагаются предложения и рекомендации.

Ключевые слова: Церемония, миниатюра, традиция, культура

XXI-asr o'zbek xalqi tarixi va milliy qadryatlarini o'rganish sohasida yangi zarvaraqlarni muxrlamoqda. Bugungi kunda tariximizning no'malum bosqich va qirralari qaytadan kashf etilmoqda. O'zbekiston mustaqilligidan so'ng o'zbek xalqining qadimiy davlatchilik an'analari etnik tarixi va etnogeneziga bag'ishlangan qator salmoqli tadqiqotlar yaratilmoqda[25]. Lekin afsuski hozirga qadar o'zbek xalqining mentaliteti uning o'ziga hos tomonlari, milliy yutuqlarimiz va nuqsonlarimiz borasida tadqiqotlar aytarli ko'zga tashlanmayapti. Tarixdan ma'lumki, dunyodagi har bir millatning shu jumladan o'zbeklarning ham aqliy ruhiy qiyofasi ya'ni milliy mentaliteti o'ziga hos tarixiy va etnik tabiiy-iqlimiy shart-shaoitlar doirasida shakllangani bois, uning jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy siyosiy hodisalar, tarixiy jarayonlarga bo'lgan munosabati ham turli bo'lishi shubhasiz. Zero, milliy o'ziga hosliklar uzoq: tarixiy davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlar, tabiiy geografik o'rnashuv, o'zaro etnomadaniy a'loqalar, diniy mansubliklar asosida qaror topadi va aynan mana shular xalqning ruhiy psixologik qarashlari negizida qadimiy an'analar, urf-odatlar va marosimlar shakllanadi. O'zbek xalqining milliy mentaliteti haqida so'z yuritishdan oldin shuni alohida takidlab o'tish joizki, o'zbek xalqi 4 ta katta diniy mafkuraviy bosqichni (zardushtiylik, buddaviylik, islom, kommunistik) o'z boshidan kechirganligi va har bir mafkuraviy-diniy ta'sirlar davri tugagunicha necha avlodlar almashganini va bu jarayonlarni millat fe'l-atvorida o'chmas iz qoldirganini unutmaslik kerak. O'zbek milliy mentalitetiga hos jixatlaridan yana biri jamiyat hayoti, insonlar turmush tarzini ko'proq an'ana urf-odatlar orqali

[25] https://shosh.uz
O'zbek milliy mentaliteti haqida ba'zi mulohazalar.

boshqarilishidir[26]. Demak o'tmishdan buyon urf-odatlar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan holda yashab kelmoqda. Ijtimoiy taraqiyot davomida odamlarning yashashi uchun kurashi, ongli mehnat qilishi jarayonida tajriba, ko'nikmalarning ortishi, kishilarning moddiy ma'naviy ehtiyojlarining o'sib borishi, ularning tabiat sirlarini anglash jarayonida turli tushuncha, tasavvur, e'tiqodlarning paydo bo'lishi, mehnat taqsimoti natijasida turli mehnat sohalarining taraqqiy etishi, odamlar, qabilalar, urug', jamoalar o'rtasidagi munosabatlarning takomillashishi insoniy an'analarning vujudga kelishida muhim omillar sifatida xizmat qilgan. An'analar insonning tabiiy ehtiyoji tufayli muhim mashg'ulot sifatida eng qadimgi davrlardan paydo bo'lgan. Kishilarning tabiiy ejtiyoji bois ongli mehnat qilishi muayyan tadbirlardan foydalanishni taqazo etgan. Hayotiy tajribalar asosida tadbirlarning turlari shakllanadi. Chuqur ma'noli va shaklan madaniylashgan tajribalar odatlarga aylangan. Muhim ahamiyat kasb etgan odatlar asosida marosimlar paydo bo'lgan. Jamoa hayotida xursandchilik bilan o'tadigan voqealar zamirida bayramlar shakllangan. Shunday qilib tadbirlarning turli darajalari va shakllari paydo bo'lgan[27]. Demak an'analarning hayotimizda paydo bo'lishi va muhim o'rin egallashi bosqichlari eng qadimgi davrlarga to'g'ri kelar ekan. Dastlab insonlarning bir jamoa bo'lib yashashni boshlashgani an'analarga ehtiyoj uyg'otgan bo'lishi aniq hodisa bizningcha. Chunki hech bir urf-odat-u marosimlar ko'pchiliksiz o'tkazilmaydi. Bu haqida quyida madaniyatshunos olim Usmon Qoraboyevning fikrlariga e'tibor qaratishni maqsad qildik.Eng qadimiy odamlarning turmushi bilan bog'liq an'analar, jumladan, jamoa (to'da) bo'lib yashash udumlari, sardorlik (oqsoqllik) uchun olishuvlar, imitatsiya (bolalik, o'spirinlikdan erkaklikka o'tish) marosimlari, turli ko'rinishdagi dafn odatlari, qurbonlik marosimlari, organistik bayramlar, oila va to'y marosimlarining poydevori bo'lgan poligam, egzogam, monogam odatlari kabilar ibtidoiy jamoa taraqqiyotida jiddiy rol o'ynagan. Ular ibtidoiy odamlarning mashaqqatli hayotida erishilgan tajribalar, yutuqlarni asrash va

[26] https://shosh.uz
O'zbek milliy mentaliteti haqida ba'zi mulohazalar.
[27] U.Qoraboyev. G'. Soatov. O'zbekiston madaniyati "Tafakkur bo'stoni" Toshkent – 2011.

ko’paytiririshda katta ahamiyatga ega bo’lgan. Qadimiy davrdan boshlab odamlarning tabiat sirlarini tushunishga intilish natijasida ularning ongida turli tasavvurlar, jumladan, fetishistik, totemistik, animistik, politeistik, magik kabi e’tiqodlar paydo bo’ldi. Qadimiy odamlarning tushunchalari, odat va marosimlarida (chunonchi, ”yomg’ir tilash”, “shamol chaqirish”, “quyoshga sig’inish”, “qurbonlik qilish” marosimlarida) o’z aksini topib, ular Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati va ma’naviyatini shakllanishida muhim omillar sifatida namoyon bo’ldi. Shunday qilib, ibtidoiy davrda ilk madaniyat shakllari-ovchilik o’yinlari”, “zoafagik bayramlar” “magik marosimlar”, “imitatsiya tadbirlari”, “organistik bayramlar” va boshqalar vujudga kelgan. Bunday tadbirlar qadimiy ilk madaniyat va ma’rifat maskanlari: “jamoa uylari”, “o’spirinlar uylari”, “erkaklar uylari”, “quyosh uylari” kabi joylarda ham o’tkazilgan. Markaziy Osiyo xalqlari an’analarining shakllanishida zardushtiylarning dualistik qarashlari muhim rol o’ynadi. Ularning tabiat, mehnat va turmush jarayoni bilan bog’liq bo’lgan an’ana, marosim va bayramlar tizimi (Navruz, Mehrjon, Sada, Angam kabilar)da yaxshilik va yomonlik, yorug’lik va qorong’ulik, issiqlik va sovuqlik, o’lim va hayot o’rtasidagi ziddiyatlar aks etib, bu davr ofatlarida ezgulik, mehribonlik, muruvatlilik, qadr-qimmat, insoniylik kabi ma’naviy-insoniy fazilatlar qadrlana boshlandi.

Temuriylar davrida o’lkamizda madaniyat ravnaq topib, bayram-marosimlar keng rivojlangan. XVI-XIX asrlarda esa tez-tez urushlar bo’lishi, xonlik va bekliklarga bo’linish bayram, marosimlar o’tkazilishiga ham salbiy tasir ko’rsatdi. O’lkada Buxoro amirligi, Xiva va Qo’qon xonliklari yuzaga kelishi natijasida bu hududlarda o’tkaziladigan bayramlarda ayrim o’ziga xosliklar paydo bo’lgan bo’lsada, bayramlarga xos umumiy jihatlar saqlanib qolavergan. Amir va xonlar xalq o’rtasida o’z obro’yini ko’tarish maqsadida bayramlarga alohida e’tibor berib, o’z manfaatiga mos keluvchi g’oyalarni bayram tomoshalariga singdirishga harakat qilishgan. XVI-XIX asrlarda o’lkaning fikrli ziyolilari, san’atkor va shoirlar xalq bayramlarini keng targ’ib qilgani tufayli xalqimizning go’zal bayramlari (Navruz, Gullar sayli) saqlanib qolagn. O’rta Osiyo

xalqlarining an'ana va bayramlari tabiat o'zgarishlari, iqlim, yil fasllari, aholining turmush sharoiti, mehnati madaniyati asosida shakllanib va rivojlanib borgani uchun har faslga mos, ya'ni erta bahorda- mehnat mavsumiga kirishdan oldin (Navruz, Gul sayli, Shoxmoylar), yozda-hosilni yig'ishtirishdan oldin(Suv sayli, Choy Momo, Shamol chaqirish), kuzda-hosil yig'ib olinganidan so'ng(Xirmon to'yi', Qovun sayli, Uzum sayli) va qishda chorvador-dehqonlarda bo'sh vaqt ko'payganida (Qorxat, Yasan-tusan, Gap-gashtak, Qurultoy) kabi mavsumiy marosim bayramlar o'tkazilgan. Shuningdek, o'rta asrlarga xos madaniy-ma'rifiy tadbirlar: "Munozara", "Mushoira", "Baxribayt", "Aytishuv", "Baxslashuv", "Kitobxonlik" va hokazolar. Xalq tadbirlari: "Gul sayllari", "Navruz", "Qo'sh oshi", "Tut sayli", "Tok oshi", "Qovun sayli', "Qurultoy" va boshqalar paydo bolgan. Ayniqsa, "Mushoira", "Munozara", "Baxribayt", "Aytishuv", "Baxslashuv" kabi tadbirlar keng tarqalgan. Mushoira (arabcha-shoirlar musobaqasi)- she'riyatning o'ziga xos baxs-musobaqa janri sifatida namoyon bo'lgan. Mushoira og'zaki yoki yozma tarzda yaratilib, xalq ijodiyotida ham keng tarqalgan. Mushoiraga monand janr boshqa xalqlarda, masalan, qozoq va qirg'izlarda "aytisuv"lar ham bo'lgan. O'zbek xalq an'analarining muhim qismini vujudga keltirgan mavsumiy odatlar ijtimoiy taraqqiyot jarayonida jamiyatni moddiy-ma'naviy kamol topishida zaruriy omil sifatida namoyon bo'ladi. Chunki o'zbek xalqi va uning ajdodlari istiqomat qilgan hududning geografik o'rni, tabiati yil fasllari kabilarning o'ziga xos xususiyatlari asosida mavsumiy odat, bayram va marosimlar vujudga kelib, ular mahalliy aholining tafakkuri, harakteri, idroki, his-tuyg'ulari, irodasi, qobilyatlarini shakllanishida muhim o'rin tutadi.

O'rta Osiyo: jumladan: O'zbekiston hududida yashovchi xalqlarning bayramlarini o'rganishda X-XI asrlarda yashagan buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari ham alohida manba hisoblanib, Islomgacha mavjud bolgan odatlar, Zardushtiylar an'analari xususida fikrlar bildirb o'tilgan. Zardushtiylik odatlari – ajdodlarimizning bizga qoldirgan bebaho tarixiy merosidir. Lekin bugungi kunda undagi odatlarga ehtiyoj qolmagan desak ham noto'g'ri bo'lmaydi. Yurtimizga Islom dini kirib kelgach

urf-odat va marosimlarda ham o'zgarishlar bo'lganligi barchamizga ayon. Ya'ni bayramlardan tashqari inson tug'ilib voyaga yetib to umrining oxiriga qadar davom etadigan udumlarni nazarda tutmoqdamiz. Ushbu urf-odatlar esa har doim ko'pchilik bilan o'tkazilib kelinadi. Bugungi kunda bizning yurtimizda kishilar hayotida yuz beradigan har bir muhim voqea-hodisa ya'ni milliy urf-odat va marosimlar jamiyatda katta ahamiyatga egadir. Shunday ekan ajdodlardan meros bo'lib davom etib kelayotgan ma'naviy boyligimiz hisoblanmish qadimiy qadriyatlarimizni asrab avaylash va kelgusi avlodlarga to'liq yetkazish bugungi kun vakillarining, bizning burchimizdir. Shuningdek bu borada so'z yuritilganda prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning- Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning ruhi va joni ma'naviyatdir. Degan jumlasini yodga olishimiz mumkin. Demak jon va ruhsiz tana harakatlanmaganidek, urf-odatlarimizsiz millatimiz ham o'ziga xoslikni yo'qotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. U.Qoraboyev. G'.Soatov. O'zbekiston madaniyati. "Tafakkur bo'stoni". Toshkent- 2011.
2. A.Amirov. O'bek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. Alisher navoiy omidagi O'bekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent-2007.
3. https://shosh.uz
   O'zbek milliy mentaliteti haqida ba'zi mulohazalar.

STAGE SPEECH TECHNIQUE OF ACTORS OF PUPPET THEATER

Boburjon JABBOROV,
Magistr of the 2nd course in the specialty "Actor of the puppet theater"
State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan

ТЕХНИКА СЦЕНИЧЕСКОЙ РЕЧИ АКТЕРОВ ТЕАТРА КУКОЛ

Бобурджон ДЖАББОРОВ,
Магистр 2-курса по специальности «Актёр кукольного театра"
Государственного института искусств и культуры Узбекистана

QO‘G‘IRCHOQ TEATRI AKTYORLARINING SAHNA NUTQI TEXNIKASI

Boburjon JABBOROV,
O‘zDSMI “Qo‘g‘irchoq teatri aktyorligi”
mutaxassisligi 2-kurs magistri
Ilmiy maslahatchi: dotsent A’zamjon Abduxalilov

Annotation

This article will reveal the art of puppet theater, the main points that should be paid attention to when ensuring the consistency of speech, voice and pronunciation of puppeteers, as well as the difference between the speech of this art and the speech of dramatic, musical and theater actors.

Аннотация

В данной статье расскроетсия искусство кукольного театра, основные моменты, на которые следует обратить внимание при обеспечении согласованности речи, голоса и произношения кукольников, а также отличия речи данного исскуства от речи драматических, музыкальных и театральных актеров.

Annotatsiya

Ushbu maqola qo‘girchoq teatri san’ati, qo‘g‘irchoqboz aktyorlarning nutqi, ovozi va ijroda talaffuzning mustahkamligini taminlashda asosan nimalarga e’tibor berish zarurligi, shuningdek dramatik, musiqali va estarada aktyorlari nutqidan farqli jihatlari ko‘rsatib berilgan.

Ключевые слова: Кукольный театр и сценическая речь, актерский голос, речь, произношение, серьезность и веселье, кукольник, кукольный персонаж.

Key words: Puppet theater and stage speech, actor's voice, speech, pronunciation, seriousness and fun, puppeteer, puppet character.

Tayanch so‘zlar: Qo‘g‘irchoq teatri va sahna nutqi, aktyorning ovozi, nutq, talaffuz, jiddiylik va quvnoqlik, qo‘g‘irchoqboz, qo‘g‘irchoq obrazi.

Respublika teatr-konsert tashkilotlari va o‘quv yurtlariga hukumatimiz tomonidan juda katta imkoniyatlar yaratilib berilgan. Shu bilan birga san’atni rivojlantirishdan maqsadlar, jamiyat ma’naviyatini yuksaltirishda teatr san’atining o‘rni va mas’uliyati aniq belgilab berilgan. [1] Ayniqsa, bolalarga mo‘ljallangan

teatrlar faoliyatini yanada rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, qo'g'irchoq teatri juda murakkab ijodiy faoliyat dargohi ekanligiga alohida urg'u berilgan. Shunki, yetuk qo'g'irchoqboz bo'lish uchun juda ko'p mehnat qilish lozim. Taniqli rossiyalik san'atshunos E.S. Kalmanovskiy "Qo'g'irchoq teatri aktyorlari hech qachon o'z ovozida gapirmaydi" deb bejiz aytmagan.[2] Bu yerda gap qo'g'irchoq teatrida aktyorlar kattalar va bolalar, hayvonlar va qushlar, gullar va mayda xasharotlar, ijobiy va salbiy personajlar obraziga taqlid qilib so'zlashi, ya'ni o'z tilida deyarli gapira olmasligiga ishora qilingan. XXI asrda texnika va texnologiya tobora rivojlanayotgan bir davrda har bir soha vakili, xoh u sport bo'lsin, xoh san'at, xoh siyosat o'z kasbidan kelib chiqqan holda zamon bilan hamnafas bo'lmog'i lozim.

Hozirgi kun teatr ijodkorlari (rejissor, aktyor, kompozitor va h.k) eski maktablardan andoza olib zamonaviy, innovatsion, rang-barang va jozibador metodlarni bir-biriga uyg'unlashtirib, aktyorlik mahorati maktabi va sahna nutqi texnikasini rivojlantirib kelmoqdalar. Respublikamiz qo'g'irchoq teatrlarida bir-biridan qiziqarli va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan spektakllar sahnalashtirilmoqda.[2]

Qo'g'irchoq teatri va sahna nutqi: bu ikki atama bir-biriga uzviy chambarchas bog'liq. Qo'g'irchoq teatri aktyorining ovozi, nutqi, talaffuzi mustahkam, tiniq, toza, ravon va mukammal darajada bo'lmog'i lozim. Chunki parda ortida qo'g'irchoqboz har xil holatga tushishi mumkin. Bunda tana a'zolarimiz, shuningdek muskullairimiz toliqadi, zo'riqadi va charchab qoladi. Oqibatda aktyorning holati buzilib, uning nutqiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. YA'ni, so'zlarda aniqlik, dadillik, o'ziga bo'lgan ishonch, harflar tiniqligi, nafas bo'g'ilishi yoki hansirashi va eng achinarlisi boshqarilayotgan qo'g'irchoq obraziga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Ustozlarimiz ko'p ta'kidlaganlaridek, agar boshqarilayotgan qo'g'irchoqda obraz va harakter bo'lmas ekan, u sahnada jonlanmaydi.

Dramatik teatr aktyorlari va qo'g'irchoq teatri aktyorlarining mahorati va nutqiy o'zlashtirishda bir-biriga o'xshash va farqli tomonlarini qalban va ruhan his qilish

lozimligi har ikkala aktyorlar uchun bilib olish joiz bo‘lgan tajribadir. Dramatik teatri aktyorlari K.S. Stanislaviskiy sistemasi asosida, ya’ni kechinma san’ati; aktyor sahnada bo‘lib o‘tadigan voqeaning o‘zida, “Agarda men...” sistemasi asosida rol ijro etadi. Qo‘g‘irchoq teatri aktyorlari ham huddi shunday asnoda rol ijro etiladi. Berilgan obrazni “Agarda men shu obrazda bo‘lsam qanday yo‘l tutar edim?” degan savolni o‘ziga bergan holda kechinma san’atidan foydalanib rol ijro etadi. [3]

Bundan kelib chiqadiki, qo‘g‘irchoq teatri aktyolarida ham yurak, kuchli organika, kechinma va o‘sha berilgan rol ichida yashash kerak bo‘ladi. Lekin afsuski, ba’zi pedagoglar yoki qo‘g‘irchoq aktyorlari o‘zlari uchun noto‘g‘ri sistemani tanlab, qo‘g‘irchoq teatrida yurak ishlashi, kechunma san’ati shart emas, qo‘g‘irchoqni tepaga ko‘tarib ovozni o‘zgartirib tomoshobinni kuldirsak bo‘ldi, degan gaplarni eshitib qolaman. Bu fikr 100% noto‘g‘ri. Qanday qilib yurak ishlamasdan, o‘sha holatga aktyor ishonmay tomoshabinni ishontirish mumkin. Aktyor birinchi navbatda berilgan shart-sharoitga o‘zi ishonmog‘i, kechinmog‘i va o‘zidan o‘tkazmog‘i lozim. Ana o‘shandagina tomoshabin aktyor yaratgan obrazga ishonadi va unda katavsiya holati yuzaga keladi. Haqiqiy diletant aktyorgina bu fikrlarga qo‘shilmasligi mumkin.

Tahlil va natijalar

Endi dramatik teatr aktyorlari va qo‘g‘irchoq teatr aktyorlarining farqli tomonlarini o‘rganamiz. Dramatik teat aktyorlari jonli o‘zlari sahnada rol ijro etishadi. Mezansahna va dekoratsiyalarni o‘zidan kelib chiqqan holda o‘rganadi va shu dekoratsiya mezansahnaga o‘zi moslashishi kerak bo‘ladi. Qo‘g‘irchoq teatri aktyorlarida esa aksincha berilgan sahnadagi voqeaviy holatni o‘zidan kechinib qo‘lidagi jonsiz qo‘g‘irchoqqa berib uni jonlantirishi kerak bo‘ladi. Bunda aktyordagi tasavvur, mahorat va tana sezuvchanligi qo‘g‘irchoq obrazini ochib yanada tomoshabin uchun qiziqarli bo‘lishini ta’minlab beradi.

Dramatik teatr aktyorlari aksariyat o‘z tabiiy ishchi ovozida gapirib rol ijro etishadi. Ulardan qilinadigan talablar shuki; ovoz jarangigai erishish, ovozni iloji

boricha uzoqroqqa yetkazish, harflarni to‘g‘ri talaffuz qilish va kuchli dinamikadagi aktyorlik mahorati. Qo‘g‘irchoq teatri aktyorlari esa aksincha - hech qachon o‘zining tabiiy ishchi ovozida gapirmaydilar. Chunki qo‘g‘irchoq aktyorlari nafaqat insonlar obrazini sahnada gavdalantirishadi, qolaversa narsa buyum predmet va hayvonlar, jonzotlarni ham sahnada jonlantirishadi, bu esa o‘z navbatida qo‘g‘irchoq aktyorida kuchli elastik ovozni taalab etadi. Misol uchun, oddiy kundalik hayotda kimnidur parodiya qilib ovozini o‘xshatib 5 sekund gapirsak, bir zumda ovozimiz xirillab o‘zgarganini sezamiz. Qo‘g‘irchoq aktyori esa o‘sha o‘zgargan ovozda 40 yoki 50 minutgacha gapirishiga to‘g‘ri keladi. Qo‘g‘irchoq teatrida shunday spetsifik jihatlar borki. 50 yoshli aktyor 5 yoshli bolakayga ham ovoz berishi mumkin. Erkak aktyor ayol obraziga yoki bo‘lmasam bir aktyor bitta spektaklda ikkita yoki uchta obrazga ovoz berishi mumkin.

“So‘z – sahna san’ati ijrochiligi mahoratining asosiy ifoda vositalaridandir. Binobarin, so‘z oqsagan joyda ijro ta’sirchanligiga putur yetadi. Bunday hollarda mukammal so‘z san’ati haqida, qolaversa, san’atning maqsadi, vazifalari xususida fikr yuritish amri mahol...[4]

Qo‘g‘irchoq teatri aktyorlarida sahna nutqi muhim omillardan biri hisoblanadi. E.V. Speranskiy ta’kidlashicha, qo‘g‘irchoq teatrida ovoz va nutq drama teatriga qaraganda ko‘proq ahamiyatga ega”. [5]

Buning uchun ko‘plab badiiy va ilmiy kitoblar o‘qish, (ovozni chiqarib, lablarni bir-biriga yopishtirgan holda, ikkita yong‘oqni lunja solib) va qolaversa sahna nutqi haqida buyuk ustozlar o‘zlarining kitoblarida nutqni takomillashtirsh uchun ko‘plab o‘z takliflarini berib o‘tganlar *(murakkab tez aytishlar, maqollar, artikulyatsion mashqlar, nafas mashqlari).*

Fikr qancha teran va zehn qanchalik o‘tkir bo‘lsa aktyorlar sahnada bemalol keng dengizda suzib yurgan baliqday rohatlanib sahnada rol ijro etishadi. Aktyordagi badiiy saviyaning pastligi rolning shuncha sayoz bo‘lishidan dalolatdir. Aktyorlarning quroli so‘z va uning asosi kitobdir, qancha ko‘p kitob o‘qisa shuncha tafakkur kengayadi.

Qo‘g‘irchoq teatri aktyorlari uchun muhim fan **Plastika** hisoblanadi. Plastika talabalarning tana a’zolari, muskullari, mushaklari va aktyorning jismoniy texnikasini mustahkamlaydi. Bu ularga sahnada har qanday holatda ham hech qanday jismoniy zo‘riqishlarsiz qo‘g‘irchoqni erkin va faol boshqarish imkoniyatini yaratishga yordam beradi. “Aktyor sahnada ichki va tashqi siqiqlikdan halos bo‘lsagina, aqliy harakatni amalga oshiradi va diqqatni bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga ko‘chira oladi”[6]

Qo‘g‘irchoq teatri aktyorining tana a’zolari, mushaklari jismonan baquvvat va plastik egiluvchan bo‘lmog‘i lozim. Aktyor sahnada o‘z rolini, avvalo, o‘zi tushunishi va shu rol orqali sahnada yashab, tomoshabinni ishontira olishi lozim. Chunki, “Aktyor, ayniqsa, o‘zining jismoniy imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanishi juda muhimdir. Jismoniy imkoniyatlariga to‘g‘ri baho bera oladigan aktyorning roli, shubhasiz, talabga javob berishi mumkin.[7].

Jismoniy harakatlar ustida ishlash kerak, lekin hozirgi odatiy teatr maktablaridagi mashqlar kabi emas. Ular tananing ruhiy kechinmalarini ko‘rsatishga ba’zan halal beradi. Mashqlarning meyoridan oshib ketishi tanaga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, aktyorni ichki hisssiyotlarini bera olmaydigan, qo‘pol ko‘rinishga kelishiga sabab bo‘ladi. Aktyor tanasi va ichki hissiyotlari o‘zaro hamohanglikda, tengma-teng rivojlanishlari lozim.[8]

Tana qanchalik chidamli va mustahkam bo‘lsa, aktyor sahnada shuncha erkin va hayoli chalg‘imasdan rol ijro etadi va nutqiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi.

Aktyorlarga ovoz jarangdorligi, jozibadorligi, shirasi, tozaligi, tiniqligi, nafas kengligini ta’minlab, uning sahnaviy ishchi ovozini yuzaga chiqarishga yordam beradigan ilm bu **vokal fanidir**. Qo‘g‘irchoq spektakllarida gaplashuvchi qo‘g‘irchoqlar paydo bo‘la boshlagan zahoti aktyorlar ovozini ularga moslashtirishi muammosi paydo bo‘ldi. Qo‘g‘irchoq teatri aktyorlarida ovoz o‘zgartishi imkoniyati mukammal darajada bo‘lmog‘i lozim. Har xil yoshdagi personajlar, turli harakterga ega bo‘lgan hayvonlar obrazi, shuningdek, turli xil predmetlar shular jumlasidan. Yana bir murakkab jihati shundaki, mana shu ovoz o‘zgargan holatda ham aktyorlar boshqarilayotgan obraz va personajlar tilidan

qo‘shiq kuylashiga ham to‘g‘ri keladi. Bu aktyorlardan juda katta mahorat va mehnat talab qiladi.

Xulosa va tavsiyalar

Dramatik teatri aktyorlari sahnada rol ijro etayotganlarida partnyor bilan o‘zaro mezansahnani o‘zlari eslab shu mezansahna orqali rol ijro etishlari kerak bo‘ladi. Qo‘g‘richoq teatri aktyorlari esa nafaqat o‘zi partnyori bilan qo‘lidagi qo‘g‘irchoq va partnyorining qo‘lidagi qo‘g‘irchoq o‘rtasidagi mezansahnani ham inobatga olgan holda rol ijro etishlari kerak bo‘ladi. Qolaversa, qo‘g‘irchoq teatri sahnasida dekoratsiyalar teatr texnikasidan kelib chiqqan holda osma, ya’ni tepadan tushadigan yoki stoyaklar (maxsus ko‘tarib turuvchi ustun) ham bo‘ladi, aktyor rol ijro etayotganda diqqatini yo‘qotsa ustunlarga urilib sahnadagi dekoratsiyani qimirlatib yuborishi mumkin bu esa o‘z navbatida teatr qonun-qoidasiga zid. Bularning barchasi qo‘g‘irchoq teatri aktyoridan dramatik teatri aktyorlaridan-da ko‘proq diqqat va e’tibor talab qiladi.

Qo‘g‘irchoq teatr aktyorlari sahnada tana erkinligi, nafas va ovoz tiniqligi va jarangdorligi, muskullar va mushaklarning chidamliligini oshirish uchun kollej va institut davridanoq sport, sahna nutqi, plastika va vokal darslarini puxta o‘zlashtirmog‘i lozim.

Sahna nutqi – talabalarning nutqi, talaffuzi, artikulyatsiya, diksiya, nafas tutish va ovoz jarangdorligini, ya’ni aktyorning sahnaviy ishchi ovozini mustahkamlashda va yuzaga chiqarishda eng muhim vositadir. “Sahna nutqi” fani teatr san’atida, “Aktyorlik mahorati” fanining yetakchi ifoda vositasi sanaladi. Bo‘lajak aktyorlarni tarbiyalaydi, katta sahnaga yo‘llanma beradi.

Demak, ovoz o‘zgaruvchanligiga erishish uchun birinchi navbatda insonlar va hayvonlar kuzatuvi, har xil multfilmlar tomosha qilish va ertak kitoblar o‘qish yaxshi samara beradi, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 20 oktabrdagi 1280-son Farmoni joriy qilinadigan respublika teatr-konsert tashkilotlari va o‘quv yurtlarining ro‘yxati. internet.uz

2.Ashurova M. Aktyorlik mahoratini o‘qitish metodikasi. T.: 2017.

3. Qodirov M., Qodirova S. Qo‘g‘irchoq teatri tarixi. T.: 2003.

4. MTRK.uz.

5. teatr-kukol.uz.

6. Кириллова Е.И., Латишева Н.А. Сценическое речь в кукольном театре. Санкт-Петербург.: 2014.

7. Usmonov . SH. Plastika. T.: 2019.

8. Inomxojayev. S, Xojayeva. L Badiiy soz mahorati.: T.: 1972.

Рузикулов Санжар.

II-курс Магистратуры,

отделения: Актёр театра кукол

ГИИКУз
Научный руководитель:
Заслуженный артист Узбекистана,
и.о.доцент Ш.Юсупов

Современный театр кукол

АННОТАЦИЯ - В статье представлена информация о реформах, имеющих место в театрах кукол различных стран, на примере спектаклей IVмеждународного фестиваля, проходящего в городе Томске.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: фестиваль / спектакль / жанр и тема / театр кукол/ новый взгляд

Annotasiya - Maqolada Tomsk shahrida bo‘lib o‘tgan IV Xalqaro festival spektakllaridan misol tariqasida turli mamlakatlar qo‘g‘irchoq teatrlarida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida ma’lumot berilgan.

KALİT SO'ZLAR: festival / spektakl / janr va mavzu / qo'g'irchoq teatri / yangi ko'rinish

18-22 августа этого года 14 театральных коллективов из разных точекРоссии, а также из Армении, Беларуси и Узбекистана приняли участие в Международном фестивале театров кукол и детских театров "Сказочный балаган Скомороха", который проходил в Томске в IV раз, со своими красочными работами различного жанра и тем.На фестивале, организованном с большой подготовкой и приподнятым настроением, коллектив Узбекского национального театра кукол под руководством Х.Охунова принял участие в концерте-представлении под названием "Бахорой и Навруз", поставленный им же.

В рамках фестиваля было показано 18 спектаклей и у нас была возможность посмотреть выступления: Алтайского государственного театра кукол "Сказка" (Барнул), спектакль "Странствующая лягушка" реж. П.Овсанникова, Бурятский республиканский театр кукол "Ульгер" реж. Е.Жалсанова по пьесе "Поютшая репке", Могилевский областной театр кукол Республики Беларусь спектакль реж. И.Казаков "Синяя-синяя", Томский областной театр кукол и актера "Скоморох", спектакль реж. И.Казаков "Рождественская история", театр кукол "Золотой ключик" (Железногорск, Красноярский край) реж. И автор пьесы Д.Богданов "Кит плывёт на Север", театр кукол "Пилигримы" (Новосибирск) реж. Е.Кузнецова, работа В.Кузнецова "Невидимый слон", Томский театр юного зрителя реж. Г.Гольдман "Лиза и медведь", театр живых кукол "2+ку" (Томск) реж. И. Казаков. Синегубова "Соло для медвежонка".

Спектакли, представленные на фестивале, несмотря на разнообразие по жанру, содержанию, форме, не оставили равнодушными не только юных зрителей, но и зрителей постарше. Театральный коллектив организаторов фестиваля выступил со спектаклем "Рождественская история", режиссёром которого является И. Казаков.

Это волшебное произведение великого английского писателя Чарльза Диккенса находится в сердцах многих, прославляя идеи гуманизма и проявляя внимание к окружающим и близким. Произведение рассказывает о том, что жизненный выбор дается нелегко, о личной ответственности каждого из нас и о том, что еще никогда не поздно начинать все сначала. Спектакль был поставлен белорусским творческим коллективом и рассчитан на зрителей в возрасте от 12 лет. Именно в канун Рождества главному герою, Скруджу, предоставляется возможность отправиться в свое детство, понаблюдать за своей жизнью со стороны и исправить свои ошибки. Поскольку произведение Диккенса переводится как "рождественская песня", слова автора в пьесе также выражены через песню и исполняются актёрами. В спектакле использовался живой план, а также различные типы кукол, а именно: кукла в образе масштабного (ростового) Скруджа, дети с планшетной куклой, неподвижные куклы, которые проявляют себя как в прошлом главный герой. Используя преимущества современных театральных технологий, видео-анимаций и технические возможности театра, мы можем сказать, что путешествия во времени были показаны с помощью спец-эффектов на высоком уровне.

А ещё нам посчастливилось посмотреть спектакль "Соло для медвежонка" театра кукол "2+КУ live", основанного Владимиром Захаровым, по предложению театрального коллектива и позже посетить его в рамках этого фестиваля.

Уникальные куклы Владимира Захарова признаны кукольниками со всего мира. Об этом пойдет речь в октябре 2019 года на фестивале театра кукол "Гефест", проходившем в Москве, в котором принимали участие не только представители Российской Федерации, но и театры из Великобритании, Японии, Франции, Италии и других стран. Тот факт, что фестиваль был посвящен томскому мастеру-кукольнику, также является примером интереса к типу созданной им куклы на запястье по новым технологиям, признательности и уважения к несравненной работе мастера в дополнение к искусству кукольного театра. Основателем этого замечательного типа кукол, который пленил меня, был Владимир Захаров инженер – механик. Около тридцати лет назад у мастера зародилась мечта создать полноценную, совершенную куклу. Полон решимости он воплотил свою мечту в реальность. Таким образом он сочетает инженерное дело, электронику и театр. Запрограммировав все сценические инструменты, он начинает свою творческую карьеру в качестве режиссера-постановщика и актера основанного им театра. На сегодняшний день Захаров поставил 13 спектаклей, спектакль "Соло для медвежонка" на сцене с 2011 года. Пьеса описывает любовь к лесу и природе в целом. С языка плюшевого мишки говорится о важности сохранения природы, соблюдении чистоты после отдыха на лоне природы и об ответственности за всё это.

Бурятский Республиканский театр кукол “Угьгэр” представил спектакль "Поютшая репке", поставленный Э. Жалцановым, события которого разворачиваются в пышной зеленой роще. Именно здесь маленькие герои – пчелы, бабочки, божьи-коровки, подсолнухи и пять одомашненных существ переживают интересные приключения. Спектакль,

предназначенный для взрослых от 6 лет - музыкальный на бурятском языке "Дууша Репкин Улгер", переводится на русский язык, как "поющая репка". Режиссер обращается к мнению зрителей, приукрашивая сказку, которая стала дорогой всем нам благодаря особым костюмам, пластическим решениям и мелодиям и получила их признание. Пьеса была поставлена на бурятском языке, и была создана возможность прочитать русский перевод через субтитры. Музыкальные мелодии и песни в сочетании с игрой актеров, раскрывающих характерные и забавные черты персонажей, еще больше увеличили зрелищность шоу.

Был показан спектакль Алтайского государственного театра кукол "Сказка" (Барнаул), инсценированного командой режиссера-художника П.Овсянникова "Лягушка-путешественница". Эта сценическая постановка, выполненная для интерактивного общения с юной аудиторией, рассказывает о том, как мечтательная и хвастливая лягушка отправилась в путешествие вместе с утками. Чем дольше и выше утки летям, тем смелее и упрямее Лягушка начинает проявлять свое недовольство: “ой, она устала, и ой, мух мало”. Путешествие, вызвавшее хвастовство Лягушки, закончилось падением в лужу, в то время как Дрейф был окончательным. В спектакле актеры исполняли роли в живом плане с использованием дорожки, а также перчаточными и теневыми куклами.

"Могилевский областной театр кукол" Республики Беларусь. Олноактный спектакль Казакова "СИНЯЯ-СИНЯЯ" рассчитан на зрителей старше 16 лет, а события происходят в воображении героя. Пьеса является проявлением белорусской классической литературы и создана на основе рассказа Короткевича. Главный герой Петрок рассказывает историко-сказочную историю об исторических потерях и достижениях своей родины, чтобы отвлечь девушку, которую мучает боль жажды. В спектакле, увидевшем сцену в жанре моноспектакля, также использовались песочные мультипликации, во время событий которых образы, нарисованные актером, выступают в качестве декораций.

Театр кукол "Золотой ключик" (Железногорск, Красноярский край) выступил на фестивале со спектаклем "Кит плывёт на Север", в постановке и авторстве Д.Богданова.

"Невидимый слон" - впечатляющая и очень нежная история Анны Анисимовой, о нескольких днях девочки, глаза которой лишены способности видеть мир. Спектакль "Спектр", поставленный на основе этой истории не имеет зрительной формы, то есть глазами посмотреть его не удастся. Вам нужно будет надеть маску, чтобы помечтать и воплотить события в жизнь в своем воображении, после чего вы сможете почувствовать приятное прикосновение капель дождя, материнскую любовь, отцовскую заботу, запах маринованных огурцов и утреннего кофе, а так же будете прятаться внутри полки, поучаствуете на выступлении балалайки, где вас развлечет песня, спетая для Слона, и вы проснетесь от звона часов. Затем вы рисуете картинку этого невидимого слона, и в зоопарке вы угощаете его морковью, радуетесь от чистого сердца, а ваши глаза становятся влажными при прикосновении... Оригинальное музыкальное оформление и шумовые эффекты перенесут вас в мир детства. Пьеса создана в форме "когнитивного театра", где события описываются актёрами, а зрители держась за руки с завязанными глазами получают всю эмоциональную наполненность с помощью всех остальных органов чувств.

Спектакли, которые принимали участие в рамках фестиваля, настолько красочны, что мое воображение как зрителя обогащается впечатлениями о вселенной, новыми идеями как профессионального актера, жаждой учиться и создавать новые для меня типы кукол, читать новые произведения, оживлять кукол и создавать яркие образы.

Стоит отметить тот факт, что всем удалось отличиться своей оригинальностью и разнообразностью в совокупности своих необычных рисунков, ярких взглядов и подходв, решённых необычно-новыми способами. Самое радостное – это то, что в каждом уголке мира живет, развивается и ценится искусство театра кукол. В наш век, быстрорастущих и ежеминутно обновляющихся технологий, мы можем видеть, что новые

технологии и мультипликации также занимают особое место в постановках театров кукол. Но порой в некоторых спектаклях умелое исполнение актерами мелодий на музыкальных инструментах и пение живым голосом, усиленный акцент на живой план за счет широкого использования возможностей актерской пластики создают невольное впечатление того, что кукольные персонажи отходят на второй план. Но в любом случае фестиваль, организованный гостеприимным Томском, показал, что проводятся новые исследования, даже не видя театральное представление невооруженным глазом, изучается форма ощущения через органы чувств, устанавливаются новые дружеские отношения и сотрудничество, а также представлен ряд подобных инноваций.

Список использованной литературы:

1. “По ступенькам памяти” С. Образцов (1987)
2. “Необыкновенный Образцов. Хозяин кукольного дома и его семья” Е. Образцова. – М.:Эксмо, 2006 г. Москва.

“Актёр театра кукол” Е. Сперанский – Москва ВТО, 1965 г

“Развитие искусства театра кукол, его этнография и роль в воспитании подрастающего поколения”

Жумаева Севиля Решадовна ГИИКУз Магистрант 1-курса по направлению”Искусство театра кукол". Научный руководитель: доцент В.Юсупова

Аннотация: В данной статье речь идёт о богатой истории искусства театра кукол, его возникновении и развитии во всём мире в том числе и в Узбекистане. Тагже о влиянии искусства театра кукол в развитие и воспитание подрастающего поколения.

Annotatsiya: Ushbu maqolada qogirchoq teatri san’atining boy tarixi, uning butun dunyoda, jumladan Ozbekistonda paydo bolishi va rivojlanishi haqida. Yosh avlodni tarbiyalashda qogirchoq teatri san’atining ta’siri haqida

Abstract: This article is about the rich history of the art of puppet theater, its origin and development all over the world, including in Uzbekistan. About the influence of the art of puppet theater in the development and education of the younger generation.

Ключевые слова: театр,кукла, актёр, искусство театра кукол, образ, пластика, куклы – марионетки, перчаточные куклы, пищик – сафил, театр теней, кукольная игра.

Театр это зеркало общественной жизни. В нём ярко отражаются исторические и современные события происходящие в жизни общества. Театр- это настрящий очаг культуры. Он напрямую связан с умом человека с его духовным потенцеалом. Театр кукол – это один из удивительных видов искусства. Он отличается своей простотой, красотой и чудесной природой. Театр кукол отличается своей богатой историей. Само название “театр кукол” пробуждает в нас самые незабываемые и тёплые чувства связанные детством. Ведь ещё в детстве нашим первым самым верным и близким другом становилась кукла. Играя с ней в детстве мы воспринимали её как живую, родную душу. В театре кукол актёр кукловод с помощью неодушевлённых, немых, простых кукол художественно и правдиво изображает человеческую жизнь . Одушевляя куклу он дарит детям много удовольствий , рассказывая им о дружбе, справедливости и чесности.

Кукловод показывает жизнь через образ кукол и маленькие зрители смотрят его с верой и преданностью.

Как говорил С.В. Образцов “Без актёра кукла только предмет. Только скульптура и не более. Она может быть очень хороша на витрине выставки и оказатся беспомощной и жалкой в руках плохого актёра. Настоящий хороший актёр со всеми присущими актёру свойствами, талантом, темпераментом, голосом, умением верить в правду невероятную, только он даст кукле душу и тогда кукла становится всемогущей.

Если говорить об истории возникновения театра кукол, то это очень старинный вид искусства, который возник в древнии времена. Древнегреческий историк Геродот описывал нечто напиминающее кукольное действие в 490-425гг до н. э. В шумном празднике в честь бога Диониса участвовали ряженные с куклами-марионеткам Театр кукол существовал в многих государствах, даже в таких которые ныне не существуют, подобных Древнему Египту.

Как писал в своих римский историк А.Т. Ливий в древних летописях в гробницах древнеегипетских детей археологами были найдены найдены куклы и фигурки животных. По мнению археологов куклы с механизмами были изобретены именно в Древнем Египте. Сейчас их можно увидеть в различных музеях мира например в Британском, Берлинском и Нью-Йоркском музее. Тагже театр кукол был распрастанён на Западе и на Востоке. Этот вид искусства был самым любимым развлечением народа. Без него не праводили ни одно празничное веселье. В Древнем Египте женщины ходили из одной деревни в другую и пели песни. Они при несли в руках маленькие куклы и с помощью нитей или же верёвок приводили их в движения. В Древнем Риме в каждой семье была своя коллекция кукол.Со временем когда к ним приходили гости они стали устраивать короткие представления с помощью своей коллекции кукол. В странах Европы

артисты кукольники ходили по городам и сёлам и показывали с помощью кукол представления из истории рождения Христа.

В Средней Азии в том числе и в Узбекистане на протяжении многих веков развивалось искусство театра кукол. В Узбекистане как писал известный историк театра кукол М. Кодиров Театр кукол до 30 годов хх века в обиходе назывался “ кугирчок уйин”

(дословно – кукольная игра) А исполнитель – кукловод Театр кукол в Узбекистане разделялся на три вида. Это “ театр чодир жамол”; “театр чодир хаёл” и “театр фонус хаёл” Он органический входил в традиционную программу празнеств и гуляний городов и сёл Узбекистана

“Чодир жамол” это театр перчаточных кукол, героем которого является “Палван Качал” Театр “ Чодир жамол”в основном показывали свои представления на семейных торжествах, на днях рождения, на свадьбах и на улицах.

Как говорил М. Кодиров “Чодир жамол”- это театр, в котором представления почерпнуты из повсевдневной жизни, показаваемые днём, с помощью кукол надеваемых на пальцы рук. Актёр в театре кукол “ Чодир жамол” говорил особым “ кукольным языком”с помощью пищика –сафил. С помощью него он мог изменять голоса и добиться нужного эффекта. В театре кукол “ Чодир жамол” были в основном сатирические персонажи. У кукол этого типа имелась голова, руки а туловищем для него служила рука актёра. В театре “ Чодир жамол” в эпизодах могли участвовать не более 20ти кукол. В спектаклях могли принять участие только 6-12 кукол.

Театр “ Чодир хаёл” это театр в котором использовались куклы-марионетки. По сравнению с театром “ Чодир жамол” театр “Чодир хаёл” имел более сложную структуру. Куклы- марионетки по строению были на много сложнее. Актёры управляли ими с помощью нитей или же прутьев. У них были голова, руки, ноги и были они сделаны намного сложнее. В

представлениях театра “ Чодир хаёл” принимали участие 40-50 кукол. Представления этого вида театра в основном ставились в закрытом помещении. В отличии от театра “Чодир жамол” в театре ”Чодир хаёл” представления ставились только вечером и в основном на больших государственных и народных праздниках .

Театр теней “ Фонус хаёл” это форма визуального искусства, В театре этого вида использовался полупразрачный экран и плоские марионетки управляемые на тонких палочках. В своих рубайи поэт Омар Хайям очень красиво описывал театр теней:

Этот мир-эти горы , доля и моря-

Как волшебный фонарь. Словно лампа,заря.

Жизнь твоя- на стекло нанесённый рисунок,

Неподвижно застывший внутри фаноря.

Театр кукол в Узбекистана пережил тысячалетия, десятки исторических укладов .В 1928 году была открыта первая театральная студия кукол в театре Юнного зрителя,которую возгловлял Тошпулат Данияров. После 10 лет успешной работы в 1939 году 25 декабря был основан Республиканский театр кукол. При театре тагже расположен музей кукол.

Театр кукол это театр сказок олицетворение добра в серцах юнных зрителей. Чем больше подрастающее поколение будет посещать театр тем больше в нём будут просыпаться самые добрые чувства.

“ Театр это волшебный мир. Он даёт уроки красоты, морали, и нравственности. А чем они богаче, тем успешнее идёт развитие духовного мира детей..” так цитировал Б. М. Теплов

Театр кукол имеет огромное значение в духовном развитии детей. Благодаря ему у ребёнка развивается речевая культура, умственное развитие. Ребёнок познаёт мир у него появляется интерес к творчеству. Особенно театр кукол

имеет очень большое влияние на подрастающее поколение так как во время спектакля они живут с событиями героев, думают о них, чувствуют события того времени.Когда герои плачут, это заставляет их плакать, когда смеются, смеятся и в этом загадочность театра кукол, так как это место духовного воспитания ребёнка.

Театр кукол – его необыкновенная и богатая история, сказочный мир, мир добра, это любимое место не только для детей но и для взрослых. В наши дни Кукольные театры Узбекистана посетили много стран с гостролями. Национальный кукольный театр становился неоднократным победителем Республиканских фестивалей. Спектакли интересны не только для детей но тагже и для взрослых. Кукольный театр играет очень важную роль в развитии и воспитании подрастающего поколения .Он пробуждает любовь к искусству а это в свою очередь пробуждает у ребёнка такие качества как, доброта, искренность и хорошее воспитание!

Одним словом , современное искусство театра кукол имеет огромное значение в формировании мировозрения у подрастающего поколения.

Как говорил К.С.Станиславский- “ Театр- искусство прекрасное, оно облагораживает, воспитывает человека. Тот кто любит театр по настоящему, всегда уносит из него запас мудрости и

доброты!”

Список использованной литературы

1 М. Х. Ашурова “Актёрское мастерство”Ташкент 2021 г.

2 М. А. Венецианова” Мастерство актёра”Москва 1961 г.

3 М. Кадыров “ Узбекский традиционный театр кукол” Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма 1979 г.

4 М. Королёв “Искусство театра кукол” Издательство “Искусство”Ленинградское отделение 1973 г.

5 М.Х. Ашурова “ Первичные основы мастерства актёра театра кукол”Ташкент 1994 г.

6 С. Образцов “ Театр кукол” Москва 1981г.

7 М. Умаров, Т. Юлдашев “Основы режиссёрского и актёрского мастерства” Ташкент 2016г.

8 К. С. Станиславский “ Работа актёра над собой” Государственное издательство” Искусство” 1935г.

9 М. Х. Ашурова “ Методика обучения актёрскому мастерству”Ташкент 2020г.

10 А. Федотов “ Техника театра кукол” 1953 г.

11 О. Цехновицер История народного кукольного театра в Азии и Европе “Театр Петрушки” Госиздат 1927г.

Болаларни маънавий камол топишида замонавий қўғирчоқ театрларининг ўрни

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият иститути

“Театр санъати” факултети

“Қўғирчоқ театр режиссерлиги” йўналиши

4-босқич талабаси

Асадова Мунисахон Ғуломовна

Бадиий раҳбар профессор: Марям Ашурова

Аннотация: Болаларни камол топиши, маънавий ва маърифий ўсиб тарбия олишида қўғирчоқ театрларининг ўрни. Қўғирчоқ театрларида болалар учун ўйин майдончаларини яратиш масалалари. Имконияти чекланган болалар мактабида қўғирчоқ театр тўгаракларини очиш.Ёш драматург ва

режиссерларни моддий ва маънавий қўллаб-қувватлаш масалалари кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: Драматург, театр, репертуар, санъатшунос, имконияти чекланган болалар мактаби.

Аннотация: В статье рассматриваются современний кукольный театр, а также роль кукольного театра в воспитании и развитие детей. Создавать игровые площадки для детей в каждом кукольном театре. Открытие кукольного кружка в школах для детей с ограниченными возможностями. А также рассмотрена материальная и моральная поддержка молодых драматургов и режиссеров.

Ключевые слова: Драматург, театр, репертуар, Искусствовед, Сообщество инвалидов, кружок.

Abstract: The article deals with the modern puppet theater, as well as the role of it in the children upbringing and development. Creating playgrounds for children in every single puppet theater, opening extra classes of puppet at schools for children with disabilities. Moreover, the material and moral support of young playwrights and directors is considered.

Key words: Playwright, theatre, repertoire, society of disabled, extra curricular activities.

Қўғирчоқ театри хар қандай санъат тури каби ўз тарихи ва анъаналарига эга.Қўғирчоқ театрининг илдизлари узоқ ўтмишга бориб тақалади.Маълумки, биринчи қўғирчоқ театрлари инсоният ривожланиши билан бирга пайдо бўлган.Ўзининг ғайриоддий сеҳрли мухити, ранг-баранглиги ва мусиқий жўрлиги билан асрлар давомида инсониятни ўзига жалб этиб келаетган санъат тури ҳисобланади. Қўғирчоқ театри бошқа санъат турларидан ўзининг мукаммаллиги, жозибадорлиги билан ажралиб туради. Жонсиз қўгирчоқларнинг жонланиши томошабинни ўзига жалб этибгина қолмай уларни эртаклар ва яхшиликлар оламига олиб киради.

Бу санъат тури мураккаб ва мўжизакор куринишларини қўғирчоқлар ёрдамида тасвирлайди. Қўгирчоқ театрининг замонавий ҳаетда ўрни беқиес, қўғирчоқлар нафақат жонланишади ва яна кўп функционаллиги билан ҳозирги давр томошабинларини ўзига ром эта олади десак муболаға бўлмайди. Қўғирчоқ театрининг имкониятлари беқиёс, Республикамизда қўғирчоқ театрлари учун намуна бўладиган Республика қўғирчоқ театри фаолиятига разм соладиган бўлсак ёшларни манъавий, маърифий, ўсишида уни хақиқий инсон бўлиб тарбияланишида кенг имкониятларга эга.

Бугунги кунда қўғирчоқ театрлари кечагидан яхшироқ ва мукаммалроқ бўлиши лозим. Ўсиб келаетган болаларнинг маънавий камол топиши қўғирчоқ театрларининг зиммасида туради. Ҳозирги кунда Республика Миллий Қўғирчоқ театрида миллий ва чет эл руҳида спектакллар намойиш этилмоқда. Масалан: “Ур тўқмоқ” (Эвелина Арипова) “Баҳром ва Дилором” (Шомурод Юсупов) “Алдар Кўса” (Динара Юлдашева) “Ўткир шохли буқача”(Фатҳулла Ҳўжаев) ва бошқа спектакллар рус ва ўзбек тилларида томошабинларга тақдим этилмоқда. Қўғирчоқ театри мактабгача таълим муассасасидан бошлаб катта ёшдаги томошабинларни хам қизиқтира олиши керак. Болалар қўғирчоқ театрига кирганидан сўнг театрдаги муҳит сеҳрли эртаклар ва яхшиликлар оламидан завқланиши лозим. Болалар маънавий камол топишида эртак қахрамонлари ижобий рол ўйнайди.Болалар нафақат эртак қахрамонларидан завқланиши ва яна ижобий қахрамонларга ўхшашга харакат қилиши учун болаларда хиссиёт уйгониши керак. Ўсиб, вояга етиб келаетган болалар учун қўғирчоқ театри ҳақиқий тарбия масканига айланиши лозим. Бугунги куннинг долзарб масалаларидан бири қўғирчоқ театрларининг ўзида болаларни спектакл намойишидан олдин театр муҳитига мослашиши, қолаверса болани театр оламига олиб киришга хизмат қиладиган маданий ҳордиқ майдончалари ва улар турли ҳил ўйинчоқлар билан безатилган бўлиши лозим. Айниқса, театрнинг ҳар бир бурчагида эртак қахрамонлари акс эттирилган қўғирчоқлар бўлса болани санъатга меҳри ва қизиқишлари янада ортади. Энг асосийси театрда болалар ва

катталар ўртасида дўстона муҳит яратилиши, шунингдек катталарга нисбатан хурмат ва ишончни болаларда уйготишида қўғирчоқ театрларининг ўрни беқиесдир.

Яна бир масала имконияти чекланган болалар тарбия масканларида мактаб интернатларида ҳам қўгирчоқ тўгараклари ишини жонлантириш ва уларни хар бир тарбия масканида ташкил қилинишини таъминлаш лозим.

Қўғирчоқ тўгараги болаларда ритм, нутқ, эркинликни шакиллантириш билан биргаликда дўстлик, меҳр, бир-бирига узаро ёрдам улашиши каби ижобий фазилатларни шакиллантиради. Болалар билан қўғирчоқ қахрамонларини ясаш уларни фантазиясини ошириб, шунингдек тенгдошлари билан мулоқот қилиш, биргаликда рол ижро қилиш уларда ижобий кўникмаларини шакиллантиради.

Масаланинг иккинчи қисмига қаратадиган бўлсак қўғирчоқ театр репертуарларини янада бойитиш бугунги кунда катта масала ҳисобланади, яъни қуғирчоқ театрларида қўйилаётган спектакллар репертуари қайта кўриб чиқилиши лозим. Спекталларда анъана, удум, қадриятларини ривожлвнтириш ҳалқ эртаклари, достонлар, қахрамонлар образлари замонавий қахрамонлар қиёфасида гавдалантириши ёш томошабинни езъгуликга, мардликга, меҳр оқибат юксак инсоний фазилатларни намоён қилишга ундаши лозим. Замонавий спектаклларни яратиш учун такрор ва такрор қўйилиб келаетган асарлар ўрнига ҳалқ эртак қахрамонларини замонавий талқинда яратиш керак. Шу ўринда ёш драматург ва режиссерларни ҳам моддий ҳам маънавий қўллаб-қувватлаш бугунги куннинг долзарб масалаларидан биридир. Ёш драматург пъесаларини саҳнага чиқгунига қадар бўлган жараённда режиссер ва драматургнинг узвий хамкорлиги зарур. Юқори даражадаги замонавий спектаклларни яратилиши уларнинг доимий хамкорлигига боғлиқ.

Бугунги кунда қўғирчоқ театрларида юқори даражадаги сифат ва самарадорликга эришиш учун драматург ва режиссерлар уртасида ижодий

жараенни яратиш билан биргаликда уларни моддий қуллаб қувватлшни ошириб бориши керак. Қўғирчоқ театрлари саҳнасида қўйилаетган хар бир спектаклни кенг миқиесда вилоятлараро ҳатто ҳалқаро фестивалларда доимий равишда қатнашиб боришини таминлаш керак.

Хулоса қилиб айтганда замонавий қўғирчоқ театрлари болаларни маънавий камол топишида беқиес ўринга эга. Хар бир санъатшунос, қўғирчоқ театрига масъул булган мутахассис хамкорлигида яратилган сахна асари ўзининг замонавийлиги, ёш томошабиннинг ўзига жалб қила оладиган даражада мукаммал бўлиши қўғирчоқ театрларининг янада ривожланишида катта хизмат қилади деб хисоблаймиз.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ashurova M. Aktyorlik mahotati.(Qo’g’irchoq teatri san’atida aktyorlik mahorati) : darslik.-Toshkent Inovatsiya Ziyo, 2021.-210b.
2. Qodirov M.X O’zbek milliy qo’g’irchoq teatri.-Toshkent;
3. Gavrilov M.F Kukolniy teatr Uzbekistana.-Toshkent,1928
4. Korolyov M.M. Iskusstvo teatra kukol.Rejissura teatra kukol.Sang-Peterburg 2015.

"QO'GIRCHOQ TEATR SPEKTAKLLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUV"

Rajabov Ruslan

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

3-kurs Qo‘g‘irchoq teatr aktyorligi

ta’lim yo‘nalish talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada san’at turlari orasida eng qadimiy, hamma teatrlarning beshigi bo‘lgan qo‘g‘irchoq teatri san’ati, rivojlanish bosqichlari, zamonaviy integratsiyasi borasida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: qog‘irchoq teatri, integratsiya, estetik tarbiya, san’at

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 26-maydagi ПФ-6000-son Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek respublika hududlarida teatr san'atining boy an'analarini yanada yuksaltirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Navoiy, Toshkent, Namangan va Sirdaryo viloyatlari hokimliklarining:

Navoiy va Toshkent viloyatlarida - Qo'g'irchoq teatrlari (keyingi o'rinlarda - davlat teatrlari) faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

2. Belgilab qo'yilsinki: davlat teatrlari davlat muassasasi xisoblanadi; Davlat teatrlarini boshqarish va moliyalashtirish Vazirlar Mahkamasining "Davlat teatrlari va konsert-tomosha muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 18-apreldagi 329-son qaroriga muvofiq amalga oshiriladi. Bu nimadan dalolat beradi, sababi qo'g'irchoq teatr san'atida aynan o'sib kelayotgan jajji bolajonlarda, Vatanga muhabbat, sadoqat, iymon, diyonat, yaxshilik va yomonlikni ajrata bilishi uchun eng birinchi ilk qadamini, ilk poydevorini aynan qo'g'irchoq teatr san'ati tomonidan qo'yilishini, nafaqat shu

soha mutaxasislari balki bu narsaga davlat rahbari ham etibor qaratgan holda shu san'at sohasiga ko'proq urg'u berib boshlandi, va bugungi kunda Respublikada 10 ta faoliyat olib borayotgan bo'lsa, bundan tashqari tepada aytib o'tganimdek Sirdaryo, Navoiy, Namanganda, Toshkent viloyatida ham Prezidentimiz farmoni bilan Teatr binolari qurilyapti, va u yerga ham teatr jamoasi o'z faoliyatini boshlash arafasida turibti.

Tarixga nazar soladigan bo'lsak 1939-yil 19-martda O'zbek yosh tomoshabinlar teatri qoshidagi qo'g'irchoq teatri bilan pionerlar saroyi qoshidagi rus qo'g'irchoq teatri asosida yagona Respublika qo'g'irchoq teatri tashkil topadi. Teatrga direktor va badiiy rahbar qilib Yo'ldosh A'zamov tayinlanadi. Teatr zimmasiga viloyatlarda ish olib borayotgan qo'g'irchoq teatrlariga ijodiy yordam ko'rsatish vazifasi yuklanadi. Yangi teatrning dastlabki yillari ikkinchi jahon urushining og'ir va suronli davriga to'g'ri keldi. Yetishmovchilik ko'p edi. Biroq teatr jamoasi uyushib, kamchiliklarni bartaraf etib, faqat bolalarga emas, kattalarga ham tabassum ulashish, ularda g'alabaga ishonch ruhini kuchaytirish yo'lida g'ayrat ko'rsatdi. Teatr urush yillarida qirqqa yaqin spektakl hamda konsert namoyish etdi. "O'z ishining ustalari - teatr direktori R.L.Ananeva, haykaltarosh rassom Yeo L.Podgurskaya, qo'g'irchoqbozlar P.Doniyorov, Z.Ishoqova, A.Saydaliyev, V.M.Gryaznova Shumpanova, N.Zayniddinovlar sadoqat bilan teatrga xizmat qildilar". Ammo teatr o'z yo'lini birdaniga topib olgan emas. Qiyinchiliklar ko'p bo'lgan. Texnik imkoniyatlarning nochorligi, milliy asarlarning tanqisligi shunday teatrning shakllanish davridagi qiyinchiliklaridan edi. Teatr o'z dramaturgiyasini, o'z ijro uslubini topishi uchun tinimsiz mehnat qilishiga to'g'ri keladi. 50-yillarga kelib teatr ancha tajriba orttiradi va ko'pgina o'zbek mualliflarining asarlarini sahnaga qo'yadi. "Ziyod botir" (N.Habibullayev), "To'ti va Qumri" (M.Muhamedov), "O'rmondagi hodisa" (S.Abduqahhor) kabi spektakllar shular jumlasidandir. Ijodiy jamoa, ayniqsa, o'zbek va rus tillarida o'ynalgan "Aldar Ko'sa" (A.Bichkov asari) spektaklida katta muvaffaqiyat qozonadi. Shu davrda ikki bo'lim - o'zbek va rus ijodiy guruhlari shakllanadi. Ammo hech qachon ulaming orasida qat'iy chegara bo'lmagan. Bir badiiy rahbar

qo'l ostida ishlab, bir-birlariga yordam berishgan.

1964-yilda qo'g'irchoq teatriga yaqin rejissyorlar L.Boboxonov va A.Qobulov "Rahim va qo'ng'iz" pyesasini yozishadi. Unda zamonaviy voqelik ertak va qo'g'irchoq teatri vositalari bilan yoritiladi. Rahim degan bola Qo'ng'izni tutib oladi. Biroq Qo'ng'iz sehrgar bo'lib, Rahimni o'ziday kichkina odamchaga aylantirib, yerto'laga qamab qo'yadi. Bu yerda Rahim porox bermagani uchun Qo'ng'iz tomonidan jazolangan Paxtaga duch keladi. Rahim ko'p sarguzashtlarni boshidan kechiradi, biroq aql-farosat bilan yovuz Qo'ng'izni yengadi. Rassom V.Akudinning ajoyib bezagi, aktyorlaming berilib ijro etishi tufayli spektakl qiziqarli bo'lib chiqqan.

60- yillar va 70-yillaming birinchi yarmi o'zbek qo'g'irchoq teatri tarixida muhim bosqich bo'ldi. Bu davrda Respublika qo'g'irchoq teatri, keyin Andijon "Lola" teatri ham sahna mahoratini oshirish, zamonaviy dekoratsiya, chodir va qo'g'irchoqlaming yuqori saviyali qilib ishlash, yangi asarlarga taniqli kompozitorlarni jalb etish, jam va mavzulaming rang-barangligiga erishish harakatida bo'ldi. S.logelsen va I.Yoqubovning rassom V.Akudin bilan hamkorligi yaxshi samaralar keltirdi. O'zbek tilida barqaror repertuar yuzaga keldi. Shu bilan bir qatorda Respublika qo'g'irchoq teatrida o'zbek guruhining tez-tez o'zgarib turishi, rus tilidagi spektakllarga ko'proq e'tibor berilishi, ba'zi spektakllarning drama teatrlaridan jalb qilingan aktyorlar ijrosida yozib olinib, tub ijrochilar tomonidan mexanik tarzda namoyish etilishi kabi nuqsonlar bo'lganini ham aytib o'tish kerak.

"Oltin jo'ja"da atigi uchta personaj qatnashadi: Tulki, Bo'ri va Jo'ja. Tulki bilan Bo'ri oltin tuxumni o'g'irlab, uni katta qilib o'stirib sotmoqchi bo'lishadi. Biroq oltin tuxumdan oddiy jo'ja chiqadi. Yirtqich Bo'ri mehribon otaga aylanadi. ularning o'zaro munosabatlari maroqli ishlangan. Asli rassom S.Seduxin qo'g'irchoqlarni ifodali qilib ishlagan va ularni o'ynatganda ham o'sha ifodaviylik saqlanishiga intilgan.

Bugungi kunga kelib: 1993-yili teatrga Shomurod Yusupov bosh rejissyor etib tayinlandi. Rejissyor Sh.Yusupovning an'anaviy teatr turlarini zamonaviy

sahnada tiklash borasidagi urinishlari e'tiborli bo'ldi. Ilk bor Buxoro teatrida sahnalashtirilgan "Chodir jamol" spektaklini Toshkentda ham tikladi. Unda oltita latifa ko'rsatiladi. Uch paranji ortidan uch doirachi chiqib, doira chalishda musobaqa qilishadi. Keyin chachvon ko'tarilib, ko'tarinki kayfiyatda Kachal polvon ko'rinadi va korfarmon bilan muloqotga kirishadi. An'anaviy sujet qayta ishlanib boyitilgan: Kachal polvonni xotini Bichaxon tashlab ketgan bo'ladi, keyin yarashadi, to'y bo'ladi, to'yda Kachal ko'p meva yeb qo'yib, qorni og'rib qoladi, xitoy tabibi kelib uni davolaydi; Kachal polvon qozini aldab, tarvuz sotadi va hokazo. Spektakl garchi "Chodir jamol" deb atalgan bo'lsa-da, unda ba'zi voqealar iplar yordamida harakatga keltiruvchi "Chodir xayol" va soya teatri bo'lmish "Fonus xayol" vositalaridan ham foydalanilganini ko'ramiz. Umuman olganda, qo'g'irchoq teatri san'atining ijodiy salohiyati va imkoniyati bitmas-tuganmasdir. Bundan keyin ham yangi-yangi shakllarni, ifoda vositalarini ixtiro qilish mumkin. Bu jihatdan teatr san'atining hech bir boshqa turi qo'g'irchoq teatri bilan bellasha olmaydi.

Oldin qo'g'irchoq teatri faqat yoshi kattalar uchun ishlangan ya'ni qo'g'irchoq teatrining ham o'ziga yarasha falsafasi ma'no mantig'i bor, keyinchalik u zamonaviylashib faqat maktab va bog'cha bolalari uchun qo'yiladigan bo'lib qoldi va natijada yoshi kattalar uchun xech qanaqa spektakl ishlanmadi faqat bolajonlarga xos bo'lgan ertak, hikoya, bolalar adabiyotidan spektakllar qo'yila boshlandi, bu ham o'z davrida zamonaviylikning o'ziga xosligidir, chunki bolalarning dunyo qarashi, uning fikrlari, yaxshi va yomonni ajratishi uchun qo'g'irchoq teatrining o'rni bequyosdir. Bugungi kunga kelib o'sha oldingi an'ana yana qayta takomillashib zamonaviylashib qo'g'irchoq teatri faqatgina bolalar uchun emas balki yoshi kattalar uchun ham bir biridan ajoyib bo'lgan spektakllar qo'yishni boshladilar va oldingi an'anani zamonaviy yo'nalishda tiklanganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Masalan bugungi kunda ko'rishimiz mumkinki ko'p yoshi katta insonlar "YOSH TOMOSHABINLAR TEATRI" ga spektakl ko'rgani borishadi, chunki u yerda jonli sahnada aktyorlarning o'zlari ro'l bajarib spektakl o'ynashadi, endi unga xos "O'zbekiston milliy qo'g'irchoq teatri" da ham xozirgi

kunda yoshidan qat'iy o'laroq kattayu kichik tomoshabinlar tashrif buyurganiga guvoh bo'lamiz, bu ham zamonaviylikdan dalolatdur. Unga misol qilib aytish mumkinki joriy yilning iyun oyida "O'zbekiston milliy qo'g'irchoq teatri" da qo'g'irchoq teatri festivali bo'lib o'tdi, unga butun O'zbekistondagi jami qo'g'irchoq teatrlari har xil o'zlarining alohida spektakllari bilan ishtirok etishdi. Shularning ichidan spektaklga zamonaviy yondashuv qilinganlardan biri bu "Alisher Navoiyning Hamsa asaridan Sab'ai sayyor ya'ni Bahrom va Dilorom" dir, spektakl rejissori Milliy qo'g'irchoq teatrining bosh rejissori Sh.Yusupovdir. Spektaklning yutuq tomonlaridan biri hali tepada takidlaganimdek yoshi katta insonlar uchun sahnalashtirilgan spektakldur, chunki A.Navoiyning Hamsa asarini ko'p yoshi kichkina bolajonlarimiz asarning mag'zini tushuna olmaydi, ikkinchi tarafi undagi Dekoratsiya (sahna bezaklari, rekvizit, butafor va h.k) larning u sahnadan bu sahnaga o'tish jarayonida shunaqa zamonaviy yondashilganki sahnada aktrisalar bir buyumni boshqa joyga qo'yish uchun yoki boshqa sahna yaratish uchun o'ziga xos jilovkor raqs orqali sahnadan chiqib ketmagan holda harakatlar orqali shu ishni amalga oshirishgan, eng nozik tomoni shundaki ularni bir harakati ikkinchisiga o'xshamagan yangi topilmalar yangi g'oyalar harakatlar orqali bu ishni uddalashgan bu ham o'z o'rnida rejissorning katta yutug'i desak adashmagan bo'lamiz. Boshqa teatr jamoalari ham o'ziga xos zamonaviy yondashgan, hozirgi kun talabiga xos bo'lgan spektakllari bilan qatnashishdi. Va bu an'ana hali ancha yillar yoshi kattayu kichik tomoshabinlar uchun xizmat qiladi degan umiddaman. Qisqa qilib aytganda mana shu misollar orqali Zamonaviy yo'nalishlarning yangidan yangi usullarini ko'rishimiz mumkin... Umuman olganda, qo'g'irchoq teatrlarimizning salohiyati va imkoniyatlari katta. Ular har qanday taraqqiy etgan xorijiy mamlakatda ham o'z san'atlarini ko'z-ko'z qilishga qodir. Maqolamning oxirgi baytlarini M.Qodirovning chiroyli jumlalari bilan yakunlamoqchiman,

"KECHA CHODIR HAYOLDIR,
KUNDUZ CHODIR JAMOLDIR..." I love Puppet master's.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. M.Qodirov.Teatr san`ati o`tmishdan lavhalar.Toshkent.Fan nashriyoti 1993 yil.163b.
2. https://uz.wikinlu.ru/wiki/puppetry
3. Respublika davlat qo`g`irchoq teatrlarini professional faoliyatini takomillashtirishning ilmiy-amaliy yechimlari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy seminar materiallaridan
4. https://yuz.uz/uz/news/bolalik--dunyosida--ezgulik--uygotib-yoxud-qogirchoq-teatridan-katta-teatr-sari

Yosh rejissyor kadrlarni tarbiyalashda oliy ta’lim va teatrlarning o’rni va ahamiyati.

Mamadiyorova Shodiya Yanvar qizi O’zbekiaton Davlat san’at va madaniyat instituti Qo’g’irchoq teatr rejissyorligi ta’lim yonalishi 4-kurs talabasi.

Badiiy rahbar kafedraning professori Maryam Ashurova.

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasasini tamomlagan yoshlarning hayotdagi o’z o’rnini egallashi; o’z sohasi bo’yicha amaliyotda yanada chuqur malaka egasi bo’lishi; yangi ijodiy ish va izlanishlar olib borishi; teatr ravnaqiga hissa qo’shishi uchun oliy ta’lim muassasasi va teatrlarning o’zaro aloqalari hamda ko’maklashishlari muhim o’rin tutishi haqidagi fikrlar ilgari surilgan.

Kalit sozlar : Teatr, professional, yoshlar, rejissyor, spektakl, debyut, debyutant, tomoshabin, qo’g’irchoq, texnologiya.

Annotation in this article includes: Young people who have graduated from a higher education and their position in life; to have a more depth quality of education, experience and practice; conducting new creative work and research; These opinions were put forward that the interaction and cooperation between the

higher education institution and the theaters play an important role in order to contribute to the development of the theater.

Key words: theater, professional, youth, director, performance, debut,debutante,puppet,audience, technology.

Аннотация: В данной статье малое место в жизни занимают молодые люди; окончившие высшее учебное заведение; иметь более глубокую квалификацию в области практики; проведение новой творческой работы и исследований ; Высказывались мнения, что взаимодействие и сотрудничество между высшем учебным заведением и театрами играют важную роль в том, чтобы способствовать развитию театра.

Ключевые слова: театр, профессионал, молодежь, режиссер, спектакль, дебют, дебютант, кукла, зритель, технология.

Ushbu maqolamning ilk qismini ustozimiz O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan yoshlar murabbiysi, O’zbekiston Davlat san’at va madaniyat instituti “Qo’g’irchoq sanati” kafedrasi professori Maryam Ashurovaning “Qo’g’irchoq teatrining ijodiy ishi ya’ni uning spektakli yuqori professional darajada bo’lib, yosh tomoshabinlarni ma’naviy hamda ularning g’oyaviy dunyoqarashini shakllanishida katta maktab hisoblanadi”1- degan so’zlari bilan boshlashni joiz deb bildim. Haqiqattan ham, teatr- yoshlarning ongiga ham ruhiy , ham ma’naviy ozuqa berib, ularni xalqparvar,mehnatsevar hamda vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda yetakchi omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham teatrda faoliyat ko’rsatayotgan barcha hodimlar aynan professional bo’lishlari va zamon bilan hamnafas bo’lgan yoshlarga ham yo’l ochib berishlari shart va zarurdir.

Bilamizki, biz kabi yoshlar ko’pyillik malakaga ega ustozlar qo’lida tahsil olamiz va ustozlarimiz M.Ashurova, A.Abduhalilov, L.Usmonova va K.Jabborova kabi yetuk mutahassislarning bergan bilim va tarbiyalari asosida kelajakka poydevor quramiz desak mubolag’a bo’lmaydi. Shu boisdan biz

yoshlarni ilk mustaqil ishlarimizni namoyish qilishda va sohamiz boyicha teatrlarda o'z ish o'rinlarimizga ega bolishimizda Oliy ta'lim muassasasi va viloyat teatrlarining o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yib yoshlarga yanada yengillik yaratishlari lozimligini aytib o'tishimiz zarurdir. Ushbu oliy ta'lim muassasasining bitiruvchi talabalari o'quv yili yakunida o'z ijodiy ishlarini ya'ni spektakllarini namoyish etishlari barchamizga ma'lumdir. Bo'lajak qo'g'irchoq teatr rejissyorlarining tanlagan kasblari esa qo'g'irchoq aktyorlarikidan ikki barobar qiyin ekanligi ayni haqiqat. Bu haqda J.Mahmudov va H.Mahmudovalarning rejissura asoslari darsligida shunday deyilgan: " Rejissyorlik kasbi ko'p tarmoqli ijodiy faoliyat va tasavvur qila olish salohiyatiga ega chuqur bilim hamda aktyorlik mahorati va rejissyorlik sirlarini mukammal egallashlikni talab qiladi. Rejissyorlik kasbi kabi bir qancha soha mutaxassisligi , ko'p qirrali iqtidor, mahoratni talab qiladigan soha kam uchraydi. Faqat rejissyorgina barcha harakatlarni maqsad va bir g'oya atrofida birlashtira oladi"2. Bir so'z bilan aytganda, rejissyor – mukammal shaxs. Shuning uchun ham teatr jamoasi biz yosh rejissyorlarni yurtimiz kelajagi uchun foyda keltiradigan yangidan-yangi g'oyalar, yangicha fikrlar bilan qarshi olib, imkoniyat yaratib bersalar nur ustiga a'lo nur bo'lar edi. Axir "Kelajak yoshlar qo'lida"3- deb ta'kidlagan edilar muhtaram prezidentimiz **I.A.Karimov**.

O'ylaymizki, ushbu masalalarga kuchli e'tibor qaratilib, teatrdagi tizimga yana yangiliklar kiritilsa, qo'g'irchoq teatri san'ati sohasida yanada yuksak cho'qqilarni egallashimiz mumkin va buning uchun Oliy ta'lim hamda kelgusida bizni qarshi oladigan teatrlarning ahamiyati juda kattadir.

Yaqinda yurtimizda o'tkazilgan Respublika teatrlarining yosh rejissyorlari tomonidan sahnalashtirilgan spektakllar o'rtasida "**DEBYUT-2022"** *VII Respublika ko'rik-festivali* bo'lib o'tdi.

Bunda : **1- darajali diplom** bilan Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatrining sahnalashtiruvchi rejissyori **Ruslan Sherezdanov** "Payatsi" spektakli uchun;

2-darajali diplom bilan Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatrining sahnalashtiruvchi rejissyori **Sultanbek Kallibekov** “Qo’rqit ota” Spektakli uchun;

3-darajali diplom bilan Jizzax viloyati qo’g’irchoq teatri aktyori **Behzod Soriyev** “Quvnoq ayiqchalar” spektakli uchun taqdirlandilar.

Eng quvonarli tomoni shundaki, festivalda ishtirok etgan barcha debyutant rejissyorlar noyabr oyining birinchi 10 kunligida Madaniyat Vazirligi tomonidan Turkiya davlatiga malaka oshirishga jo’natilishi aytib o’tildi. Demak, bundan ma’lum bo’ladiki bizning bundan keyingi teatrlarda olib boradigan ish faoliyatimiz ham ahamiyatlidir. Ushbu debyutantlar ham tinimsiz mehnat va o’z bilim salohiyatlari, teatr jamoasining qo’llab-quvvatlashi natijasida ushbu yutuqlarga erishdilar. O’ylaymanki, yuqorida aytib o’tilgan fikrlar o’z kuchini ko’rsatsa bunday yutuqlardan ham ortiqrog’iga albatta biz- yoshlar erishamiz. Shuni ham aytib o’tish kerakki, bu hamma yutuqlar zamirida ustozlarimizning bizga berayotgan ta’lim-tarbiyalari yotadi. Bizga o’tilayotgan darslar : “Rejissura asoslari”,“Aktyorlik mahorati”, “Qo’g’irchoq boshqarish asoslar”,“Qo’g’irchoq yasash texnologiyasi”, “Sahna harakati va jangi”, “Ritmika va plastika”, “Raqs” kabi fanlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa ushbu darslar qatoriga “Vokal”, “Dramaturg bilan ishlash” darslari qo’shilib, “ Sahna nutqi”, “Ritmika-plastika” hamda “Bolalar dramaturgiyasi” kabi darslar soati uzaytirilsa , yanada mukammal ta’lim tizimi yo’lga qo’yilgan bo’lar edi. Chunki bularning hammasi rejissyor uchun juda muhim hisoblanadi va bilim poydevorimiz yanada mustahkam bo’lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Ashurova “Aktyorlik mahoratini o’qitish metodikasi” Toshkent – 2018 yil;

2. J.Mahmudov, H.Mahmudova “Rejissyura asoslari” Toshkent- 2008 yil;

3. M.Ashurova “Aktyorlik mahorati” – “ Innovatsiya-ziyo” Toshkent-2021 yil.

4. M.Ashurova “ Qo’g’irchoq teatr san’atining aktyorlik maktabi” – “Maya” 2007y

QO‘G‘IRCHOQ TEATRI KECHA VA BUGUN

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“Qo‘g‘irchoq teatri aktyorligi” bo‘limi 2-kurs talabasi Sobirjonova Umida Maxmudjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada san’at turlari orasida eng qadimiy, hamma teatrlarning beshigi bo‘lgan qo‘g‘irchoq teatri san’ati, rivojlanish bosqichlari, zamonaviy integratsiyasi borasida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: qog‘irchoq teatri, integratsiya, estetik tarbiya, san’at

Аннотация: В данной статье рассматривается искусство театра кукол, являющееся колыбелью всех театров, древнейшим видом искусства, этапами его развития, современной интеграцией.

Ключевые слова: театр кукол, интеграция, эстетическое воспитание, искусство.

Annotation: This article discusses the art of the puppet theater, which is the cradle of all theaters, the oldest art form, the stages of its development, modern integration.

Key words: puppet theatre, integration, aesthetic education, art.

Yosh avlodning estetik tarbiyasi masalalari O‘zbekiston qog‘irchoq teatrlari ijodiy faoliyatining asosini tashkil etadi. Jajji fuqarolarga mustaqillik mafkurasini singdirish, ularni barkamol, vatanparvar yoshlar etib tarbiyalash mamlakatimizda yangi davrning vazifasi bo‘lib qoldi. Milliy o‘zligini chuqur his etuvchi, yangicha dunyoqarashga ega fuqarolarni shakllantirishda, umuman, teatrsan’atining o‘rni beqiyos, ahamiyati ulkan. Ayniqsa, insonga nafis tuyg‘ulari go‘daklik chog‘laridan boshlab singdirib borish, jajji bolajonlarimizni ezgulikka, go‘zallikka oshno etishda qo‘g‘irchoq teatrining ahamiyati katta.

Qo‘g‘irchoq teatrlari davrimizning ma’naviy vazifalarini bajarishlari uchun, albatta, munosib repertuarga, san’atkorlik mahoratiga ega bo’lishi kerak. Teatr san’ati ijodkorlari faoliyatida sho‘rolar davrida ildiz otgan befarqlik,

o‘zibo‘larchilik, mas’uliyatsizlik kabi illatlarni bartaraf etib, yangi ma’naviy ehtiyojlarni qondira oluvchi sahna asarlari yaratish, fidoyilik, qizg‘in munosabat, aniq g‘oyaviy-badiiy yondashuv, ijodiy izlanishlarni, o‘zaro muvofiqlashtiruvchi professional mahoratni talab eta boshladi. Ayniqsa, ijroda maxsus asbob-anjomlar bilan faoliyat olib borish qonuniyatlariga asoslangan qo‘g‘irchoq teatri ijodkorlari uchun professionalizm masalasi kattalar teatrlaridan farqlanadi. Shunday ekan, qo‘g‘irchoq teatri aktyori o‘z faoliyatida katta teatrlar aktyori uchun shart bo‘lgan ijro – “aktyor mahorati” tamoyillariga to‘la amal qilish bilan birga, qo‘g‘irchoq teatrining muhim ijro uslubiyatini professional tarzda bilishi kerak.

San’at turlari orasida eng qadimiy, hamma teatrlarning beshigi bo‘lgan qo‘g‘irchoq teatri, o‘zining boy an’analariga, tarixiga ega bo‘lgan betakror san’at turlaridan biridir. Uning ildizi xalqimizning folklori, urf-odati, udumlari va milliy an’analarini o‘zida saqlagan holda asrlar davomida ularni boyitib, ularga sayqal berib rivojlantirib kelmoqda. Bu san’at turiga ulkan baho berib, taniqli olim O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, san’atshunoslik fanlari doktori, professor Muxsin Qodirov shunday deydi: “Osiyo qo‘g’irchoq teatri bu shunchaki ermak emas, balki bir qit’a xalqlarining falsafasi, tasviriy san’ati va albatta tillari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan muhim tarixiy badiiy hodisadir”[28].

Keling, ushbu teatrning rivojlanish tarixiy jarayonini kuztaylik. Masalan, Hind vodiysi sivilizasiyasida arxeologlar miloddan avvalgi 2500 yildagi ip yordamida manipulyatsiya qilishga qodir bo‘lgan boshi ajratib olinadigan bitta terakota qo‘g‘irchog‘ini topganlar. Yana bir raqam - bu ikkala holatda ham minimal animasiyaga erishib, tayoqni yuqoriga va pastga manipulyatsiya qilish mumkin bo‘lgan terakota maymunini yaratganlar. Dostonda qo‘g‘irchoqlar tasvirlangan Mahabxarata, Tamil adabiyotidan Sangam davri va miloddanavvalgi asrlarning oxiridan milodiy dastlabki asrlarga qadar bo‘lgan turli xil adabiy asarlar yaratishgan. Shu jumladan, Ashoka farmonlari ham yaratilgan[29].

[28] M.Qodirov.Teatr san`ati o`tmishdan lavhalar.Toshkent.Fan nashriyoti 1993 yil.163b.
[29] https://uz.wikinlu.ru/wiki/puppetry

Hindistonda xalq teatri tomoshalari qabilalarning turli urf-odatlari, o‘yin va raqslar asosida vujudga kelganligi ma’lum. Xalq teatrining asosiy shakllari bugungi kungacha yetib kelgan. Aksariyat teatr tomoshalarining asosini qadimiy epik dostonlarlar: Ramayana, Mahabharatadan olib o‘ynaladigan sahnalar tashkil topgan. Uning eng ko‘p tarqalgan syujeti doston qahramonlari – Rama va Krishnahayotidan olingan lavhalardan iborat. Bu davrda soya qo‘g‘irchoq teatri keng tarqalgan davrlardan biri edi.

O‘zbek xalqi “Qo‘g‘irchoq o‘yin” san’atining barcha turlari bilan qadimdan tanishdir. Bu san’at asrlar davomida xalq ommasi dunyoqarashi va intilishi, mayli hamda didini ifoda etgan va uning manfaatlarini himoya etgan. Avloddan avlodga o‘tib yangi tajriba, yangi an’analar hisobiga rivojlanib boyib kelgan. Shuzayilda qo‘g‘irchoq teatri rivojlanishining murakkabligi nafaqat uning oliy maqsadlari, bolalarning estetik va g‘oyaviy tarbiyalash bilan izohlanadi, balki u tom ma’noda qo‘l qo‘g‘irchoqlari xalq teatrlarini an’anaviy asl san’atini yangi hayot va jamiyatni yangi vazifalarini bajarishi kerak bo‘lgan sharoitda tiklay olmas edi. Lekin shunga qaramay o‘zbek xalqining sevimli qahramonlari Kachal Polvon va Bichixonlarning so‘ngmas shuhrati ularni yangi turdagi qo‘g‘irchoq teatr san’atini balki yaratilgan spektakllarning haqiqiy qahramonlariga aylanadi. Qo`g`irchoq teatrining o‘ziga xosligini anglagan mutaxassis, u rejissyor bo`lsin yoki aktyor teatr bezakchisi yoki kompazitor, chiroq ustalari va hokozo speltakl sahna obrazini qahramonlar obrazlarini yaratishni aniq yo‘llarini oladi[30].

Tarixga nazar tashlasak, 1939-yil Toshkent shahrida davlat qarori bilan o‘zbek va rus truppalari asosida yagona – respublika qo‘g‘irchoq teatri tashkil etilgan bo‘lib, unda mashhur san’atkorlar Po‘latjon Doniyorov, Zulayho Ishoqova, Elena Podgurskayalar faol ishtirok etishgan. Teatr faoliyatining boshlanishi ikkinchi jahon urushiga to‘g‘ri keldi. Suronli yillarda teatr jamoasigafidoyi, o‘z ishining mohir ustasi R.Anan’eva rahbarlik qilib, o‘sha zamonning

[30] Respublika davlat qo`g`irchoq teatrlarini professional faoliyatini takomillashtirishning ilmiy-amaliy yechimlari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy seminar materiallaridan

ruhi va talabiga mos spektakl va kontsertlarni tomoshabinlarga taqdim etgan va bu ishni a'lo darajada bajargan.

Urushdan keyin teatr jamoasi jahon mumtoz asarlariga, shu bilan birga, o'z milliy sahna dramaturgiyasini yaratish yo'lida tinmay ish olib bordi. Katta yoshdagi tomoshabinlar hamda yosh bolajonlarimiz uchun ko'plab spektakllar sahnalashtirildi. Jumladan, A.Navoiyning "Farhod va Shirin", H.Olimjonning "Semurg'", "Oygul va Bahtiyor" dostonlari instsenirovka qilindi. N.Habibullaevning "Fotimaning sarguzashtlari", A.Qobulovning "Rahim va qo'ng'iz", R.Farhodiyning "O'tkir shoxli buqacha", "Kim oyni o'g'irladi?" kabi sahna asarlari dunyoga keldi.

Chorak asr davomida bu teatrda Respublikamiz san'at arboblari I.Yaqubov hamda V.Akudin ijodiy hamkorlikda eng sara asarlarni sahnalashtirib, uning nufuzini oshirishga katta xizmat qildi. Teatr 80 yillik ijodiy faoliyati mobaynida Respublika va xalqaro miqyosdagi turli festivallarda ishtirok etib, Rossiya, Qirg'iziston, Tojikiston, Qozog'iston, Birma, Afg'oniston, Hindiston, Bolgariya, Fransiya, Germaniya, Misr, Janubiy Koreya, Turkiya, AQSH davlatlarida ijodiy safarlarda bo'ldi, o'zbek milliy qo'g'irchoq san'atini dunyoga tanitdi.

Bugungi kunda Respublikamizda 10ta professional davlat qo'g'irchoq teatrlari mavjud hamda bu kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni ma'naviy jihatdan har tomonlama tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. An'anaviy o'zbek qo'g'irchoq teatri repertuari asosini xajviy ko'rinishidagi syujetlar, kundalik hayotda uchrab turadigan nuqson va illatlar ustidan kuluvchi asarlar tashkil etadi. Shuningdek, bu san'at turiga yuqori tashkilotlardan tortib quyi idoralargacha bee'tibor emaslar.

Mustaqillikning dastlabki davrida rejissyorlar, musavvirlar, bastakor va aktyorlar o'z kuchlarini katta ishtiyoq bilan teatr sahnasida sinab ko'rdilar. Xususan, rejissyorlardan O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist Sh.Yusupov, D.Yuldasheva, E.Oripova, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artistlar M.Egamnazarova, F.Xo'jaev, K.Jabborovalar, aktyorlar A.Mirzag'iyosov, Sh.Jabbarov, Yu.Shibkov, musavvirlar S.Seduxin,

M.Ro‘zmetova, bastakorlar O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi A.Ikromov, A.Kim, L.Ugay samarali ijod qildilar. Oxirgi yillarda O‘zbek Milliy qo‘g‘irchoq teatrida nafaqat bolalar uchun, shuningdek katta yoshdagi tomoshabinlar uchun ham asarlar namoyish etilyapti. Rejissyor Sh.Yusupovning “Yurt tumori”, “To‘maris”, D.Yuldashevaning “Yana Andersen”, “Qarsildoq”, “Yulduzli bola”, “Oh, bu Xo‘ja Nasriddin”, “Soya” spektakllari, F.Xo‘jaevning “Cho‘p qo‘g‘irchoq” spektakllari teatrning ijro mundarijasidan o‘rin olgan[31].

O‘zbekistonda qo‘g‘irchoq teatri soni va salmog‘i jihatidan jamiyat ma’naviyatida o‘z o‘rniga egaligi, yosh avlodning madaniyati hamda estetik saviyasini shakllantirishda katta ahamiyatga molikligi shubhasiz. Bunday ulkan vazifani faqat professional ta’lim olgan san’atkorlargina uddalay olishlarini nazarda tutgan holda, qo‘g‘irchoq teatri san’atida beqiyos o‘ringa ega simli qo‘g‘irchoqlarni badiiy imkoniyatlari va soha aktyorlari mahoratini o‘rganish hamda unga mashqlar, treninglarning hal etuvchi ahamiyatini yoritishdir.
Qo‘g‘irchoq teatri aktyorini tarbiyalash, bu san’at uchun mahoratli mutaxassislarni yetishtirish masalasi hozirgi davrda alohida e’tiborga egadir.

Bugungi qo‘g‘irchoq tomoshalari esa yanada qiziqarli, yanada jonli shakllarda ijro etilmoqda. Eng muhimi, bunday jonli ijro bolalarni ushbu voqealar ishtirokichisiga aylantiradi. Bolalarning tomoshalarni turli texnik vositalar orqali emas, jonli sahnada kuzatishi, yuz berayotgan voqea-hodisalarga kuchli hissiyot, munosabat uyg‘ota oladi. Shu orqali ijodiy dunyosini boyitadi, shaxs sifatida shakllanishiga kuchli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Biz kattalarni esa kichkintoylarning katta dunyosiga hurmat va g‘amxo‘rlik bilan qarashga undayveradi.

[31] https://yuz.uz/uz/news/bolalik--dunyosida--ezgulik--uygotib-yoxud-qogirchoq-teatridan-katta-teatr-sari

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. M.Qodirov.Teatr san`ati o`tmishdan lavhalar.Toshkent.Fan nashriyoti 1993 yil.163b.
2. https://uz.wikinlu.ru/wiki/puppetry
3. Respublika davlat qo`g`irchoq teatrlarini professional faoliyatini takomillashtirishning ilmiy-amaliy yechimlari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy seminar materiallaridan
4. https://yuz.uz/uz/news/bolalik--dunyosida--ezgulik--uygotib-yoxud-qogirchoq-teatridan-katta-teatr-sari

Qo‘g‘irchoq spektakllarning tug‘ilishida boshqarish mezonlarining o‘rni

Toirov Alimardon Farxod o‘g‘li

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

3-kurs Qo‘g‘irchoq teatr aktyorligi

ta’lim yo‘nalish talabasi

Ilmiy rahbar: Usmanova Lola Djurayevna

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

“Qo‘g‘irchoq teatri san’ati” kafedra

mudiri v.b. katta o‘qituvchi

lola_u@mail.ru

Mazkur maqolada qo‘g‘irchoq spektakllarning tug‘ilish jarayonida boshqarish mezonlarining o‘rni xususida boradi. Maqolada izlanish va kitoblar asosidagi faktlarlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: qo‘g‘irchoq, teatr, spektakl, rejissyor, aktyor.

Qo‘g‘irchoq teatrida spektakl tug‘ilishi mezonlari umuman barcha turdagi teatrlar amal qiladigan qonuniyatlarga suyanadi.

Qo‘g‘irchoq teatrida ham xuddi dramatik teatrda bo‘lgani kabi repertuar teatrning g‘oyaviy va ijodiy qiyofasini belgilaydi.

Qo‘g‘irchoq teatrida ham barcha ish spektakl uchun pyesa tanlashdan boshlanadi.

Qo‘g‘irchoq teatrida ham barcha ijodiy jarayon spektaklni sahnalashtiruvchi rejissyor zimmasida bo‘ladi.

Biroq hamma gap shundaki yuqoridagi barcha jarayon qo‘g‘irchoq teatrida qo‘g‘irchoq teatr san’ati tushunchasiga to‘g‘ri keladigan shartlarga tayanishi, mos kelishi lozim.

Dastlabki spetsifik muammo hech shubhasiz pyesa topish va tanlashdan boshlanadi. Gap shundaki bizda qo‘g‘irchoq teatrlari ko‘p bo‘lishiga qaramay qo‘g‘irchoq teatri uchun maxsus pyesalar yozuvchi dramaturglar yo‘q. Bor bo‘lsa ham barmoq bilan sanarli darajada. Qo‘g‘irchoq teatriga butun ijodiy faoliyatini baxsh etgan dramaturg yo‘q desak ham bo‘ladi. Yozish qo‘lidan keladigan tug‘ma istedodlar, ishni haddini olgan mutaxassislar istagancha topiladi.

Hamma gap avvalo rejissyorlarni milliy repertuar yaratishdagi no‘noq faoliyatida. Bu birinchidan. Ikkinchidan, qo‘g‘irchoq teatri dramaturgiyasiga nisbatan katta teatrlarga yoziladigan pyesalarga qaraganda ikkinchi darajali degan munosabatda bo‘lishning oqibatidir. Natijada, ko‘p sonli qo‘g‘irchoq teatrlari ham adabiyot jihatidan, ham teatr san’ati jixatidan “voqea” bo‘larlik ishlarga ega

emaslar. O‘zbekistonda qo‘g‘irchoq teatrlari repertuarida original milliy, professional dramaturgiya darajasidagi asarlar hozirgacha orzu bo‘lib turibdi.

Jahon qo‘g‘irchoq teatri amaliyotida (balki boshqa turlarda ham) repertuar yaratishda sinovdan o‘tgan ikki uslub bor. Bittasi – teatr yozilgan pyesani qo‘liga oladi va pyesa ustida ishlash jarayonida qo‘g‘irchoq personaj obrazini yaratishda ma’lum bir tipdagi muammolarni hal etadi. Aytaylik, yozib keltirilgan va rejissyor qo‘liga tekkan pyesa qo‘g‘irchoq sahnasi tabiatiga to‘g‘ri keladimi yoki yo‘qmi? Muallifning ijodiy tasavvurini badiiy gavdalantirishda teatr ijodiy uslubiyati va qo‘g‘irchoqlarning badiiy va texnik imkoniyatlari o‘zaro til topadimi yoki yo‘qmi? Ikkinchisi – mualliflarning teatr ichida rejisssyorlar bilan bevosita hamkorlikda yaratadigan pyesalar. Dramaturgiyaning umumiy qonuniyatlariga har ikki yo‘nalishda ham amal qilinadi. Ammo birinchi holda qo‘g‘irchoqlar pyesalarga to‘g‘ri keladimi, kelmaydimi, degan masala ko‘ndalang bo‘lsa, ikkinchi holda dramaturg yaratadigan badiiy obraz alohida tarzda emas, balki rejaning o‘zidayoq qo‘g‘irchoq bilan birga tug‘iladi, shakllanadi. Moskvadagi S.Obrazsov nomidagi teatrining, yoki Sankt-Peterburgdagi katta qo‘g‘irchoq teatrining mumtoz san’at asariga aylangan, o‘lmas spektakllari ana shunday jarayonda yaratilgan.

Ko‘pincha pyesa o‘qib bo‘linishi bilan rejissyor bo‘lg‘usi spektakl yechimini oldindan ko‘z oldiga keltiradi va shu bilan cheklanib qoladi. Bu xuddi aktyorning boshidanoq natijani o‘ylagandek katta xatodir. Rejissyor oldindan ko‘ra olish huquqini olishdan avval u bir qator vazifalarni oldiga qo‘yishi kerakki, faqat tasavvur qilish emas, balki asarga obrazli yondashish bo‘lsin. Shu bilan birga bu yondashish professional bo‘lmagan odamning qo‘lidan kelmaydigan bo‘lsin. U yaratgan san’at asari – spektakl shunday darajada bo‘lsinki, uni ko‘rgan tomoshabin mo‘jiza deb atalmish teatrga kelganiga hech afsuslanmasin. Xuddi shu dastlabki jarayon eng muhim bo‘lib, u sahnalashtirilayotgan spektakl haqiqiy san’at asari bo‘la oladimi yoki yo‘qmi degan savolga javob beradi.

Zamonaviy teatrlarni boshqarish vazifasi rejissyor zimmasiga yuklatilgan. Unda yaxshi aktyor ansamblini yaratish, janr yo‘nalishini belgilash, spektaklning badiiy qiymatini, g‘oyasini aniqlash talab etiladi.

Rejissyor talqini nima va u qanday paydo bo‘ladi? Hamma ish pyesa qidirishdan boshlanadi. Albatta, bu pyesa g‘oyasi, rejissyor va u bilan birga ishlayotgan ijodiy jamoa uchun yaqin va qiziqarli bo‘lishi kerak. Pyesa rejissyor fantaziyasiga ummondek oqimlar olib kelsa, tassavvurini uyg‘otsa, hayotda ko‘rgan – kechirganlarini eslatsa va bu murakkab psixologik jarayon qadamba – qadam, ba’zida esa yashindek bo‘lib, dramaturg fikr–g‘oyalarini obrazli talqinga olib kelsa, demak bu pyesa baxtli sahna hayotiga ega bo‘ladi. Shunday qilib rejissyor talqini – bu rejissyor fantaziyasi, rejissyorning ko‘rishi (rejissyorskoye videniye), avtor g‘oyalarini obrazli talqin qilinishi va bu ma’lum bir usulda sahnaga olib chiqishdir. Har bir rejissyorda g‘oyalarni obrazli talqin qilish turlicha kechadi.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, dotsent Maryam Ashurova Respublika qo‘g‘irchoq teatrida bosh rejissyor bo‘lib ishlagan kezlarida teatr repertuari haqida gapirib, teatrga repertuar tanilayotganda ayniqsa qo‘g‘irchoq teatrlari uchun albatta bolalar yoshi inobatga olinishi maqsadga muvofiqdir, der edi. Chunki, asarda yoritilayotgan mavzu ma’lum yoshdagi bolaning qabul qilish imkoniyat doirasiga bog‘liq. Albatta har bir yosh tomoshabinning ma’lum voqelikka baho berib, uni qabul qilishi har xil kechadi. Bog‘cha bolalariga ko‘pincha voqelikni oddiy, lo‘nda, so‘zlar kam ishlatiladigan qo‘g‘irchoq personajlarining plastik xatti-harakatlari yorqin, jozibali ko‘rinishlar orqali namoyish qilinish taqazo etishadi.

Jumladan, teatr repertuaridagi “No‘xot bola” yoki “Miyovlagan kim bo‘ldi” spektakllari bog‘cha yoshidagi bolalarga mo‘ljallangan asarlardir. Chunki bu spektakllar o‘yin tariqasida sahnalashtirilgan bo‘lib, bolalarbopligi bilan ajralib turadi. “No‘xot bola” spektaklida bolaning oiladagi o‘rni, kattalarni hurmat qilish, do‘stlariga e’tiborli, ota–onasiga yordamchi bo‘lish ko‘rsatilgan bo‘lsa,

“Miyovlagan kim bo‘ldi” spektaklida kichkina kuchukchaning dunyoni asta – sekinlik bilan o‘rganishi va o‘ziga do‘st topishi kichik voqealar orqali aks ettirilgan. Bunday asarlarni bog‘cha yoshidagi bolalar esa yaxshi qabul qiladi.

Mavzu jihatdan shunday asar tanlanishi kerakki, u albatta maktabning boshlang‘ich sinflari uchun ham mo‘ljallanishi kerak. Bu asarlarda ko‘pincha yaxshilik va yomonlik orasidagi farq, o‘ziga do‘st tanlash, zinhor – bazinhor yolg‘on gapirmaslik, o‘zidan kattalarni hurmat qilish, o‘zidan kichiklarga ozor bermaslik kabi xislatlar, hayotning yorqin ranglari, nutqning ravonligi–yu musiqaning sehrliligi, obrazlarning yorqin namoyish etilishi beg‘ubor bolalarda katta ishonch uyg‘otadi.

Teatr jamoasi o‘zining kelgusi repertuarini tomoshabinlarning yoshiga munosib bo‘lgan, zamon ruhidagi asarlar bilan boyitib borishini rejalashtirgan. Jumladan, G‘. G‘ulom tavalludining 100 yilligiga bag‘ishlab “Shum bolaning sarguzashtlari”, X. Rasulning “Gul va bulbul”, o‘zbek xalqining milliy urf-odatlarini targ‘ib qiluvchi “Karvon ko‘rdim”, rus xalq ertagi asosida yaratilgan “Ayoz bobo” va “Mitti qizaloq” asarlarini yangi 2013 yilda poytaxtimizning yosh tomoshabinlari e’tiboriga havola qilingan.

Rejissyor ma’lumotida repertuarda asosan bolalarga mo‘ljallangan asarlar haqida gap boradi. Respublika qo‘g‘irchoq teatrida repertuarning bu tahminiy tuzilishi bejiz emas va bunday hol qolgan barcha teatrlarga ham xos xususiyatdir. Demak qo‘g‘irchoq teatrlarimizda katta yoshdagi tomoshabinlar uchun qo‘g‘irchoq spektakllari qo‘yilishi amaliy tusga kirmagan. Zotan, o‘zbek qo‘g‘irchoq teatri dramaturgiyasida kattalarga mo‘ljallab yozilgan pyesalarning o‘zi yo‘q darajada. Adabiy asarlar asosida inssenirovka qilingan ayrim pyesalar, masalan, Xaytmat Rasulning “Qush tili” (A.Navoiy “Lison ut tayr”i) pyesasi bundan mustasno.

Bolalarga mo‘ljallangan repertuarning hamma vaqt tomoshabini bor. Bu yo‘nalishda teatrning tomoshabin muammosi yo‘q. Katta yoshdagi tomoshabinlar uchun qo‘yiladigan spektakl teatrdan ham ijodiy, ham tashkiliy jihatdan

qo‘shimcha mehnat talab qiladi. Shuning uchun Qo‘g‘irchoq teatri san’atining bu muhim tarmog‘i e’tibordan chetda qolgan.

Qo‘g‘irchoq teatri pyesasining o‘ziga xosliklari orasida majoziylik va shartlilik jonli teatr dramaturgiyasidagidan keskin farqlanishi ham spetsifik muammodir.

Qo‘g‘irchoq tilsiz, jonsiz bir narsa bo‘lib, ko‘rinishi jihatidan tabiiy asosga monand bo‘lmaydi. Haqiqiy o‘xshashlik qo‘g‘irchoq teatr tabiatiga yotdir. Qo‘g‘irchoqning afti-angori ham mutlaqo o‘hshamas tarzda bo‘lishi mumkin. Fantaziyaga chek-u chegara yo‘q. Faqat bitta sharti – hikoya qilinayotgan, ko‘rsatilayotgan predmet, hayvonot dunyosi, odamzot haqida tushuncha bo‘lishi va ijroda ishontira bilishi kerak. Ayniqsa, bolalarning beg‘ubor dilida qo‘g‘irchoq obraz ishonch tug‘dirishi spektakl yutug‘ining garovi bo‘ladi. Majoziylikda esa qo‘g‘irchoq teatrining eng yaqin tug‘ishgani – masal janrdagi majoziylik yaqqol misoldir.

Demak, pyesaning qo‘g‘irchoq olamiga mansublikka bildiruvchi xususiyatlar majoziylik va shartlilik ekan. Shuningdek qo‘g‘irchoq obrazida badiiy umumlashma ham katta ma’noga ega. Qo‘g‘irchoq pyesalar obrazlaridagi umumlashmalik dramatik teatr obrazlaridagi estetik vazifani psixologik kechinmalar emas, balki ko‘proq, aniqrog‘i asosan hatti-xarakat orqali namoyon etadi. Xarakat qo‘g‘irchoq olamining asosidir. Qo‘g‘irchoq harakat vositasidagina “jonlanadi”. Qo‘g‘irchoqning har bir ma’no-mazmunga, ma’lum bir vazifani bajarish, maqsadga qaratilgan xarakati – sahnaviy xatti–harakatga kiradi. Qo‘g‘irchoqning sahnaviy xarakati hamma vaqt biror bir ma’noni anglatuvchi harakatdir. Haqiqiy qo‘g‘irchoqning har bir so‘zi, jumlasida unga jo‘r bo‘ladigan harakat mavjud. Jonli teatr pyesasida bu funksiyani ko‘proq remarka ifoda qiladi. Spektakl tayyorlashdan avval pyesa qo‘g‘irchoqlardan qanday xatti-harakatlar talab qilishini aniq bilib olishi kerak, chunki qo‘g‘irchoqning harakatlari ma’lum cheklanishlarga ega bo‘ladi.

Qo‘g‘irchoq teatrining xarakteri personaj aytadigan so‘zlar vositasida emas,u qiladigan plastik xatti-harakatlar orqali tug‘iladi, shakllanadi. So‘zlar S.Obrazsov iborasiga ko‘ra “Qo‘g‘irchoq xulq-atvoriga sabab” bo‘lmog‘i kerak.

Shunday qilib, pyesaning qo‘g‘irchoq teatri estetik makoniga mansub yoki mansub emasligini aniqlashda ko‘p vositalar ichida undagi ma’lum xususiyatlarni ochuvchi ayrim xislatlarni aynan plastik xatti-harakatlar orqali ifoda qilish imkoniyatlari darajasi ahamiyatga ega. Ma’lumki, qo‘g‘irchoq personaj o‘z tabiatining bir-ikki belgisini aniq ta’kidlab ko‘rsatishga o‘rgangan.

Ma’lumki, dramaturg talqini rejissyor talqinidan farq qiladi, ya’ni dramaturg o‘z asarlarida hayotda ko‘rgan-kechirganlarini, kuzatganlarini namoyon qiladi. Rejissyor talqini esa, dramaturg yozgan pyesani o‘qilgandan so‘ng tug‘ilgan fikr, g‘oya, tuyg‘u demakdir. Stanislavskiy aytganidek rejissyor tasavvuri, taassurotidan katta farq qiladi. Taassurot – bu o‘qilgan asardan tug‘ilgan dastlabki tasavvur bo‘lib, talqin esa pyesaning mukammal tahlili, rejissyorning professional mahorati va iste’dodiga bog‘liq natijadir. Bularning hammasi dramatik, musiqali va qo‘g‘irchoq teatrlari uchun bir xilda tegishli. Gap qo‘g‘irchoq teatrlarida spektakl talqini haqida ketar ekan, uning bir qancha xususiyatlariga ega ekanligiga to‘xtalish lozim.

Spektakl qo‘yishga tayyorlanayotgan rejissyor bu xususiyatlarga amal qilmas ekan, spektakl umuman chiqmaydi yoki chiqsa ham rejissyor orzu qilganidek bo‘lmaydi. Bu xususiyatlar nimada? Bu avvalo jonsiz qo‘g‘irchoqning jonlanish xususiyati bo‘lib, qo‘g‘irchoq teatri tabiatini belgilaydi. Qo‘g‘irchoq teatrida faqat qo‘g‘irchoq emas, balki har qanday predmet ham jonlanishi mumkin. Shunisi muhimki, bunday jonlanishdan tomoshabin ruhan rohatlanadi. Yana bir xususiyat muallif g‘oyasining badiiy talqini bo‘lgan qo‘g‘irchoqni yuqori baholash, sevish, aktyor mahoratidan ustun qo‘yishdir. Mana, shu xususiyatning hammasi Yevgeniy Demmeni ijodida mujassamlashgan edi. Ye.S.Demmeni qo‘g‘irchoq teatri uchun yuqori professional dramaturgiya asarlari yaratishga bel

bog‘lagan birinchi rejissyor hisoblanadi. Uning bevosita boshchiligi va yordami bilan klassik pyesalar qo‘g‘irchoq teatri uchun qayta yaratildi.

Qo‘g‘irchoq teatrida o‘zining rejissyorlik qobiliyatini namoyish qilgan yana bir san’atkor Moskvadagi Markaziy qo‘g‘irchoq teatri direktori va badiiy rahbari vazifasida ishlagan S.V.Obrazsovdir. U spektaklda ishtirok etuvchi barcha ijodkorlarning fantaziya va tasavvurini uyg‘otish o‘zining bosh vazifasi deb bilardi. Ijodkorlar faqat qo‘g‘irchoq, dekoratsiya, shirma va obraz haqida fikr yuritmay, o‘sha pyesada aks ettirilgan hayot haqida, o‘sha davr muhiti haqida mulohaza yuritishlarini istardi. S.V.Obrazsov fikricha, san’atda ishlash – hayotni sevish, oddiy narsadan g‘ayrioddiy narsani ko‘ra bilash, bu narsalardan hayajonga kelish, odamlarga ularning o‘zlari haqida bilmaydigan narsalarni ayta olish, yangilik yaratish, kashfiyot qilish demakdir.

O‘zbek qo‘g‘irchoq teatr san’atining bugungi faoliyatida yuqoridagi professional mezonlarga amal qilish salohiyatiga ega Shomurod Yusupov, Maryam Ashurova, Fatxulla Xo‘jayev kabi rejissyorlar va talay mahoratli aktyorlar bor. Asosiy muammo sifatli dramaturgiya yaratish bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Ashurova “Aktyorlik mahoratini o’qitish metodikasi” Toshkent – 2018 yil;

2. J.Mahmudov, H.Mahmudova “Rejissyura asoslari” Toshkent- 2008 yil;

3. M.Ashurova “Aktyorlik mahorati” – “ Innovatsiya-ziyo” Toshkent-2021 yil.

4. M.Ashurova “ Qo’g’irchoq teatr san’atining aktyorlik maktabi” – “Maya” 2007yil.

Qo'g'irchoq teatri san'atini rivojlantirishda yangi ijodkorlarni kashf qilish masalasi. *(Rejissyorning ijodiy jamoasi)*

"Qo'g'irchoq teatri san'ati" kafedrasi

Katta o'qituvchisi Mirzayev Farhod

Annotatsiya: *Teatr shunday bir ilohiy dargohki, u odamlarning qalbiga beqiyos ta'sir o'tkazib ularni muqim ezgulik va olijanoblikka chorlaydi. Chunki sahna san'atining odamlar nafaqat zavq-shafq baxsh etishi, ayni vaqtda milliy g'urur, milliy iftixor manbai, qudratli tarbiya vositasi ham bo'la olishi – bu isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Ushbu maqolada san'at turlari orasida eng qadimiy, hamma teatrlarning beshigi bo'lgan qo'g'irchoq teatri san'atining rivojlanish bosqichlari, zamonaviy integratsiyasi borasida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Qo'g'irchoq teatri san'ati, integratsiya, ta'lim, estetik tarbiya, madaniy faoliyat, innovatsiya.*

Barcha davrlardagi singari san'atning har bir yo'nalishida ijodkorlarning cho'qqiga chiqqan davri yoki biroz turg'unlik davri bo'ladi. Biron bir san'at asarining paydo bo'lishida o'z ishiga professional yondoshadigan ijodkorlarning bir joyga jam bo'lishi muxim ahamiyat kasb etadi. Chunki, teatr san'atida "ijodiy jamoa" degan tushuncha bejizga keltirilmagan. Ijodiy jamoa deganda avvalo kimlarni nazarda tutamiz. Teatr san'atida bular: dramaturg, (muallif) rassom, bastakor, xoreograf, aktyorlar, va ushbu jamoani birlashtiruvchi rejissyordir. Shu o'rinda savol tug'iladi bu jamoadagi barcha ijodkorlarning professionallik darajasi bir-biriga nomutanosib bo'lsa, nima bo'ladi? Bunday paytda turli tushunmovchilik va xatolar yuzaga kela boshlaydi. Tasavvur qiling, rejissyor istayotgan sahnaviy g'oyaviy yechimni rassom chizib berolmasa, yoki rejissyorning quloqlari ostida jaranglayotgan musiqani bastakor eshitmasa … Yoki aksincha rejissyorning noto'g'ri yondoshuvidan rassom va bastakor ijodiy faoliyatidan mamnun bo'lmaydi. Shuning uchun nima qilmoq kerak. Rejissyor avvalo o'z ijodiy jamoasini yig'ishda o'zaro tushunchalari yaqin bo'lgan ijodkorlarga murojat etishi kerak. Lekin bugungi kunda teatr san'atida professional rassom , bastakor va xoreografni topishning o'zi bir muammo bo'lmoqda. Ayniqsa qo'g'irchoq teatri san'atida. Chunki o'zgacha uslubga (spetsifikaga) ega bo'lgani uchun istagan

rassom yoki xoreograf qo'g'irchoq teatri ijodiy jamoasiga qo'shilib ketolmaydi. Bunga bir necha bor guvox bo'lganmiz. Oliy o'quv yurtlarida ham aynan qo'girchoq teatrlari uchun dramaturg, bastakor, rassom va xoreograf kabi ijodkorlar o'qiyapti degan habar chiqsa ham, ularni aynan qo'g'irchoq teatriga borib ishlashining foizi juda kam.Lekin "Izlagan imkon topar" deganlaridek professional rejissyor kutib o'tirmaydi. U doim izlanishda bo'ladi. O'zining ijodiy jamoasini yig'ish uchun turli tajribalar qilib ko'radi. Misol uchun milliy dramaturgiya muammosi ufirib turgan bir paytda, ustozimiz O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Sh .Yusupov Muqimiy teatrining dramaturgi To'ra Mirzoga "To'maris", "Jaloliddin Manguberdi" va "Baxrom va Dilorom" kabi spektakllarining pyesalarini yozishni ishonib topshirdilar . Natijada bir necha martalik tuztishlar, baxs va munozaralar va qo'g'irchoq teatrida so'z emas-xatti-xarakat ko'proq bo'lishi kerakligi haqidagi suxbatlardan so'ng, teatrlar ajoyib asarlarga, rejissyor esa qo'g'irchoq teatri uchun pyesa yoza oladigan dramurgga ega bo'ladi. Lekin pyesa yozildi degani bu- spektakl qo'yildi degani emas. Qo'g'irchoq teatri jamoasining yana bir ustuni bu rassomdir. Ammo bugungi kunda professional qo'g'irchoq teatri rassomlari juda kam. Bunday paytda rejissyorlar bor rassomlar xizmatidan foydalanishlari yoki o'zlari yangi rassomni kashf qilishlariga to'g'ri keladi. Bu jarayonda ham ustozimiz Shomurod Yusupov barchaga o'rnak bo'ldilar. Ular o'zlarining uzoq yillik tajriba va bilimlariga tayangan holda avval drama teatrining rassomi bo'lgan va bugungi kunda Buxoro viloyat qo'g'irchoq teatrida ijod qilayotgan rassom- Zavqiddin Yodgorov bilan " Shiroq afsonasi" spektaklini sahnalashtirdilar . Ushbu ijodiy hamkorlik natijasida tarixiy mavzudagi ajoyib spektakl paydo bo'ldi. Albatta rejissyorning tajribasi va o'z ishining ustasi ekanligi rassomga katta yordam berdi. Ushbu ijodiy juftlik hamkorligi davom etdi va buning natijasida "Jaloliddin Manguberdi"(*Buxoro viloyat qo'g'irchoq teatri*), " Qodiriy kulganda", "Tohir va Zuhra*" (Surxondaryo viloyat qo'g'irchoq teatri)* "Bukri Oshpaz" (*Farg'ona viloyat qo'girchoq teatri)* va boshqa bir qator spektakllar sahna yuzini ko'rdi.

Lekin Shomurod Yusupov qo'g'irchoq teatri san'ati kelajagi uchun foydali bo'ladigan ijodkorlarni kashf qilishdan to'xtab qolmadi. Milliy qo'g'irchoq teatrida Alisher Navoiyning "Sabbai Sayyor" asari asosida , dramaturg To'ra Mirzo tomonidan insenirovka qilingan "Bahrom va Dilorom " spektaklida birgalikda ijod qilish uchun , ko'plab mamlakatlarda o'zining ko'rgazmalarini tashkil qilgan taniqli rassom illyustrator Viktor Apuxtinni taklif etdi. Shomurod Yusupov rejissyor sifatida ko'plab rassomlar bilan ishlaganligi sababli, doim yangicha uslub va janrda ijod qiladigan rassomlarni topishga harakat qilgan. V.Apuxtin ham o'zining o'zgacha uslubi bilan rejisyorning e'tiboriga tushdi va ijodiy hamkorlikka taklif etildi. "Bahrom ba Dilorom" spektakli uchun ijodiy jamoa Alisher Navoiyning falsafiy qarashlarini tushuna olishi, tarix va adabiyotni chuqur anglay bilishi kerak edi albatta. V.Apuxtin qo'g'irchoq teatri saxnasining va qo'girchoqlarning texnik tomonlari bilan yaxshi tanish bo'lmasada, asarning sahnaviy yechimi , undagi majoziy (simvolizm) yo'nalishni aks ettira olishi va ranglarning bir-biriga mos ravishda tanlay olgani bilan barchada ijobiy taassurot uyg'otdi. Qog'ozdagi eskizlarni tayyor qo'girchoq va dekoratsiya ko'rinishiga keltirishda V. Apuxtinga, bu ishda tajrbaga ega bo'lgan teatr bosh rassomi M. Ro'zmetova yaqindan yordam berdi. Aytish mumkinki "Bahrom va Dilorom " spektakli rejissyor uchun ham rassom uchun ham yangi xulosalarni taqdim etdi. Chunki bu spektaklni eksperimental-sintez spektakllar qatoriga qo'shish mumkin.

Ushbu spektaklda yangi tajribaga ega bo'lgan yana bir ijodkor ishtirok etdi. Ilk marta qo'g'irchoq teatri spektakli uchun musiqa yozgan bastakor bu Mixail Tioradir. Uning qo'g'irchoq teatri ijodiy jamoasida paydo bo'lishi qanday sodir bo'ldi. Rassom bilan barcha ijodiy masalalar hal etilgach, rejissyor spektaklning musiqiy yechimi haqida bosh qotira boshlaydi. 200 dan ortiq milliy musiqalarni tinglab ko'rgach, ulardan hech biri sahnalashtirilayotgan spektaklning uslubi va shakliga mos emasligi ma'lum bo'ladi. Shunda Mixail Tioraning ijod namunalaridan eshitib ko'rishni taklif etishadi. Bastakorning sharq va g'arb musiqiy asboblaridan ustalik bilan foydalanishi, ohanglardagi ajoyib navoning (*atmosferaning*) tomoshabin tassavuriga ta'sir eta olishi Shomurod Yusupovning

ham e’tiborini tortdi va yana bir ijodiy hamkorlik boshlandi. Bu safar ham rejissyor o’z ijodiy jamoasiga bastakor tanlashda adashmaganligi yakunda o’z tasdig’ini topdi.

“Bahrom va Dilorom” spektakli noodatiy uslubda sahnalashtirilganligi sababli, ijodiy jamoga xoreografni qo’shmaslik mumkin emas edi. Uzoq yillar qo’g’irchoq teatrlari bilan hamkorlik qilib kelayotgan va har safar ishonchni oqlaydiganijodkor xoreograf Olga Ostanina, bu safar ham Shomurod Yusupovning taklifiga binoan ushbu spektaklga taklif etildi. O. Ostanina o’zining bor mahorat va tajribasini ishga soldi va spektaklning muvaffaqiyat qozonishiga o’z hissasini qo’shdi.

Xullas ijod axli har qanday sharoitda ham o’z ijodiy jamoasini tuzishga harakat qilishi kerak. Bu uni ulkan yutuqlar, yangi tajriba va bilimlar sari chorlaydi.

АФСОНА ВА ДОСТОНЛАР ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРИНИНГ ИЖОДИЙ МАНБАЙИ СИФАТИДА

Туробова Малоҳат Абдурахим қизи
Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси,
Санъатшунослик институти таянч докторанти

Аннотация. Мақолада замонавий ўзбек қўғирчоқ театрида афсона ва достонларнинг ўрни, ёш авлод тарбиясидаги аҳамияти, саҳналаштиришнинг ўзига хос хусусиятлари, режиссёрлик изланишлари тўғрисида сўз боради.

Калит сўзлар. Ўзбек қўғирчоқ театри, эпос, афсона, достон, драматургия, режиссура.

Аннотация. В статье говорится о роли легенд и былин в современном узбекском театре кукол, их значении в воспитании подрастающего поколения, особенностях постановки, режиссерских исследованиях.

Ключевые слова. Узбекский театр кукол, эпос, миф, былина, драматургия, режиссура.

Annotation. The article talks about the role of legends and epics in the modern Uzbek puppet theater, their importance in the upbringing of the younger generation, the features of the production, director's research.

Keywords. Uzbek puppet theatre, epic, myth, epic, dramaturgy, directing.

"Осиё қўғирчоқ театри бу шунчаки эрмак ўйин эмас, балки бир қитъа халқларнинг фалсафаси, дини, адабиёти, эпоси, мусиқаси, фолклори, тасвирий санъати ва албатта, тиллари билан чамбарчас боғлиқ бўлган муҳим тарихий ҳодисадир".[1] Театршунос олим Муҳсин Қодировнинг юқоридаги жумлалари ўзбек қўғирчоқ театри халқлар, миллатларнинг тарихи, урф – одатлари, маданияти, санъати, тили, адабиёти ва қаҳрамонлик эпосларини ўзида акс эттирган ҳолда яшаб келганлигини ифода этади.

Халқ хотирасининг бебаҳо тарихий бир қисми бўлган қаҳрамонлик эпослари миллатнинг маънавий дунёсини, унинг тарихи, азалий қадриятларини ўзида мукаммал акс эттирганлиги, ватанпарварлик ғояларига йўғрилганлиги боис, болалар театрларида тарихий қаҳрамонликларни тараннум этиш учун ажойиб асосдир. Чунки, халқ эпоси миллатнинг ўзлигини, тил бойлиги ва кўплаб аждодларнинг жасоратларини ўз ичига олади. Ахлоқий, бадиий, илмий, фалсафий, диний сингари кўп томонлама таълим – тарбия беради, миллий анъаналар билан таништиради. Шу боисдан ҳам, халқ қаҳрамонларининг ватан озодлиги йўлидаги жасоратлари, ўзлигимизни англатувчи қадриятлар ифодаси бўлиб, бизнинг тезкор суръатларда ўзгариб бораётган давримизда ўта долзарбдир.

Афсона ва қаҳрамонлик достонлари азал-азалдан халқ томошаларининг асосий манбайи бўлиб келган. Тўмарис, Рустам, Широқ сингари қаҳрамонлар дастлаб, театрлашган маросимларда ўйналиб, тарихнинг турли босқичларида қайта ишланиб, сайқал топиб келган.

Замонавий ўзбек қўғирчоқ театрида халқ эпосини саҳналаштиришда ўзига хос тажриба тўпланиб, янги бадиий ифода воситалари, ижро этиш усуллари ўзлаштирилди. Бу борада, “Қанотли одамлар” (Н.Тўлахўжаев, Б.Пармонов), “Алпомиш” (Ж.Маҳмуд, Ш.Юсупов), “Алпомишнинг болалиги” (И.Содиқов, К.Исомова), “Тўмарис” (О.Холдор, Б.Жабборов), “Юрт тумори тўмарис” (Т.Мирзо, ШЮсупов), “Широқ афсонаси” (Г.Қўлдошова, Ш.Юсупов) сингари афсонавий қаҳрамонлар ҳақидаги спектакллар саҳна юзини кўрди. Ушбу саҳна асараларида буюк халқ эпосидаги энг муҳим нуқталар – қаҳрамоннинг ватанга муҳаббати, садоқати, юрт тинчлиги йўлида кўрсатган жасорати, ўзбек халқнинг енгилмас фарзанди эканглиги тараннум этилди.

“Қанотли одамлар” (Н.Тўлахўжаев, Б.Пармонов), “Алпомиш” (Ш.Юсупов, Ж.Маҳмудов) саҳна асарларида эпосга янги экспериментлар манбайи сифатида ёндашиш, унинг саҳнавий характерини ўзига хос услублар билан бойитиш иштиёқи сезилиб туради. Мазкур тажрибаларда сўз ва фикр қудратининг иккинчи ўринда туриши, халқ оғзаки ижодининг ўзига хос тил бойлигини ўрганиш имконини чеклаган. Зеро, халқ эпосини саҳна тилига ўгириш, театр имкониятларидан келиб чиққан ҳолда ўтмишнинг турфа саҳифалари ва қаҳрамонлари, уларнинг турли тақдирларини бугунги томошабин, айниқса, жажжи болажонлар наздида гавдалантириш, асар мақсадига ишонтириш бу шунчаки жўн нарса эмас. Бу борада драматург асар тилини бугунги тил меъёрлари билан мослаштиради, янги ғоялар ва образлар бадиий ифода воситалари билан бойитади.

Драматург Гулчеҳрабону Қўлдошова “Широқ афсонаси” саҳна асарида айнан мана шу хусусиятларга алоҳида аҳамият қаратади. Бу борада Алишер Навоий ғазалларидан унумли фойдаланиш орқали саҳна асарини руҳий-психологик қаҳрамонлик даражасига олиб чиқади. Қолаверса, Сарвигул сингари янги қаҳрамонлар кашф этилиб, севги йўлидаги кураш воқеалари ўзаро ватан ва халқ фаровонлиги учун бўлган кураш билан боғланди. Айтиш жоизки, қаҳрамонлик эпослари асосидаги кейинги тажрибаларда ватанпарварлик ғояларини тасир даражасини ошириш мақсадида ишқий муносабатларга алоҳида урғу берилди. Ватанга бўлган муҳаббатни ёрга ва оилага бўлган муносабат замирида очиб бериш, қўғирчоқ театрларида ҳам инсоний севгини баралла куйлаш имконияти мавжуд эканлигига эътибор қаратилди.

Драматург Тўра Мирзонинг “Юрт тумори Тўмарис” драмасида халқ эпосининг асл моҳиятини сақлаб қолишга алоҳида аҳамият қаратилган. Ривоят, тавсиф ва диологларнинг уйғунлашган ҳолда келиши пъесанинг бадиийлигини ошириш, персонажлар табиатини бўрттириш, воқеалар занжирини мантиқли боғланишида хизмат қилган. “Юрт тумори Тўмарис” драмаси замирида она ватанга садоқат, озодлик йўлида мардоналарча курашиш ва муҳаббатга вафо сингари ғоялар сингиб ётади. Бу ўз навбатида фарзандларимиз, айниқса униб ўсиб келаётган нав-ниҳолдек қизларимиз наздида мардонавор ва садоқатли аёл тимсоли сифатида гавдаланади.

Бу тажрибалар нафақат қўғирчоқ театри драматургияси, балки, режиссурада ҳам ўзига хос саҳнавий ечимларни кашф этилишига сабаб бўлди. Бу борада режиссёрлар афсона ва достонлар ҳамда замонавий қўғирчоқ театрини ўзига хос хусусиятларини уйғунлаштириш орқали халқ эпосини саҳнада ижро этишни янги шаклларини кашф этди.

Хусусан, Ш.Юсупов, Б.Пармонов, С.Седуҳин, Ғ.Ҳамроев каби бир қанча режиссёрлар қўғирчоқ театрининг экспрессив имкониятларидан унумли фойдаланиб, афсона ва достонлар асосидаги спектаклларда символизмга

катта эътибор қаратиб, фожеали саҳналарни бола руҳиятига мослаштириш, асар моҳияти ва қаҳрамонлар характерини очиб беришда янги хусусиятлар ва образлар киритиш, қадимги тилни замонавий тил меъёрлари билан мослаштириш орқали муваффақиятга эришди. Ноодатий саҳнавий макон, ижрочилик усуллари, рамзийлик, янги қўғирчоқларни кашф этилиши режиссёрлик топилмаларининг ўзига хослигини ифода этади. Мистик элементлардан фойдаланилган ҳолда реалистик, психологик нуқтайи назардан саҳналаштиришга эътибор қаратилди. Тарихий усулларда рамзийликка алоҳида урғу берилиб, саҳнавий макон ва образлар орқали улкан ғоялар ифодаланди. Ушбу тажрибалар қўғирчоқ-қаҳрамонлар ёрдамида ижтимоий, сиёсий ва хатто фалсафий мавзуларни ёритиш имконияти мавжудлигини кўрсатди. Эътиборлиси шундаки, мазкур саҳна асарлари катта ва кичик томошабинни бир ғоя ва мавзу атрофида жамлай олади.

Ш.Юсуповнинг “Юрт тумори Тўмарис” спектакли тарихий асарларни саҳналаштириш устидаги мавжуд тажрибалардан фарқ қилади. Ҳар бир синтезлашган саҳнавий ечимда символизмнинг ёрқин бўёқларда ифодаланиши кўзга ташланади. Асар марказидаги конфликт, қарама-қарши кучлар, аросат ўртасидаги кураш, бегуноҳ азаматларнинг тўкилган қони ва уларнинг хотирасига ишора этилувчи рамзийликда (рассом М.Рўзиметова) Тўмариснинг муштипар она, вафодор ёр, адолатли юрт боши сифатидаги қалб туғёнлари ўз ифодасини топади. Ўша бегуноҳ тўкилган қон рамзини эслатувчи қизил лолалар, оппоқ қор ва ҳалок бўлган азаматларнинг хотирасига бағишланган оқ лолалар буларнинг барчаси афсонадаги фожеаларни рамзий ифодалар орқали бола руҳиятига мослаштиришдаги ўзига хос усулларни ифода этади. Спектаклда янги актёр пластикасига мослашган катта планшет қўғирчоқлари кашф этилди. Инсон бўйи боробар келувчи улкан қўғирчоқлар икки актёр бошқаришига мослашган. Бу эса, янги бир ўзига хос қўғирчоқ ясаш усули ва бошқариш техникасини кашф этилишига асос бўлади. Бундай тажрибалар афсона ва достонлар асосидаги

саҳна асарларида амалга оширилаётгани халқ эпосини ўзлаштиришдаги тажрибаларни ўсиб бораётганлигидан далолатдир.

Сўнгги йилларда қўғирчоқ театри ижодкорлари улуғ бобомиз Алишер Навоийнинг ижодига алоҳида ахамият қаратиб келмоқда. Мутафаккирнинг достонлари асосида “Фарҳод ва Ширин” (Т.Тўрабоев, Б.Пармонов), “Лайли ва Мажнун” (Ҳ.Расулов, Ҳ.Ҳакимов), “Сабъаи Сайёр” (Т.Мирзо, Ш.Юсупов), “Лиссон ут-тайр” (Ҳ.Расул, Ш.Юсупов), “Баҳром ва Дилором” (Т.Мирзо, Ш.Юсупов) сингари спектакллар саҳна юзини кўрди.

“Баҳром ва Дилором” спектаклида ўзига хос саҳнавий ечимлар, ижро этиш усуллари ва ноодатий шакллар кўзга ташланади. Барча компонентлар – драматургия, режиссура, сценография, мусиқа ва актёрлар ижросининг уйғунлиги сректаклни муваффақиятини белгилаган. Айниқса, режиссёр Ш.Юсупов ва рассом А.Апухтинларнинг ижодий ҳамкорлиги асосида ўзига хос, такрорланмас саҳнавий ечимларини кўриш мумкин. Хусусан, Баҳром - етти иқлим шоҳи, етти рангдаги етти қаср, достон ичидаги етти ҳикояни ифода этувчи рамзий этютлар бадиий яхлитлик касб этган ҳолда спектаклга ўзгача руҳ ва илоҳийлик баҳш этган.

Қувонарлиси шундаки, ушбу тажрибалар қўғирчоқ театрларида ўзига хос ижодий жараён кечаётганлиги, янгиликка интилаётганлигидан гувоҳлик беради. Айниқса, қўғирчоқ театри режиссурасида турли мавзу ва ғоядаги асарларни саҳналаштиришда ўзига хос шакл ва усулларни ўзлаштирилаётганлиги эътиборлидир.

Хулоса қилиб айтганда, амалга оширилаётган тажрибалар шуни кўрсатадики, халқ эпоси ва аждодларимиз қолдирган маънавий мероси замонавий театрнинг янги миллий шаклини топиш йўлида муҳим воситага айланиб бормоқда. Бу йўналишдаги спектакллар халқаро фестивалларда намойиш этиш учунгина эмас, балки ўзбек театр маданиятининг ўзига хос қиёфасини кўрсатиш учун саҳналаштирилаётганлиги қувонарли ҳолдир.

Ғарб драматургиясининг қўғирчоқ театри репертуарларида ҳамиша бўлганидек, миллий мерос асосида яратилган спектакллар ҳам доимий равишда бўлиши эндиликда, “Гўрўғли”, “Равшан”, “Рустамхон”сингари ишқий-саргузашт достонларига ҳам мурожаат этилиши лозимлиги давр талабидир.

Тарихий асарларни қўғирчоқ театри орқали саҳналаштириш ёш авлодни тарихий сиймолар ва уларнинг ёрқин хотирасига бўлган ҳурмати, халқнинг бебаҳо маданий меросига бўлган эътиборини юксалтришга ҳисса қўшади. Зеро, тарих бу – ойна, унга қараган киши ўзини томирларида оқаётган қонни, аждодлари қудратини кўради ва уларга муносиб фарзанд бўлиш масъулиятини ҳис қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. М.Қодиров. Томоша санъати ўтмишидан лавҳалар. Т.: Фан, 1993, 163-б.
2. М.Қодиров , С.Қодирова. Қўғирчоқ театри тарихи. – Т.:Талқин, 2006
3. М.Қодиров. Анъанавий театр драматургияси. – Т.:Янги аср авлоди, 2006.
4. Ш.Ҳайитбоев. Қўғирчоқ театри режиссураси. – Т.:А.Қодирий
5. Т.Юлдашов, Ҳ.Икромов, И.Мухторов, М.Мухторова. театр ва ёш авлод. – Т.: 2012.
6. М.Ашуурова. Меҳрдан яралган олам. – Т.: Замон полиграф, 2018.
7. Ш.Юсупов. “Ўзбек қўғирчоқ театрларида профессионал режиссура масаласи: муаммо ва ечимлар”. “Театр”, 2020/3

2- shu’ba

Kompyuterli multiplikatsiya texnologiyasi

Xudayberdiyev S.A., O‘zDSMI, “Axborot texnologiyalari” kafedrasi mudiri v.b.

Annotatsiya. Ushbu maqolada kompyuter texnikasi va texnologiyasi yordamida multfilmlar yaratish bo’yicha hamda multfilmlar yaratishga qaratilgan dasturlar haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so’zlar: kompyuter, texnologiya, multiplikatsiya, animatsiya, 3D grafika, Anime Studio.

Аннотация. В этой статье проведены мисли и соображении о создании мультфильмов с помощью компьютерной техники и технологии, а также программ, направленных на создание мультфильмов.

Ключевые слова: компьютер, технология, мультипликация, анимация, 3D-графика, Anime Studio.

Annotation. This article contains thoughts and considerations about creating cartoons using computer technology, as well as programs aimed at creating cartoons.

Keywords: computer, technology, animation, animation, 3D-graphics, Anime Studio.

Multiplikatsiya yoki animatsiya hosil qilish deb alohida tasvirlarni kadrlashtirilgan holda suratga olishga aytiladi. Odatda multiplikatsiya termini ko‘proq qo‘llanadi. Multiplikatsiya va animatsiya terminlari inglizcha “multiplication-ko‘payish”, ”animate-jonlantirish” so‘zlaridan olingan.

Multiplikatsiya – bu kerakli axborotni keng auditoriyaga qizikarli, ranglar bilan bezatilgan va ifodali uzatish usuli hisoblanadi. Hozirgi kunda kompyuterli multiplikatsiya texnologiyasidan multfilmlar yaratishda, reklama va shou ko‘rsatuvlarida keng qo‘llanilmoqda. Ushbu maqolada kompyuter multiplikatsiya (animatsiya) texnologiyasi yordamida multfilmlar yaratish texnologiyasi va ularda ishlatiladigan amaliy dasturlar haqida mulohazalar berilgan.

Kompyuter yordamida multfilmlar yaratish texnologiyasining ikki qiyinchilik tomoni mavjud. Ulardan birinchisi, bu texnik qiyinchilik. Bunda rejissyor kompyuterning texnik va amaliy ta’minoti bo‘yicha, rassomlik bo‘yicha yetarli bilim va tajribalarga, anatomiya, fizika fanlaridan bilimlarga ega bo‘lishi talab etiladi. Bu bilimlarga ega bo‘lmasdan ekranda tasvirlar to‘plamini ketma-ket harakatga keltirish ma’nosiz, hech kim tomosha qilmaydigan multiplikatsiyaga aylanadi [1].

Texnik jihatdan animatsiya effektini tashkil etish, ya’ni rasmli personajlarni harakatga keltirish uchun animatsion dasturlardan foydalaniladi. Hozirda juda ko‘plab bunday animatsion dasturlar mavjud. Masalan, Adobe Flash, Adobe After Effects, Adobe Photoshop, Toonz, Toon Boom Studio, Anime Studio va boshqa shunga o‘xshash juda ko‘plab dasturlarni keltirish mumkin. Bu dasturlarning har birida kadr oynasi mavjud bo‘lib, unga o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan obyektlarni o‘zining virtual qatlamiga joylashtirish orqali ularni harakatga keltirish mumkin. Shu bilan birga bu qatlamlarni vaqt bo‘yicha hususiyatlarini o‘zgartirish paneli majdud bo‘lib, u “Time Line” (vaqt chizig‘i) deb ataladi. “Adobe Photoshop”da bu panel “Window” menyusining “Animation” buyrug‘i yordamida chaqiriladi.

Ikkinchi qiyinchilik tomoni bu yaxshi ssenariy yaratishdan iborat. Multiplikatsion filmlar yaratish bu filmlarning g‘oyasini ishlab chiqishdan boshlanadi. Tomoshabinlarga nimani ko‘rsatish kerak bo‘lsa, shu to‘g‘risida bosh qotirish kerak bo‘ladi, ya’ni ko‘rsatiladigan multfilmni ssenariysi yaratish kerak bo‘ladi. Multiplikatsion filmlarda ham ssenariy juda muhim hisoblanadi. Ssenariyda keltirilgan qaxramonlar va ularning xarakterlarini his qilgan holda rassom tomonidan ssenariy qaxromonlari personaji yaratiladi. Bunda ish eskizlar

yaratishdan boshlanadi. Qo‘lga qalam yoki ruchka olib ssenariy bo‘yicha belgilangan rol qaxramonlarining personajlari va ularning film sahnasidagi ko‘rinishlari chiziladi. Ularni qoyil maqom qilib chizish rassomning fantaziyasiga va rassomchilik san’atiga bog‘liq bo‘ladi. Tasvirlar chizishda mahsus planshetlardan foydalangan holda to‘g‘ridan to‘g‘ri kompyuter xotirasiga joylashtirish yanada maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yaratilgan personajlar harakatini tashkil etishning bir necha usullari mavjud, ya’ni [2]:

- animatsiya kadrlariga har bir tasvir alohida chizish orqali joylanib harakatlantirish;
- anamatsiya kadriga joshlashtirilgan tasvirni tranformatsiya qilish orqali harakatlantirish;
- harakatlantirish kerak bo‘lgan personajlarni bir necha qismlarga bo‘lib, so‘ng shu qismlar alohida chiziladi yoki rasmga tushirish orqali yaratib olinadi. So‘ng ularni animatsiya kadrlariga ketma ket joylashtirish orqali harakatlantiriladi. Bunday xaakatlantirish haqiqatga yaqinroq hisoblanadi.
- personajlar uch o‘lchovli fazoda modellashtirilgan va harakatga keltirilgan bo‘lishi mumkin. Ulaning harakati vaqt bo‘yicha uch o‘lchovli vektor fazodagi nuqtalarning o‘zgarishiga bog‘liq bo‘ladi.

Bu keltirilgan usullarning har biri uchun maxsus kompyuter dasturlari mavjud. Masalan fazodagi animatsiya uchun 3D grafika mahsulotlari xizmat qiladi. Ulardan biri personajni geometrik shaklini yaratsa, ikkinchisi rangi va teksturasini o‘zgartirishga xizmat qiladi, uchinchisi personajni harakatlanishini ta’minlaydi.

Tanlangan texnologiya asosida yaratilgan personajlar endi raqamli ko‘rinishga o‘tkaziladi. Bu ko‘p hollarda skanerlash orqali, ba’zan raqamli foto apparatlar bilan suratga tushirish orqali bajariladi. Ba’zan skaner qilingan rasmlar vektorli grafika elemenlari orqali qayta ishlanib vektorli tasvirlarga o‘tkazilishi ham mumkin.

Senariy personajlari tayyor bo‘lganidan so‘ng, ular kadrlashtiriladi. Bu bosqichda asta sekin bo‘lajak multflmning sahna ko‘rinishi qo‘yiladi, asosiy kadrlar aniqlanadi, har bir obyekt tanasining asosiy qismidan to kiyimlarining taxlanishigacha e’tiborga olingan holda ketma ket harakatga keltiriladi va bu harakat dinamikasi imkon qadar haqiqatga yaqinlashtiriladi. Buning uchun personaj harakatining barcha hususiyatllari e’tiborga olinadi. Shuning uchun bu eng qiyin bosqich hisoblanadi.

Keyingi bosqichda sahna ko‘rinishlarga fon beriladi. U statistik tasvir yoki murakab harakatlanuvchi dinamik tasvir bo‘lishi ham mumkin. Shu bilan birga bu bosqichda yorug‘lik va rang balanslari, ravshanlik, tovlanish kabi parametrlar ham o‘rnatiladi.

Ohirgi bosqich bu multfilmga ovoz yozish hisoblanadi. Bunda ovoz senariy qahromonlarining harakterlaridan, senariyda ifoda etilayotgan voqea hodisalar holatidan kelib chiqqan holda beriladi va bu ham imkon qadar haqiqatga yaqinroq qilib yaratiladi. So‘ng multfilm maxsus mutaxassis tomashabinlarlar hukmiga havola etiladi va ularning fikrlari inobatga olinib, multfilm qayta ishlanadi. Qayta ishlanishlardan o‘tib tayyor holga kelgan multfilm tomashabinlar e’tiboriga havola etiladi.

Multfilm yaratish jarayonining asosiy qismi kompyuter texnologiyalari yordamida bajariladi. Masalan, yuqorida keltirilgan **“Toon Boom Studio” amaliy dasturi o‘zining soddaligi va ko‘p imkoniyatligi bilan multiplikatsiya filmlari bilan shug‘illanadigan talabalarga juda qo‘l keladi.**

Anime Studio amaliy dasturi esa professional darajadagi grafik studiyabo‘lib, uning yordamida video lavhalar, multfilmlar uchun yuqori sifatli 2D animatsiyalar tashkil etish mumkin [3]. Bu dasturni kompyuterga o‘rnatish bilan “stol montaji”ga ega bo‘linadi. Uning asosiy hususiyati shundan iboratki, unda bir tayanch tasvir alohida qismlarga ajratilib, ularga harakat-animatsiya beriladi.

Hulosa qilib aytganda, zamonaviy kompyuter texnologiyalarining o‘rni multiplikatsiya san’atida beqiyos. Bu maqolani yozishdan asosiy maqsad, kompyuter texnologiyalarini multiplikatsion filmlar yaratishdagi o‘rni alohida

ekanliginigina isbotlash emas, balki talabalarni bu sohaga qiziqishlarini uyg‘otish va ularni bugungi multiplikatsiya san’atini rivojiga o‘z hissalarini qo‘shishga chorlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Solodchuk V.I. "Sozdaniye animatsionnogo filma s pomoshyu kompyutera", Moskva. Izdatelstvo instituta psixoterapii. 2002.
2. Xalatov I.V. "Mi snimayem multfilmi" Moskva "Molodaya gvardiya" 1989.
3. https://en.wikipedia.org/wiki/Computer_animation

“Agar biz ajdodlarimiz xotirasini ulug’lamoqchi,
shu asosda o’zbek nomini, O’zbekiston nomini
butun dunyoga tarranum etmoqchi ekanmiz,
bu ishni birinchi navbatda kino san’ati
orqali amalga oshirishimiz kerak”
SH.M. MIRZIYOYEV

O’zbekistonda Tarixiy filmlarni yaratishdagi dolzarb masalalar.

Fozil Nazarov
O’zDSMI 2-kurs “Musiqali,dramatik teatr va kino aktyorligi” mutahasisligi magistranti
Ilmiy rahbar:dotsent: R.J. Ustanov

Anotatsiya: Ushbu maqola o’zbekistonda tarixiy filmlarni suratga olishdagi dolzarb masalalar haqida. Kino san’atida tarixiy filmlarning o’rni va uning ongimizga tasiri haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: kino, manaviy, g’oya, aktyor, rol ijro, estetik, tarix, xalq, millat, mezon.

Аннотация: Статья посвящена актуальным вапросам создания исторических фильмов в Узбекистане. В статье обсуждается о роли исторических фильов в искусстве кино и их влиянии на наше сознание.

Ключевы слова: кино, духовность, идея, актер, роль, естетика, история, люди, нация, критерий.

Annotation: This article is about current issues in making historical films inUzbekistan.There is talk of the role of historical films in the art of cinema and its impact on our minds.

Key words: cinema, spirituality, idea, actor, role, performance, aesthetics, history, people, nation, criterion.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o’z yurti tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga o’zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu-tabiiy hol odamzod borki, avlod- ajdodi kimligini, nasl nasabini, o’zi tug’ilib voyaga yetgan qishloq, shahar xullaski vataning tarxini bilishni istaydi.

Hozir O’zbekiston deb ataluvchi hudud yani bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo’lganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan,sayqal topgan.Eramizgacha va undan so’ng qurilgan murakkab suv inshoatlari,shu kungacha ko’rku fayzini,mahobatini yo’qotmagan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda

dehqonchilik,hunarmandchilik madaniyati,memorchilik va shaxarsozlik san'ati yuksak bo'lganidan dalolat beradi.

Beshavqat davr sinovlaridan omon qolgan,eng qadimgi toshyozuvlar,bitiklardan tortib,bugun tutubxonalarimizda saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'l yozma,ularda mujasamlangan tarx,adabiyot,san'at,siyosat,axloq,falsafa,tibbiyot,matematika,fezika,kimyo,astra nomiya,memorchilik,dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar bizning beqiyos manaviy boyligimiz,iftixorimizdir.Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kam topiladi.Shuning uchun ham bu borada jahonning sanoqli mamlakatlarigina biz bilan bellasha olishi mumkin.

So'ngi vaqtlarda matbuotimizda va ijtimoiy tarmoqlarda milliy kinolarimiz haqida maqolalar va turli fikrlar elon qilinib,ularda ''Nima uchun bizda tarixiy flimlar yaratilmaydi''degan haqli savol o'rtaga tashlanmoqda.Fikrlar yaxshi. ''Ming asrlar ichra pinxon''tariximiz bobma-bob kinolentalarimizga muhirlansa,nur ustiga alo nur bo'lardi.Chunki prezindentimiz ta'kidlab o'tkanlaridek ''Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidik,o'z tarixini bilmagan xalqning xam kelajagi bo'lmaydi''.

Oddiy axoli o'rtasida sotsiologlar tomonidan olib borilgan so'rovnomada vatandoshlarimizdan qaysi mavzularda tarxiy flimlar yaratish kerak deb xisoblashlarini so'rab o'rganganimizda ularning ko'pchiligi,Shiroqniing jasorati, To'maris haqida,Spitamen,Alpomish,Amir Temur,Bibixonim,Mirzo Bobur,Ibn Sino,Mirzo Ulug'bek,Al Buxoriy,Az Zamaxshariy,Al Farg'oniy,Al Xorazmiy,Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Islom Karimov va boshqa tarixiy shaxslar haqida filmlar yaratish kerak degan fikrlarni bildirdilar. Garchand o'tgan asrda bir qator tarixiy shaxslarimiz buyuk allomalarimiz haqida filmlar masalan Alisher Navoiy, Ibn Sino, Moniy, Mirzo Ulug'bek, Beruniy, Hamza haqidagi filmlar yaratilgan bo'lsada, ular sobiq sovet tuzumi davrida yaratilganligi bois ularda tarixning ko'p qirralari atayin buzib ko'rsatilgan. Sovet mafkurasi singdirilgan, buyuk allomalar, vatanparvar shaxslar nomiga loy chaplaganligi

bilan ham bugungi kun talabiga javob bera olmaydi. Haqiqatdan ham bugungi kino arboblari oldida katta masuliyatli buyuk vazefa turibdi. O'zbekistonda yashab o'tgan, dunyo tamaduniga o'zining salmoqli hissalarini qo'shib kelgan buyuk tarixiy shaxslarimiz shu qadar ko'pki ularning har birining hayoti, ilm, ijod yo'li, vatanparvarligi, marifati, fidoiyiligi haqida butun boshli seriallar, katta katta filmlar yaratish mumkin. O'zbekning buyuk o'gloni yozuvchi Abdulla Qodiriy o'zining o'tgan kunlar asarida "Moziyga qaytib ish ko'rmoq- hayirlidir" deya fikr bildirganlar. Albbatta, xalq o'z tarixini bilmas ekan bora bora o'zligini yo'qotadi va tanazzulga yuz tutadi.

Albatta, tarixiy filmlarni yaratishga juda katta mablag'lar talab qilinadi. Vatanimiz mustaqilligining ilk davrlarida birinchi prezidentimiz Islom Karimov tomonidan o'zbek xalqi kimning avlodi ekanligini anglab yetishi insonlarda milliy g'ururni shakllantir niyatida Sohibqiron Amir Temur haqida "Buyuk Amir Temur" filimini yaratish uchun usha paytda jahon standartlari darajasidagi 55 ta film yaratish uchun yetadigan judda katta mablag'ni birgina "Buyuk Amir Temur" filimini yaratish uchun ajratishga topshiriq bergan edilar. Lekin, afsuski film uchun javobgar shaxslarning masuliyatsizligi, sovuqonligi tufayli o'rtamiyona film yaratilgan. Film jamoatchilik kino tanqidchilari va mutahasislari tomonidan ko'plab tanqidlarga uchragan.

Aslida film italiyalik kino ijodkorlar bilan hamkorlikda yaratilishi rejalashtirilgan edi va film rejissori Amir Temur roligi golivud aktyori Shon Konnerini taklif etishni rejalashtiradi. Bu holatga esa jamoatchillik va kino tanqidchilar vatanimizda Amir Temur rolini ijro eta oladigan aktyor yo'qmi deya o'znini tanqidiy fikrlarini bildiraverishganidan keyin italyalik rejissor shartnomani bekor qilib filmni yaratishdan voz kichadi. O'zimizning ijodkorlar esa qanday film yaratishgani esa hammamizga ma'lum.

Balki , usha paytdagi kino arboblarimiz jahon kino san'ati va sanaotida marketing degan tushuncha borligini anglab yetmagandirlar. Balki, asosiy rolni kim ijro etishi filmning dunyo kino san'ati tomonidan tan olinishiga katta xissa

qo'shishi haqida o'ylab ko'rishmagan, yoki bo'lmasa boshqa biror biz bilmagan maqsadni ko'zlagandirlar. Buni esa biz hozir bila olmiymiz. Nima bo'lganda ham juda katta mablag'lar xisobiga so'ngi 10-15 yil ichida Milliy Teleradiokanallarimizda biror marta ham namoyish etilmayotgan va tomoshabin qariyib unutib bo'lgan film yaratildi.

Buyuk tarixiy shaxslarimiz, allomalarimiz haqida filmlar ola biladigan kinorejissyorlar hozir ham bor. Faqat tarixiy film yaratilishi bitta rejjisyorining o'zi uddalashi mushkul ish. Buning uchun bir nechta kuchli rejissyorlar bir yoqadan bosh chiqarib hamkorlik qilishlari kerak. Bir necha o'nlab yosh rejissyorlar esa ularga assistant sifatida ishlari, birinchi, ikkinchi, uchinchi plandagi, ommaviy saxnalardagi aktyorlar bilan, yorituvchilar guruhi, operatorlar, rassomlar, liboslar bo'yicha, rekvizitlar bo'yicha mutahasis bilan ishlashlari kerak.

Huddi shunday, tasvirga olish guruhida ham o'nlab maxoratli va tajribali kinooperatorlar, ularga yordamchi sifatida bir necha o'nlab yosh operatorlar bir jamoa va yakdil bo'lib ishlashlari kerak bo'ladi. Nazarimizda, bugun kino ijodkorlarimizga ana shu hamfikirlik, birlashish va eng asosiysi vatanparvarlik etishmayabdi. Kino san'atining yana bir muhim tomoni bolalar hayoti xalq og'zaki ijodlarini ham film qilishlari kerak.

Milliy mafkurani yoshlikdan farzandlarimizga singdirish kerak. Yoshlarga oldi qochdi filmlarni targ'ib qilgandan ko'ra "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" ni ular ongiga kiritish kerakdir. San'atning boshqa turlarini kamsitmagan holda bugungi kunda televideniyaning kino san'atining tasir kuchi benihoya yuksalib borayotganini qayd etish lozim. Shuning uchun mening nazarimda kichkintoy bolalarimiz uchun milliy ruhda ko'plab multifilmlar badiiyva vedio filmlar yaratish lozim. Toki farzandlarimiz o'zbek xalq ertaklarini milliy qahramonlarimizni ham tanisin bilsin. Ular bilan iftihor qilishga odatlansin. Keying yillarda kino san'atimizda jiddiy o'zgarishlar yuz berayotganidan ko'z yumushimiz adolatdan emasligini takidlab o'tmoqchimiz. O'zgarishlar jarayoni kishini quvontirishi shubhasiz. E'tibor va rag'bat berilganligi bois kino asarlar

mazmuni o'zgardi. Xususan "Imom Termiziy", "Islomxo'ja", "Elparvar", "qo'qon shamoli", "101", "Ibrat" kabi tarixiy filmlar ishlandi. Yaqin tariximiz bo'lgan urush haqida filmlar ko'p ulardan shedevrlari etib "Sen yetim emasan", "Janga keksalar kiradi ", "Hurqizlar"kabi filmlarni aytishimiz mumkin. Ana shunday filmlardan yana biri 2020-yil 9-may "Xotira va qadirlash kuni"da telikanalarda ilk bor namoyish etilgan "Ilhaq" badiiy filmidir. Har qanday film estetik zavq baxsh etishi bilan birga manaviy ozuqa ham berish kerak. Ana shunda u kuchli kino asarga aylanadi. Tomoshabin kartina qahramonlari kulganda kulib yig'laganda birga yig'lasa dardu g'amini o'zinikaday his qilsa ana shu uning katta yutuqlaridan biri bo'ladi. "Ilhaq" badiiy filmi ham o'zida ana shu jihatlarni o'zida shu kabi jihatlarni namoyish eta oldi. Undagi bir qator yutuqlardan yana biri yangi qiyofalarning kashf etishidadir. Tarixiy yangiliklardan yana biri sarkarda Jaloliddin Manguberdi hayotiga bag'ishlangan "Mendirman Jaloliddin" yangi ko'p qismli badiiy filmning suratga olinishi quvonarli hol. "Mendirman Jaloliddin" serialini tarixiy filmlar olish borasida katta tajribaga ega turkiyaning mashhur "Bozdag film" suratga oldi. Mazkur loyihada milliy Mass-media fondi Vasiylik kengashi O'zbekiston madaniyat vazirligi hamda homiy sifatida "Orient Finans Bank" ishtirok etdi. Ushbu ko'p qismli filmning suratga olinishi katta jasorat, mehnat va Iroda talab qilgani pandemiya sharoitida yuzaga kelgan qiyinchiliklari hech kimga sir emas.

Prezident Shavkat Mirziyoyev,Oliy Majlisga joriy yilgi murojatnomasida kinemotogirafiya sohasida badiiy jihatdan yetuk asarlar yaratish zamonaviy kino studiyani rivojlantirish jumladan yangi kinoteatrlar qurish lozimligini takidlagan edi.Shu maqsadda sohaga katta mablag' yunaltirildi.Xususan ''O'zbekfilm''dagi barcha pavilionlar ta'mirlanib,yangi kartinalar suratga olish uchun sharoit yaxshilandi.Maskur kinostudiya va hujjatli filmlar studiyasini zamonaviy tehnikalar bilan jihozlandi.

Prezident ijodkorlar bilan suxbatlashganda,Jaxon kinosanoatini o'rganish va tadbiq etish,ijodkorlar malakasini oshirib borish,xususan,yoshlarni Rossiya davlat

kinemotagrafiya institutida o'qitish bo'yicha fikrlar bildirdi.Shuningdek bolalar uchun kinostudiya tashkil qilish g'oyasi ham ilgari surildi.Suhbatda ''Kino-tarbiyaning zamini. Bu ijodning maktabini ochishimiz kerak,hozir mukammal filmlar yaratishga havasimiz bor,lekin sifatlisi kam.Yurtimiz tarixi haqida albatta film bo'lishi kerak.Bunga vaqt keldi''-dedi davlat raxbari.

Albatta tarixiy flimlar bo'lishi kerak,darxaqiqat tarixiy filmlarni yaratishda ijodkorlarning tarixiy bilimlarini mustahkamlash,ularga tarixiy faktlar bo'yicha konsultatsiyalar beruvchi mutaxasislarni ta'limga jalb etish,tarixiy filmlar yaratish jarayonida sifatga erishishga omil bo'ladi.

Zero yosh avlodni manaviyatli qilib tarbiyalashni maqsad qilgan ekanmiz,ularga o'z tarixini haqqoniy va xolisona yetkazish zarur.Vizual asrda esa bu zarurat kino ijodkorlar zimmasiga ulkan masuliyat yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M "Tadqidiy tahlil qatiy – tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" "O'zbekiston " MNIU Toshkent, 2017.
2. Karimov I.A.O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.T. "O'zbekiston" 2011
3. Akbaro H. "Kino san'ati tarixi" Toshkent. "TIU", 2005.
4. Abduqosimova H. "Kino san'ati asoslari" Toshkent. "O'zMI",2009
5. Ubaydullaev A. "Oynai jahon istiqbollari", T. "Fan", 1993

Kinofond@uzbekkino.u

MULTFILMLARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI VA ULARNI YARATISH DASTURLARI

Zufarov Zoir Maxmudovich
O‘zDSMI, “Axborot texnologiyalari” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Maqolada qo‘g‘irchoq teatri va multiplikatsion filmlarning bolalar tarbiyasidagi o‘rni, tarbiyaviy ahamiyatga ega multfilmlar tavsifi, ularni yaratishning zamonaviy dasturlari to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: qo‘g‘irchoq teatr, multiplikatsion film, zamonaviy dasturlar.

Абстрактный. В статье говорится о роли кукольного театра и мультипликационных фильмов в воспитании детей, описываются мультфильмы воспитательного значения, современные программы их создания.

Ключевые слова: кукольный театр, многозальный фильм, современные программы.

Annotation. The article talks about the role of puppet theater and animated films in children's education, description of cartoons of educational importance, modern programs for their creation.

Key words: puppet theater, multiplex film, modern programs.

Oxirigi yillarda mamlaktimizda qo‘g‘irchoq teatr san’atiga katta e’tibor berilmoqda. Qo‘g‘irchoq teatri va multiplikatsion filmlarning bolalar tarbiyasidagi o‘rni beqiyosdir. Qo‘g‘irchoq teatr va multfilm qahramonlari bolaga tashqi dunyo bilan muloqot qilishning turli usullarini ko‘rsatadi. Ular yoshlarda mehr va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik me’yorlari haqidagi asosiy g‘oyalarni shakllantiradi. Yaxshi tarbiyaviy multfilm qiziqarli ham bo‘lishi kerak, shunda bolalar birinchi soniyalardan boshlab tasvirlarga mahliyo bo‘lib, qahramonga

ishonadi. U bilan birga foydali ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni va yangi narsalarni o‘rganishni boshlaydilar. Hozirda ko‘plab tarbiyaviy axamiyatga ega multfilmlar yaratilgan bo‘lib, ularga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin [1]:

«Murvatchalar» («Fiksiki») Yosh bolalarga ilm-fan va barcha turdagi texnika, qurilma va asboblarning tuzilishi haqida oson va tushunarli tarzda ma’lumot beradigan multserial. Obyektiv dunyoni bilishda haqiqiy yordamchi. «Murvatchalar» bilan birgalikda farzandingiz lampochkalarni almashtirish, kir yuvish mashinasini yoqish, kompyuterni tuzatish va hokazolarni o‘rganadi.

«Lola va raqamlar» Kichik tomoshabinlar 3D qizaloq Lola bilan birgalikda ingliz tili olamiga sayohatlarini boshlashlari va hisoblashni o‘rganishlari mumkin. Lola qiziquvchan va o‘z yoshidagi barcha bolalar singari bir joyda o‘tirmaydi, atrofdagi dunyoni bilishga harakat qiladi. Yaqinda qiz o‘nga yaqin yangi do‘stlar orttirdi. Bu raqamlar va ularni ingliz tilida aytishni o‘rgatadi.

«Shifokor qizaloq» Disney’ning ushbu multseriali bolalarga yoshligidanoq sog‘lig‘iga qanday g‘amxo‘rlik qilish haqida gapirib beradi. Qiz Dotti o‘zini «shifokor qizaloq» deb ataydi va yumshoq o‘yinchoqlari bilan «kasalxona»da o‘ynashni yaxshi ko‘radi. Ularga faqat stetoskopni tekkizish kifoya – o‘yinchoqlarga jon kirib, haqiqiy bemorlarga aylanadi.

«Floraning jamoasi» Qizcha Flora turli o‘simliklarning kuchiga ega bo‘lgan sehrli tabiat himoyachilari jamoasining yetakchisidir. Do‘stlar ekologik ofatlarning oldini oladi, qiziqarli sarguzashtlarni boshdan kechiradi va har kuni atrofdagi dunyo haqida yangi narsalarni o‘rganadi. Nega dengizga tashlangan oddiy plastik paket xavfli? Ekzotik hayvonlarni ular uchun begona muhitga olib kelish mumkinmi? Nima uchun suv havzalarida yuvish vositalarini ishlatmaslik kerak? Ushbu va boshqa ko‘plab savollarga Flora va uning super kuchlarga ega ajoyib do‘stlari javob beradi.

Axborot texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan hozirgi kunda multiplikatsion filmlar yaratish uchun ko‘plab dasturlar, yordamchi dasturlar yaratilgan. Hozirda keng qo‘llanilayotgan ushbu yordamchi dasturlar (utilitalar) yordamida bemalol multfilm yaratish imkoniyati mavjud [2]:

1. Moho yordamchi dasturi Windows, macOS muhitida ishlaydi. Vektorli 2D animatsiya va multiplikatsiya bilan ishlash uchun eng yaxshi profil vositalaridan biri. Moho o‘rnatilgan grafik muharririda grafik planshetda chizish, matnlar taxtasini yaratish va ob’ektlarni qatlamlarda qayta ishlash imkonini beradi. Yordamchi dastur vizual ob’ektlar va personajlar kutubxonasiga ega, real tabiatni ta’minlaydi va Unity harakatlari bilan birlashtirilgan.

2. Adobe Animate yordamchi dasturi Windows, macOS muhitida ishlaydi. Vektorli grafika va animatsiya yaratish imkonini beruvchi Adobe paketiga kiruvchi kuchli veb-dizayn dastur. Animate dasturi yordamida tayyor tasvirni qayta ishlash xuddi noldan boshlab chizish kabi oson. Ilova ovozli qatlamlarni, 3D modellarni, ActionScriptlarni va, albatta, boshqa Adobe mahsulotlari bilan integratsiyani qo‘llab-quvvatlaydi. Eksport qilinganidan so‘ng, kontent veb-saytlar, onlayn videolar yoki o‘yin dasturlarda ishlatilishi mumkin.

3. Synfig Studio yordamchi dasturi Windows, macOS, Linux muhitida ishlaydi. Ochiq kodli 2D animatsiya muharriridan foydalanish juda oson. Synfig animatsiya yaratish, filtrlarni qo‘llash, soyalash va o‘zgartirish effektlarini qo‘llash imkonini beradi. Skelet animatsiyasini qo‘llab-quvvatlash imkoniyati mavjud. Tayyor loyihani keyinroq yoki hatto boshqa kompyuterda ham ko‘rsatish mumkinligi, dasturning ijobiy hususiyatlaridan biridir.

4. Cinema 4D yordamchi dasturi Windows, macOS, Linux muhitida ishlaydi. 3D ob’ektlar, harakatlanuvchi grafikalar va real renderlarni yaratish uchun mo’ljallangan professional dastur. Cinema 4D oddiy interfeysga ega, undan hatto yangi o‘rganuvchilar ham bemalol foydalanishlari mumkin. Dastur protsessual va ko‘pburchak modellashtirishni qo‘llab-quvvatlaydi, shuningdek, barcha holatlar uchun turli xil paketli modullarga ega, jumladan, sahna vizualizatsiyasi, ob’ekt dinamikasi simulyatsiyasi, personajlar animatsiyasi va boshqalar.

5. Pencil2D yordamchi dasturi Windows, macOS, Linux muhitida ishlaydi. Oddiy 2D grafikalar bilan ishlash uchun minimal ochiq kodli dastur. Ijodiy jarayonni murakkablashtirmasdan, real vaqt ichida qahramonlarni chizish va

ularni jonlantirish imkonini beradi. Vektorli va rastrli grafiklarni osongina boshqaradi, effektlar va filtrlarni qo‘shishi mumkin. Yangi boshlovchi rassomlar uchun muhum bo‘lgan foydali maslahatlar va misollarni o‘z ichiga oladi.

6. OpenToonz yordamchi dasturi Windows, macOS, Linux muhitida ishlaydi. Futurama, Spirited Away va SpongeBobni yaratishda foydalaniladigan professional 2D animatsiyali chizmalar chizish dastur majmuasi. OpenToonz dasturi qatlamlardan tasvirlarni uzatish imkonini beradi, chizish uchun juda ko‘p vositalar va effektlarga ega; shuningdek, personajlarning skelet animatsiyasi uchun qulay funksiyalarga ega.

7. TupiTube yordamchi dasturi Windows, macOS, Linux muhitida ishlaydi. Havaskor foydalanuvchilar va ayniqsa bolalar uchun mo‘ljallangan 2D animatsiyalarni yaratish uchun oddiy vosita. TupiTube dasturining asosiy xususiyati oson chizish jarayonidir. Shuning uchun bir necha oddiy qadamlardan so‘ng multfilm yaratish mumkin. O‘rnatilgan resurs kutubxonasi va tayyor animatsiyalarni turli formatlarga eksport qilish imkoniyati mavjud.

8. Easy GIF Animator yordamchi dasturi Windows muhitida ishlaydi. Oddiy ikki o‘lchovli animatsiyalarni yaratish va keyin ularni GIF, AVI yoki SWF formatida saqlash imkonini beruvchi mashhur dastur. Easy GIF Animator o‘z nomiga mos keladi. Dastur ilovasida intuitiv interfeys va yangi foydalanuvchilar uchun ishni soddalashtiradigan bosqichma-bosqich sozlash ustasi (master nastroyki) mavjud.

9. Toon Boom Harmony yordamchi dasturi Windows, macOS muhitida ishlaydi. Chizishdan tortib to yakuniy ishlab chiqarishgacha bo‘lgan butun jarayonni qamrab qiladigan to‘liq animatsiyali dastur. Toon Boom Harmony dasturi kamera tasvirlarini o‘qib olishi, 2D ob’ektlarni 3D ob’ektiga aylantirishi mumkin. Ilova mo‘yqalam, palitralar va maxsus effektlarning katta to‘plami bilan jihozlangan. Yakuniy natijani animatsiya sifatida saqlash yoki Unity o‘yin mexanizmiga osongina o‘tkazish mumkin.

10. Pivot Animator yordamchi dasturi Windows muhitida ishlaydi. Stikmenlar bilan oddiy 2D kliplarga ixtisoslashgan juda oson o‘rganiladigan

muharrir. Dastur personajlarni mustaqil ravishda loyihalash, spritlardan foydalanish, fonni o‘zgartirish va turli effektlarni qo‘shish imkonini beradi. Bir so‘z bilan aytganda, bir necha daqiqada Stickman o‘yin seriyasi ruhida jozibali multfilm yaratish uchun kerak bo‘lgan hamma narsa mavjud.

Адабиётлар

1. Аромаштам М. Дети смотрят мультфильмы: психолого-педагогические заметки. / М. Аромаштам. -М.: Чистые пруды. - 2006. - 32 с.
2. https://lifehacker.ru/programmy-dlya-animacii/

ТЕНДЕНЦИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННОЙ ТЕХНОЛОГИИ В МУЛЬТИПЛИКАЦИОННОЙ ИНДУСТРИИ

Дусжанова Асалгул Мансурбековна

Аннотация: *В данной статье рассматриваются тенденции развития мультипликационной индустрии и формировании в современной жизьни.*

Ключевые слова: *мультипликационная индустрия, развитие, искусство, культура, современный мультфильм, технология, персонаж, формирование.*

Сегодня мультипликация является одной из самых быстрорастущих, развивающихся и прибыльных мировых индустрий. Со времени создания первого мультфильма прошло уже почти сто лет. За это длительное время анимация претерпела самые разные формы развития, а современные технологии сделали её совершенно не похожей на самый первый мультфильм. За всю история существования мультипликация прошла сложный путь от плоских и черно-белых изображений до реалистичных объемных кадров, которые, порой, тяжело отличить от настоящего фильма.

Всего несколько десятилетий назад в арсенале у мультипликаторов был незамысловатый набор инструментов: карандаши, краски, пластилин,

пленка, кисточки и бумага. На создание короткого мультфильма тратились недели, и даже месяцы. Процесс был настолько трудоемким, что для рисования 10-минутного мультфильма нужно было задействовать несколько десятков художников-мультипликаторов. С развитием кукольной мультипликации, родиной которой стала Россия, процесс упростился ненамного. Для каждой куклы нужно было сшить костюмы, обувь, снять каждое движение персонажа для последующей склейки мультфильма. Прорывом того времени стала графическая мультипликация Уолт Диснея, которая многие десятилетия оставалась главным принципом создания мультфильмов. Новая эра индустрии наступила с появлением современных компьютерных технологий. Процессмаксимально ускорился и упростился, и теперь большинство мультфильмовсоздаются при помощи электронных технологий. Сегодня, скорее, исключением становится появление на экране произведений в «старой технике»: прорисованные на пленке или вылепленные из пластилина герои. Ранее мультипликационная индустрия была нацелена на детей до 9- ти лет, современная же подача с использованием компьютерных технологий и спецэффектов делает это направление все более популярным не только среди детей, но и среди подростков, и даже взрослых. А развитие интернета и спутникового телевидения делает их просмотр доступным для любой семьи. Одной из последних тенденций мира мультипликации является стремление к предельной степени натурализации. Если раньше зритель максимально задействовал свое воображение для оживления персонажей, тосовременные технологии делают эту работу за него. Отвечая на этот тренд, сегодня активно развиваются трехмерные технологии. 3D графика являетсяодной из последних и самых популярных тенденций в мире мультипликации. Ни один кассовый мультфильм больше не обходится без эффектов трехмерного изображения. 3D оживляет рисованных персонажей и погружает зрителя в мир фантазии и иллюзий.

В связи с появлением новых технологий современному

мультипликатору уже недостаточно уметь только хорошо рисовать. Ему нужно быть уверенным пользователем компьютера и ряда графических программ, с помощью которых и создается современный мультфильм.

За почти 140 лет своего существования мультипликационная индустрия претерпела коренные изменения, но одно остается неизменным. Технологии важны, но главным всегда остается душа, индивидуальность и характер мультипликационных персонажей, которыми их наделяет художник-мультипликатор. Основными задачами мультфильмов всегда были и остаются донесение до своего зрителя ценности и стремление к добру и справедливости, которые остаются незыблемыми в самые разные эпохи развития общества и мультипликации.

Мультипликация как современный интегрированный вид искусства и обучения позволяет активно включать детей в процесс творчества; формировать культурно-нравственные эталоны; активизировать творческие способности детей. В процессе создания мультипликационного фильма у детей появляется необходимость в общении, формируется умение выражать свои мысли и чувства, раскрывается творческий потенциал, способствуя формированию познавательной и творческой активности. В результате деятельности по созданию мультипликационная анимация формируются такие качества личности, как любознательность, отзывчивость, коммуникабельность и способность к самовыражению.

Мультипликация является самым востребованным видом творчества среди детей младшего школьного возраста. Мультфильмы наполнены яркими, зрелищными образами, но при этом доступны для детского понимания. По своим педагогическим возможностям мультипликация близка к сказке и игре, что позволяет ей естественно воздействовать на личность ребенка и дает возможность разностороннего развития ребенка в визуально насыщенном мире. Искусство создания мультипликации является художественно организованной действительностью, в которой представлена некая реальность, которая

активно воздействует на эмоции, чувства и фантазию младших школьников. Мультипликационный продукт становится универсальным средством разностороннего развития детей.

Реализация мультипликационных программ в образовательном учреждении позволит решить вопросы художественного развития младших школьников, расширит границы познавательной активности, сформирует способность разносторонне рассматривать и оценивать проблемные ситуации, способствует активному творчеству детей и раскрытию их потенциала. Создание специального образовательного пространства в рамках культурно-патриотического, интеллектуально-эстетического образования будет способствовать становлению активной, самостоятельной личности. В процессе создания мультипликационная анимация используются различные задания, которые направлены на речевое, познавательное и творческое развитие детей: словесное составление сюжетной линии и портрета героев, фантазирование по поводу взаимоотношений в рамках съемки, анализ выразительности образа персонажей (речь, движения, жесты, интонация), а также создание самого образа. В технологию традиционной рисованной мультипликации входит наложение и сведение в один кадр прозрачных листов с нарисованными на них персонажами. При необходимости изобразить движение одного персонажа рисуется он сам и кадр собирается с заменённой деталью, вместо того, чтобы рисовать всю картину с изменением целиком.

Таким образом, мультипликация как популярный современный вид искусства является носителем человеческих ценностей, знаний и представлений о мире, моделей поведения, эстетических образцов и разнообразных примеров для подражания. Получается, что мультфильм как носитель культуры становится активным формирующим эту культуру у детей, особенно у тех, кто уделяет просмотру мультфильмов достаточное количество времени. Недооценка культура образующего значения

мультипликации приводит к тому, что дети часто поглощают некачественный культурный продукт, тем самым принимая сомнительные ценности. Таким образом, недооценка мультипликационного культурного потенциала приводит к тому, что уровень культуры подрастающего поколения снижается вслед за изменением ценностей, которые проповедует современная мультипликационная индустрия.

Список литературы

1. *Тарасов В.И*. Искусство исовременные художественные практики // статья, 2016. С. 3-6.
2. Символы культуры в современной мультипликации// презентация.
3. *https://cinemood.ru/blog-ru/animation_history*
4. *http://www.kultura.uz/view_5_r_15135.html*

АКТЁРЛИК МАҲОРАТИ ТЕХНИКАСИНИНГ МАҚСАДЛАРИ

Ёки

ТЎҒРИ ТАНЛОВ – ИЖОД МУҚАДДИМАСИ

Ўзбекистон давлат санъат
ва маданият институти
“Мусиқали, драматик театр
ва кино санъати”кафедраси
доценти Ш.Муҳаммадиев

Аннотация

Мазкур мақола узоқ йиллик педагогик фаолият ва профессионал тажрибадан олинган хулосалар маҳсулидир. Унда берилган кўрсатмалар талабаларнинг, аввало, комил инсон -ижодкор шахс бўлиб камол топишларига, ижодий жараёнда назарий ва амалий кўникмалар асосида шаклланишларига, бадиий дид ва савияларини оширишларига, актёрлик маҳорати элементларини мукаммал ўзлаштиришларига, мантиқ ва

изчиллик, уйғунлик ва гўзаллик тушунчаларини мустаҳкамлашларига ва келажакда актёрлик маҳорати сабоқларидан олган билимларини нафақат театрда, шунинг баробарида, санъатнинг бошқа турларидаги фаолиятларида ҳам қўллашларига, ўз маҳоратларини чархлашларига хизмат қилади.

Аннотация

Данное пособие составлено как результат долголетной педагогической деятельности и профессионального опыта автора. Методическое указания и выводы пособия прежде всего служит воспитанию студентов как всесторонне развитый, творческий человек, который умеет соединять теоретическое знание и практику, чувствует красоту, логику и последовательност человеческих поступок, полученные ими знания по мастерству актёра позволят им вести свою деятельность не только в театре, но и работать и повышать мастерства в других видах искусства.

Annotation

This manual is compiled as a result of many years of pedagogical activity and professional experience of the author. Methodical instructions and conclusions of the manual primarily serve to educate students as a fully developed person. Their knowledge of the skill of the actor will allow them to conduct their activities not only in the theater, but also work and improve skills as speakers and presenters in the radio, television and other arts.

Ҳар бир касб маълум бир ҳажмдаги билимни, кўникма ва малакани талаб этади. Буларсиз танланган соҳада ўзимизни мутахассис деб аташимиз мумкин эмас. Бадиий ижод соҳасида, инчунун. Санъатнинг танланган соҳаси асосларини ўзлаштирмай туриб уни эгаллашнинг иложи йўқлигини ҳамма яхши билади. Аммо актёрлик санъати ҳақида сўз кетса, шу заҳоти турли фикрлар ва қарашлар пайдо бўлади. Айтишларича, қобилиятли актёрга ҳеч қандай мактабнинг кераги йўқ, қобилиятсиз актёрга ҳеч қандай мактаб ёрдам

беролмайди. Бу фикрдан актёрлик санъатига ўқиш шарт эмас, актёр бўлиб туғилиш керак, деган хулоса келиб чиқади.

Бўлажак актёрда қобилият бўлиши кераклиги ҳақидаги фикрга нисбатан ҳеч қандай эътироз бўлиши мумкин эмас. Аммо иқтидорли мусиқачилар, қўшиқчилар ва балет раққослари табиат берган иқтидорларини ривожлантириш, ўз санъатларининг техникасини эгаллаш учун йиллаб меҳнат қилишларини қандай баҳолаш мумкин? Нега театр актёри учун фақат табиат берган қобилиятнинг ўзи кифоя қилиши керак?

Ҳақиқий санъат қобилият ва маҳоратнинг бирлашувидан пайдо бўлади. Маҳорат эса йиллар давомида тўпланган тажриба ва анъаналар мактаби орқали шаклланади. Мактаб ўқувчининг табиат берган хислатларига ишлов беради ва уни ривожлантиради, унга керакли билим ва кўникмани беради, уни эгилувчан ва ҳар қандай ижодий вазифани бажара олувчи таъсирчан шаклга олиб келади.

Ҳар қандай санъат тури қатори театр санъати мактабининг муваффақияти аввало тўғри танлов ва ана шу танлов асосида театр санъати мактабида билим олаётган қобилиятли ёшларнинг маънавий комиллигига боғлиқдир. Чунки ўзи комилликка интилмаган ижодкор ўз ортидан бутун бир томошабинлар авлодини эргаштира олмайди. Комил инсон, етук шахс тарбияси энг муҳим ва ҳамиша долзарб бўлиб келаётган мавзулардан бири ҳисобланади. Бу йўлда кўплаб битиклар, мақолалар, рисолалар ёзилган ва бундан кейин ҳам ёзилади.

Биринчи ўзбек драматурги Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг “Театр- бу ибратхонадур” деган сўзларига таянадиган бўлсак, комил инсон тарбиясида адабиёт ва бошқа барча санъат турлари қатори *театр санъатининг* ҳам ўрни беқиёсдир. Шунинг учун ҳам театр санъати, актёрлик йўлини танлаган ёшлар олдида турган муаммоларни ҳал қилишда эса ҳеч қачон шошилмаслик керак. Агар талаба тақдир тақозоси билан адашиб актёрлик йўналиши бўйича ўқишга кириб қолган бўлса *(актёрликни ёшликда кимлар орзу қилмайди),* ўз вақтида бу хатони тузатиш йўлларини кўрсата билиш лозим.

Мақсад- талаба кейинчалик афсус қилмасин, ҳаётда ўз ўрнини топиб олсин. Масалан, мен таҳсил олган гурухда қирқ бир нафар талаба бор эди. Лекин орадан бир йил ўтиб гурухда йигирма бир нафар талаба қолди. Устоз бизга: “Танлаган соҳангда орқа ўринда бўладиган бўлсанг, фойдаси йўқ. Ҳаётда қийналасан. Шунинг учун хатони вақтида тузатган ва бошқа касбни- кўпроқ фойданг тегадиган соҳани танлаган маъқул”, дердилар. Худди ана шу эътиқодларига содиқ ҳолда гурухдошларимизнинг тенг ярмини бошқа соҳа ёки санъатнинг ўзга турларига йўналтирдилар. Ва устознинг хато қилмаганликларини кейинчалик ҳаётнинг ўзи кўрсатди.

Театр аталмиш санъатнинг илк пиллапояси- актёр тарбиялаш жараёни ҳақида изчил, табиий кетма-кетликни сақлаган ҳолда бирор қўлланма ёки китоб ёзиш, услубиятни худди дарс жараёнидагидек қоғозга тушириш қийин ва оғир вазифа.Чунки, бу ёруғ оламда қанча одам бўлса, ҳаммасининг феъл-атвори ўзгача, бир-бирига ўхшамайди. Демак, инсон характерини яратувчи, руҳиятини кашф қилувчи актёрнинг туғилишида барчага бир хил услубни қўллаб бўлмайди. Шундай экан, актёрлик маҳорати ҳақида ҳамма замонга ва ҳамма талабага бирдек қўлланилиши мумкин бўлган услубий китобни ёзиш ўта машаққатли вазифа. Ёзганда ҳам, ижодий жараёндаги баъзи лавҳаларни хотирлаш, ижодий топилмаларни муҳрлаш, баъзи бир ёндашувларни мисол тариқасида қоғозга тушириш, иложи борича яхлит бир тизимга солиш мумкин. Қолаверса, бу йўлда аввало тажрибага, талабанинг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқиб ижодий мулоқот қилишга, унинг ўзлигини кашф этишига кўмаклашиш принципига таяниш маъқулроқдир.

Талабалик сафларга қабул қилинган ёшларга театр санъати, унинг машаққатлари, актёрлик касбининг ўзига хос қийинчиликлари ва афзалликлари борасида холисона маълумот берилиши шарт. Шундан кейингина тадрижий равишда навбатдаги жараёнга ўтиш лозим. Бу жараён актёрлик маҳорати техникаси (психотехника), санъат турлари, шу жумладан, мусиқали театрнинг ўзига хос хусусиятлари, театр этикаси, бадиий савия, актёрлик маҳоратининг унсурлари, мусиқали театр актёрлиги йўналиши

талабалари учун алоҳида, мукаммал шаклдаги мусиқий-ритмик тарбия *(айнан мусиқали театр актёрларини тарбиялаш жараёни драматик театр актёрини тарбиялаш жараёнидан шу жиҳати билан фарқ қилади, чунки, мусиқали театрда баҳолаш ва ҳатти-ҳаракат қилиш жараёни композитор берган такт, ўлчамларга боғлиқ бўлади, аслида театр санъати –шартли санъат, лекин мусиқий театрнинг шартлилик даражаси юқорилиги шу билан изоҳланади),* машқ –этюдлар, мукаммал этюдлар, роль устида ишлашни ўрганишдан ва энг асосийси, саҳнавий ижоднинг назарий билимларини- саҳна назариясини ҳам ўзлаштиришдан иборатдир. “Чунки саҳна назарияси санъат мактабига илк қадам қўйган талабанинг актёрлик касби маҳорати сирларини онгли равишда ўрганишига имкон яратади. Актёрлик касбида назария муҳим ўрин тутади. Ушбу саҳна назариясини ўрганиш ҳар қандай профессионал актёр учун заруратдир. Ҳар бир фанда назария бевосита амалиётга йўл очганидек, актёрлик маҳоратида ҳам назарий асослар амалиёт билан боғланиб, тўлдириб борилади. Актёрдан саҳна назариясини ўқиб-ўрганиш талаб этилади, шунингдек, актёрлик техникасини ўзлаштириш, пухта эгаллаш лозим бўлади. Бунга эса маълум амалий машқлар асосида босқичма-босқич эришиб борилади. Актёрлик техникасининг асослари дастлаб биринчи ва иккинчи курсларда чуқур ўргатилиши лозим. Сўнгра дарслар секин-аста пьеса ва роль устида ишлаш, саҳна образини яратиш усулларини ўрганишга бағишланади”[32].

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, педагог ҳар бир талабага унинг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқиб ёндашуви лозим. Шундагина унинг ўзига хос табиий хусусиятлари сақланиб қолади, саҳнада табиий-органик ҳатти-ҳаракат қилиш хислати мустаҳкамланади ва ривожланиб боради. Бугун *“берилган шарт-шароитда-мен”* талаби билан табиий ишлаётган талаба эртага *“берилган шарт-шароитда- менинг ролим”,* ва ниҳоят, *тимсол* қиёфасида ҳам табиий ҳатти-ҳаракат қила оладиган ижодкор бўлиб етишади. Педагог талабаларда ўз кучига, танлаган касбига нисбатан ишонч уйғота

[32] М.Абдуллаева.”Драматик театр ва кинода актёрлик маҳорати”.”Тафаккур қаноти”.2014й.9 бет

билиши, келажак ҳаётида, олдига қўйган мақсадларини амалга оширишида йўл кўрсатиши, талабада ижодкор этикаси ва инсонийлик бурчига садоқат маъсулиятининг шаклланишида кўмак ҳам бериши керак. Зеро, миллатнинг келажаги, санъат йўли, унинг қай тарзда кўриниш олиши айнан педагог тарбиялаётган талаба ижоди, шахсияти билан бевосита боғлиқ ва унга алоқадор ҳисобланади.

Аслида, театр санъати педагогикаси аста- секинлик билан шаклланиб борди. Лекин ўзига хос мураккабликлар ва қарама-қаршиликлар туфайли ҳамма вақт ҳам кутилган натижани бермади. Буюк актёрларнинг эскириб қолган юзаки ижро услубларини кўз қорачиғидек асраган эски мактаб ижоднинг ички моҳиятини очиб беришга қодир эмас эди. Замонавий актёрлик санъати мактабига асос солиш эса К.С.Станиславскийга насиб этди. У томонидан театр тарихида биринчи марта саҳна назарияси, актёрлик психотехникаси каби тушунчаларга асос солинди. Тарихда бундан олдин ҳам актёрлик санъати назариясига асос солишга уринишлар бўлганлигини исботловчи фактлар бор. Масалан, У.Шекспир ўзининг “Гамлет” фожеасида асар фабуласига машҳур “Қопқон” саҳнасини киритади. Бу саҳнада Гамлет дайди актёрларга томоша пайтида бажариши лозим бўлган топшириқларни беради. Бу жараён худди режиссёрнинг актёрга назарий вазифа бериши каби хислатга эга. Лекин бу замонавий нуқтаи-назардан қараганда, актёрни назарий жиҳатдан қуроллантиришнинг илк кўриниши сифатида қолиб кетди. Фақат К.С. Станиславский саҳна назарияси масалаларини, актёрлик техникаси борасидаги фикрларни илм даражасига олиб чиқди ва бу “Станиславский системаси” номи билан бутун дунёда тан олинди. Чунки системанинг мақсади- актёрларга саҳнада рол орқали “инсон руҳиятининг ҳаётини” жонли, бадиий ҳақиқатга йўғрилган ҳолда яратишига ёрдам беришдан иборат эди. Худди шу мақсадни амалга ошириш ниятида ҳам изланишлар олиб борилди ва театр мактаби яратилди. Бу мактаб шакл ва мазмун бирлигини талаб этади.

Тўғри, ҳар бир педагог театр санъати мактабига содиқ қолган ҳолда, ўзининг кўп йилик тажрибасидан келиб чиқиб ўзига хос таълим бериш услубини шакллантиради. Бу жараён атайлаб қилинмайди. Бу ерда, биз юқорида айтганимиздек, яъни актёрликнинг табиат берган жиҳатлари бўлгани сингари, педагогликнинг ҳам табиат берган маълум хислатлари ёрдамга келади. Чунки актёрлик қобилияти бўлмаган шахсни, қанчалик уринмагин, актёр қилиб шакллантиришнинг имкони бўлмагани сингари, педагоглик хислати бўлмаган одамда ҳам бу хусусиятни шакллантириб ва ривожлантириб бўлмайди.

Агар театрни ишлаб чиқариш тармоғи деб тасаввур қилсак, унинг маҳсулоти яхши спектакл бўлиши керак. Яхши спектакл туғилиши учун эса яхши хом-ашё зарур. Театр санъатида бу хом-ашё- *драматург* томонидан тавсия этилаётган пьеса ҳисобланади. Яхши драматургия билан қуролланмаган театр худди сифатсиз маҳсулот ишлаб чиқарувчи, охир – оқибат касодга учровчи корхона мисолидир. Демак, яхши драматургиясиз театрни, у ерда ижод қилмоқчи бўлган актёрлар ва режиссёрлар фаолиятини тасаввур қилиб бўлмайди. Драматургия театр фаолиятини таъминлаб берувчи санъат тури ҳисобланади. Санъат тури дейишимизга сабаб, ҳар қандай яхши саҳна асари ақлий, ҳиссий, ғоявий- бадиий ижоднинг маҳсули ҳисобланади ва театрнинг асосини таъминлаб беради. Бошқа томондан, яхши драматургия нафақат томошабинга чуқур маънавий озуқа беради, балки режиссёр ва актёрлар ансамблининг ижодий ўсишига, янада камолга етишига хизмат қилади. Яхши пьеса, аввало, унда кўтарилган мавзу-муаммонинг актуаллиги, саҳналарнинг тинимсиз курашлар ва ҳатти-ҳаракатларга асосланиб қурилгани билан ажралиб туради. Бу борада устозимиз А. Сайфиддиновнинг бир гаплари сира ҳам ёдимдан чиқмайди: “Актёрлик маҳоратидан хабардор, саҳнанинг чангини ютган ва шу билан бирга қалам тебратишга лаёқати бор инсондан яхши драматург чиқиши мумкин”.

Профессор М.Абдуллаеванинг ”Драматик театр ва кинода актёрлик маҳорати” китобида театрнинг ажралмас бўлаги-режиссурага оид жуда ўринли фикр келтирилган. “Театр ҳақида сўз борар экан унинг яна бир муҳим бўлаги – *режиссёр*га тўхталмоқ талаб этилади. Спектакль яратилиш жараёнини режиссёр бошқаради. Бироқ бу театрдаги ижодий жараёнда тазйиқ ўтказувчи бошлиқ дегани эмас, албатта. Режиссёр театр жамоасининг, ҳар бир аъзосининг ижодий имконияти, ички ва ташқи органикасини билиши, ҳис қилиши лозим. Бирон-бир спектакль дунёга келиши учун жамоа аҳиллигини таъминлаш ҳам бевосита режиссёрга боғлиқ. Режиссёрлик ишида энг муҳим жиҳат – бу актёр билан ишлаш жараёнидир. Зеро, режиссура санъатининг асосий қуроли – актёрдир”[33]. Тўғри. Буни назардан четда қолдириш мумкин эмас. Дарҳақиқат, саҳналаштирилаётган спектаклнинг туғилиш жараёнини режиссёр бошқаради. Режиссёр театр жамоасининг ҳар бир аъзоси ижодий имкониятини билиши, ҳис қилиши ва роллар тақсимотига жуда жиддий масъулият билан ёндошмоғи лозим. Ролларнинг тўғри тақсимланиши бўлажак спектаклнинг муваффақиятли шаклланишини камида эллик фоизга таъминлаб беради. Режиссурадаги энг муҳим жиҳатлардан яна бири – бу актёрлар билан ишлаш жараёнидир. Режиссёр актёрлар ансамблини танланган асарда кўтарилган мавзу-муаммога қизиқтира олиши, уларни илҳомлантира билиши, кези келганда актёрнинг ижодий фантазияси маҳсулидан унумли фойдалана олиши ва турли топилмалар учун актёрни ижодий-руҳий рағбатлантира билиши зарур. Яхши режиссёр ижодий жараёнда иштирок этаётган ҳар бир кишининг маслаҳатига қулоқ тутиши ва кези келганда улардан ўзи саҳналаштираётган спектаклнинг саҳнавий ечимига маъқулини усталик билан қўллай олиши лозим. Айниқса рассом билан ишлаш жараёнида эгоистик хислатлардан йироқ бўлишга ҳаракат қилиши керак. Чунки рассом режиссёрнинг саҳнавий асар ечимига оид мулоҳазаларини сценография қиёфасида очиб бера олувчи ижодкор

[33] М.Абдуллаева.”Драматик театр ва кинода актёрлик маҳорати”.”Тафаккур қаноти”.2014й.22 бет.

ҳисобланади. Баъзан рассомнинг фикрлари режиссёрнинг ўзи ҳам кутмаган ечимларига туртки бўлиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон нашриёт матбаа ижодий уйи.Тошкент.2017.
2. Вазирлар Маҳкамасининг Республика “Ёш сухандонлар” танловини ўтказиш тўғрисидаги қарори. 2017 йил 1-февраль.
3. Ўзбекистон Республикаси Маданият ва спорт ишлари вазирлигининг Республика “Ёш сухандонлар” танлови низоми.2017 йил 7-февраль.
4. Станиславский К.С. Асарлар.3 том.
5. Навоий. Ҳайратул аброр. Сўз таърифида бобидан.Тошкент.Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.1989й.
6. Сайфуллаев Б. Маматқосимов Ж. Актёрлик маҳорати. Т.: Фан ва технология. Т.: 2012.
7. Абдуллаева М. Драматик театр ва кинода актёрлик маҳорати. Тафаккур қаноти нашриёти. Т.: 2014.
8. Юсупов Ш. Радиобошловчилик маҳорати. Наврўз нашриёти.2014.
9. Джоржо Стреллер. Театр для людей. Радуга. Москва. 1984 й.

Ижрочи ва микрофон

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Мусиқали, драматик театр ва кино санъати”кафедраси доценти Эрназар Ярбеков

Аннотация

Ижрочилик санъатида микрофондан фойдаланиш техникасинимукаммал эгаллаган ижодкордан яхши актёр, хонанда ва созанда етишиб чиқиши кўп бора исботланган ҳолат бўлиб, бу жараёнда овоз режиссёри билан ижодий ҳамкорлик алоҳида аҳамиятга эга. Ана шу ижодий

ҳамкорлик ўрнатилган шароитда яратилган мусиқий асарлар миллионлаб тингловчиларни ўз ортидан эргаштиришда давом этаверади. Мавзу ижрочиликда техник имкониятлардан бири бўлмиш микрофондан тўғри фойдаланишнинг баъзи қирралари ҳақида.

Калит сўзлар: *микрофон, амфитеатр, эшитиш мосламаси, эгилувчанлик, мусиқа, такт, динмик микрофон, петличка, электростатик, овоз модуляцияси, тембр, регистр.*

Аннотация

В испольнителском искусстве умение правильно работать перед микрофоном играеть огромную роль при воспитание певцов и музыкантов. Это неоспоримиый факт. Умение правильно воспользоватся с техническими возможностьями микрофона- это одно из важнейщих требований в завоевании внимание слущателей. Статья о некоторыхгранях техничесого и творческого подхода к испольнению, о том, как нужно правильно работать перед микрофоном.

Ключевые слова: *микрофон, амфитеатр, слуховой аппарат, гибкость, музыка, часы, динамический микрофон, петличка, электростатика, модуляция звука, тембр, регистр.*

Бугунги замон тараққиёти, фан, техника ва технологияларнинг шиддатли ривожи жонли ва табиий ижро мактаби санъати йўлида тарбияланаётган бўлажак санъаткордан саҳнанинг барча сир- асрорларидан воқиф бўлиш билан бирга замонанинг техник имкониятларидан ҳам тўғри ва унумли фойдалана олиш қобилиятини талаб этади. Чунки бугунги куннинг ижодкори жуда кўп ва хилма- хил вазифаларни бажара олиши, турли вазиятларда ижод қила олиши зарур. Катта концертлар ўтказилувчи саҳналардан ташқари очиқ майдонлардаги амфитеатрларда, турли байрамлар ва концертлар ўтказилувчи саҳналарда, радио ва телевидениеда

иш олиб боришларига тўғри келади. Ва бундай вазиятда санъат оламига кириб келган техник имкониятлардан бири ва асосийси бўлмиш микрофонга албатта дуч келишади.

Микрофон кундалик ҳаётимизга, аввало, радио туфайли кириб келди. Кейинчалик эса санъатимизнинг тараққиёти кўп жиҳатдан микрофонга боғлиқ бўлиб қолди. Микрофон туфайли актёрлар сўзларини, хонандалар эса қўшиқларини миллионлаб тингловчиларга етказа олиш имконияти пайдо бўлди. Хўш, овозни кучайтириб, жамоага етказиб берадиган бу техникага яқинлашган шахс нималарни назарда тутиши керак? Авваламбор, сўзларни ўринсиз такрорлашдан ўзини тия олган, адабий тил меъёрларига эътиборли, қаерда, қачон, кимга нима ҳақида, нега гапираётганлигини эсда тутмоқликни лозим кўрган одамгина микрофон билан тўғри ишлай олади. Саҳнада қўшиқ куйлаётган, телевидение экранида ёки радиода ижодкор албатта микрофонни ҳис қила олиши зарур.

Микрофон бамисоли нутқ кўзгусидир. У овоз танлайди. Ҳамманинг ҳам овози микрофонга тушавермайди. Шу ўринда саҳнавий овоз ва микрофонбоп овоз ҳақида бироз фикр юритсак. Саҳнавий овоз барча талабаларда шакллантирилишига ҳаракат қилинади. Юқорида айтганимиздек, микрофон овоз танлайди. Жуда кўп ҳолларда микрофонбоп овознинг тембранаси табиатан берилган бўлади. Лекин овознинг эгилувчанлиги устида ишлаш орқали фақат саҳнавий дейилаётган овозни ҳам микрофонбоп овозга айлантириш мумкин. Бунга эришиш ижодкорни саҳнада ҳам, микрофон билан ишлаш жараёнларида ҳам бирдек фаолият юрита олишига замин яратади.

Саҳнада ёки радио ва телевидениеда чиқиш қилаётган ижодкорнинг овози микрофонга тушиши ёки тушмаслигини кўпроқ мухлислар аниқ билишади. Микрофон орқали чиқаётган овоз гўзал бўлиши ва ҳар бир товуш аниқ талаффуз этилиши лозим. Талаба билан овоз устида мукаммал ишлаш овознинг табиийлиги ва сунъийлигини ажратиб олиш имкониятини беради. Овоздан унумли ва онгли фойдалана билишнинг ўзи катта санъатдир. Уни

эгилувчан қилиш, исталган вақтда керакли томонга бура олиш каби хислатларни ривожлантириш ижодкорга сайқал беради ва бу жиҳатлар унинг, юқорида таъкидлаганимиздек, микрофон билан ишлаш жараёнида ҳам жуда асқотади.

Замонавий микрофонлар ўта сезгирлик хислатига эга. Бундай микрофон билан ишлаш жараёнида овозни атайлаб кучайтириш, яъни сўзларни микрофонсиз етказиб бериш услубини қўллаган ҳолда талаффуз қилиб бўлмайди. Биз микрофондан чиқаётган овоз билан табиий овознинг меъёрини ва улар кучи ўртасидаги фарқни билишимиз шарт. Ижрочи саҳнада овозни тўлиқ йўналтирган ҳолатда ишлайди. Агар биз ана шу овозни микрофон орқали чиқарадиган бўлсак, бунда овоз микрофонга кучланиш бериб, мусиқий софликни йўқотади.

Бундан ташқари микрофон олдида ишлашни ўрганмоқчи бўлган ижрочи нафас машқларини бажариши, айниқса, қорин пресси учун ишлатиладиган машқларни бажариши зарур. Биз биламизки, бундай нафас ҳавони узоқ муддат ушлаб туришга ёрдам беради. Шунда ҳар қандай матндаги жумлани охирги товушини тингловчига етказиб тугатиш имконини беради.

Динамик микрофонлар ва унинг хусусиятлари ҳақида фикр билдириб ўтсак. Динамик микрофонлар билан ишлашда нималарга эътиборберишимиз керак? “Одатда динамик микрофонлар катта саҳна марказларига ўрнатилади. Бу микрофондан бир ёки иккита ижрочи бир вақтда фойдаланиши мумкин. Айтайлик, концерт бошловчиси парда очилишидан аввал саҳнага чиқиб томошани бошлаш учун даставвал микрофонга қараб келади. Бунда бошловчининг ҳолати қандай бўлиши мумкин. Бошловчи саҳна ортида ижро этадиган матнини тўлиқ эслаб олади. Ташқи кўринишини тартибга солиб, ички руҳиятини концерт руҳияти билан мослаштириб, саҳна ўртасидаги микрофонга чоғланади. Микрофон қаршисига келган бошловчи концерт бошланмасидан аввал микрофонни текшириб кўрмаган бўлса, унинг дастлабки ҳаёли микрофонга кетади. Айтайлик, микрофон ҳам соз

ҳолатда, лекин бошловчи ички ҳаяжонини босиб ололмаган бўлса, унинг овози микрофон орқали тўлқилланиб чиқа бошлайди. Бунда у фақат ўзи гапираётган матнини ва овозини ўйлайди,томошабин билан мулоқоти эса иккинчи даражага тушиб қолади. Концертда жонли куйламоқчи бўлган хонанда ҳам худди шу ҳолатга тушади. Биз юқорида айтган барча унсурлардан халос бўлган бошловчи ва хонанда энди биринчи объекти микрофонни, сўнг томошабинни кўриши керак. Чунки у микрофон орқали ўз санъатини томошабинга етказмоқда. Овозни микрофонга тўғри йўналтириш товушларнинг тоза чиқишига имкон яратади. Агарда фикрларни эркин ифода қилмоқчи бўлган ижодкор саҳна ўртасидаги динамик микрофондан узоқлашса, унинг товушида ўзгариш содир бўлади. Шунинг учун статик қўйилган динамик микрофондан фойдаланаётганда овозининг йўналиши айнан микрофонга тўғриланиши талаб этилади. Динамик микрофонларнинг имкониятларини тўлиқ билиш микрофон ортида ишлаётган ҳар бир шахс учун ўта зарур жиҳатлардан биридир. Динамик микрофонлар ижрочининг овоз аппарати - лабларидан 30 сантиметр узоқда бўлиши керак”.

Овоз кучайтиргичларга эҳтиёж кучайиб боргани сари, уларнинг турлари ҳам кўпаймоқда. Улардан бири электростатик микрофонлардир. “Электростатик микрофонлар кондесатор ва электредлар сингари иккига бўлинади. Микрофонлар трактида ҳамиша қувват ва овоз кучайтиргич бўлиши лозим. Электростатик микрофонларнинг камчилиги ҳам бор. У доимий равишда электр энергиясидан қувват олиши лозим. Айтиш жоизки, мазкур микрофонларни илк маротаба электр манбаидан озиқлантираётганда, уни текшириш учун овоздан фойдаланмаслик керак. Бу ҳолатда овознинг табиийлигини аниқ сезиб бўлмайди. Бу микрофоннинг яхши хусусияти борки, у портловчи товушлар, сирғалувчи ёки бўлмаса сонор товушларнинг жаранглаб чиқишини олдини олади. Шунинг учун тинч, акустикаси баланд залларга ўрнатилган бу микрофонлардан бемалол фойдаланиш мумкин”.

Микрофон турлари овозни кучайтириб бериш хусусиятларига кўра хилма-хил бўлиб, улар ўзидан чиқарувчи товушларнинг специфик хусусиятлари билан ҳам ажралиб туради. Агар сизни умумий фойдаланиш учун қўлланиладиган микрофонлар қизиқтирса, у ҳолда нейтрал жарангни очиб берувчи микрофонларга тўхталганингиз маъқул. Бундан ташқари сизга керакли овоз характерига эришишингизга ёрдам берувчи омиллардан бири бўлмиш жойлашувга ҳам эътибор беришни унутманг.

Конденсаторли ва электрли микрофонларни чанг ва намликдан сақлаш лозим. Эътиборсизлик микрофонларнинг овоз сифатига салбий таъсир қилиши мумкин. Айниқса чанг ва тутундан эҳтиёт қилиш зарур. Булар микрофоннинг мембранасига жиддий таъсир қилади. Бундай микрофонларни эҳтиёткорлик билан сақлаш тавсия этилади. Улардан фойдаланилмаётган пайтларда махсус ғилофларга солиб олиб қўйган маъқул. Уларни қўлдан тушириб юбориш, қалтис ҳаракатлар билан жойлаштириш микрофон диафрагмасининг шикастланишига олиб келиши мумкин. Шикастланишдан асрашнинг энг қулай йўли – уларни поролонли қутичада, қуруқ ва салқин жойда сақлашдир. Агар доимий равишда бу услубни қўллашни хохламасангиз, ўзингизни ортиқча уринишлардан халос этиш учун микрофонларга махсус ғилоф кийдирган ҳолда тутқичлар (стойка)да қолдиришингиз мумкин. Айниқса радио ва телестудияларда аксар ҳолларда шундай иш тутилади.

Динамик микрофонларда конденсаторли ва электрли микрофонлардаги каби нисбатан юмшоқ, юқори частотали динамик диапозон мавжуд эмас. Лекин бошқа томондан динамик микрофонлар овоз юкига чидамлилиги билан ажралиб туради. Ёқимли ва бўлиқ овоз жарангини яратиш учун айнан динамик микрофонлар қўл келади. Конденсаторли ва электрет микрофонларга хос бўлган хусусиятлардан бири сезувчанликнинг юқорилиги, тезлик ва холислик. Улар ёрдамида овознинг нозикжиҳатларини ҳам илғаб олиш мумкин.

Электрет микрофонларни ички батареялар ёки фантом озиқлантириш йўли билан ҳаракатга келтириш мумкин. Лекин иккинчи услуб маъқулроқ. Чунки бунда батареялар қувватининг тугаб қолиш эҳтимоли бўлмайди.

Агар сизга батареяли қувватлантириш қулай бўлса, у ҳолда микрофондан фойдаланиш якунлангандан кейин батареяларни ечиб олишни унутмаганингиз маъқул. Бундан ташқари уларни тез-тез артиб тозалаб туриш тавсия этилади. Чунки ўта кучсиз ток туфайли содир бўлувчикоррозия овоз кучайтиргичнинг тез ишдан чиқишига олиб келади. Микрофонларни ишлатишдан олдин қиздиришни унутманг.

Микрофонларнинг мониторга ўта яқин жойлашуви ортиқча юк тушишига ва овознинг монитордан шанғиллаб эшитилишига олиб келиши мумкин.

Микрофонларни бир жойдан иккинчи жойга кўчирилиши жараёнида пультдан монитор овозини пасайтириш талаб қилинади.

Агар сиз микрофонннинг тутқичдаги жойлашув ҳолатини ўзгартиришни хоҳласангиз, унда дастлаб тутқични бироз бўшатинг ва микрофонни ўзингизга мослаштириб бўлгандан кейин тутқтични мустаҳкам қотиринг. Тутқичнинг мустаҳкам жойлашуви иш жараёнида яхши қулайлик беради. Бунда таянч оёқчалардан бирининг микрофон тутқичининг юқори “қўл” қисмининг остида бўлиши зарур. Бу микрофоннинг қулаб тушишини олдини олади. Тутқични микрофон кабели билан чирмаб ташлаш мумкин эмас. Бу ҳолат микрофонни бир жойдан иккинчи жойга кўчиришга халақит бериши мумкин.

Микрофон овоз аппаратига қанчалик яқин келтирилса, шунчалик пастки регистр кучли жаранглай бошлайди. Агар ижрочи рақс тушиб ёки соз чалиб куйлаётган бўлса, бундай йўл тутиб бўлмайди.

Микрофонни қўлда худди вилкани ушлагандек тутиш керак: бармоқларнинг учи билан, бутун кафт билан қопламасдан ушлаш лозим. Бунда барча бармоқлар микрофонни баравар тутиб туриши ва жимжилоқ таянч вазифасини бажариши шарт. Тирсак бўш ва эркин, бироз пастга

туширилган ҳолатда бўлишига эътибор қаратинг. Тирсагингиз қовурғангизни ҳис қилиб туриши лозим. Энг салбий ҳолат- бу тирсагингизни энгагингиз баландлиги даражасида тутиш ҳисобланади.

Бутун ижро давомида микрофонни оғиздан, яъни овоз аппаратингиздан бир хил узоқликдаги масофада тутишга ҳаракат қилинг. Агар узоқлаштирсангиз овоз хунук жаранглайди, яқинлаштириб юборсангиз “п”товушини талаффуз қилаётганингизда микрофон ёқимсиз овоз чиқаради.

Бутун чиқишингиз давомида ушбу ҳолатни ўзгартирманг. Сиз қаёққа бурилсангиз микрофон ҳам ўша томонга бурилиши шарт. Агар микрофон юзингизнинг вертикал ҳолатига перпендикуляр ҳолатни сақласа, бу овознинг сифатли чиқишини таъминлайди.

Микрофон билан ишлаётганда қўл билан турли жест (ишорат) ларни амалга оширишда чекланишлар лозим бўлади. Микрофоннни асосий қўлда тутиш лозим: чапақайларга – чап қўлда, ўнг қўл билан ишлайдиганларга - ўнг қўлда. Жест (ишорат) ларга иккинчи даражали қўл қолади. Энг катта ва кўп учрайдиган хатолик – бу микрофон ушлаган қўл билан жест (ишорат) ларни амалга оширишдир.

Агар симли микрофонда ишлаётган бўлсангиз, бўш қўлингиз билан микрофон симини оёқларингиз остидан олиб ташлашга ҳаракат қилинг. Секин- аста бу ҳаракат сизда автоматик ҳолат касб этиб боради ва диққатингизни тортмай қўяди. Чиқишни радиомикрофон ёрдамида амалга ошираётган бўлсангиз, бу янада енгиллашади.

Яхши микрофонлар саҳнада шовқинли овоз (фон) чиқармайди, уларни ишлаётган ёки ишламаётганлигини ҳам сезиш қийин. Тажрибасиз нотиқ микрофонга бармоқларни уриш ёки “бир-бир” деган сўзни айтиш билан ўзининг нўноқлигини билдириб қўяди. Агар сиз микрофоннинг ишлаётганлигига шубҳа қилаётган бўлсангиз, микрофон олдига келгач, томошабинлар билан оддийгина саломлашиш актини амалга оширинг. Томошабиннинг реакциясига қараб микрофон ишлаётган ёки

ишламаётганлигини аниқлаб олишингиз мумкин. Микрофон қандай ёқилишини саҳнага чиқмасдан олдин текшириб, ўрганиб олинг.

Мирофондан фойдаланиш маҳорти радиобошловчидан ҳам мусиқани ҳис қилиш қобилиятини талаб этади. Бу хислат ё табиий берилган бўлади, ёки "...актёрлик маҳорати сабоқларининг илк босқичидаги мусиқий-ритмик тарбия ёрдамида шакллантирилади (такт –ўлчам, мусиқий усул ва маром, саноқ, форте, пиано ва ҳ.к.з тушунчалари ёрдамида)".

Радиодастурларни олиб бориш жараёнида бошловчи ёки қўшиқ ёзиш жараёнида хонанда фақат микрофон билан ишламайди.Унинг энг яқин ёрдамчиларидан яна бири - эшитиш мосламаси (наушник) -техник кўмакчисидир. *Биринчидан,* эшитиш мосламаси бошловчини режиссёр билан алоқада ушлаб турувчи, тингловчи билан бевосита эфир жараёнида савол-жавоб қилишида ёрдам берувчи аппарат. Бошловчи ва хонанда шу аппарат ёрдамида бевосита эфир жараёнида режиссёрнинг эслатма ва йўриқларини қабул қилиб, йўл-йўлакай хато ва камчиликларни тузатиб бориш имкониятига ҳам эга бўлади. Бунда микрофонни ўчириб қўйиб режиссёр билан мулоқот қилишга хожат қолмайди. Чунки матн ўқиётган ёки тингловчилар билан мулоқот қилаётган бошловчи бир лаҳза бўлсин, микрофонни ўчирса ва сўзлашдан тўхтаса эфирда ўринсиз узилиш пайдо бўлади. Радиодаги бир лаҳзалик тўхталиш тингловчига худди бир неча дақиқалик узилишдек туюлади.

Иккинчидан, радиоэфирни мусиқасиз тасаввур қилиб бўлмайди. Режиссёр албатта ҳар бир эшиттиришнинг ғоявий-бадиий мавзусидан келиб чиқиб, шунга мос тарзда бошловчининг ижросига қайсидир куйни ҳамроҳ қилади. Сўзлаётган бошловчи ўз сўзига мос куйни ҳам эшитиб турса, бу жараён, яъни, ўзига хос бундай жўрнавозлик унга илҳом беради, тасаввурини кучайтиради, унинг ҳис-туйғуларини уйғотади ва самимий сўзлашига йўл очиб беради. Шу орқали дастурнинг эшитимлилик даражаси ортади ва тингловчининг эътиборини ўзига кўпроқ жалб этади.

Учинчидан, бошловчи ўзининг овозини ўзи ҳам тингловчи билан баб-

баравар эшитиб туриши унинг овоз пайчалари эркин, сиқиқликларсиз ва зўриқишсиз ишлашини таъминлайди. Бошловчи матн ижросида керакли темпо ритмни ушлаб туришида, дастур руҳиятини мунтазам сақлашида, мавзу ўзгаришидаги кўчишларни тўғри ва ишонарли амалга оширишида қўл келади.

Тўртинчидан, баъзида шундай ҳоллар бўладики, радиодастурнинг матнида муаллиф, муҳаррир, бош муҳаррир ва ниҳоят, бошловчининг ҳам назаридан четда қолган камчиликлар бўлади. Ана шу камчиликни эшитиш мосламаси ёрдамида ўзини назорат қилиб бораётган бошловчи айнан эфир пайтида илғаб қолади. Ва у билимли, уддабуррон бошловчи бўлсагина бу нуқсонни ҳеч кимга сездирмай тузатиб кетади. Қандай қилиб, деган савол туғилиши табиий. Чунки диктор ва бошловчиликнинг энг нозик сирларидан бири – бу тил матн бошидаги сўзларни талаффуз қилаётганида кўз матннинг ўртаси ёки охирини кўриб тура олишидадир. Ана шунда эшитиш мосламаси ёрдамида ўзининг овозини, талаффузини тинглаб бораётган бошловчи юқорида айтилган хатоликни ўз вақтида илғай олади ва уни тузатиб ўтади.

Хулоса қилиб айтганда, санъат оламига кириб келган имкониятлардан бири ва асосийси бўлмиш техника мўжизаси - микрофондан тўғри ва унумли фойдалана олиш ижодкорнинг ўз имкониятларини бутун бўй- бастибилан намоён қилишини таъминлаб берувчи бирламчи омилдир.

Адабиётлар:

1. Мирзиёв Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №11.
2. Шерел А. А. Радиожурналистика”-Москва давлат университети

нашриёти,2000.
3. Смирнов В. В. Эшиттириш узатиш шакллари. М.Аспект пресс,2002.
4. Юсупов Ш. Бошловчилик маҳорати. Тошкент.2014.
5. Ёрбеков Э, Мухаммадиев Ш. Актёрлик маҳорати.Тошкент.2019.
6. "Ҳамид Ғулом замонлошлари хотирасида". Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Тошент-2007.
7. Алимжонова З. Сахна нутқи.- Т., “Фан”, 2005.
8. Жуманиёзов Р. Нутқий махорат.- Т., 2005.
9. Носирова А. Жонли сўз санъати асослари.- Т., 2005.
10. Пўлатов И. Саҳна нутқи.-Т., 1994.
11. Сайфуддинов А. Адабий асар ва ижрочилик маҳорати.- Т., “Фан”, 1980.
12. Рахмонов М. Ўзбек театри.- Т., “Фан”, 1978.
13. Хўжаева Л. Нотиқлик санъати-Т., 1967.
14. Ишмуҳаммедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар. – Тошкент, 2008.

THE ROLE OF THEATRE IN THE DEVELOPMENT OF SPIRITUALITY OF YOUNG LEARNERS

Subanova Dilafruz Vahapjanovna
Senior teacher at Tashkent state pedagogical university

In recent days, a number of reforms aimed at improving the quality of education have been implemented in Uzbekistan. The president of the Republic of Uzbekistan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev is paying great attention to the development of education of young generation in the country.

After all, the most important and necessary factor for the development, prosperity, and peace of every state and society is education.[1] Education is the most important tool that determines the fate of a nation, its future and prosperity.

Therefore, if we approach the concept of education from a scientific and theoretical point of view, it has the following content:

The theory of education is a component of the science of pedagogy and psychology which studies the content and methods of educating young people in all aspects. The theory of education is based on the rich experience of Eastern philosophers and folk pedagogy. The theory of education relies on information from psychology, philosophy, ethics, aesthetics, physiology, sociology to maintain its activity.

The process of education is a cooperative process organized between the teacher and the students and directed towards a specific goal. In the process of education, the mind of the student is formed; behavioral habits that serve for social relations are established. In order to implement education effectively, it is important to know and take into account the source of the driving force of the educational process. In the process of education, the level of education of students also should be taken into account. If this aspect is ignored, contradictions will arise. Skills and habits formed in the process of activity make it easier to follow moral standards. The period of rapid development of the child's personality corresponds to school years.

That is why it is important to have a special impact on his mind with the help of various activities (craft, playing, sports, artistic activity, etc.). Types of education include: mental education, physical education, education of craft, moral education, environmental education, aesthetic education, polytechnic education, etc. Within these types of education mental, moral and aesthetic education is related to the formation of our spiritual image. All educations are directly related and complement each other. For example, theater art is one of the factors that can stimulate our spiritual development. After going to the theater and watching a performance, the audience draws the necessary conclusions from the performance and tries to get answers to the questions they are looking for. Therefore, it is appropriate to use different methods of teaching in the upbringing and education of children. Theater plays an important role in educating young learners.

It is necessary to pay great attention to all areas of theatrical activity in primary school. Because they can:

• create a model of gaining one's place in society;

• raise the child's culture while instilling national and spiritual values;

• familiarize with children's literature, music, fine arts, manners, national traditions and values and regularly increase their interest in this matter;

• help to inculcate the concepts of right thinking, good and bad into children's minds through games.[4]

Also, theatrical activity expands children's creative activity through game, fantasy, along with the development of children's inner experiences, relationships, emotional activity, i.e. reacting to the characters of the play, trying to get into their situation. The development of children's speech is inextricably linked with theatrical activities. In this case the characters' words, combined with the child's speech, increase his vocabulary and the pronunciation of speech sounds is perfected. Theatrical activities include putting on scenes from fairy tales, making role-play conversations based on the picture, independent improvisation on life topics (comedies, interesting events, etc.); watching and discussing puppet shows, dramatized games, exercises (verbal and non-verbal) that develop the expressiveness of role playing; includes children's emotional development exercises.[5]

The teacher plays an important role in setting up the theatrical activity and guiding the team in the right way. It is necessary for a teacher not only to read or tell expressively, but also to see, hear, get into the character, that is, to have the skills of acting and directing. It awakens children's interest in theatrical activities and opens the way for children's creative abilities to change in a positive direction. The teacher should not only turn shy children into spectators with his acting activity, but should carefully observe each child. Educators should regularly

support children, prevent them from making mistakes and being "fearful", "artist" and "spectator" when going on stage.

Pedagogical task becomes more difficult with artificial theatrical activity. It combines with feeling, thinking, imagination, and speech, and is manifested in various activities of children (speech, music, etc.). Therefore, we can call the theatrical activity a generalizing activity. During theatrical games, in children

- expands the understanding of the environment;
- develop psychological concepts such as imagination, consciousness and understanding;
- various analyzers develop, such as seeing, hearing, speaking;
- vocabulary, grammar, speaking, correct expression of one's opinion, pronunciation, tempo, intonation and expression of words become active and improve;
- motor skills, coordination, timbre, conversational skills are perfected;
- develops character formation;
- develops responsibility for each other and working in a team;
- develops independent thinking, creative activity;
- participation in theatrical activities gives children a lot of joy, they become interested in this activity.

As a conclusion, it can be said that theater art serves as one of the main means for education and upbringing of primary school students. This type of activity helps students to become mature, well-rounded people in all respects, to become active individuals who think independently and have their own place in society.

References:

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev "On the measures to bring up young generation spiritually, morally and physically, and raise the quality of the system of education to a new level" dated 14.08.2018. No. PQ-3907.

2. Aliyev Y. G. Ardashirova. Basics of aesthetic education. -Tashkent: Teacher. 1988. P. 206

3. M.G.Davletshin, Sh.Dostmuhammedova, S.Toychiyeva, M.Mavlonov, M.Dzumbayeva. Pedagogical and age psychology.Manual. -Tashkent.2009, Pp.41-42

4. V. Rustamov. Screenwriting skills. Tashkent. 2017. P. 33

5. D. Subanova. Teaching foreign languages to schoolchildren through the means of art. Reports of Uzbekistan State institute of art and culture (*scientific journal*) — *2021/1(17) Pp. 91-94*

Баҳодир МАГДИЕВ

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият

институти, “Саҳна нутқи” кафедраси доценти

Ёшлар маънавиятини шакллантиришда театр санъатининг ўрни ва аҳамияти

(Республика ёш томошабинлар театри мисолида)

Аннотация

Мақолада Республика Ёш томошабинлар театрининг мустақиллик йилларида саҳналаштирган спектакллари, репертуар яратиш ҳамда режиссура, актёрлик санъати ривожи йўлидаги изланишлари хусусида сўз боради.

Калит сўзлар*:Театр, драматургия, мавзу, жанр, характер, фабула, монологог, хатти-ҳаракат, актёр, режиссёр, композиция, бадиий ғоя.*

Аннотация

Статья посвящена спектаклям, Республиканским зрительном театром в годы независимости, созданию репертуара и режиссуры исследованием в области развития актерского искусства.

Ключевые слова: театр, драматургия, тема, жанр, характер, фабула, монолог, действие, актер, режиссер, композиция, художественная идея.

Abstract

The article talks about the performances staged by the Republican Young Audience Theater during the years of independence, the creation of repertoire and the researches in the direction of direction and development of the art of acting.

Keywords: theater, dramaturgy, theme, genre, character, plot, monologue, action, actor, director, composition, artistic idea.

Репертуар ҳар қандай театрнинг кўзгуси ва мезони ҳисобланади. Маълумки репертуардан жой олган асарлар театр жамоасининг ижодий бадиий салоҳиятини белгилайди. Репертуар қанчалик бой ва ранг-баранг бўлса, шунчалик театрнинг муваффақиятини таъминлайди. Бугунги кун театрлари репертуаридан миллий маънавий ва аҳлоқий қадриятлар, унутилаёзган урф-одатлар ва маросимлар акс этган саҳна асарлари, тарихий мавзудаги драмалар, замонавий муаммолар ҳамда замонавий қаҳрамонлар образи тасвирланган спектакллар ўрин олган. Мустақиллик йилларида Республика Ёш томошабинлар театри репертуари маҳаллий ёзувчилар билан бир қаторда чет эл драматурглари таржима асарлари билан ҳам бойиди.

Театр репертуаридан кичик ёшдаги томошабинларга мўлжалланган “Чўпқўғирчоқ” (Э.Хушвақтов), “Жону дилим пишлоқ”, “Сеҳрли дур” (Хитой халқ эртаги), “Аламазон ва унинг пиёдаси” (Тилаб Маҳмуд), “Орзулар кемаси” (Анвар Обиджон) каби яна бир қанча спектакллар ўрин олди.

Боғча ва бошланғич синф ўқувчиларини асосан эртак жанридаги спектакллар қизиқтиради. Эртак воқеаларидаги эзгулик ва ёвузлик, ҳалоллик ва тамбаллик, муҳаббат ва нафрат каби тушунчалар болалар

кўнглига тез йўл топа олади. Бола саҳнада кўрганларини бевосита ҳаётда қўллаб кўришга ҳаракат қилади. Бажараётган ишининг яхши ёмонлигини сеза бошлайди. Ёш бола онги барча нарсани тез қабул қилади. Бу табиий жараён албатта. Қўйилаётган ҳар бир спектакл болаларнинг маънавий, аҳлоқий ва руҳий ҳолатига таъсир эта олиш керак. Ёш томошабин спектаклни кўриб, тўлқинлансин, яхши-ёмонни ажрата билсин. Бемалол яйраб ўтирсин, кулсин, нимадандир таъсирлансин. Саҳнадаги жонли ҳаракатлар улар учун мисоли кўзгу. Ўзидаги бўшлиқни тўлдира олсин.

Театр жамоаси мустақиллик йилларида репертуарни кичик ёшдаги томошабинлар талабига жавоб бера оладиган спектакллар билан бойитишга интилди ва ҳаракат қилмоқда. Театр репертуарини кузатар эканмиз, О.Салимов ташрифидан сўнг айрим эскириб қолган услуб ва шакллардан воз кечилди ва ҳар томонлама томошабинга озуқа берадиган спектакллар яратишга боғланди. Зеро “Ҳар бир режиссёрга ҳос бўлган муштарак фазилат – унинг ўз сафдошларига қараганда ақллироқ ва зуккороқ эканлиги, бошқалардан муайян маънода устунлиги, атрофидаги ижодкор кишилар ва бадиий қобилият эгаси бўлган мутахассислар бошини бириктира оладиган қобилиятли киши бўлишлигидир”[34] .

А.Кудряцев томонидан саҳналаштирилган Э.Хушвақтовнинг “Чўп қўғирчоқ” асари қизиқарли воқеаларга йўғрилганлиги билан ёш томошабинларда катта қизиқиш уйғотди. Унда Нозигул исмли қизча қишлоқдаги бувисиникига дам олишга келади. Аммо орадан ҳеч қанча вақт ўтмай, у зерика бошлайди. Хархаша қилиб уйга кетаман, деб жанжал қила бошлайди. Неварасини қандай овутишни билмаган буви унинг атрофида гирдикапалак бўлади. Ҳаттоки ён қўшнилар ҳам бувига ёрдамлаша бошлайдилар. Лекин Нозигул уларни ҳақорат қилиб ҳайдаб юборади. Бувисининг эса дилини оғритади. Ўйинчоқларини жаҳл билан ҳар томонга улоқтириб ташлайди.

[34] Р.Усмонов. Режиссура. - Т.: Фан. 1997.

Бир куни эрталаб кўзини очса ажойиб мўъжиза рўй беради. Атрофдаги ҳамма нарсалар катта-катта бўлиб кўринади. Дарахтлар, супача, томлар, ҳаттоки ётоғи ҳам. У қўрқиб йиғлай бошлайди. Шунда бувиси ясаб берган, аммо уни ўйнашни истамаган чўпқўғирчоқ тилга кириб Нозигулга ёрдам бермоқчи бўлади. Бир ўзи уддалай олмайди. Шунда ёрдамга Нозигулнинг ўйинчоқлари, айиқполвон ва шерни чақиради. Аммо қизча уларни улоқтириб юборгани учун ўйинчоқлар унга ёрдам бериш ўрнига ўч олмоқчи бўлади. Охир-оқибат Нозигул ўйинчоқларига бошқа инжиқлик қилмасликка, бувижони ва яқинларини хафа қилмасликка сўз беради. Сўнг ҳамма нарса асл ҳолатига қайтади. Бу Нозигулга сабоқ бўлади. Спектакл ёш томошабинни дўстликка, катталарга ҳурматда бўлишга чорлайди. Ён атрофдагилар билан хушмуомала, ҳаттоки қўғирчоқларга ҳам эътибор беришга ундайди. Тантиқ, аразчи, урушқоқ болалар билан ҳеч ким дўстлашмайди, деган ғояни илгари суради. Асар қисқа ва лўнда жўн воқеалардан иборат. Актёрлар ижроси Нозигул (С.Парпиева) ва бувиси (Ҳ.Отахонова) режиссёр ғоясини тўғри талқин эта олганлар. Либослар, декорацияларда эртак руҳи ҳукмрон, рассом ва режиссёрнинг фикри уйғунликда олиб борилган. Ёш томошабин ўй-истаклари, дунёқарашидан келиб чиқиб танланган асар “Чўпқўғирчоқ” спектакли кичик ёшдаги болалар қалбидан ўрин олади.

Драматург Э.Хушвақтов асарларида соддалик ва самимийлик бор. Ижодкор ҳаётни ортиқча безаклардан ҳоли, оддий ва дилга яқин ҳолда чизади. Қаҳрамонлари ниҳоятда одамшинаванда ва шаффоф қалбли шахслар. “Чўпқўғирчоқ” спектаклида ҳам болаларга хос самимийлик, беғуборлик ва инжиқликлар кичик қаҳрамон Нозигул талқинида ифода этилади.

Э.Хушвақт болаларга хос фазилатларни, бебошлик –шўхликларни ушбу асарда моҳирона тасвирлай олган. Спектаклни томоша қилган жажжи томошабин ортиқча эркалигу шўхликларни ташлаб, ота-оналари сўзларига

қулоқ тутадиган болаларга айланишади. Нафақат ўз ота-оналарини, ўзидан катталарни ҳурмат қилиб улар сўзига қулоқ тутиш кераклигини ҳам тушуниб етишади. Улар фикрида манмаллик, дангасалик, танбаллик каби иллатлар салбий ҳолатларга олиб келиши пайдо бўлади. Бир сўз биланайтганда оддий, барча учун тушунарли тилда асар яратилган деб айтиш мумкин.

Театрда репертуаридан ўрин олган Анвар Обиджоннинг “Аламазон ва унинг пиёдалари” асарини ҳам томошабинларга яқин бўлди дейиш мумкин. Режиссёр Александр Кудрявцев ёш томошабинни психологиясидан келиб чиққан ҳолда пьесага ёндашгани кўриниб туради. Аламазоннинг яқин дўсти Эшмат бироз ўйинқароқ ва шўх болалардан. Аламазон эса кўпроқ ширин хаёллар сурадиган ва атрофдагилар учун қандайдир фойда келтиришни истайдиган бола. Икки дўст келишиб хазина топишга отланишади. Аламазоннинг фикрича агарда улар хазинани қўлга киритсалар мактаб учун стадион қуришни режалаштиради. Хуллас, икки дўст ўйлашиб, келишиб Елкантоғдаги ғорда жойлашган Зимистонсаройга йўл оладилар. Ғорга етиб келишганда бирдан гумбурлоқ овоз таралади, тошлар кўчиб, чанг кўтарилади, шунда ғорнинг оғзи ёпилади. Шу пайт уларнинг ёнига икки киши кириб келади. Бирининг исми Шилпиқ, иккинчиси Тиртиқ. Улар мана шу мамлакатнинг соқчилари бўлишади. Бу мамлакат эса Юлдузистон деб номланади. Уни ёвуз шоҳ Исқирт биринчи бошқаради. Икки дўст Юлдузистонни ёвуз шоҳдан ва унинг “шайка”ларидан қутқармоқчи бўладилар. Аламазон ҳаракат қилиб, Исқирт биринчини енгади ва ҳақиқий малика Хазинага Юлдузистонни озод этгани ҳақида хабар жўнатади. Сўнг эса ғордан чиқиб ўз мамлакатларига қайтишади. Спектакл якунида эса буларнинг бари Аламазоннинг тушида кечгани аниқланади. Асар якунидаги Аламазон томонидан айтилган фикрлар “Агар ростанам туш бўлса ҳаётимдаги энг гўзал туш бу. Яна қанча умр кўрмайин, ўша ғаройиб Юлдузистонни, ундаги қадрдон дўстларимни соғиниб эслайвераман. Эслаганим сайин, эзгуликка талпинавераман. Менимча ҳар бир юракнинг ўз

сеҳрли мамлакати бўлгани яхши”. Бу қаҳрамоннинг сўзлари орқали ҳар бир боланинг мурғак қалбида ўз орзу-умидлари, истаклари борлигини билиш мумкин.

Асардаги образларни Аламазон – Ҳаким Ҳалилов, Эшмат – Шерзод Бозоров, Шилпиқ – Абдумаъруф Қодиров, Тиртиқ – Дилбар Абдулазизова, Отин биби – Фарида Умарова, Малика хазина – Нафосат Позиловалар маҳорат билан ижро этганлар. Саҳнадаги декорацияда бироз камчиликлар сезилса-да, аммо рассомнинг воқеалар ҳолати ва мазмунини акс этдиришга эришгани кўриниб турибди. Либослар ҳам ҳар бир қаҳрамон характери, ҳолатига мос танланган. Спектакл драматургиясига тўхталадиган бўлсак, болаларбоп асарларни маромига етказиб ёза оладиган машҳур ёзувчи Анвар Обиджон айрим болаларнинг кир-чир бўлиб юришларини Исқирт биринчи ва унинг шериклари орқали очиб беришга интилган. Бу асар билан у мана шу қаҳрамонларни кўриб хулоса чиқаришни ва ўзларидаги салбий жиҳатларни ўзгартиришларини истайди. Аламазон образи орқали эса доим яхшиликка интилувчи, атрофдагиларга ёрдам беришга ҳаракат қилувчи болаларни ифодалаб берган. Бу асарни томоша қилган жамики томошабин ўйлаймизки, саҳнадаги қаҳрамонлардан ўрнак олишиб феъл-атворларини ўзгартиришга интиладилар.

Маълумки, болалар ва ёшлар тарбияси – жамиятимизнинг янги ижтимоий шарт-шароитларда олға қараб силжишидаги туб масаладир. Бундан кўринадики, томошабинлари доимо болалар ва ўсмирлар бўлган ёш томошабинлар театри ижодий жамоаси зиммасида ниҳоят даражада оғир, нозик ва масъулиятли вазифалар туради. Зеро халқимиз уларга нодир бўлган болалар маънавий дунёсини, мурғак қалбни, турмушда учрайдиган ҳар бир нарса, воқеа ва ҳодисаларни назардан қочирмайдиган, ишқ-муҳаббат ҳақида ҳам жиддий бош қотиришга уринувчи ёшларни ишониб топширган. Театр, албатта, у томошабинларни юрагига йўл топа билиши, ўз саҳна асарлари билан сабоқ бериши, хуллас, санъатнинг сеҳрли кучини намойиш қилиши,

бу кучни улар онгига сингдира билиши керак. Бундан ташқари театрга нисбатан муҳаббат ва аксинча санъатнинг шу турига нисбатан лоқайдлик ҳисси ҳам болаларда ёш томошабинлар театридан бошланади.

Ана шундай мақсадлар ила ижод қилишга шайланган Ёш томошабинлар театрида режиссёр Тўлқин Раҳматов Хитой халқ эртаги асосида “Сеҳрли дур” асарини саҳналаштирди. Спектакл воқеаси саҳнага масхарабозлар чиқиши билан бошланади. Улар турли ҳаракатлар, ўйин-кулгу орқали спектакл бошланишидан дарак берадилар.

Спектакл қаҳрамони Думен исмли йигит сеҳрли дур топиб олади. Уни гуручга солиб, гуруч кўпайтиради. Сўнг атрофдагилар унга пул кўпайтиришни маслаҳат беришади. Қарабсизки, Думен оддий деҳқондан амалдор, бойга айланади. Кейинчалик эса Думен қўрққанидан охир-оқибат сеҳрли дурни оғзига солиб ухлайдиган бўлади. Шундай кунларнинг бирида у дурни ютиб юборади ва аждаҳога айланиб қолади. Ўз ҳолига қайтишни жуда-жуда истаган Думенга спектакл охирида табиат маликаси ёрдам беради. Унинг кўмаги билан Думен ўз ҳолига қайтади.

Режиссёрнинг ютуғи гарчи асар Хитой халқ эртаги бўлса-да, уни ўзбек халқ масхарабозлари ижроси билан бойитган. Яъни Тўлқин Раҳматов спектаклга ўзбекона руҳни ҳам кирита олган. Актёрлар жамоаси ҳам яхши танланган. Рахматилла Қурбонов, Нафосат Позилова, Бахтиёр Позилов, Наргиза Мўминова, Шерзод Аҳмедов Абдувоҳид Сариқов каби истеъдодли актёрлар ансамбли яратилган. Саҳна декорацияларида ҳам Хитой халқига хос муҳит ҳукмрон.

“Сеҳрли дур” асари кичик ёшдаги болалар тоифасига мўлжалланган бўлиб, спектак ғояси ҳам битта, яъни пешона тери билан топилмаган бойлик яхшиликка олиб келмайди. Дарвоқе, бош қаҳрамон Думеннинг очкўзлик ва зиқналиги ўзининг бошига етади. Театр жамоаси бу асар билан болаларни очкўзликдан осонлик билан пул топишга ўч бўлмасликка ўргатади. Ҳар бир спектаклда бўлгани каби “Сеҳрли дур”да ҳам яхшилик ва ёмонлик ўртасида

конфликт юз беради. Саҳнадаги турли хатти-ҳаракатлар воқеаларни томоша қилган жажжи томошабин қалбида ҳам атрофидаги ҳодисаларга муносабат туғдиради. Улар ҳам мана шу саҳнадан воқеалар орқали нима яхшию, нима ёмонлигини тез англай олишади.

Театр жамоаси ёш томошабинлар талабидан ва психологиясидан келиб чиққан ҳолда бир қанча спектаклларни саҳналаштирди. Д.Урбан “Сичқонлар пишлоқни яхши кўради” асари асосида режиссёр А.Кудрявцев саҳналаштирган “Жону дилим пишлоқ” спектакли театр репертуарини янада бойитди. Асардаги воқеалар кулранг ва оқ сичқонлар орасидаги можаролар атрофида кечади. Икки сичқон оиласида келишолмасдан бир-бири билан тортишадилар ва асар сўнггида афсунгар сичқон ёрдамида низолар бартараф этилади. Саҳнадаги қаҳрамонлар яъни сичқонлар образини истеъдодли актёрлар Зединисо Қодирова, Зафар Асқаров, Баҳром Усмонов, Акром Бўронов, Дилбар Аромова ва Нафосат Позилова каби актёрлар ижро этганлар. Спектакл болажонлар кўнглидан жой олишини истаган бу ижодкорлар берилган ролни маромига етказиб ижро эаётганликларини сезиш қийин эмас. Масалан истеъдодли актриса Нафосат Позилованинг кичик қаҳрамони ҳақида тўхталадиган бўлсак, у оқ сичқоннинг Фрунзи исмли қизи образини яратган. Актриса саҳнада худди оқ сичқонлардек ҳаракат қилади. Унинг юришлари, хатти-ҳаракатлари, овозининг майинлиги томошабинларни воқеалар қуршовига чорлайди.

Боғча ёшидаги болалар онги ҳали мураккаб нарсаларни қабул қила олмайди. Уларга содда ва жўн тилда воқеани етказиб бериш керак. Мана шу фикрларни инобатга олган ҳолда режиссёр айнан шу асарга қўл урган. Бу спектаклни кичик ёшдаги томошабин маза қилиб мароқ билан томоша қилса, иккинчидан меҳрибон бўлишга ва атрофдагиларга хушмуомалада бўлишга ўрганади. Асар яхшилик, дўстлик ҳамма

Маълумки саҳна асари драматург, режиссёр, рассом, композитор, сценограф ва актёр меҳнатидан яратилади. Режиссёр ва драматург ғояси,

ижодий маҳсулини актёр саҳнада талқин этади. Актёр серқирра шахс бўлиши керак, жаҳон драматургияси дурдона асарларида турли образлар, характерларни ижро этиши лозим. Ҳар томонлама етук ижрочи бўлсагина ўз мавқеи, обрусини сақлаб қолади. Актёрлик санъатининг ҳам ўзига хос қонун-қоидалари мавжуд. Томошабинни воқеага ишонтира олиш, саҳнадаги қаҳрамон ҳолатига кира олиш, режиссёрнинг олий мақсадини амалга оширишдан иборат. Шу билан бирга актёрда импровизация ҳам кучли бўлиши керак. Ижодий жараён давомида рол тақсимланади, режиссёр вазифаларни тушунтиради, пьесани ўқиб чиқади, сўнг ўзи мустақил ижод қилади, образга мос характер, детал топишга интилади. Агарда, актёр режиссёр кўрсатиб берган ҳолатдан чиқиб кетолмай, талқин этаётган образига бирор янгилик ярата олмаса унинг ижоди сўна бошлайди. ўз устида ишлаши, ўзига хос характерлар яратиши лозим. Актёрлар ижроси залдаги томошабинлар учун мос ҳолда, саҳнадаги воқеликка уйғунлашган тарзда бўлиши керак.

Драматик театр актёридан фарқли ўлароқ Ёш томошабинлар театри актёри ўзига хослигини билан ажралиб туради. Яъни болаларга спектакл ўйнаш мушкул бўлиб, уларда саҳнадаги воқеа-ҳодисаларга муносабат очиқ-ойдин бўлади. Воқеалар давомида салбий қаҳрамонларга бор муносабатни ифодалайдилар. Спектакл воқеаларига аралашишга уринадилар. Актёрлар бундан ўринли ва унунмли фойдаланишлари лозим. Шундагина театрга ташриф буюрган томошабин асардан маънавий озуқа олиши мумкин. “Аввало болалар ва ёшлар театри катталар театрига ўхшаган, аммо ундан-да яхшироқ бўлиши керак. бу фикр актёрларга ҳам тегишли. Болалар театри актёри серқирра ва моҳир ижодкор жисмонан бақувват, руҳан тетик, табиий хусусиятлари болаларнинг қизиқишига мос келадиган шахс бўлиши шарт”[35]
.

[35] С Шодиева. Бола саҳнада ўзини кўрса. – Т.: Театр//2009 й. №7-8.

Ёш томошабинлар театрнинг ўз спецификаси бор, яъни ёш болаларга маънавий озуқа бера оладиган, уларга тўғри йўл кўрсатадиган, ҳар томонлама мукаммал, қизиқарли спектакллар яратиш лозим. Театр жамоасининг мустақиллик йилларида ёш томошабинлар талабига жавоб берадиган спектакллар яратишга муваффақ бўлганлигини кузатиш мумкин.

Театр санъатининг асосини репертуар, режиссура, актёрлик санъати ҳамда сценография, мусиқа компонентлари белгилайди. Мана шу муштараклик акс эттирилса, ажойиб саҳна асарлари юзага келади ва мазкур театр фаолияти ҳақида яна ва яна тўхталишга, илмий хулосалар қилишга ундайди. Шуни ишонч билан айтиш мумкинки, Республика ёш томошабинлар театри доимо юрт келажаги бўлган ёшларимизни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда, уларнинг онгу-шуурига эзугик, бунёдкорлик, меҳр-оқибат, садоқат, оқибат, дўстлик, бағрикенглик каби ғояларни сингдирида муҳим восита бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Абдусаматов Ҳ. Драма назарияси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. - 288 б.

2. Икромов Ҳ. Давр ва театр. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энцеклопедияси давлат илмий нашриёти, 2009. - 240 б.

3. Истиқлол ва миллий театр. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002. -216 б.

еатри: тарихий драма. – Тошкент: San’at, 2004. - 326 б.

4. Тўлахўжаева М. Театр танқидчилиги. – Тошкент: San’at, 2015 . - 410 б.

5. Турсунов Т. Саҳна ва замон. – Тошкент: Янги аср авлоди,2007.-267 б.

6. Турсунбоев С. Ўзбек театри сарҳадлари. – Тошкент: ЎзДСИ, 2010. – 308 б.

7. Ўзбекистон санъати (1991-2000). – Тошкент: Шарқ, 2001. -240 б.

Folklor milliy liboslari va uning bugungi kundagi o‘rni

Ortiqova Zahroxon Behzodbek qizi

O‘zDSMI, “Folklor va etnografiya” yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar:Isayev Kamoliddin Saidovich
O'zDSMI, “Folklor va etnografiya” kafedrasi mudiri dosent v.b

Annotatsiya: Folklor-sinkritik xususiyatga ega bo‘lib, barcha san’at turlariga xos elementlarni o‘zida mujassamlashtirgan, so‘z, kuy va ma’lum turlarida raqs uyg‘unlikda ijro etiladi. Folklorda xalq hayoti, tarixi, taqdiri badiiy aks etadi. Folklor asarlari mag‘zida xalqning dunyoqarashlari, ibtidoiy mifologik tushunchalardan mukammal diniy e’tiqodiga bo‘lgan tushunchalar tadrijiy ravishda bo‘y ko‘rsatadi. Ushbu maqolada folklor milliy liboslari va uning bugungi kundagi o'rni xususida so‘z yuritildi.

Kalit so'zlar: folklor, milliy liboslar, xalq o‘yinlari, folklorshunoslik.

“Ma’naviyat kecha yoki bugun paydo bo‘lib qolgan tushuncha emas, u asrlardan buyon xalqimiz bilan birga yashab, birga taraqqiy etib kelayotgan buyuk bir qadriyatdir” degan edi muhtaram yurtboshimiz o‘z nutqlarida. Inson dunyoga kelgan kunidan boshlab, to hayotining eng so‘nggi lahzasigacha o‘zi mansub xalqning qadriyatlari, an’analari ichida ulg‘ayadi, kamol topadi. Hatto o‘zini folklorga begona deb bilgan, bu atama ta’rifidan mutloqa yiroq bo‘lgan kishi shu an’analar ichida ulg‘aygan, uning ongi, shuuri shu qadim an’analari ta‘sirida shakllangan bo‘ladi. Har bir sohaning o‘z tarixi bo‘lganidan, folklorshunoslik borasidagi izlanishlarning ham o‘z ildizlari mavjud. Bu izlanishlar ildizi olis o‘tmishga borib taqaladi. Mahmud Koshg‘ariy zamonidan to bugungi kungacha

xalq og‘zaki ijodi haqida nimaiki aytilgan, yozilgan bo‘lsa bularning bari o‘zbek xalq og‘zaki ijodini o‘rganishga o‘zining munosib ulushini qo‘shgan. Folklor turli davrlarda turlicha o‘rganilgan, turlicha yondashuvlar bo‘lgan, biroq mustaqillikdan keyin u tom ma’noda yangicha mazmun va mohiyat kasb etdi. Inson ma’naviyatini yuksaltirishda folklorning o‘rni haqida gap ketar ekan, aslida bu jarayon bolaning tug‘ilishidan boshlanadi. Momolarimiz, onalarimiz aytgan allalar, erkalamalar, aytimlar, topishmoqlar, tez aytishlar, ertak va qo‘shiqlar bolaning tili, dunyoqarashining shakllanishiga xizmat qiladi. Xalq o‘yinlari esa bolaning ham aqlan, ham jismonan ulg‘ayishi uchun muhim omillardan biridir. Bola ana shu qadim an’ana va qadriyatlar ichida voyaga yetadi, biroq bugungi global jamiyatda ulg‘aygani sari go‘yo bu muhitga begona bo‘la boshlaydi. Bu begonalik, eng avvalo, har qadamda o‘z ta’sir kuchini ko‘rsatayotgan ommaviy madaniyat ta’siridan boshlanadi. Bularning barchasi ma’anaviyat ravnaqiga emas, aksiga xizmat qiladi. Bu muammolarni bartarf etish uchun esa, ta’lim jarayonining barcha bo‘g‘inlarida, maktabgacha ta’limdan to oliy o‘quv yurtlarida til o‘qitish va o‘rganishda folklorga ilmiy-nazariy yondashish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xalqning til boyligi birinchi galda uning folkorida namoyon bo‘ladi. Biror bir xalqning qanday xalqligini bilish uchun uning folklorini o‘rganish zarur deb o‘ylayman. Folklorda xalqning til imkoniyatlari, mushohada tarzi, ijodiy quvvati aks etgan bo‘ladi. Og‘zakilik, variantlilik, jamoaviylik folklorning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, u xalq ijodi namunalari bevosita jonli ijro jarayoni bilan bog‘liq ekanligini urg‘ulaydi, ya’ni folklor asarlariga turg‘unlik xos emas, u har galgi ijroda o‘zgaradi, yangilanadi, bu esa badiiy til imkoniyatlarining yuksak namoyishi demakdir. Shuning uchun aytish mumkinki, folklor bu shunchaki so‘z san’ati namunasigina emas, balki, xalqining til zahirasi, tushuncha va tafakkur tarzini bor bo‘y basti bilan o‘zida aks ettirgan, olis o‘tmishdan to bugungi kungacha jonli holatda xalqning o‘zi bilan birga yashab kelayotgan doimiy harakatdagi tarixi va madaniyati hamdir. Bugungi yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda, ma’naviyatini yuksaltirishda ko‘plab usullar, vositalar, metodlar mavjud. Biroq bu usul va metodlar birinchi navbatda so‘z san’atining ibtidosi sanalgan folklor namunalariga suyanilgan holda amalga oshirilsa, yanada samarali va ta’sirchan bo‘ladi.

Xalqimizning milliy taraqqiyotida, ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy yuksalishida folklor, umuman badiiy so‘z san’ati hamisha tayanch nuqta bo‘lib kelgan. Zero, folklor bu millatning quvvati, tirikligi va buyukligidir. Bugungi global jamiyatda davlat chegaralari qo‘riqlangani, muhofaza etilgani kabi millat

tili va tafakkuri, estetik didi ham huddi shunday asrab avaylanishga, qattiq himoyaga muhtojdir. Folklor deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma san'at namunalari me'morchilik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo'zlik, musiqa, raqs, og'zaki adabiyot namunalari tushuniladi. Har bir san'at sohasida ish olib borayotgan mutaxassis o'zi tanlagan turni "folklor" deb ataydi. Masalan, musiqachi xalq kuylarini, xoreograf xalq raqslarini, arxitektor xalq me'morchiligini, folklorshunos olimlar esa, xalq og'zaki ijodiga ta'luqli bo'lgan barcha janrlarni folklor asari deb hisoblaydi.

Folklor milliy liboslari- o'zbek xalqining milliy o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi qadimgi davrlarda yaratilgan va hozirgi kunlarda foydalaniladigan, madaniyati va tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lgan kiyimlar hisoblanadi. Har bir mintaqa uchun o'ziga xos farq va xususiyatlar mavjud. Folklor milliy libosiga ayollar uchun-zar chopon, doppi va atlas, erkaklar uchun-do'ppi, chopon, belbog' va yaxtak kiradi. O'zbek folklori milliy libosi jahonda o'z o'rniga egadir. Masalan dunyoning turli joylaridan kelgan mehmonlar O'zbekistonda folklor milliy liboslari o'z o'rniga doimiy ravishda ega bo'lib kelganligi barchamizga sir emas. O'zbek folklor milliy liboslari o'zgacha jozibadorligi, hushbichimligi va

naqshinkorligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, mustaqillikdan so‘ng milliy liboslarimizga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaydi. Hozirda o‘zbek qo‘li gul chevarlari tomonida yaratilgan milliy liboslar O‘zbekistonning turli go‘shalari namoyish etilib qolmasdan balki, turli davlatlarda turlicha namoyish etib kelinmoqda. O‘zbekistonga mehmon bo‘lib kelgan har bir sayyoh vatanimizning tarixiy obidalarini, memorchilik san’atini, milliy urf-odatlarimizga katta qiziqish bilan e’tibor qaratib kelmoqdalar. Mustaqillik va navro‘z shodyonalari, hosil bayramini va o‘zbekona to‘ylarni guvohi bo‘ladilar. Estalik sifatida atlas, do‘ppi, belbog‘, chopon va boshqa memorchilik uslubida yasalgan estalik sovg‘alar bilan qaytishadilar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, o‘zbek milliy liboslari millatning ko‘rki, ajdodlarimiz merosi kelajak avlodning fahri bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. - T.: O‘qituvch, 1990.
2. Madayev O., Sobitova T. O‘zbek xalq og'zaki poetik ijodi- T., 2005.
3. Jo'rayev M. O‘zbek mavsum marosim folklori. - Toshkent: Fan, 2009
4. Safarov O. O zbek xalq og‘zaki ijodi. -T . “Musiqa”, 2010.
5. Jabborov. O‘zbek xalq etnografiyasi.-T.“O‘qituvchi” 1994.
6. Аникин В. Теория фолклора. - М.: Наука, 2012.
7. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 3-kitob. T., 2010.

QASHQADARYO VILOYATI “RIZVONGUL” FOLKLOR- ETNOGRAFIK XALQ HAVASKOR JAMOASI IJODIY FAOLIYATIGA BIR NAZAR

Safarov Og‘abek Baxtiyor o‘g‘li
O‘zDSMI talabasi,
Ilmiy rahbar:Isayev Kamoliddin Saidovich
“Folklor va etnografiya” kafedrasi mudiri

Anotatsiya: Mazkur maqolada “Rizvongul” folklor-etnografik xalq havaskor jamoasi ijodiy faoliyati haqida so’z yuritiladi. Jamoaning ijodiy faoliyati va jamoa rahbarining oldida turgan vazifalari maqolada ochib berilkadi. Qolaversa jamoaning ko’hna cholg’ulari, repertuarlari, liboslari va erishgan yutuqlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: folklor, rahbar, jamoa, repertuar, tashkilotchi, rizvongul, marosim va ko‘hna cholg‘ular.

Аннотация: ***В данной статье речь ведется о деятельности фолклорно – ететнографическои народный любительский коллектива "Ризвонгул". Раесматриваются жизнь и деятельность коллектива и задачи, стоящие перед руководителем данного ансамбля. А также анализируются древние музыкальные инструменты, Костромы и достигнутые имеи успехи.***

Ключевые слова: ***фолклор, руководитель репертуар, организатор, Ризвонгул, традиция, древние, музыкальные инструменты, костюмы.***

Anotation: This article will talk about the creative activity of the folklore and ethnographic folk amateur community "Rizvongul". The creative activity of the team and the tasks facing the team leader will be revealed in the article. In addition, the team will also be informed about musical instruments, repertoires, costumes and achievements.

Keywords: folklore, leader, team, repertoire, organizer, rizvongul, ritual and ancient musical instruments.

Qashqadaryo viloyati Kitob tumani madaniyat markazi qoshida faoliyat yuritib kelayotgan “Rizvongul” folklor-etnografik xalq havaskor jamoasi 1986-yilda tashkil topgan. O‘zining repirtuarlari va boshqa jamoalardan ajralib turadigan marosim va udumlari hamda folklor liboslari bilan folklor jamoalari orasida alohida ahamiyatga egadir. Ilk tashkilotchi rahbari To‘xta aya Raximova bo‘lib, u inson doira, yog‘och qoshiq, likob, angishvona, do‘mbira, chanqobuz va

bir qancha ko‘hna cholg‘ularni chaladigan is’tedod sohibasi bo‘lgan. Ushbu jamoa 1989-yilga kelib Munavvara momo Kenjayeva, Toshbibi momo Xusanova,Xonim momo Xasanova, To‘ti aya Rajabova, Sarvinoz Baxromova, Asqar Karimov, Toshpo‘lat Xalilov kabi 10 dan ortiq havaskor ijrochilar bilan kengaydi. Jamoa cholg‘ulari tarkibiga xushtak, sibizg‘a, cho‘p tayoqlar, qo‘shnog‘ora, surnay, karnay, kamoncha, nay kabi qadimiy cholg‘u asboblari qo‘shildi.

Jamoaning “Rizvongul” deb nomlanishiga sabab “Rizvon-arabcha so‘zdan olingan bo‘lib “rizvan” ya‘ni **jannat, behisht, jannat eshigini qo‘riqlovchi farishtaning nomi yoki Allohning yoqtirgan guli. Jannatning guli, Alloh tanlagan gul ma‘nosida ifodalanadi.**

O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligi hay‘atining 2016-yil 30-yanvardagi 1-sonli qarororiga binoan havaskorlik san‘atini rivojlantirish, milliy qadriyatlarni tiklashdagi faol xizmatlari hamda yuksak ijrochilik mahorati uchun “Rizvongul’’ folklor-etnografik badiiy jamoasiga , “Xalq havaskorlik unvoni” berildi.

Hozirgi kunda ushbu jamoaga Toshpo‘lat Xalilov rahbarlik qilib kelmoqda. Jamoalarda rahbarning roli, havaskorlik ishlari natijalariga bo‘lgan javobgarligi ortab bormoqda. Rahbar butun jamoa faoliyatining tashkilotchisi hisoblanadi. Uning oldida juda ko‘p va hilma-xil vazifalar turadiki, rahbar ularni uddalashi uchun qator fazilatlarga ega bo‘lishi lozim. Uning oldidagi birinchi vazifa yosh, madaniy saviya, qiziqish jihatlaridan hilma-xil bo‘lgan qatnashchilaridan yagona maqsad bilan nafas oladigan mustahkam jamoa yaratishdir. Bu jarayonda u jamoaning ijtimoiy va madaniy qiyofasini shakllantiruvchi, aqlli va xushyor pedagog-tarbiyachi sifatida ish ko‘radi, yaxshi tashkilotchi va faol jamoatchi ekanligini namoyish qiladi. Rahbardan qatnashchilarda jiddiy badiiy qiziqish va yaxshi musiqa didini o‘stirish talab qilinadi. Buni chuqur musiqa bilimiga va ijrochilik malakasiga ega bo‘lgan rahbargina uddalay oladi. Jamoa rahbari quyidagi fazilatlarga ega bo‘lishi lozim deb o‘ylayman.

- Yuksak mahorat, pedogogika va psixologiya asoslaridan xabardor bo‘lish, tajriba, tashkilotchilik qobilyati, o‘z ustida tinmay ishlash, jamoadagi o‘sishini ta’minlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- Badiiy ijodiyot va o‘z sohasi boyicha professional ko‘nikmalarning mavjudligi;
- Jamoa bilan ishlay bilish qobilyati, o‘ziga va jamoa a‘zolariga nisbatan talabchanlik;
- Dunyo voqealaridan, yangiliklaridan xabardor bo‘lish, xalq ijodiyotiga muhabbat, mehnat qilishga ishtiyoq, fioyilik, yuksak ma‘naviyatliligi bilan ajralib turishi lozim deb o‘ylayman.

Professional yoki havaskorlik jamoasi bo‘lishidan qat‘i nazar har bir badiiy jamoa o‘zining ijod mahsulini tinglovchi va tomoshabinlar e‘tiboriga havola etib turmasa, rivojlanishdan to‘htaydi. Zero, yakunlangan har bir ishni ko‘rsatish va bahosini olish kelajakdagi faoliyatda yutuqlarni kengaytirish, kamchiliklardan holi bo‘lishni ta’minlaydi. Bundan tashqari, har bir spektakl, konsert namoyishi, ko‘rgazma yoki yangi filmning taqdimoti ijodiy hisobot bo‘lib, o‘tgan davrda qilingan mehnatning natijasini ko‘rsatish, tomoshabin yoki tinglovchilarning obektiv bahosini olish imkonini yaratadi. Shu ma‘noda, festival, ko‘rik-tanlov, ko‘rgazmalar folklor-etnografik jamoalarining o‘z kuchini sinab ko‘rishi, o‘sishi, o‘zaro tajriba almashuvi, ijodiy imkoniyatlarining yanada kengayishida muhim ahamiyat kasb etadi. “Rizvongul” folklor-etnografik xalq havaskor jamoasi shu davr mobaynigacha bir qancha natijalarga erishdi.

1991-yil Toshkentda bo‘lib o’tgan “Alla ijrochilari” ko‘rik tanlovi, “Afg‘on” teatrlashgan kompozitsiya bilan oliy o‘rin olgan.

1993-yil “To‘y marosimlarida ijro etiladigan qo‘shiqlar” nomli ko‘rik tanlovi Toshkentda bo‘lib o‘tgan Respublika bosqichida 1-o‘rin.

1996-yil Qashqadaryo viloyati Qarshi shahrida bo‘lib o‘tgan “Folklor jamoalari” ko‘rik tanlovi Respublika bosqichida 1-o‘rin.

2003-yil Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumanida bo‘lib o‘tgan “Alla ijrochilari” ko’rik tanlovi viloyat bosqichida 1-o‘rin.

2007-yil Qashqadaryo viloyati Beshkent shahrida bo‘lib o‘tgan “Folklor jamoalari” ko‘rik tanlovi viloyat bosqichida 1-o‘rinni,

2008-yil Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida bo‘lib o‘tgan “Asrlar sadosi” nomli Respublika madaniyat forumi festivalida 1-o‘rin Gran Pri mukofoti bilan taqdirlangan.

2009-yil Respublika “Navro‘z” umumxalq bayramida ko‘tarinki ruhda chiqishi.

2009-yil Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanida bo‘lib o‘tgan “Folklor jamoalari” ko‘rik tanlovi viloyat 1-o‘rin.

2010-yil Xorazm viloyati Xiva shahrida bo‘lib o‘tgan “Asrlar sadosi” Respublika madaniyat forumi festivalida 2-o‘rin.

2011-yil Namangan viloyati Namangan shahrida o‘tkazilgan “O‘lan aytgani keldik” ko‘rik tanlovining Respublika bosqichida 1-o‘rinni egallagan.

2012-yilda Qashqadaryo viloyati viloyat “Navro‘z” umumxalq bayramida jozibali chiqishi.

2013-yilda “Ko‘hna zamin ohanglari” telefestivalida jamoa a‘zosi Sarvinoz Baxromova ijrosi uchun 1-o‘rin.

2014-yil Temiz shahrida “Nomoddiy madaniy me‘rosimizni saqlash” Respublika seminarida jamoa badiiy rahbari Toshpo‘lat Xalilov loyihalari va takliflari bilan ishtirok etdi.

2015-yil Toshkent viloyati Toshkent shahrida “Onam aytgan allar” ko‘rik tanlovi Respubklika bosqichida “Rizvongul” folklor-etnografik xalq havaskor jamoasi 1-darajali diplom va Xurshida Rasulova ijrosi nominatsiyasi bo‘yicha faxriy yorliq va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

2016-yil Navoiy viloyati Nurota tumanida o‘tkazilgan “Folklor jamoalari” Respublika ko‘rik tanlovida “SHUKRONA” kompozitsiyasi bilan faxrli 3-o‘rin diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

2017-yil Toshkent shahrida o‘tkazilgan Respublika “Navro‘z” umumxalq saylida Qashqadaryo viloyati nomidan ishtirok etgan “Rizvongul” folklor-etnografik xalq havaskor jamoasi faol ishtiroki uchun tashakkurnoma va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

2017-yil 13-14-may kunlari Surxondaryo viloyati Boysun tumanida o‘tkazilgan “Boysun bahori” festivalida faol ishtirok etgani uchun “Rizvongul” jamoasi fahriy yorliq bilan taqdirlandi.

2018-yil 30-31-may kunlari Navoiy viloyati Nurota tumanida utkazilgan “Nurli navolar” xalqaro folklor festivali “Rizvongul” folklor-etnografik xalq havaskor jamoasi “Eng yaxshi milliy qadriyatlar tarannumi uchun” nominatsiyasi bo‘yicha diplom bilan taqdirlandi.

2018-yil 6-10 sentabr kunlari Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahrida o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi 1-xalqaro “Maqom san‘ati” anjumani doirasida o‘tkazilgan tadbirlardagi faol ishtiroki uchun “Rizvongul” folklor-etnografik xalq havaskor jamoasi fahriy yorliq bilan taqdirlandi.

2019-yil 15-mart kuni Qashqadaryo viloyati Kitob tumani “Mingchinor” dam olish maskanida O‘zbekiston televideniyasi mahalla telekanali “Otalar choyxonasi” ko‘rsatuvida “Rizvongul” jamoasi ishtirok etdi.

2019-yil 18-mart kuni Kitob tumani Qaynar qishlogida o‘tkazilgan “Xalqaro ko‘pkari” musoboqasi hamda “Navro‘z” saylidagi ishtirok etdi.

2019-yil 5-10 aprel kunlari Surxondaryo viloyati Termiz shahrida o‘tkazilgan “Xalqaro baxshichilik san‘ati festivalida” faol ishtiroki uchun faxriy yorliq va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

2019-yil 21-aprelda O‘zbekiston Teleradiokompaniyasi “Mahalla” telekanali loyihasi asosida o‘tkazilgan “Alla” ko‘rik tanlovining Qashqadaryo viloyat bosqichida “Rizvongul” folklor-etnografik xalq havaskor jamoasi azosi Zamira Murodova g‘olib deb topilib Respublika bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi.

2019-yilning 19-noyabrida ushbu tanlovning final bosqichida “Rizvongul” folklor-etnografik xalq havaskor jamoasining ishtirokchisi Zamira Murodova o‘zining mashaqqatli mehnati va jonkuyarligi Allaga bo‘lgan munosabati bilan mutloq g‘olib deb topildi.

2020-yil 7-mart kuni “Rizvongul” folklor-etnografik xalq havaskor jamoasi 24 nafar ishtirokchi tarkibida o‘zining teatrlashgan “Karvon” mavzusidagi badiiy-kompozitsion chiqishini O‘zbekiston teleradiokompaniyasi “Madaniyat va ma’rifat” telekanali orqali namoyish etdi.

2020-yil 26-fevraldan 16-martga qadar bo‘lgan muddatda “Rizvongul” jamoasi 12 ishtirokchi tarkibida “Xumo” arenasida bo‘lib o‘tgan Respublika miqyosidagi “Navro‘z” sayli ommaviy tadbirida o‘zining “Vatan madhi” kompozitsiyali chiqishlari bilan ishtirok etdi.

2021-yil 26-fevral sanasidan 22-martga qadar Toshkent viloyati Toshkent shahri “Humo arenasi”da bo‘lib o‘tgan “Navro‘z” sayli ommaviy tadbirda Rizvongul folklor-etnografik badiiy jamoasi o‘zining 12 nafar ishtirokchisi bilan bayram tadbirlarida bo‘lib qaytishdi.

2022-yil 7-8-may kunlari Surxondaryo viloyati tog‘li Boysun tumanidagi Padang qishlog‘ida “Boysun bahori” ochiq folklor festivalida ishtirok etib 500$ Aqsh dollari, Boysun bahori kubogi qolaversa, esdalik sovg‘lari bilan taqdirlandi.

2022-yil 15-aprelda Ilk marotaba tashkil etilgan “Madaniyat va san‘at hodimlari” kunida “Rizvongul” folklor-etnografik xalq havaskor jamoasi, badiiy rahbari Toshpo‘lat Xalilov ancha yillik mehnati, san‘atga bo‘lgan jonkuyarligi, fidoiyligi o‘z samarasini berdi va shu kuni “Madaniyat va san‘at fidokori” ko‘krak nishoni sohibi bo‘ldi.

Jamoa rahbari Toshpo‘lat Xalilov.

Shu tariqa “Rizvongul” folklor-etnografik xalq havaskor jamoasi kundan-kunga, yildan-yilga yuksaklikka ko‘tarilib kelmoqda.

Jamoaning repertuarlari, liboslari va etnografik buyumlariga keladigan bo‘lsak repirtuarlaridan: “Urchuq”, “Chorxo-charx”, “Kel jo‘ra”, “Xamalam-xa”, “Rizongul”, “Chex kapa”, “Tayoq-tayoq”, “Chanqobuz”, “Do‘mbiram”, “Uch to‘rtta xolingdan sani”, “Qashqadaryo”, “G‘izbada-g‘izbang”, “Ninijon”, “O‘zbekman”, “Shukronalar qilaylik biz”, “Hamal-hamal”, “Xo‘sh-xo‘sham”, “Sumalakjon”, “Qurtava”,

Marosim qo‘shiqlari: “Gashtak”, “Sabzi to‘rg‘ar”, “Non”, “To‘ylarni ko‘r”, “Ot juvoz”, “Alla”, “Barmoq yog‘lash”, “Muchal to‘y”, “Kuyov keldi”, “Yor-yor”, “Xontayoq”, “Poyondoz”, “Navro‘z keladi”, “Cho‘liq-cho‘pon”, “Xo‘p hayda” va hokazo.

Shunday marosim qo‘shiqlari, xalq o‘yinlari, laparlar, mehnat qo‘shiqlari, aytishuv, xalq o‘yinlari, qarsakli ijrolar kabi xalq og‘zaki ijodiga mansub qo‘shiqlarni o‘z ichiga oladi.

Bu xalq og‘zaki ijodiga mansub qo‘shiqlarning, laparlarning, o‘yinlarning bir biriga bog‘liqligi insonlarni qadimiy tasavvurlarga qaytaradi. Qo‘shiqlardagi shevalarni aytsak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Folklor sanati merosi o‘zining mazmundorligi, tarbiyaviyligi, umrboqiyligi bilan boshqa san‘at turlaridan ajralib turadi. U millat qalbida ezgu niyat va ulug‘ maqsadlarga intilish, e‘tiqod va orzu-armonlarni uyg‘otadi. Shuning uchun folklor san‘ati avlodning barcha orzu-armonlarini, iymon-u e‘tiqodini, pokiza ruhi va hotirasini, jamiyatning ezgu niyatlari aks etgan qadimiy an’analarni o‘zida jamuljam etib, kishilar hayotiga qat‘iy singib ketganligi bilan ardoqlidir.

Folklor jamoalarining liboslari ham o‘zgacha tarovatga ega uning rang barangligi Surxondaryo-Qashqadaryo folklor jamoalaridagi liboslarda asosan qo‘l mehnati bilan do‘ppilar, kiyimlardagi har-xil turdagi chiroyli gulnaqshli liboslari, etnografik qadimiy buyumlari bilan ajralib turadi. “Rizvongul” folklor-etnografik xalq havaskor jamoasidagi liboslariga misol keltirsak:

Tikma do‘ppi, shilshila-tumor, gilamnimcha, jabduq kamzul, shovdir-munchoq, kizak yaktak, misiri chopon, paxta sochpo‘pak, kigiz kovush, teri choriq, mag‘iz shalvar, do‘lona shoda, sarandon, anbari peshvand, kulata.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, “Rizvongul” folklor-etnografik xalq havaskor jamoasi elimizga milliyligimizni qaytarishda juda katta hissa qo‘shgan jamoalardan biridir. O‘zbek xalqining asrlar davomida sayqallanib kelgan bebaho folklor san‘ati nihoyatda boy va tuganmasdir. U asrlar osha kelgusi avlod tarbiyasi uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. O‘ylaymanki ushbu maqoladan yosh avlodlar, kerakli tasavvurga ega bo‘lishadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Komoliddin Isayev. Folklor asarlarini sahnalashtirish.-

Toshkent- “Inovatsiya-ziyo”- 2020.

2. Yo‘ldosheva S.N. Xalq urf-odatlari va an‘analari. -

Toshkent. 2003.

Иброҳим АБДУРАҲМОНОВ
Санъатшунослик фанлари номзоди, доцент

ХХ АСР ЎЗБЕКИСТОН ТАСВИРИЙ САНЪАТИДА ФОЛЬКЛОР МАВЗУЛАР ИФОДАСИ

Аннотация: мақолада ХХ аср Ўзбекистон тасвирий санъатида фольклорга оид асарларнинг бадиий талқини, ривожланиш динамикаси ва рассомлар индивидуал пластик изланишларини илмий ўрганиш мақсадида барча маълумотлар жамланиб ҳар томонлама асосли умумлаштирилган.

Таянч иборалар. Фольклор, рангтасвир, пластика, миниатюра, эпос, аския, бадиий талқин, ижод, композиция, кубофутуризм, авангард.

Ибрагим АБДУРАХМАНОВ
Кандидат искусствоведения, доцент

ОТРАЖЕНИЕ ФОЛЬКЛОРНЫХ МОТИВОВ В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ ИСКУССТВЕ УЗБЕКИСТАНА XX ВЕКА

Аннотация: в статье комплексно собраны и обобщены художественная интерпретация произведений, связанных с фольклором, в изобразительном искусстве Узбекистана XX века, динамика развития, научное изучение отдельных пластических исследований художников.

Ключевые слова. Фольклор, живопись, пластика, миниатюра, эпос, аския, художественная интерпретация, творчество, композиция, кубофутуризм, авангард.

Ibrahim ABDURAKHMANOV
PhD in Art History, Associate Professor

REFLECTION OF FOLKLORE MOTIVES IN THE FINE ART OF UZBEKISTAN OF THE XX CENTURY

Annotation: the article comprehensively collected and summarized the artistic interpretation of works related to folklore in the fine arts of Uzbekistan in the 20th century, the dynamics of development, and the scientific study of individual plastic studies of artists.

Keywords. Folklore, painting, plastic arts, miniature, epos, askiya, artistic interpretation, creativity, composition, cubo-futurism, avant-garde.

XX аср Ўзбекистон санъати тарихида туб бурилишлар даври бўлди. Бу давр санъатига хос иккита муҳим хусусиятни ажратиб кўрсатиш мумкин. Биринчидан, маҳаллий бадиий анъаналар миниатюра санъатида айрим ўзгаришлар билан давом этган бўлса, иккинчидан, юртимизга Европа типидаги рангтасвир йўналишлари кириб кела бошлади. Замонавий китобат санъатига асос солинди [2]. Мусаввирлар томонидан мумтоз шоирларимиз асарларига миниатюралар ишланди. Рассомлар адабий мантнинг энг таъсирли нуқталарини топиб, воқеаларни ўз ҳаёлотидан келиб чиққан ҳолда замон талабларига мослаб, асл моҳиятини тасвирлаганлар[1]. Уста мусаввирлардан Муҳаммад Муқим, Сайид Азизиддин, Акром Сиддиқийлар маҳаллий фольклорга мурожаат қилишган. А.Навоийнинг "Фарход ва Ширин" достонига (1908) Факир ал-ҳақир Раҳматулла ва Раҳматулла бин Мулла Абдушукурлар томонидан ажойиб лавҳали безаклар яратилган. Саъдийнинг “Гулистон” достонига А.Сиддиқий томонидан ишланган бадиий безакларда афсонавий қаҳрамонларнинг жасоратларига мос иллюстрациялар ишланган. 1915 йилда Тошкентда нашр этилган "Гўрўғли" достонига ишланган лавҳаларда рассом қаҳрамонлар кайфиятини ҳар томонлама юксак маҳорат билан ифодалай олган[12.56].

XX аср боши - собиқ иттифоқнинг дастлабки йиллари ватанимиз тасвирий санъатида услубий ва ғоявий ўзгаришлар рўй беради. Замонавий дастгоҳли рангтасвирнинг кириб келиши, шаклланиши ва ривожланиш жараёнлари бошланди. Санъатшунослик фанида мазкур давр анъаналарини ўрганишга бағишланган дастлабки илмий манбалар яратилди[16.9].

Рассомлар учун ижодий эркинлик муҳити ҳукм сурди. Юртимизга ташриф буюрган бир қатор рус рассомлари учун Ўзбекистон иккинчи ватанига айланади. Кўплаб хорижий ижодкорлар ватанимиз тасвирий санъат мактабининг юзага келишига салмоқли ҳисса қўшдилар[11.4]. Улар этнографик реализм услубида ижод қиладилар. Фольклорга хос мистика ва сеҳр жодуга бурканган сирли олам синоатларини тасвирлашга интилдилар. Бу давр рассомларини шартли равишда бир қанча ижодий гуруҳларга бўлиб тадқиқ этиш мантиқан ҳақиқатга яқинроқ [4.1325].

А.Волков бошчилигида миллий символизм, кубофутуризм йўналишида Ў.Тансиқбоев, А.Подковиров ва бошқалар Европа, рус ва маҳаллий менталитетни уйғунлаштира олганлар. Яна бир тоифа рассомлар примитивизм ва декоратив элементларни ўзида мужассам этган асарлар яратдилар[3.12]. М.Курзин, В.Уфимцев, Каравай гуруҳи ижодида шундай хусусиятлар кўзга ташланади. И.Казаковнинг “Худо иродаси” (1906), А.Волковнинг “Жин”, “Жиннинг юзи” (1914), [6.12] О.Татевосяннинг “Жинларни қувиш” (1919), каби асарларида маҳаллий фолъклор мавзулари маиший жанрда янги шакл ва тасвирий воситаларда бадиий талқин қилинган[15.16]. Жин ўзбек фольклорида инсонлар тасаввурларига кўра, “пастқам жойларда киши кўзига одам образида кўриниб, гўё уни бирор дард-иллатга чалинтириб (масалан., оғзини қийшайтириб) кетадиган афсонавий махлуқ”ни англатади[19.87]. Рассомлар ана шундай инсонларни сеҳр-жоду ёрдамида ҳасталикдан холос қилиш маросимларини кузатар экан, бужараённи ўз тафаккури асосида тасвирлаганлар. О.Татевосяннинг “Тумор ёзувчи” (1920) номли асари ҳам алоҳида диққатга сазавор. Рассом маҳаллий аҳолининг кўз тегишидан, бало-офат ва кулфатдан сақловчи учбурчак шаклидаги коғозга матн ёзувчилар ҳаётидан, уларнинг найрангларидан огоҳ қилаётгандай. Умуман О.Татевосян ўз асарларида мавзуга оид қарашларни экзотик шаклда талқин этилиши билан ажралиб туради[7.69].

1920-1930 йиллар рангтасвирида авангард йўналиши устунлик қилади. А.Волковнинг “Қуёш” (1916), “Туялар карвони” (1917), “Аёл ва товус”, “Тун”

(1921), “Карвон қўнғироқлари садоси” (1926), “Ошиқ ўйини” (1926)[15.16] каби картиналарида рассом маҳаллий аҳолининг этномаданий ҳаётига мурожаат қилади. Рассом ижодида рангларнинг ёрқинлиги, шаклларнинг янгича кўриниши, Шарқ ва Ғарб санъатининг ўйғунлиги кузатилади. А.Татевосян оддий томошабинлар учун бирдай тушунарли бўлган тил излайди. 1919 йилдан 1928 йилгача халқ ижодининг безак санъатига ҳамоҳанг кенг ҳажмли асарлар яратади. М.Курзин равшан рангларга эътибор қаратади. Каравайда лиризмни бўрттириш кузатилади. Н.Карахан миллий гиламчиликнинг ритмик гўзаллигини ўз асарларига сингдиради[18.10].

1930 йилларда Самарқандда П.Бенков ва Н.Кашина инкоустика, импрессионизмга ҳос манералар яратади. Бу ҳолат мусаввиранинг “Тақдирнинг башорати” (1929) картинасида яққол акс эттирилган. Ўзбек фольклоридаги хушхабар, мужда, воқеа-ходисаларнинг натижасини олдиндан кўра олувчи[17.87] башоратчиларни эмас балки, тақдирнинг иноятига ишониш кераклигига эътибор қаратади. Буларнинг барчаси тасвирий санъатда вужудга келаётган янги шакллар, услублар, Шарқ ва Ғарб мактаблари бадиий анъаналарининг ўзлаштирилганлигини тасдиқлайди. Айрим рассомлар ижодидаги индивидуал хусусиятлар алоҳида ажралиб туради. Шарқона бадиий тафаккур, маҳаллий аҳоли фольклорини ўрганишга интилиш Л.Буръенинг уч ўлчамли “Кўзбойлоғич” асарида намоён бўлади. Регистон майдонида ўтган байрам томошасида минглаб одамларни ўзига мафтун қилган сеҳргарнинг турлича чиқишларини маҳорат билан тасвирлайди.

Маҳаллий ижодкорлардан Исҳоқхон Тўра Жунайдуллахўжа Суннатуллахўжа ўғли (1862-1937) турли афсонавий лавҳалар устида иш олиб боради. В.Уфимцевнинг инсоният бадиий тафаккурининг руҳий таянчлари мавзуси янгича талқиндаги “Санъат қоҳинлари” (1928) картинасида ўз ифодасини топди. Мазкур асар ўз даврида катта янгилик сифатида қабул қилинган эди[5.19-20].

1923 йил 18 февралдан Самарқандда ўзбек тилида “Муштум” ҳажвий журнали чоп этила бошланади. Л.Буръе замонавий карикатурани бошлаб беради[5.56]. Таҳририят кейинчалик бу ишга Ҳ.Икромов, И.Икромов, М.Ҳакимжонов ва бошқа кўплаб маҳаллий рассомларни ҳам жалб эта бошлайди.

Академик А.Ҳакимовнинг ёзишича, ХХ асрнинг 1930 йиллар ўрталарида бошланган мафкуравий тазйиқ ва соцреализмнинг яккаҳокимлиги индивидуал ижодий услубларнинг бир қолипга солинишига олиб келади. Барча турдаги бадиий ижод устидан тоталитар назорат ўрнатилиши натижасида Ўзбекистон рангтасвирида миллий афсоналаштиришга барҳам берилиб, унинг ўрнини янгича мазмундаги сиёсий афсоналаштириш эгаллай бошлайди.

Собиқ иттифоқ томонидан “ихтиро” қилинган футурологик афсоналар талқини узоқ йиллар рассомлар онгида устувор бўлиб келди. 1930 йилдан бошланган жараён 1950 йилларга келиб ўзининг етуклик даврини бошидан кечиради. Унинг эстетикаси, йўналишининг кенг қамрови, бой сюжети ва жанрга айланиш имконияти Н.Каразин, Н.Карахан, Н.Кашина, З.Ковалевская, М.Новиков, В.Рождественский, В.Еремян ижодида кузатилади. Ўзбекистон санъатида сиёсий афсоналар тоталитар бошқарув тизими учун энг қулай восита эди. Бу давр тасвирий санъатида сиёсий санъат чегараларидан ўзининг ижодий интилишлари орқали чиқиб кетган рассомлар ҳам мавжуд бўлган. Уларнинг овози расмий санъат оқимида “чўкиб” кетар эди.

Тасвирий санъат тарихида ХХ аср ўрталари алоҳида ўрин тутади. Бу даврлар санъатининг ўзига ҳослиги Л.В.Лаковская томонидан тадқиқ этилган[13.19]. Олима иккинчи жаҳон урушидан кейинги Ўзбекистон дастгоҳли рангтасвирининг асосий бадиий тамойилларини таҳлил қилган. Бу даврларда А.Н.Николаев (Уста Мўмин) Шарқ санъати анъаналари, декоративлиги, чизиқларнинг эгилувчанлиги, пластик шакл, ранг ритм, тасвир тили унинг ижодга нисбататан фалсафий тафаккури ўзгаришида сабабб бўлган. Нафисликка асосланган, Европа Уйғониш даври санъати

анъаналари ва рус иконанавислигини уйғунлаштирган ҳолда ажойиб картиналар яратган. Айниқса, халқ оғзаки ижодига бағишланган “Афанди латифалари” (1936) тўпламининг илк нашрига ишлаган расмларида асосий қаҳрамон ҳипчадан келган, абжир мўйсафид отахон қиёфасида гавдаланади. Халқ хулқ - атворини ўзида мужассам этган, ташқи қиёфасидаги хос белгилар, табассум, қаҳқаҳа, ҳайрат, муғомбирлик - буларнинг бари фольклорнинг мухтасар, бироқ сермазмун ҳикояларида ҳаракат ва кайфиятнинг тез ўзгариши жараёнлари турли ракурсларда ишланган. Буларнинг муттасил алмашиб бориши қаҳрамонлар ҳатти – ҳаракатига мосдир. Агар Николаев образда ўз ҳолатни гавдалантириш истеъдодига эга бўлмаганида зумда бўладиган бу ўзгаришларни ифодалаб бериш осон кечмасди. Насриддин ва унинг атрофидагиларни ўзи ҳис қилган ҳолда тасвирлаган[9.13].

Бухоро миниатюра санъатида С.Поччаев (1870-1948) фольклор мавзуларига алоҳида эътибор қаратади. “Каъба” ва А.Навоий “Ҳамса”сига ишлаган иллюстрациялари буни тасдиқлайди[10.17-19]. “Авлиё афсонавий жонзот устида” (1930) асарида қандайдир мифологик ғайритабиий ҳайвонга миниб, бир қўлида ҳукмронлик гурзисини ушлаган ҳиндларга хос қиёфадаги аёл тасвирланган. Ҳайвоннинг думи илонга, боши илоннинг бошига ўхшашлиги, реал ҳаётда эмас, балки халқ ривоятларидагина учрайдиган воқеаларга асосланганлигини англатади.

Бадиий жараёнлар етакчилик қилган авангард санъати 1930 йилларнинг охирларида турли таъқиқларга учрайди. А.Волков, Уста Мўмин, Н.Кашина В.Уфимцев каби моҳир рассомлар реализмга ўтишга мажбур бўлади. Бу рассомларнинг бир услубдан бошқасини танлаши эмас, балки жамиятда санъат мезонларининг жиддий маъмурий талаблари асосида қайта англаш жараёнлари билан боғлиқ эди[11.4-9].

Ўтган асрнинг 40-йилларидан И.Икромов ижоди ўзининг камолот чўққисига кўтарилади. Б.Ҳамдамийнинг гуашда ёзилган “Мажнун саҳрода” (1939) асарида янги шакллар излаши, бинафша, кўк, жигарранг ва қора ранг билан уйғунлаштирилишида кўринади. Асарда Мажнун ғамга ботганча

хомуш бўлиб, ҳайвонлар ўртасида ўтирган ҳолда тасвирланиши ишонарли чиққан[6.28-29]. Л.Насриддинов 1940 йили буюк мутаффаккир А.Навоийнинг 500 йиллигига бағишлаб яратилган “Лайли билан Мажнун учрашуви”, “Лайли изтироблари” (1939), “Лайлининг ўлими”, “Мажнун саҳрода” (1940) каби асарлари янича талқин қилинди. Шунингдек, “Ширин Фарходга хат ёзмоқда», “Фарходнинг Хусравга асир тушиши” (1941) картиналарида қаҳрамонлар миллий ҳарактери очилган[15.109]. Рангтасвир ва китоб графикасида эпик қаҳрамонлар Гўрўғли, Авазбек, Алпомиш, Рустамхонлар образларига мурожаат қилинди. Хусусан, В.Кайдалов “Алпомиш”, “Гулойим”, “Йўлбарс билан олишув” (1940) асарлари қаҳрамонларини турли ракурсларда талқин қилган[12.479]. В.Еремян “Ҳўжа Насриддин Бухорода” (1943) фильми учун ажойиб эскизлар яратди.

Урушдан кейинги йиллар Ўзбекистон рангтасвирида “соцреализм” мафкураси асосий етакчи бадиий услуб сифатида қабул қилинади. Шундай бир оғир шароитларга қарамасдан рангтасвирда фолъклор мавзусига қисман бўлсада мурожаат қилинди. Ч.Ахмаров ижодида лирик ва романтик услуб етакчилик қилади. Рассомнинг А.Навоий номидаги опера ва балет театри деворий расмларида эпик лавҳалар ўз ифодасини топади. Рассом тасвирланаётган образларнинг нафислиги, мусиқавийлиги ва майин чизиқлар ўйини, ясси декоратив ранг рассомликда янги даврни бошлаб берди. Бу изланишлар А.Навоийнинг “Ҳамса” асари асосида меъёрига етказилди. Рассом урушдан кейинги йилларда Ойбекнинг “Навоий” романига (1951), ўзбек халқ достонларидан “Равшан”га (1953) турли лавҳалар ишлади. И.Икромов А.Навоийнинг "Фарход ва Ширин" асари янги нашрини безашда кўк-мовий, олтин ҳамда кулранг гаммани уйғунлаштирди. Бу асарга миллий руҳ бахш этиб, меъморий ёдгорликларни эслатувчи туйғулар ўйғотди. Айниқса, эпик достонларга эътибор ижобий томонга ўзгарди. Қаҳрамонлик эпоси – “Алпомиш”, Қорақалпоқ эпоси “Қирқ қиз”нинг нашрига туркум илллюстрациялар (1949) яратилди[15.191].

Бундан кўринадики, урушдан кейинги йилларда ишланган иллюстрацияларда кўтаринкилик, тантанаворлик руҳи ҳукм сурган. Гарчи асар ғояси халқ оғзаки ижодидан олинган бўлса-да, қаҳрамонлар гўё совет халқи қаҳрамонларига қиёсан ишланади. Ягона совет қаҳрамони қиёфасини яратиш масаласи барча ижодкорлар учун ниҳоятда долзарб талаблардан бирига айланди .

Олтмишинчи йиллар рангтасвирида маҳаллий фольклор мавзулар билан бойитилди. Халқ оғзаки ижодининг сўз ўйинига, қочириқларга асосланган ҳозиржавоблик, топқирлик ва закийлик мусобақаси бўлмиш аския[19.58] ва унинг одамлар маиший ҳаётида тутган ўрни рассомлар ижодида ўз аксини топа бошлади. М.Саидовнинг “Аския” (1961-1964) номли туркум асарларида[15.202] мавзу замонавий талқин қилинди. Г.Улконинг абстрак йўналишдаги “Афсона” (1961) картинасида халқимизнинг авлоддан авлодга, оғиздан оғизга ўтиб келаётган фантастик, баъзан асоссиз ҳикоялар[17.62], реал ҳаётдан узоқроқ бўлган ўйдирмалардан яхлит композиция ҳосил қилган. М.Йўлдошевнинг қаҳрамонлик эпоси-“Алпомиш”, “Гўрўғли”, “Равшан” (1964) асарлари композицион қурилиши, бадиий услуби ва тасвир тилига кўра ўзига хос талқин қилинди.

ХХ асрнинг 70-йиллари Ўзбекистон тасвирий санъати бадиий тили, дунёвий мазмун-моҳияти ўзгаради. Ўзбек авангарди анъаналарига яна мурожаат қилина бошлайди[10.17-19]. Янги пластик изланишлар, фолъклорга оид образларни рамзий, аллегорик шакллар орқали тасвирлашга интилиш, сезилади. Т.Муҳаммедов ижодида миниатюра санъати анъаналарини замон руҳига мослаштирилади. Шу услубда ишлаган асарлари ўзининг енгил юморга мойиллиги, чизгилар пластикасининг гўзаллиги, ранг тизимининг ёқимлилиги билан ажралиб туради. Рассомнинг уч ўлчамли “Насриддин афанди саргузаштлари”да (1971) кишиларнинг хондон отиб кулаётган тасвирий ҳолатларига эътибор қаратади. Шу туркумдаги “Мулланинг калласи бормиди?” (1972), “Насриддин Афанди эшакда” (1971), “Насриддин ҳовуз ёнида”, “Насриддин ва ўғри”, “Меҳмондўст Афанди” (1971) каби қатор

суратларида воқеъликни ихчам ҳикоя қилади. Композицияларда ортиқча унсурлар йўқ. Ҳатто, қоғоз сатҳида ҳам қўшимча тасвирлар учрамайди. Шакллар кам бўлишига қарамай мазмун бойлигига эришилган. Енгил чизиқларда руҳий ҳолатлар ўткирлаштирилган. “Ўзбек халқ эртаклари”га (1976), чизган суратлари алоҳида бир туркумни ташкил этади[14.38-39]. Шунингдек, “Зумрад ва қиммат”, “Фарход ва Ширин”, “Ҳунарли йигит”, “Уч оғайни ботирлар”, “Олтин кўзадаги тўти” (1970-1972) каби суратлари бир неча бор “Муштум” журналида чоп этилган.

1980 йиллар рангтасвир анъаналарида миниатюра санъати ва декоратив унсурларнинг уйғунлаштирилиши рассомлар ижодий изланишлар ечимининг пластик жиҳатларини белгилашда муҳим бўлди. Яратилган композицияларда Шарқ ва Ғарб анъаналарининг ўзаро таъсирланиш жараёни сезиларли ўрин эгаллади. Хусусан, М.Тўхтаевнинг “Афсоналар туғиладиган ўлка” (1978) асари янги ифода воситаларга бой бўлди. Халқ анъаналарига мос афсонавий лаҳзалар турли услубларда очиб берилади.

Бу даврда театр безаги рангтасвирида ҳам мавзуга оид бир қатор ишлар бажарилган. Ҳ.Олимжон номидаги Самарқанд Опера ва балет театри рассоми М.Йўлдошев қаҳрамонлик эпоси “Гўрўғли” ва “Алпомиш” туркумидаги асарларида қаҳрамонлар қиёфаси болалар эртаклари руҳида муболағали тасвирланиши ўз даврида катта янгилик эди. “Гўрўғли Райҳон арабнинг қизини ўғирламоқда” (1980), “Гўрўғли алла”, (1982), “Гўрўғли бало-девни енгди” (1989), “Гўрўғли невара келин учун Аллоҳга шукур қилмоқда” (1990) каби картиналарида маҳобатлилик, бадиий тўқима ҳаётий ҳақиқатга яқинлаштирилган. М.Тўхтаевнинг “Тушида учган ҳамда ўғирланган парранда тақдирини била олмаган одам масали” учлиги (1989)[20.363], Б.Жалоловнинг “Жанг”, “Уч баҳодир” (1983) каби рангли иллюстрациялари ўзбек халқ эртаклари тўпламини бойитди[20.376].

XX аср саксонинчи йилларнинг иккинчи ярмида маънавий ўзгаришлар даври бошланади. Совет тузумига нисбатан танқидий муносабатда бўлиниши натижасида миллий меросимиз моҳиятига алоҳида эътибор қаратила

бошланади. Тарихга қайта қуриш ва ошкоралик номи билан кирган бу даврда фольклор анъаналарини бадиийлаштиришда янгича талқинларга қўл урилди. Илгариги мафкуравий жиҳатдан ўрнатилган чекловлар ўз ўрнини маънавий ўзгаришлар даврига бўшатиб беради. Бу жараёнда инсониятнинг ибтидосига оид мифологик мавзуда бир қатор асарлар яратилди. Улар бадий услуби, ёндошуви ва талқинига кўра ўз даври ижтимоий талабларига монанд ишланган. М.Тўхтаев "Одамато боғида" картинасини гарчи тўрт нафар соҳибжамолни табиат қўйнида, мевали дарахтлар атрофида тасвирлаган бўлсада, барча қаҳрамонларни собиқ иттифоқнинг замонавий қизлари қиёфасини тасвирлашга мажбур бўлган. Уларнинг руҳий ҳолати ички кечинмалари орқали асар мазмунига ишора қилади.

Собиқ иттифоқ даврида ҳукм сурган турли сиёсий бўҳронлар давом этганлии боис миллий мавзуларга қўл уришга барча йўллар ёпилди. Совет сиёсатидан чекинган ижодкорлар миллатчиликда, маҳдудликда айбланиб, турли тамғалар босилди. Ҳатто уларни сургун қилиш каби ўта оғир сиёсий жазолар қўлланилди. Шундай бир мураккаб шароитларда тазйиқларга қарамасдан тасвирий санъатда фольклор мавзусига кам бўлсада, мурожаат қилинди. Гарчи, давр сиёсий муҳити билан боғлиқ ҳолда ягона совет халқини вужудга келтиришга бўлган бесамар сиёсат туфайли миллий мавзуларга паст назар билан қаралиб, лозим эътибор берилмасада, айрим рассомлар мавзуга оид асарлар ишлашда давом этди. Аммо шунда ҳам тасвирларда давр руҳи, замон сиёсий қарашлари қисман сезилиб турди. Бундай ноўрин қарашлар, бемақсад мафкура саксонинчи йилларнинг ўрталари – маънавий ўзгаришлар даврида бироз барҳам топа бошлади.

Манбалар:

1. Ibrokhim Rakhimovich Abdurakhmonov. Reflection Of Folklore In Applied Art Of Uzbekistan (From The Beginning Of The XX Century To The 90s). The American Journal of Social Science and Education Innovations (ISSN – 2689-100x) Published: February 27, 2021 | Pages: 166-171 Doi: https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume 03Issue 02-26.
2. Ibrohim Rahimovich Abdurahmonov. CONCEPT OF MYTHOLOGY REPRESENTED IN FINE ARTS OF UZBEKISTAN. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) https://www.tarj.in ISSN: 2278-4853 Vol 9, Issue 10, October, 2020 Impact Factor: SJIF 2020 = 6.882.

3. Ibrakhim R. Abdurakhmonov. Interpretation of mythological topics in the fine art of the XX century. Art and design: social science, volume 02, issue 02, 2022 1 e-issn: 2181-2918; p-issn: 2181-290x.
4. Иброҳим Абдураҳмонов. Ўзбекистон тасвирий санъатида фольклор мотивлари талқини. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1323-1327.
5. Алимқулова Д. Ўзбекистон рассомларининг 1920-1930 йилларда яратган кам ўрганилган асарлари. -//Санъат.,.2008.№3-4. -Б.19-20
6. Александр Волков. –Москва, «Слово», 2007. –С.81..Искусство Советского Узбекистана (1917-1972). -группа авторов под редакции Л.И.Ремпелья. Москва, Советский художник. 1976.
7. Асқарова З.А. Ўзбекистон замонавий тасвирий санъатида аёллар образи.-//17.00.08 –санъат назарияси ва тарихи ихтисослигида санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, МРДИ.,2021.
8. Волков В. Ноёб истеъдод (нашр этилмаган. қўлёзма). -//Санъат., 2015. №1. -Б.28-29.
9. Еремян Р.В. Уста Мўмин (А.Николаев). Ўзбекистон санъат усталари. -//Альбом-монография. Тошкент., 1981.
10. Жумаев Қ. Садриддин Поччаев миниатюраси. -//Санъат.,2006. №1. -Б.17-19.
11. Камола Оқилова. Саҳродаги Лувр: коллекция тарихи ва унинг ўзига ҳослиги. -//Санъат. 2017. №2. –Б.4-9.
12. Искусство Советского Узбекистана (1917-1972). -//группа авторов под редакции Л.И.Ремпелья. Москва, Советский художник. 1976.
13. Лаковская В.Л. Послевоенная станковая живопись Узбекистана. Основные тенденции. -//Автореферат диссертации ВАК РФ 17.00.04, на соискание ученой степени кандидата искусствоведение. 1984.
14. Норматов Н. Телман Муҳамедовнинг кинояли кулгилари. -//Санъат журнали.,2000. №2. -Б.38-39.
15 Такташ Р.Х. Изобразительное искусство Узбекистана (вторая половина XIX в-50-е гг. XX в). -Ташкент, Фан.,1972. -С.202.
16. Чепелев В.Н. Искусство советского Узбекистана. -К, Издательство им. Володарского. 1935.
17. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Москва. “Рус тили” нашриёти.,1981. I том. –Б.280.
18. Усто Мўмин. Мастера искусств Узбекистана (Автор текста и составител альбома Р.В.Еремян). –Тошкент, издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма. 1982.
19. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Москва. “Рус тили” нашриёти.,1981. I том.
20. Ўзбекистон маданий мероси. Третъяков давлат галереяси тўплами (Москва, Россия).-Тошкент, UZBEKISTAN TODAV.,2017.

Азамат ШАРИПОВ,

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият
институти, “Вокал” кафедраси доценти

Ўзбек мусиқали драмаларида ёш қаҳрамонлар образи талқини

(Муқимий номидаги мусиқали драма театри мисолида)

Аннотация: Ушбу мақолада Муқимий номидаги мусиқали драма театрида саҳналаштирилган спектаклларда ёш қаҳрамонлар обарзини яратишдаги изланишлар хусусида сўз боради.

Kalit so‘zlar: o‘zbek musiqa merosi, audioyozuv, to‘plam, *shakllantirish tarixi*, etnomusiqashunoslik ekspeditsiyasi, raqamlashtirish.

Аннотация: в данной статье рассказывается об исследовании создания образа юных персонажей в спектаклях, поставленных в музыкально-драматическом театре имени Мукими.

Ключевые слова: узбекское музыкальное наследие, аудиозапись, коллекция, история создания, этномузыковедческая экспедиция, оцифровка.

Abstract: This article This article talks about the research on creating the image of young characters in plays staged in the musical drama theater named after Mukimi.

Key words: Uzbek musical heritage, audio recording, collection, history of the development, ethnomusicological expedition, digitization.

Ёш авлодни маънавий ва руҳий баркамол қилиб тарбиялаш вазифаси давлат томонидан устувор мақсад қилиб белгиланган экан, мазкур ишда театр санъати аҳли ҳам ўз воситалари орқали, бу мақсад сари бўлаётган ҳаракатларда ўз улушини қўшиб келмоқда десак, муболаға бўлмайди. Албатта, бундай хайрли ишларда бошқа профессионал театр жамоалари билан бир қаторда, Муқимий номидаги Ўзбек давлат мусиқали театри жамоасининг ҳам хизматлари беқиёсдир.

Мустақилликдан сўнг, театр жамоаси ўзининг миллий анъаналари, ўзига хос услуб ва изланишларидан келиб чиққан ҳолда замонавий мавзудаги спектакллар билан бирга, миллий мумтоз асарларнинг саҳна талқини билан ҳам ўз томошабларини ҳушнуд этиб келмоқда. Ёш актёрлар

ижросида намойиш этилган саҳна асарларининг, премъерадан кейин, савияси тушиб бораётганлигига гувоҳ бўламиз. Бунинг сабабларини аниқлаш учун алоҳида тадқиқот олиб бориш лозим. Муқимий номидаги мусиқали театрдаги ёшлар ижросидаги спектаклларда ҳар ким ўз шевасида гапириши ҳам, алоҳида тадқиқотга мавзу бўлади. Бу масала, саҳна нутқига эътиборни сусайганлигига далилдир.

Яна бир жиддий масалага ойдинлик киритиш лозим. Мусиқали драма номини олган бир қанча спектаклларда жанр талабларига риоя этилмаганлиги кўринади. Спектакллар жанр жиҳатидан мусиқали драма эмас, балки қўшиқли томошанинг ўзгинаси бўлиб қолмоқда. Бунинг устига қўшиқларнинг мавзуси ҳам, ижроси ҳам талаб даражасида эмас. Юқори савиядаги мусиқали драма мухлисларини, бундай савияси паст томошалардан безиши табиий. Бундай томошадан кейин, театрга томошабинларни мажбурлаб олиб кириб бўлмайди. Чунки, театр аввало манъавият, маърифат ва тарбия ўчоғи. Шу маънода, уни инсон руҳиятини покловчи, ибрат мактаби деб аташлари бежиз эмас. Муқимий театрида афсуски, сўнгги йилларда бу масалага жиддий эътибор берилмаяпти.

Театр жамоасида ёшлар кўпайиб, уларнинг аввалги изланишлари сусайиб, ижодий бамайлихотирлик кайфиятлари пайдо бўлмоқда. Муқимий театри тарихини ва анъаналарини яратган санъат усталарининг энг кучли фазилатлари нимада эди? Улар, юқори савиядаги драматургия асосида, ижод қилган эди. Қолаверса, улар театрни ўз тақдирлари деб билган ва шунга ишонган фидойи кишилар бўлишган. Аввало, улар театрга муқаддас бир даргоҳга келгандек келишар, саҳнани табаррук жой деб, унга сидқидилдан хизмат қилишга тайёр бўлишган. Бундай фидойилик замирида, ижод қилиш нияти ва изланиш ётарди. Чунки, улар ижодига илҳом берадиган драматургияда, ўз дилидагини томошабинга айтадиган “дардига” асос бўлар эди. Замонавий драматургия ва ундаги ёш қаҳрамон тақдири, навбатдаги жуда жиддий масала бўлиб, унинг ечимини топилиши мусиқали театрлар истиқболи билан боғлиқ.

Юқорида биз санаб ўтган бир қатор эътибор талаб масалалар ечими, бизнингча мусиқали театр режиссураси билан боғлиқ муаммолардир. Профессионал режиссура аввало, юқори савиядаги бадиий яхлит спектакл дегани. Бундай режиссёр театрда саҳна нутқига алохида эътибор қаратади. Қолаверса, жанр масаласига саводли ёндашув ҳам айнан профессионал режиссура билан боғлиқдир. Ёш қаҳрамон тақдири ва уларнинг ижро маҳорати ҳам, профессионал режиссуранинг бош масаласи эканлигини, алоҳида таъкидлаш лозим.

Профессионал режиссёр билан ижод қилган ёш актёрларнинг ижодий кучига куч, илҳомига илҳом қўшилади. Ёш актёр, ўзига топширилган рол мукаммал бўлиши учун барча маҳоратини бахш этиб, устозлар ўгитига амал қилган холда, ижодий вазифаларни астойдил бажаришга киришиб кетади. Институтни тамомлаб, театрга ишга келган ёш актёр, мукаммал – устоз ижодкорлар кўмаги ва назоратида шаклланиши лозим. Бу – энг муҳим касб талаблари ва шартларидандир. Илк қадамидан, ижодий вазифани маъсулият билан бажаришга ўрганган ёш актёр, албатта, шахсга айланади. Бунинг калити эса, қаҳрамоннинг саҳнавий ҳаётини жонлантиришни амалий ўзлаштириш орқали, профессионал режиссура талаблари даражасига кўтарилишидадир.

Айни пайтда, мусиқали театрларимиз репертуарлари кўпгина замонавий саҳна асарлари, ёш қаҳрамон тақдири билан боғлиқ спектакллар билан бойиб бормоқда. Хусусан, Муқимий номидаги Ўзбек давлат мусиқали драма театри ижодкорлари ҳам, бу масалага ўзига хос услубда ёндашмоқда. Шунинг учун, театр репертуаридан ўзбек халқининг ўзига хос табиати, орзу-истаклари, миллий қиёфасини акс эттирувчи, замонавий мавзудаги, бугунги кун ёшлари ҳаётидан ҳикоя қилувчи, уларнинг ютуқ ва муаммоларини ёритиб берувчи саҳна асарлари жой олмоқда. Масалан “Отабек ва Кумушбиби”, “Айрим нусхалар”, “Бахтли бўл дугонажон”, “Осмоннинг бағри кенг”, “Тўда” “Ойонам – қайнонам” каби спектакллар ана шулар жумласидандир.

Бу спектаклларда Ўзбек мусиқали театрининг ўзига хос миллий руҳдаги анъаналарга амал қилиниши кузатилмоқда. Шу анъаналарни сақлаб қолиш ва давом эттириб, ривожлантириш учун замон руҳига мос саҳна асарлари зарурлигини англаб етган ижодкорлар, бунинг асоси миллий драматургия эканлигини тушундилар. Бунга Абдулла Қодирийнинг “Ўтган кунлар” асари асосидаги, Ўзбекистон халқ шоири Жуманиёз Жабборовнинг “Отабек ва Кумушбиби” номли инсценировкасини мисол қилиш мумкин. Уни марҳум режиссёр, Ўзбекистон халқ артисти, Рустам Маъдиев саҳнага олиб чиқди.

Спектакл мавзуси, пьеса мавзусига ҳамоҳанг равишда, порахўрликка қарши кураш бўлиб қолади. Сабаби ундаги бир гуруҳ қахрамонлар ҳамма нарсани пулга чақадилар ва эшигига садақа сўраб келган гадойдан ҳам, садақа сўраб келганлиги учун, пора олишга уринадилар. Шунинг учун пьеса, дастлаб ёзилган пайтда, шўро ҳукумати томонидан қаршиликка учраган. Сабаби, коммунистлар раҳбарлик қилган ҳукуматда порахўрлар бўлиши мумкин эмас эди. Натижада асарни таъна-ю дашномлардан сўнг, номи “Айрим нусхалар” деб ўзгартирилганлиги ҳақида маълумотлар бор.

Спектакл, порахўрликнинг иллат эканлигини таъкидловчи ашула ва балет гуруҳининг рақси билан бошланади. Саҳнада давр образини ифодалайдиган қилиб безатилган хонадон. Унинг тўридаги печка, ёнидаги стол устида меҳмондорчиликдан қолган шиша идишлар кўринади. Саҳнанинг чап томонида Сухсуров – Турғун Бекназаров ва унинг ҳамтовоғи Юсуф – Турсунбой Пиржоновлар, кечаги маишатдан сўнг хуррак отиб уҳлаб ётишибди. Худди шу ҳолатда уларнинг рўпарасида Азлархон – Дилмурод Узоқов ҳам шериклари каби дам оляпти.

Саҳнада Нетайхон – Гулноза Саидова кўринади. У пайт пойлаб аста-секин бориб, Азлархонни уйғотишга ҳаракат қилади. Нетайхон образи, драматург томонидан мол-дунёга ўч, юзига ажин тушишидан қўрқиб, аёл учун муқаддас – оналик бахтидан воз кечган шахс қиёфасида тасвирланган. У эри Сухсуровни севмайди, бироқ ҳовли-жойни, молу-давлатни ўз номига

ўтказиш нияти, уни чидашга мажбур қилади. Нетайхон эри йўқ вақтларда, қўшниси, хуштори – Азлархон билан маишат қилади. Ўз эрига хиёнат қила туриб, асранди қизи Ҳожарни аҳлоқсизликда айблайди.

Актриса Нетайхон характерининг салбий жиҳатларини тўлиқ очиб бера олмаган. Чунки, унинг мақсадидан келиб чиққан ҳолда ижрога ёндошмаган. Воқеаларнинг кескин ўзгаришидан қатъий назар, у ўзгармайдиган бақироқ аёл сифатида кўринади.

У Хожарни, эркин яшашига халақит бераётгани учун ёмон кўради. Бу саҳна актриса томонидан бўрттириб ижро қилинади. Натижада бақириқ пайдо бўлади. Азлархон билан хуфиёна учрашганда унга суйкалишлари, томошабин назмида, Нетайхон мақсади фақатгина кайфи-сафо қилишдек кўринади. Аслида, Нетайхонни мақсади ўзгача, бу ҳовлидаги мол-мулкка тўлиқ эга бўлишдир. Бу жиҳат сустлиги учун у енгилтакдек кўринади.

Актрисанинг турли қилиқлар билан кулги қўзғатишга ҳаракат қилиши ҳам спектаклда ўзини оқламайди. Яна ачинарлиси шуки, бу саҳнада унинг нутқидаги камчиликлар ҳам сезилиб туради.

Шобарот образини актёр Умид Шодмонов яратади. Спектаклдаги воқеалар ривожи давомида актёр атрофда бўлаётган воқеларга бефарқ муносабатда бўлади. Унинг ижросидаги Шобарот қилиқлари аввалги эпизодик ролларидаги ҳаракатларини такрорлаши, уни изланмайдиган актёрлигига далолат дейиш мумкин.

Спектаклдаги яна бир образ – асранди қиз Хожардир. Бу рол ижрочиси актриса Нафиса Холиқова. Ёш ижрочи, спектакл бошланишидан томошабинни воқеалар ва характери тизими орқасидан эргаштириб, хокисор қиз сифатида кўринади. Буюрилган ишни қаршиликсиз бажаради. Актриса ижросидаги образнинг бу жиҳатлари яхши чиққан.

Спектаклнинг охирги саҳнасида Нетайхон Хожарнинг юзига тарсаки тушириши, унинг характерини кескинлаштиради. Бунинг натижасида қаҳрамон сўзларида чалкашликлар юзага келади. Бу топилма саҳнада ҳақиқат пайдо бўлишига ёрдамлашади.

Хулоса қилиб айтганда, спектаклда кўтарилган мавзу ва ғоя бугунги кун учун ҳам муҳим ҳисобланади. Демак, бундай спектакл театр репертуаридан жой олгани тўғри. Афсуски, мавзу ва ғоя жиҳатдан бақувват бўлган спектакллар репертуарга киритилгандан сўнг бир йил ўтмасдан, ижрочилар томонидан ёнгил-елпи ёндошув ҳолатлари ҳам кузатилмоқда.

Ёш ижодкорлар кўз олдида ўз ролларига бефарқ муносабатда бўлишлари, ўз нутқи устида ишламасликлари, тайёргарликсиз тўғридан-тўғри саҳнага чиқишлари оқибатида, ролни – "ўйнаб ташлаш" юзага келмоқда. Бу бефарқлик натижасида, ёш актёрлар ижросида камчиликларга йўл қўйиш одат тусига кириб қолиши эҳтимолдан ҳоли эмас.

Умуман олганда мусиқали театр санъати намунасининг мўъжизакор қудрати томошабинлар қалбини тўлқинлантириб, ҳайратлантириб, ўзлигини англашига хизмат қилиши лозим. Зеро, у томошабинларга бевосита ғоявий ва тарбиявий таъсир кўрсатади.

Саҳна ижодкорлари билан томошабинларни маънан бойитади, руҳини поклайди, кўнглини кўтаради, эртанги кунга ишонч пайдо қилади. Тарбиячининг ўзи тарбияланган бўлиши шарт деганларидек, мусиқали театр санъатининг бўлғуси намоёндалари ҳам бу жавобгарликни ҳис қилиб, ўз устида тинимсиз изланиши, мусиқали театрнинг сир-асрорларини яхши англаган ҳолда иш тутишлари ҳозирги давр талабидир. Зеро, актёрнинг саҳнадаги бу ҳаракатларини кўрган томошабин уни ҳақиқий санъаткор деб тан олсин. Театрга келган одамлар кулсинлар, йиғласинлар, ҳаёлга чўмсинлар, нафосат ва гўзалликдан баҳраманд бўлсинлар.

Зеро, ҳақиқий мусиқали театр санъати намунасининг мўъжизакор қудрати томошабинлар қалбини тўлқинлантириб, ҳайратлантириб, ўзлигини англашига хизмат қилиши лозим. Зеро, у томошабинларга бевосита ғоявий ва тарбиявий таъсир кўрсатади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. М.Қодиров. Сеҳр ва меҳр – Т.:Ўқитувчи, 1980.

2. Т.Турсунов. Саҳна ва замон – Т.: Янги аср авлоди, 2007.
3. М.Ҳамидова. Актёрское искусство узбекской музыкальной драмы – Т.: Фан, 1987.
4. М.Ҳамидова. Узбекская музыкальная драма – Т.: Г.Гулям, 1987.
5. Ш.Ризаев. Жадид драмаси – Т.: Шарқ, 1997.
6. А.Жабборов. Мусиқали драма ва комедия жанрлари Ўзбекистон композиторларининг ижодиётида – Т.: Ғ.Ғулом, 2000.
7. М.Умаров. Маннон Уйғур эстетикаси – Т.: Мусиқа, 2007.
8. Ҳ.Икромов. Мусиқали театр: ташаббус ва ижро//Театр, 2000. №3.
9. Т.Турсунов. Саҳна бадиияти кўчаларида//Театр, 2005. №1-2.
10. Б.Холмирзаев. Мусиқали драма яратишнинг нозик жиҳатлари – Т.: ЎзДСИ, 2009.

AKTYOR SHAKLLANISHIDA “VOKAL” FANINING O‘RNI XUSUSIDA

O‘zDSMI “Vokal” kafedrasi
dotsenti D.M.Malikova

Annotatsiya: *Mazkur maqolada “Vokal” fanining aktyorlik mutaxassislarini tarbiyalashdagi maqsad, vazifa va ahamiyati borasida, aktyorda vokal ijrochilik malakalarini o‘zlashtirish,“Vokal” darslarini to‘g‘ri tashkillashtirish hamda vokal o‘qituvchilarining professional sifatlari xususida fikrlar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *ritm, temp, diksiya, dinamika, repertuar, diapazon, registr, tembr, interval, vokaliz, legato, kantilena , artikulyasiy*a, *monospektakl.*

Аннотация: *В данной статье изложены цели, задачи и значения предмета «Вокал» в воспитании актёров, ведется речь о методах и организациях занятий по предмету «Вокал», освоении вокально-*

исполнительских навыков,о профессионалных качествах педагогов по вокалу.

Ключевие слова: *ритм, темп, дикция, динамика, репертуар, диапазон, регистр,тембр, интервал, вокализ, легато, кантилена, артикуляция, моноспектакль.*

Annotation: *In this article, the purpose, task and importance of "vocal" subject in educating acting specialists, acquisition of vocal performance skills in the actor, proper organization of "vocal" lessons and professional qualities of vocal teachers are expressed.*

Key words: *rhythm, tempo, diction, dynamics, repertoire, range, register, timbre, interval, vocalization, legato, cantilena, articulation, solo performance.*

Respublikamizda yosh avlodni har tomonlama yetuk, bilimli, yuksak ma’naviyatli, barkamol bo‘lib yetishishini ta’minlash yo‘lidagi ulkan bunyodkorlik ishlarining muhim jabhalaridan biri ta’lim-tarbiya amaliyotiga yangi, zamon talabiga javob beradigan usullarni joriy qilish va ular asosida o‘qitish samaradorligini oshirish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Musiqasiz, qo‘shiqsiz turmush tarzimizni tasavvur qilish qiyin. Biz bilamizki, kuy, qo‘shiq - insoniyatning ichki dunyosini boyitib, hayotini go‘zallik sari chorlab, insonni estetik shakllanishi va yashashi uchun asosiy ruhiy - ma’naviy omil hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi Prezidentimiz farmoni bilan tasdiqlanib, e’lon qilingach, hech qancha vaqt o‘tmasdan, 2 fevral kuni yana bir muhim hujjat **“Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”**gi qarorini imzolanishi davlatimiz rahbari tomonidan ma’naviyat, madaniyat, san’at sohalariga jiddiy e’tibor qaratilayotganini yana bir bor tasdig‘idir.

Bugungi kunda teatr san'ati ijodkorlari ham uzluksiz izlanishdadir. Albatta bugungi tomoshabinning dunyoqarashi o'zgacha, shu bois aktyor, teatrlarning ijodiy faoliyati ham o'zgarib bormoqda.

"Teatr sintetik san'at bo'lib, jamiyat hayotida, tomoshabinlarning ma'naviy va estetik tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Unda dramaturgiya, musiqa, tasviriy san'at, raqs, me'morchilik ajralmas birlikni tashkil etadi. Teatrda musiqaning ham o'rni katta, tomosha turi va janriga bog'liq holda turli vazifani bajaradi: dramatik spektakllarda yordamchi vosita bo'lsa, operetta, musiqali dramada so'z bilan barobar huquqqa ega"[36][1-B-249.].

Spektakllarga ham talab o'zgacha. Bugungi kun aktyoridan nafaqat ro'l o'ynash, balki ba'zi sahna ko'rinishlarida mahoratli kuylash, raqsga tushish ham talab etiladi. Shu munosabat bilan teatrlarda musiqa san'atining turli uslub va yo'nalishlarida, masalan, rokdan klassikagacha o'zini namoyon eta oladigan aktyorlarga talab juda katta bo'lmoqda. Teatr san'ati yo'nalishida tahsil oluvchi barcha talabalarni har tomonlama yetuk mutaxassis sifatida yetishib chiqishida "Vokal" fanining o'rni o'ta muhimdir. Shu sabab ushbu fan oliy o'quv muassasalarida mutaxasislik fanlaridan biri hisoblanadi. "Vokal" fanida har bir talaba bilan individual, ya'ni talabaning ovoz imkoniyatlaridan kelib chiqqan holatda yakka tarzda dars o'tiladi. Ushbu fanning asosiy vazifasi talabalar ovozini ilk mashg'ulotlardan boshlab kuylash malakalarini shakllantirib, ovoz apparatini bosqichma-bosqich ijodiy jarayonga tayyorlab borishdan iboratdir.

Vokal san'ati vositasida talabalarning estetik va badiiy didini tarbiyalash, ularning ijrochilik qobiliyatini rivojlantirishda talabchanlik bilan uzluksiz ish olib boriladi. Talabalarga o'zbek, qardosh xalqlar vokal asarlari, shuningdek, chetel kompozitorlari tomonidan yaratilgan nodir asarlaridan o'rgatilib, professional uslubda kuylash malakalari shakllantirilib boriladi.

[36] Madaniyat va san'at atamalarining izohli lug'ati. – T. 2015, 249 b.

Inson ovozi - tabiatning eng noyob sozidir. Insonning ovoz apparati o‘ziga xos murakkab musiqa asbobi bo‘lib, u o‘zining rang-barang tembr boyligi, nihoyatda nozik musiqani ifodalash xususiyatlariga egaligi bilan barcha musiqa asboblaridan ustun turadi. Shu bois unga bo‘lgan cheksiz qiziqish, uni o‘rganish ko‘plab vokal mutaxassislarini, musiqa nazariyotchilarini, olimlarni o‘ziga jalb etib, turli bahs-munozarlarga, ko‘plab risolalarning yaratilishiga sabab bo‘lmoqda. Har bir insonning o‘zi individum, tabiiyki, uning ovoz apparati ham betakror tuzilishga egadir.Tabiatan inson ovozi qanchalik to‘g‘ri qo‘yilgan bo‘lmasin unda professional vokal ko‘nikmalarini hosil qilish zarurdir.

Vokal o‘qituvchilari yigit va qizlarning ovoz imkoniyatlari haqida mukammal bilimga ega bo‘lishlari shart. Talabada xonandalik ovozini tarbiyalshda bir qator metodik qo‘llanmalarga amal qilish kerak. Ularga vokal kuylash ko‘nikmalarini o‘zlashtirishda avval ovoz apparati tuzilishi haqida tushuncha berib o‘tish juda muhimdir.

Tovushni hosil bo‘lishida inson organizmining bir qator organlari: og‘iz, burun bo‘shlig‘i, tovush paychalari, halqum, bronx, o‘pka, nafas mushaklari, diafragmalar ishtirok etadi. Ovoz hosil qilishda yuqorida aytib o‘tilgan a’zolar asab tizimining buyrug‘ini bajaradilar. Qo‘shiq aytish jarayonida ular bir organizmdek birlashadilar. O‘qituvchi birinchi darslardan talabani tabiatan qanday nafas olishini kuzatishi va o‘rgatishi bilan bir qatorda, talabaga bir qancha mashqlar orqali xonandalik nafas turlarini ko‘rsatishi zarur. Talabaga nafasni asta-sekin, chuqur olib, to‘g‘ri taqsimlab chiqarishni o‘rgatish muhim. Nafas olish shovqinsiz, yengil bo‘lishi va chuqur nafas olish uchun talaba “gul isini hidlanishi”ni tasavvur qilishi lozim. Xonandalik nafasini asta-sekin rivojlantirish va mustahkamlash kerak. Tovush hosil qilishda nafas olish naycha yo‘llari, burun bo‘shliqlari, artikulyatsiya, bo‘g‘iz, rezonator va bir qator mushaklar qatnashishi, erkin kuylashga o‘rgatishda paychalar to‘g‘ri kuchlanishi va bo‘g‘izni siqmaslik holatlari tushuntirib boriladi.Tovushni to‘g‘ri hosil etishda meyordan ortiq nafas olmaslik,yetarlicha nafas olmasdan kuylamaslik,tovush atakasida hosil bo‘lgan hisni keyingi jumlaga o‘tguncha

saqlab qolish asosiy shartlardan biri ekanligi uqtirib borilishi kerak. Ovozlar aniqlanayotganda bir qator belgilarga, ya'ni: diapazon, tembr, ovoz apparatini anatomik-fiziologik holati, o'tkinchi notalarga e'tibor berish zarur.

Ovoz sozlash jarayoni talabalar ovozini rivojlantirishdagi muhim bosqichlardan hisoblanib, unda foydalaniladigan mashqlarda qat'iy ketma-ketlik qonuniyatga rioya qilish zarur. Talaba mashqlarni kuylayotgan vaqtda tomoq erkin va siqilmasligi kerak. Barcha ovozlarga dastlab o'rta registrda kuylash tavsiya qilinadi. Masalan, yumuq ovoz bilan kichik mashqlarni xromatik intervallar bo'yicha yuqori va pastga kuylash, unli tovush mashqidan unli va undosh tovushli mashqgacha kuylash, sekin tempdan-tez tempgacha bo'lgan mashqlarini kuylash o'rgatiladi. Har bir mashqlar orasidagi vaqt interval imkon qadar kengroq bo'lishi va ularni kuylash davomida tovushning to'g'ri hosil bo'lishiga, intonatsion tiniqligiga, nafasni to'g'ri olib uni taqsimlanishiga talabani shoshtirmasdan o'rgatib borish zarur. Talabalarga ***legatoda*** ya'ni jumlalar, bog'inlarni bog'lab kuylashni o'rgatish lozim. Ular vokal san'atini asosi bo'lmish ***kantilena***da kuylash – eng muhim jihat ekanligini tushunib eyetishlari kerak.

Vokal jarangi ifodaliligi, tovush sifati vokal - texnik ko'nikmalar: nafasni rezonatorlar ishi, talaffuz apparatini egallashga bog'liq. Biroq texnik ko'nikmalarni shakllantirish emotsional yo'nalish va badiiy ifodalilik bilan birga olib borilishi lozim.

Aktyorlikka tarbiyalanayotgan barcha talabalarga xonanda va aktyor vazifalarini alohida, sun'iy ravishda qo'yish noto'g'ri. Talaba yetuk aktyor bo'lib yetishsa, u yaxshi xonanda hamdir. Aktyorlik va vokal darslaridan talaba birdek baxramand bo'lib, ularning chambarchas bog'liqligini tushunib yetishi kerak. Bo'lajak aktyorlarga o'quv jarayonida kuylash mahorati, ya'ni vokal texnikasini egallash bo'yicha muntazam ravishda bilimlar berib boriladi. Talabalarga xonandalik malakalarini egallashda va ayniqsa musiqiy asarlarning yuqori notalarini ijrosida "niqob"da kuylashni o'zlashtirib olishlariga katta e'tibor berilish lozim. Esnashni sezish hissi bo'g'izni mushak siqilishidan xolos etishga

ko‘maklashadi. Bu xaqda professor SH.T.Pirmatov “Vokal texnikasi asoslari” o‘quv-uslubiy qo‘llanmasida shunday yozadi: “Ovozni yo‘lga qo‘yishning mohiyati tovushni «niqobga» yuborish va ularda yuqori tishlarga tayab turishdan iboratdir. «Niqobdagi» tovush shunday yorqin ifodalanishi kerakki, uning yuqori tishlar ildiziga urayotganligi bilinib tursin”[37] [2-B-42.].

Repertuar ustida ish olib borish jarayonida turli qiyinchilik tug‘ilishi mumkin. Masalan, musiqiy frazaning birinchi notalarga aniq tusha olmaslik yoki frazaning oxirgi bog‘ini noaniq tugatish, musiqiy fraza yo‘nalishda ba’zi bo‘g‘inlarini eshitilmay qolishi, templarni saqlay olmay tezlashtirib yoki sustlashib ketishi va turli kutilmagan emotsional holatlar kuzatiladi. Bularning barchasini o‘qituvchi dars jarayonida ko‘proq vokalizlar kuyllatish orqali bartaraf etishga harakat qilishi lozim. Chunki vokalizlar mashqlardan badiiy asarlarga o‘tish bosqichini bajaradi.Vokalizlar mashqlar singari talaba uchun muhim bo‘lgan qo‘shiqchilik ko‘nikmalarini egallashga yordam beradi. Vokaliz talaba mashqlarda egallagan tovush hosil qilish, ovoz yo‘naltirish ko‘nikmalarini qo‘llash va mukammallashtirishga imkon beradi.Vokalizlarni kuylashda intervallar sofligiga, sur’atlatga, tembr bo‘yog‘iga va dinamik talablarga albatta e’tibor berilishi kerak.

O‘qituvchi talaba bilan yangi asar ustidagi ish jarayonida bo‘g‘inlar talaffuziga e’tibor beribgina qolmay, har bir so‘z va bo‘g‘in ustida ham tinmay ishlashi kerak. Chunki so‘z aniqligi nafaqat ijrochi balki tinglovchi uchun ham nihoyatda muhimdir. Aniq talaffuzga erishish uchun talaba bilan har bir qiyinchilik tug‘dirgan unli va undosh tovushlar ustida ishlash maqsadga muvofiqdir.

Kuylash – bu so‘z bilan boqliq bo‘lgan musiqa san’ati. Musiqiy nutq hosil bo‘lishida nutq a’zolari: oqiz bo‘shliqi, til, yumshoq tanglay, pastki jaq, bo‘g‘iz, hiqldoq qatnashadi. Bu a’zolarning (unli va undosh) nutq tovushlarini yaratishga qaratilgan ishi ***artikulyasiya*** (talaffuz) deyiladi.

---

[37] SH.Pimatov “Vokal texnika asoslari” T-2011.42-b

Talaffuz a’zolari alohida ahamiyatga ega. Bu ovoz apparatining eng harakatchan va irodamizga buysunadigan qismi. Pastki jag‘ harakati, lablar ishi, yumshoq tanglay - bu a’zolar ishi avvalo bo‘g‘iz bilan bog‘liq. Talaffuz a’zolari ishi sustligi, xuddi zo‘riqish kabi butun ovoz apparati ishiga ta’sir qiladi.

Kuylashda yumshoq tanglay va bo‘g‘iz sozligi juda muhim, zero ongimizga bo‘ysungan yumshoq tanglay orqali bo‘g‘izga uning barqarorligiga ta’sir etamiz. Yumshoq tanglayning esnash holatiga kelishi unlilar shakllanishga sharoit yaratadi, ularning dumaloqlashuviga, tembri, buyog‘i, yuqori pozitsiyaga ta’sir etadi. Yuqori notalarni kuylaganda yumshoq tanglayning baland ko‘tarilishi, baland "gumbaz" ni talab qiladi. Bu ayniqsa yigitlar ovozlarida yuqori notalarni shakllantirishda muhim. Kuylashga jarayoni boshidanoq talabalarni ***esnashga*** o‘rgatishga qat’iy e’tibor qaratish lozim, ***esnash*** - nafas olish pozisiyasining tarkibiy qismi sanaladi.

Artikulyatsiya organlrning kuylashda unililar hosil bo‘lishida nutqiy unlilardagidan akustika formatiga ko‘ra farqlanadi. Xonandalik ovozi va ovoz apparati ishiga ta’sir usuli vokalga o‘rgatishning fonetik metodi bo‘lib, vokal pedagoikada keng tarqalgan va samarali hisoblanadi.

Artikulyasiya organlari ishi intensivligi va muvofiqlashganligi nutq tovushlari talaffuz sifati, so‘zlar aniqligi ***diksiya*** belgilaydi.

Umuman olganda, talaba asarni yaxshi o‘zlashtirib olgach, asardagi ***dinamik tus***lar ustida ish olib borilishi mumkin. Asarlar ustida ishlash yoki o‘rganish jarayonida albatta uni ***temp***iga qarab, holatga kirishib kuylash talab etiladi. Talaba mana shu asosiy bosqichlarni o‘tib bo‘lgach, o‘qituvchi asarni badiiy obrazini tinglovchiga yetkazib berish ustida ishlay boshlaydi. Har bir kuylanadigan asarni talaba shunday ijro etishi kerakki tinglovchi uni nafaqat aktyor yoki xonanda, balki ***monospektakl*** ko‘rganday bo‘lishi kerak. Talabada xonandalik ovozini tarbiyalashda o‘qituvchilar yuqorida aytib o‘tilgan sifatlar va xususiyatlarni yillar mobaynida tarbiyalab borishlari kerak. Vokal texnikasidagi ana shu barcha talablarni o‘zlashtirib olgandagina xonanda kuylayotgan asarlarini tinglovchiga mazmunan mohirona yetkazib berishi

mumkin. Kuylash ko‘nikmalarini o‘rganishda talabada ichki tuyg‘u, ijodiy ko‘tarinkinlik, mustahkam iroda, fikrlash, o‘z kuchiga ishonch, maqsad sari intilish, yaxshi kayfiyat asosiy jihatlardir.

Asarlar qanday xarakterda yozilmasin ularni tinglovchilarga yetkazib kuylay bila olish uchun ham o‘qituvchi, ham talabadan juda ko‘p mehnat hamda professional yondashuv talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madaniyat va san’at atamalarining izohli lug‘ati. – T. 2015, 249 bet.
2. SH.Pirmatov. “Vokal texnika asoslari”.T-2011.
3. PF-60-son 28.01.2022. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Toshkent. 2022.

Ўзбекистон давлат санъат
ва маданият институти
“Санъатшунослик ва маданиятшунослик”
кафедраси доценти Ф.М.Абдувоҳидов

Шарқ мумтоз театрининг ўзбек актёрлик санъати ривожидаги аҳамияти

Аннотация. Ушбу мақолада Шарқ мумтоз театри шарқ маданий ҳаётида рўй берган бебаҳо санъат ҳодисаси эканлигига эътибор қаратилади. Шарқ театри ўз ижодий анъаналари ва ҳозирда ҳам яшашда давом этаётган мактаблари билан ғарб театрлари қатори умумжаҳон томоша, хусусан

актёрлик санъати равнақига ҳисса қўшиб келаётганлиги назарий жиҳатдан тадқиқ этилади.

Калит сўзи: актёр, режиссёр, театр, тақлид, санъат, роль, ижро,тимсол, томошабин, актёрлик маҳорати, ижодкор, хатти-ҳаракат, саҳналаштириш.

Аннотация. В статье особое внимание уделяется восточному классическому театру, как бесценному явлению искусства в культурной жизни Востока. Кроме того, в статье теоретически исследуются творческие традиции и ныне существующие и развивающиеся школы восточного театра, а также его красочность, не уступающая яркости зрелищ мировых театров, и огромный вклад в процветание актерского мастерства.

Ключевое слово: актёр, режиссёр, театр, представление, искусство, роль, исполнение, образ, зритель, мастерство актёра, творец, действие, постановка.

Annotation. This article is written about that east classical theatre as one of the best art event in eastern cultural life. Thera are researching theoretic standpoint eastern theatre where it is creative tradition and continue to live with art schools which, as west theatre by all over the world are developing art of actor.

Key word: actor, director, тheater, hero, imitation, art, role, spectator, conception, creator, acting skills, image, action, production.

Шарқ мумтоз театри шарқ маданий ҳаётида рўй берган бебаҳо санъат ҳодисасидир. У бой ижодий анъаналари ва ҳозирда ҳам яшашда давом этаётган мактаблари билан ғарб театри қатори умумжаҳон театри санъатининг нақадар бой ва рангбаранглигидан далолат беради.

Шарқ театри ўз моҳиятига кўра бизга жуда яқин туради. Ўра Осиё халқи, шу жумладан ўзбеклар қадим замонлардан ҳинд, хитой, япон ва бошқа шарқ халқлари билан яқин маданий алоқаларда бўлиб келган. Эрадан аввалги асрларда буддавийлик дини Ҳиндистондан Хитой, Япония каби мамлакатларга тарқалишида ҳозирги Сурхондарё сарҳадлари мисоли

кўприк вазифасин ўтаган. Шу тарзда бу мамлакатларга буддавийлик қатори Ўрта Осиёда яратилган санъат ва маданият намуналари кириб борган. Шуни таъкидлаш лозимки, ҳинд, хитой ва япон театри умумий бир диний, маданий муҳитда шаклланган яхлит воқелик тарзида кўзга ташлангани ҳолда бу театрнинг ҳар бири ўз эстетик қиёфасига эга бетакрор бадиий ҳодисалардир.

Ҳиндистон, Хитой ва Япония шарқ минтақасида ёзма адабий драма ва юксак театр санъатига асос солган мамлакатдир. Ҳинд театри энг қадимда дунёга келган бўлиб эрамизнинг IV-V асрларида гуллаш даврини ўтади. Хинд драмалари умумадабий тил ҳисобланган санскрит тилида ёзилганидан бу театр тарихдан ҳинд санскрит театри номи остида ўрин олган. XII-XIV асрларда жаҳон театри майдонига хитой театри чиқади. Япония театри XIV асрда Но, XVII асрда Кабуки, Дзёрури театр турлари мисолида ўзининг энг юқори ривожланиш даврига киради. Ушбу даврларда яратилган саҳна асарлари, бадиий мактаб ва услублар ўзининг ғоявий – эстетик етуклиги билан кейинги авлодлар учун намуна бўлиб қолди. Шунгакўра ушбу даврлар ҳинд, хитой ва япон театри тарихидан уларнинг мумтоз даври сифатида ўрин олди.

Шарқ театрида инсон тақдирининг жамоа тақдири билан боғлиқлиги қадимий – диний фалсафий қарашлар заминида шаклланган. Бунга кўра ёруғ дунё, замин яхлит бир хилқатки, инсон шу хилқатнинг зарраси (охири шунга сингиб кетади) ва айни чоғда унинг таянчи ҳамдир, унга зиён етказиш ўзига зиён етказиш демакдир. Биламизки, ғарб театрида бадиий образ бир
– бирига зид қарашлар, тўқнашувлар жараёнида ривожланиб боради. Ўзаро тўқнашувлар тизими шарқ театри табиатига зиддир. Боиси, бу инсон яшаётган олам мувозанатини бузиши мумкин. Шу боис ғарб драмаси асосини белгиловчи конфликт шарқ театрида ўзгача кончепция асосида ҳал этилган.

Шарқ театрида артистлик (актёрлик) тизими амплуа асосига қурилган. Амплуа французча амплуои сўзидан олинган бўлиб, қўлланиш маъносини

англатади. Театр атамаси сифатида актёрлар маълум ролга ихтисосланиши, уни касб корига айланишини англатади. Хитой ва япон театрларида табиатан яқинлигига роллар тўрт – беш хил гуруҳга бўлинган ҳолда ижрочилик амалига киритилган. Ҳар бир актёрлик амплуасининг ўз номи бор. Бош қаҳрамонлар роллари хитой театрида ЧЖЭНМО ва ЧЖЭНДАН (хотин-қизлар), япон Но театрида Ситэ, ҳинд театрида СУТРАДХАРАТА деб юритилади. Хитой пьесаларида масалан, ёзилиш чоғидаёқ қайси ролниқайси актёрлик амплуаси ижро этиши “Вай” Монах ролида, “Чунмо” доу Тян-жан ролида каби қайдлар белгилаб қўйилган бу саҳнада ҳаракат қилувчилар – актёрлар, улар драматург яратган ролларни ўз санъатлари ёрдамида қайта жонлантирмоқдалар. Бу ҳаётнинг кўчирмаси эмас балки театр ўйини эканини англатар эди.

Актёрлик труппалари шарқ театрида оилавий сулола тарзида шаклланган. Шарқ пьесаси ҳам назм, ҳам наср қоришиқлиги тарзида ёзилган. Но драмаси ва хитой мусиқали драмалари фақат шеърий шаклда битилган. Сўз, мусиқа, рақс, пантомима, акробатика каби ифода омиллари муштараклиги бу асарларнинг асосий хусусиятидир. Актёр маълум ролнинг устаси бўлган ҳолда асарда қўлланувчи барча ифода омилларини эгаллаган бўлиши шарт. Бўлғуси актёр 8-9 ёшлигидан сулола доирасида тарбия кўриб маълум рол бўйича ихтисослашган. Таъкид этиш лозимки, белгили амплуалар маълум ифода услубига солинган тизим асосига қурилган бўлиб, уни ўзлаштирган актёр камдан кам ҳоллардагина ўз ролидан бошқа ролларга ўтиши мумкин бўлган.

Шарқ театрида декорация деярли қўлланилмаган. “Мана ўрмондамиз”, “мана дарёда” каби изоҳлар жуғрофик манзилни белгилаш учун кифоя эди. Актёрларнинг кийим – кечаги, пардози орқали унинг персонажи қайси табақадан, салбий ёки ижобий ҳислатга эгалиги кўриниб турган. Япон Кабуки театрида масалан қизил раён эзгулик, кўк ранг салбийлик маъносини англатар эди. Ҳинд театрида “ҳавога сўзлаш” усули саҳнада турган актёрни саҳнадан ташқарида билган киши билан

сўзлашиб унинг сўзига жавоб қайтариш усули томошабин учун воқеликни узлуксиз кузатиш имконини берган. Хитой ва япон театрида саҳнанинг бир нуқтасидан бошқа нуқтасига бориб келиш бошқа бир манзилга бориб келиш маъносини англатган.

Шарқ театри тимсоллар театридир. Унда ҳар бир ҳаракат ва ҳолатнинг тимсолий маъноси бор. Япон Но ва Кабуки театрида саҳнавий ҳаракатнинг бутун бир тизими шаклланган. Бу тизим ката деб аталади. Саҳнадаги ўтириш – туришдан бошлаб, яккама - якка ханг (татэ) имо – ишора (миэ) барчаси категорияси асосида рўёбга чиқарилади.

Шарқ пьесаси ва театрида образни индивидуаллаштириш, ўзига хос қиёфасини яратиш талаб этилмайди. Бу театрда бош қаҳрамон асар моҳиятини белгиловчи тимсол тарзида яратилади. У саҳнада бирор ғоя, воқелик, муаммо ифодачиси сифатида умумлашган образ тарзида майдонга чиқиши керак. Қайсидир асарда у севги – муҳаббат тимсоли тарзида кўринишга зид бўлиб чиқиши керак. Қайсидир асарда у севги муҳаббат тимсоли, бошқасида эл-юрт, халқ тимсоли тарзида кўринади. Шу боис унинг хусусий руҳий кечинма ва феъл – атворига урғу бериш унинг асосий хусусияти - умумлашма тимсол тарзда кўринишига зид бўлиб чиқиши, бошқача айтганда, кўзланган бошқа мақсадни барбод этиши мумкин. Япон Но ва Кабуки театрлари – эркаклар театрлари, уларда хотин – қизлар ролларини ҳам эркаклар ижро этадилар. Хитой театрида ҳам эркакларни хотин-қизлар ролларида чиқиш амалиёти бу театрнинг илк гуллаган давридаёқ шаклланган. Япон театрини чуқур ўрганган академик Н.Конрад эркакларни хотин қизлар ролларида чиқишини улар образини “маҳорат маҳсули” тарзида ярата олиши билан асослайди.

Чиндан ҳам шарқ театри актёри ўз маҳорати билан мўжизалар яратишга қодир ижодкордир. Улуғ шоир Сулаймон ўғли Чўлпон 1935 йили атоқли хитой актёри Мей Лан – фан ҳақида алоҳида мақола ёзиб унинг маҳорати ҳақида шундай таъриф берган эди: “Унинг ўнта бармоғи ўнта талантли актёрнинг вазифасини бажаради. Хусусан, қўлини енг ичига олиб,

гоҳ чиқариб енг билан шундай ўйинлар қиладики, кўзингизни узолмайсиз. Мен унинг бармоқларига кўз тикканим ҳолда ўз Академик театримизнинг ўйин техникасини ўйладим. Қанча аччиқ бўлмасин, айтиш керакки, биз бу хусусда анча олисдамиз. Бу кун саҳна санъатида бутун дунёга ўрнак бўлиб турган Москва санъат шинавандалари билан лиқ тўлган бу зал ўйин сўнгида Мей Лан-фаннинг чарчатгудек даражада олқишлаб чиқарди. Хитой классик театри, японларнинг Кабуклари Овропа учун, шу жумладан, биз учун жуда қизиқтирувчи санъатдир. Шарқ оламида ўзича бир ўрин тутган япон ва хитой театрларини ўрганайлик" . [2-Б.131][38] деб хитоб қилган эди шоир.

Шарқ театрга хос ғоявий ва бадиий хусусиятларни унинг драматургияси орқали англаш мумкин. Боиси театрнинг асоси – драматургиядир. Саҳнада қандай сўз айтаяпти, қандай мавзу идрок этилмоқда, булар ҳаммасит пьеса маҳсулидир. Шу боис мумтоз театр моҳиятини белгилаб берган драматурглар ижодини ўрганиш лозим эди.

Хитой юан пьесаларидаги ўнлаб арияларни айтиш учун актёрлардан алоҳида лаёқат эгаси бўлиш талаб этилади. Но ва кабуки театрларида хотин-қизлар ролларини ҳам эркак актёрлар ижро этади. "Кабуки санъатининг якка-ягона асоси бу маҳоратда – дейди академик Н.И.Конрад, - саҳнада соф маҳорат маҳсусилини бериш ички ҳиссий жўшишни соф маҳорат кўтаринкилигига илаштириш фақат эркакнинг қўлидан келади" [3-Б.354] [39].

Но театрида Ситэ ролини ўйновчи актёр одатда ниқоб кийган ҳолда ўйнайди. Но театри бадиий ва диний анъаналарга мойил кишилар театри. Кабуки театрига зид равишда Но театри омма учун эмас, қадимий удум ва бадиий шаклларга ошуфта маълум табақа томошабинлари учун мўлжалланган театр.

Хор ва икки асосий (Ситэ, Ваки) актёр билан томошабинни 70-80 дақиқа эстетик завқ оғушида тутиб туриш учун ҳар бир лаҳза ўз таъсир юкига эга бўлиши керак. Жонсиз ниқоб орқали ҳис-кечинмаларга бой

[38]Чўлпон. Адабиёт надур. - Т.: Ўқитувчи, 2000. 131 - бет
[39] Н.И.Конрад, "Избранные труды" изд-во «Наука», 1978, 354 бет.

инсоний қиёфа гавдалантириш, манастир роҳиблари каби ер сузиб ҳаракатланиш, сўз ва уни қироатга, ундан арияга айланиши, рақс мусиқий тасвирлар-буларнинг жами юксак маҳорат намойиши тарзида саҳнада шоирона афсонаваш манзара яратиши керак бўлади.

Шу ўринда рус режиссёри А.Я.Таиров актёрларни тарбиялашда кўп бор қўллаган "Қадимги Хиндистонда актёр бўлишдан кўра подшоҳ бўлиш осон экан"- деган ибораси ҳам шарқ театрида актёрлар маҳоратини мустаҳкамлашга нечоғли эътибор қаратишларидан далолат беради.Демакки, бугунги кунда ўзбек актёрлик мактабини янада мустаҳкамлаш, ижодкорлар маҳоратини ўстириш бобида бизга ижро услуби жиҳатидан бирқадар яқин турадиган Шарқ мумтоз театри анъаналарини ўрганиш, тажрибалари билан ўртоқлашиш самарали натижаларнинг пойдевори ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. С.Турсунбоев. Хорижий театр тарихи. 1 жилд. – Т.: Ўқитувчи, 1997.
2. Чўлпон. Адабиёт надур. Т.: Ўқитувчи, 2000.
3. Н.И.Конрад, "Избранные труды" изд-во «Наука», 1978.
4. Абдусаматов Ҳ. Драма назарияси. Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санаъат нашриёти. 2000.
5. Раҳмонов М. Ҳамза (Ўзбек давлат академик театри тарихи) Биринчи китоб (1914 – 1960 йиллар).Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санаъат нашриёти. 2001.
6. Турсунов Т. Саҳна ва замон. - Т.: Янги аср авлоди. 2007.
7. Қодирова С. Комедия санъати тарихи.Т.: Санъат. 2008.

Исоқова Матлуба Комиловна,

Мустақил тадқиқотчи

ХОРАЗМ ЭТНОМАДАНИЯТИ ВА ТЕАТР ТОМОШАЛАРИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ

Аннотация: Ушбу мақолада Хоразм этномаданияти ҳамда театр томошаларининг пайдо бўлиш жараёнлари, ўйин ва томошаларнинг ривожланиши ҳақида фикр юритилади.

Аннотация: данная статья дает представление об этнокультуре Хорезма и процессах возникновения театральных представлений, развития

Abstract: this article gives an idea of the ethnoculture of Khorezm and the processes of the emergence of theatrical performances, development

Калит сўзлар: театр, актёр, драматург, асар, кульминация, театршунос, мусиқа, қўшиқ, лапар, масхарабоз, қўғирчоқ.

Ключевые слова: театр, актер, драматург, произведение, кульминация, театральный критик, музыка, песня, лапарь, клоун, кукла.

Keywords: theater, actor, playwright, work, climax, theater critic, music, song, lapar, clown, doll.

Ўзбек халқи қадимий ва ўрта аср театри тарихининг мазкур даврини ўрганиш –театршунослик фанининг энг мураккаб проблемларидан бири. Чунки қадимий театр тарихини ёритишда тўғридан-тўғри асосий манба тарзида қабул қилинадиган махсус асарлар ҳозиргача топилгани йўқ. Қадимий театрнинг илдизлари ҳам жуда камдан-кам сақланиб қолган[40].Театр саҳнаси – ҳаёт кўзгуси. Демакки, саҳнага олиб чиқилган асар воқеаси шудавр ва замоннинг ҳаётий аксидир. Н.А.Баскаков ўз асарларида Хоразм халқ театрининг қўл қўғирчоғи, чодир ҳаёл ва масхарабозлик театри ва уларнинг бошқа халқлар театри санъатига алоқаси ҳақида қизиқарли маълумотлар берган[41]. Бироқ қадимий маданият ва санъатнинг макони бўлган Хоразмнинг ўйин ва томошаларининг ривожланишини фақат масҳарабозлик театри соҳасида ўрганиш билан якунлаб бўлмайди. Шу билан бирга, қадимий

[40] Раҳмонов М. Ўзбек театри: қадимий замонлардан XVIII асрга қадар. – Т.: Фан, 1975. - 11 б.
[41] Баскаков Н.А. Народный театр Хорезма. – Тошкент: Фан, 1984.

масхарабозлик театри санъати ҳозирги замон Хоразм драма театрининг вужудга келишида ягона манба бўлиб хизмат қилди, дейиш мумкин эмас. Хоразмда масхарабозлик санъати ҳам ўзига хос ривожланиш босқичларини босиб ўтган. Театршунос олим Муҳсин Қодировнинг қуйидаги фикрларига эътибор қаратсак, “Хоразм театри бошқа театрлардан авваламбор “Хатарли ўйин” номли катта йиғинларга мўлжалланган туркумнинг нисбатан яхши сақланганлиги, репертуарида ҳайвонот олами ва халқ турмушини акс эттирувчи пантомималарнинг етакчи ўринда туриши ва “тўқма”(бирданига тўқиб ёки топиб айтиш санъати) деган ўзига хос кулги-ҳикоя жанрига эга бўлиши билан алоҳида ажралиб туради”[42].

Маълумки халқ байрамлари, оила маросимлари билан боғлиқ урф-одатлар, сайиллар ва тўй ва томошалардаги мусиқа жўрлигида қўшиқ билан боғлиқ рақслар кўпдан буён ўзбек халқ театри манбаси бўлиб келган.

Шуниси характерлики, илгари диний мифологик характердаги бу маросим кейинги асрларда томоша тусини олиб, бу афсона ва Хубби образи халқ сайлларида ва қадимий Хоразм театри репертуарида то XIX асрнинг охиригача ҳам сақланиб қолган. Чунончи ўтган асрнинг саксонинчи йилларида рус армияси составида Хивада бўлган рус офицерининг хотини А.Карцева Хоразмда театрлашган сайилда Хубби онаси образи қатнашганининг гувоҳи бўлган. Карцева бу тўғрида қуйидагиларни ёзади: “Сайилда одам кўп, жуда гавжум, иккита қайиқ ишланиб, тепасига қамишдан соябон ясалган ва қоғоз ёпиштирилиб бўялган. Қайиқ ичига фанарчалар осилиб, соябон тагида бир аёл ўтирарди. Бир неча киши қайиқларни кўтариб томоша майдонига олиб келадилар. Бу қайиқ тунда жуда чиройли манзара беради, ҳамма ашула айтади, ўйнайди, қайиқ “сузади”, томоша тонг отгунча давом этади”. Қайиқда ўтирган аёл Хубби онасининг образи бўлиб, бу сайил ўша қадимий Хубби маросимларининг кўринишларидан эди.

Эпослар ижрочиси қаҳрамонларни талқин этишда бадиий сўз, куйловчи услубларидан фойдаланган кўтаринки услубда ижро этилишига амал қилган. Ижро услубидаги ушбу жиҳатлар актёр-бахши санъатига хос элементларнинг ривож топишига таъсир кўрсатган. Бахшилар ижросининг бир актёр театри сифатида талқин этилишида достонларнинг айнан ушбу хусусияти назарда тутилади. Бу ҳолат баъзида "ҳикоя театри" сифатида ҳам талқин этилади. Театршунос олима О.Тожибоева эпик достонлардаги театр санъатида қўлланиладиган етакчи унсурларни сўз қудрати, пьесага хос перипития, яъни мушкилот, драматик вазиятнинг динамик ўсиши, ишқий-романик достонларнинг табиатан мусиқий бўлиши, драматургияга хос паралеллизм, рамз, эпитет, ўхшатиш, муболаға, ҳикмат ва мақоллардан бадиий восита сифатида фойдаланиш, бахшининг ҳам муаллиф, ҳам режиссёр вазифасини бажариши билан изоҳлашида[43] айнан юқоридаги ҳолатлар назарда тутилади.

Милоддан аввалги IV аср охирларидан юнонларнинг Марказий Осиё ҳудудига кириб келиши маданият ва санъатга, хусусан театр санъатига таъсир кўрсатди. Александр Македонскийнинг маҳаллий халқлар билан яқинлашиши ва давлатини мустаҳкамлаш борасидаги сиёсати бунда катта роль ўйнади. Милоддан аввалги 250 йилда вужудга келган Юнон-Бақтрия давлати даврида юнон маданиятининг Марказий Осиё ҳудудидаги таъсир доираси кенгайди. Ушбу давлат пойтахти Бақтранинг юнон драматурглари Эсхилнинг "Эронийлар", Еврипиднинг "Вакх қизлари" трагедияларида тилга олиниши давлатнинг эллин давлатлари орасида катта мавқега эга эканлигини билдиради"[44].

Хоразм, Сурхондарё ва Қашқадарёнинг бепоён дашту саҳроларида, Самарқанд, Бухоро ва Фарғона воҳаларида қадимги шаҳар қалъаларининг сон-саноқсиз харобалари, ибодатхоналар ва қасрлари қолдиқлари ётибди. Ҳозирги Ўзбекистон территориясида олиб борилаётган қадимий Хоразм,

---

[43] Тожибоева О. Эпос ва театр. Биринчи китоб. – Т.: "San`at" журнали нашриёти, 2015. – 50 - 83 б.

[44] Раҳмонов М. Ўзбек театри: қадимий замонлардан XVIII асрга қадар. – Т.: Фан, 1975. - 78 б.

Афросиёб, Холчаён, Термиз, Варахша, Далварзинтепа ва бошқа ўнлаб археологик қазилмаларда топилаётган, асрлар оша, тўфонлар оша ер қатламларида бизгача етиб келган қадимий шаҳар ва қалъаларнинг архитектура ёдгорликлари, саройлар, қасрлар, ибодатхоналар, деворларига чизилган суратлар, қадимий ҳайкалтарошларнинг ёрқин истеъдодлари намоён бўлган ҳайкаллар қўҳна замонларнинг минг йиллик афсонавий тарихи ўша халқлари ҳаётини, санъат ва ҳунарини худди жонли кишилардек ҳикоя қилади ва сизни беихтиёр ўзлари яшаган муҳит қўйнига олиб киради[45].

Маълумки, милоддан аввалги I ва милодий III асрларда Ўзбекистон ҳудуди Кушон подшолиги таркибига киритилиши ва будда динининг давлат дини сифатида эълон қилиниши, Хитой ва Ҳиндистон билан олиб борилган иқтисодий ва маданий алоқалар театр санъатига ўз таъсирини ўтказган. Профессор М.Раҳмонов кушонлар театрини икки босқичга бўлиб ўрганади. Биринчи босқич милоддан аввалги I ва милодий I асрни ўз ичига қамраб олиб, подшоликнинг илк даврида “эллин руҳидаги масхара-мим театри кенг равишда фаолиятини давом эттирди”[46]. Ўрганиш даврининг иккинчи босқичи, яъни I-III асрларда Кушон подшолигининг ҳудуди Шимолий Ҳиндистонга қадар кенгайган ва бунда будда дини тарқалиши, ақидаларни маҳаллий халқ орасида тушунарли тилда тарғиб қилишга алоҳида аҳамият берилган. Оқибатда ерли халқ театри билан ҳинд мифологик театри будда диний маросимларида биргаликда иш кўра бошлайди. Айритом, Холчаён, Зартепадан топилган ҳайкаллар ва деворий суратларда диний маросимлар ўзига хос театрлашган томоша сифатида талқин қилинади.

Хоразм вилояти Огаҳий номидаги театрни ўрганар эканмиз, уни асрлар давомида сайқалланиб келаётган миллий қадриятлари урф–одатлари, ўзига хос миллий рақслари, чолғулари, лапарчилик йўллари театр соҳасининг ҳам узвий давоми эканлигини алоҳида таъкидлаш лозим. Дастлаб халқ сайлларидаги томошаларнинг ривожланиб кетишидан театр

[45]Раҳмонов М. Ўзбек театри: қадимий замонлардан XVIII асрга қадар. – Т.: Фан, 1975. - 9 б.
[46] Раҳмонов М. Ўзбек театри: қадимий замонлардан XVIII асрга қадар. – Т.: Фан, 1975. - 78 б.

труппалари вужудга кела бошлаган. Қадим ривоятларда айтилишич, Хоразм театр саньати унсурлари ва унинг баьзи ибтидоий шакллари жуда қадим замонларда ҳайвонларни овлаш, ов олдидан ёки овдан кейин жамоа бўлиб уюштириладиган маросимлар билан боғлиқ ҳолда шаклланиб ривожланиб келган.

Овнинг бароридан келиши учун одамлар ов олдидан турли диний иримар қилишардилар. Замонлар ўтиши билан бу ов ўйинлари вужудга келган. Бу ўйинда одамлар табиат ҳодисаларига, айрим ҳайвонлар шарафига турли маросимлар ўтказишар, пантомимик рақслар овдан қайтгандан сўнг ҳам ўйналган. С.П. Толстов раҳбарлигида ўтказилган Хоразм экспедицияси тадқиқотлари натижасида қадимда масхарабозлар томонидан “Айиқлар ўйини”, “Маймун ўйини”, “От ўйини” ўйналиб келингани ва бу ўйинлар кўпинча ниқоб тақиб ўйналгани аниқланган.

Тадқиқотчи Иса Жабборов Хоразм масҳарабозлик санъатидаги рақслар уч турга бўлган. Биринчи гуруҳга мураккаб йўсинда эпчиллик билан ўтириб, ўмбалоқ ошиб бажариладиган рақслар: “Коса ўйини”, “Таёқ ўйини”, “Пичоқ ўйини” ва бошқалар. Иккинчи гуруҳга Ҳайвонларга тақлид қилиниб, комик ҳаракатларда ижро этиладиган рақслар: “Қумпишик”, “От ўйини”, “Чағалоқ ўйини” ва бошқалар. Учинчи гуруҳга маиший турмуш билан боғлиқ пантомимик рақслар: “Сипса ўйини”, “Чўгирма ўйини” ва бошқалар[47].

Хоразм масхарабозлар тарихини тадқиқ қилган М. Қодиров ёзишича, XIX аср сўнгги ва XX аср бошида Хоразмда юзга яқин йирик масҳарабозлар яшаб устадан шогирдга, авлоддан авлодга ўтиб келаётган каттакон меросни асрабгина қолмай, уни янги ижтимоий-сиёсий шароитларга мос ривожлантирганлар[48].

Уйғониш давридаги Хоразм театрида музикачилар жўрлигида кичик халқ оғзаки драмалари, масхарабозлик ўйинлари жумладан; "Коса ўйин",

[47] Жаббаров И. Юксак маданият ва ноёб маънавият маскани. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б. 275.
[48] Қодиров М. Ўзбек театри тарихи. – Тошкент: Ижод дунёси, 2003. – Б. 187.

"Чағаллақ" ўйини пантомимаси, “Арқон тортиш”, “Кураш”, “Аға бий”, “Кўк бўри”, “Олтин қобоқ”, "Ашшадарози" (Ашшадарози-қадимги Хоразм тилида узун бўйли маъносига эга.), "Лазги" ўйини мақом айтиш билан боғлиқ қўшиқчи ва раққосалар санъати намойиш этилган деган фикрни илгари суришга имкон беради. “Кўк бўри” ўйини эса ХХ асрнинг 50 йилларигача тўй ва томошаларда ўйналиб келинган. Энг муҳими “Кўк бўри” ўйинида қатнашган чавандозларнинг театр актёрларидек ўз мақсадлари йўлида бир-бирлари билан курашишлари ва ниҳоят рақибларидек бирининг ғолиб чиқиши ўйиннинг майдон саҳнаси характерига эга эканлигини кўрсатади[49].

Мазкур муқаллидлар ижро услуби ва воситалари жиҳатидан Хоразм воҳаси театри бошқа минтақалардан фарқ қилади. Масалан, муук образи орқали ҳаётдаги лаганбардор, товламачиларни мижозий ҳажв қилувчи “Пишик ўйини” рақс-пантомима ҳаракатларидан усталик билан фойдаланиш, ўйиннинг мусиқа жўрлигида махсус қўшиқ билан олиб борилиши билан ўзига хосдир.

Хоразмда “Чағалоқ” ўйини ниҳоятда кенг тарқалган. У баъзан соф рақс сифатида, баъзан рақс-пантомима сифатида ўйналиб келинган. Бу ўйин усталари “чағалоқчи” унвонига эга бўлганлар (Масалан, Машарип чағалоқчи). Масҳарабозлар “Чағалоқ”ни рақс-пантомима сифатида ўйнаганида, олдига бир неча имитация ва митти пантомимани ўз ичига олувчи ҳикоя қўшади ва чағалоқнинг балиқ ов қилишидаги ҳаракатларининг пластик тасвирини беради. Ўйин давомида созанда, баъзида томошабинлар ҳам “чақ-чағалоқ” деган нақорати билан байт айтиб турадилар, мусиқа жўр бўлиб туради. Мазкур ўйинда асосан чағалоқнинг жасурлиги тараннум этилади[50].

Яна бир муқаллидлардан бири “Сипса ўйини” икки актёр томонидан фақат рақс ва пантомима виситалари билан ижро этилиб, муғомбир билан содда ўртасидаги муносабатни кулгили тасвирлайди. “Чугурма тиклаш”да

[49] Қиличев Т. Хоразм халқ театри. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988. – Б. 98.
[50] Қодиров М. Ўзбек театри тарихи. – Тошкент: Ижод дунёси, 2003. – Б. 45.

бутун бир меҳнат жараёни. “Кўкнори”да бангининг кайфи, хатти-ҳаракатлари кўрсатилади.

“Аға бий” ўйинида ҳам театр элементлари кўпроқ кўзга ташланишини таъкидлаб ўтади. Бу ўйин қатнашчилари ролларни ўзаро бўлиб оладилар. Унда хон, вазир, қози, муфти, ясовул ва оддий ўйин иштирокчилари қатнашади. Бунда хон “Аға бий” ва бошқалар ўйин иштирокчиларининг уйига навбати билан зиёфатга борадилар. Ҳар бир уйдаўйин иштирокчилари янги қўшиқ тўқишлари ва ўз санъатини намойиш этишлари керак. Шу шартни бажармаган айбдорларга қози шариат қонунидан жазо топиб, ит бўлиб ҳуришга, бўри бўлиб увлашга, от ёки эшакўрнида минилишга буйруқ беради. “Аға бий” ўйинида ҳам диалог, монолог (шеърий саволга шеърий жавоб) асосий ўрин тутган.

Умуман хоразм театрининг ривожланишида кўплаб ўйинлар пайдо бўлиб йиллар, асрлар оша сайқалланиб келган. Айнан бу ўйинлари тўй маросимларида қўчқор уриштирш, кураш, олтин қобоқ отиш, от пойгаси кабилар қадимдан энг яхши томошалар ҳисобланган. Бу эса Хоразм театрининг шаклланишига катта хизмат қилган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Қиличев Т. Хоразм халқ театри. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1988. – Б. 61.
2. Қодиров М. Томоша санъатлари ўтмишда ва бугун. – Т.: Мумтоз сўз, 2001. – 24 б.
3. Мулла Бекжон Раҳмон ўғли., Муҳаммад Юсуф Девонзода. Хоразм мусиқий тарихчаси. – Т.: Ёзувчи, 1998. –Б. 40.
4. Муродов., Қорабоев У., Рустамова Р. Этномаданият. - Т.: Шарқ, 2003. - 146 б.
5. Тожибоева О. Эпос ва театр. Биринчи китоб. – Т.: “San`at” журнали нашриёти, 2015. – 50 - 83 б.

MAMLAKATIMIZDA O‘TKAZILAYOTGAN MADANIY-MA’RIFIY TADBIRLARDA TOMOSHA SAN’ATI NAMUNALARIDAN FOYDALANISH XUSUSIYATLARI

Rustamov Vahobjon Kiyamovich,

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti,
“Madaniyat va san’at menejmenti” kafedrasi
dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda o‘tkazilayotgantadbirlarda tomosha san’ati namunalaridan foydalanish xususiyatlari haqida so‘z boradi. Tomosha san’ati, askiya, qo‘g‘irchoq o‘yinlarining madaniy-ma’rifiy tadbirlarda qo‘llanishi, sayillarni tashkil etish va boshqarish haqida ma’lumotlar berilgan.

Tayanch iboralar: Tomosha san’ati, umuxalq bayramlari, ma’naviy-ma’rifiy yuksalishlar, askiya, qo‘g‘irchoq o‘yinlari, ma’naviy va estetik ehtiyoj.

Davlatimiz mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni yuksaltirish masalalariga davlat darajasida katta e’tibor qaratmoqda. Mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning natijaviyligiga erishish, iqtisodiy jarayonlarni yanada jadallashtirish, mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatni dunyo arenasiga olib chiqish kabi vazifalarni ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni rivojlantirmasdan amalga oshirish mumkin emas. Zero, inson manfaatlari, aholining moddiy, ma’naviy va estetik ehtiyojlarini qondirish, barkamol avlod tarbiyasi va boshqa shu kabi ahamiyati buyuk ishlar ham bunday ulug‘ maqsadlarga erishishning asosi hisoblanadi.

Madaniyat va san’at sohasini rivojlantirishga qaratilgan xujjatlar mazmunida insonlarning ma’naviy va estetik ehtiyojlarini qondirish, xalqimizning manfaatlariga mos keladigan tadbirlarni tashkil etish, yoshlarni ma’naviy-ma’rifiy ishlar, turli tadbirlardagi ishtiroki qamrovini kengaytirish va boshqalar yotadi.

O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan turli mavzulardagi tadbirlarda tomosha san’ati namunalaridan foydalanish juda katta ta’sirchan effektni bermoqda. Bu ayniqsa, mamlakatimizda o‘tkazilayotgan umumxalq bayramlari, ko‘rik-tanlovlar, festivallar, xalq sayillari boshqa tomoshalarda o‘z o‘rnini topmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini xalqimiz orasida targ‘ib qilish, ma’naviy-ma’rifiy, madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish orqali yoshlarni tarbiyalash, insonlarning ma’naviy va estetik

ehtiyojlarini qondirish, har bir tadbirni tashkil etilishida uning pedagogik, ya'ni tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan manbalar, uning dramaturgiyasini yaratish, rejissurasi, ta'sir qiladigan usullaridan unumli foydalanish, tarbiyaviy tadbirlarni to'g'ri tashkil etishning o'ziga xosligi hamda bu sohadagi xorijiy tajribalarni o'rganish[51] – bugungi kun shu sohaga o'qitishning dolzarb masalalaridandir.

Tomosha san'ati ko'proq xalq og'zaki ijodi, askiya, dorbozlik, sirk, qo'g'irchoq o'yinlari, xalq o'yinlari (ko'pkari, xo'roz, qo'chqor urishtirish) kabi tomoshalarda namoyon bo'lib, xalqimizni kayfiyatini ko'tarishga xizmat qilib kelmoqda. Tomosha san'ati o'z nomidan ma'lum bo'lib turibdiki, u odamlar ko'rib zavq oladigan, rohatlanadigan, shu tadbirlarning faol ishtirokchisiga aylanadigan jarayonlarni qamrab oladigan san'at turlaridandir.

Tomosha san'ati - umumxalq bayramlari va unda tashkil etilayotgan xalq sayillarida insonlarning ma'naviy-ma'rifiy voqeliklardagi faol ishtiroki bilan amalga oshiriladigan jarayonlardandir, desak mubolag'a bo'lmaydi. Tomosha san'ati namunalari ayniqsa sayillarda haqiqiy o'zining funksiyalarini namoyon qiladi. Sayil o'tkaziladigan joylarlarni aniqlash va belgilash, yarmarkalar, ko'rgazmalar tashkil etish, ishtirokchilarning bo'sh vaqtlarini topish, ularning faollarini ajratib olish, manbalar tanlash, ssenariylar yaratish, sahna ko'rinishlarini, konsert dasturlarini tayyorlash, tadbir o'tkaziladigan joyni badiiy bezash, unga mazmun berish, repititsiyalarni tashkil etish, texnik vositalardan foydalanish, ishtirokchi va tomoshabinlarni jalb qilish kabi bir qator ishlar mazkur faoliyatning asosiy qismini tashkil etadi. Ammo shuni aytish joizki, bitta qo'shiq yoki raqs ijro etilgani bilan u tadbir bo'lib qolmaydi. Taniqli rejissyor D.Genkin aytib o'tganlaridek, "bayram, tadbirlar o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, uni oqilona tashkil etish kerak"[52]. Darhaqiqat, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni ham maqsadli, aniq reja asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Tomosha san'ati namunalari ko'proq xalq sayillarida namoyon bo'lganliklari bois qisqacha sayillar haqida to'xtalamiz: "Gul sayli", "Qovun

[51]B.Sayfullayev, V.Rustamov. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. Toshkent, 2016, 44b.
[52] Д.М.Генкин. Массовые праздники. Л., 1998. 45б.

sayli", "Navro'z sayli", "Sumalak sayli", "Askiya sayli" kabi terminlarga duch kelamizki, bunday tadbirlarda albatta tomosha san'ati namunalari bevosita foydalaniladi. Manbalarda: "Sayil - yilning ma'lum fasllarida o'tkaziladigan sayillar, sayr tomoshalaridir. Sayilgohlarda oshxona, choyxona, nonvoyxonalar qurilgan, meva-cheva, attorlik, baqqollik do'konlari ochilgan. Poyga, uloq, ko'pkari, kurash, chavgon musobaqalari, darboz, hofiz, sozanda, raqqos, masxaraboz, qiziqchilarning chiqishlari, ayiq, ilon o'yinlari, tuya, qo'chqor, xo'roz, it urishtirish, mushakbozlik tomoshalari ko'rsatilgan",[53]deb berilgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng xalq sayillari mazmunan o'zgarib, ko'proq milliy tus oldi. Umumxalq bayramlari: Mustaqillik kuni, O'qituvchilar va murabbiylar kuni, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va boshqa bayram kunlarida sayillar uyushtirilmoqda. Ayniqsa, bahorda o'tkaziladigan Navro'z bayramida sumalak sayli, gul sayli, boychechak sayli, chuchmoma sayli va boshqalar insonlarning xursandchiligi, faolligi, jamoaviyligi bilan o'tkaziladi.

Sumalak sayli - Navro'z bayramining uzviy bir qismi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni namoyon etuvchi tadbirlardan hisoblanadi. Sumalak Navro'zning shoh taomlaridan biridir.

Askiya sayli tushunchasini ham juda ko'p marotaba uchratamiz. Avvalo, askiya tushunchasini ma'no-mazmunini ochib berishga harakat qilamiz. Manbalarda[54], "askiya" (arabchadan olingan bo'lib, zakiy - o'tkir zehnli, hozirjavob degan ma'nolarni anglatadi) - o'zbek xalq og'zaki ijodi turi; folklor janri; ikki va undan ziyod kishi yoki guruhning xalq yig'inlari (sayil,to'y, bayram)da ma'lum mavzu bo'yicha badiiy so'zda tortishuvidir. Askiyalar Respublika miqiyosida o'tkazilatgan davlat tadbirlarida ham qo'llanilmoqda. To'g'ri, askiyada ba'zan bachkanagarchilik holatlarini ham kuzatish mumkin. Ammo, tadbirlar tashkilotchilari bunga juda katta e'tibor berishlari, nazorat qilib turishlari talab etiladi.

[53] WWW.internet ma'lumotlaridan olindi.
[54]Madaniyat va san'at atamali izohli lug'ati. B.Sayfullayev tahriri ostida. Toshkent, 2013., 32b.

Gul sayli. Ushbu tadbir ko‘proq yurtimizning eng go‘zal go‘shalarida o‘tkaziladi. Ayniqsa, Namanganda bu tadbir deyarli har yili o‘tkazilib kelinadi. Gul sayliga faqat shu yerda yashovchilar emas, tuman, viloyat va boshqa shaharlardan ham qiziquvchilar kelib, bunday go‘zal manjaralardan bahra olishga tashrif buyuradilar. Hatto qo‘shni respublikalardan, xorijlik sayyohlar va chet ellardan kelgan mehmonlar ham bunday baxtdan bebahra qolmaydilar.

Gul sayillari *gul bayramlari* deb ham ataladi.

Qovun sayli. Bunday sayillar mamlakatimizning ko‘proq tarvuz-qovunlar ko‘p yetishtiriladigan vohalarida tashkil etiladi.

Xalq tomosha san’ati namunalaridan unumli foydalanish tadbirlarimizni mazmunan boyitadi, milliy qadriyatlarimizni yoshlar ongiga singdiradi, yoshlarda milliy g‘urur tushunchalariga to‘g‘ri yondoshishga turtki bo‘ladi. Tadbirlardagi dorbozlik, askiya, qo‘g‘irchoq san’ati, turli bellashuv (kurash)lar, xalq o‘yinlari kabi turlarining qo‘llanishi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarimizning saviyasini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, tomosha san’ati ham tarbiya jarayonlarini amalga oshirishga xizmat qiladigan faoliyat turlarga taalluqli bo‘lib, unda inson tarbiyasi, qadriyatlarimiz, o‘zlikni anglash, ma’naviy, estetik ehtiyojlarni qondirish, dam olish kabi tushunchalarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Madaniyat va san’at atamalari izohli lug‘ati. B.Sayfullayev tahriri ostida. Toshkent, 2013., 32b.

2.B.Sayfullayev, V.Rustamov. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. Toshkent, 2016, 54b.

3.D.M.Genkin. Массовые праздники. L., 1998. 45b.

4. WWW. Ziyo.net.

КУТУБХОНА ТЕАТРЛАРИ ЁШ АВЛОДНИ ЎҚИШГА ЖАЛБ ҚИЛИШНИНГ НОАНЪАНАВИЙ ШАКЛИ

Махмудов Мирали Хайдарович,
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
“Кутубхона фондлари ва библиографияшунослик”
кафедраси доценти, педагогика фанлари номзоди

Ушбу мақолада ёш авлодни ўқишга жалб қилишнинг ноанъанавий шакли-кутубхона театрлари ҳақида Россия Федерацияси кутубхоналарининг баъзи бир иш тажрибалари ёритилган.

Калит сўзлар:*кутубхона театри,китобхон, спектакл.*

Данная статье освещается некоторый опыт работы библиотек Российской Федерации по поводу библиотечных театров, нетрадиционная форма вовлечения подрастающего поколения в чтение

Ключевые слова: *библиотечный театр,читатель, спектакль.*

An unconventional form of involving the younger generation in reading this article highlights some of the experience of libraries of the Russian Federation regarding library theaters.

Keywords: *library theater,reader, performance.*

Ҳозирги кунда китобхонларни кутубхонага жалб этиш ушбу маданият муассасаларининг долзарб муаммосига айланган. Интернетдан қизиқарли маълумотларни олиш имконияти кўпчилик учун умуман ўқиш эҳтиёжини қадрсизлантириб, кутубхоналарда "анъанавий" китобларни ўқишга бўлган эҳтиёжни камайтирмоқда. Кутубхонага келадиган китобхон–ўқувчилар эътироф этишича, китобдаги расмлар, иллюстрациялар ва ҳатто кутубхона ёзувлари, китоб варақалари ва бошқаларни узоқ, эҳтиёткорлик билан кўриб чиқиш имкониятидан эга. Бундан хулоса қилишимиз мумкинки,

болалар эстетик таассуротлар олиш ва маълум ҳиссиётларнибошдан кечириш туйғуси туфайли кутубхоналарга ташриф буюришади.

Замонавий болаларни китоб ўқишининг яна бир муаммоси оилада яхшигина кутубхона бўлса ҳам, болалар ўқишни истамаслигидир. Чунки китоб ўқиш кўплаб болалар ва ўспиринлар учун севимли дам олиш фаолияти эмас. Бунинг сабаблари кўп. Бу ҳам ота – оналар фарзандини бўшвақтини ўқиш билан ўтказмасликлари, мактаб эса ўз олдига фақат ўқиш техникасини ўргатиш вазифасини қўйиши, кейинчалик эса имтиҳонларни топшириш учун муҳим бўлган ўқув дастуридаги асарларни таҳлил қилиш каби формал вазифалар қўйилган.. Натижада, "ўқишни севиш" ва ўқиш одати "шаклланмаган" ва "ўқимайдиган " ёш авлод пайдо бўлмоқда.

Болалар ва ўсмирларни эстетик ва маънавий-ахлоқий тарбиясидаги бу бўшлиқни тўлдиришга, уларга хизмат кўрсатувчи кутубхоналарда нафақат китоб билан ишлаш, маълумот олиш ва уни қидириб топиш кўникмаларни эгаллашга ёрдам, балки эстетик, эмоционал, ижодий фикрлашни ривожлантириш ишларини амалга ошириш зарур.

Ҳозирги кунда кўплаб Россия кутубхоналарда пайдо бўлаётган ва муваффақиятли фаолият кўрсатаётган кутубхона театрлари ("Китоб театрлари", "Кутубхона театрлари") кўп жиҳатдан бу муаммоларни ҳал этишга ёрдам беради. Ушбу мақолада, Россия Федрациясининг кутубхоналарида амалга оширилаётган бундай иш тажрибаларини Республикамиз кутубхоначилари театр жамоалари билан ҳамкорликда амалга ошириш ғоялари юритилмоқда. Мақолада фойдаланилган адабиётлар ва электрорн манбалардан ушбу йўналиш бўйича кенгроқ маълумлотлар олиш мумкин. Бундай театрлар ҳақидаги маълумотлар доимий равишда Россия Федерациясининг кутубхоналари, вилоят маданият бошқармалари веб-сайтларида, профессионал даврий нашрлар саҳифаларида («Библиотечное дело», «Библиополе», «Библиотека в школе» ва бошқа.), илмий-амалий конференциялар материаллари тўпламларида, инновацион лабораторияларда қайд этилиб келинмоқда.

Кутубхона ва театр ходимлари бир-бирлари билан тажриба алмашадилар, фестиваллар ташкил этади. Мисол тариқасида Мурманск вилоятида кутубхонада ҳаваскор қўғирчоқ театрлари фестивали ўтказилган. [11], Псковда — «Виртуальный парад библиотечных театров книги “Живая книга”» [2] танлови ва бошқалар ўтказилган. Бу ҳодисаларни эндиэътиборсиз қолдириш мумкин эмас. Шу мақсадда бундай иш тажрибаларини тўплаб, уларни Республикамиз кутубхоналарида фойдаланиш мақсадга мувоффиқдир.

Кутубхона ходимлари ва театр жамоалари ёш авлодни китоб ўқишга жалб қилиш учун кутубхоначилик ишининг ноанъанавий шакли ҳисобланади. Мактаб кутубхоначиси Е. В. Суханованинг маълумотларига кўра "кутубхона театри энг муҳим қадриятни — китобга бўлган муҳаббатни шакллантиради" [13]. Бундай театр кўплаб долзарб вазифаларни ҳал қилишга ёрдам беради:

* у ёки бу ёзувчининг ижодини тарғиб қилиш;
* адабиётларни танлаш ва ўқилган адабиётларни баҳолаш маданиятига эга бўлган юқори даражадаги ўқимишли китобхонни тарбиялаш;
* болаларни бадиий ва адабий ижодга қизиқтириш.

Мутахассисларни фикрича "Театр — ҳаёт мактаби. Унинг тарбиявий аҳамияти китоб ҳаракатига қараганда анча кенг. Кутубхона ва театр, бу болалар, ўспиринлар ҳатто катта ёшдаги китобхонлар учун ўқишни ривожлантириш соҳасида ўз самарасини беришга қодир ажойиб бирлашмадир" [15].

Ҳеч шубҳа йўқ-ки, "Кутубхона театри асарни ижодий мутолаа қилади, ўқувчининг актёрлик маҳорати орқали яшайди. Бадиий матнни махсус саҳна тилига таржима қилиш орқали инсонларни томоша залидан, ўқув залига келиши учун амалга оширилади. Спектакл орқали томошабинларга мурожаат қилиш, китоб олиш ва ундан чиқиш қилиш кифоя: матнни ўйин, ҳаракат, мусиқа орқали жонлантириш ..."[2].

Болалар, мактаб ва бошқа кутубхоналарнинг кутубхона театрлари тажрибасини умумлаштириш жуда қийин. Уларнинг тахминий сонини ҳисоблаш ҳам қийин. Аммо маълум йўналишларни аниқлаш, кутубхона театрларининг ўқувчи-болалар ва ўсмир китобхонларни эстетик ва маънавий-ахлоқий тарбиялашдаги ролини таҳлил қилиш мумкин.

Бугунги кунга қадар Россия шаҳарларининг турли кутубхоналарида (Липецк, Москва, Саратов, Нижний Новгород, Иркутск, Перм, Иваново ва бошқалар) ҳар хил турдаги кутубхона театрлари мавжуд ва улар фаолият юритмоқдалар, адабий асарлар ёки сценарийлар асосида спектаклларни намойиш этмоқдалар. Бундай коллективларнинг фаолияти тўғрисидаги маълумотларни, юқорида айтиб ўтганимиздек, кутубхоналарнинг веб-сайтларида ёки касбий даврий нашрлардан топиш мумкин.

Кутубхона театрлари кутубхона жамоасида ихтиёрий ижодий уюшма сифатида пайдо бўлади, уларнинг фаолияти нафақат болаларнинг дам олиш эҳтиёжларини қондиришга, балки ёш китобхонларни маҳаллий ва хорижий классикларнинг энг яхши асарлари, шунингдек замонавий болалар адабиёти билан таништиришга қаратилган. Шундай қилиб, боланинг идрокига энг яқин бўлган ўйин шаклида кутубхона фонди билан таништириш мумкин.

Кутубхона театрларини кутубхона ходимлари ҳам, театр санъатига иштиёқманд турли ёшдаги китобхонлар ҳам ўйнаши мумкин. Кутубхона театрини одатда ташкилий, педагогик ва адабий қобилиятларга эга бўлган кутубхона ходими бошқаради. Бундай ижодий жамоанинг иштирокчилари сони ҳар хил бўлиши мумкин,

Кутубхона ходимларидан ташқари, кўнгиллилар (болалар, талабалар, ота-оналар), шунингдек, уларнинг оила аъзолари, ўқитувчилар ва бошқаларни унинг ишига жалб қилиш мумкин [4].

Ҳар бир кутубхона жамоасида кутубхона театрини ташкил этиш шакли ўзига хос хусусиятга эга. Бу қўғирчоқ, драма, мусиқий гуруҳ ёки театр санъатининг ҳар хил турларидан фойдаланган ҳолдаги театр бўлиши

мумкин. Асосийси, битта шартга риоя қилиш керак: ҳар бир спектаклнинг марказида кутубхона спектаклининг асосий мақсади бўлган китоб бўлиши керак. Масалан, Липецк вилоят болалар кутубхонасида йигирма йилдан ортиқ вақт давомида "Мовий қуш" кутубхона театри мавжуд. Шу вақт ичида 78 та спектакл саҳналаштирилди, 120 дан ортиқ роллар ижро этилди. Театр репертуарида классик асарлар ва замонавий муаллифларнинг асарлари асосида спектакллар мавжуд. Театр гуруҳи ташкилотчилари айтганидек: "Кутубхона театри оддий театр эмас, драматик эмас, мусиқий эмас, қўғирчоқ эмас. Бу кутубхона тадбирлари учун иллюстрация сифатида ўйлаб топилган. Аҳир, барча болалар расмларга қарашни яхши кўрадилар ва китоб қанчалик ранг-баранг бўлса, шунча кўп ўқувчилар уни ўқийдилар [5].

Кутубхона театрининг спектаклини (театрлаштирилган томошасини) саҳналаштиришнинг зарурий шарти кутубхонага томошабинларни (потенциал китобхонларни) жалб қилиш учун китоб ўқишни, адабиётларни, ёзувчиларни тарғиб қилишдир.

Асарлардан олдин сценарийни яратиш бўйича адабий ишлар олиб борилади. Ишлаб чиқариш учун адабий материаллар турли хил бўлиши мумкин. Аввало, бу болалар учун санъат асарлари (эртаклар, масаллар, ҳикоялар, шеърлар, топишмоқлар). Ёзувчининг асарлари ҳақида китоблар, унинг асарлари саҳналаштирилган китоблар, китобларининг рангли нашрлари, аудиовизуал материалларни тақдим этадиган мавзули китоб кўргазмасини лойиҳалаш тавсия этилади.

Кутубхона спектаклининг элементи ёш томошабинларнинг фикрлашини фаоллаштирадиган викторина бўлиши мумкин.

Театрлаштирилган спектакл актёрлари асосий ҳаракат пайтида ёки ундан олдин (кейин) китобларни намойиш этишлари мумкин. Китоб тақдимотининг натижаси китобхонларни кутубхонага жалб қилиш, китобларга қизиқиш уйғотишдир.

Москвадаги 1503-сонли гимназия ахборот марказининг Кутубхона театри раҳбари Н. А. Дивина янги китобларни реклама қилиш учун театр томошалари имкониятларидан фойдаланишни таклиф қилди, бу ҳам болаларни китоб ўқиш билан таништиришга қаратилган бўлиши керак. Ушбу ғоя қуйидагича амалга оширилди: "Кейинги ишлаб чиқариш танаффусида китоб учун жонли реклама саҳнада. Саҳнага китоб қаҳрамони костюмидаги ёш актёр кириб келади. Талаба-актёр ўқиган асари, ундаги таассурот ҳақида ҳикоя қилади, кутубхонадаги китоб билан танишишга таклиф этади" [1].

Спектаклнинг бир қисми "соғлом турмуш тарзи" мавзусидаги ўйин материали ва жисмоний тарбия дақиқаси.

Спектаклларда кўпинча нафақат қўғирчоқлар ва реквизитлар, балки саҳна ролини ўйнайдиган мультимедия тақдимотлари ҳам қўлланилади.
Шундай қилиб, ишлаб чиқаришлар қўлда тайёрланган қўғирчоқлар ва замонавий компютер технологияларини бирлаштиради.

Кутубхона театри томошабинлари кенгаймоқда: кутубхона томошалари болалар боғчаларида, мактаб-интернатларда, ижтимоий реабилитация марказларида, мактабларда, ёзги соғломлаштириш лагерларида, кутубхона залларида ва маданият ва истироҳат боғларида қўйилмоқда.

Китобларни тарғиб қилиш ва ўқишни тарғиб қилиш мақсадида болалар учун спектаклларни намойиш этадиган кутубхона театрлари болалар кутубхоналари учун истиқболли иш йўналиши ҳисобланади. Бундай ноанъанавий иш шакли туфайли болалар кутубхоналари "ахборотчиларга" айланмайди, балки ўз ўқувчиларини эстетик жиҳатдан ривожлантириш, бўш вақтларини ташкил қилиш, уларда ижодий фикрлаш қобилиятини уйғотиш имкониятига эга бўладилар.

А д а б и ё т л а р

1.Дивина Н. А. **У нас всё получится! Реклама как форма**

библиотечной работы // Библиотека в школе.– 2011.– № 6.– С. 12–13.

2.Конкурс «Виртуальный парад библиотечных театров книги “Живая книга”» в Псковской области [Электронный ресурс] // Псковская областная универсальная научная библиотека : [веб-сайт]. URL: http://pskovlib.ru/ colleaguepsk/doclink1/18418 (дата обращения: 20.12.2014).

3.Кукольный театр книги для маленьких читателей библиотеки имени А. С. Пушкина как способ привлечения к чтению : методическое пособие / сост. А. Ю. Морковина. Саратов: Редакц.-изд. отдел ОБДЮ им. А. С. Пушкина, 2010.–- 26 с.

4.Кукольный театр как библиотечная форма работы: о работе кукольного театра «Золотой ключик» Ижевской ЦМДБ им. М. Горького [Электронный ресурс] // Центральная муниципальная детская библиотека им. М. Горького : [веб-сайт]. URL: www.gorlib.ru/colleag/meropr/kteatr/bibform.php (дата обращения: 21.12.2014).

5.Липецкому театру книги исполнилось 20 лет // Библиотека в школе.– 2011.– № 9. – С. 5–6.

6.*Морковина А. Ю.* Библиотеатр как средство привлечения к чтению // Центрам чтения — 10 лет : сборник материалов IX Межрегионального фестиваля по продвижению книги и чтения «Осень в Михайловском», 12—14 сентября 2012 г. / составитель А. О. Тимофеева. Псков : Псков. обл. тип, 2012. С. 109–114.

7.*Морковина А. Ю.* Библиотеатр как средство привлечения к чтению // Библиотека — территория творчества : сборник материалов V Межрегиональной инновационной лаборатории. Пенза, 2012.– С. 73—76.

8.*Морковина А. Ю.* В гостях у нянюшки Арины // Игровая библиотека. 2011.– № 1.– С. 98–10

9. *Морковина А. Ю.* **Жил-был славный царь Дадон... // Игровая библиотека.– 2010.– № 8.– С. 100–107.**

10. *Морковина А. Ю.* **Как хорошо уметь читать! // Игровая библиотека.– 2010.–№ 2. –С. 92–97.**

11. **Фестиваль самодеятельных кукольных театров в библиотеке: Мурманск [Электронный ресурс] // Российская библиотечная ассоциация : [веб-сайт]. URL:** www.rba.ru/content/news/vid_news_str.php?id=1901 **(дата обращения: 21.12.2014).**

12. *Новикова О. И.* **Хоть и самодеятельный, но театр // Библиотека. – 2005.– № 4. – С. 46–47.**

13. *Суханова Е. В.* **«Шесть думательных шляп» и другие технологии продвижения чтения // Школьная библиотека: сегодня и завтра. – 2014.– № 6. – С. 44–45.**

14. **Театр книги «Корноватка» Ивановской ОБДЮ // Ивановская ОБДЮ URL:** www.iv-obdu.ru/content/ **view/90/60/ (дата обращения: 22.12.2014).**

15. *Усольцева А. С.* **Детский театр на сельской ниве // Библиотека.– 2003.– № 1. –С. 25–27**

Мирсоат Мирсултанович Исҳоқов
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
“Кутубхонашунослик” кафедрасининг
Ўқитувчиси

Кутубхона-ахборот муасасаларида санъатга оид адабиётларни тарғиб қилиш

Аннотация.Ушбу мақола кутубхоналарда маданият ва санъатга оид адабиётларни тарғиб қилишдаги оммавий ишларнинг мақсад ва вазифалари ҳамда ўқиш маданияниятини шакллантириш усулларини ёритишга бағишланган.

Кутубхонада санъатга оид адабиётларнитарғиб қилиш, қўғирчоқ театри санъатини ривожлантиришга муносиб ҳисса қўшган атоқли ижодкорлар, санъаткор - зиёлиларнинг юбилейларини муносиб нишонлаш, ҳаёти ва фаолиятини кенг тарғиб қилиш, хотирасини абадийлаштириш билан боғлиқ комплекс тадбирларни амалга ошириш, театр тўгаракларни ташкил қилиш орқали санъат ва маданият йўналишида таълим олаётган талабалар, ўқувчиларни малакали, сифатли, замон талабларига мос қилиб тайёрлаш, сохада ишлаётган мутахасисларнинг малакаларини оширишларига кўмаклашишдир.

Мирсоат Мирсултанович Исхаков

Узбекский госсударственный институт искусств и культуры Учитель кафедры “Библиотековедение"

Пропоганда литературы по искусству в библиотечно-информационных учереждениях

Аннотация: Данная статья посвящена освещению целей и задач общественных работ по продвижению литературы по культуре и искусству в библиотеках, а также методов формирования культуры чтения.

Библиотека - это достойное место для празднования юбилеев выдающихся творцов, художников и представителей интеллигенции, внесших

достойный вклад в развитие искусства театра кукол, осуществления комплекса мероприятий, связанных с широкой пропагандой их жизни и деятельности, увековечением их памяти, организацией театральных кружков, обучение студентов в направлении искусства.

Mirsoat Mirsultanovich Iskhakov
Uzbek State Institute of Arts and culture
Teacher Department of "library science"

Promotion of art literature in library and information institution

Abstract. This article is devoted to highlighting the goals and objectives of public works to promote literature on culture and art in libraries, as well as methods of forming a reading cultureThe library is a worthy celebration of the anniversaries of outstanding creators, artists and intellectuals who have made a worthy contribution to the development of the art of puppet theater, the implementation of a set of activities related to the wide promotion of their lives and activities, the perpetuation of their memory, the organization of theater circles, training students in the direction of art and.

Kutubxonalarda ommaviy ishlarni tashkil qilishning maqsadi: - kitobxonalarda o‘qish madaniyaniyatini shakllantirish va adabiyotlarni targ‘ib qilishdagi ommaviy ishlarning shakl va usullaridan kutubxona va kitob reklamasi, kitob taqdimotini o‘tkazish usullari, adabiyotlarni targ‘ib qilishda foydalaniladigan inavatsiya vositalari, ommaviy tadbirlarni o‘tkazish uslubiyoti va yo‘l-yo‘riqlaridan foydalanishdir.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasiga muvofiq jamiyat taraqqiyoti uchun har tomonlama jismonan va ma’naviy yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash vazifasini xal etish muhim ahamiyatga ega.“Nafaqat yoshlar, balki

butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi".[i] Eng katta boylik – bu aql – zakovat va ilm, eng katta meros - bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir.[55] Kutubxonalar ishlarini takomillashtirish, ya'ni mehnat unumdorliginn oshirishga erishadilar. Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish.Barkamol inson tarbiyasi, Yangi o'zbekistonning yangi, kuchli qudratli yangi fuqfrosini vujudga ketirish chora-tadbirlari ko'rilmoqda. Yalpi ma'rifatli jamiyat qurish g'oyasi ilgari surilmoqda. Buning uchun yangi tipdagi axborot - kutubxona larni tashkil etish, kitobxonlarga sifatli axborot va ma'lumot xizmatlarini ko'rsatish, ular bilan ommaviy ishlash usullari, axborot - resurslaridan to'g'ri foyllanish, targ'ibot, reklama qilish usullari orqali komil insonni voyaga yetkazishda muhim o'ringa ega bo'lgan madaniyat va san'at sohasi vakillari, ijodkorlar, shuningdek, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan Madaniyat markazlari faoliyatini takomillashtirish va ular tomonidan aholiga madaniy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, shuningdek, ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash ko'zda tutilgan.Milliy madaniyatni xalqaro darajada ommalashtirishga, san'atini yanada rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni hududlarda o'tkazishni joriy etish tavsiya qilinadi.

O'zbekistonda teatri san'atini rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan atoqli ijodkorlar, san'atkor - ziyolilarning yubileylarini munosib nishonlash, hayoti va faoliyatini keng targ'ib qilish, xotirasini abadiylashtirish bilan bog'liq kompleks tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi. Qo'g'irchoq teatrlarini bolalarga yanada yaqinlashtirish, buni tashkil etishda barcha tarbiyaviy muassasalar,tashkilotlar, inson tarbiyasi bilan bog'liq shaxslar, ota-onalar,oila, mahalla alohida o'rin tutadi. Ana shu muassasalar orasida inson tarbiyasida asosiy vosita, bilim manbai - kitob bilan bevosita ish olib boruvchi kutubxonalarning juda

[55] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёти стратегияси.-Тошкент, Ўзбекистон,-2021 уил 24 бет.

katta o‘rini bor. Chunki, insoniyat taraqqiyotidan, jamiyatlar rivoji tarixidan shu narsa ma’lumki, har bir davrda kitob muqaddas ma’naviy boylik sifatida e’zozlangan. Zero, kitobsiz inson kamolini tasavvur etib bo‘lmaydi.Eng avvalo, kitob insonni yerdan ko‘kka ko‘taruvchi,uning ma’naviy quvvatini oshiruvchi buyuk, mo‘jizakor kuchdir[56].

Kitobxonning o‘qish madaniyatini tarbiyalash, ular uchun ommaviy tadbirlarni tayorlash va o‘tkazish,bolalar va yoshlarning o‘qishiga rahbarlik qilish, kitobxonlar orasida kutubxona va kitoblarning reklama qilish ishlarini olib borish, turli bilim sohasiga oid adabiyotlarni targ‘ib qilish usullari kutubxonalar faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ommaviy ishlarni tashkil etish kerak.

Yangi O‘zbekiston kutubxonasi ishi oldiga kitobxonlar uchun qulay kerakli va ko‘plab kitobxonlar uchun qiziqarli bo‘lgan madaniy muhitni, ma’naviy makonni yaratish, kitobxonlarga xizmat ko‘rsatish, kitob va kitobxonlik orqali shaxsni kamol toptirishda yakka tartibda va ommoviy madaniy ishlar shakllarini tashkil qilish vazifasi qo‘yildi.Kutubxonalardagi axborot texnologiyalaining rivojlanishi ajdodlarning boy hayot tajribalari, dunyo hamjamiyatining ilmiy-ma’naviy boyliklaridan bahramand bo‘lish vositasidir. Shu tariqa kutubxonalarning axborot-mp’lumot berish vazifasi yangi pog‘onaga ko‘tarildi.Kutubxonalar ma’naviy – ma’rifiy funksiyasini saqlagan xolda yoshlar va bolalar bilan ishlash jarayonida ko‘zga tashlanmoqda. Kitobxonnning unumli, madaniy dam olishini tashkil etish;Bu borada “Yoshi ulug‘ insonlar yaxshi biladiki, ilgari teatrlar chekka qishloqlargacha gastrolga chiqib, tomosha ko‘rsatardi. Bu uchrashuvlar haqiqiy bayramga aylanib ketardi. O‘sha an’analarni davom ettirish zarurligiga xalqimiz o‘rtasida bunga ehtiyoj katta ekanligiga joylarda aholi vakillari bilan muloqot paytida ko‘p marta ishonch hosil qilganmiz”.[57]Kitobxonda san’atga qiziqishlarning shakllanishiga yordam berish;Qo‘g‘irchoqlar o‘zbek xalqining

---

56

57 Мирзиёев Ш.М.Янги Ўзбекистоннинг стратегияси. Тошкент, 2021.- Ўзбекистон.-bet-46.

hayoti, milliy turmush tarzi va sa'atini ifodalaydi. Qo'g'irchoqlar nafaqat bola uun ovunchoq, balki tarbiya vositasihamdir. U orqali bola milliy ananalarni millatga xos qadriyatlarni his qiladi.Shuni inobatga olib, kutubxonalarda "Qo'g'irchoq yasash" to'garagini ochish kerak.Qisqa vaqt ichida kitobxon qiziqishiga ta'sir etish;Yangi kitobxonlarni jalb etish;Kitobxonlarni ma'lum bir yo'nalishda tarbiyalash;Kutubxona va kitob reklamasini olib borish; Kitobxonlarning tashabbuskorligini, faolligini oshirish va boshqalar.Bunda tashviqot xususiyati muhimdir. Tashviqot –"agitatsiya" so'zi ham lotin tilidan o'zlashgan bo'lib, biror narsaga ishontirish ma'nosini anglatadi. Jamiyatning maqsad va vazifalarini, dasturlari, yo'l-yo'riqlari, hujjatlari va shiorlarini turli shakl va usullar bilan har bir kitobxonga, ommaga yetkazish, uning ongiga ta'sir etish, ishontirish va aniq maqsad sari yo'naltirish ham kutubxonchilarning eng asosiy vazifasi Kitobxonnning unumli, madaniy dam olishini tashkil etish; Kutubxonada qo'g'irchoq teatri studiyasi yoki to'garagi faoliyatini yo'lga qo'yish kerak.Farzandlarimiz milliylik nafasi ufurib turgan , insoniy tuyg'ular ifodalangan sharqona qo'g'irchoqlar bilan do'st bo'lishi. Ular vositasida milliy ruhda tarbiyalanishlari lozim.Kitob orqali kitobxonlarda ijodiy ko'nikmani, fikrlash va tafakkur hissini, muloqotga kirishish malakasini tarbiyalash;Kitobxon bolalarda qo'g'irchoq teatri orqali nutq madaniyatini tarbiyalash; Jamoatchilik oldida o'z fikr va tushunchalarini izhor qila olish qobiliyatini shakllantirish;Kitob-kutubxona, kutubxonachi-kitobxon "iliq" munosabatini qaror toptirish;Kutubxonaning madaniy-ma'rifiy muasasalar, kino-teatrlar va ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik bilan munosabatini shakllantirish;Kutubxona faoliyatiga (valantior)ko'ngillilarni, mahalla va huquqiy organ vakillarini jalb qilish; Homiylar ko'magida Kitob elituvchilarni ishga jalb jalb etish.Kutubxonada o'tkazilayotgan ommaviy tadbirlar uchun (fandreyzing usuli orqali) homiylardan mablag' jalb etishni tashkil qilish;Ko'pgina ilg'or kutubxonalar faoliyatida o'smirlar va yoshlar, qariyalar, uy bekalari o'rtasida o'tkazilayotgan ana shunday tadbirlarda mahalla fuqarolar yig'ini, xotin-qizlar qo'mitalari, "O'zbekiston yoshlar uyushmasi", "Nuroniy" jamg'armalari, firmalar va boshqa tashkilotlar ,

shaxslar o‘zlarining imkon qadar ajratayotgan mablag‘lari bilan ishtirok etadilar. Tadbirning yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish.Kutubxonada o‘tkaziladigan ommoviy tadbirlarning turli shakl va usullarini qo‘llash, bir vaqtning o‘zida ko‘p sonli kitobxonlarni va turli qiziqishdagi foyda-lanuvchilar guruhlarini qamrab olishga imkon beradi.

Адабиётлар

1.Мирзиёев Ш.М.Янги Ўзбекистоннинг стратегияси. Тошкент, 2021.-Ўзбекистон.-464 б.2.Мирзиёев Ш.М.“Китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора тадбирлар дастури” тўғрисидаги қарори // Ўзбекистон республикаси Президентининг қарори.-2017-йил 13-сентабрда қабул қилинган

3. Мирзиёев Ш.М. “O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g’risida” //Preziden qarori.- 2019-yil 7- iyunda qabul qilingan.

4. Каримрва Ҳ. Ахборот –кутубхона соҳасидаги ислохотлар.//Маърифат.-32(9357).- 2021 йил 11 август.

Худойберганова Муборак Илхамбаевна
O‘zbekiston davlat Xoreografiya
akademiyasi 2-kurs magistranti

O‘ZBEK SAN’ATI RIVOJIDA XORAZM RAQS MAKTABINING TUTGAN O‘RINI

Annotatsiya: Mazkur maqolada xorazm raqs san’atining o‘zbek san’ati rivojiga qo‘shgan hissasi hamda xorazm raqs san’atining o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z boradi.

***Kalit so‘zlar**:* raqs, xoreografiya, harakat, baletmeyster, folklor, uslub, ansambl, etnografiya, obraz, meros, ufori, qayroq, lazgi.

Аннотация: В данной статье говорится о вкладе хорезмского танцевального искусства в развитие узбекского искусства и специфических особенностях хорезмского танцевального искусства.

Ключевые слова: танец, хореография, движение, балетмейстер, фольклор, стиль, ансамбль, этнография, образ, наследие, уфори, караг, лазги.

Abstract: This article talks about the contribution of Khorezm dance art to the development of Uzbek art and the specific features of Khorezm dance art.

Key words: dance, choreography, movement, ballet master, folklore, style, ensemble, ethnography, image, heritage, Ufori, Karag, Lazgi.

O`zbek raqs san`ati milliy merosimizning ajralmas qismidir. Unda o`tmish an`analari, chuqur mazmun kasb etuvchi qadriyatlar aks etadi. Uning asosini qanchalik o`rganmaylik shunchalik yangidan yangi qirralari ochilib o`zining naqadar boy san`at ekanini ifoda etaveradi. Har qaysi millatning urf-odatlari, ma`naviyati, tafakkuri shunchaki bir bo`shliqda shakllanmaydi. Uning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy manbalar asos bo`ladi. Darhaqiqat Prezidentimiz rahnamoligida bugungi kunda farzandlarimizni barkamol qilib ulg`aytirish, ularni yetuk insonlar sifatida ko`rish maqsadida keng ko`lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bunga milliyligimizni aks ettiruvchi turli hil raqslarimiz misol bo`la oladi. Bu yo`lda baletmeyster, raqqos va raqqosalarimizning o`rni ham beqiyos. “Nafaqat milliy raqslarimiz, balki hozirgi yosh baletmeysterlarimiz tomonidan sahnalashtirilayotgan turli zamonaviy va xalq-sahna raqslar ham bu sohadagi ulkan yutuqlar samarasidir”[58].

O‘zbek san’ati rivojiga Xorazm raqs san’ati muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir sahnalashtirilgan raqs kompozitsiyasi mavzuni aniq ochib bera olsa, raqsning sirli harakatlari tomoshabinni o‘z olamiga olib keta olsa, baletmeyster faoliyatini

[58] L.Avdiyeva. O‘zbek milliy raqsi tarixi. – T.: G‘ofur G‘ulom. 2001.

yuqori baholash mumkin. Xorazm milliy xoreografiyasi maxsus raqs harakatlari to‘plami bo‘lib, raqslarni o‘rganish tizimiga egadir. Azal-azaldan raqs so‘zsiz qo‘shiq, deya e’tirof etilgan. Qo‘shnay, bulamon, surnay va qayroqlar jo‘rligida o‘ynaladigan otashnafas va o‘ynoqi, goh mayin, goh jo‘shqin, goh kulgili Xorazm raqslari ham uslubi, ham ijrochilik xususiyatlariga ko‘ra hamon eng noyob va yashovchan ma’naviy-estetik hodisa bo‘lib, o‘zbek xalq raqsi madaniyatida yetakchi o‘rinlardan birini ishg‘ol qilib keladi. Bu jarayonda folklor-etnografik ansambllarining hissasi katta.

Xorazmning «Doston» (Xiva), «Navro‘z» (Gurlan), «Qaldirg‘och» (Bog‘ot),
«Orzu» (Qo‘shko‘pir) va boshqa ansambllari «Norim-norim», «Yuz bir», «Ufori», «Ufori buzruk», «Orazibon» raqslarini va o‘nlab raqslarni o‘z ichiga olgan «Lazgi» turkumini tiklashdagi say-harakatlari tahsinga loyiq.
Xorazm raqslarida ko‘hna zaminning tarixi, urf-odatlari, an’analari aks etadi.

Raqs mazmundorligi, obrazliligi bilan ommaning ma’naviy dunyosini boyitib, ulkan tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Xalqni ayniqsa yoshlarni odamiylikka, do‘stlikka, milliy an’analarni qadriga yetishga o‘rgatadi. Xorazm raqs folklorining boyligi va an’analarni saqlab qolish, ularni zamonaviy xoreografik madaniyatga aylantirish kelajak avlod ma’naviyati va ma’rifatini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etib, xorazm folklor raqslari elementlarini buzmasdan, boricha saqlab sahnalashtirish, o‘rgatish
yo‘lidagi maxsus izlanish ekanligi jihatdan muhimdir.

San’at ustalarining ta’kidlashicha “Markaziy Osiyo san’atini bir daraxt deb olsak, ildizi Xorazmda, tanasi Samarqand-Buxoroda, shoxlari Vodiyda, Toshkentga kelib gullaydi va meva beradi[59]”. Masalan: O‘rik daraxtini gullaganini ko‘rgan, uning, mevasini tanavvul qilgan odam shundan huzur topadi, biroq, shu o‘rikning ildizi, tanasi, shoxlariga ko‘pchilik e’tibor qilmaydi va qiziqmaydi. Aslida Daraxtning ko‘rkamligi ham, shoxlarining go‘zalligi ham, mevalarining shirinligi ham ildizlarining qanchalik baquvvatligiga bog‘liq. Xuddi shuningdek

[59] L.Avdiyeva. O‘zbek milliy raqsi tarixi. – T.: G‘ofur G‘ulom. 2001.

Xorazm raqs san'ati o'zbek milliy raqs san'atining baquvvat ildizidir. Bu ildiz qadim zamonlardan beri rivojlanib, o'sib ulg'ayib, mana bugungi kunga kelib o'zbek millatining iftixori, faxri g'ururiga aylanib bo'ldi.

Xorazm boy madaniy merosga ega bo'lgan ko'hna zamin. Uning bag'rida yetishib chiqqan allomalar, donishu fozillarning jahon fani va madaniyatiga qo'shgan hissasi beqiyos. Xorazm raqslari haqda gap ketganda uning shu zamin tarixi, tabiiy sharoiti, urf-odatlaridan kelib chiqqanligini unutmaslik kerak. Zero, raqslarda aynan hayot va haqiqati aks etadi. Xorazm raqslariga xos bo'lgan shiddat, tezkorlik, ko'krak va yelkalarning titratma xarakatlari, tizzani bukkan holda tappa o'tirish o'zining ma'lum ma'no-mazmuniga ega.

Raqslardagi o'ziga xos harakatlar tana ruhini turli xil yot narsalardan forig' qilish, vujudni poklash ma'nosini anglatadi. Raqslardagi maromidan oshiqcha shiddat, tezkorlik Amudaryoning to'lib-toshib, o'zanidan oshib, asov bo'lib, beboshlanib oqishidan kelib chiquvchi ramziy ma'noga ega. Qadimiy Xorazm xalqi O'rta Osiyoda o'ziga xos yuksak madaniyati bilan katta iz qoldirgan. "Xorazm san'atkorlarining qadim zamonlarga borib taqaladigan nafis san'ati ko'p asrlar davomida sayqal topib ommani o'ziga jalb qiladigan sehrli kuchga aylanib, xalq tarixi bilan bog'liq holda kechmoqda"[60].

Ma'lumki, xalq bayramlarida oila marosimlari bilan bog'liq to'y va tomoshalarda, urf–odatlarda va sayillarda musiqa jo'rligida qo'shiq, raqslar ijro qilingan. Deyarli 3000 yillik tarixga ega muqaddas "Avesto" kitobida (xususan uning "Yashta" va "Vispart" bo'limlarida) qadim Xorazm san'ati, to'y va marosimlari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Folklor (inglizcha folk - xalq, lore - bilim, donolik) - xalq ijodini ifodalovchi termin. Folklor - mexnatkash xalq ommasining badiiy ijodiy faoliyati: xalq yaratgan, xalq orasida keng tarqalgan va avloddan avlodga o'tib, ommaning ijtimoiy mehnat tajribasi jarayonida tobora takomillashib, shakllanib boradigan she'riyat, muzika, teatr, raqs, memorchilik, tasviriy va amaliy bezak san'ati.

[60] G.Hamroyeva. Raqsning milliy qiyofasi. – T.: San'at. 2012.

Insoniyat ijtimoiy taraqqiyotida sinfiy jamiyat shakllangach, mehnat taqsimoti natijasida professional, “yuksak” san’at asta sekin ajralib chiqadi, maxsus kishilar unga ixtisoslashadi. Shunisi harakterliki, xalq ijodi janrlarining ko‘pgina ijodkorlari o‘z ijodlarini o‘zlari ijro etadilar. Uning og‘zidan eshitib o‘rgangan boshqa kishilar shu asarga o‘z xissalarini qo‘shadilar, takomillashtiradilar, yoki boshqa variantini yaratib, ijro etadilar. Xalq folklor ijodi hamon davom etib kelmokda. Lekin davr, sharoit taqazosi bilan uning ko‘pgina janrlari yo‘qolib, yangilari vujudga keladi. U professional san’at turlari rivojiga asos bo‘lganidek, professional san’at turlari ham uning rivojiga ta’sir ko‘rsatib, uni boyitib kelmoqda.

Xorazm folklori, etnografiyasi hamda xalq raqslari bir necha asrlar mobaynida saqlanib kelayotganligini kuzatish mumkin. Xorazmda olib borilgan arxeologiya va etnografiya ekspeditsiyalari natijasida bu hududda eramizdanavval VI-V asrdayoq an’analar tarkib topganligiga oid ma’lumotlar mavjud.Eramizdan avvalgi IV asr Jonbosqal’a I-IV asr To‘proqqal’a qo‘rg‘onlari ichida olovxona borligi va u yerda tantanalar o‘tkazilganligi aniqlangan. Qadimgi Xorazmshoxlarning Afrigiylar davrigacha bo‘lgan qarorgohi To‘proqqal’ada “Shohlar zali”, “G‘alaba zali” “Raqsga tushuvchi niqoblar zali” borligianiqlangan.

“Raqsga tushuvchi niqoblar zali”da topilgan sur’atlarda sozandalar qo‘llaridagi arfa, ikki tomoni qum soatiga o‘xshash nog‘ora, ikki torli dutor aks ettirilgan. Ushbu dalillarda islomgacha bo‘lgan davrda madaniyat, san’at, kuy, qo‘shiq, doston ham ma’lum darajada rivojlanganligidan darak beradi.

Yeramizning V- VI asrlarida Xorazmda turmush va siyosiy hayot keskin sur’atda o‘zgardi. Bu taraqqiyot o‘sha davrdagi Xorazm hukumdori sur’ati tushirilgan tangalarda ham o‘z aksini topdi. Siyovushni otga mingan tasviri tushirilgan tangalar islomgacha bo‘lgan davrga oid. Siyovush tasvirining old tomonida musiqachi ayol mutriba san’atkorga xos kiyimlarni kiyib olgan go‘zal malika sifatida tasvirlangan. Tangachalardagi tasvir islomgacha bo‘lgan davrda ayollar musiqa chalish, qo‘shiq kuylash, raqsga tushish san’atlarini mukammal

o‘rganib olib, uni ko‘pchilik oldida namoyish etganini tasavvur qilishga asos bo‘ladi.

Islom dini kirib kelgach Xorazmda musulmonchilik urf odatlariga moslashgan xalfachilik, dostonchilik hamda shu tarzda bizgacha yetib kelgan uslublar joriy etila boshlandi. Shariat asoslarini targ‘ibot qiluvchi har xil qissalar, qo‘shiqlar, xikoyalar, dostonlar nomalardan “Bobo Ravshan”,“Payg‘ambarlar hikoyati”, “Sultonbobo xikoyati”, “Merojnoma”, “Yusuf va Zulayxo”,” Juhud o‘g‘lon” kabi musiqiy jixatdan boy dostonlar yaratilib keng tarqaldi.

Tarixiy manbalarda yozilishicha Afrigiylar davri VI-VIII asrlarda ko‘p elatli turk xalqlarining o‘g‘iz qabilalari Markaziy Osiyo tekisligi, Sirdaryoning quyi oqimi va Orol bo‘ylarida yashaganlar. Keyinchalik o‘g‘iz tillari tarqalgan bo‘lib, shu bilan birgalikda musiqa madaniyatining turlari, shuningdek xalfa janri ham rivojlanadi. Xorazmda soz (garmon) tor, santur, bulamon, zang, daf, qayroq, cholg‘ulari hamda ularni nomlanishi, shu bilan birgalikda “Lazgi”, “Sadri gusfand”, “Orazi bom”, “Ganji Qorabog‘”, “Norim-norim” kabi Xorazmda hozirgacha saqlanib kelayotgan kuy, raqs va qo‘shiqlar kelib chiqishining tub sabablaridan biri Eroniy va Sosoniy sulolasi xalqlarining tarixan uzun madaniy yaqin aloqalari mavjud bo‘lganligini ifodasidir.

Birinchi renesans davrda Xorazm madaniyati va san’atining eng yuksak rivojlanish jarayonlari bo‘ldi, Al Xorazmiy, Al Beruniy, qomusiy olimlar Al Farobiy, Al Roziy, Ibn Sino, Az Zamaxshariy, matematika ilmiga asos solgan Abu Abdulloh Muhammad Xorazmiy IX-XIII asrlarda yashab ijod qilganlar va Xorazm san’ati, to‘y va marosimlari haqida turli musiqiy janrlar, maqomlar, cholg‘uchilar va cholg‘u asbob turlari, ularning nomlari, ashulachilar haqida qimmatli ma’lumotlar qoldirganlar.

Buyuk ipak yo‘li orqali Buxoro, Eron, Turkiya, Hindiston, Astraxan, Rusiya O‘rta Osiyo jumladan Xorazm bilan o‘zaro aloqalar rivojlandi. Savdo sotiq, tijorat ishlarini rivojlantirish bilan birgalikda madaniyat taraqqiy ettirish borasida xarakatlar bo‘ldi. “Abdulg‘oziy Bahodirxondan keyingi barcha xonlar musiqaga ihlos va ishtiyoq bilan qarashganlar Abdullaxon(1854) g‘ijjak va tanburda Sayid

Muhammadxon davrida soz va suhbat kechalari uyushtirib o‘zi ham dutor va g‘ijjakni o‘rganib chalgan”[61].

Muhammad Rahimxon soniy Feruz Xorazm adabiyot va san’atini yanada yuqori pog‘anaga ko‘tardi, uning rahnamoligida mashhur sozanda va go‘yandalar yetishib chiqdi. Sayil, bayram va tantanalarda Feruzxon ashulachi, sozanda, baxshi, masxarabozlar ko‘rikini o‘tkazib rag‘batlantirgan. Bayramlarda adabiyot va san’atning barcha turlari namoyish qilingan va shu tariqa rivojlangan. Xorazm vohasida ayniqsa Xivada xalfachilik san’ati keng rivoj topgan. Ana shu xalfachilik san’ati ham o‘zida raqs elementlarini aks
ettirib, xorazm folklor rasq san’atining rivojlanish bosqichlarida o‘z o‘rniga ega.

“San’at turlarining paydo bo‘lishida, zamondan zamonga o‘tishida dexqonlar, bahodir jangchilar, hunarmandlar, shoirlar, san’atkorlar, shu bilan birga podsholar ham o‘z xizmatlarini ayamaganligini kuzatish mumkin”[62]. Bunga misol qilib XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshida yashagan Komil Xorazmiy, Munis, Ogahiy, Rojiy, Bayoniy, Mutrib, Ilyos So‘fi, Avaz O‘tar kabi taraqqiyparvar shoirlar, Muxammad Rasul Mirzo, Abduraxmonbek, Qalandar Do‘nmas, Abdulla Mijana, Abdujabbor Maxsum, Majid Qambar, Avaz dorchi, Muxammad Yoqub Devon kabi maqomchilarni, shuningdek baxshilar, xalfalar, xofizlar, raqs ustalari va boshqa san’at ahlini keltirish mumkin. Uzoq vaqt podsholik kilgan Muxammad Raximxon II Sharq feodal hukmronlariga ergashib, mamlakatdagi eng taniqli, eng iste’dodli san’atkorlarni yig‘ib, ularga rahnamolik qilishga, ularning ijodidan saroy
ahli manfaatiga, zavqi va kayfiyatiga mos holda foydalanishga intiladi.

Xon saroyida maqomchilar ansambli ish ko‘rgan. T.Qilichevning aniqlashicha, ansamblda Polvon Niyoz Muxammad Mirzaboshi Komil Xorazmiy (1829-1399), o‘g‘li Mirzo, (840-1922) shuningdek Tolibxoji, Sharif mehtar, Qambar bola, Matyoqub Xarratov, Xudoybergan Muxrkoniy, Xoji Niyoz, Marasul

[61] G.Matyoqubova. Ofatijon “Lazgi”. – T.: G‘ofur G‘ulom. 1993.

[62] M.Vaseleva Istoriko – bitovoy tanets. – T.: Iskusstvo. 1997.

Niyoz, Otajon Devon Abdullayev (1876-1960) va boshqa san'atkorlar faoliyat ko'rsatgan. Keksa san'atkorlarning guvohlik berishicha Muhammad Rahimxon II Xiva sozanda va xonandalar, raqqos va masxarabozlarning ko'riklarini o'tkazib, g'oliblarni qimmatbaho sovg'alar bilan siylab turgan.

Xorazm maqom raqslarini yaratgan insonlar bu raqs harakatlarini shakllantirish, to'ldirish, rivojlantirish ustida tinimsiz ter to'kkanlar va buning hosili sifatida Xorazm maqom raqslarining go'zal bir tizimini yaratishgan. Bu san'at ustalarini Yusup Qiziq, Ahmadjon Umurzoqov, Lutfixonim Sarimsaqova, Karim Ollobergan ov, Aka Buxor, Xidoyatxon Hamdamova, Qimmatxon Sultonova, Sharofat To'rayeva, Xudoybergan Abdurahmonov, Boqijon Saydullayeva, Tamaraxonim va boshqalar xorazm raqs san'ati rivojiga juda katta hissa qo'shdilar.

Xorazmda birorta ham xalq sayilari, oilaviy bayramlar, tantanali kechalar kuy ko'shiqsiz o'tmagan. Xorazm xalqi insonlari orasida raqs tushishni bilmaydigan, sevmaydigan insonni kuzatish qiyin. Xorazmning xalq raqslari avloddan avlodga o'tib kelayotgan qadimiy an'ananalar asosida saqlanib kelgan va madaniyatni oltin merosi tarkibiga kiritilgan "Ot o'yin", "Qumpishiq", "Qirg'ovul", "Chag'aloq", "Kaptar o'yin", "Sipsa o'yin", "CHo'girma tikish", "Ko'knori", "Bayda ufori", "YU-pu-pu", "Mag'aldak", "Gul ufori", "Xayvon ufori" ("Xo'roz", "G'oz", "Makiyon", "Go'sfand", "Uloq", "Pishak"), "Burda", "Ratalla", "Galalaylim", "Mas'halla" va qadimgi rakslardan shu paytgacha yetib kelgan eng mashhur "Lazgi" raqsi bugungi kunga qadar o'z qadr-qimmatini yo'qotmay, aksincha zamonaviy jilolanib, tarannum etib kelinmoqda.

Yuqorida keltirilgan an'anaviy xorazm raqslari uch guruhga bo'linadi: proffessional raqslar, xalq raqslari va yarim proffessional raqslar.

Professional raqs san'ati uch ko'rinishni o'z ichiga oladi.

1. Sirk raqslari - mag'aldak;
2. Hazil raqslari- "gul ifori";
3. Raqs.

Sirk raqslari - odim, bir qancha sakrashlar, o'tirib turish, yelka, gavda,

bo‘yin harakatlarini o‘z ichiga olgan bo‘ladi. Qo‘l, gavda, yelka harakatlarinisbatan chegaralangan bo‘ladi, bu raqsning asosini sirk tryuklari tashkil etadi. Raqs harakatlari esa bu tryuklarni kuchaytirishga yordam beradi.

“Gul ufori” - hazilomuz raqs bo‘lib (gul qilmoq, ufori - raqs musiqa ohangi), uni milliy an’anaviy masharabozlik teatri artislari-masharabozlar ijro etadilar. “Gul ifori” - ikki janrni o‘z ichiga oladi:
“Hayvon ufori” - bu hayvonlarning raqsi va “Taqlid ufori” – bu o‘xshatma raqsdir. Ayniqsa “Taqlid ufori” masharabozlar o‘rtasida keng tarqalgan bo‘lib, har qanday bayram va sayllarning asosiy raqsi hisoblangan.

“Raqs” - bu haqiqiy raqsdir. Ijrochi raqqos yoki raqqosa asrlar davomida malakali raqqoslar - ustalar tomonidan rivojlantirilib Xorazm xoreografiya san’atini rivojlantirilishi natijasida yuzaga kelgan lirik obrazlar jamlanmasini raqs harakatlari orqali ifoda etilishidir. “Xorazm milliy xoreografiyasi xuddi Buhoro va Farg‘ona raqs maktablari kabi maxsus raqs xarakatlari ensiklopediyasiga va bu raqslarni o‘rganish sistemasiga egadir. Jamiki asosiy janrlar ya’ni bugungi kungacha yetib kelgan hamma raqs harakatlari maqom so‘zi ostiga jamlangandir”[63]. Horazm “Maqom uforisi” yetti qismdan, har bir qism bir necha bo‘limdan, har bir bo‘lim esa ijro etilishi bo‘yicha bir biridan farq qiladigan raqslar to‘plamidan iboratdir.

Bugungi kunga qadar o‘z qiymatini yo‘qotmay kelayotgan “Maqom ufori” to‘plami O‘zbekiston xalqi madaniyatini o‘rganuvchi tarixshunoslar, ayniqsa musiqashunos va teatrshunoslar uchun juda muhim qo‘llanmadir. Maqom ufori bugungi kunga qadar ko‘plab o‘zgarishlarni boshidan kechirgan bo‘lsada, asl mohiyatini saqlab kelmoqda. “Maqom ufori”ga kiritilgan milliy raqslar musiqa yunalishida ijro etilishi bilan birga “Shashmaqom”ning murakkab cholg‘u syuitasiga ham moslab ijro etish mumkin. Bu esa raqsga o‘zgacha ruh va ko‘rinish baxsh etadi.

“Maqom ufori” raqslari odatda qayroqlar bilan ijro etiladi.“Shashmaqom ufori”da esa odatda yakkaxon xonanda yoki bir ovozli xor

[63] G.Matyoqubova. Ofatijon “Lazgi”. – T.: G‘ofur G‘ulom. 1993.

ijrosida “Shashmaqom”dan biror ko‘shiq shunga mos raqs bilan ijro etiladi. “Shashmaqom”ga mos ravishda “Maqom ufori” raqs harakatlari o‘zining go‘zalligi, salobati, viqori bilan har qanday insonni o‘ziga maftun etib sehrlab qo‘yadi. Raqqosalarning bir tekis, chaqqon va mayin gavda harakatlari, qo‘llarining maftunkor noziklik bilan o‘rin almashishlari, o‘tirib-turishlar, yelka va bo‘yinning musiqaga mos harakati, hilma-hil qadam bosishi tomoshabinda zavq uyg‘otishi bilan bilan birga mushohada uyg‘otadi.

“Maqom ufori” va “Shashmaqom ufori” raqslari o‘ziga hos darajada viqori, salobatlidir. “Unda harakatlar emas, balki ovozlar harakati yashayotganga o‘hshaydi”[64]. Bunda gavda harakatlari esa qayroqlar ovozi bilan birgalikda yangi bir ohang yaratadi. “Maqom ufori” raqslari mazmunan hilma hildir. Masalan, lirik-hayotiy, jangovor. Lirik raqslarga misol qilib “Zarkokil”, “Romayla”, “Iroq ufori”, “Seygoh”ni, hayotiy raqslarga esa -“Burdam”, “Ratalla”, “Galalaylim”, “Mas’halla” raqslarini, jangovor raqslarga misol qilib esa “Lazgi”ni aytib o‘tish mumkin. “Lazgi” bu oddiy raqs emas, ijro etish uslubi bilan ajralib turuvchi gavda harakatlari sistemasiga ega bo‘lgan alohida bir ko‘rinishdagi raqslardir. Shuning uchun bo‘lsa kerak “Lazgi” Xorazm raqs san’atining gultoji bo‘lib qolgan.

XIX asrning 50 yillari boshlarigacha qadimiy raqs harakatlarini unutmagan momo va bobolarni uchratish mumkin. O‘tkaziladigan turli tadbir va sayllarda, kuz faslida ommaviy qush ovidan so‘ng bo‘ladigan bazmlarda bu raqslar ijro etilgan. Lekin shahar va qishloq maydonlarida bo‘ladigan bayram tomoshalarida esa bu raqslarni ijro etish yildan - yilga kamayib bordi, keyinchalik esa deyarli unutildi.

XX asrning 20 yillariga kelib Xivada birinchi teatr jamoasi tashkil etiladi. Teatrning tashkilotchisi va raxbari Xamza Xakimzoda Niyoziy edi. Bu teatr jamoasining tepasida Xorazm milliy raqs san’ati ustasi – Muxammad Yusup Xarratov va Madraim Yakubov (Sherozi), mashhur raqqos Raxim Allaberganov va taniqli raqqosa Onaxon (Onash Chulak) turadi. 1934 yili bu teatr jamoasiga

[64] YE.Saitova, N.Abrayqulova. Xoreografiya va raqs san’ati asoslari. – T.: Turon Iqbol. 2020.

mashhur o‘zbek raqqosasi va baletmeysteri Tamara Xonim, kompozitor Po‘lat Raximov va rejissyor Zuhra Kabulova ishga keladi. Bu esa zamonaviy Xorazm raqs san’atini tug‘ilishiga sabab bo‘ldi.

1930 yillarning oxiriga kelib baletmeyster Gavhar Raximova respublikada yagona garmonchilar ansamblini tashkil etadi. Bu ansamblga mashhur musiqachilarni, yosh raqqosalar – Soraxon Allaberganova, Raviya Atadjanova, Raima Xakimovalarni taklif etadi. 1968 yilga kelib esa Gavhar Raximova butun dunyoga mashhur bulgan “Lazgi” qo‘shiq va raqs ansamblini tashkil etadi va Xorazm milliy raqs san’atini qayta tiklaydi. Ansambl konsert repertuariga qadimiy Xorazm xalq qo‘shiq va raqslari, “Norim-norim”, “Orazibong”, “Og‘ajon”, “Surnay Lazgisi”, “Xiva lazgisi”, masxaraboz o‘yinlari - “CHo‘girma raqsi”, “Chog‘alloq”. “Og‘a kakir”, “Hayroniman”, “Maqom”, “Ushlini uforisi”, “Ufori Navo”, Muhammasi ushshoq” (shamchiroqlar bilan ijro etiladigan raqs), “Oshiq G‘arib” dostonidan “Gal-galey”, “Sallona”, “CHo‘pon yalla”, “Lazgi salomi”, “Qizlar”.

“Qoradali” kabi raqslari kiritilgan.

Umuman olganda Xorazm raqs san’ati o‘z yo‘nalishiga ega. Xorazm raqslari boshqa raqslarga aslo o‘xshamaydi. Bu voha san’atkorlarining har biri o‘z olamiga, o‘z ijodiga, o‘z ijro uslubiga va o‘z ijro maktabiga ega ekanligi bu san’atning tarixiy ildizlari juda qadimga borib taqalishidant dalolat beradi. San’atkorlar ham Xorazm raqs san’atining qadimiy ekanini, an’ana sifatida avloddan avlodga o‘tib kelayotganligini his etgan holda ijod qiladilar. Tajribali san’at ustalari o‘z ijod va ijrolari bilan nafaqat xorazm raqsning, balki o‘zbek raqs san’atining rivojiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. L.Avdiyeva. O‘zbek milliy raqsi tarixi. – T.: G‘ofur G‘ulom. 2001.
2. G.Hamroyeva. Raqsning milliy qiyofasi. – T.: San’at. 2012.
3. G.Matyoqubova. Ofatijon “Lazgi”. – T.: G‘ofur G‘ulom. 1993.
4. SH.Hamidova. Xoreografiya va raqs san’ati tarixi. – T.: Turon Iqbol. 2012.

5. M.Vaseleva Istoriko – bitovoy tanets. – T.: Iskusstvo. 1997.
6. O.Ostanina. Ritmika Plastika. – T.: Turon Iqbol. 2020.
7. YE.Saitova, N.Abrayqulova. Xoreografiya va raqs san'ati asoslari. – T.: Turon Iqbol. 2020.

KOMPYUTER GRAFIKASINING OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINI SAN'AT SOHASIDA O'QITISHDAGI O'RNI

Samigova Gulandom Abdujabbarovna
O`zDSMI, "Axborot texnologiyalari"
kafedrasi kata o'qituvchsi

Oliy ta'limning o'quv jarayonida ulardan foydalanish umum kasbiy va maxsus fanlarni o'qitish usullari va o'qitish sohasida chuqurroq tadqiqotlarni talab qiladi. Biz qo'g'irchoq teatri san'ati mutaxassisliklari misolida Oliy ta'limning san'at yo`nalishidagi fakultetlari talabalarini o'qitish jarayonida kompyuter grafikasidan foydalanishning asosiy shartlarini aniqlaymiz. Talabalar tomonidan kompyuter grafikasi asoslarini o'zlashtirish an'anaviy vizual faoliyat turlariga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shu munosabat bilan, uning vizual vositalari va texnik xususiyatlarini hisobga olgan holda kompyuter grafikasini o'qitishning samarali texnologiyalarini ishlab chiqish va takomillashtirish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Mamlakatning turli universitetlarida kompyuter grafikasi bo'yicha o'qitish yo'nalishlarini taqqoslashda shuni ta'kidlash kerakki, kompyuter grafikasi fanining fan sifatida rolini tushunish bir xil emas va talabalarni o`qitishning aniq yo'nalishlariga va mutaxassisliklarga ushbu fanni talabalar o'zlashtira olishlari xodimlarning malakasi darajasiga bog'liq.

O`zbekistondagi texnika universitetlarining talabalarini o'qitish jarayonida kompyuter grafikasining ahamiyati dizayn jarayonini avtomatlashtirish, chizmalar va dizayn hujjatlarini yaratish uchun ayniqsa muhimdir. Bu erda kompyuter grafikasi bo'yicha o'qitishning asosi avtomatlashtirilgan dizayn tizimlarini ishlab

chiqishdir. Mamlakatimizdagi turli universitetlarning badiiy-grafika fakultetlari va badiiy fakultetlarining rivojlanishi, yangi mutaxassisliklarning ochilishi, o'quv jarayonida badiiy kompyuter grafikasidan foydalanish muammosi ayniqsa dolzarbdir.

San’at sohasida ham misol uchun qo‘g‘irchoq aktyorlari uchun yaratiladigan qo‘g‘irchoqlar, ular uchun liboslar dizayni, sahna dizayni, grimm, sahna dizayni, interer dizayni bo'yicha rassomlar, rejissyorlar, aktyorlar va boshqalar bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash jarayonida talabalar tomonidan badiiy kompyuter grafikasini ishlab chiqish va o`rganish muhim ahamiyatga ega. Kompyuter grafikasi bo'yicha o'qitishning mavjud tendentsiyalarini hisobga olgan holda, mutaxassislarni tayyorlash sohalariga mos keladigan dasturiy ta'minotning asosiy guruhlarini shartli ravishda ajratish mumkin:

1) texnik va qurilish mutaxassisliklari uchun - AutoCAD, ArCon, Arhi CAD va h.k.;

2) madaniyat va san'at yo'nalishidagi san'at va ijtimoiy faoliyat, boshqaruv mutaxassisliklari, pedagogik mutaxassisliklar uchun - Adobe Photoshop, Corel Draw, Adobe Illustrator, Adobe after effects, Autodesk Maya, Adobe Page Maker, 3D Studio MAX, 3D Studio Viz Canvas, Flash va boshqalar.

Kompyuter grafikasining badiiy vizual vositalarining o'ziga xos xususiyatlarini to'liq aks ettiradigan amaliy kompyuter dasturlarining xususiyatlariva maqsadlarini tahlil qilaylik.

Ikki va uch o'lchovli grafika o'quv jarayonida eng keng tarqalgan dastur. Eng mashhur dasturlar - Corel Draw, Adobe Photoshop va 3D Studio MAX. So'nggi paytlarda talabalarni o'qitish jarayonida Flash texnologiyalaridan o'quv kompyuter dasturlarini (san'at ixtisosligi), interfaol entsiklopediyalarni, Web-sahifalarni ishlab chiqishda faol foydalanilmoqda.

Adobe PhotoShop dasturi rastrli tasvirlarni qayta ishlashga mo‘ljallangan grafik muharrir dasturlar ichida “defakto” standarti maqomiga ega bo‘lgan dastur hisoblanadi. Bu dasturning boshqa dasturlardan asosiy ustunligi unda tasvirlarni qayta ishlash qatlamlar (Слои) prinsipiga asoslanganligi va qo‘shimcha dasturiy

modullar (Plugin) tizimini qo‘shish imkoniyati mavjudligidadir. Bu dasturdan talabalar yaratiladigan asarni tasavvurga ega bo‘lish uchun foydalanishadi. Ya’ni qo‘g‘irchoqni tuzilishi, qanday libosda bo‘lishi, rangi va x.k.



CorelDraw amaliy dasturlar paketi hozirgi kunda ilyustrativ grafika yaratish bo‘yicha eng oldingi dasturiy mahsuloti hisoblanadi. U o´zining qisqa tarixi mobaynida vektorli grafikaning boshlang‘ich darajasidan to professional darajasigacha yetib keldi



Autodesk Maya 3D grafik muharriri keng qamrovli 3D animatsiya, modellashtirish va renderlash funksiyalariga ega. Dastur animatsiya, muhitlar, harakatlanuvchi grafikalar, virtual reallik va personajlarni yaratish uchun ishlatiladi.

3D Studio MAX animatsiya va uch o‘lchamli grafika yaratuvchi va tahrir qiluvchi to‘liq funksiyali professional dastur. O‘z ichiga multimediya sohasidagi mutaxassislar va rassomlar uchun eng zamonaviy vositalarni oladi. 3ds Max turli

ko‘rinishdagi va murakkablikdagi kompyuter uch o‘lchamli modellarni, atrof-muhitdagi real yoki fantastik obyektlarni yaratish uchun barcha zaruriyvositalariga ega.

ZBrush 3D grafikalarni yaratish va tahrirlash uchun kuchli professional vositadir. Avvalo, dastur "raqamli loy" deb ataladigan narsa bilan ishlashga qaratilgan bo'lib, undan turli xil vositalar yordamida ob'ektlarni tom ma'noda haykaltaroshlik qilish mumkin.

Shu bilan birga, Adobe Illustrator, Adobe after effects, Autodesk Maya, Adobe Page Maker, 3D Studio MAX, 3D Studio Viz Canvas va boshqa dasturlarning amaliy dasturiy vositalardan foydalangan holda talabalarga kompyuter grafikasi san'atini o'rgatish uchun metodologiya mavjud emas. Talabalarining kelajakdagi kasbiy faoliyatida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishi shubhali emas. Zamonaviy grafik dizaynni, Web-dizaynni, bosib chiqarishni kompyuter grafikisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

So'nggi paytlarda an'anaviy badiiy materiallarni taqlid qiladigan kompyuter grafikasi yordamida badiiy asarlarni yaratish keng tarqalmoqda. Biroq, ko'plab san’at yo`nalishidagilar badiiy kompyuter grafikasiga munosabati noaniqdir: ba'zilari uni zararli deb hisoblasa, boshqalari uni san'atdagi tubdan yangi yo'nalish deb bilishadi. Bir tomondan, har qanday san'at asarini yaratish jarayoni yagona qonunlar va qoidalarga bo'ysunadi. Tarkib tamoyillari, rang munosabatlari, obrazli ekspressivlik, estetik qadriyat va boshqalar bu g'oyani aks ettirish vositalaridan qat'i nazar, rejissyor yoki san’atshunosning ijodi baholanadigan mezondir. Jamiyatda rivojlangan go'zallikning tarixiy qonunlari tasviriy san'atning har xil turlari va yo'nalishlarini birlashtiradi. Ular kompyuter grafikasi yordamida yaratilgan asarlar bilan to'liq bog'liqdir.

Boshqa tomondan, kompyuter grafikasi rasmga yangi o'ziga xos imkoniyatlarni faqat o'ziga xos vositalardan foydalangan holda kiritadi:

- an'anaviy sharoitlarda imkonsiz bo'lgan tasviriy materiallar kombinatsiyasi (masalan, akvarellar va moylar, grafik materiallar va mozaikalar);
- tasviriy san'atda hozirgacha foydalanilmagan materiallarga taqlid qilish (suyuq metall va boshqalar);
- yoritish va porlash effektlari;
- fazoviy maxsus effektlar;
- virtual hajm;
- harakatning ta'siri va boshqalar.

E'tibor bering, hozirgi paytda qo‘g‘irchoq yasashda badiiy kompyuter grafikasi vositalaridan foydalanib, r qo‘g‘irchoqlarni yaratishda ishlatiladigan vositalarning mohiyatini hisobga olgan holda ijodiy ishlari shartli ravishda quyidagi guruhlarga taqdim etilishi mumkin.

- an'anaviy grafik materiallarni kompyuter grafikasining o'ziga xos vositalarini qo'shib taqlid qilish (noan'anaviy materiallarni taqlid qilish, fazoviy effektlar, porlash va boshqalar);
- chiroyli va grafik tasvirlarni maxsus qayta ishlangan foto tasvirlar bilan birlashtirish.

Qo‘g‘irchoq teatr aktyorligi mutaxassisliklari talabalariga dars berishda san'atning barcha turlari uchun asosiy bo'lgan uyg'unlik tamoyillariga alohida e'tibor qaratish lozim. Ushbu printsiplar ifodani nafaqat hissiy idrokda, balki matematik ifoda shakllarini olgan mantiqiy qonunlarda ham topadi. Shu munosabat bilan zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish dolzarb bo'lib, ular orasida axborot texnologiyalari alohida o'rin tutadi.

San'atning har bir sohasida teng ravishda qabul qilinadigan va badiiy va pedagogik ta'limni yanada takomillashtirishga hissa qo'shadigan nazariy va uslubiy ishlanmalarni amalga oshirish kerak.

Tarkib elementlarini va butunlikni uyg'unlashtirish - bu talabalarni o`qitishda yuzaga kelgan lahzalar, talabalarni badiiy ijod jarayonida bilim va

ko'nikmalarni to'liq qamrab olishga majbur qiladigan narsa. Buning uchun u kompozitsion qonunlari haqida nazariy ma'lumotlarni to'liq olishi kerak, shunda u vizual ko'rinadigan shakllarning go'zalligi yoki akkordlar uyg'unligiga asoslangan holda u o'zining barcha ijodiy harakatlarini nazorat qila oladi. Bu erda kompozitsiyaning badiiy vositalari haqida ma'lumotni kompyuterda taqdim etish qobiliyati va samaradorligi ayniqsa muhimdir. Intuitivlik ob'ektiv ravishda mavjud bo'lsa-da, ammo hali ongli ravishda kashf etilmagan naqshlarga asoslanadi va kompyuter modellari, bilishning kuchli usuli bo'lib, fikrlash va ijodning chuqur, ongsiz shakllarini tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:
1. Ayupov L.F., Rasulev D.M., Ibragimova L.T. Kompyuter grafikasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma.Toshkent.: 2005– 212 b.
2. Ажгихин С.Г. Компуютерные технологии в изобразительной и дизайнерской деятельности студентов вузов/С.Г. Ажгихин//Искусство и образование-2014.

Ўктам Носиров -Ўзбекистон Давлат санъат ва маданият институти “Кутубхонашунослик” кафедрасининг мудири, фалсафа фанлари номзоди

Учинчи Ренессанс пойдеворини яратишда маданият ва санъатнинг ижтимоий вазифалари

Тема: Социальные функции культуры и искусства в создании третьего Ренессанса в Узбекистане.

Subject: Social functions of culture and art in the creation of the third Renaissance in Uzbekistan.

Аннотация: Илмий мақолада Ўзбекистонда Учинчи Ренессанс пойдеворини яратишда маданият ва санъатнинг билиш, мослаштириш,

ижтимоий, тажрибани узатиш, боғловчилик, ижтимоийлаштирувчилик вазифалари ёритиб берилган.

Аннотация: В научной статье освещены познавательные, коммуникативные, адаптационные, интегративные, социализирующие функции культуры и искусства в создании третьего Ренессанса в Узбекистане.

Abstract: The scientific article highlights cognitive, communicative, adaptive, integrative, socializing functions of art culture in the creation of the third Renaissance in Uzbekistan.

Калит сўзлар: Билиш, боғловчилик, мослаштирувчилик, бирлаштирувчилик, ижтимоийлаштирувчилик, анъанавий оғзаки маданият, ёзма ва босма анъанавий маданият, маданиятнинг электрон тури.

Ключевые слова: познавательное, адаптационное, коммуникативное, интегративное, социализирующее, культура устной традиции, культура письменности и печатной традиции, электронный тип культуры.

Key words: cognitive, adaptive, communicative, integrative, socializing, culture of oral tradition, culture of written and printed tradition, electronic type of culture.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг “ Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси” китобида бугунги кунда юртимизда Учинчи Ренессанс пойдеворини яратишда амалга оширилаётган туб ўзгаришлар ва ислоҳотларнинг мақсади, мазмун-моҳияти ҳамда устувор йўналишлари белгилаб берилган бўлиб, “ Истиқболда бу соҳада амалга оширишимиз керак бўлган устувор вазифалар Ўзбекистоннинг маънавий тараққиёт стратегияси ҳамда уни амалга ошириш дастурини ишлаб чиқиш ва ҳаётга тадбиқ этиш давлат сиёсатининг таркибий қисмига айлантиришни тақозо этмоқда. Бу муҳим вазифа , ўз навбатида илм-фан, маданият ва санъат, адабиёт ва бадиий ижодиёт соҳаларини маънавий маърифий

тараққиётдаги таъсирчанлигини янада оширишга доир қўшимча чора-тадбирларни талаб этади” деб таъкидланади [1. Б.263]

Кўриниб турибдики, мамлакатимизда белгиланган устувор вазифаларни амалга оширишда маданият ва санъат алоҳида ўрин тутади.

Маданият- ижтимоий ҳодиса бўлиб, жамият билан биргаликда келиб чиққан . Маданият ва жамият кишилар ижтимоий фаолиятининг биргаликдаги нобиологик шакли бўлиб , бир-бирисиз мавжуд бўла олмайди . Улар ўртасидаги мустаҳкам алоқадорликдан ташқари муайян фарқлар ҳам мавжуддир. Агар фаолиятлилик нуқтаи назаридан ёндашиладиган бўлса жамият фаолиятнинг жамовий субъекти сифатида , маданият эса жамиятнинг воситалари, усуллари натижаси сифатида намоён бўлади.

Маданият муҳим ижтимоий функцияларни бажаради. Шунинг учун ҳам маданиятнинг ижтимоий ҳодиса сифатида жамият ҳаётидаги ўрни ва ролини аниқлашга уриниш доимо мавжуд бўлиб келган. Унинг қуйидаги функциялари (вазифалари) мавжуддир:

1. Мослаштириш функцияси. Маданият инсоннинг атроф- муҳитга мослашишини таъминлайди ва мослашув тушунчаси “адаптация” терминида ҳам ифодаланади.

Бошқа томондан, маданиятнинг мослаштириш функцияси шундай намоён бўладики, унинг ривожланиши кишиларга ҳар томонлама қулайлик яратади, меҳнат унумдорлиги ошади , инсоннинг ўз-ўзини маънавий намоён қилиши учун янги имкониятлар яратилади.

2. Маданиятнинг билиш функцияси энг аввало олам ҳақида янги-янги билимлар олиши учун имкониятлар яратишида кўринади . Ушбу функцияни маънавий маданиятнинг мифология , дин, фалсафа, санъат сингари турли кўринишлари бажаради.

Жумладан, фан ва санъатнинг билишдаги роли шунда намоён бўладики илмий ва бадиий билиш ўзига хос ҳусусиятларга эга бўлиб, бир- бирини

бойитиб боради. Фан ҳодисалар ва жараёнлардаги умумийлик ва зарурийликни билиш орқали ривожланишнинг моҳияти ва қонуниятларини ўрганади . Агар кундалик билимлар фактларни таснифлаш билан чекланадиган бўлса илмий билимлар ҳодисалар ва жараёнларни тушунтириши орқали уларнинг кейинги ривожланишини олдиндан айтиб беришга ҳаракат қилади. Демак илмий билишнинг асосий мақсади тушунтириш ва илмий башоратни амалга оширишдир.

Илмий билиш ўз шаклига кўра умумий тушунчаларда , категорияларда принципларда , қонунларда , назарияларда умумлаштирилади. Бадиий билиш илмий билишдан фарқли ҳолда кўргазмали ва образли хусусиятга эгадир . Айтиш мумкинки, фан тушунчаларда ифодаланган тафаккурдир. Инсоният маънавий дунёси ва психологиясида санъатнинг тутган ўрнини бирорта бошқа ижтимоий онг шакли бажара олмайди.

Санъат ижтимоий онг шакли сифатида объектив воқеликни бадиий образлар воситасида акс эттирибгина қолмасдан унга акс таъсир кўрсатиш хусусиятига ҳам эгадир. Санъат оламни ва инсоннинг ўз-ўзини билишининг муҳим воситаси ҳисобланади ҳамда кишиларга эстетик идеал орқали таъсир кўрсатиб, умумлаштирилган , тафаккурда бойитилган тажрибани ўзлаштиришга имкон беради. Айниқса, санъатнинг эстетик дунёқарашни шакллантириши орқали шахснинг гўзаллик қонунлари бўйича ижодиётини ўстириш, эстетик қадриятларни яратишдаги вазифаси ўта муҳимдир.

Умуман, санъатнинг ижтимоий ва эстетик вазифаси кенг ва хилма-хил бўлиб, инсон учун завқланиш манбаи, гўзаллик бахш этувчи , воқеликка нисбатан ҳиссий муносабатни шакллантирувчи, ҳаётни инсон орзу қилган томонга ўзгартиришга ёрдам берувчи, хунукликдан нафратланишга чорловчи , маънавий кўприк вазифасини бажарувчи , эстетик эҳтиёжини қондирувчи воситадир.

Санъат асарларининг диққат марказида инсонлар, уларнинг ижтимоий алоқаси , ўзаро муносабатлари, муайян тарихий шароитлардаги ҳаёти ва фаолияти туради.

Санъат асарлари орқали ҳосил қилинадиган маърифий билимлар илмий асарлар орқали олинган билимлардан фарқ қилади, уларда ифода этилган кечинма ва образлар ҳар бир ўқувчининг , томошабиннинг қалбидан ўрин олишига , эстетик завқ уйғотишга хизмат қилади.

3. Маданиятнинг муҳим функцияларидан бири ижтимоий тажрибани етказиш функциясидир. Ижтимоий тажрибани авлоддан авлодга, даврдан даврга, бир мамлакатдан иккинчи мамлакатга етказиш маданият орқали амалга оширилади. Инсоният томонидан яратилган бой тажрибадан кишиларни баҳраманд этишда жамият маданиятдан ташқари бошқа механизмга эга эмас.

Маданият мураккаб белгилар тизимидан иборат бўлиб, тушунчалар ва сўзларда, фанлар формулаларида, санъатнинг ўзига хос тилида, меҳнат қуролларида, урф-одатлар ва анъаналарида авлодларнинг ижтимоий тажрибасини асрлар давомида сақлайди. Маданий меросдан узоқлашишянги авлоднинг ижтимоий хотирасининг йўқотилиши орқали улкан салбий оқибатларга олиб келади. Шунинг учун ҳам жадидчилик ҳаракатининг йирик номоёндаларидан бири Маҳмудхўжа Беҳбудий 1915-йилда нашр этилган “Ойна” журналида “Сарт сўзи мажҳулдир” мақоласида таъкидлаганидек “Қабиласининг исмини ва етти отасининг отини билмайтургонларни “Қул-марқуқ” дерлар “ дейди [2.Б 173]. Чингиз Айтматов эса, хотирасидан маҳрум қилинганларни “манқурт” деб атайди [3.Б 176]. Маданият инсонга ўз ўтмиши ва тарихий илдизларини сақлаб қолишга кўра инсониятнинг ижтимоий хотирасининг мустаҳкамланишига ёрдам беради.

Айтиш мумкинки, маданият- инсониятнинг тарихий хотирасидир.

Бу инсоният томонидан яратилган ва тўпланган битмас – туганмас билимлар ва қадриятларнинг улкан хазинасидир. Шунга кўра, маданиятга нисбатан инсоният томонидан яратилган барча моддий ва маънавий бойликларни асраш, бойитилиши ва келажак авлодга етказиш тамойили амал қилиш зарур. Ҳар бир авлод ушбу бойликлардан фойдаланади, уни асрайди, янада бойитади ва ўзидан кейинги авлодга қолдиради.

4. Маданиятнинг ижтимоийлаштурувчилик функцияси индивидларнинг ижтимоий ҳаётга киришишлари, муайян жамият, ижтимоий гуруҳга хос бўлган қадриятлар, ижтимоий мартаба, билимлар, ҳатти-ҳаракат меъёрларини ўзлаштириш воситаси эканлигида кўринади. Ижтимоийлашув жараёни шахсга жамиятнинг тўлақонли аъзоси бўлиши , унда муайян нуқтаи-назардан ёндашиш асосида урф-одатлар, анъаналарга асосан яшаш имконини беради. Шу билан бирга ушбу жараён жамият, унинг тизими, ҳаёт шаклларининг сақланишини таьминлайди.

Маданият ижтимоийлашувнинг мазмуни, воситалари, усулларини белгилаб беради. Ижтимоийлашув жараёнида кишилар маданиятда мавжуд бўлган ҳатти-ҳаракат меъёрларини ўзлаштиради, унга мос равишда тафаккур юритади ва фаолият кўрсатади.

5. Маданиятнинг тартибга солувчилик функцияси энг аввало кишилар ижтимоий ва шахсий фаолиятининг турли томонларини тартибга солишни белгилашда намоён бўлади.

Меҳнат, турмуш, кишилараро муносабатларда маданият у ёки бу даражада уларнинг ҳатти-ҳаракатига таъсир ўтказади ҳамда фаолиятларни тартибга солади. Маданиятнинг тартибга солувчилик функцияси унинг қадриятлар, меъёрлар, анъаналар сингари унсурлари орқали амалга оширилади.

6. Маданиятнинг тўлдирувчилик функцияси. Ушбу вазифа ишлаб чиқаришдан бўш вақтда кишиларга ўзларининг сарфланган жисмоний ва

маьнавий кучларини қайта тиклашга ёрдам беради. Демак, ушбу вазифаларни бажаришда маданият ва санъат алоҳида ўрин эгаллайди.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev.Sh.M.Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston", 2021.-464 b
2. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Toshkent, "Ma'naviyat", 1997.-232.
3. Chingiz Aytmatov. Asrga tatigulik kun. Toshkent, "O'zbekiston", 2006.-258.
4. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. Toshkent, "Ma'naviyat", 2006.-272.

Fayziyev To'rabek Raufovich,
O'zDSMI "Madaniyat va san'at menejmenti"
kafedrasi mudiri v.b., t.f.n., dotsent

Madaniy muassasalarda menejer faoliyati

Annotatsiya

Ushbu maqolada madaniyat muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan menejnrlarning vazifa va funksiyalariga qisqacha to'xtalgan, ularning xususiyatlari bayon etilgan. Madaniyat va san'at tashkilotlarini boshqarish jarayonidagi dolzarb vazifalar qayd etilgan.

Kalit so'zlar: madaniy muassasalar, menejment, marketing, boshqarish, tashkilotlar, tamoyillar, teatr, muzey, istirohat bog'lari, madaniyat markazlari va h.k.

Аннотация

В данной стате кратко затрагиваются задачи и функсии менеджеров, работаюших в учреждениях культури, описиваются их особенности. Отмечени актуалние задачи в процессе управления организациями культури и искусств.

Ключевие слова: учреждения культури, менеджмент, маркетинг, организатсии, принципи, театр, музей, парки, культурние сентри и т.д.

Annotation

This article briefly touches on the tasks and functions of managers working in cultural institutions, describes their features. The actual tasks in the process of management of cultural and arts organizations are noted.

Keywords: cultural institutions, management, marketing, organizations, principles, theater, museum, parks, cultural centers, etc.

O‘zbekistonda madaniyat sohasi iqtisodiy faoliyatga singib ketgan ko‘p qirrali institusional ta’limdir. Madaniyat sohasi bugungi kunda madaniy merosni muhofaza qilish va ulardan foydalanish, san’at va hunarmandchilik, kutubxona va muzey ishi, musiqa, teatr va xoreografiya san’ati, kinematografiya, dizayn va boshqa ko‘plab tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Jahon hamjamiyati olimlarining madaniy masalalarga, xususan, milliy, mintaqaviy va institusional darajadagi madaniy muassasalarni boshqarishni takomillashtirish masalalariga, madaniyat sohasida boshqaruv sifati va samaradorligini oshirish vazifalariga qiziqishi ortganini kuzatishimiz mumkin. Biroq, ayni paytda, madaniy muassasalar uchun boshqaruv rivojlanishlariga yetarlicha e’tibor berilmaydi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari to‘liq hisobga olinmaydi, ushbu turdagi tashkilotlarda boshqaruv tizimining aniq rasmiylashtirilgan algoritmi yo‘q. Bundan tashqari, ma’lum bir hududda madaniy sohani rivojlantirish uchun moliyalashtirish manbalari va madaniy muassasalar faoliyati har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlariga mos ravishda ta’sir qiluvchi iqtisodiy omillar e’tiborsiz qoldiradi, bu davlat byudjeti xarajatlari darajasiga aniq ta’sir qiladi. Shunday qilib, yuqoridagilarni hisobga olgan holda, madaniyat

sohasidagi menejment xususiyatlari va uning samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunga kelib, xalqaro tajriba va amaliyot shuni ko‘rsatadiki, madaniyat va san’at muassasalarining asosiy tarmog‘i bevosita davlat moliyasiga bog‘liq, buni, albatta, ijobiy hodisa deb bo‘lmaydi [1]. Iqtisodiy va siyosiy beqarorlik holatida bu holat bilan mamlakat madaniy sanoatning rivojlanishini to‘liq qo‘llab-quvvatlay olmaydi, natijada bu sohada davlat sektorining pasayishiga olib keladi. Shu bilan birga ta’kidlash lozimki, har bir davlat madaniy ta’limotni ham, umuman siyosatni ham amalga oshirishda o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shuning uchun madaniyat va san’at sohasini boshqarish va uning samaradorligi bevosita davlat dasturlari va loyihalarining yo‘nalishlariga bog‘liq bo‘lib, unda ko‘rsatiladigan takliflarda keng qamrov topilmaydi. Shunday qilib, madaniyat va san’at sohasidagi samarali boshqaruv amaliyotlarini tizimlashtirish - umumlashtirishning turli asoslarini va umumiy boshqaruv konturining muayyan muhim elementlaridan foydanishda tanlash imkoniyatini nazarda tutadi. Shunday qilib, madaniyat va san’at sohasidagi samarali boshqaruv amaliyotlarini tizimlashtirish umumlashtirishning turli asoslarini va umumiy boshqaruv konturining muayyan muhim elementlarini foydasiga tanlash imkoniyatini nazarda tutadi. Dunyo bo‘ylab madaniyat sohasidagi boshqaruv samaradorligining umumiy mezoni madaniy muassasalar faoliyatining subektiv individual - ijodiy paradigmasiga aniq belgilangan tarkibiy va funksional komponentlar (maqsad, faoliyat subyektlari, faoliyat mazmuni va usullari) bilan qo‘llab-quvvatlash va yo‘naltirishdir, bu ijobiy yutuqlarga asoslanadi [2]. Eng yaxshi xalqaro tajribani o‘rganar ekanmiz, madaniyat va san’at sohasida boshqaruv samaradorligini oshirish uchun muhim salohiyat madaniyat bo‘yicha byudjet xarajatlarini kamaytirish va byudjetdan tashqari mablag‘larni jalb qilish mexanizmlarini joriy etishda ekanligiga guvoh bo‘lamiz.

Madaniyat sohasidagi menejerlar teatr, muzey, xalq ijodiyoti uylari, kutubxona, madaniyat markazi, kinoteatr, istirohat bog‘i, ko‘rgazma zali, galereya, ma’muriy menejer, shuningdek davlat va tijorat madaniy tashkilotlari menejeri sifatida o‘z faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

Shu bilan birga, menejerning madaniyat sohasidagi ishining asosiy tamoyillari va yo‘nalishlari o‘xshash xususiyatlarga ega. Madaniy muassasadagi menejer, qoida tariqasida, muassasada boshqaruv, tashkiliy, marketing va boshqa tegishli funksiyalarni bajaradi, shuningdek ijodiy jamoalar faoliyatida muhim rol o‘ynaydi.

Madaniyat sohasidagi menejer ijodkorlik, estetik tarbiya, madaniy merosni saqlash va boshqalar sohasidagi faoliyat mazmunini tartibga solish, muvofiqlashtirish va tashkil etish uchun mavjud. Madaniyat sohasida menejer ishining zaruriy sharti bu aloqa texnologiyalari, axborot oqimlari, marketing ko‘nikmalari, xodimlarni boshqarish, moddiy, ramziy, moliyaviy resurslardan malakali foydalanishdir.

Boshqa tomondan, madaniy menejer o‘z ishining maydonini "ma’nolarni ishlab chiqarish" fabrikasi sifatida tashkil qiladi, chunki u jamiyatning ramziy, ma’naviy va qadriyat amaliyotlari bilan shug‘ullanadi. Madaniy menejment doirasida zamonaviy inson yashaydigan ramziy muhitning doimiy yangilanishi mavjud. Shu bilan birga, madaniy muhitni o‘zgartirish jamoatchilik, biznes va hukumat ko‘magisiz, madaniyatning institusional makoniga turli kuchlarni jalb qilmasdan mumkin emasligini yodda tutish kerak.

Madaniy loyihalarni ishlab chiqish, festivallar, aksiyalar, ko‘rgazmalar o‘tkazish va investor bilan shartnoma imzolash orqali menejerlar madaniy resurslarni kapitallashtirish va shahar, mintaqa yoki mamlakatning madaniy salohiyatini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha muhim missiyada qatnashadilar. Bu nafaqat ma’rifat, ta’lim, tarbiya berish, balki ijod va bunyodkor g‘oyalarni mujassamlashtirish uchun sharoit yaratishga qodir madaniyatning o‘z salohiyatini oshiradi.

Ushbu sohaning har qanday muassasasida o‘z faoliyatini olib boradigan madaniy menejer butun madaniy sohani bozor sharoitlariga va axborot jamiyatining tendensiyalariga o‘zgartirish va moslashtirishning qiyin davrini hisobga olishi kerak. Shu munosabat bilan menejer ko‘plab madaniy muassasalar uchun umumiy bo‘lgan faoliyat sohalariga e’tibor qaratishi kerak [3]:

1. Innovatsion ish usullarini joriy etish. Bunday holda, biz interaktiv tadbirlarni, shou elementlarini, texnik vositalarni va boshqa ko‘p narsalarni muntazam ravishda ishlab chiqish va amalga oshirish haqida gapiramiz. Bundan tashqari, yangi ish usullarining muhim qismi madaniy muassasalarni dam olish, turizm, moda, ommaviy axborot vositalari va hokazolarning tegishli sohalariga birlashtirishga urinishdir. Bu ijodiy faoliyatdan qo‘shimcha byudjetdan tashqari daromad manbalariga kirishga imkon beradi.

2. Axborot ta’minotining turli shakllaridan foydalanish. Axborot ta’minoti nafaqat madaniy muassasani bo‘lajak voqealar to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qilishni, balki tashkilotning ijobiy imidjini, obro‘sini yaratadigan, uning faoliyati va maqsadi to‘g‘risida potensial iste’molchilarning ba’zi stereotiplari va fikrlarini shakllantiradigan axborot oqimlari bilan malakali ishlashni ham o‘z ichiga oladi. Shu munosabat bilan, asosan bosma reklama an’anaviy usullaridan tashqari, bugungi kunda madaniy muassasalar muvozanatli marketing strategiyasiga juda yetishmayapti. Ushbu strategiyaning ajralmas qismi bozorni o‘rganish (marketing muhiti, potensial auditoriyani kutish, ehtiyojlar), brendlash imkoniyatlaridan foydalanish, PR faoliyati, intarnet, muntazam yangilanib turadigan va ijodiy veb-saytni yaratish, korporativ identifikatsiya, aksiyalar, ochiq tadbirlar, festivallar mashhur odamlar, master-klasslar va boshqalar.

3. Faoliyatning yangi tashkiliy shakllarini ishlab chiqish. Mavjud vaziyat nafaqat madaniy muassasaning samaradorligini, balki qiyin iqtisodiy sharoitlarda "suvda qolish" qobiliyatini ta’minlash uchun menejer tomonidan doimiy faoliyatni talab qiladi. Biz turli xil amaliyotlarni joriy etish haqida gapiramiz, ularning aksariyati madaniy muassasalar va ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Xususan, ijtimoiy sheriklik (ta’lim muassasalari tarmog‘i, sog‘liqni saqlash, masjid bilan va boshqalar., shuningdek, tijorat tuzilmalari bilan ijtimoiy sheriklik) madaniy muassasalar tomonidan o‘tkaziladigan tadbirlarning sifati va miqdorini yaxshilash uchun ma’lum imkoniyatlarga ega.

Tijorat sherikligi doirasida madaniy, ma’rifiy, ma’naviy, ijtimoiy va ma’rifiy maqsadlarni ko‘zlaydigan tadbirlarni homiylik va boshqa turdagi

moliyaviy qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida shartnomalar tuziladi. Madaniyat va biznes o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning yangi usullaridan biri bu madaniyatning turli sohalaridagi vaziyatni malakali tahlil qilishdan oldin davlat-xususiy sheriklik, korporatsiyalarni yaratishdir. Bundan tashqari, byudjetdan tashqari mablag‘larni jalb qilishning boshqa mexanizmlari, shu jumladan madaniy sohalar (nashriyot, reklama, turizm, dekorativ ishlab chiqarish, dizayn, moda, esdalik sovg‘alari va boshqalar) sohasiga qo‘shilish mavjud), shuningdek, ijtimoiy-madaniy dizayn imkoniyatlaridan faol foydalanish, natijada ijodiy loyihalar amalga oshiriladi, madaniy yangiliklar paydo bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U.G‘. Zuunnunova, T.R.Fayziyev. Art marketing. O‘quv qo‘llanma. / / Toshkent, “Kamalak” 2019 y., 18 bet.

2.M.SH.Qayimov, A.S.Umarov, U.G‘.Zunnunova. San’at menejmenti. O‘quv qo‘llanma. / / Extremum-Press. 2012 y., 84-86 betlar.

3. Troshina N. I., Jurba YE. S. Ijtimoiy-madaniy soha tashkilotlarida rejalashtirish tizimi / / Science Time. - 2018. - №11 (59). –son, 10-12 betlar.

БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА МАДАНИЯТ ВА ИЖОДКОРЛИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРИ ТОМОШАЛАРИНИНГ ТАРБИЯВИЙ АҲАМИЯТИ

Асқарова Хуршида Аъзамжон қизи
Низомий номидаги Тошкент давлат
педагогика университети эркин изланувчиси
E-mail:xurshidaaskarova408.com

Тел..: +998909260668

Аннотация: Мазкур мақолада юртимизда қадимги даврлардан, ҳозирги кунга қадар мавжуд қўғирчоқ театрлари ҳамда қўғирчоқбоз-созандалар томонидан қўғирчоқ ўйинлар учун яратилган “Уфор”, “Миёнхона”, “Чарх”, “Тўрғай чириллама” каби куйлар таҳлил қилинган. Шунингдек, бошланғич синф ўқувчиларида маданият ва ижодкорлик компетенцияларини шакллантиришда қўғирчоқ театрининг тутган ўрни ҳамда тарбиявий аҳамияти ҳусусида сўз боради.

Калит сўзлар: маданият, компетенция, ўқувчи, театр, санъат, мусиқа, саҳна, ялла, адабиёт, фалсафа, тасвирий санъат, рақс.

ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ СПЕКТАКЛЕЙ КУКОЛЬНОГО ТЕАТРА В ФОРМИРОВАНИИ КУЛЬТУРНЫХ И ТВОРЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Хуршида Асқарова Аъзамжон қизи
Свободный соискатель
Ташкентского Государственного
педагогического университета имени Низами
E-mail:xurshidaaskarova408.com
Тел..: +998909260668

Аннотация: В данной статье анализируются такие мелодии, как “Уфор”, “Миёнхана”, “Чарха”, “Тургай чириллама”, созданные в нашей стране для кукольных игр с древнейших времен и до наших дней. Также упоминается роль кукольного театра в формировании культурных и творческих компетенций у учащихся начальных классов, а также его воспитательное значение.

Ключевые слова: культура, компетентность, учащийся, театр, искусство, музыка, сцена, ялла, литература, философия, изобразительное искусство, танец.

EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF PERFORMANCES PUPPET THEATER IN THE FORMATION OF COMPETENCIES OF CULTURE AND CREATIVITY IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Khurshida Askarova Azamjon kyzy
Free Applicant
Tashkent State Pedagogical University named after Nizami
E-mail: xurshidaaskarova408.com
Phone: +998909260668

Abstract: This article analyzes such melodies as “Ufor”, “Mienkhana”, “Charkha”, “Turgai chirilama”, created in our country for puppet games from ancient times to the present day. The role of the puppet theater in the formation of cultural and creative competencies among primary school students, as well as its educational significance, is also mentioned.

Keywords: culture, competence, reader, theater, art, music, stage, yalla, literature, philosophy, fine arts, dance.

Ўзбекистон Республикси Президентининг маданият ҳамда санъат соҳасини янада ривожлантириш, театр томошаларини ташкил қилиш, аҳоли, айниқса, олис ҳудудларда истиқомат қиладиган фуқароларга маданий дам олиш хизматлари кўрсатиш даражасини ошириш, республиканинг барча ҳудудларида театр, цирк томошалари, шунингдек, бошқа турдаги оммавий-маданий, концерт-томоша тадбирларини тизимли равишда йўлга қўйиш тўғрисида қарорига мувофиқ, бошланғич синф ўқувчиларида маданият ва ижодкорлик компетенцияларини шакллантиришда, барча санъат турлари

қатори қўғирчоқ театри томошаларига ўқувчи ёшлар қизиқишларини уйғотиб, уларни мазкур санъат турига жалб қилишимиз лозимдир [1].

Қўғирчоқ театри қадимги даврлардан мавжуд бўлиб, театр санъатини усиз тасаввур этиб бўлмайди. У том маънода актёр-қўғирчоқбозлар томонидан ҳаракатга келтириб кўрсатиладиган томошалардан бири ҳисобланиб, унинг дастлабки кўринишлари ибтидоий жамоа даврига бориб тақалади. Индонезияда XI-XII асрларда симлар билан бошқариладиган қўғирчоқ томошалари мавжуд бўлган. Ғарб мамлакатларида XIX асрнинг ўрталарида халқ "Қўғирчоқ театри" инқирозга юз тутди.

XX аср бошида Россиядаги қўғирчоқ театрлари давр талабларига жавоб бермай қолди. Бироқ, театр анъаналари тажрибаси янги шаклдаги қўғирчоқ театрининг яратилишида етакчилик қилди. 1924 йил Е.С.Деммени раҳбарлигидаги Ленинград қўғирчоқ театри ҳамда 1931 йилда С.В.Образцов бошчилигида "Марказий Қўғирчоқ театри" ташкил қилинди [2].

Ўзбекистонда ҳам қадимги даврлардан қўғирчоқ театрларининг "Чодир ҳаёл", "Чодир жамол", "Фонус ҳаёл" каби турлари фаолият кўрсатиб келган. Айникса, темурийлар даврида ҳикоя театри (киссахонлик, воизлик, маддохлик); кулгу театри (масхара, тақлид, зарофат); қўғирчоқ театри (чодир жамол, чодир ҳаёл, фонус ҳаёл) каби кўплаб томошалар ўтказилгани ҳусусидаги маълумотларни тарихий манбааларда учратишимиз мумкин.

Қўғирчоқбоз-созандалар эса, қўғирчоқ ўйинлар учун махсус "Уфор", "Миёнхона", "Чарх", "Тўрғай чириллама" каби бир қанча ажойиб куйлар яратганлар. Барчамизга маълумки, "Ўзбек халқ театри"да ёзма драматургия бўлмаса-да, театр санъаткорлари тарихни ҳамда ўз даврларидаги халқ ҳаётини, жамиятдаги айрим жамоалардаги муаммо ва икир-чикирларни яхши ўрганиб, амалдорларни, муллаларни, бойларни, миршабларни, заргарларни, шунингдек, муаллим ва савдогарларни, даллоллар нуқсонларини, ёмон ҳатти-ҳаракатларини, найрангбозлик, товламачиликларини фош қилишга ҳаракат қилар эдилар. Бу ўринда

санъатшунос Муҳсин Қодировнинг фикрлари эътиборлидир: “Осиё қўғирчоқ театри бу шунчаки эрмак эмас, балки бир қитъа халқларининг фалсафаси, дини, адабиёти, эпоси, мусиқа фольклори, тасвирий санъати билан чамбарчас боғлиқ бўлган муҳим тарихий-бадиий ҳодисадир [3].

Шунингдек, М.Рахмоновнинг “Ўзбек театри тарихи”, Т.Обидовнинг “Анъанавий ўзбек цирк санъати”, М.Қодировнинг “Ўзбек халқ томоша санъати” ва “Ўзбек қўғирчоқ театри” номли китобларида “Қўғирчоқ театр” томошалари ҳақида бир қатор маълумотлар берилган. А.Л.Троицкая “Из истории народного театра и цирка в Узбекистане” номли мақоласида Ғафуржон Тошматов, Исматқори, Иброҳим Тешабоев, Ака Бухор, айниқса, Юсуфжон қизиқ Шакаржоновлардан қизиқчилик театрининг тузилиши, репертуари, бошқариш ва молиявий фаолиятларини ёритиб берган [5].

Ўтган давр мобайнида 1939 йиллар Тошкентда “Республика қўғирчоқ театри”, 1968 йилларда эса, Андижонда “Лола” театри ўз иш фаолиятини бошлади. Ҳозирги кунда юртимизда ўндан ортиқ давлат тасарруфидаги ҳаваскор “Қўғирчоқ театр”лари фаолият юритиб келмоқда. Мазкур томошалар доимо қўшиқ ва рақслар хамоҳанглигида ўтказиб келинади.

1-расм. “Қўғирчоқ театри” саҳнасидаги созанда қўғирчоқлар.

Қўғирчоқ театри саҳнасида ҳар хил ҳайвон ва фантастик махлуқлар инсонлар тилидан бола тушуна оладиган қилиб сўзлаши, мурғак қалблар театр томошаларини “мўжизавий эртаклар мамлакати” деб аташга ундайди. Улар эртак қаҳрамони сўзларини ёдлаб қолади ва ўзининг ўйинчоқ-қўғирчоқлари билан биргаликда қайта саҳналаштиради. Шунинг учун ҳам бу театр саҳнасида тақдим этилаётган спектакллар ижодий жамоанинг ҳар бирида, вазифасига бўлган ёндашувда ўта жиддий муносабатни талаб этади. Константин Станиславский: “Болалар театрида ижро худди катталар учун ўйналаётган каби эмас, балки, унданда жиддийроқ бўлмоғи керак”, дея таъкидлаган [4].

Шунингдек, бастакор ёзган мусиқий безаклар билан қўшиқлар, спектакль қахрамони ва иштирокчиларни характерлайди ҳамда томошабинни ижтимоий фаолликка ундайди. Қўғирчоқ спектаклига ёзилган куйлар ёрдамида улар турли хил мусиқа чолғу овозларини эшитади ҳамда уларни фарқлашни ўрганади. Шунингдек, томоша давомида қўғирчоқлар қўлида мусиқа чолғуларни кўриш бошланғич синф ўқувчиларида маданият ва ижодкорлик компетенцияларининг шаклланишида ижобий натижа беради.

Болалар учун қўғирчоқ театри нафақат эстетик завқ манбаи, балки нутқни тез ривожлантириш ҳамда сўзнинг маъносига қараб баҳолаш, мантиқий фикрлаш, интеллектуал ижодий қобилият ва тасаввурни ривожлантиришга қаратилган ажойиб воситадир. Бошланғич синф ўқувчиларида маданият ва ижодкорлик компетенцияларини шакллантириш, шу билан бирга, миллий қадриятларни улар онгига сингдиришда “Қўғирчоқ театри” томошаларининг ҳиссаси каттадир. Ёшимиз қанча улғаймасин, қандай касбий фаолият олиб боришимиздан қатъий назар, қалбимиз, онгимиз ва шууримизда болалик аталмиш беғуборлик яшаб қолаверади. Инсоният жамияти бор экан, туғилиш давом этаркан, комил инсон ғояси учун эзгулик ва ёвузлик ўртасидаги кураш бор экан, бу санъат тури томошаларига эҳтиёж давомийдир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М. “Маданият ва санъат соҳасини янада ривожлантириш қўшимча чора тадбирлар тўғрисида”. –Тошкент., 2022 йил 2 февраль, ПҚ-112-сон.
2. Гаврилов М.Ф. Кукольный театр Узбекистана. Т., 1928.
3. Қодиров М. Халқ қўғирчоқ театри. Т., 1972. Узбекский традиционный театр кукол, Т., 1979.
4. Станиславский К.С. Статьи. Речи. Заметки. Дневники. Воспоминания (1877-1917). – Москва: Искусство.1958 г.
5. Рахманов М. Узбекский театр. – Ташкент: Фан, 1981.
6. Қодиров М. “Ўзбек қўғирчоқ театри”. Т., Ижод дунёси, 2003 й.
7. Образцов С.В. Актёр с куклой. – Москва: Искусство, 1938 й.

Влияние межкультурной коммуникации на библиотечную деятельность как открытой коммуникативной системы

Маданиятлараро муносабатларининг очиқ муносабатлари тизими сифатида кутубхона фаолиятига таъсири

The influence of intercultural communication on library activity as an open communication system

Цай И.К. преподаватель кафедры

“Кутубхонашунослик”

Государственного института

искусств и культуры

Узбекистана

Tsai I.K. lecturer of the department

“Kutubhonashunoslik”

State Institute

arts and culture

Uzbekistan

Аннотация: Межкультурный характер общения трактуется широко - как общая способность к восприятию любых иных смыслов, которые выходят за рамки непосредственного опыта индивида. Поэтому в последнее время именно исследования по проблемам межкультурной коммуникации привлекают внимание исследователей в различных сферах гуманитарных наук — социологов, лингвистов, психологов, культурологов, библиотековедов. В научной статье рассмотрено влияние межкультурной коммуникации деятельность библиотечно-информационных учреждений.

Аннотация: Маданиятлараро муносабатларнинг тушунчаси маъноси кенг куламли, яъни индивиднинг тўғридан-тўғри эга бщлган тажрибасидан келиб чиққан ҳолатда турли хил маъноларни идрок этиш учун умумий қобилиятдир. Шунинг учун, турли хил гуманитар фанлар соҳаларига мансуб бўлган мутахассислари: жамиятшунос, тилшунос, психолог, маданиятшунос, кутубхоначиларнинг диққатини жалб қилиб, айнан маданиятлараро муносабатлардаги муаммоларни ҳал қилишда илмий тадқиқотларни олиб борилишига сабаб бўлмоқда. Бу илмий мақолада: кутубхона ахборот муассасалрининг маданиятлараро муносабатларининг фаолиятига таъсири ҳақида илмий мақолада кўриб чиқилган.

Abstract: The intercultural nature of communication is interpreted broadly - as a general ability to perceive any other meanings that go beyond the immediate experience of the individual. Therefore, recently it is research on the problems of intercultural communication that has attracted the attention of researchers in various fields of the humanities — sociologists, linguists, psychologists, cultural scientists, librarians. The scientific article examines the influence of intercultural communication on the activities of library and information institutions.

Ключевые слова: культура, коммуникация, межкультурная коммуникация, межкультурный диалог, библиотеки, библиотечное сотрудничество.

Калит сўзлар: маданият, муносабат, маданиятлараро муносабатлар, маданиятлараро сўзлашув, кутубхоналар, кутубхоналар ҳамкорлиги.

Key words: culture, communication, intercultural communication, intercultural dialogue, libraries, library cooperation.

Развитие цивилизации происходит посредством диалога культур и предполагает обмен достижениями материальной и духовной культуры стран и народов в области производства, торговли, науки, искусства. И реализуется этот процесс в виде взаимодействия этносов в различных областях культуры. Межкультурная коммуникация, обозначает обмен между двумя и более культурами и продуктами их деятельности, осуществляемый в различных формах. Межкультурная коммуникация многоаспектна, она охватывает разные стороны данного процесса, не только лингвистические, но и социокультурные основы межкультурного общения. Межкультурная коммуникация имеет многосторонний характер, что определяет комплексность проблем изучения межкультурного общения с точки зрения культурологи, лингвистики, социологии, философии,

этнологии, прагматики, теории речевой коммуникации в том числе и библиотековедения[i].

Современное общество формирует социальные институты природа которых должна быть изначально общественной, иметь высокую степень социальной активности, самоотдачи и готовности к изменениям. Наше государство стремится к становлению и развитию такого общества, основой которого являются уважение прав и свобод личности, формирование структур гражданского общества, свободной рыночной экономики, независимых и влиятельных средств массовой информации[i].

Поэтому сейчас библиотечно-информационные учреждения нашей страны вовлечены в работу по реализации государственной культурной и национальной политики, развитию межэтнических отношений и гражданского единства нашего государства. Именно межкультурный диалог способствует политической, социальной, культурной и экономической интеграции и сплочению поликультурных обществ. Он имеет целью развитие более глубокого понимания различного мировоззрения и поведения, повышения уровня сотрудничества и вовлеченности (или свободу выбора), создание условий для развития личности, а также продвижение толерантности и уважения к другому человеку»[i].

Впервые основы межкультурной коммуникации как научной дисциплины были заложены зарубежными авторами стран Европы и Америки, где она получила широкое распространение. В разное время разработкой этого направления занимались такие исследователи как: М. Беннет, М. Мид, К. Клакхон, А. Крёбер, Ф. Стродбек, Э. Эриксон, К. Леви-Стросс, Р. Льюис, Х. Райман, Э. Холл, Г. Хофштеде, Э. Хирш, Р. Редфилд, Р. Линтон, М. Херсковиц, К. Оберг, Р. Уивер, К. Делхес, Ф. Хайгер, Г. Келли, М. Хьюстон, Д. Джаспере, К. Кнагш, К. Ситарам, Р. Когделл, Р. Кэрролл, М. Полани, С. Форд, У. Чейф и др..[i]

Непосредственное отношение к межкультурной коммуникации имеет фундаментальная для современных библиотек идея открытости и общедоступности информации. Практическое осуществление этой идеи опирается на всемирное развитие глобальной сети Интернет, которая во многих странах пропагандируется и становится доступной населению именно через библиотеки. С межкультурной коммуникацией на глобальном уровне связаны такие направления деятельности библиотек, как обеспечение интерактивных услуг, электронная доставка документов, создание информационных сайтов, электронных библиотек, без которых не обходится ни одна библиотека, претендующая на роль современной информационной структуры. Кроме того, развитие библиотек немыслимо без активного профессионального общения в рамках интернациональных межкультурных связей.

Мировое сообщество подразумевает общность социальных отношений, в том числе и на межнациональном уровне. Библиотечное сотрудничество в международном масштабе предполагает для библиотек нашей страны в первую очередь укрепление и развитие самих этих библиотек как инструмента международного культурного обмена и взаимодействия. В числе приоритетных направлений международного библиотечного сотрудничества наиболее эффективным является международный книгообмен, а также процесс пополнения фондов библиотек иностранной литературой, поступающей из-за рубежа по каналам гуманитарной книжной помощи. Например, Национальная библиотека им. А. Навои Республики Узбекистан, которая является основной движущей силой в разработке концепции, перспективных планов программ развития библиотечного дела страны, проводит большую работу по развитию международного сотрудничества. Национальная библиотека Узбекистана активно сотрудничает с посольствами и международными фондами и организациями, аккредитованными в Ташкенте. В партнерстве с ними, она проводит

презентации, книжно-иллюстративные выставки, открытые просмотры литературы. В результате фонды библиотеки пополняются новой литературой, переданной в дар.

Важную роль в развитии межкультурной коммуникации играют мероприятия, которые систематически проводятся Национальной библиотекой А. Навои Республики Узбекистан: международные конференции, симпозиумы, рабочие совещания и другие мероприятия для обмена опытом по важнейшим аспектам жизни библиотек[i].

Активную работу по развитию международных связей проводят и библиотеки высших учебных заведений Республики Узбекистан. Книги на иностранных языках незаменимы в образовательном процессе и в научных исследованиях. Например, фонд Информационно - ресурсного центра Ташкентского государственного юридического университета комплектуется за счет литературы, поступающей от местных издательств, других вузов, авторов книг, а также зарубежных партнеров, таких как Университет Глазго, Правовая школа при Бостонском колледже, Ногайский университет и Лондонская школа права. В целях создания условий для развития сферы юридической науки в ИРЦ организован доступ к таким электронным ресурсам мировых научно-образовательных БД, как EBSCO, Scopus, East View «Труд», электронным журналам «Трудовые споры», Polpred.com, JSTOR, ЮРАЙТ, book.ru, Proquest.com, Oxford Academic journals, Эталон-online (Беларусь). С 2019 г. ИРЦ является членом Международной ассоциации университетских библиотек (Дюссельдорф, Германия)[i]. 6

Другой Информационно-ресурсный центр при Университете мировой экономики и дипломатии (УМЭД) также формирует свой фонд за счет представительств Республики Узбекистан за рубежом, Посольств Великобритании, Германии, Индии, США, Франции, Южной Кореи, Японии. Основная часть фонда немецкой литературы была скомплектована

Посольством Германии, Международным книжным фондом, Фондом Конрада Аденауэра, профессорско-преподавательским составом

университета. Фонд английской литературы формировался также с помощью Посольств Великобритании и США, благотворительных фондов SABRE,

PERDCA, WORLD BANK. В 1995 г. в дар университету был передан архив Анны Шихи – видного ученого Великобритании, написавшей ряд книг, статей, эссе по истории, этнографии, культуре народов Центральной Азии. Имеется в фонде уникальная энциклопедия «Британика».

Совместные культурно-просветительные мероприятия проводимые этой библиотекой направлены на преодоление существующих стереотипов в представлениях о культуре и образе жизни разных народов. Это в первую очередь выставки с публикацией каталогов, сопутствующими конференциями и книгораспространением, культурологические форумы, встречи, вечера, праздники чтения, а также участие российских библиотек в международных библиотечных и общекультурных проектах и в международных книжных выставках.

Таким образом, библиотеки выработали свои подходы, которые выразились в межнациональном взаимодействии и межкультурной коммуникации. Основная цель деятельности библиотек заключается в создании условий для развития межкультурных и межэтнических отношений у пользователей на основе ценностей многонационального общества нашего государства, соблюдения прав и свобод человека, поддержание межнационального мира и согласия в регионе.

Список литературы:

1. Сатарова Л. Х. Межкультурные коммуникации в современной библиотечно-информационной среде / автореферат дис-ции. – Казань, 2015

2. Гениева Е.Ю. Библиотека как центр межкультурной коммуникации / Монография.-М.: «Российская политическая энциклопедия» (РОССПЭН), 2008. – 208 с.
3. Чаднова И.В. Межкультурный диалог в библиотеках/ Библиотековедение.- 2017.- Т. 66.- №6.- с.636-642
4. Гениева Ю.Е. Библиотека как центр межкультурной коммуникации/ автореферат дис-ции на соискание ученой степени док. Пед. Наук.- М., 2006.- с.4-5
5. Цай И.К. Международное сотрудничество библиотечно-информационных учреждений Республики Узбекистан
6. Пирмедова Х. М. Центр юридической базы в Центральной Азии // Электронные библиотеки. 2020. Т. 23, № 5. С. 970–976

ЗНАЧЕНИЕ МУЗЫКИ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ В ВУЗЕ

Васильченко Ольга Анатольевна

канд. пед. наук, доцент каферды «Вокал» ГИИКУз

Аннотация: В данной статье освещена роль музыки её возможности воздействовать на формировании мировоззрения личности, ее нравственных качеств, гражданских чувств и идеалов в гармоничном воспитании студентов, будущих педагогов. Раскрывается значение преподавателя и творческие способности студентов.

Ключевые слова: *музыка, музыкальное искусство, творческие способности, профессионализм*

Современные пути модернизации профессионального образования определены в задачах, поставленных в Указе Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева о мерах по реализации государственной политики в области образования и науки. Особое внимание было, уделено разработке комплекса мер, направленных на выявление и поддержку одаренных детей и молодежи, как важной государственной задаче. Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев подчеркивает важность этой проблемы «Мы должны воспитать молодежь достойной наших великих предков образованными и просвещенными личностями».[1] Из этого следует что необходимо коренным образом внести изменения во всех областях, в том числе – образовательной.

Среди сфер обучения особое место в нашей республике отводится сфере искусств и культуры. Одной из приоритетных задач государства стало возрождение и сохранение духовных ценностей поколений, бережное отношение к истории культуры, в том числе - музыкальной.

Президент Ш.Мирзиеев в своих выступлениях неоднократно упоминал о музыкальной культуре Узбекистана: «В наши дни идет активная полемика о генеративной музыке, искусственном интеллекте, и вам это, конечно, хорошо известно. Выдвигаются предположения, что в будущем музыка будет создаваться без участия человека, только техникой. Но все мы понимаем, что никакое, даже самое совершенное, техническое средство не сможет заменить дыхание человека, его душевное волнение, красоту живого голоса, одним словом, настоящее искусство». [2]

«Музыка как феномен искусства имеет огромные возможности для гармоничного воспитания подрастающего поколения. Молодежь, приобщенная к искусству, начинает по-другому относиться к жизни, почитает национальные и общечеловеческие ценности. И я уверен – такая

молодежь, которая высоко ценит принципы гуманизма и толерантности, способна защитить мир от духовного кризиса. В этом смысле можно сказать, что музыка обладает ни с чем не соизмеримой силой воздействия» – отметил глава государства в своем докладе.

Музыкальное искусство должно являться стержневым компонентом современного образовательного процесса, так как именно музыка наиболее эффективно влияет на формирование целостной, всесторонне и гармонично развитой личности человека, становление его культуры, потребностей, интересов, способностей, мотиваций, необходимых для дальнейшего успешного обучения, развития, социализации. Специально подобранный, адаптированный музыкально-художественный материал способен обогатить содержание любого вида учебно-воспитательной деятельности в образовательном учреждении, обеспечить развитие интеллектуальной, физической, художественно-творческой, трудовой, психо - эмоциональной, социально-коммуникативной активности молодежи.

Музыка, как писал А. Б. Алиев : «…влияет на отношение к миру, на все сознание, нет другого искусства, которое бы так властно вторгалось в наш эмоциональный мир, подчиняя его себе».[3]

Как содержание, средство и метод воспитания музыка обладает возможностью воздействовать на личность человека через его чувства, эмоции и переживание. «Музыка, – пишет Е.И. Левит, – занимает особое место в ряду искусств, выступающих средством эстетического развития человека. Музыкальное искусство развивает эстетическое мироощущение, потребность в прекрасном, способность к художественному мышлению и тонким эмоциональным отношениям, стимулирует художественную самодеятельность учащихся».[4]

Современное высшее музыкально-педагогическое образование также находится в процессе поиска новых ориентиров, более эффективных приемов постоянного преобразования, моделирования и внедрения теоретических и практических новаций в деятельность будущих педагогов.

И сегодня главной задачей является подготовка педагогических кадров, с высоким уровнем профессионализма, и более востребованными становятся творческие параметры профессиональной деятельности студентов, что в свою очередь предполагает создание условий для самореализации, развития творческой индивидуальности.

"Педагогическая профессия - одна из самых массовых, и это уже показывает, что повышение творческой отдачи учителей будет во многом способствовать росту творческого потенциала страны в целом. Но легко понять и такую зависимость: только творческий учитель воспитывает творческого человека"[5, с.3].

Уровень развития творческого мышления, воображения, творческой активности и самостоятельности, творческих способностей у будущего специалиста определяет общий уровень его профессиональной подготовки. Созрела необходимость такой организации учебного процесса, которая учитывала бы потребность личности в обретении себя, своей неповторимой индивидуальности, духовности, творческого потенциала.

Педагоги кафедры «Вокал» постоянно в своей работе направляют внимание студентов на особенности средств музыкальной выразительности конкретного изучаемого произведения, поощряют правильные реакции на музыку. Применяемые методы убеждения способствует развитию добрых чувств, хорошего вкуса, правильного понимания исполняемых музыкальных произведений. Развивают творческие качества – без творчества не мыслима ни одна из сфер деятельности человека, в том числе и соприкосновение с музыкальным искусством, будь то восприятие музыкальных произведений, игра на инструменте или пение. И в этом плане актуально обращение к музыкальному творчеству, которое обусловлено следующими факторами:

- поиск новых методов обучения, максимально способствующих развитию личности;

- актуальность воспитания музыкального творчества, которое способствует развития духовного потенциала.

Искусство играет огромнейшую роль в формировании мировоззрения личности, ее нравственных качеств, гражданских чувств, ее идеалов. Поэтому формируя идейно-эстетические взгляды, убеждения, художественно-музыкальные вкусы студентов, педагогу необходимо вооружить молодежь умением видеть прекрасное в искусстве.

Творчество, творческая деятельность – деятельность, порождающая нечто качественно новое и отличающееся неповторимостью, оригинальностью и общественной уникальностью. В современных условиях творческая личность становится востребованной, обществом на всех ступенях ее развития, так как именно творчески мыслящий человек способен незамедлительно реагировать на происходящие изменения, ставить и реализовывать цели, конструктивно взаимодействовать с другими людьми, видеть проблемы и находить способы их решения.

Творческие способности – это индивидуальное свойство психологической функциональной системы, определяющее эффективность её творческого процесса. Структура творческих способностей – видение проблем, готовность памяти, перенос знаний в новые ситуации, легкость ассоциирования и воображение, гибкость, диалектичность и оригинальность мышления, прогнозирование, критичность мышления.

В психологической науке отмечается важность формирования творческих способностей для достижения профессионализма в любой области деятельности (Е.А. Климов). Особенно это характерно для педагогической деятельности. Из объективной необходимости творчества в профессии педагога появилось понятие педагогического творчества, с определённой сущностью и спецификой по отношению к другим видам творчества. Анализируя психолого-педагогическиие труды В.И. Андреева, Ф.И.Гоноболина, В.А.Крутецкого, Н.Д.Левитова, М.Н.Скаткина, В.А.Сластёнина, и другие, можно отметить что творчество является одним из критериев профессионализма педагога (А. К. Маркова). Таким образом,

формирование творческих способностей является необходимым условием качественной профессиональной подготовки будущего учителя.

И сегодня цель ВУЗа – это совершенствование процесса развития творческих способностей студентов. В современных условиях творческая личность становится востребованной обществом на всех ступенях ее развития, так как именно творчески мыслящий человек способен незамедлительно реагировать на происходящие изменения, ставить и реализовывать цели, конструктивно взаимодействовать с другими людьми, видеть проблемы и находить способы их решения.

Литература

1. https://www.uzbekistonmet.uz/ru/lists/view/1198
2. Узбекистан Республикаси Вазирлар Махкамаси хузуридаги «Эл-юрт умиди» жамгармаси таълим дастурлари оркали олий таълим тазими педагог-кадрларини хорижда тайёрлаш борасидаги 2019 йилги биринчи стипендия танлови натижалари // Фонд «Эл-юрт умиди» при Кабинете министровРеспубликиУзбекистан.URL:
3. Алиев, Ю. Б. Музыка среди нас (Не бесспорные рассуждения родителя – педагога) / Ю. Б. Алиев // Проблемы современного образования. – 2010. - № 4. – С. 74–84.
4. Левит, Е. И. Формирование эстетической культуры у детей младшего школьного возраста в музыкальном дополнительном образовании: канд. пед. наук: 13.00.01 / Левит Елена Ильинична. – Н. Новгород, 2003. – 194 с.
5. Кормен Т., Лейзерсон Ч., Ривест Р. Алгоритмы: Построение и анализ. -М.: МЦНМО, 2001. 960 с.
6. Фоминых И.А. Педагогические условия развития творческих способностей студентов педагогического вуза М.2004.

7. Абдуллина О.А. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования: Для пед. Спец. Высш. Учеб. Заведений. -М.: Просвещение, 1990. 141 с. .
8. Андриади И.П. Основы педагогического мастерства: Учеб. пособие для студ. сред. пед. учеб заведений. М.: Издательский центр «Академия», 1999.-160 с.
9. Архангельский С.И. Учебный процесс в высшей школе, его закономерные основы и методы. М.: Высш. школа, 1980. - 368 с.
10. Нуржанова Т. Развитие творчества будущих специалистов в условиях
11. Меерович М.И., Шрагина Л.И. Технология творческого мышления: Практическое пособие. Мн.: Харвест, М.: АСТ, 2000. - 432 с.

Zumriniso KOZIMOVA,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail:kzumriniso6263@gmail.com
tel: *90 911 62 63*

Alisher Navoiy asarlarida qo‘g‘irchoqbozlik san’atiga oid terminlarning qo‘llanilishi

Annotatsiya

Qadimgi o‘zbek teatrining ko‘ngilochar turlaridan biri qo‘g‘irchoqbozlik teatri hisoblangan. Bu teatrning ham bir necha ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, unda ham o‘iga xos terminlar ishlatilgan. Mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlarida qo‘g‘irchoqbozlik san’ati terminlarining qo‘llanilishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: termin, qo‘g‘irchoq, lu’bat, tomosha, teatr, san’at, lug‘at.

Аннотация

Одним из видов развлечений древнего узбекского театра считался кукольный театр. Существует также несколько представлений этого театра, в которых также используются термины, специфичные для дома. В данной статье рассказывается о применении терминов кукольного искусства в произведениях Алишера Навои.

Ключевые слова: термин, кукла, увлечение, спектакль, театр, искусство, лексика.

Annotation

One of the types of entertainment of the ancient Uzbek theater was considered a puppet theater. There are also several performances of this theater, which also use terms specific to the house. This article describes the application of the terms of puppet art in the works of Alisher Navoi.

Key words: term, doll, hobby, performance, theater, art, vocabulary.

Xalqimizning boy, rang-barang, sertarmoq ijodiyoti mahsuli bo‘lgan tomosha san’ati uzoq tarixga, o‘z an’analari va xususiyatlariga egadir. Tarixiy va adabiy manbalarda XIV–XV asrlardayoq O‘rta Osiyoda aktyorlar, raqqoslar, sozanda, xonanda hamda qo‘g‘irchoqbozlar, nayrangbozlar san’atining keng rivoj topganligi haqidagi bir talay ma’lumotlarni uchratishimiz mumkin. Ya’ni o‘sha davrda nayrangboz, masxara, muqallid, muallaq, ho‘qqaboz, mo‘shabid, zarofat, zarif, ahsh nag‘ma, bozigar, qovurchoq o‘yin, lu’batboz kabi so‘zlar xalq tomasha san’atining turlarini ko‘rsatuvchi terminlar sifatida iste’molda bo‘lgan. Xususan, “Temur tuzuklari”da ham “o‘n birinchi toifa, har toifa hunarmandlardan o‘z davlatxonamga keltirib, ularga o‘rdada o‘rin berdim, ular safar va tayyorgarliklarda lashkar hojatlarini hozir va muhayyo qildilar” [1, 77-b] deyilganda turli san’at egalari ham nazarda tutilgan.

Ayniqsa, XV asrda xalq tomosha san’atida qo‘llanilgan terminlarning deyarli barchasini Alisher Navoiy asarlarida uchratamiz. Navoiy asarlari nafaqat

badiiy, balki lisoniy, ma'naviy-madaniy boyligimiz sifatida ham qadrlidir. Xususan, "Majolis un-nafois" asarida keltirilgan 459 ta she'riyat bilan shug'ullanuvchi iste'dod egalari orasida voiz, zarif, xonanda, sozanda, raqqos, masxara va hazzollar ham bo'lgan. Jumladan: mavlono Burunduqni "Nadimvash va hazzol kishi ermish" [2, 19-b], mavlono Bilol va mavlono Muqliliyni "nadim sheva va shiringo'y kishi erdi" [2, 61, 74-b], mavlono Muzhirni esa "nadimsheva va hazzoltab' kishi uchun hazlomuz ash'ori va qit'alari ko'pdur va mashhurdir" [2, 70] deb ta'riflaydi. Shuningdek, mavlono Pomiy ta'rifida "…Shayx Abdullo Devona va xojai Dehdorki, hazrati podshoh majlisida nadimlik yuzidin ko'p elni taqlid va tashbih qilur mustahsan tushar. Mavlononing takallumida bir hol borkim, ani anga tashbih qilibtur, sobun chaynaydur va og'zidin mag'zoba zohir bo'ladurva takallumni ham taqlid qilurda ikkalasin ahli idrok ko'p tahsin qilurlar" [2, 122-b] deb keltiriladi.

Navoiy asarlarida maydon tomoshalari, hikoya uslubidagi tomoshalar, dorbozlik tomoshalari, kulgili tomoshalar bilan birgalikda qo'g'irchoq o'yini tomoshalari uchun xos bo'lgan terminlarni ham uchratamiz. Arusak, lu'bat, lu'batboz, qovurchoqchi, fonus xayol, chodar kabilar shular jumlasidandir. Bu terminlar Navoiyning bir yoki ikkita asarida emas, balki o'ndan ortiq asarlarida keladi. Misol uchun, birgina "lu'bat" terminining o'zini "Xazoyin ul-maoniy", "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Sab'ai sayyor", "Lison ut-tayr" asarlarida qo'llanilganligini ko'ramiz.

Navoiy "Layli va Majnun" asarida **arusak** so'zini qo'llaydi. X.K. Baranovning "Арабско-русский словарь"ida "arus"ning kelin va qo'g'irchoq ma'nolari beriladi, ammo ushbu lug'atda arusak so'zi yo'q. "Farhangi zaboni tojiki"da **arus**ni arabcha kelin, **arusak**ni esa o'yinchoq, qo'g'irchoq deb izohlanadi. Bu esa arusakni forscha so'z degan taxminga borishga asos bo'adi. Alisher Navoiy asarlari tilining 4 tomlik izohli lug'atida ham arusak – o'yinchoq, qo'g'irchoq deyilgan [3, I, 117-b]:

Qish mehrini chun itikrak etting,
Qorning sadafin arusak etting. [4, 4-b]

Bozicha (forscha = bozi – aldov, firib, hiyla) – o‘yinchoq, qo‘g‘irchoq [3, I, 306-b]:

Aql pirikim malak xayliga erdi muqtado,

Ul pari ishqi aro bozichai atfoldur. [5,122-b]

Navoiy bozigar terminini ham o‘z asarlarida keltiradi. Ammo bu termin qo‘g‘irchoqboz emas, dorboz tomosha san’ati turiga mansub bo‘lgan ko‘zboylag‘ich, fokuschilarni anglatgan.

Lu’bat (arabcha, lu’b+at = a+a) – 1.o‘yinchoq, qo‘g‘irchoq [3, II, 170-b]:

To‘qqizinchi borgoh andoqki, lu’bat chodari,

O‘ynatib charxi muloib anda yuz ming lu’batin [5, 489-b].

2.o‘yin, o‘ynash, xursandchilik qilish; hiyla, nayrang:

Shayx pandidin ne osig‘kim qilur lu’batni man’,

Menki, jonimni olur sho‘xi lu’bat hasrati [5, 457-b].

Lu’bati chin chehra nihon ayladi,

Zulfin ochib mushk fishon ayladi.

Ko‘k bu **musha’bid**ning o‘lub chodari.

Axtar o‘lub **lu’bati** siminbari [6, 5-b].

Lu’bat so‘zining asosi lu’b bo‘lib – 1. o‘yin, tasalli, ko‘ngil ochish, raqs:

Chun qarig‘an chog‘da men lu’batqa bo‘ldum shifta,

Vah ne tong atfol lu’bining boshimg‘a mehnati. [5, 468-b]

2. hiyla, nayrang:

Kim fusunu la’b birla tutti yer,

Shohi jo‘ki ohi jo‘ki qasrida [5, 389-b].

O‘yinchilik; = san’at – o‘yinchilik hunari (raqqos) ma’nosini bildiruvchi **lu’biy** ham “lu’b”dan yasalgan:

Kim chu shah bayram nashoti qilg‘ali tuzganda jashn,

Har o‘yunchi zohir etkan chog‘da lu’biy san’atin [5, 489-b].

Lu’batboz – qo‘g‘irchoq o‘ynovchi; nayrangboz, hiylagar ma’nosini bildiradi. Bu yerda lu’b+at+boz ko‘rinishida affiksatsiya usuli, ya’ni arabcha “lu’b”ga, arabcha “at” hamda forscha “boz” qo‘shimchasini bilan so‘z yasalgan.

Bir shabistonda jilva aylab soz,

Falak ul la'blarg'a lu'batboz.

Lu'bati mahvashi sumanbar ham.

Shomdin zulfi mushku anbar ham [7, 419-b].

Ma'lumki, bugungi kunda forscha va arabcha bo'lgan arusak, bozicha, lu'bat kabi so'zlar iste'moldan batamom chiqib ketgan. Qo'g'irchoq esa asli turkiy so'z bo'lganligi uchun ham saqlanib qolgan bo'lsa, ajab emas. Bu so'z bizdan boshqa turkiy xalqlarda ham qo'llanib kelinmoqda. Masalan, turkmanlarda "gurjak", qozoqlarda "қуыршақ", qirg'izlarda "куурчак", tatarlarda "курчак" kabi.

Qovurchoqchi (qovur+choq+chi = t+t+t) – chodirda qo'g'irchoq o'ynatuvchi, qo'g'irchoqboz [3, IV, 59-b]:

Balki qovurchoqchi kibi hiylagar,

Ko'rguzibon chodiridin ming suvar. [6, 162-b].

Navoiy ishlatgan "qovurchoq" so'zi Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida shu kunlarda ham ishlatiladi. Adabiy tilga "qo'g'irchoq" shakli kirgan. Aslida "qovur" hamda "qo'g'ur" (qo'g'ur ham qovurmoq) so'zlari bir xil ma'no anglatadi. Shevalarda "qurchoq" so'zi ham iste'molda.

Ayniqsa, Navoiy tomonidan qo'g'irchoq o'yinining ustasi qo'g'irchoqbozning "qovurchoqchi" deb berilishi e'tiborlidir. Nazarirnizda, qovurchoq-qovurchoqchi juda ko'hna o'zbekcha so'z bo'lib, qo'g'irchoq o'ynatish san'atining mustaqilligi va qadimiyligiga ishora qiladi. [8, 23-b].

Undan tashqari, Navoiy asarlarida chodar so'zi ham keladiki, bu qo'g'irchoqbozlik o'yinininig chodir ortida amalga oshirilganligini hamda o'sha davrdagi qo'g'irchoqbozlik tomoshasi – chodir xayol mavjud bo'lganligini bildiradi.

Chodar (forscha) – chodir, o'tov:

Mixu sutunsiz tikibon **chodarin,**

Davri etib **chodar**ining paykarin.

“Hayrat ul-abror” dostonining to’rtinchi maqolotidagi quyidagi baytda fonus xayol atamasi keladi. Ammo bu so‘zning sharhini Alisher Navoiy asarlari tilining 4-tomlik izohli lug‘atida uchratmaymiz.

Harza hayolot ila hol aylabon,

Davrni **fonus xayol** aylabon [6, 59-б].

Bu yerda qo‘g‘irchoq teatrining bizgacha yetib kelmagan, biroq XIV – XVI asrlarda yaxshi tanilgan turi haqida ma’lumot beriladi. Bu tur – fonus xayol, ya’ni fonus yorug‘ida charm yoki taxtadan ishlangan qo‘g‘irchoq suratlarini o‘ynatuvchi tomosha, soya teatridir. U xususan XV asrda takomillashgan va yaxshi tanilgan deb o‘ylaymiz. Aks holda unga Navoiyning nazari tushmagan va u maxsus atamaga ega bo‘lmagan bo‘lur edi. Ammo fonus xayol xalq ommasi orasida chodir xayolchalik shuhrat topmagan, bora-bora umuman e’tibordan tushib qolgan [8, 24-b].

Endi Navoiy “qo‘g‘irchoqchi” va “lu’batboz” terminlarini nima maqsadda qo‘llaganligiga ham e’tiborimizni qarataylik. Buyuk mutafakkir asarlarida ayrim san’at egalari kabi (“Mahbub ul-qulub”da mug‘anniy va cholg‘uchilar, voizlar, qissaxonlar ta’rifi keltiriladi) qovurchoqchi, lu’batbozlarga maxsus ta’rif bermaydi. Ammo bu so‘zlardan ustalik bilan foydalanib, ajoyib o‘xshatishlar yaratadi. Chunonchi, shoir “Hayrat ul-abror” dostonining o‘n to‘rtinchi maqolotida “aflok hay’ati shikoyatida” va “jahon lu’bati kinoyatida” fikr yuritar ekan, charxni avval nayrangbozga, so‘ng “qovurchoqchi”ga o‘xshatadi:

Balki **govurchoqchi** kabi hiylagar,

Ko‘rguzubon chodaridin ming suvar.

Mixu sutunsiz tikibon chodarin,

Davri etib chodarining paykarin,

Anda bo‘lub jilvagari anjuman,

Har sori yuz **lu’bati** siymin badan.

Munchaki **lu’bat** chiqorib siymgun,

Qasdi bori elga firebu fusun [6, 162-b]

Bunda Navoiy demoqchiki, qo‘g‘irchoqboz kabi bu hiylagar osmon o‘z nayrangbozlik chodiridan ming xil suratlar ko‘rsatadi, chodirini mixsiz, ustunsiz tikadi, shaklini davra qilib yasaydi. Unda yulduzlar jilva sochib, har tarafda yuzlab kumushbadani bilan o‘yinlar namoyish etadi. Muncha kumush rang qo‘g‘irchoq chiqarib o‘ynatish – tamom el uchun firib-u nayrangdir. Navoiyning naqadar yuksak mahorat bilan falakni qovurchoqchiga, osmon gumbazini qo‘g‘irchoqboz chodiriga, yulduzlarni qo‘g‘irchoqlarga qiyos qilib ta’riflashiga va kechasi ko‘rinib, kunduzi g‘oyib bo‘ladigan yulduz – qo‘g‘irchoqlarni o‘ynatuvchi charx ishini sehrgar tomoshasiga o‘xshatishiga qoyil qolmay iloj yo‘q.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Navoiy zamonida qo‘g‘irchoq o‘yin taraqqiy topgan, yaxshi tanilgan, keng yoyilgan. Navoiy qo‘g‘irchoqni – qovurchoq, arusak, bozicha, lu’bat; qo‘g‘irchoqbozni – qovurchoqchi, lu’batboz deb qo‘llagan bo‘lsa, qo‘g‘irchoqbozlik san’ati turlaridan – fonus xayol va chodir xayolni keltirib o‘tadi.

Keltirilgan dalillardan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek teatr terminologiyasining XIV – XV asrlardagi (o‘sha davrda tomosha san’ati ko‘rinishida bo‘lgan) holatini xronologik o‘rganishda Alisher Navoiy asarlari muhim manba bo‘lib xizmat qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Temur A. Temur tuzuklari. Toshkent: Ijod-press, 2019.

2. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami.: T.13. Majolis un-nafois. – Toshkent: Fan , 1997.

3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 4 tomlik. – Toshkent: Fan, 1983. I, II tom.

4. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami.: T.9. Layli va Majnun. – Toshkent: Fan, 1992.

5. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami.: T.5. Badoye’ ul-vasat. – Toshkent: Fan, 1990.

6. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami.: T.7. Hayrat ul-abror. – Toshkent: Fan, 1991.

7. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami.: T.10. Sab’ai sayyor. – Toshkent: Fan, 1992.

Qodirov M., Qodirova S. Qo‘g‘rchoq teatr tarixi. – Toshkent:

G‘anijon Xudoyev,

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

“Musiqiy-nazariy fanlar” kafedrasi mudiri,

san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

MOZIYGA BIR NAZAR

(G‘ijduvon xalq teatri haqida mulohazalar)

AnnotatsiY. *Mazkur maqolada Buxoro viloyatining G‘ijduvon tumanida ijodiy faoliyatini olib borgan G‘ijduvon xalq teatrining uzoq o‘tmishiga bir nazar tashlandi. Bunda teatr repertuaridan o‘rin olgan o‘nlab asarlar va bu yerda o‘zining ilk faoliyatini boshlagan iste’dodli aktyorlar haqida muxtasar yoritildi.*

Kalit so‘z: *Teatr, sahna, musiqa, kompozitor, truppa, repertuar, konsert.*

Аннотация*. В данной статье рассматривается творческая деятельность Гиждуванского народного театра, существовавшего в далеком прошлом в Гиждуванском районе Бухарской области. Освящается репертуар театра, который включал в себя десятки спектаклей и деятельность актёров, начавшие здесь свою карьеру.*

Ключевое слово: *театр, сцена, музыка, композитор, труппа, репертуар, концерт.*

Annotation. *This article examines the creative activity of the Gijduvan Folk Theater, which existed in the distant past in the Gijduvan district of Bukhara region. The repertoire of the theater is being consecrated, which included dozens of performances and the activities of actors who began their careers here.*

Keyword: *theater, stage, music, composer, troupe, repertoire, concert.*

Ayni kunlarda san'at va madaniyat sohasida tubdan islohotlar amalga oshirilmoqda. Buni mamlakatimiz Prezidentining 2021-yil 9-dekabrdagi "Madaniyat va san'atni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-68-sonli hamda 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-sonli Qarorlarining bevosita amaliy ijrosini ta'minlanishida ko'rish mumkin. Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilayotgan maqsad va vazifalar uzoq hududlarga qay darajada yetib borayapti, bu hali ilmiy va amaliy o'rganilishi kerak bo'lgan ulkan vazifalardan deb hisoblayman.

Buxoroning ko'hna G'ijduvon tumani o'z vaqtida ulkan madaniyat va san'at markazi hisoblangan.

XX asrning birinchi choragida Buxoro amirligi tugatilgach davlat, yer va suv oddiy xalq qo'liga o'tadi. Buxoro saroyida maskan topib rivojlangan mumtoz maqom san'ati asta sekin xalq musiqa merosi, folklor musiqaga aylanib oddiy xalqning turli to'y va marosimlariga ko'chadi. Ayni shu davrlarga kelib, butun Turkiston bo'ylab o'zbek mumtoz musiqasi bilan Yevropa musiqasi uyg'unlikda sahna va teatr tomosholari jadal kirib kela boshlaydi. Jumladan, qadim Buxoroning ko'hna zamini G'ijduvon tumanida ham madaniyat va san'atning o'ziga xos zamonaviy janrlari teatr san'ati ravnaq topib rivojlana boshlaydi. G'ijduvonda dastlab 1926 yilda kichik bir teatr truppasi tashkil etiladi. Uni tuzishda bevosita bastakor va kompozitor, shoir, dramaturg, san'atkor Hamza Hakimzoda Niyoziy ishtirok etganligi haqidagi ma'lumotlar mavjud. Ilk bor

mazkur truppa tarkibida Boboqul Fayzullayev, Ma'rufjon Toshpo'latov, Ansor Otayev, Said Ahmedov, Berta Mulloqandova, Naziraxon aya Inog'omova, Nazokat Ne'matova singari xalq ichidan chiqqan talantli ijrochilar o'zining ilk ijodiy faoliyatini boshlashadi. Teatrning ana shu birinchi qaldirg'ochlariga turli maskanlardan kelgan tajribali san'at ustalari sahnada obraz yaratish sirlarini o'rgatadilar va murabbiylik qiladilar.

1933-yilga kelib hukumat qarori bilan G'ijduvon "Sayyor truppasi"ga Davlat teatri nomi beriladi. O'sha yili teatr tarkibi va repertuarini boyitish, unga ko'plab xalq talantlarini jalb etish va ularni tarbiyalashda atoqli rejissyorlar Yetim Bobojonov, Mannon Uyg'ur va ba'zi ma'lumotlarda Abror Hidoyatovlar ish olib borganliklari yoshi ulug' ustoz san'atkorlar tomonidan talqin etiladi[i]. Shu davrda G'ijduvon teatri sahnasida Razzoqjon Umarov, Xoljon Umarova, Usta Shodi Azizov, Asli Burxonov, Xosiyat Qobulova, Nusrat Naimov, Rahmon Oripov, Nor Sharipov (teatr direktori), Raya Sharipova, Nazira Inog'omova, Ravshan Orziyev, Shamsiddin Rajabov, Abdullajon Oxunov, Barnoxon Murodova, Sa'dulla Boltayev, Hamro Safarov, Ansor Otayev, Hakim Qayumov, Maxsum Maqsudov, Rahmatjon Naimov, Yodgor A'zamov, Shodi Avezov singari xalq talantlari samarali xizmat qilishgan.

Ularning bevosita mehnatlari samarasi o'laroq bir qancha durdona asarlar sahna yuzini ko'rdi. Jumladan, 1933-1937 yillar davomida G'ijduvon davlat teatrida Yetim Bobojonov, Olimov va Rahmatjon Naimovlar rejissyorligida "O'rtoqlar", "Yoriltosh", "Halima", "Ichkarida, ("Gulsara"), "Malikai Turandot", "Farhod va Shirin", "Hujum", "Arshin mololon", "G'olibiyat", "Alpomish" asarlari sahnalashtirildi. Ana shu asarlarda Razzoqjon Umarov, Nusrat Naimov, Nazira Inog'omova, Xosiyat Qobulova, Sa'dulla Boltayev, Hamro Safarov, Ravshan Orziyev, Raya Sharipovalar yetakchi, bosh rollarni mahorat bilan o'ynaganlar.

1939-1940-yillarga kelib G'ijduvon davlat teatri barcha teatrlar singari "G'ijduvon kolxoz-sovxoz teatri"ga aylantiriladi. Teatr jamoasining shu yillarda

mehnatlari ancha samarali bo‘ldi. Saidhoshim Saidahmedov va Rahmatjon Naimovlar rejissyorligida “Davron ota”, “Nomus”, “Tohir va Zuhra”, “Xolisxon”, “Paranji sirlari”, “Maysaraning ishi”, “Boy ila xizmatchi”, “Rustam” kabi dramatik va boshqa janrdagi asarlarni sahnaga olib chiqishadi. Bu dramatik asarlarda Narzixon Hamroyeva, Naziraxon Saidova, Safar Mirzayev, Berta Mulloqandova, Solijon Farmonov, Fotima Jalilova, Ahadjon Ahmedov, Maxsum Maqsudov, Saodat Sharipova, Ansor Otayev, Yodgor A’zamov kabi iqtidorli aktyorlar asarlardagi bosh qahramonlar siymosini gavdalantirishdi. G‘ijduvon kolxoz-sovxoz teatri qator sahna asarlarini xalqqa taqdim etish bilan birga konsert brigadasi bilan Kattaqo‘rg‘on suv ombori va Quyimozor kanallari qurilishida boy repertuarlarda konsert faoliyatlarini tashkil etishib, qurilishlarda ishlayotgan hasharchilarga o‘zgacha zavq shavq bag‘shida etishdi. Bu davrda samarali mehnatlari uchun respublika hukumatining olqishiga sazovor bo‘lishdi. Mazkur konsert brigadasida xalq olqishini qozongan Shodi Azizov, Boboqul Fayzullayev, Muhammadjon Nusratov, Rahmon Oripov, Muhammad Qahhorov, Bozor Azizov, Ahmadjon Boboqulov, Muhammad Shodiyev, Sulaymon Shodiyevlar o‘z ijrochilik mahoratlarini namoyish etadilar.

1950-60-yillar kelib G‘ijduvon kolxoz-sovxoz teatri sahnasida “Shohi so‘zana”, “Dalada bayram”, “CHo‘pon qizi”, “Og‘riq tishlar”, “Nurxon”, “Boy ila xizmatchi” kabi asarlar zo‘r mahorat bilan qo‘yiladi. Bu asarlarda bosh va yetakchi rollarni Hakim Qayumov, Yodgor A’zamov, Xosiyat Jo‘rayeva, Saida Kamolova, Qurbon Husainov, Nusrat Hojiyev, Bobomurod Shokirov, Mastura Komilova, Karim Tursunov, Sayyora Orziyeva, Shodi Ro‘ziyev, Tohir Avezov, Yangihayot To‘xtayev, Muhammad Shodiyev, Ansor Otayev, Sangin Kamolov, Asad Rajabov, Berta Mulloqandova kabi aktyorlar zo‘r mahorat bilan o‘ynaydilar. Shu yillarda teatr jamoasi o‘z chiqishlarini, nafaqat Buxoro viloyati hududida, balki, qo‘shni viloyatlarda Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm, Samarqand viloyatlarida va qo‘shni davlatlardan Tojikiston va Turkmaniston respublikalarining turli hududlarida ham gastrol safarlarda bo‘lishadi. Bu bilan

ularning “G‘ijduvon kolxoz-sovxoz teatri” sahna asarlari yangidan yangi repertuarlari bilan boyitib boraverish ehtiyojini kengaytiradi.

G‘ijduvon kolxoz-sovxoz teatrida dastlabki mehnat faoliyati boshlagan ko‘pgina artist va aktyorlar kuni kelib respublikamizning va qo‘shni Tojikiston respublikasining taniqli va yetakchi artistlari va aktyorlari bo‘lib yetishishadi. Jumladan, sobiq ittifoq xalq artistlari Asli Burhonov, Ahmad Boboqulovlarni ayni vaqtda qo‘shni Tojikiston Respublikasining yetakchi teatrlarida yuksak ustoz sifatida e’tirof etiladi.

Shuningdek, o‘z vaqtida G‘ijduvon teatr truppasida faoliyat olib borgan ko‘pgina ustoz san’atkorlar O‘zbekistonning turli hududlarida samarali xizmat qilishdi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist Abdullajon Oxunov Yangiyo‘l teatrida, Tojikistonda xizmat ko‘rsatgan artist Solijon Farmonov Leninobod teatrida, Nusrat Hojiyev va Mastura Komilovalar Kattaqo‘rg‘on teatrida, kompozitor Rahimjon Mullato‘ychi Toshmuhammedov nomidagi Qarshi davlat teatrida, O‘zbekiston xalq artisti Nazokat Ne’matova Sadriddin Ayniy nomidagi Buxoro viloyat teatrlarida faoliyatlarini olib bormoqdalar.

1959-yilning oxiriga kelib, G‘ijduvon kolxoz-sovxoz teatriga “G‘ijduvon xalq teatri”ga aylantiriladi. Shu yildan boshlab teatr quchog‘iga xalq orasidan yetishib chiqqan juda ko‘p havaskorlar, yosh talantlar jalb etiladi. Xalq teatrining dastlabki faoliyati davrida Ahmadjon Nishonov, Yodgor A’zamovlar rejissyorligida “Yangi rais”, “Adashgan ota”, “Navbat sizlarga – farzandlarim” kabi sahna asarlari xalqqa taqdim etildi. Bu asarlarda Asad Rajabov, Egam Safarov, Sa’dulla Fatullayev, Tohir Avezov, Berta Mulloqandova, Saida Kamolova, Supiya Saidova, Muzaffar Ibrohimov, Shamsiddin Rajabov, Muhammad Shodiyev, Qurbon Husainov, Mohira Boboyeva, Munavvar Mo‘minova, Komil Aminov, Aslon Qobilovlar bosh va yetakchi rollarni ijro etdilar.

1966-yilda malakali mutaxassis rejissyor Hamroqul Karimov rahbarligida dramaturg Tohir Islomovning “Ulug‘ yo‘l boshida” nomli 2 parda va 5 ko‘rinishli dramasi sahnaga qo‘yiladi. Xalq teatri jamoasi bu asar bilan respublika xalq teatri ko‘rigida muvaffaqiyatli qatnashib, birinchi o‘rinni olishga sazovor bo‘lishadi va respublikaning birinchi darajali diplomini qo‘lga kiritishadi.

1969-yildan 1977-yilgacha mazkur G‘ijduvon xalq teatriga Ansor Otayev va Muhammadjon Shodiyevlar rahbarlik qilishadi. Bu davr teatr sahnalarida “Norbuloq fojiasi”, “Podani kim boqadi”, “Ojiza” va “Mullo mubtalo” kabi asarlar sahna yuzini ko‘radi.

1977-yildan 1982-yilgacha xalq teatri sahnasida T.Islomovning “Biz qaytamiz”, J.Teshaboyevning “Rostgo‘y”, Uyg‘unning “Parvona”, Maksim Karimovning “Insonlikka nomzod”, Shukrullaning “To‘ydan keyin tomosha”, R.Orifjonovning “Dahshatli kunlar” asarlari teatrning bosh rejissyori Hamroqul Karimov tomonidan sahnalashtirilib, xalqqa namoyish etiladi va teatr jamoasi bu repertuar bilan qo‘shni viloyatning boshqa tumanlarida gastrol safarlarda bo‘lib qaytishadi.

“To‘ydan keyin tomosha” asaridagi Foziljon obrazini Arslon Tohirov, ona obrazini Rahima Ibrohimova, onaning jiyani obrazini Bafojon Asadov va egachi obrazini Nazira Xudoyqulovalar zo‘r mahorat bilan ijro etadilar. Bu yosh aktyorlarning obraz yaratish mahoratini egallashida rejissyor Hamroqul Karimovning xizmati juda samarali bo‘ladi. Teatr sahnasiga olib chiqilgan “Dahshatli kunlar” asari 1982-yilda Buxoro viloyat madaniyat muassasalari va rejissyorlari seminarining yig‘ilishida namoyish etiladi va yuksak olqishlarga sazovor bo‘ladi.

1983-yilda xalq teatri Hayitmat Rasulning “Nilufar”, Haydar Muhammadning “Chiroyli ayolning iltimosi” asarlarini, shuningdek, Vosit Halilning “Gulbahor qani?” asarlarini tomoshabinlarga taqdim etadi.

Katta tarixiy yo‘lni bosib o‘tgan xalq teatri jamoasi respublikamiz turli tantanali Davlat tadbirlarida ham o‘z repertuarini yangi asarlar bilan boyitgan holda kutib oladi. Afsuski, mustaqillik yillariga kelib mazkur G‘ijduvon xalq teatri shtatlar qisqartirilishi va boshqa sabablar bilan o‘z faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘ladi.

Eng achinarlisi shundaki, ayni vaqtda G‘ijduvon madaniyat va istirohat uyi uchun mo‘ljallangan oz sonli shtatlar birligi G‘ijduvon shahridan uzoq bo‘lmagan binolarning 2 ta xonasida ijarada faoliyat olib borishmoqda.

Uzoq tarixga va katta tajribalarga ega bo‘lgan mazkur G‘ijduvon xalq teatri mavqeyini o‘z holiga qaytarishimiz, bu yerda yana ko‘plab sahna asarlari va yangidan yangi ijodiy ishlarni qayta jonlantirishimiz darkor. Bu ijod maskani yana ko‘plab yosh iste’dodlarni kashf etishini xalqimizga ma’naviy ozuqa berishida o‘z xizmatini ayamasligini xohlab qolamiz.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Teatr – bu ibratxonadir” degan chiroyli iborasi bilan yakunlashni joiz ko‘rdim. Biz albatta mazkur teatr faoliyatini qayta yo‘lga qo‘yish bilan xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishda va yoshlarimizni teatrga oshno qilib o‘stirishdek baxtga muyassar qilgan bo‘lamiz.

Foydalangan adabiyotlar

1. Xudoyev G‘. G‘ijduvon xalq teatri. Teatr jurnali. – T., 2011. № 5. – B.18.

2. Xudoyev G‘. G‘ijjak cholg‘usi ijrochilik an’analari. – T.: Muharrir nashr., 2014. – B.164.

“QO‘G’IRCHOQ TEATRI SAN’ATI:
YANGI DAVR VA TRANSFORMATSIYA”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI TO‘PLAMI

Ijodiy guruh rahbari: *L.Usmanova*

Muharrirlar: *M.Ashurova V.Yusupova*
Xudoyberdi Po'latxo'jayev
Rassom *Egamberdi Jabborov*
Sahifalovchi *O.Qulmurodov*
Musahhiha: *D.Riskiyeva*

Qog‘oz bichimi 60×84 1/16. Nashr tobog'i 31,5.
Shartli bosma taboq 31.0 Adadi 100.
Buyurtma No 07

«NORI» MCHJ bosmahonasi.
100011, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, A.Temur 4, 1-uy
Tel: 90 956 46 47